

Rus edebiyatının ölümleri

M.Y. Lermontov



Qora
ko'zlar

Rus adabiyoti durdonalari

MIXAIL YURYEVICH LERMONTOV



Qora ko'zlar

She'rlar, ertak, qisssalar

TOSHKENT – «O'ZBEKISTON» – 2015

UO'K: 821.161.1-3
KBK 84(2Ros-Rus)
L 44

Mixail Yuryevich Lermontov (1814–1841) jahon adabiyotining eng noyob iste'dodlaridan biri hisoblanadi. U ulug' Pushkin ijodiga havas bilan qarab, rus she'riyatini yangiladi. Bor-yo'g'i yigirma yetti yil umr ko'rgan bo'lsa ham, abadiyatga daxldor daho san'atkorga aylandi. Uning nasriy asarlari ham, ayniqsa, «Zamonamiz qahramoni» romani rus nasrini yuksak pog'onaga olib chiqdi. Muhimi shundaki, Lermontov ijodi chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosatiga berilgan qaqshatqich zarba bo'lishi barobarida, mazlum xalqlarni qo'llab-quvvatlovchi o'chmas erk qo'shig'iga aylandi.


Ushbu kitobni o'qib chiqsangiz, bunga o'zingiz ham ishonch hosil qilasiz.





VATAN

Mening vatan ishqim ajib muhabbat,
Bu ishqni yengolmas idrokim, zehnim;
Na qonlar to'kilib topilgan shuhrat,
Na mag'rur xotirjam orom-u tinim,
Na uzoq o'tmishdan aziz qissalar
Menda shod xayollar tug'dira olar.
Sevaman-u, ammo bilmayman nechun? -
Jimjit hamda mudroq dalalarini,
Mavj urib turuvchi keng o'rmonlarin
Va sho'x daryolarin, bari-barini...
Qishloqlar yo'lida yurmoqlik maza!
Chopsam aravada deyman, tun chog'i:
Hasrat-la qo'nimgoh izlagan lahza -
Duch kelsa kulbalar xira chirog'i.
Sevaman yoqilgan ang'izlar dudin,
Cho'lda yo'lga chiqqan karvonni - tunni,
Sevaman adirda yetilgan ekin -
Ichida oqargan qo'sha qayinni.
Ko'plar sezmas, men-chi: xursandman -
Xirmonlarni bo'liq ko'rganda,
Poxolli tomlarga dilbandman,
Menga yoqar o'yma darparda.
Bayram chog'i, shudringli kecha
Boqsam deyman yarim tungacha -
Hushtak bilan raqs nag'masiga,
Mast dehqonlar hangomasiga.



* * *

1

Otashin sevganim, u – sen emassan,
Menga yot husningda tovlangan hasham:
Men senda sevganim – o‘z o‘tmish g‘ussam
Va juvonmarg bo‘lgan yoshligim, bilsang.

2

Men sening chehrangga termulgan nafas,
Tushganda ko‘zingga mening ko‘zlarim.
Sirli bir suhbatga bandu so‘zlarim,
Ammo dil sen bilan suhbatdosh emas.

3

Men yoshlik yorim-la suhbat quraman,
Yuzingda izlayman o‘zga bir jamol.
Labingda bir labki, ko‘pdan beri lol,
Ko‘zingda so‘ngan ko‘z o‘tin ko‘raman.

1841

MAKTUB

Shamchirog‘ yonadi... Titroq qo‘l bilan
Yozib tugatardim so‘nggi jumlani,
Kulfatlar va dardlar holim qilib tang,
Ko‘ksimni qopladi tashvish tumani.
Menga tuyuldiki, sen go‘yo quvnoq –
Shu kun sog‘liq jomin keltirding bekor;
Yonarkan labda ishq bo‘sasi, biroq –
Kelib yonboshimda sen turding bekor...
Umrbod alvido! – Ammo, jonginam,
Kelgin bir yonimga, kelgin so‘nggi bor,
Jon chiqar nafasda biroz bo‘l malham,
Ko‘zlarimning o‘ti so‘nsin beozor.
Sovuq qo‘llarimni kelib tut bir zum...
Netayki, yiroqsan, yetmas ovozim!
Azoblar yutarman sening yo‘g‘ingda!



Dunyodan o'tarman sening yo'g'ingda!
Balki sen, u g'amgin ko'zlaring to'nib,
Ochib maktubimni o'qigan choqda
Tobutim ustida qo'shiq kuylanib,
Toparman makonim mangu tuproqda!..
Lekin sen yig'lama, birgamiz mangu,
Ruhim uchib borar qo'msab sen tomon
Va yoki xushvaqtlik payting topib u
Yuzingdan o'pishga tayyor har zamon...
Kech tunda qaytarkan ziyofatingdan,
Xilvat yotog'ingga kirarkan yolg'iz,
Chakkangda o'tli bir nafas sezarsan,
Oynadan topmasdan, tuning uyqusiz -
O'tar. Pok ruxsoring lovillar birdan,
Ko'ksingga yopishar allaqanday jon,
Bir sharpa tepangda miltirar shu dam,
Bir nido eshitib, bo'larsan hayron.
Shunda bil: bu - menman, chiqib tobutdan -
Alamli visolga kelibman birpas: -
Barcha soyalarga shu bo'g'iq maskan
Manzil bo'lmoqligi, axir, shart emas!..
Qachonki dabdaba va sayr chog'i
Qo'sh otli chanada yurganingda shod,
Ketingda sevgidan kuyib bor-yo'g'i -
Bir gusar turarkan xomush hamda mot,
Shunda ikkovlaring ko'ksidan nogoh
Sovuqlik o'tsa-yu yurak o'ynasa,
Gusar gangirasa, sen tortsang bir oh,
U qora mo'ylovin kek-la burasa,
Shunda jaranglaydi sipohiy metall,
Payqaysan bir soya - bequt peshona:
Yo'lingiz kuzatar o'lik ko'z behol,
U mening arvohim: telba - devona!..
Oh! Senga ko'p edi aytar so'zlarim,
Biroq susaymoqda ruhim dam-badam,
Ajel yaqinlashar, sezar badanim,
Darmonsiz qo'limdan tushmoqda qalam...

Alvido! Shuhrat deb behuda chopdim,
Otashin sevdim-u, ammo bahrasiz.
Har yoqda xiyonat va zahar topdim,
Vafoni topoldim sozimdan yolg'iz.

1829

TUN

(1830-yil 28-avgust kechasi)

Yolg'iz o'tiraman, jimjit, sokin tun,
Chirsillab yonadi tugayozgan sham,
Qo'yin daftaringa chizadi betin
Bir dilbar suratin qadrdon qalam:
O'tgan xotiralar asta jonlanar
Qonli pardalarda soya singari,
Barmoq-la ishora qilmoqqa shoshar
Menga ezgu bo'lgan damlarning bari.
So'zlarki, u o'tmish yillarda harchand
Dilimda qo'zg'ardi hayajon, qayg'u,
Yiroq-yiroqlarda lovillar, garchand
Unutgan bo'lsam ham ularni mangu.
U yerda o'tmishning skeletlari
Bir to'da bo'lishib turar sargardon,
Ammo skeletlar ichidan biri –
Bir mahal qalbimga edi hukmron.
Uni mumkinmidi hech sevmasligim?
Ayol nafratining zolim xanjari –
Menga sanchildi-yu, kuygan yuragim
Band bo'ldi ishqiga o'shandan beri. –
Uning qarashlari ayovsiz, yomon,
Xuddi bir sharpaday payimda kezar.
Mahkumman, o'lguncha u bermas omon,
Yozgani sevmaklik bo'lmas muyassar.
Oh, men boshqalarga qilaman hasad!
Ular oilada, tinch va xotirjam
Bemalol kulishar, bo'lishar xursand,
Sevinib o'ynashar osuda, beg'am.
Kulgim qo'rg'oshinday tuyular og'ir:
Chunki bo'm-bo'sh qalbning samarasi u...

Yo Rabbiy! Angladim, menga sen axir –
 Ko'p ajib sovg'alar tayyorlabsan-ku!
 Axir, bu qanday gap? Ilk muhabbatga
 Shunchalar dahshatli zaharni quymoq?
 Avvalo, jo'shdirib qonim makr ila,
 So'ngra sovitay deb kalaka qilmoq?
 Oh, istar edimki, bo'lak narsaga
 Bag'ishlasam ekan tuyg'um-tilagim,
 Ammo ilk ko'z yoshi!.. Bu hodisaga
 Ayting, kim beparvo chiday olur, kim?

1830

* * *

U dilbar, janubning qizg'in bolasi –
 Surgan xayol kabi go'zal-da g'oyat,
 Kim izoh qilipti: husn nimasi –
 Kelishgan ko'krakmi, xushbichim qomat,
 Yo shahlo ko'zlarmi? Lekin goho biz
 Buning hech birini go'zal demaymiz.
 So'z bilmas lablarni mumkinmas sevmak,
 Otashsiz nigohlar – bo'ysiz bir chechak! –
 Yo Rab! Ont ichaman, u edi so'lim!..
 Manglaydan to'zg'igan zulflarning ba'zan
 Oltin ipagiga tekkanda qo'lim –
 O'rtanib, tanimni qoplardi larza,
 Uning oyog'iga yiqilmoqqa shay,
 Der edim jonimni, jannatni beray,
 Toinki, menga bir nigoh solsa u,
 Shunday bir nigohki, lazzati – og'u.

1832

XANJAR

Ishqibozman senga po'lat xanjarim,
 Yorqin, sovuq o'rtog'imsan har nafas.
 Gruzin o'tga toblab qo'ygan seni jim,
 Yovuz jangga charxlagandir bir cherkas.
 Esdalik deb g'amli hijron ayyomi

Seni menga nilufar qo'l tutgandi,
Qon emas-u, bu gal tiniq ko'z yoshi -
Dard injusi tig'ing namlab o'tgandi.
Qora ko'zlar menga qarab termilib,
Sirli alam qayg'usiga to'lgandi,
Po'latindingay goh olovda barq urib,
Goho yana xiralashib so'lgandi.
Sen sevgimga tilsiz garov, hamrohim,
Musofirga sen o'rnaksan, ko'p ko'rkam.
Aynimasman, mening temir o'rtog'im,
Senday, senday men bo'lurman mustahkam!

1838

Maqsud Shayxzoda tarjimalari

YELKAN

Ko'rinadi yolg'iz oq yelkan
Zangor dengiz tumani arol..
Nelar izlar u yiroq eldan,
Nelar qoldi yurtida tanho?..
To'lqin o'ynar, shamol izillar,
Egik machta g'ijillar ingroq..
Afsus! U na baxtini izlar,
Na baxtidan qochmoqda yiroq!
Pastda moviy to'lqin tinmaydi,
Ko'kda quyosh qilar tilovat.
U — isyonkor, bo'ron tilaydi,
Bo'ronlarda bordek halovat.

KUZ

Dalalarda sarg'aydi yaproq,
Xazon uchar, xazon aylanar.
Qalin o'rmon qo'ynida biroq,
Yashilligin saqlar qayinlar.
Endi izlab qoya soyasin,
Maysazorda yonboshlab bir dam,

Kunduzgi zo'r mehnatdan keyin
Dam olishni suymas qo'shchi ham.
Jasur yirtqich bu horg'in palla
Yashirinmoq istab holi tang.
Tungi oy ham xira va dala
Tuman aro porlar kumushrang.

Xurshid Davron tarjimalari

...GA

O'ylama, rahmimga sazovor deb, yo'q,
Garchi qayg'ulidir so'zlarim biroz,
Tortgan azoblarim bo'lsa-da qattiq,
Ular cho'ng kulfatdan bir elchi, xolos.
Yoshman, dilda jo'shqin kuylarim bordir,
Bayronday bo'lmoqni istayman har dam,
U bilan qalbim bir, azoblarim bir, -
Koshki bir bo'lsaydi qismatimiz ham!..
Izlayman unday erk va unutilikni,
U kabi bolacha ishq ichra kuydim.
Sevdim tog' shafag'i, ko'pirgan suvni,
Yer-ko'kda uvlagan bo'ronni suydim.
Halovat izlayman u kabi faqat,
Bir fikr dastidan osuda on yo'q.
Orqaga qarayman - o'tganlar dahshat;
Oldinga qarayman - bir aziz jon yo'q!

N. F. I...vaga

Xush ko'rdim hayotim boshidanoq men
Ma'yus yolg'izlikda yashamoqni jim,
Keltirmayin deya odamlar rahmin,
Hayiqib, g'amimni yashirmay, lekin
Yashrinib yashadim o'zimdan o'zim.
O'ylardimki, menga neki qorong'u,
Baxtlilar uchun u tamoman mubham,
Qora o'ylarimni haydamas mangu
Do'stona lahzalar quvonchlari-yu

Bo'saning otashin alangasi ham.
She'rlarimda muhmal o'ylarimni men
Ifoda aylamoq istadim to'la,
Ushbu varaqlarni sen o'qib bir kun,
Meni yarashtirib qo'ymog'ing uchun,
Ehtiroslar ila, odamlar ila,
Ammo sen menga tinch nigoh ilamas,
Hayrat ko'zi ila boqding quyidan.
Bosh chayqab dedingki, aqling sog' emas,
Aqli sog' kimsalar bunday ish qilmas,
Bema'ni istaklar ko'r qilib qo'ygan.
Sening so'zlaringga ishonib bisyor,
Yuragimga teran kirib bordim jim,
Va unda men shuni bildimki, zinhor
Sirli narsalarga bekordan bekor
Intilmagan ekan o'zicha aqlim.
Yulduzlari bilan qarzga berilgan,
Gumbazga u bejiz boqmagan purg'am,
Bejiz intilmagan Haq va'da qilgan
Va men yillar o'tib, tafakkur bilan
Anglab yetadigan narsalarga ham.
Lekin beshikdanoq beshafqat, qizg'in
Xulqimga men doim yem bo'p kelaman...
Qancha alam bo'lsa, tatidim barin,
Mungli maqsadlarning mungli o'ylarin
Yurakdan kechirmay, bilmay o'laman.

1831-YIL, YANVAR

Mash'um o'lim chohi uzra, o,
Siyraklashar oqish tumanlar,
O'tmishlarda o'tgan polvonlar
Yana bo'lar qarshimda paydo.
Ular imlar, chorlar, uqaman,
Kuylayman ergashib ularga,
To'lib qizg'in hissiyotlarga,
Ortimga qarashga qo'rqaman -
Qo'shig'imga aralashmasin

Maishiy va dunyoviy saslar;
So'nggi damda dimog'dor kaslar
Va azoblar yodga tushmasin,
Tavqi la'nat osgan bir gala
A'yonlarni eslamayin, bas!..
– Og'ushlari og'uga to'la,
Baxtlari ham yolg'onsiz emas.

ERK

Onam edi – achchiq hasrat,
Otam edi – qodir qismat,
Og'alarim, ular garchand,
Odam edi, lekin harchand
Ko'ksimga ko'ks ochmadilar,
Xor etdilar,
Or etdilar,
Men sag'irni quchmadilar!
Lekin bordir Parvardigor
Ato etgan yoshgina yor,
Erkinligim – erkam manim,
Erkaginam – erkim manim.
Beqiyosim – ul noilam,
U baxsh etdi menga bo'lak,
Ota-ona, ham oila,
Onam bo'ldi dasht-u dala,
Otam bo'ldi olis falak,
Ulg'aytirdi meni ular,
Erkalatib, bilmay tinim,
Qarag'aylar va qayinlar,
Bo'ldi manim og'a-inim.
Otga minib, aylasam gasht,
G'amxo'r bo'ldi dala-yu dasht,
Tunda kezsam izlab huzur,
Oy sochadi yo'limga nur,
Og'a-inim yozning kuni,
Soyasiga chorlab meni,

Olisdan qo'l to'lg'ab yuvosh,
Kulib menga irg'aydi bosh.
Erkim mening bag'rimda, bas,
Dunyoday keng – quchib bo'lmas!

* * *

Tush deb ata umid qilsalar,
Rost deb ata – eshitsang yolg'on.
Maqtasalar, ishontirsalar,
Ishonma, bas, ishqimga ishon!
Bunday ishqqa ishonmay bo'lmas,
Sir yashirmas nigohim, billoh,
Farishtasan, riyoni bilmas,
Senga riyo qilmog'im – gunoh!

JANG

Ikki osmon o'g'li – ikki jangari
Uchib, boshim uzra soldilar chuvvos,
Nuqra edi birin shokilalari,
Boshqasin egnida – rohibcha libos.
Ko'rib raqibini darg'azab sulloh,
Yoshgina jangchiga achindim, biroq
Uning yopinchig'i ostidan nogoh
Ko'zimga chalindi momaqaldiraq.
Olov purkab burun parraklaridan,
Otlari pishqirib qoqardi qanot,
Girdibod chekindi gulduraklardan,
Yerga qulab tushdi mag'lub qora ot.

* * *

Qo'y endi behuda g'amxo'rliklarni,
O'tgan kunlarimdan gap ochma nuqul,
Ko'proq sevishingga sabab bo'larli
Biror narsa kovlab topishing mushkul!
Sevasan, bilaman, shuning o'zi bas,
Kimni sevishingni bilish shart emas,



Senga ko'nglim ochsam, ochilar yara,
Hayotim shunchalar bo'm-bo'sh va qora.
Shunday go'zal qalbing tabarruk baxtin
Qaro qilgim kelmas, aytolmayman, o,
Bunday muhabbatga arziyman deb men,
O'zim ham qadriga yetaman deb yo,
Yurak ardoqlagan nimaiki bor,
Yurak uchun bu kun zahar ham laziz,
Endi bu yurakka iztirob, ozor
Bir hamroh, bir aka yo mulkday aziz,
Mayli, erkalovchi so'z aytib ma'sum,
Mukofoti uchun jonimni so'ra,
Ammo o'tmishimdan gap ochma, do'stim,
Dardimni dasturxon qilgim yo'q sira.

* * *

Hijron so'zin qilsa-da takror,
Qalbing to'la umid va ishonch,
Sen deysanki, o'zga hayot bor,
Ishonasan unga... xo'sh, men-chi?..
Men jafokash! Meni qo'y, tinch yot:
Bor bo'lsa ham qayda u olam,
Yuragimga sig'mas qo'sh hayot!
Menga yetar bitta hayot ham.
Qisqa yo'lda qiynalgan, deylik,
Uzoq yo'lga tusharmi qaqshab?
Ezib tashlar meni mangulik,
Dam olmasdan yashashim – dahshat!
Abad ko'mdim o'tmishni, biroq,
Kelajakka emasman intiq,
O'z tuprog'in oldi-ku, tuproq,
Qaytib bermas endi u ortiq!..

* * *

Ulug' arbob!
Yo'qdir bunda mukofot –
Sening shavkatingga munosib evaz!
Uni ko'kdan izlar nigohlar, hayhot,

Odamlar ichidan uni topolmas.
Ammo ul sharaflı jasoratingni
Beg'araz sadoqat saqlar yaxshiroq,
O'g'ling ham eshitib sening otingni,
Qalbida qo'zg'olar faxrli titroq.
Boshing uzra qattiq azangni tutib,
Kelajak avlod ham seni siylaydi,
Ko'zidan yoshini astoydil to'kib,
«Bu odam Vatanni sevardi!» deydi.

* * *

Ajralishdik, ammo suvratingni men
Avaylab saqlayman ko'ksimda omon:
Yaxshi yillarimning arvohidayin
Shodlik baxsh etar u ko'nglimga hamon.
Meni jalb etsa-da yangi ishq, havas,
Unuta olmadim suvratingni, oh,
Tashlandiq butxona – butxonadir, bas,
Yiqilgan but esa – baribir iloh.

* * *

Istamayman, a'yon deb bilganlarim
Topmog'ini maxfiy qissamdan xabar,
Qanday sevib, nechun qiynalganlarim
Faqat Xudo bilar, vijdonim bilar!..
Ularga berar qalb hissiy hisobot
Va faqat ulardan kutadi karam,
Lozim ko'rgan bo'lsa azobni qay zot,
O'zi bersin mening jazoyimni ham,
Jaholat ta'nasi, odamlar kuni
Yuksak qalbga g'amdan sololmas soya,
Qancha pishqirmasin dengiz to'lqini,
Yiqilib tushmas-ku, xarsangtosh qoya,
Bosh urib bulutlar ichra quyoshga,
Bas kelar ikki zo'r kuchga u mangu,
Momaqaldiraqdan, bo'rondan boshqa
Hech kimga ishonmas o'ylarini u...

* * *

Sarg'aygan bug'doyzor sokin mavj ursa,
Shamolda shovullab tursa yosh o'rmon,
Yashrinib yashil barg ostiga kirsas,
Qizil olxo'rilar bog'larda pinhon,
Sepib barglariga muattar shabnam,
Lutf ila bosh chayqab buta tagidan,
Qizg'ish shom payti yo zarrin subhidam,
Kumush marvaridgul kulsa noz bilan,
Berib xira tushga qandaydir mazmun,
Muz jilg'a jarlikda o'ynoqlab chunon,
O'zi tug'ilgan u tinch o'lka nazmin
Shivirlasa menga qilib bir doston,
Ko'nglim g'ashliklari ketar o'shanda,
Shunda manglayimdan ajinlar yitar -
Yerdagi baxtinga shunda qo'l yetar,
Falakda Xudoni ko'raman shunda...

* * *

Gul bolaning tug'ilishini
Olqishlar bu kechikkan she'rim.
Duo qilsin, qo'llasin uni
Yer-u osmon malaklari jim!
Otasiga bo'lsin munosib,
Onasiday, suyuk, muloyim,
Bo'lsin ruhan xotirjam, bosiq,
Haqiqatda hurlarday qoyim.
Bilmasin u muhabbat jabrin,
Chalg'itmasin shuhrat xayoli,
O'ynatmasin ma'sum ko'zlarin
Yolg'on dunyo, yolg'on jamoli,
Yot zavqlardan, o'z quvonchidan
Izlamasin teran sabablar,
Shunda olam balchiqlaridan
Qalbi omon, ko'ngli oq chiqar!

So'zlar borki, ma'nosi
Arzimas yo anglanmas,
Va lekin hayajonsiz
Ularni tinglab bo'lmas.
Bu so'zlar sadosida
Istaklar bor telbavor!
Ayriliq yoshlari va
Visol titroqlari bor.
Alangadan va nurdan
Tug'ilgan so'zlar, o, bas,
Dunyo shovqinlaridan
Javobini topolmas;
Butxonada, jangda, yo
Qachon, qayda bo'laman,
Eshitilsa bu sado,
Darhol tanib olaman.
Ibodatim to'xtatib,
Tinglayman uni xushlab,
Jangda bo'lsam, hattoki
Chiqaman jangni tashlab.

KELISHUV

Tushunarsiz do'stligimizni
La'natlasin olomon oylab,
Mayli, g'iybat qilsinlar bizni,
Yuz o'girsin sendan oilang.
Ammo kibor butlar oldida
Tiz cho'kmayman, bu o'ta azob,
Senga o'xshab bilmayman bunda
Sevgi bormi, bormi yo g'azab.
Senga o'xshab o'ynab-kulaman,
Ajratolmay kim ins-u kim jin:
Chiqishib sog', telba bilan ham,
Yashayman o'z yuragim uchun.
Dunyoviy baxt bizda qadsiz,



E'zozlanar boy odam faqat,
Gar xiyonat qilmasaydik biz,
Qilmasdilar bizga xiyonat.
Olomonda topishgandik biz,
Ayirmoqda, mana, g'ayriliq.
Xafa edi bizdan sevgimiz,
Xursand bo'lar endi ayriliq.

Sulaymon Rahmon tarjimalari

BORODINO

– Qani, amakijon, aytib beringiz,
O't ketib, o'rtangan Moskva bejiz –
Faranglarga berilmagan-ku?
Axir bo'lgandir-ku, beomon urush,
Bo'lganda ham qanday, ketguday es-hush
Borodino kuni Rossiyaning beiz –
Chiqmas yodidan mangu!
– Ha, bizning zamonda mardlar bor edi,
Sizga o'xshamasdi, shiddatkor edi.
Sizlar botir emassiz.
Ularning qismati bo'lmishdi yomon
Talay mardlar maydon aro berdi jon.
Bo'lmasaydi taqdir amri beomon
Ketmas edi Moskva, esiz!
Biz uzoq indamay chekinar edik,
Alam qilar edi, jang kutar edik.
Chollar po'ng'illar birdan:
«Nima bu, shu yerda o'tadimi qish?
Komandirlarimiz bajarolmas ish
Yovlarning mundirin kerakdir yirtish
Rusning nayzasi bilan».
Topdik oxirida katta bir maydon,
Bemalol sayohat qilurlik sayhon,
Kichik istehkom qurdik.
Yotamiz quloqni unda dik tutib,

Tonggi nurlar bilan yaltiraydi to'p,
O'rmonda faranglar har qayda, to'p-to'p
Kezib yurganlarini ko'rdik.
Boplab turib men ham to'pni o'qladim,
O'ylayman: «do'st»ni bir qo'noq qilaykim!
Qarab tur, og'a musyo:
Kurash ekan, hiylaning ne keragi bor?
Bizlar saf tortamiz misoli devor,
Ona Vatan so'rsa, bizlar boyakbor
Boshni ham beramiz-ku!
Ikki kun ham o'tdi otishmalardan.
Nima manfaat bor bekorchilikdan?
Kutdik uchinchi kunni.
Eshitilib qoldi har yoqdan ovoz:
«Tezroq ilg'or safga o'tib olsang soz».
Dahshat qirg'inining maydoniga boz
Tushadi ko'lkasi tunning.
Zambarak tubida men mudrar edim,
Toki tong otguncha eshitar edim
Faranglarning shod sasin.
Biroq bizning manzil ochiq, jim yotar,
Kimdir majaq dubulg'asin tuzatar,
Kimdir murtin chaynab, nayzasin artar,
Juda oshgan zardasi.
Tong asta yorishib kelish bilanoq,
Qo'zg'alishdik misli momaqaldiroq,
Saflar orqasidan saf.
Bizning mard polkovnik edi qahramon,
Shohga navkar, soldatlarga otaxon...
Biroq, afsus, chavaqlanib berdi jon,
Yotar nam yerda uxlab.
O'lar ekan, aytdi, ko'z ochib tiyrak:
«Yigitlar, Moskvani qutqazmoq kerak,
Moskva uchun o'lsang oz,
Shuncha og'aynilar u deb o'lgandek!»
Borodino jangida qasamyod etdik
Va boshlarni mardona o'limga tutdik,
Hammamiz ham shovvoz.

Shunday kun keldiki! Tutun orasi,
Bulutday siljidi farang qorasi
Bizning istehkom tomon.
Rango-rang tamg'ali yurt botirlari,
Dubulg'asi dumdor saf-saf suvori,
Ko'zimiz oldida kelmoqda bari,
Ro'baro'dan yonma-yon.
Bunday jangni sizlar hech ko'rmagaysiz!..
Bayroqlar soyaday ko'chardi izziz,
Yer-ko'k tutun, olov...
Qurol-aslahalar, to'plar ovozi,
Nayza sanchib tolmish el nayzabozi,
O'lganlarning qonli tog'day tanasi
O'qlarga to'sig'-u g'ov.
Ruslarda botirlik qancha mustahkam,
Ekanin o'sha kun ko'rdi dushman ham,
Ko'rdi nayzaning kuchin.
Yer ham hansiradi ko'kragimizday,
Aralashib ketdi ot, odam birday,
Minglab zambaraklar o'kirib sherday
Olardi yovdan o'chin...
Qosh qorayib qoldi. Biz esa tayyor
Ertadan qattiq jang boshlashga takror,
Kurash oxirigacha.
Do'mbiralar birdan dirillab qoldi,
Dushmanlar chekinib, yo'lin ters soldi,
Sanadik, kim bor-u va kim yo'qoldi,
Do'stlardan qoldi necha!
Ha, bizning zamonda mardlar bor edi,
Azamat, dovyurak, shiddatkor edi:
Sizlar botir emassiz.
Ularning qismati bo'lmishdi yomon:
Talay erlar maydon aro berdi jon.
Bo'lmasaydi taqdir amri beomon,
Ketmas edi Moskva, essiz!

G'afur G'ulom tarjimasi

SHOIRNING O'LIMI

Halok bo'ldi shoir! – nomus tutquni –
Ko'ksida olovli qasos, qo'rg'oshin,
Iflos fisq-u fujur chulg'adi uni,
Yiqildi xam qilib u mag'rur boshin!..
Chirkin tuhmatlarga, sharmisorlikka
Shoirning vijdoni berolmay bardosh,
O'zi burungiday tanho va yakka
Kiborlarga qarshi ko'targanda bosh,
Uni o'ldirdilar! O'ldirdilar, endi
Yig'lashlar, behuda quruq maqtashlar,
Ayanch shivir-shivir, o'zni oqlashlar
Ne hojat? Taqdirning hukmi yuz berdi!
Siz emasmi, avval yovuzlik bilan
Ozod, jasoratli sozin quvganlar,
Siz emasmi, axir sal yiltillagan
Cho'g'dan ermak uchun yong'in qilganlar?
Mana endi, quvnang... Shoir eng so'nggi
Og'ir azoblarga topmadi iloj:
Ajoyib bir geniy sham kabi so'ndi,
So'ldi tantanali, yashnagan gultoj.
Shoirning qotili bemalol, hissiz
Sovuqqonlik bilan olardi mo'ljal...
Najot yo'q: sovuq qalb tepardi tekis,
Qo'li qilt etmadi o'q uzgan mahal.
Sira ajab emas! U bizga yuzlab
Qochoq kelgindilar kabi, uzoqdan
Omad dardi bilan amal-mansab izlab
Taqdir izmi bilan kelgan bevatan,
Oyoq osti qildi tuban nazar-la,
Begona tuproqning odat, tilini,
Shuhrat-sha'nimizdan u alamzada,
Anglay olmasdi bu qonli lahzada
Kimga ko'targanin yovuz qo'lini!..
O'ldirildi shoir – quchdi yer qa'ri,
O'sha so'nik rashkning qurboni bo'lgan,
O'zi ajib kuch-la tarannum qilgan,

Yot qo'l-la, o'zidek qatl etilgan,
Noma'lum, beozor kuychi singari.
Dilkash do'stlik, tinch rohatdan ketdi-yu, nechun
O'tli hislar va erksevar qalbin bo'g'uvchi
Bu g'arazgo'y kibor to'pga nega yo'l oldi?
Yoshligidan odamlarni bilsa-yu, nedan
Shunday pastkash ig'vogarga qo'l berdi ekan?
Soxta mehr-u yolg'onlarga nega inondi?
Asl gulchambarin olib uning atayin,
Kiygizdilar lavr ichra tikanli chambar.
Uning shon-shuhratli porloq manglayin
Qattiq poraladi yashirin nishtar.
Pastkash nodonlarning makr-u ig'vosi
Zaharladi uning eng so'nggi damin.
U o'ldi – qalbida qoldi qasosi,
Aldangan umidning yashirin alami.
Ajoyib qo'shiqlar tovushi tindi,
Kuychining oshyoni tor va qorong'u.
Ajoyib qo'shiqlar yangramas endi,
Muhr lablariga bosildi mangu.
Siz pastkashlik bilan shuhrat to'plagan
Otalarning kibor, shum avlodlari,
Siz, baxt o'yinida haqir va nolon
Nasllar xokini kulday toptagan,
Taxt yonida turgan ochko'z olomon!
Ozodlik, Geniy va Shon jallodlari!
Qonun soyasiga pusasiz faqat,
Loldir qarshingizda sud va haqiqat!..
Ammo, ishrat bandalari, tangri hukmi bor,
Dahshatli hakam bor, u kutar sizni:
Oltin jarangiga uchmas hukmdor,
Olddan bilar fikr-u ishlaringizni!
U choq behudadir shum bo'htoningiz:
Jonga oro kirmas makr qonuni.
U mahal jamiki iflos qoningiz
Yuvolmas shoirning qutlug' qonini!

Asqad Muxtor tarjimasi



1

Sarg'aya boshlagan dala mavj urib,
Yelda shuvlaganda g'uborsiz o'rmon,
Bog'da pushti olu ayshini surib,
Yashil barg bag'riga bo'larkan nihon.

2

Xushbo'y va yarqiroq shudring sochilib,
Oltin sahar yoki shom shafag'ida –
Marvarid gullari oppoq ochilib,
Landish mo'ralagan buta tagida.

3

Teran jarda o'ynab salqin, sho'x buloq,
Betinch, xira tushga g'arq etib o'yni,
Tinch yurti – yer qa'ri haqida uzoq
Menga so'ylar ekan sirli bir kuyni.

4

O'shanda ko'nglimning tashvishi tinar,
Manglaydan ajinlar ketar shu zamon,
Ham yerda bo'laman baxtga muyassar,
Tangrini ko'raman ko'kda begumon!..

BARG

Eman bargi uzilib tushdi o'z butog'idan,
Cho'lda pirpiray ketdi, bo'ronda titrab dir-dir.
So'ldi sovuq dastidan, ham g'urbat qiynog'idan,
Qora dengizga yetdi sarson pirpirab axir.
Qora dengiz bo'yida turar navnihol chinor,
Ko'k shoxlarin erkalab pichirlar yel har mahal,
Ko'k shoxlarda tebranar jannat qushlari qator,
Dengiz malikasini maqtab kuylashar g'azal.
Bosh qo'ydi yuksak chinor ildiziga bevatan,
Yolvorib so'rar mungli boshpana ozgina vaqt.
Ham shunday der chinorga: «Sho'rli eman bargiman,
Yetilganman ertaroq shafqatsiz yurtda, bebaxt.

O'ksiz hamda maqsadsiz dunyo kezdim ko'p chog'lar,
Sarg'ayib, so'ldim axir, beuyqu va beorom.
Qabul et, o'z qo'yniga olsin zumrad yaproqlar,
Ajab qissalarim bor, aytgan-la bo'lmas tamom».
– Boshimga uramanmi? – deydi navnihol chinor,
Sen – yuviqsiz va so'lg'in, mening bargim beg'ubor.
Ko'pni ko'rgansan, ammo ertaklaring na darkor?
Jannat qushlari sayrar, ko'pdan quloq beozor.
Yo'ldan qolma, yo'lovchi, seni bilmayman aslo,
Meni sevadi quyosh, yashayman u-la tengsiz;
Shoxlarimga keng quchoq ochib bergan keng fazo,
Ildizlarimni esa yuvadi salqin dengiz.

Mirtemir tarjimalari

MONOLOG

Inon, bu olamda xo'rlik ko'rish saodat,
Chuqur bilim, shon-u shuhrat orzu-istagi,
Zakovat va erkinlikka jo'shqin muhabbat,
Biz ularni ishlatmasak, nedir keragi!
Biz, shimolning bolalari, shu yer o'tlari –
Kabi oz vaqt gullaymiz-u, so'lamiz tezroq...
Qishning kulrang ko'kidagi quyosh singari
Hayotimiz bulutlidir. Ammoki uzoq
Davom etmas bir xildagi uning oqimi...
Ham vatanda nafas olish qiyin ko'rinar,
Yurakka ham og'ir botar, ko'ngil ham g'amli...
Na sevgini va na totli do'stlikni bilar,
Yoshligimiz azob chekar bo'ronlar ichra.
Yovuzlikning zahri uni etadi xazon,
Haroratsiz hayot jomi achchiqdir juda,
Biror narsa ko'nglimizni etmaydi shodon.

...GA

Hey, fisq-fujurlar afv etilmasin!
Nahot shumlarga bor metin bir qalqon?
Ularni nodonlar ulug'laybersin,
Ularga o'zga soz yangrasin chunon,
Ammo sen to'xtagil, kuychi, to'xta, bas!
Oltindan gulchambar seniki emas.
Jonajon vatanda quvg'inlikni san
Erkinligim deya maqtagil har vaqt.
Yuksak aql-u idrok va ko'ngil bilan
Tabiat ziynatlab qo'yipti barvaqt.
– Garchand sen yovuzlik olamin ko'rding,
Ammo bosh egmading va mag'rur turding!
Zolimlar hayqirib, o'limlar dahshat
Solganda, sen erkni etding tarona.
Oxirat vahmidan cho'chiding faqat,
Bu dunyo qo'rqinchi senga begona.
Kuylading, xuddi shu o'lkada yolg'iz
Bir kishi kuyingni anglab, etdi his.

O'LIM

Yosh umr zanjiri uzildi-ketdi,
Yo'l tugab, yotoqqa borar vaqt yetdi.
U shunday bir yerki, yo'qdir istiqbol,
Na unda manguлик, o'tmish va kamol,
Na unda ehtiros, intizorlik bor,
Na shuhrat, na yig'i va nomus-u or.
Bir yerki, xotira, uyquda abad,
Yurak ham tor va zax tobutda behad, –
Qurtlar kemirishin sira sezmaydi.
Bo'ldi. Bu tashvishlar jonimga tegdi.
Nahotki, ko'ngilsiz suronli ishrat,
Nahotki, o'ylarda behuda zahmat,
Nahot, aqli oshib bo'lgan u nodon,
O'ziga binosi baland olomon,



Nahotki, qizlarning soxta sevgisi,
O'lim oldidan ham maftun qilg'usi?
Nahotki, men yana yashash istasam
Qalbimga to'lsin deb ilgarigi g'am
Va shunda muhabbat? Ey Parvardigor,
Bilarding, bardoshim yetmaydi zinhor!
Mayli, meni quchsin butun jahannam,
Xursandman, xursandman, azob cheksam ham,
Qiynalsam ham mayli, ikki bor ko'proq,
Faqat odamlardan bo'layin yiroq.

TO'LQINLAR VA ODAMLAR

To'lqinlar bir-birin quvlar izma-iz,
O'ynar va ko'tarar bo'g'iq bir shovqin.
Odamlar o'tadi ketma-ket, so'ngsiz,
Razil bir olomon go'yoki to'lqin.
To'lqinlarga issiq quyoshdan ko'ra
Sovuqlik, erksizlik bebaho, ko'rkam.
Odamlar qalb istar... Taajjub nima? –
Ular qalbi sovuq to'lqinlardan ham.

STANSLAR

O'lgunimcha sevmog' Tangri qismati erur!
Lekin o'sha Tangrining xohishi bilan
Meni sevgan kishi halok bo'lishi zarur,
Yoki menday qutulolmas azob chekishdan.
Ammo umid-armonimga qarshi irodam,
Sevaman-ku, sevilishdan qo'rqaman har dam.
Bo'm-bo'sh qoya tepasida bir o'zi yolg'iz,
O'rtoqlarsiz gullab o'sdi bahorgi chechak,
Uni bo'ron, jala kelib xarob etdi tez,
Ammo qoya turmoqdadir ilgarigidek,

Ammo unda ko'rkam chechak yashnamas endi,
U do'llardan yakson bo'ldi, shamoldan sindi.
Shu singari taqdir zarbi ostida men ham
Cho'qqi kabi qimir etmay turaman hamon,
O'ylama sen, shu zarb mening tutarkan qo'lim,
Bu kurashda ehtimoldir qolishim omon.
Hislar emas, qadamimga to'la men hokim,
Mayli, baxtsiz bo'lay – ammo bo'lay bir o'zim.

* * *

Men yashash istayman! Istayman g'amni,
Muhabbat va baxtga achchiqma-achchiq.
Ular tantiq qildi mening aqlimni,
Manglayimni silab yubordi ortiq.
Paytidir, kiborlar istehzosi-chun
Beg'amlik tumanin hayday beomon.
Nadir shoir umri betashvish butun?
Okean okeanmi bo'lmasa bo'ron? –
Kulfat evaziga u yashash istar,
Og'ir azoblarga bo'lsa ham oshno.
Ohanglarni ko'kdan u xarid etar,
Behuda olmayman shuhratni aslo.

* * *

Men telbaman! Haqlisiz, haqli!
O'lmaslik bu dunyoda kulgu.
Siz tuproqda bo'lganda baxtli,
Nahot, qildim shuhratni orzu!
E'tiqodlar zanjirini men
Titratoldim hur aql bilan
Va nahotki, sirli dard o'tin
Farq qilmadim she'r otashidan?
O'xshamayman shoirga, hayhot!
Aldanganim ko'raman bu dam,
U singari dunyoga men yot,
Lekin yotman samo uchun ham!

Bilamanki, so'zlarim mungli,
Sizga oshno emas bu qissa.
Dildan yulib tashlayman uni,
Yo'qolsin deb u bilan g'ussa.
Yo'q... Bor umrim sarflab, idrokka –
Hukmronlik etolamanmi?
Ko'tarilay sizdan yuksakka,
O'zdan nari ketolamanmi?
Unutaymi ixtiyor bilan
Halok bo'lgan sevgimni bu kun.
Nahot bir choq jo'shib ishongan
Narsalarga ishonmas mumkin?

QORA KO'ZLAR

Yozning kechasida ko'pdir yulduzlar:
Nechun sizga bir juft shulardan faqat.
O, janub ko'zlari, timqora ko'zlar,
Ko'ngilsiz edi biz uchrashgan soat.
Har kimki so'rasa, tungi yulduzlar
Jannat iqbolidan qilar hikoyat.
Sizdagi yulduzdan, timqora ko'zlar,
Qalb uchun topdim men do'zax va jannat!
O! Janub ko'zlari, timqora ko'zlar!
Sizlardan o'qidim sevgi hukmini,
Men uchun tun va kun yongan yulduzlar –
Bo'lib ko'rindingiz o'shandan beri.

Ramz Bobojon tarjimalari

O'GIT

G'ussa cho'ksa, do'stim, dilingga,
Tabassum qil, quv g'amni nari.
Uyma qovoq, chekma aziyat,
Unut bo'lar payt yetib bari.

Yosh qizlarning aldoqlari-yu
 Toptalgan sha'n tuyg'ulari ham,
 Dilgirlikning mahzun damlari
 Arzimaydi chekmog'ingga g'am.
 G'animatdir bebaho umr,
 Balolardan o'zingni asra:
 Sevinch bolin yutoqib simir,
 O'zi kirib keladi hasrat.
 Odamlardan o'girmagil yuz,
 O'zgalarga o'rgatma aql.
 Axtarmasang yo'q fazilatin,
 Bir kun sevib qolmog'ing haqdir.
 Ne ko'ylarga solsa ham yurak,
 Yasha yurak amriga qarab.
 Hislar mavjin, bo'lganda kerak,
 Tiyyib qo'yish nima degan gap...
 Baxtsizdir, kim taqdirida bor
 Orzularin kechirib bir-bir,
 Baxt tuyg'usin yo'qotib oxir
 Bo'lar ekan baxtga sazovor.

1830

VASIYAT

Birpas o'tir boshimda, og'a,
 Oyoqlarim to'nib bormoqda.
 Aytdilarki, ahvolim og'ir,
 Umrim shami so'nib bormoqda.
 Tez kunlarda borursan uyga:
 Qo'y, men uchun qayg'urma ortiq.
 Nadir o'lim? Uchqur hayotda
 Bandasiga bu ham bir tortiq.
 Kimdir yo'qlab qolsa mabodo...
 Kim bo'lsa ham, so'ragani payt,
 Vatan uchun muhorabada
 Ko'kragidan o'q yedi deb ayt.
 O'lim topdi chin-halolidan -
 Jangga kirdi shoh uchun dadil,



Har daqiqa o'y-xayolida
 Yurt xayoli edi deb aytgil.
 Otam-onam, sen borganing chog',
 O'tgan bo'lar balki olamdan...
 Ochig'ini aytsam, ularni
 Ogoh etgim kelmas bu g'amdan.
 Birontasin omon topsang gar,
 Aytgil, xatga yo'qroq deb tobi.
 Yana aytgil, u ketdi jangga,
 Qaytmas urush tugamay toki.
 Qo'shni yashar ularga bir qiz...
 Yodga tushsa, o'rtanar bag'ir.
 Allaqachon... ajrab ketganmiz,
 U so'ramas meni... baribir.
 Sen unga bor haqiqatni ayt,
 Dardga to'lsin yuragi, mayli.
 Mayli, o'ksib-o'ksib yig'lasin...
 Halok bo'ldi, de, sen tufayli!

1840

PORTRETGA

Bola kabi u qo'ng'iroq soch,
 Mehr yog'ib turar yuzidan.
 Tinglamoqlik bag'ishlar quvonch,
 Bol tomadi har bir so'zidan.
 Odat etmoq yotdir ruhiga,
 Goh sevar-u, goh tez unutar.
 Ilon yanglig' sirg'alar ko'zdan,
 Qush misoli uchar-da ketar.
 Yosh, yarqiroq peshonasiga
 Hasrat bitmish, baxt bitmish darig'.
 Qalbi ummon tubidek sirli,
 Kunduz kabi ko'zlari yorug'.
 Bir qarasang — tiniq yoz kuni,
 Bir qarasang — qorli qish fasli.
 Tushunmaslik mumkindir uni,
 Mumkin emas, ammo sevmalik.

1840

* * *

A.O. SMIRNOVAGA

Yo'g'ingizda yuragim toshar,
Boringizda tutqich bermas so'z.
Sizga jiddiy boqmoq yarashar,
Menga hayrat to'la bir juft ko'z.
Nachora, siz so'zdan yuksakroq,
Qismatimdir sabr-u tamkinlik.
Kulgili hol bo'lmasdi bundoq,
Bo'lmaganda bunday g'amginlik.

1840

AHDNOMA

Mayli, bizning bu g'aroyib ahd
Olomonda qo'zg'asin nafrat.
Mayli, ular o'ylagancha bad:
Sen men uchun ma'shuqa faqat.
Tiz cho'kmasman, hatto bu dunyo
Sanamlari oldida zinhor.
Muhabbat-u nafratdan avlo,
Mukarramroq yana nima bor?
Sho'x davrada sendek charx urib
Aylanaman. Yaxshi-yu yomon —
Barcha ila teng suhbat qurib,
Yurak amri bilan yashayman.
Dunyoviy baxt chikora bizga,
Muhimi, biz uchun diyonat.
Biz sodiqmiz o'z-o'zimizga,
Qilolmaslar bizga xiyonat.
Til topishdik shunday daf'atan,
Ketmoqdamiz ajralib endi.
Bu quvonchsiz muhabbat edi,
G'ussa bo'lmas ayriliqda ham.

1841

Sa'dulla Hakim tarjimalari

DEMON (IBLIS)

Birinchi bo'lim

I

Quvg'indi ruh, qayg'uli Demon
Gunohkor yer uzra uchardi.
Mas'ud kunlar xayoli shu on
Ko'z oldidan bir-bir o'tardi:
Malak edi toza va ma'sum,
Xandon edi Arshi a'loda.
Hatto yulduz moviy samoda
Aylar edi unga tabassum.
Tashna boqar edi har zamon
Olov sayyoralar diyor,
Quyuq tumanlarning qo'ynidan
Asta kechgan karvonlar sari.
U zamonlar, dargohi ulug'
Xudovandni sevar, inonar edi,
Na kin, na shubhasi bor
Bu baxtiyor va to'ng'unch maxluq!
Bekor, beburd kechgan asrlar
Vasvasaga solmagan, imon
Toza edi... Tag'in nimalar...
Eslagani yo'q edi imkon!

II

Jahon dashti ichra bevatan
Kezar sarson, quvilgan nabi.
Yillar o'tar, yana yillarday
Navbat ketar, minutlar kabi.
Shod emas u, ki yerda xoqon
Fanoni der, istar farog'at,
Shuning uchun har yerda, hamon
Zavq olmasdan, sochar sharorat.
San'atining cheki yo'q ko'kday,
Xohishiga qarshilik ko'rmay
Shuncha kezdi, shunchalik yurdi...
So'ng nihoyat, ko'ngliga urdi.

III

Go'zal Kavkaz osmoni — shisha,
Qanot qoqar jannat matrudi.
Pastda Kazbek. Unda hamisha
Qor yarqirar — olmos hududi.
Chuqur jarda ilon inidek
Girdob o'rab ko'rinar Daryol.
Yelkasida ko'pik — baroq yol
Xuddi sherday sakraydi Terek.
O'ynoqi suv qo'ng'iroq chalar...
Tog' tepada kezgan jonivor
Ko'kda uchgan parrandaki bor
Hammasi ham hayratda qolar.
Yelkan kabi osmonda yurgan
Yengil qanot, oltin bulutlar
Uni birga olis janubdan
Shimol yoqqa kuzatib borar...
Zumrad daryo oqar to'xtamay,
Tepasida buyuk qoyalar
To'lqinlardan ko'ngil uzolmay
Bosh solishib mudrab qolarlar.
Salqin Kavkaz darvozasida
Dev qorovul kabi balanddan
Minoralar tog' yoqasida
Chiroy bilan ochilgan edi.
Ammo, mag'rur Iblis ko'ngilsiz
Xayollari sochilgan edi:
Nafrat yog'ar har nigohidan,
Tillarida achchiq haqorat,
Rozi bo'lmay o'z Ollohidan
G'azablanar edi u, faqat.

IV

Ko'z o'ngida bordi bir diyor:
Jannat kabi go'zal Gurjiston.
Maysa-gilam yozgan vodiylar
Go'yo chaman-chaman guliston.



Kumush kabi buloqlar jo'shqin
Jimirlaydi tubida toshi...
Shalolar sachratgan uchqun
Balki, gurji qizining yoshi.
Qora sochi bamisli sunbul
Suluv qizlar muhabbatini
Gul shoxida o'qiydi bulbul,
Marmar kabi musaffo tuni.
Quyuq soya tashlagan chinor,
Barglarini shabboda o'ynar...
Jin gul bosgan jarda gohilar
Qo'rqib-pisib yotar ohular...
Bunda sevgi, bunda shan hayot,
Yaproqlarning so'nmas shovqini.
Ammo, bular hammasi, hayhot!
Qo'zg'atolmas Iblis zavqini.
Bunda ming xil yam-yashil giyoh,
Nafas olar, g'uborsiz havo.
Bunda tinchlik o'zi bir navo,
Lekin, Iblis nafratli, evoh!
Oy nurida marvarid kabi
Gul bargida shabnam yaltirar.
Gurji qizning ko'zlari kabi
Ochiq ko'kda yulduzlar yonar.
Yana shunday go'zal tabiat
Buni asti xursand qilmadi.
Quvg'in shayton, badarg'a xilqat
Bu borliqni pisand qilmadi.
Toshday qattiq ko'ngli yumshamay,
Tuyolmadi na quvvat, na his.
Neki ko'rdi, sira xushlamay
Unga nafrat yog'dirdi Iblis!

V

Qari Gudal o'ziga atab
Keng, muhtasham hovli soldirdi.
Har toshida ming xasta, betob
Qullar qonli ko'z yosh qoldirdi.

Qo'shni toqqa sahardan tortib,
Ko'lka tashlar baland devori.
Qoyadagi zinadan o'tib
Yo'l boradi sho'x daryo sari:
Bu yo'llardan har kuni bir bor
Yelkasiga qo'yib ko'zani,
Yengil ko'chib go'yo suzgani,
Aragvaga chiqardi xumor,
Yosh Tamara — Gudal nadراسي
Hilpirardi shohi chodراسي...

VI

U zo'r qal'a tog' qirrasidan
Sukut bilan boqardi har choq.
Bukun bo'lsa, surnay sasidan
To'lib-toshgan har taraf, har yoq.
Qadahlarda toza musallas
Aks etadi qandilli chiroq.
Jam bo'lishgan yaqin-u yiroq
Katta bazm: hamma mast-alast...
Bukun Gudal qizin to'y etar,
Go'zal Tamaraning nikohi.
To'rda kelin, yashnab nigohi
Qizlar ichra oyni eslatar...
Uzoqdagi haybatli tog'lar
Berkitdilar quyosh yarmini,
Chapak chalib, o'ynab o'rtoqlar
Ruhlantirar qizlar bazmini.
Avji o'yin qizib turganda,
Childirmanı oldi kelinchak —
O'ynab ketdi... Har zarb urganda
G'uncha yozar edi bir chechak.
Pirpiratib hilila yengin
Goh uchardi qushdan ham yengil.
Goh tinardi, suzuk boqardi,
Qoshlarini nozik qoqardi,
Goho asta bukib tizzasin
Gilam uzra yo'rg'alab ketar.

Ilon kabi o'ynab gavdasin
Har nigohni o'zga band etar.
So'ng boladek kuladi o'zi,—
Mash'aladek yonadi ko'zi.
Bilmadimki, ba'zan kumush oy
O'ynagani xafif, yumshoq nur
Hayot kabi, yoshlik kabi boy
Bu kulgiga qanday tenglashur?..

VII

Ont ichaman, tundagi yulduz,
Kun botish-u sharqning hurmati
Bunday go'zal, bu kabi kunduz
Fusunkorni olam ko'rmadi,
Na Eronning buyuk sultoni,
Na jahonning biron xoqoni
Bu xil qizni ko'rolmagan hech,
Bu xil ko'zni so'rolmagan hech!
Haramlarning muzdek chashmasi
Inju kabi suvlari bilan
Oy baravar bir karashmasi
Go'zallarni juda ko'p ko'rgan.
Ammo, biron marta bo'lsa ham
Saratonda dim va issiq kech
Bunday qomat, bundayin sanam
U suvlarda hopitmagan hech.
Dona-dona marjondek suvlar
Uni ko'rmay o'tganlarini,
Armon bilan ketganlarini
Ehtimolki, asti bilmaylar.
Jahon ichra kimsa bir marta
Sutday oydin xilvat tunlarda
Bunday sochni silay olmagan,
Bu xil labga iz sololmagan.
Ont ichaman, bu yorug' jahon
Ayrilgandan beri behishtdan
Bunday chiroy ko'rmay, hech qachon
Ozmagandi aqldan-hushdan.

VIII

So'nggi safar o'ynar erka qiz...
Tog'lar! Gudal mash'alasini,
Ozodlikning sho'x bolasini
Balki, ko'rolmassiz erta siz.
Tushirindi qilib ertaga
Olib ketar kuyov bir umr.
Hayhot! Kimga nozini qilur?
Qanday ko'nar begona uyga?
U biladi. Ravshan diydasin
Nomuayyan shubha bosadi.
Ko'tarolmay goho siynasin
Kalta-kalta nafas oladi.
Uning butun harakatlari
Ifodali, sodda-to'pori
Xo'p kelishgan edi o'ziga.
Agar shu choq Iblis ko'ziga
Tushib qolsa, mabodo, bu qiz
Tikilgancha qotib qolardi.
Eslab ketib o'tmishni, yolg'iz
Bir oh tortib nafas olardi.

IX

Yohu! Iblis qizni payqadi,
O'sha zamon sezdi hayajon:
Shirin bir kuy go'yo biyobon —
Dashtday ko'ngli ichra tarqadi.
U yangidan muhabbat-sevgi
Chiroy sanamiga yo'liqdi.
To'ymay boqdi. Xayoli ezgu
Kechgan baxti bilan to'liqdi.
Es kitobi varaq yozarkan,
Saodatli kunlari bir-bir
Yulduz kabi tizilib pir-pir
Zanjir kabi o'tdi nazardan.
Bir gezli kuch bog'lab chambarchars
Yangi g'amga oshno bo'ldi u.

Unda sezgi tilga kirdi, bas,
Qoplab oldi ufqni qayg'u.
Tuydi sevgi halovatini:
Qayta yashash alomatimi?
Vasvasaga solgani qizni
Toplmadi aqlida mador.
Unutmoqmi? Yo'q, Parvardigor
Bunday kuchni, bundayin hisni
Unga asli berganmas edi,
Berganda ham u olmas edi.

X

Nikoh uchun oshiqar kuyov,
Kun botmasda yetib bormoqchi.
Sabri tugab ko'nglida zo'r dov,
Otga bosar ustma-ust qamchi.
Yetib keldi bexavf-u xatar
Aragvaning sohillariga.
Nortuyalar sohiblariga
Zanjir kabi ergashib qator,
Darmon ketgan kabi tizidan
Bitta-bitta ko'char izidan.
Yuki og'ir... Bu katta karvon
Olib kelar qayliqqa ehson.
Jangir-jungir o'ynar qo'ng'iroq,
Hali manzil olis, ko'p yiroq...
Senodalning hokimi o'zi
Kelar karvonning bo'lib ko'zi.
Belda kamar, qilich va xanjar,
Jim-jim etar oftobning tig'i,
Yelkasida osig'liq — ham zar,
Ham tilladan guldor miltig'i.
Qimmatbaho chakmon egnida
Shamol o'ynar barin qo'ynida.
Shohilardan tuzalgan egar,
Guldor yugan toy bo'ynin egar.
Tuxum kabi sag'ri gupurgan,

Go'yo birov unga suv purkkan,
Tezob, abjir, tusi bebaho
Asl saman, go'yoki tillo...
Qorabog'ning sho'x yugurdagi
Qulog'ini chimirar hamon,
Vahimaga to'lib yuragi
Ko'z tashlaydi to'lqinlar tomon:
Tor va xavfli ingichka bu yo'l
O'ng tomoni chuqur daryo, jar,
Qirra toshli buyuk qoya — so'l,
Har minutda kutar bir xatar.
O'zi ham kech. Qorli cho'qqida
Shafaq o'chay-o'chay deb turar.
Tuman bosdi. Tog'lar uyquda...
Karvon picha tezlab yo'l yurar.

XI

Yo'l ustida kichik bir daxma,
U daxmada ko'hna bir mozor,
Dushman qo'li bilan ming laxma
Bo'lgan qandaydir knyaz yotar.
Uni endi avliyo deylar,
Haqiga yuz ming duo deylar.
U yo'llardan bironta yo'lchi
Yo hayit, yo jang ketar bo'lsa,
O'sha yerda dam olib picha
Unga ibodat etar bo'lsa,
Saqlanardi musulmonlardan:
Xanjaridan, to'kar qonlardan.
Ammo, botir yurakli kuyov
Istamadi bu ibodatni,
Buzdi — go'yo o'chakishgan yov
Bobolari qilgan odatni.
Chunki, Iblis aldadi uni,
Xayolini aynitdi qo'ymay:
U o'yida, go'yo tinch tuni
Qaylig'ini o'pard i to'ymay.

Yohuv! Kimning sharpasi bo'ldi,
Ro'baro'dan, tog'oldi qirdan
Ikki soya ko'rindi birdan,
O'q chaqnadi. Vahima to'ldi.
Jasur knyaz churq etmadi ham,
Uzangida tip-tikka turdi.
Papog'ini bostirdi shu dam,
Uchar otga bir qamchi urdi.
Qo'lida turk qilichi yondi,
Burgut kabi olg'a tashlandi.
Yovvoyi dod, bo'g'iq bir fig'on
Tutdi butun vodiyni shu choq.
Uzoq davom etmadi. Bu on
Gurji erlar qochdi tumtaroq.

XII

Yana tinchlik bosdi vodiyni.
Yolg'iz, qonli murdalar yotar.
Yo'lcilarning aylab yodini
Mo'ltir-mo'ltir tuyalar boqar.
Talon bo'lgan katta boy karvon
Moldan asar qolmagan sira,
Xristianlar o'ligi uzra
Qora qushlar uradi javlon.
Shahid o'lgan bechoralarni
Otalari yotgan mozori
Chorlamaydi. Bechoralarni
Kimga yetar fig'on-u zori?
Aza tutib, uzoqdan — ulib
Onalari kelmas boshiga.
Olam to'lib qonli yoshiga,
Singillari turmas oh urib.
Qabrlari teppasida hech
Sham yoqilmas sahar, kunduz, kech.
Ammo biron muruvvatparvar
Yodgor etib o'tqizar bir but.
Osmonida yig'lar oq bulut,
Atrofida gul o'sar par-par.

So'ngra bundan yurar yo'lovchi
Befotiha o'tib ketolmas.
Uzoq yo'lda bo'lmay iloji
Bu yerlarda dam olur birpas.

XIII

Bug'u kabi tez uchar saman
Xuddi jangga oshiqqan kabi.
Ko'zi soqqa kabi o'ynagan,
Pishqiradi, titraydi labi.
Tog'lar bo'yi sakraydi goho,
Tuyog'idan yeldirim chaqnar.
Shamol nedir tinglaydi
Go'yo guv-guvida vahm siri bor.
Yeli chalkash bo'lib pirlpirar
Hushsiz, xuddi o'qday yugurar.
Ot ustida chalqancha tushib,
Go'yo sovuq yeldan uvushib
Yo'lchi yotar: oqargan rangi.
Oyog'ida mahkam uzangi
Shilq etadi, otning yoliga
Bo'yni tushar, boqmas yoniga.
Yugan tushgan uning qo'lidan,
Jilov tortmas otning yo'lidan.
Silon yopg'ich shunday qizil qon,
O'ng qon, so'l qon, hatto ufq qon.
Ey chopong'ich, abjir, qushqanot,
Kamon yoyi kabi uchgan ot,
Bahodirdek shart yorib jangni
Omon saqlay deding xo'jangni,
Ammo qanday yozug' bo'ldi bu,
Osetin o'qiga uchdi u!

XIV

Gudal uyi botdi azaga
Yig'i dodi chiqdi fazoga,
Eshigida odam yig'ilgan.
Kuyib-pishib bunda yiqilgan

Kimning oti? Bu bechora kim?
Hatto osmon javob bermas, jim!
Yuzlarida vahima-vahshat
Izlari bor, qo'rqinch va dahshat!
Usti boshi, yarog'lari qon,
Boshi, ko'zi, oyoqlari qon...
Ot yolini siqimlab qo'li,
Behush qotib qolgan bir yo'li.
— Sho'rpushona, baxtsiz kelinchak
Mahtal bo'lib kutganing keldi,
Ko'yida qon yutganing keldi.
Ammo senga qanday kulajak
Bir umrga yumilgan ko'zlar?
Axir, taqdir senga ne ko'zlar?

XVI

Bekam-u ko'st tinch oilani
Chaqmoq kabi bosdi bu kulfat.
Ko'nglini yeb qayg'u iloni
Musibatga bo'ldi qiz ulfat:
Qonli yoshga aylanib qalbi
Tomchi-tomchi oqdi ko'zidan.
Dami og'ir... ketdi o'zidan...
Go'yo boshi ustida kabi
Sochi to'zib yotgan o'rnida
Eshitilganday bo'ldi bir nido:
«Qo'y, yig'lama! Bekor bu yaxlit
Koshki, ko'zin yoshi sob bo'lsa,
Koshki, hayot shabnami taxlit
Yoshing murda uzra to'kilsa.
Yo'q! U faqat ravshan ko'zingni
Tuman kabi qoplab olajak.
Anor kabi shu qiz yuzingni
Misday qilib o'tda yoqajak.
Yoring bo'lsa uzoqda, bilmas
Sening chekkan oh-u zoringni.
Endi samo nurlari tinmas
Va erkalar nomizodingni.

U jannatda qo'shiqlar tinglar...
Bu — hayotning bachkana tushi,
Bir g'aribning fig'on, nolishi
Behisht mehmoniga ne denglar?
Yo'q, bu qazo asli qismatdir,
Inon menga, dunyo malagi.
Arzimaydi, ko'zingni art, tur,
Yig'lamoqning yo'qdir keragi.
«Samo xuddi bir dengiz,
Darg'asi yo'q, beyelkan.
Uchar hisobsiz yulduz
Tumanlarning qo'ynidan.
Cheksiz ko'm-ko'k vodiya
Parcha-parcha bulutlar
Iz qoldirmay ortida
Erkin qanot qoqurlar.
Ularga hijron, visol
Na g'am, na sevinch bermas.
Kelajagi orzusiz,
O'tmish uchun achinmas.
Bebaxt bo'lgan chog'ingda
Ularni yodingga sol,
Benasib va qaydsiz
Yashashni o'rganib ol!»
«Baxmal kabi yumshoq qora tun
Kavkaz cho'qqisini olganda,
Shirin so'zli fusunkor ochun
Jimib uyqusiga tolganda,
Sho'x va yengil yel yurib tog'da
Maysalarni o'ynagan chog'da,
Parrandalar bezovta bo'lib,
Gur uchganda vahimga to'lib,
Tok tagida gullar to'yguncha
Shabnam shimib, ochganda g'uncha,
Tog' ketidan oltin oy sekin
Ko'zlaringga nur quysa tekin,
Uchib borar bo'ldim oldingga



Sahargacha mehmon bo'lgali,
IRak kabi kipriklaringga
Jindakkina orom bergali...»

XVI

Borgan sari pasayib asta
Uzoqlarda tindi bu tovush.
Irg'ib turdi nigohi xasta,
Atrofiga boqdi qiz xomush.
Ko'kragidan bosdi iztirob,
Qayg'u bilan qo'rquv birlashdi.
Cho'chidi-yu, birdan qaltirab
Tuyg'ulari gupurdi, toshdi.
Qafasidan chiqdimi joni,
Vujudini yondirdi olov?
Unutolmay ajib nidoni,
Qiynaladi. Yo'qmikan ayov?
Sahar payti charchagan ko'zlar
Shiringina hey... uxlab ketdi.
Ammo, payg'ambarona so'zlar
Xayolini shart qulflab ketdi.
Chiroyining ta'rifi behad
Nomuayyan, soqov kelgindi
Qiz oldida boshini egdi,
Yangi oydek bo'lib sarviqad.
Nigohida chunon ham vafo,
Chunon mehr, chunon muhabbat
Bilan xafa boqardi, go'yo
Qizga achinganday u xilqat.
U na malak, na boshqa edi,
Na bu qizni qo'riqchi pari
Boshi uzra yashnamas edi —
Kamon nurlaridan chambari.
U do'zaxi ruh emas. Yonur.
Quvg'in shayton emas edi — yo'q!
Pok oqshomga o'xshardi to'liq,
Na kun, na tun, na zulmat, na nur!..



Ikkinchi bo'lim

I

«Qo'y, otajon, meni qo'rqitma,
Tamarangni urishmagin, bas.
Men yig'layman, ko'rgin... unutma,
Ki, bu yoshlar birinchi emas.
Olislardan kuyovlar bizga
Oshiqadir behuda, bekor.
Bu el to'lib yotibdi qizga!
Men hech kimga bo'lolmayman yor!
O, so'kmagin, so'kma, otajon:
Ko'rib turibsanki, kundan kun
Kuzgi bargdek yuzlarim so'lg'in,
Yovuz og'u ayladi qurbon!
Qarshi turib bo'lmaydigan vahm —
Bilan makkora ruh qiynaydi,
Meni halok etadi... qil fahm,
Achin! Nahot, ko'zing qiymaydi?!
Aqli aynib qolgan qizingni.
Hasratimni to'kay xudoga,
O'zi saqlar bu yulduzingni.
Mening uchun bu dunyo ichra
Vaqtichog'lik qolmadi sira.
Qo'y, ertaroq bag'riga olsin,
Tobut kabi u qora hujra...»

II

Uni xilvat bir monastirga
Eltib qo'ydi qavm-u qarindosh,
Qo'pol qildan bo'lgan ust-bosh
Yosh ko'krakni botirdi terga.
Baribir, naf bermadi biror
Rohibalik ust-boshi ham.
Yana o'sha: xayoli — mubham,
Avvalgidek ko'ngli beqaror.
Baribir, u hiylakor nido
Yo, sham yongan mehrob yonida,

Yo sajdaga qo'yganida bet,
Eshitilar hamon ketma-ket...
Ba'zan qora gumbaz ustida
Beiz, tovush chiqarmay sira,
Ko'rinardi u qiz qasdida
Yengil tutun qo'ynida xira.
Yulduz kabi nurlanar edi,
Aldab, qayga imlanar edi?

III

U monastir, ikki yog'i tog'
Salqin yerda o'rnashgan edi.
Terak, chinor — g'ujum ko'k yaproq
Atrofida o'ynashgan edi...
O'shalarining qo'ynida gohi,
Oraliqqa inganda kecha,
Ko'rinardi to tong otguncha
Oynasidan tanho yotog'in —
Jimillagan xasta nigohi
Yosh gunohkor qizning chirog'in:
To'rt atrofda, salqin soylarda
Tilsizlikdan qurigan sho'ri,
Sag'analar qorovuli but,
O'lik kabi saqlab bir sukut
Qatorlashib yotgan joylarda
Boshlanardi qushlarning jo'ri.
Toshdan toshga sakrab to'ymagan,
Qo'ng'iroqlar chalib o'ynagan,
Oppoq to'lqin urgan buloqlar,
Pastga tushib, go'yo o'rtoqlar
Hammasi bir bo'lishib, gullar —
Orasidan oqib guvillar...

IV

Shimol yoqdan ko'rinar tog'lar,
Ertalabki shafaq nurida
Vodiylarning qo'yni to'rida
Ko'kish tuman erigan choqlar,

Yuzin qibla tomon o'girib
Chaqirganda muazzin azon,
Qo'ng'iroqning savti o'kirib,
Monastirni uyg'otgan zamon,
Yosh gurji qiz tikka tog'lardan
Ko'za olib suvga tushganda,
Gul-g'unchalar ochgan bog'lardan
Parrandalar ko'kka uchganda,
Kumush qorli yuksak cho'qqilar
Aks etardi tiniq osmonda,
Kechga yaqin, quyosh botganda
Qizil nurga cho'mardi ular.
Hammasidan baland va mag'rur
Bulutlarni yorib, tepadan
Oq sallali, yo'l-yo'l to'n bilan
Kavkaz shohi — Kazbek ko'rinar.

V

Ammo bunday toza masarrat
Kirmas edi qiynalib yotgan
Gunohkorlik o'yiga botgan
Tamaraning ko'ngliga albat,
Olam unga begona edi.
Undagi bor narsalar butun
Azob uchun bahona edi —
Ham oppoq tong, ham qorong'u tun.
Yer yuzini bosganda tinchlik,
Mizg'imasdan kechalar bo'yi,
But oldida yiqilgan ko'yi,
Hushdan ketib yig'lardi sho'rlik.
Ho'ngir-ho'ngir yuksalgan yig'i
Go'yo daydi o'g'rining tig'i
Qo'rqitardi tungi yo'lchini.
Vahim qilib, bilmay tinchini
«Bu — g'orlarda bog'liq alvasti
Chekkan fig'on!» deb o'ylardi u.
Qulog'ini olmasdan asti
Horgan otni tezlar edi: «Chu!»

VI

G'am-hasratga botgan Tamara
Derazaning tagida tanho,
Xayollarga cho'milib goho,
O'tiradi yig'lab bechora.
Uzoqlarga tashlaydi nigoh,
Tun bo'yi hech tinmay kutadi...
Kimdir unga deydi: «Keladi!»
Chidolmasdan tortadi u oh.
Qayg'ularga to'lgan ko'z bilan,
Ajib, shirin, yumshoq so'z bilan,
Bekorlarga ko'rinmagan u,
Bekor erka qilmagan uyqu.
Ko'pdan beri orziqardi qiz.
Avliyolar uchun cho'ksa tiz,
Ko'ngli hamon unga ketganin,
O'zi bilmay nega ekanin,
Charchab, tolib og'ir kurashdan
Orom olay desa biron pas,
Bolish botar — bo'lib otashdan
Kuydiradi, ololmay nafas.
Sachrab turib qaltiraydi qiz
Go'yo ishq tundagi yulduz,
Ko'ksi, butun tani yonadi,
Nafas qisar, ko'zida tuman,
Tashna quchoq birdan qonadi,
Labda bo'sa eriydi shu on...

.

.

VII

Choyshab yozdi shom qorong'usi
Gurjistonning tog'-u toshiga,
Keldi Iblis toshib tuyg'usi
Monastirga — qizning qoshiga.
Lekin unga xalal bergali
Botinolmay gangidi uzoq.
Tayyor edi u, go'yo, shu choq

Yovuz niyatidan kechgali.
Ne qilishni bilmay, tentirab
Kezdi devor ostida sokin.
Havo tip-tinch. Shamol yo'q. Lekin,
Barglar undan qo'rqdi dildirab...
Ko'z tashladi tepaga asta;
Derazani lampa yoritar.
U angladi shunda birpasda:
Qiz kimgadir ko'pdan ko'z tutar!
Ana, chingar jaranglab ketdi,
Eshitildi kuylagan ovoz.
O, u qanday shirin, latif soz,
Zarbi ko'ngil tubiga yetdi...
Xuddi ko'z yoshidan birma-bir
To'kildi u tovush, to'kildi...
Muncha notinch yurak qurmag'ur:
Bardosh tugab, choki so'kildi.
U ashula shunday soz edi,
Shunday yumshoq dilnavoz edi,
Ki yer uchun atalib go'yo
Ko'kda to'qilgan ovoz edi.
Unutilgan do'st bilan yana
Ko'rishmakni ixtiyor yetgan,
Tunni xilvat topgan-u, pana —
Yo'llar bilan bu yerga etgan
Biron malak emasmikan bu?
Shunda Iblis eng birinchi bor
Muhabbatning dardini tuydi...
Nola chekib dili zor-u zor,
Ishq o'tida lovillab kuydi.
Qo'rqib, jilmoq bo'ldi bu yerdan...
Qanotini ko'tarolmadi!
Ajab! Quruq ko'zidan birdan
Yoshi oqdi... Hech chidolmadi...
O'sha joyda haliga qadar
Odam yoshi emas, o'sha yosh,
O'sha o'tdek yosh kuydirgan tosh,
Yakka, qora, kuygan tosh yotar...

VIII

Qizni sevar bo'lib kirar u
Marhamatli dil bilan shu choq
Vahti yetdi, kutilgan orzu
Ushaldi deb o'ylab, xush dimog',
Shu payt uning g'ururli qalbi,
Birinchi bor uchrashar kabi,
Intizorlik qaltirog'ini,
Lol va majhul sir qiynog'ini
Angladi... Bu qo'rqinch hol edi,
Yomon tasodifga fol edi.
To'g'ridan ham, kirsaki unda
Nur kiyingan jannat elchisi,
Ul gunohkor qizning soqchisi
Malak yashnab turardi tunda.
Shu choq qizni aylab sarishta,
Qanotiga olib farishta,
Asradi u yovuz dushmandan.
Pok ilohiy nurlar shu ondan —
Kir nigohni ko'r qildi butun,
Iblis ko'zin qopladi tutun...
Shunda shirin salom o'rniga
Og'ir itob eshitildi unga:

IX

«Ey niyati buzuv ruh, tunda
Kim chaqirdi seni, ayt menga!
Senga muxlis kishi yo'q bunda,
Ko'p erkinlik berma qaddingga.
Halogacha bu yerda birpas
Yovuzlik hech olmamish nafas.
Mening ishqim, pok sanamimga
Sola ko'rma qora izingni.
Ket! Uchirgim men yulduzingni,
Saqlanib qol!»
Va Iblis unga
Tahqir bilan jilmayib boqdi,



Nigohini rashk o'ti yoqdi,
Qaytalabdan o'tli dilidan
Eski nafrat zahari oqdi.
«U meniki!— dedi riyokor, —
Qiz meniki! Uni qoldir, bas!
Kech qolding sen, ey himoyakor
Men va unga sen hokim emas!
Qizning g'urur to'la ko'ngliga
O'z muhrimni bosib qo'yganman:
Sen ket, bunda men o'zim ega,
Men hukmron, uni sevganman!»
Shunda malak g'amgin ko'z bilan
U bechora qizga bir boqdi,
Qanotini ohista qoqdi,
So'ngra g'oyib bo'ldi ko'zlardan...

X

T a m a r a

O! Sen kimsan, so'zlaring tubsiz,
Do'zax yubordimi, yo jannat
Ne istaysan?

D e m o n

Sen go'zalsan, qiz!

T a m a r a

Gapir, kimsan? Javob ber, anglat!

D e m o n

Men, u menki, sen yarim tuni
Quloq solib tinglading uni.
Uning fikri oldi hushingni,
Uning dardin anglagan bo'lding.
Uning o'yi bilan liq to'lding.
U band etdi o'ng-u tushingni.
Men, u menki, e go'zal pari,
Kimsa sevmay, achinmay uni.

Qullaringa men yerda ofat,
Ozodlik va idrok shohiman.
Men — malaklar, ko'klarga dushman,
Tabiatga yovuz kasofat.
Lekin, mana, boq: dog'ingda men,
Tuproq kabi oyog'ingda men!
Men keltirdim egib boshimni
Ishqing mayin ibodati-la,
Eng birinchi yer azobi-la,
Eng birinchi to'kkan yoshimni,
Qabul ayla, ol go'zal, buni,
Yorit umrim saodatini.
Quloq solgil oh-u zorimga:
Birgina so'z bilan meni sen
Yana ko'kka qaytarolasan,
Ey parizod, qizg'an holimga;
Ishqing ezgu libosin kiyib,
Yovuzlikdan dilimni tiyib,
U dargohda porloq nur kabi,
Yangi malak, yosh bir hur kabi
Qayta yashar edim men u chog',
Rahming kelsin, ahvolimga boq,
Yalinaman, tinglagil meni,
Asiringman, sevaman seni!
Seni avval bir yo'l ko'rdim-u,
Ajalsizlik, hokimligimga
O'tli nafrat, qarshi bir tuyg'u
Chaqmoq kabi tushdi dilimga.
Beixtiyor yerning yarmi g'am-
Shodligiga hasad qildim men:
Senday yashash istadim men ham,
Sensiz uni fano bildim men.
Qonsiz qalbim jimirlab ketdi,
Umidli nur jonlandi unda.
Bir dard eski yara tubida
Ilon kabi qimirlab ketdi.
Sensiz nima bu abadiyat?

Sensiz nima menga mulk, niyat?
Quruq so'zdir, tutmas asodir,
Xudosi yo'q keng kalisodir.

T a m a r a

Ey makkor ruh, chekil, ey beor,
Inonmayman dushmanga, yo'qol!
Parvardigor... Hayhot! Bu ne hol!
Sig'ingani yo'q menda mador...
Halokatli og'u boshimni
O'rab olmish, to'kar yoshimni!
Ey hiylakor, ne kerak senga?
Tingla, meni xarob etasan!
So'zing otash, zahardir menga,
Gapir, nechun meni sevasan?

D e m o n

Ey go'zal qiz, nechunmi? — Hayhot,
Bilmam!.. Yangi hayotga to'lib,
Yangi ishqning asiri bo'lib,
Senda ko'rib baxtinga najot,
Jahannamning og'ir toshini
Jinoyatli boshimdan otdim,
Hechga butun o'tmishni sotdim
Kel, dardimning qil ilojini.
Shu qop-qora ko'zlaring, malak,
Ham do'zaxim, ham jannatimdir.
Quvg'indini etma ko'p halak,
Olov tushgan qalbini tindir.
Tingla meni, ishon, rost bilan,
Bu yerda yo'q ehtiros bilan
Seni shunday sevamanki men,
Asti bunday sevolmaysan sen:
Barcha o'yim, barcha niyatim,
Ochiq ko'nglim va hamiyatim,
Sha'n-u shavkat, hukmdorligim,

Butun umrim, butun borligim —
Hayotim-la sevaman, go'zal!
Yuragimga surating azal
O'rnatilmish edi ilgari.
Ajralmasdan mendan hech qachon
Ko'z oldimda yashnab u hamon
Birga yurgan edi, ey pari!
Bu shirin nom azal bor edi:
Ko'pdan menga hayajon solib,
Kecha-kunduz hushimni olib,
Qulog'imda jaranglar edi.
Mas'ud kunlarimda jannatda
Sen bilan men edim furqatda.
Oh, agar sen bilsaydingki, qiz,
Butun umr — asrlar beiz,
Huzur qilish va azob chekish,
Yovuzlikka maqto'v kutmaslik,
Yaxshilikka ehson ko'rmaslik,
O'zing uchun yashash, entikish,
Bu abadiy kurashda yana
Bekelishuv va betantana
Kun o'tkazish — qanday og'ir ish!
Ham achinish, ham achinmaslik,
Har narsani anglash va sezish,
Hech narsani ko'zga ilmaslik,
Hammasidan tahqir-la bezish!..
La'natini yog'dirib Xudo,
Dargohidan aylagach judo,
Tabiatning quchog'i butun
Muzday sovib qoldi men uchun.
Ko'z oldimda yastanib shunda
Moviylendi koinot, unda
Ko'pdan menga tanish, ziynatdor
Sayyoralar to'pini ko'rdim.
Oltin toj-la uchardi ular,
Oh, ne xo'rlik, baridan so'rdim,
Hech bittasi nazar solmadi,
Eski do'stni taniy olmadi.



Shunda qahrim kelib ularni,
O'zim kabi quvg'undilarni
Ro'baro' chaqirdim. Biroq,
U yovuz yuz, yovuz ko'zlarni,
Evoh! Taniy olmadim u choq.
Bu ahvoldan qiynaldim yomon,
Vahimaga to'lib shu zamon,
Qanotimni silkib yo'l oldim.
Qayga? Nechun? O'zim bilmasdan,
Eski do'stlar ko'zga ilmasdan,
Unutdilar... Men yakka qoldim:
Shundan keyin jahon men uchun
Behisht kabi tor o'ldi butun,
Oqimning hur istagi bilan
Borar joyin manzilin bilmay,
Besukun-u hamda beyelkan
Oqib ketayotgan kemaday;
Gohi paytlar saharda yolg'iz
Ko'k gumbazda qorayib yurgan,
To'rt tarafga o'zini urgan,
Xudo bilsin, qaydan, qay sari
Tinim bilmay bemaqsad, beiz
Uchgan bulut parcha singari
Men ham uchar edim beqaror
Hamdam izlab o'zimga zor-zor!
Insonga ko'p hokim bo'lmadim,
O'rgatmadim gunohlarga ko'p.
Yaxshilikni tamom xo'rladim.
Odillikni yerga urdim xo'p,
Uzoq emas... Toza imonning
Alangasin o'chirdim oson...
Mehnatimga arzirmi hech on
Ahmoq, munofiqi insonning?
Men qiynaldim, jahondan bezdim,
Tog'lararo berkinib kezdim,
Xuddi ko'kdan otilgan yulduz —
Tun qo'ynida daydidim yolg'iz.

Tanho yo'lchi tunda yiroqdan
Makrim bilan bir o't ko'rardi,
Otini tez unga burardi.
Borib-borib baland qirg'oqdan
Jahannamga to'ntarilardi,
O! Bekorga faryod qilardi,
Jar toshlari botardi qonga...
Parcha-parcha bo'lgan insonga
E'tiborsiz kulib boqardim,
Shodlanardim, qanot qoqardim.
Ammo tezdan g'azabning qora
Bu o'yini yoqmasdan qoldi,
Qon sayridan ko'zlarim toldi!
Men isyonkor tabiat aro
Dil zorini bosmoqchi bo'lib,
Buzuq o'ydan qochmoqchi bo'lib
Unutilmas narsalarni ham
Unutmoqqa ont ichib mahkam
Bor olamdan tamom jirkanib,
Kuchli bo'ron bilan urushda
Chaqmoq, tuman ichra burkanib,
Quyunlarni o'ynab burishda
Bulutlarning ustida uchdim,
Keng fazoning qo'ynini quchdim,
Kelib ketgan hamda kelgusi
Odamlarning barcha qayg'usi,
Barcha mehnat, barcha kulfati,
Barcha chekkan g'am, uqubati,
Hammasini jam qil o'zingga;
So'ngra mening hali so'lmagan,
Olam unga iqror bo'lmagan,
Tanilmagan zo'r azobimdan
Bir lahzani keltir ko'zingga...
Ular nima bunga nisbatan?
Odam nedir? Nedir ish, umri?
Kelib ketgan va kelib ketar...
Umid borki, hukmdor Tangri
Hukm etsa ham, afv eta olar!



Mening qayg'um bo'lsa muttasil,
Shu yerdadir, hech qachon o'lmas,
U men kabi abadiy, asl,
Mendek uning oxiri bo'lmas!
U ajralmas, men bilan yashar,
Goh ilondek o'ynar, to'lg'anar,
Goh olovdek kuydirib yonar,
Goh tosh kabi fikrimni bosar, —
O'lgan umid, o'lgan ehtiros
Qabridir u. Asti buzilmas!..

T a m a r a

Qayg'ularing ne kerak menga?
Bas qil dedim, bas dedim senga,
Gunohkorsan...

I b l i s

Sengami, hur qiz?

T a m a r a

Eshitarlar...

I b l i s

Tanhomasmi biz?

T a m a r a

Xudoyim-chi?

I b l i s

Bizni ko'rmas u,
Ko'k bilan band, yerni so'rmas u.

T a m a r a

Jazolar-chi, do'zax o'ti-chi?

Iblis

Hech gap emas, tinglagin picha,
Sen sazanmi urmasang yerga
Do'zaxda ham bo'larmiz birga.

Tamara

Ey tuyqusdan yo'liqqan do'stim,
Kim bo'lsang bo'l, baribir jo'shdim,
Rohatimni mangu yo'qotib,
Ajab majhul farahga botib,
Ixtiyorsiz tinglayman seni.
Agar bordi aldasang meni,
So'zing yolg'on bo'lsa mabodo...
Bu na sharaf! Rahm et, ey Xudo.
Mening ko'nglim senga ne kerak?
Sen ko'rmagan barcha qizlardan,
Chiroy shohi u yulduzlardan
Nahot, ko'kka men qimmatliroq?
Ular hayot! Hammadan go'zal,
Ta'rifi yo'q gul chiroylarin,
Yerdagidek qizlik joylarin
O'lim qo'li buzmagani azal.
Yo'q! Sen menga qasamyod ayla,
O'ylaringdan kech, barbod ayla,
Ko'rasanmi g'am chekaman men;
Xotin hissin ko'rmoqdasan sen!
Yuragimda shubha bor senga...
Ammoki sen barchasin tuyding,
Hammasini bilasan, suyding,
Rahming kelar, albatta menga!
Ont ich... yovuz bisotingdan kech,
Va'da bergin, inontir, uqtir.
Nahot, bo'lak buzilmagan hech
Na bir qasam, na va'da yo'qdir?



Iblis

Ont ichaman xilqatning boshi,
Hamda uning so'ng nafasi-la,
Jinoyatning uyatli toshi,
Haqiqatning tantanasi-la!
Ont ichaman zafar orzusi,
Inqirozning qayg'usi bilan,
Vasling bilan hamda bo'lg'usi
Dardli hijron qo'rquvsi bilan;
Ont ichaman mute' ruhlar-u
Do'stlarimning taqdirlari-la,
Menga dushman malaklarning-u
Qonsiragan shamshirlari-la;
Ont ichaman ko'k-la, do'zax-la;
Yer sanami san-la va haq-la,
Sening so'nggi bir nigohing-u
Eng birinchi yoshing, ohing-u
Lablaringning gul damlari-la,
IRak soching buramlari-la,
Ont ichaman aysh-la, kulfat-la,
Ont ichaman bor muhabbat-la,
Eski o'chdan tamom voz kechdim,
Kechdim mag'rur o'ylar bahridan.
Bundan buyoq makrim zahridan
Yo'ldan ozib qiynalmas hech kim!
Endi osmon bilan kelishmoq,
Sevmoq, sig'inmoqni istayman,
Endi ezgulikka erishmoq,
Unga inonmoqni istayman,
Endi butun bu olamdagi
Kasofati ruhimni quvay:
Ko'z yoshim-la peshonamdagi
Ko'k otashin izlarin yuvay;
Qo'y, bu dunyo tinch va voqifsiz
Chechaklansin, gullasin mensiz!
O! Ishongil, shu zamongacha
Visolingga yetishib, seni



Anglay olgan faqat mengina.
Oyog'ingga — hokimligimni,
Erk-u ishq-u to imongacha
To'kib solgan faqat mengina.
Ishqingni qiz, hadyadek bukun
Men kutaman; ayla hamiyat:
Bir marhamat, bir oning uchun
Qurbon senga bu abadiyat.
Yo'llaringda, ey toza sanam,
Ovoraman, qalbi kuyukman.
G'arazdagi kabi ishqda ham
Vafodorman, inon, buyukman.
Falaklarning ozod o'g'liman,
Seni ko'kka olib ketaman,
Bu jahonga xoqon etaman,
Eng birinchi yorim bo'lursen.
O'sha yerdan, ey go'zal pari,
Go'zalligi umrsiz bo'lgan,
Jinoyatga, o'linga to'lgan,
Na sevgida va na nafratda
Betahlika yasholmaydigan
O'z nafsidan osholmaydigan,
Mayda ehtiros-la g'aflatda
Qolganlarning makoni — yerga;
Razolat-u g'am koni — yerga
Qizg'anmasdan nazar solarsan,
Nafrat bilan o'yga to'larsan.
Bilmaysanmi haliga dovur
Odamlarning ishq-i neligin?
Qon mavjidir, bilmasang — bilgin,
Lekin kunlar o'tar, qon sovir.
Ey go'zal yor, javob ber menga,
Ayriliqqa, ko'z yoshlaringga,
Yangi chiroy aldashlaringga,
Xayollarning xohish, erkiga,
Horg'inlikka, xafalikka, kim —
Jindek qarshi turarlar? — Hech kim
Yo'q! Sen uchun, ey sevimli yor,

Tor doira ichra lol-u zor
Kundosh dag'allikka qul bo'lib,
Qayg'u bilan hasratga to'lib,
Yuraksiz va sovuq insonlar,
Mug'ambir do'st, yovuz dushmanlar,
Samarasiz tilak, qo'rquvlar
Bo'sh va og'ir mehnat, qayg'ular
Orasida gulday so'lishni,
Bekorlarga xarob bo'lishni
Taqdir azal yozmagan aslo,
Bunday lahad qazmagan aslo.
Baland devor ostida g'amgin,
Odamlardan, xudodan nari
Ibodat-la axtarib taskin
Beehtiros so'nmay-san pari.
Yo'q! Yo'q! Seni, ajoyib xilqat,
Boshqa olam, boshqa bir qismat -,
Boshqa azob, boshqa hayajon —
Kutmakdadir, sen menga inon,
Tashla eski orzularni sen:
Unut uning har narsasini,
Evaziga ochib beray men
Mag'rur idrok darvozasini,
Menga tobe ruhlarni butun
Oyog'ingga cho'ktirayin tiz,
Sehr to'la malaklardan qiz,
Joriyalar beray sen uchun,
Senga atab Sharq Yulduzidan
Oltin jig'a uzib berayin,
Shabnam terib gullar yuzidan
U jig'aga tizib berayin.
Kun botishning la'li nuridan
Bo'ylaringga bog'ichlar o'ray,
Atrofingda havolarni man
Xushbo'y nafas bilan to'ldiray.
Qulog'ingni ajib kuy bilan
Sira tinmay erkalatay men,
Firuzadan, kahrabolardan

Koshonalar tayyorlatay men.
Dengizlarning tublarin quchay,
Bulutlardan balandga uchay,
Yer ne'matin senga tutay qiz,
Farmoningga yig'lab cho'kay tiz,
Sevgin meni!..

XI

Va u ohista
O'tday yongan lablari bilan
Qizning xuddi xandoni pista
Lablariga yopishdi birdan.
Qiz yalindi. Yolg'on so'z bilan
Aldadi u, ishontirdi u.
Yonib turgan kuchli ko'z bilan
Tikka boqdi va yondirdi u.
Xanjar kabi qop-qora tunda
Hech davosiz chaqnadi shunda.
Hayhot! Hayhot! Yovuz ruh yana
Yana bir yo'l qurdi tantana!
Qiz ko'ksiga uning bo'sasi
Hayhot! O'lim zaharin quydi.
Qizning dod deb chinqirgan sasi
Tun tinchligin tashvishga qo'ydi.
U tovushda muhabbat, azob,
Yolvorish-u gina, iztirob,
Yosh umr-la alvidolashish,
Olam bilan so'ng judolashish —
O'lim degan xabar bor edi,
Bu eng so'nggi oh-u zor edi.

XII

Shu vaqtda tun qorovuli
Taqqilatib taqildog'ini,
Har yon tutib ding qulog'ini
Odat qilgan har kungi yo'li —
Tikka devor aylanasi
Yolg'iz kezib yurar edi tek.

Birdan cho'chib, sharpa sezgandek
Qiz oynasin shunda pastida
Hayron bo'lib to'xtadi-qoldi,
Atrofiga tinch quloq soldi.
Boqar ekan u jimjit tunga
Ikki labning cho'lp-cho'lp bo'sasi,
Zaifona qiyqiriq sasi
Eshitilganday tuyuldi unga.
Chol cho'chidi, dili uvishdi,
Yuragiga kir shubha tushdi.
Lekin tindi hammasi shu choq,
Faqat mayin shabada yiroq
Yaproqlarning zorin bu yoqqa
Keltirardi uzoq yerlardan.
Tog' daryosi qora qirg'oqqa
So'ylar edi o'tmish sirlardan.
Vahim bosdi, u chol qo'rqardi
Ichdan allanelar o'qirdi.
Yovuz ruhni, qora arvohni
Xayollardan quvib tashlay deb,
O'ylaridan yomon gunohni
Duolar-la yuvib tashlay deb,
Dir-dir titrab o'ng qo'li bilan
Cho'qinib u iltijo etdi,
Indamasdan, o'z yo'li bilan
Shoshilgancha tez yurib ketdi.

XIII

Uxloq pari kabi beozor,
Tobutida yotar edi qiz,
Oppoq yuzi, u gulday uzor,
Kafandan ham oq edi... Esiz
Yumilmishdi kiprigi mangu...
Lekin kiprik ostidagi u
Mudrab yotgan ko'zlar uyg'oq deb
Yo o'pish, yo kunga ilhaq deb
Kim o'ylamas edi boqqanda,
Jigari yosh bo'lib oqqanda?

Ammoki, u ko'zlarga quyosh
Oltin nurin quyardi bekor,
Yig'lab o'pib qavm-u qarindosh,
Ular uchun kuyardi bekor.
Yo'q! Qattiqdir o'limning dasti,
Uni hech kim buzolmas asti!

XIV

Tamarani xurram kunlari
Bayramda ham hech qachon bu xil
Yasan bilan ko'rmaganda el.
O'sgan yerin sarin gullari
Eski urf-odat bo'yicha
Qiz ustinda hid sochishardi,
O'lik qo'lda qolgan ko'yicha
Go'yo yer-la xayrlashardi.
Ehtirosga to'la yuzida
O'limdan hech asar yo'q edi.
Unga boqqan kishi o'zida
U tirik deb ko'ngli to'q edi.
Unda marmar kabi ham sezgi,
Ham aqldan, hisdan begona,
O'lim kabi sirli va ezgi
Bir chiroydan bordi nishona.
Lablarida ajab bir kulgi
Qotib qolmish edi beozor,
Diqqat bilan boqqan ko'zga u
Talay g'amdan berardi axbor:
U kulgida hayotdan judo
Bo'layotgan dilning nafrati,
Eng so'nggi o'y, so'nggi niyati
Hamda yerga sassiz alvido,
Degan kabi bir hol bor edi;
Qayg'usiga olam tor edi.
U burungi hayot kulgisi
Behudaga qoldirmishdi iz,
Endi uni ne qilardi qiz,
Hokim ekan o'lim uyqusi?

Bir kulgining bir o'xshari bor
Kech tushganda, quyosh botganda,
Dengizda zar erib o'tganda,
Kazbek uzra kumush kabi qor
Birpas asrab shafaq nurini
Yiltillaydi uzoqdan qiyo.
Ammo yarim jonli bu ziyo
Yoritmaydi kimsa yo'lini!..

XV

Qo'ni-qo'shni, qavm-qarindosh
G'amli safar uchun yig'ilgan.
Ko'ksi qisib, dami tiqilgan
Qari Gudal ko'zlarida yosh,
Faryod qilib yig'lab zor-u zor,
Sochlarini yulib so'nggi bor
Oq otiga mindi, qo'zg'aldi —
Barcha mozor sari yo'l oldi.
Yo'l olisdir, tinmay birma-bir
Uch kecha-uch kunduz cho'zilar:
Bobolarin yonida ular
Tamaraga qazmishlar qabr.
Qishloqlarni o't qo'yib bosgan,
G'ariblarni talagan, osgan
Gudalning bir o'tmish avlodi
Ko'kka chiqib fig'oni-dodi
Kasal bo'lib yotib qolganda
Gunohlarga botib qolganda
Ayblarini yuvmoq qasdida
Faqat bo'ron o'ynagan, uchgan,
Qarchig'aylar zirvasin quchgan.
Qoya uzra, bulut pastida
Urug'iga aylab nishona
Solmoq bo'lgan edi butxona,
Tezda Kazbek qorlari aro
Bir kaliso yasaldi tanho
Suyaklari unda bo'ldi jo.
O'sha baland qoya sal o'tmay

Go'ristonga aylandi bazo'r,
Ko'kka qancha yaqin bo'lsa go'r,
Go'yo biroz issiq bo'lganday,
Odamlardan narida har dam,
Go'yo so'nggi uyqu buzilmas...
Bekor! O'tgan sevinch, o'tgan g'am,
O'lganlarning tushiga kirmas...

XVI

Bir farishta moviy samodan
Oltin qanot qoqib o'tardi;
Ul gunohkor jonni dunyodan
Quchog'ida olib ketardi.
U yupatib gunoh qizini
Shubhalarin quvardi undan,
Gunoh bilan azob izini
Ko'z yoshi-la yuvardi undan:
Jannat sasi olisroq yerdan
Eshitilarkan ularga, birdan
Ularning hur yo'llarin kesib,
Xuddi kuchli shamoldek esib,
Do'zaxi ruh guvillab uchdi,
Quyun kabi samoni quchdi.
U dovuldek kuchli edi-yu
Chaqmoq kabi yaltirar edi,
G'ururlanib tentaklarcha u
«Qiz meniki! Yo'qol sen!» dedi.
Tamaraning gunohkor joni,
Vahm bilan to'lib har yoni
Farishtaga o'zini urdi,
Duo o'qib qaltirab turdi.
Kelajakning taqdiri shu choq
Hal bo'lardi: chunki u tag'in
G'azab bilan solib qovog'in
Qiz oldida yoymishdi quchoq.
Ammo uni, ey Parvardigor,
Shu choqda kim taniy olurdi?
Qanday g'azab bilan u g'addor



Achchig'lanib nazar solurdi.
To'lmish edi butkul so'nggi yo'q —
Dushmanlikning o'lim zahri-la
Yuzlaridan go'rga xos sovuq
Yog'ar edi yovuzlik, hiyla.
«Ket shubhalar qora ruhi, ket!»
Dedi osmon elchisi unga:
«Ket, ey beor, chekil, ey bezbet,
Endi sening hadding yo'q bunga!
Yetar shuncha tantana qurding,
Yetar shuncha sen yo'ldan urding;
Endi hukm soati yetdi,
Parvardigor qat'iy amr etdi!
O'tdi unga sinov kunlari,
O'tdi unga azob tunlari,
Yerning foniy kiyimi bilan
Zulm zanjiri yechildi undan.
Bilgil! Uni ko'pdan kutardik,
Ko'pdan unga biz ko'z tutardik.
U shundayin ruhlardandiki,
Ular uchun hayot — bir damdir,
Betasalli, bir onli g'amdir.
U shundayin ruhlardandiki,
Rab ularning jonli torini
Yaratmishdir sarflab borini.
Ular asli dunyo uchunmas,
Va dunyo ham ular uchunmas!
Qattiq baho bilan sermehnat
Shubhalarin yuvdi u butun.
U qiynaldi, sevdi. U uchun
Endi ishqqa ochildi jannat!»
Yovuz ruhga xo'mrayib boqib,
Ul farishta keng nafas oldi,
Sevinch bilan qanotin qoqib,
Ko'k dengizi ichra yo'qoldi.
Mag'lub bo'lgan Iblis shu zamon
Tentakona tilaklarini,

Orzular-u istaklarini
Hammasini qarg'ab beomon
Yana mag'rur, bir o'zi yakka
Burungidek beishq, bepakka
Mulzam bo'lib qayg'uga toldi,
Bu jahonda tentirab qoldi!
Haligacha tog' yonbag'rida
Qoyishaur vodiysi uzra
Quyug bulut, tuman bag'rida
Uzoqlardan ko'rinib xira
G'amgin nazar tashlab to'rt tomon
U xaroba turadir hamon.
O'sha haqda bolalar uchun
Hikoyalar saqlamish kuchin...
Ro'yo kabi u tilsiz haykal,
U sehrli kunlar guvohi,
Qop-qorayib ko'rinar sal-pal
Daraxtlarning ichidan gohi.
Pastda ovul chechak otadir,
Yer yam-yashil gullab yotadir.
Guvillagan tovushlar pastda
Tog'dan toqqa urilar asta,
Pastda mayin shabada yelar,
Uzoqlardan karvonlar kelar,
Ko'piklanib yarqirab irmoq
Quyi tushmay, sakraydi har yoq.
Beg'am bola kabi tabiat
Hamisha yosh, sho'x hayot bilan
Quyosh, bahor, nabotot bilan
Ko'ngil ochib o'ynar har soat.
Bir zamonlar navbati bilan
O'z davrini kechirgan saroy,
Xuddi do'st-u oilasidan
Judo bo'lgan, ayrilgan gadoy
Rangi o'chgan, g'amgin boqadi,
Ko'ngillarni o'tda yoqadi.
Uning yangi yashovchilari
Oy chiqishin kutib turalar,

Bu ularning hur bayramlari,
Chirqillashib o'ynab yuralar.
Yangi rohib — qari o'rgimchak
Uya to'qir sayrashib chik-chik.
Zangori, ko'k kaltakesaklar
Mayda toshlar hamda kesaklar
Orasidan chiqishib shomda,
Giz-gizlashib o'ynashar tomda.
Astagina inidan ilon
Zinapoya ustiga chiqar;
Goh kulajak bo'lib bir zamon
Kallasini pinjiga tiqar;
Goh uzayib, o'tgan zamonda
Katta urush payti maydonda
Esdan chiqib qolgan qilichdek
Qimirlamay yotib olar tek...
Bari vahshat; o'tgan yillardan
Hech bir yerda iz yo'qdir benom:
Asrlarning qo'li bulardan
Sekin-sekin o'chirmish tamom.
Tili yo'qdir, so'zlay olmaydi,
Hech narsani eslatolmaydi
Na shuhratli Gudal otidan,
Na sevimli qizi zotidan.
Ammo ular ko'milgan mozor
Zirvadagi butxona omon,
Olloh panohida beozor,
Bulut ichra ko'rinar hamon.
Eshigida qorovul bo'lib,
Boshdan oyoq qorga ko'milib,
Temir sovut o'rniga mangu
Muz kiyinib qotib turgan u
Saqlaguchi granit toshlar
Atrofiga sovuq ko'z tashlar...
Ko'chay degan ko'chkilar mudrab
Sovuq urib, muzlashib, titrab
To'rt atrofda shalolalardek
Osilishib turadilar tek!

Bo'ron soqchi bo'lib yuradi,
Devorlarning changin suradi.
Qo'shiq aytib baqirar goho,
Soqchilarni chaqirar goho.
Bir ajoyib kaliso bor deb,
Kavkaz tog'larida turar deb,
Oq bulutlar sharqdan yelishar:
Sajda qilmoq uchun kelishar.
Ammo ko'pdan bu go'rlar uzra
Hech kim kelib yig'lamas sira.
Tund Kazbekning baland qoyasi
U o'ljani saqlar, ko'z uzmas.
Odamlarning mangu nolasi
Ularning tinch uyqusin buzmas.

Usmon Nosir tarjimasi

D...ga STANSLAR

1

Aytolmayman aslo sening nomingni,
Hatto yozolmayman men qog'ozga ham:
Uning har harfida yashiringan g'am –
Sadolari o'rtar mening jonimni;
O'yla, qancha og'ir, bu so'zni, jonim,
O'zgalar og'zidan eshitmoqligim.

2

Kim bergan ularga huquq va imkon
Muqaddas umidim o'yin etmoqqa?
O'zimda yo'q iloj unga yetmoqqa,
Nahot o'zgalarga bu bo'lsa oson?
Ular ham men kabi vaslingdan, hayhot,
Jannatlarni izlab topganlar? Nahot?

3

Itoatkorona tiz cho'kaman, rost,
Boshimni egmadim hali hech kimga:
Xoinlik – bu faqat qo'rqoqlarga xos
Va bundan keyin ham boshim bo'lmas xam,
Hattoki taqdirning qarshisida ham!

4

Ammo hamma ko'rsin, bosh eg desang, bas,
Farmoning bajarib, qalbim xo'rlarman.
Yoshlik ontlarini buzgan bo'larman,
Hamma ontni, ammo sevgi ontinmas!
Mayli, doston qilib yursinlar meni,
Seni deb shu ko'yga tushganligimni...

5

Shirin tabassuming ko'rganim onda
Zavq-u shavqqa to'lib-toshgandi qalbim.
Shunda dastavval men o'ylagan edim:
Bunga monand lavha yo'qdir jahonda!
Bilmagan ekanman, yosh to'la ko'zlar
Yulduz to'la go'zal osmonga o'xshar.

6

Bu ko'zlarga to'ymay boqqanim kezlar
O'ylar edim: baxtim naqadar porloq!
Menga tobe edi chindan o'sha choq –
Ilohiy uchqunlar chaqnagan ko'zlar...
Sendagi bor narsa – muqaddas, go'zal,
Menga esa, bular – jonimdan afzal.

7

Hattoki dunyoni bag'ishlab, jonon,
Agar bizni etmoq bo'lsalar xurram,
Men shu shohlarga xos saltanatni ham
Baxt deya olmasdim mutloq, hech qachon.
Saltanat haqida har yerda ertak,
Baxt esa – tanholik ko'kartgan chechak.

8

Eslaysanmi oyni, u oydin tunni,
 Xilvat ayvonchada turib yuzma-yuz,
 Chuqur xayollarning bo'lib maftuni;
 Tanho jamolingdan uzmas edim ko'z.
 Qanday shirin edi u kunlar ruhga,
 Bir kechani bermasman mangu umrga.

9

Muhammad qabridan topib olingan
 Anchayin tumorni aziz deb bilgan –
 Faqirga etaklab tuting oltin, dur,
 Dunyo mulki unga sochsa hamki nur,
 U o'z e'tiqodin buza olmaydi,
 Bularning bariga nazar solmaydi.

Mamarasul Boboyev tarjimasi







Bundan ko'p vaqtlar avval Tiflis shahrida bir badavlat turk yashar edi. Xudo unga ko'p tilla bergan edi, ammo uning bitta-yu bitta qizi Magul-Megeri tilladan ham qimmatroq edi. Ko'kdagi yulduzlar yaxshi, lekin yulduzlar orqasida farishtalar yashaydi, ular yana ham yaxshiroq; xuddi shunga o'xshash Magul-Megeri ham Tiflis qizlaridan ham yaxshiroq edi. Tiflisda Oshiq G'arib degan bir kambag'al ham bo'lardi. Yaratgan unga sof yurak va qo'shiqlardan bo'lak hech narsa bermagandi; u soz chalib, Turkistonning qadimgi pahlavonlarini maqtab, boy va baxtiyor odamlarni xursand qilish uchun to'yma-to'y yurar edi. Bir to'yda Magul-Megeriga ko'zi tushdi, ular bir-birlarini sevib qoldilar. Qizning roziligini olish uchun kambag'al Oshiq G'aribning umidi oz edi, shuning uchun u qish osmoniday g'amgin bo'lib qoldi.

Bir kuni u bog'da, tok tagida yotib, ko'zi uyquga ketdi. Shu chog' Magul-Megeri dugonalari bilan birga o'tib qoldi, dugonalaridan biri uxlab yotgan oshiq (sozanda)ni ko'rib, orqada qoldi-da, yigitning tepasiga bordi. «Nega tok tagida uxlab yotibsan, tur, tentak, go'zaling yoningdan o'tib bormoqda», deb kuyladi. U uyg'onishi bilanoq, qiz qushday pir etib ko'zdan g'oyib bo'ldi. Magul-Megeri dugonasining qo'shig'ini eshitib, uni koyiy boshladi. O'rtog'i: «Agar bu qo'shiqni kimga aytganimni bilganingda, menga tashakkur bildirgan bo'lar eding, u sening Oshiq G'aribing», – dedi. «Meni uning yoniga olib bor» – dedi Magul-Megeri. Ular yo'lga tushdilar. Magul-Megeri Oshiqning g'amgin yuzini ko'rib, hol so'radi, keyin uni yupata boshladi. «Nega qayg'urmay? Men seni sevaman, lekin visolingga yeta

olmayman», – dedi Oshiq G'arib. «Otamning roziligini so'ra, otam o'z hisobidan to'y qilib beradi, u menga shuncha mol-mulk beradiki, ikkimizga ham yetib ortadi», – dedi qiz. «Yaxshi, – dedi Oshiq G'arib, – Oyak-og'a o'z qizidan hech narsani ayamas deb faraz ham qilaylik, lekin kim biladi, balki sen keyinchalik mening davlatim bo'lmaganini yuzimga solarsan. Yo'q, jonim Magul-Megeri, men chin yurakdan qasam ichdim: dunyoni yetti yil kezaman, yo boy bo'lib qaytaman, yo bo'lmasa uzoq sahrolarda o'ligim qolib ketadi. Agar sen bunga rozi bo'lsang, yetti yildan keyin meniki bo'lasan». Qiz ko'ndi, lekin u belgilangan kunda qaytib kelmasa, ko'pdan beri sovchi yuborib turgan Xurshidbekka tegishini aytdi.

Oshiq G'arib onasi huzuriga keldi, safarga chiqish uchun undan oq fotiha olib, kichkina singlisini o'pdi-da, xurjunni yelkasiga ilib, hassasini qo'liga oldi va Tiflis shahridan chiqib ketdi. Bir vaqt unga bir otliq kishi yetib oldi. Oshiq qarasaki, otliq Xurshidbek ekan. Bek unga: «Oq yo'l bo'lsin! Sayyoh, sen qayerga borsang, men senga hamrohman», – dedi. Oshiq esa, o'zining yo'ldoshidan xursand emas edi, nachora, noiloj ko'ndi. Ular uzoq vaqt birga yurdilar, nihoyat oldilaridan ko'prigi ham, kechik joyi ham bo'lmagan bir daryo chiqib qoldi. «Oldin sen suz, orqangdan men suzaman», – dedi Xurshidbek. Oshiq ustki kiyimlarini yecha solib, suzib ketdi. Suzib o'tib, orqasiga qayrilib qarasa, o, falokat... Yo qodir Xudo! – Xurshidbek uning kiyimlarini olib, Tiflisga qarab jo'nab qolibdi. Uning orqasidan faqat chang tekis dala bo'ylab ilonday buralib uchmoqda. Bek tezlik bilan Tiflisga kelib, Oshiq G'aribning kiyimlarini uning kekasa onasiga eltib berdi. «O'g'ling chuqur daryoga g'arq bo'ldi, mana uning kiyimlari», – dedi u. Onasi benihoya zo'r qayg'u-alam bilan aziz o'g'lining kiyimi ustiga muk tushib, qaynoq ko'z yoshlarini to'ka boshladi, shundan keyin kiyimlarni unashtirib qo'yilgan kelini – Magul-Megeriga olib bordi. U qizga qarab: «Mening o'g'lim daryoga g'arq bo'libdi. Xurshidbek uning kiyimlarini olib keldi, endi sening boshing ochiq», – dedi. Magul-Megeri jilmayib turib: «Ishonma, bularning hammasi

Xurshidbekning o'ylab chiqargan nayrang. Yetti yil muhlat o'tmaguncha hech kimga tegmayman», – dedi, keyin devordan sozini olib, bechora Oshiq G'aribning sevimli ashulasini sekin kuylay boshladi.

Shunday qilib sayyoh, yalangoyoq va yalang'och holda bir qishloqqa kirib keldi, saxiy kishilar uni kiyintirdilar va qornini to'yg'izdilar. U buning badaliga ajoyib qo'shiqlar kuylab berdi, shu yo'sinda qishloqma-qishloq, shaharma-shahar kezdi, uning shuhrati hammayoqqa tarqaldi. Oxiri Xalaf degan shaharga yetib keldi. Odati bo'yicha to'g'ri qahvaxonaga kirdi, soz so'rab oldi-da, kuylay boshladi. Shu vaqtlarda Xalafda hofizlarga juda ishqiboz bir podsho yashar edi. Uning oldiga ko'p ashulachilarni olib kelar edilar, biroq ulardan hech biri unga yoqmasdi. Uning choparlari butun shaharni kezib charchagan edilar. Ittifoqo qahvaxona yonidan o'ta turib, ular ajoyib bir tovush eshitib qoldilar. Ular ichkariga kirib: «Biz bilan ulug' podsho huzuriga yur, yo'qsa boshing olinadi», – deb baqirdilar. «Men Tiflis shahridan kelgan erkin sayyohman, – dedi Oshiq G'arib, – xohlasam boraman, xohlamasam yo'q, chog'i kelsa kuylayman, sizning podshoingiz menga xo'jayin emas». Lekin shunga qaramay, uni tutib, podshoning oldiga sudrab keldilar. Podsho unga: «Kuy!» – dedi va u kuylay ketdi. Bu ashulasida ham u o'zining go'zal Magul-Megerisini madh etdi. Ashula mag'rur podshoga shunday yoqdi, u bechora Oshiq G'aribni o'z yonida olib qoldi. Unga kumush va tillalar yog'ildi, egnida qimmatli kiyimlar tovlandi. Oshiq G'arib baxtiyor va shod-xurram hayot kechira boshladi. Juda badavlat bo'lib ketdi. U o'zining Magul-Megerisini esidan chiqardimi, yo'qmi, bunisini bilmayman, ammo muhlat yaqinlashib borardi. So'nggi yilning tugashiga ham oz qolgan edi, lekin u ketishga tayyorgarlik ko'rgani ham yo'q. Go'zal Magul-Megeri esa umidsizlana boshladi.

Shu vaqtda Tiflisdan qirq tuya, saksonta quldan iborat karvoni bilan bir savdogar safarga otlangan edi. Qiz savdogarni oldiga chaqirib olib, unga tilla lagan berdi. «Sen shu laganni ol! Qaysi bir shaharga borsang, o'z do'koning

oldiga qo'yib, hammaga: «Kimki mana shu laganning egasi menman desa va buni isbot etsa, u kishi laganni ham, lagan to'la tillani ham oladi», deb e'lon qil», – dedi. Savdogar jo'nab ketdi, hamma yerda Magul-Megeri topshirig'ini ado etdi, biroq tilla laganning egasi chiqmas edi. U o'zining ko'p mollarini sotib bo'ldi, qolganlari bilan Xalafga keldi. Magul-Megeri topshirig'ini hamma yerda e'lon qildi. Buni eshitib Oshiq G'arib karvonsaroyga qarab yugurdi va Tiflis savdogari do'konida tilla laganni ko'rdi. Laganni qo'liga olib: «Bu meniki!» – dedi. «To'g'ri, seniki, – dedi savdogar. – Oshiq G'arib men seni tanidim. Sening Magul-Megering aytib yubordi, tezroq Tiflisga jo'na! Muhlat o'tayotir. Agar sen belgilangan kunda yetib bormasang, u boshqaga tegib ketadi». Oshiq G'arib umidsizlanib, boshini ushlab qoldi. Taqdirida yozilgan muhlatgacha uch kun qolgan edi. Biroq shunday bo'lsa ham u otga minib, o'zi bilan bir xurjun tilla olib, otni ayamay choptirib ketdi.

Nihoyat, chopishdan charchagan ot Arzinyan va Arzirim o'rtasidagi Arzingan tog'ida yiqilib, jon berdi. Oshiq G'arib endi nima qilishi kerak? Arzinyandan Tiflisgacha ikki oylik yo'l, holbuki, atigi ikki kun vaqt qolgan. «Qodir Xudo, agar sen menga madad bermasang, bu dunyoda qiladigan ishim yo'q», – dedi va baland qoyadan o'zini tashlamoqchi bo'ldi. Biroq, pastda oq otli bir kishini ko'rdi: «O'g'lon, sen nima qilmoqchisan?» – degan qattiq ovoz eshitildi. «O'zimni o'ldirmoqchiman», – dedi Oshiq. «Agar unday bo'lsa, buyoqqa tush, seni men o'ldiray», – dedi otliq. Oshiq bir amallab qoyadan tushdi. «Mening orqamdan yur», – dedi g'azab bilan otliq. «Sening oting shamolday tez uchsa, men esa og'ir xurjun ostida qiynalayotgan bo'lsam, qanday qilib orqangdan yuray?» – dedi Oshiq. «Rost, xurjuningni egaringga tashlagin-da, orqamdan yur!» Oshiq G'arib yugurishga qancha tirishsa ham, orqada qolib ketdi. «Nimaga orqada qolasan?» – deb so'radi otliq. «Qanday qilib men senga yetib yuray, oting shamoldan tez uchadi, men bo'lsam juda charchaganman». «Rost, orqamga mingash va to'g'risin ayt, qayerga bormoqchisan?» «Hech bo'lmaganda bugun

Arzirumga yetib borsam yaxshi bo'lar edi», – dedi Oshiq. «Ko'zingni yum!» U yumdi. «Endi och!» Oshiq qarasaki, uning ko'z oldida Arzirum shahrining devorlari va minoralari yaltirab turibdi. «Gunohkorman, og'a, – dedi Oshiq, – men yanglishibman, men Karsga yetib borishim kerak demoqchi edim». «Ha, shunday demaysanmi. Mayli, – dedi otliq, – men senga to'g'risini gapir dedim-ku, yana ko'zingni yum!» Bu shaharning Kars ekaniga Oshiq G'aribning ishongisi kelmadi. U tiz cho'kib: «Gunohkorman, og'a, quling Oshiq G'arib uch marta gunohkor! Men hozir xuddi Tiflisda bo'lishim kerak», – dedi. «Ey... sen yolg'onchini qara-yu», – dedi achchiqlanib otliq, – xo'p, mayli, gunohingdan o'tdim. Ko'zingni yum bo'lmasa!»

Bir daqiqa o'tgandan keyin: «Endi och!» – dedi u. Oshiq sevinib ketganidan qichqirib yubordi. Ular Tiflis darvozasi yoniga kelib qolgan edilar. Oshiq G'arib xurjunini egardan olib, otliqqa samimiy minnatdorchilik bildirib dedi: «Og'a, albatta, sening shafqatlaring ulug'dir, lekin yana ham ziyoda qilgin, agar endi men Arzinyandan Tiflisga bir kunda kelganimni aytsam, hech kim ishonmaydi, menga qanday bo'lmasin bir dalil ber!» Otliq kulumsirab: «Yerga engash! – dedi, – ot tuyog'ining tagidan bir siqim tuproq olib, qo'yingga solib qo'y. Agar sening so'zingga hech kim ishonmasa, yetti yildan beri ko'r bo'lib qolgan kishini olib keltirishga buyur, keyin uning ko'ziga shu tuproqni surt, u qaytadan ko'radigan bo'ladi». Oshiq oq ot tuyog'ining tagidan bir siqim tuproq olib, boshini endi ko'targan ham ediki, ot va otliq ko'zdan g'oyib bo'ldi. Shunda u yuragidan ishonidiki, unga yaxshilik ko'rsatgan kishi hazrati Xizrning o'zi ekan.

Oshiq G'arib o'z uyini qorong'i tushguncha axtarib, zo'rg'a topdi. U titroq qo'li bilan eshikni taqillatib: «Ona, ho'v ona, och, men Xudo yuborgan mehmonman, ham ochman, ham yalang'ochman, sayyoh o'g'lingning hurmati, sendan iltimos qilaman, meni uyingga kirgiz», – dedi. Unga kampirning zaif tovushi eshitildi; u: «Tungi yo'lchilar uchun boy va mo'tabar kishilarning uylari bor, hozir shaharda to'ylar ko'p, o'sha yerga bor! U yerda kechani huzur qilib o'tkaza

olasan», – deb javob berdi. «Ona, men bu yerda hech kimni tanimayman, shuning uchun sayyoh o'g'ling hurmati takror iltimos qilaman, meni uyingga kirgiz!» – dedi Oshiq. Shunda uning singlisi onasiga: «Ona, men turib unga eshik ochay!» – dedi. «E, yaramas qiz, – dedi kampir, – sen yosh yigitlarni qabul qilib, ularni mehmon qilishni yaxshi ko'rasan, chunki mana yetti yildan beri men ko'z yosh to'kib, ko'zimdan ajralganman», – dedi onasi. Ammo, qizi uning koyishiga e'tibor bermay, eshikni ochib, Oshiq G'aribni uyga kiritdi. U odat bo'yicha salom berdi-da, hayajon bilan atrofga qaray boshladi. Birdan devorda o'zining chang bosib ketgan jilddagi xushovoz sozini ko'rib qoldi. Onasidan so'ray boshladi: «Devordagi osig'liq turgan nima?» Onasi: «Sen hamma narsaga qiziqaveradigan mehmon ekansan, senga bir parcha non berib, eson-omon chiqarib yuborganimga ham shukur qil!» – dedi. U e'tiroz bildirib: «Men senga, sen mening tuqqan onamsan, bu esa mening singlim deb aytdim-ku! Shu sababli menga devorda osilib turganning nimaligini aytib berishingni so'rayman!» – dedi. Ona uning gapiga ishonmay: «Bu narsa soz», – deb javob berdi achchig'lanib. «Soz nima demakdir? Soz – shu demakki, uni chaladilar va kuy kuylaydilar». Oshiq G'arib onasidan sozni olish uchun singlisiga ijozat berishini va o'ziga ko'rsatishini so'radi. «Yo'q, – dedi kampir, – bu soz mening baxtsiz o'g'limniki, bu soz yetti yildan beri devorda osig'liq turadi, shu mahalgacha unga hech kimning qo'li tekkani yo'q». Ammo, singlisi o'rnidan turib, devordan sozni oldi-da, unga berdi. Shunda u ko'zini ko'kka tikib, shunday kalima keltirdi: «Ey qodir Xudo, agar men orzuimga yetadigan bo'lsam, yetti torli sozim so'nggi marta chalgan kunimdagiday sozlangan bo'ladi», – dedi-da, torlarni cherta ketdi, torlar esa bir-birovlariga hamohang bo'lib sayradilar. Oshiq kuylay boshladi: «Men bir bechora g'aribman, so'zlarim ham qashshoq; ammo ulug' hazrati Xizr mening qoyadan tushishimga yordam berdi. Garchi, o'zim bechora va so'zlarim qashshoq bo'lsa-da, bilginki, ona, men sening bechora g'arib o'g'lingman». Shundan so'ng onasi yig'lab yuborib, undan so'radi: «Sening isming nima?» – U: «Rashid!» – deb javob berdi. «Rashid, bir marta gapir, bir marta eshit, –

dedi kampir, – sen o‘z so‘zlaring bilan yuragimni pora-pora qilib tashlading. Shu kecha tush ko‘rsam, boshimdagi sochlarim oqaribdi, mana yetti yildan beri ko‘z yoshimni to‘kib, ko‘r bo‘ldim. Ovozi o‘g‘limning ovozigaga o‘xshagan yigit, ayt, o‘g‘lim qachon keladi?» – dedi. Kampir ko‘z yoshi bilan ikki marta o‘z savolini takrorladi. U bir necha marta o‘g‘lingman deb, kampirni ishontirmoqchi bo‘ldi, lekin kampir sira ishonmadi. U bir qancha vaqtdan keyin so‘radi: «Ona, men yaqin o‘rtada to‘y borligini eshitib qoldim, sozni olib ketishga ruxsat ber, singlim meni kuzatib qo‘yadi, men ham qo‘shiq aytaman, ham chalaman va nima topsam hammasini shu yerga olib kelib, sizlar bilan o‘rtada taqsim qilaman». «Ruxsat bermayman, – dedi kampir, – mening o‘g‘lim ketganidan beri, uning sozi ham uydan chiqmaydi». Biroq, Oshiq bitta torni ham buzmayman, deb yolvora boshladi: «Agar birorta tori uzilsa, – dedi Oshiq, – unda butun mulkimni beraman». Kampir uning xurjunini timirskiladi-da, pul bilan to‘laligini payqab, ruxsat berdi. Singlisi Oshiqni katta to‘y-u tomosha bo‘layotgan badavlat hovlining eshigigacha kuzatib qo‘ydi-da, nima bo‘lishini bilish uchun eshik oldida qoldi.

Bu uyda Magul-Megeri yashar edi. Shu kecha u Xurshidbekka tegishi kerak edi. Xurshidbek qarindoshlari va do‘stlari bilan aysh-u ishrat qilar edi. Magul-Megeri esa, o‘z dugonalari bilan qimmatbaho parda orqasida bir qo‘lida kosada zahar, ikkinchi qo‘lida esa o‘tkir xanjar ushlab o‘tirgan edi. U Xurshidbek bilan bir yostiqqa bosh qo‘ygandan ko‘ra, o‘zimni o‘ldirganim yaxshi deb, qasam ichgan edi. Birdan u begona bir kishining so‘zlarini eshitib qoldi. Kelgan odam: «Assalomu alaykum! Sizlar bu yerda xursandchilik va aysh-ishrat qilyapsizlar, bechora sayyohga ham o‘zlaringiz bilan o‘tirishga ijozat bersangiz, men buning badaliga sizlarga ashula aytib berardim», – dedi. «Nega mumkin bo‘lmasin, – dedi Xurshidbek, – bu yerga ashulachi va o‘yinchilarning bemalol kirishlari mumkin, chunki bu yerda to‘y bo‘layotir, qani, hofiz, bironta ashula ayt, men seni bir hovuch tilla bilan chiqarib yuboraman».

Shunda Xurshidbek yana undan: «Yo'lchi, sening oting nima?» – deb so'radi. «Yaqinda bilarsiz», – dedi Oshiq. «Bu qanaqa, qanday ism? Men bu kabi ismni ilk marotaba eshityapman», – kulib xitob qildi Xurshidbek. «Mening onam homilador bo'lib, to'lg'og'i tutayotgan vaqtda ko'p qo'shnilar eshigimizga kelib, xudo o'g'il berdimi yo qiz deb so'ragan ekanlar. Ularga: «Yaqinda bilarsiz», deb javob berishibdi, shuning uchun ham tug'ilganimda menga shunday ism qo'yganlar». Shundan keyin u sozni olib, kuylay boshladi.

«Men Xalaf shahrida misr sharobini ichdim, lekin Xudo menga qanot berdi, men bu yerga uch kunda yetib keldim».

Xurshidbekning tentak akasi xanjarini sug'urib: «Sen yolg'onchisan! Qanday qilib Xalafdan bu yerga uch kunda kelish mumkin?» – deya baqirdi.

Oshiq: «Sen nima uchun meni o'ldirmoqchi bo'lasan? Odatda, ashulachilar har tomondan kelib, bir yerga yig'iladilar, menga xoh ishonib, xoh ishonmang, sizlardan hech narsa olmayman», – dedi.

– Qo'ying, davom etaversin, – dedi kuyov, shundan keyin Oshiq G'arib yana kuylay boshladi.

«Men bomdodni Arzinyan vodiysida o'qidim, peshinni Arzirum shahrida, namozgarni Kars shahrida, namozshomni esa, Tiflisda o'qidim. Xudo menga qanot berdi va men bu yerga uchib keldim, ey Xudo, oq otning qurboni bo'lay, u ot dorbozga o'xshab tog'lardan soyliklarga, soyliklardan tog'larga uchdi. Xudo Oshiqqa qanot berdi va u Magul-Megeri to'yiga uchib keldi».

Shunda Magul-Megeri uning ovozini tanib, zaharni bir tomonga, xanjarni esa ikkinchi tomonga irg'itdi, uning dugonasi: «Sen qasamingni unutdingmi? Bugun kechasi Xurshidbekning xotini bo'lasanmi?» – dedi. Magul-Megeri: «Siz bilganingiz yo'q, men sevganimning ovozini tanidim», – dedi-da, qo'liga qaychi olib, pardani qirqdi. Qaradi-yu, o'zining Oshiq G'aribini tanib, qichqirib yubordi-da, uning bo'yniga chirmashdi, shu chog' ikkisi ham hushsiz yiqildi. Xurshidbekning akasi ularning ikkisini ham o'ldirmoqchi bo'lib, xanjar olib yugurgan edi, Xurshidbek uni to'xtatdi: «Sabr qil, sabr qil,

odamning peshanasiga nima yozilgan bo'lsa, uni hech kim o'zgartirolmaydi, shuni yaxshi bil».

Magul-Megeri hushiga kelgach, uyalib ketganidan qizarindi, qo'li bilan yuzini berkitdi-da, parda ortiga yashirindi.

«Sening Oshiq G'arib ekanliging endi aniq bo'ldi, – dedi kuyov, – qani ayt-chi, sen qanday qilib oz vaqt ichida shuncha yo'l bosding?» Oshiq dedi: «Qilichimning toshni kesa olishi bunga dalil bo'lur, agar yolg'on aytsam, bo'ynim uzilsin! Lekin hammasidan yaxshisi shuki, yetti yildan buyon yorug' dunyoni ko'rmagan bir ko'rni olib kelinglar, men uni asliga qaytaraman». Oshiq G'aribning singlisi dahliz eshigi orqasida turib bu so'zlarni eshitgach, onasining oldiga yugurdi. «Onajon! – deb qichqirdi u, – haligi odam xuddi akamning o'zi, o'g'lingiz Oshiq ekan!» – dedi va kampirning qo'lidan yetaklab, to'y bazmiga olib keldi. Shunda Oshiq qo'ynidan bir siqim tuproqni olib, suvga qorishtirdi-da, onasining ko'ziga surdi va dedi: «Xaloyiq, hazrati Xizrning qanday qudratli va ulug' ekanligini bilib qo'yinglar!» Shu choq onasining ko'zi yarqirab ochilib, hammani ko'ra boshladi. Shundan so'ng uning so'zining rostligiga hech kim shubha qilmadi. Xurshidbek esa, hech so'zsiz go'zal Magul-Megerini unga topshirdi.

Shunda Oshiq G'arib sevinganidan unga qarab dedi:

– Xurshidbek, ko'p qayg'urma, bir iloj qilamiz, mening singlim ham avvalgi qallig'ingdan yomon emas, endi men badavlat bo'ldim, unda ham oltin-kumushlar kam bo'lmaydi. Sen unga uylan! Sizlar ham men bilan sevimli Magul-Megerimga o'xshab baxtli bo'linglar!







I QISM

I bob

Kun botmoqda; ibodatgoh minoralarining cherepitsalari va yorqin qubbalarida jilolanib turgan qizg'ish nurlar g'arb bo'ylab cho'zilgan binafsharang bulutlar orasidan bazo'r o'tmoqda. Kechki ibodatga qo'ng'iroq chalindi; rohiblar bilan xizmatkorlar cherkov boshlig'ining hujrasiga olib boradigan tosh zinalarda u yoqdan bu yoqqa yurib turibdilar; ularning uzun, qora ridolarining etagi yerga sudralib, changni supurib ketmoqda, ammo viqor bilan yurib, ibodat qiluvchilarni turtib o'tardilarki, go'yo zimmalaridagi asosiy vazifa ana shu turtib ketishdangina iborat edi. Shamlarning titroq alangasi isiriqning qorong'i pardasi ostida xira va qizg'ish bo'lib ko'rinadi; ibodat qiluvchilar zax ustunlar atrofida tiqilishib turishar va olomonning bo'g'iq, ammo tantanali g'ovur-g'uvuri gumbazlarda aks sado qaytarib, ibodatning hali boshlanmaganidan dalolat berardi.

Ibodatgoh darvozasi oldidagi manzara esa butunlay o'zgacha edi. Bir necha tilanchi va nogironlar ibodatga keluvchilarning sadaqa berishini kutishardi; ular janjallashib, so'kishib, katta bo'z to'rvalarda jaranglayotgan mis chaqalarni bo'lishib olishardi; ular tabiat va jamiyat tomonidan rad etilgan insonlar edi (faqat shunday hollardagina jamiyat bilan tabiat hamjihat bo'ladi). Ular umidlari yetarli bo'lmagani yoki haddan tashqari ko'p bo'lgani orqasida halokatga uchragan kishilar bo'lib, Parvardigorga nisbatan ta'na-malomatning timsoli, rahm-shafqat talab qilishga haqli bo'lmagan kishilar toifasidan sanalardilar, chunki ularda xayr-saxovat

bo'lmagani va hech qachon rahm-shafqat ko'rmaganliklari bois, jo'mardlikdan mosuvo edilar.

Bularning qalblari xuddi kiyimlari kabi qora, uvada edi. Botayotgan quyosh shu'lalari boshlarga, yelkalarga, suyagi turtib chiqqan egik tizzalarga tushib turardi, yuzlaridagi chuqurlar odatdagidan ham qoraroq bo'lib ko'rinardi; har birining peshanasiga abadiy harflar bilan «qashshoqlik!» deb yozib qo'yilgandi. Qani endi, ularning ko'zlarida yoki tabassumida g'urning aqalli bir belgisi, ozgina qoldig'i ko'zga tashlanib tursa!

Tilanchilar to'dasidagi bir kishi ularning gap-so'ziga aralashmasdan, duolar yozilgan muqaddas darvozaga jimgina qarab turardi; u bukur va cho'loq edi; ammo uning a'zoyi badani mustahkam bo'lib, ana shu sharmandali ahvolning mashaqqatlariga ko'nikib qolgandek ko'rinar, yuzi cho'ziqroq, bug'doyrang, burni alifdek, sochi jingalak, keng peshanasi olimnikidek sarg'imgir, bo'ron oldidan quyoshni to'sib turuvchi bulutdek mudhish ko'rinish olgandi, undagi notekis ajinlarni ko'kish tomir kesib o'tgandi; yupqa, qonsiz labi allaqanday beixtiyor titroq bilan goh osilib, goh tortilib turar, ko'zlarida esa butun bir istiqbol porlardi; o'rtoqlari uning kimligini bilishmasdi, lekin qalb irodasi hamma yerda oshkor bo'ladi; ular uning ovozidan va qarashidan qo'rqishardi; ko'pchilik bu gado odamdagi baxtsizlikni emas, balki allaqanday ulug'vor nuqsonni, uning odamligini emas, balki iblisligini hurmat qilishardi – u xunuk, jirkanch bo'lsa-da, biroq ularni bu narsa qo'rqitmasdi; buurning ko'zlarida shunchalik o't va aql, g'ayrioddiy ilohiy bir narsa bor ediki, ular shu ko'zlarning qarashidagi ma'noga ishonishga botinolmay, notanish kimsaning ajoyib yolg'onchiligini e'zozlashardi. U hali yigirma sakkizga ham kirmagandek ko'rinardi, yuzida har doim cheksiz, achchiq istehzo aks etib turardi; uning nigohi butun olamni qamrab oluvchi sehrli doira edi, qalbi hali chinakam hayot kechirmagan bo'lsa-da, ammo mukammal hayot kechirish va muddatidan avval abadiylikka ravona bo'lish uchun o'zining bor kuchini yig'moqda edi; tilanchi qo'llarini ko'ksiga qo'yib, muqaddas darvoza tepasidagi yoqimsiz

bo'yoqlar bilan tasvirlangan iblisni ko'zdan kechirar va ichida unga achinardi; u bunday deb o'ylardi: agar men iblis bo'lganimda, odamlarga azob bermay, balki ulardan nafratlanar edim; chunki ular jannat quvg'indisi, xudo raqibining yo'ldan ozdirishiga arziydilarmi! Odamzod boshqa gap; u nafrat bilan yakunlamoq uchun yomon ko'rishdan boshlashi kerak!

Uning quyuq qoshlari ostida ko'zlari porlab, ozg'in yonoqlari qizg'ish dog'lar bilan qoplangandi; a'zolari bir-biriga tamomila mutanosib edi; qalbini birgina ehtiros band qilgandi, to'g'rirog'i, uning birgina ehtirosi bo'lib, bu mukammal bir ehtiros edi!

– Iso haqi, to'ram, gadolarga, nogironlarga, ko'zi ojizga... Iso haqi, uch tanga sadaqa qiling! – uning o'rtoqlarining nolasi eshitildi; u qaltirab ketdi, ortiga o'girildi va shu daqiqada uning qismati hal bo'ldi. U kimni ko'rdi deng? Xuddi o'sha rus boyoni Boris Petrovich Palitsinning o'zini ko'rdi.

II bob

Baland bo'yli, baquvvat, ammo sochi oqarib, ko'zi xira tortib qolgan, yoqasida Anna xochi ilingan kalta ko'k kamzul kiygan, ellik yoshlar chamasidagi kishini tasavvur qiling; u uzun va qo'pol etikka yashiringan oyoqlarini chang toshlarga bosganida, ko'ngilsiz sado berardi; qo'llarini salobat bilan silkitib borar va har gal xira tilanchilar yo'lini to'sganida, keng peshanasini tirishtirardi; ikkita xizmatkor uning ortidan qolmay, ergashib borardi. Palitsin ibodatgohning tovoqchasiga kumush so'lkavoy tashladi-da, tilanchilarni turtib, xitob qildi: «Yo'qoling, yalqovlar! Shundoq azamat bo'laturib, Iso haqiga sadaqa so'raydilar-a, nega ishlamaysizlar? Ishqilib, shu bezbet sayoqlarni ochdan o'ldiradigan vaqt ham kelsin-da. Mana, hammangizga bir so'm. Tag'in talashib, g'ajishmanglar».

Shu vaqtda bukur tilanchi indamay saxiy janobga yaqinlashdi-da, yonib turgan qora ko'zlari bilan unga tikildi; bu nigoh to'xtab qolgan chaqmoqni eslatardi va uning sirli ta'siriga duch kelgan kishiga qo'rg'oshin muhr bosilgandek, u xuddi shunday qarash bilan javob qaytarolmasdi; agar

ohanrabo bor bo'lsa, tilanchining nigohi eng kuchli ohanrabo edi.

Keksa janob olomondan uzoqlashishi bilan, tilanchi unga yetib olish maqsadida jadal yurib ketdi.

Palitsin qayrilib qaradi.

– Senga nima kerak?

– Juda oz narsa! Menga ish kerak.

Chol tilanchiga, uning bukriga va egri oyoqlariga istehzo bilan boqdi. Lekin qashshoq zarracha ham qizarmadi va xotini boshiga bir ko'za suvni quyib yuborgan vaqtda Suqrot qancha beparvolik qilgan bo'lsa, tilanchi ham shunchalik beparvoligicha qolaverdi, ammo bu beparvolik donishmandning beparvoligi emas edi, tilanchi donishmanddan ko'ra, o'z zarbining aniqligiga ishongan duelchi qilichbozga ko'proq o'xshab ketardi.

– Agar sen, to'ram, meni mehnat qilolmaydi deb o'ylasang, u holda seni bu borada xotirjam qilishim mumkin. – U yerda yotgan xarsangni ko'tarib, koptokdek aylantira boshladi, Palitsin lol qoldi.

– Menga xizmatkor bo'lishni istaysanmi?

Tilanchi bir nafas boshini egib, o'z homiysining qo'lini o'pdi. Nahotki, u bekordan bekorga o'z erkini qullikka almashishga rozi bo'lsa? Pugachyov paydo bo'lishiga ikki oy qolganida, qul atamasini tilga olish juda g'alati-da.

– Otamning boshi haqi ont ichamanki, o'z vazifamni ado etaman! – xitob qildi tilanchi va uning rangpar yuzida do'zaxiy quvonch porladi.

– Isming nima?

– Vadim!

– Bedavo ta'viyaning chiroyli ismini qarang-a!

Xizmatkorlar boyning hazilini ilib olib, xaxolab kulishdi; tilanchi ularga nafrat bilan qaragan edi, ularning noo'rin shodligi barham topdi; pastkash qalblar har narsaga, hatto boshliqlarining bir qadar e'tiborini tortuvchi xo'rlashlarga ham hasad qilishadi.

– Yur ortimdan! – dedi Palitsin va hammalari ibodatgohdan uzoqlashishdi. Vadim tez-tez ortiga qarab qo'yar edi! Nimrang

ufqda tekis qoramtir shaharlarga xos kungirador devorlar, minoralar hamda cherkov bir xil tusda ko'rinish olgandi, ammo bu manzarada allaqanday bir ulug'vorlik bo'lib, u qalbni o'z qismatini, mangulik, dunyoviy va samoviy ulug'vorlik haqida o'ylashga majbur etardi; ana shunday paytlarda yaxshilik bor joyda jinoyatning ham bo'lishi mumkinligini anglamaydigan ba'zi ojiz odamlarda, xuddi tanho haykali bo'lgan sokin ibodatgoh singari qorong'i va go'zal fikrlar tug'ilardi.

III bob

Boris Petrovich uyga ancha kech qaytdi; itlar ovozlari boricha akillashib, uni qarshi oldilar; imoratni chiroq shu'lasini tushib turgan derazalariga qarabgina tanish mumkin edi; shamol shovqin solib, boyni qo'rasi atrofiga o'tqazilgan tollarni silkitardi. Otning dupuri eshtilishi bilan xizmatkorlar fonus ko'targan holda jilmayib, ichlarida esa boyni la'natlab, uni kutib olish uchun shoshilishdi; ular boy uchun issiq o'rinlarini va balki bundan ham shirinroq narsalarini tashlab chiqdilar. Palitsin uyga kirdi: zal qorong'i edi, deraza romlari shamoldan va kuchli yomg'irdan dirillardi, mehmonxonada sham yonardi, bu xona XVIII asr uslubida mukammal jihozlangandi; rang-barang gulqog'ozlar, uchta to'garak stol, har bir stolning yonida uncha katta bo'lmagan uzun kursi turardi. Ikkita baland o'choq o'rtasidagi qalin devorga ko'rimsiz haykalchalar terib qo'yilgan bo'lib, devor rosa bo'yalgandi. Unda Pyotr I ning Poltava jangidan keyin Moskvaga viqor ila kirib kelayotgan vaqti rangsiz bo'yoqlar bilan tasvirlangan edi: ushbu suvratni «tasviriy dastur» deb atash ham mumkin.

Yong'oq daraxtidan yasalgan silliq stolning yonida semiz bir ayol u yoq-bu yoqqa qarab homuza tortib o'tirardi, mehribon ayol! Semirish, homuza tortish, xizmatkor qizlarini, gumashtani, ish yurituvchini, kayfi chog' erini qarg'ash... sho'rlikning hayoti shundan iborat! Bu ish qirq yilga cho'zildi va yana shuncha davom etadi... keyin unga aza tutishadi... uni xotirlashadi, farishtalarga xos xulqini maqtashadi, eh afsus,

deyishadi... Bu ajoyib hayotni qarang-a! Agar uni qanchadan qancha yillarni yutib yuboradigan va hammadan ham yomoni, odamning hislarini xuddi yaproqlardek birin-ketin chirt-chirt uzib tashlaydigan bo'ronlarimiz bilan taqqoslab ko'rsak, bu narsa yanada yaqqolroq ko'zga tashlanadi.

Nastasya Sergeyevnaning (men Palitsinning rafiqasini shunday deb atayman) oyoq tomonida, xarrakda uning yoshgina asrandi qizi o'tirardi. Bu – odamzodga haddan tashqari achingani uchun jannatdan quvilgan farishta edi. Stolning ustida yonib turgan shamchiroq ma'sumaning kenggina peshanasi bilan bir yonog'ini yoritib turar, agar diqqat bilan qaralsa, uning bu yonog'ida mayingina oltinrang tukni payqash mumkin edi; yuzining qolgan qismiga quyuq soya tushgan, u yirik ko'zlarini ko'targan paytdagina qorong'ilikda bir juft uchqun yarq etardi; uning chehrasi goh-goh tushimizga kirib turadigan, ammo o'ngimizda deyarli uchramaydigan chehralardan edi. Uning siynasi bilinar-bilinmas qalqib turar, u goh boshini egib ishiga tikilar, uzun soch o'rimlari esa quloqlari orqasidan sirg'alib tushib, ko'zlarini qoplab olardi; ana shunda uning uzun barmoqli oppoqqina qo'li shu'lada shunday ko'rinardiki, u butun boshli bir suratga arzirdi!

Boris Petrovich kirib keldi; ikkovlari o'rinlaridan turdilar.

– Men yangi qarol olib keldim, – dedi u. – Naq xazina! Ishga ishtiyoqmand tilanchi! Uning uncha epchil emasligi aft-angoridan ham ma'lum, ammo juda itoatkor! Uni hozir o'zing ko'rasan. Hoy, Vadimka! Yugur. – Beo'xshov tilanchi kirib keldi. Boyvuchcha unga o'g'irlik molga qaragandek beparvolik bilan qaradi. «Buncha ham ta'viya bo'lmasa!» – deya xitob qildi u. Lekin Vadim buni eshitmadi, zero, uning qalbi yig'lar edi. Er xotini bilan yig'im-terim, zig'ir va xo'jalik ishlari haqida anchagina gaplashib qoldi; ular tilanchini butunlay yoddan chiqarishgandi; u roppa-rosa bir soat eshik oldida turib qoldi. U qayoqqa qarar edi? Nimalarni o'ylardi? U qalbida yangi tor kashf etdi, o'z hayotining yangi vazifasini topdi. Butun bir soat davomida tik turdi; hech kim uni nazar-pisand qilmadi; Nastasya Sergeyevna o'z

xonasiga kirib ketdi. Shundan keyin Palitsin asrandi qizining yoniga keldi:

– Qalay, mening yangi qarolim senga yoqdimi?

– Ta’viya! – deb javob berdi Olga va shu ondayoq tish g’ijirlashiga o’xshash tovushni eshitgandek bo’ldi. – Bunday olabo’jilarni boshlab kelib nima qilasiz, – dedi qiz so’zida davom etib. – Biz qafasdagi qushchalarning shusiz ham halovatimiz yo’q!

– Aytganimga rozi bo’lmaganing uchun halovating yo’q, – dedi Boris Petrovich va qizni quchoqlamoqchi bo’ldi.

Olga qip-qizarib, uning qo’lini itarib tashladi; bu harakat oddiy qizning oliyjanob jasoratidan dalolat berardi.

– Ayyor qiz, naqadar go’zal ekaningni bilsayding, nahotki, keksalarning qalbi bo’lmasa, nahotki bu qalbning biror burchida qon qaynab, tug’yon ko’tarmasa! Agar so’zimga kirsang, shunday baxtli bo’lar edingki! Menga qara, menda katta dur qadalgan tilla isirg’alar, eron ro’mollari bor, eng muhimi, menda pul bor, pul, pul...

– Sizning uyatingiz yo’q! – deb javob berdi Olga.

Palitsin unga qarab o’shqirdi, lekin yonidagi xonadan qadam tovushlari eshutilishi bilan po’pisa qilib chiqib ketdi.

– E Xudo! – shu xitob qizning qalbidan beixtiyor otilib chiqdi, bu – ham duo, ham gina edi.

Beo’xshov tilanchi eshik oldida hamon qo’lini qovushtirganicha indamay, harakatsiz turardi, uning kiprikklarida yosh tomchilari yarqirab ko’rindi: ehtimol bu ko’z yoshi – alam yoshi, uning dastlabki ko’z yoshidir! Bunday ko’z yoshi yurakni ado, bir necha yillik umrni xazon qiladi, million-million shirin umidlarni bir daqiqada chippakka chiqarib yuboradi! Bizlarni o’n yil ichida butun bir asrga ilgarilatgan Napoleon olam uchun qanchalik ahamiyatga ega bo’lsa, bu ko’z yoshi ham bir odam uchun shunchalik ahamiyatga ega.

– Sen ota-onangni bilasanmi, Olga? – dedi Vadim.

– G’alati savol! – deb javob berdi qiz.

– Sen ularni bilasanmi? – u savolini shunday bir ohangda takrorladiki, bu ohang uni bir titrashga majbur etdi; qiz

allaqachonlar o'tib ketgan bir narsani eslayotgandek, uning ko'zlariga tikildi.

– Men bir yetimchaman, otam meni chaqaloqlik vaqtimda tashlab ketgan, uning qayoqqa ketganini Xudo biladi, har qalay, juda olisga ketgan bo'lsa kerak, qaytib kelmadi. – Vadimning peshanasi tirishdi va yonib tugayotgan shamda kuchsizgina yorishib turgan afti achchiq zaharxandalik bilan iblisona tus oldi.

– Qayoqqa ketganini bilishni istaysanmi?

– Istayman!.. – qizning yosh to'la ko'zlari chaqnaib ketdi.

– O'ylab ko'r, – men senga notanish odamman, balki hazillashayotgan, mazax qilayotgandirman. O'ylab ko'r, shunday sirlar bo'ladiki, ularning tagida zahar yotadi, bu sirlar ikki qismatni bir-biri bilan chambarchas bog'laydi, o'z nafasi bilan o'zgalarning baxtini zaharlaydigan odamlar bor; ularni sevadigan va yomon ko'radiganlarning barchasi halokatga mahkum etilgan, unisidan ham, bunisidan ham qo'rq, sen mening sirimni bilishing bilan o'z taqdiringni xavfli odamning qo'liga topshirasan: u odam bu gulni erkalab o'stirolmaydi – uni g'ijimlab tashlaydi.

– Albatta bilishni istayman, – deb xitob qildi tajribasiz qiz.

U atrofga alangladi, ammo bu vaqtda tilanchi xonadan chiqib ketgandi.

IV bob

Oradan ikki kun o'tdi – Vadim hali ham sirini aytgani yo'q. Nahotki, u qizning qalbiga o't yoqishnigina istagan bo'lsa? Agar shunday bo'lsa, u murodiga yetdi. Olga turli bahonalarni qilib, boyvuchchasining g'azabiga ham qaramay, zerikarli ishini tashlab ketar va Vadimni chekkaroqdagi birorta xoliroq xonada uchratishga harakat qilardi; taajjub! U Vadimni deyarli hamma vaqt o'zi istagan yeridan topardi va shunda o'zini maftun qilgan sirni aytishini iltimos qilar, yalinib-yolvorar, barcha hiyla-nayranglarini ishga solar, ammo uni sira ham ko'ndirolmas edi. Vadim gapni boshqa yoqqa

burib, uni turli hikoyalar aytib ovutardi-yu, lekin sirni ochmasdi; qiz uning aqlidan, jo'shqin xulqidan taajjublanar, yigitning qorong'i qalbini anglay boshlar va bu odamning qullik uchun tug'ilmagani payqar edi. Ana shu narsa uni Vadimga ishonishga majbur etdi; hokimiyat mag'rur qalblarni bir-biridan judo qiladi, asorat esa ularni bir-biri bilan birlashtiradiki, bu ajablanarli hol emas.

Kunlardan bir kuni qiz uning qo'lini ushladi.

– Rostdan ham men juda xunukman-a! – deb xitob qildi Vadim. Qiz uning qo'lini qo'yib yubordi.

– Ha, – so'zini davom ettirdi u. – Buni o'zim ham yaxshi bilaman. Osmon meni yerda biror kishi sevishini ixtiyor etmadi, chunki u meni boshqalardan nafratlanish uchun yaratdi, sen ertaga hammasini bilib olasan. Seni asrab-avaylab nima qilaman? Oh, uzoq vaqt sukut saqlaganim uchun mendan o'pkalama. Ehtimol, vaqti kelib sen ham cho'loq va bukur bo'lib tug'ilgan bu odam soqov, ko'r hamda kar bo'lib tug'lsa bo'lmasmidi deb o'ylarsan.

Vadimning boshqa xizmatkorlar bilan o'zaro munosabatini tushunib bo'lmasdi, chunki uning maqsadini hech kim anglamasdi; men uni quyidagi gaplarda bir qadar tushuntirib beraman; uyga kiraverishdagi zinapoyada biri keksayib qolgan va ikkinchisi yigirma yoshlarda bo'lgan ikki xizmatkor o'tirardi, ular bunday deb so'zlashishardi:

– Buni qara, Fedka, balchiqdan chiqqan odam o'zini oltinga uradi. Anavi Vadimka juda kekkayib ketdi, gumashta meni doim maqtangani maqtagan, u ta'viya bo'lsa, sira hurmat qilmaydi, boyga xushomad qilishini aytmaysanmi, xuddi kuchuk bolasiga o'xshaydi! G'ayridinlar zamoni keldimi deyman-a!

– Yo'g'-e, Ipat amaki. U doim menga yaxshi muomala qiladi, o'zi azamat yigit, faqat u bilan gaplashganda hushyor bo'lish kerak, darrov tuzoqqa ilintiradi, chunonchi, kecha...

– Kecha nima bo'ldi?

– Men senga bu hodisani aytib beray, amaki, quloq sol, boy kecha Alyoshka Shusherindan achchig'lanib, yigirma besh

tayoq urishni buyurdi, Alyoshkani otxonaga olib kirishdi, uni gumashtaning o'zi savalay boshladi. Yigirma besh tayoq urganidan keyin, bunisi boy uchun edi, mana bunisi men uchun deb, tayoqni ko'tardi, bu vaqtda Vadim olisroqda, burchakda turar, o'qtin-o'qtin qoshlarini chimirib qo'yardi. U ko'z ochib-yumgunicha yugurib gumashtaning oldiga keldida, bir musht urib uni yerga qulatdi. U g'azablangani uchun og'zidan oq ko'pik sachrardi, nimadir demoqchi bo'ldi-yu, ayta olmadi.

– Attang, attang! – dedi chol. – Bu odam uzoq umr ko'rolmaydi. – Bevaqt yosh o'lib ketadigan yigitlarga chollar qanchalik achinsa, u ham Vadimga xuddi shunday chin ko'ngildan achindi. Ko'pincha, bo'ron bo'yi baland, ingichka daraxtlarni sindirib, yuz yillardan buyon qimir etmay turgan to'nkalgarga shikast yetkazmaganidek, o'lim ham chollarni o'z domiga tortmay, ularning o'rniga yoshlarni olib ketadi.

Yosh xizmatkorlarning muhabbat va ishonchi Vadimga nega kerak bo'lib qoldiykin? Bunga javobim shu: men tasvirlayotgan voqealar Pugachyov isyonidan ikki oy ilgari yuz bergan edi.

Sohir aql egalari sodir bo'ladigan keskin o'zgarishlarni oldindan sezib, hayajonlanishar edi: xo'jayinning ilgarigi va hozirgi zulmini uning qullari qasos kitobiga yozib qo'yishgan va ularning qonigina bu sharmanda yilnoma yozuvini o'chirmog'i mumkin edi. Odamlar azob chekayotgan vaqtlarida, odatda, itoatli bo'lishadi, ammo yelkalaridagi og'ir yukni uloqtirib tashlashga muvaffaq bo'lsalar, u vaqtda qo'zi yo'lbarsga aylanadi: ezilgan ezuvchi bo'lib oladi hamda birni yuz qilib qaytaradi va shunda yengilganlarning sho'ri quriydi.

Rus xalqi ana shu yuz qo'llik pahlavon o'z hukmdorining o'jizligidan ko'ra shafqatsizligi va takabburligiga ko'proq chidaydi; u jazolanishni, ammo odilona jazolanishni istaydi. U xizmat qilishga rozi, ammo o'z qulligi bilan faxrlanishni xohlaydi, o'z xo'jayiniga qaramoq uchun boshini ko'tarishni istaydi va uning himmati ozligini kechirmasa-da, nuqsonlarining haddan oshib ketganini kechiradi. VIII asrda zodagonlar

o'zlarining avvalgi cheksiz hokimiyati va uni saqlab qolish imkoniyatidan mahrum bo'lganlaridan keyin, boshqacha yo'l tutolmay qoldilar. Pugachyov isyonini keltirib chiqargan sirli sabablarning biri ham shunda!

V bob

Endi hikoyamizni davom ettirsak.

Boris Petrovichning uyi Sura qirg'og'iga, daryo bo'yidagi loy rangli jarga kelib taqalgan baland tog' bag'rida joylashgan edi; qo'ra atrofiga va qirg'oq bo'ylab qurilgan qo'ng'ir tusli qoramtir, qing'ir kulbalar yo'lovchilarga ta'zim qiluvchi tilanchilar kabi yo'l yoqasiga ikki qator tizilgandi. Daryoning narigi tomonida, olisroqda qayinzorlar, undan ham nariroqda daraxtzorlar, tepalar va qoramtir archalar ko'rinib turardi; chap tomondagi chakalakzor qirg'oq pastlikka qiyalab cho'zilgan, olis-olislarda to'lqinlar kabi moviy tepaliklar yastanib yotardi. Oqshom quyoshining zarrin shu'lalari goho taxta tomda va deraza oynalarida javlon urar, bo'yalgan naqshinkor darpardalar shamolning zo'ri bilan taraqlab, zang bosgan oshiq-moshiqlarni g'ijirlatardi. Ko'hna uy atrofiga naqshin panjarali ravoq qurilgan bo'lib, ayvon xizmatini o'tar edi. Olga shu yerda kashta tikib o'tirib, ko'pincha, ishini esidan chiqarardi-da, ko'm-ko'k sayyor suvlarga, oq yelkanli hamda rang-barang temir parrakli qayiq'larga tikilib qolardi. U yerdagi odamlar erkin, baxtiyor! Har kuni yangi sohilni ko'rishadi va yangi umidlar tug'iladi! Pichan o'rimidan qaytayotgan dehqonlarning qo'shiqlari, uzoqdan eshitilgan qo'ng'iroq sadolari uning e'tiborini tez-tez jalb qilib turardi. Kim kelyapti, savdogarmi? Boymi? Pochtami? Ammo unga nima. Baribir emasmi, shunday bo'lsa-da, bilib olgani ma'qul.

Qanday zavqli, mukammal hayot, shunday emasmi?

Ammo uni boshqa bir vahima bosdi, endi u etagiga quyon mo'ynasi tikilgan qora duxoba po'stinchasiga o'ralib, vujudini titroq bosib, eshikni ochadi. Nimadan qo'rquyapsan, sodda qiz: Boris Petrovich shaharga ketgan, uning rafiqasi rohiblarning

o'git-nasihatini va hammadan ham o'zi hurmat qiladigan xudojo'y ayollar tashib yuradigan yangiliklarni eshitmoq uchun ibodatxonaga ketgan.

Uning oldiga kelayotgan kim – Vadimning o'zginasi. Qiz titrab ketdi, rangi bo'zardi, chunki mash'um daqiqalar yaqinlashmoqda edi.

– Senga nima bo'ldi? – dedi Vadim.

– O'zim...

– Ha-a! Tushunaman! – U lablarini tishladi. – Sen negadir, mendan qo'rqding...

– Nega endi sendan qo'rqar ekanman, – dedi Olga mag'rurlik bilan.

– Bu gap zo'r bo'ldi! – so'zida davom etdi u. – Bu gapda ma'no ko'p, demak senga dahshatli, jirkanch bo'lib ko'rinmadim! Yo Parvardigor! Bu naqadar ulug' saodat! Men buni birinchi marta his etdim.

– Menga qara, agar qalbim avzoyimdan ham battar bo'lsa-chi? Axir, ayb menda emas-ku, men odamlardan nondan bo'lak hech vaqo so'raganim yo'q – ular bo'lsa, unga nafrat bilan mazaxni qo'shib berishdi. Men osmonga, yerga va o'zimga ega edim, barcha tuyg'ularim davlatim edi. Quyoshni ko'rib, mamnun bo'ldim, ammo barcha narsa asta-sekin yo'qoldi, birgina fikr, birgina kashfiyot, bir tomchi zahar shunday qildi, ana shundan saqlan, Olga...

– Biz nega bu yerda turibmiz? – deb sabrsizlik bilan so'radi qiz.

– Men bu yerga seni ko'rgani keldim.

– Men buning uchun kelganim yo'q...

– Yana, yana shu gap! – deb xitob qildi Vadim. – Quloq sol, agar mendan biror gapni bilmoqchi bo'lsang, xunukligimga shama qilma: men hasadchiman, yovuzman, sen nimaiki istasang, men o'shaman, ammo menga rahming kelsin, – u ikki qo'li bilan yuzini yashirdi. Qiz achindi, o'z izzat-nafsini g'oyatda yuqori qo'yish iste'dodiga ega bo'lgan bu odam o'zidan ham himoyasizroq, ojiz bir qizdan rahm-shafqat so'rardi yoki yo'q, bu ham emas, u ana shu qizdan haqorat qilmaslikni iltimos qilardi.

Nihoyat, qiz ko'ngilsiz sukunatni buzdi: «Vadim, sen otamning qayerdaligini bilaman, dedingmi?»

Vadim xayolga cho'mdi:

– Senga sirimni ochganim uchun meni hech qachon ta'na qilmaslikka va'da ber.

– Hech qachon ta'na qilmayman.

– Quloq sol: sening otang badavlat, baxtli zodagon edi, ammo ko'plarga o'xshab, qashshoqlikda jon berdi. Sen titrab ketding, lekin bu hali holval!

– Qo'y, agar holvasi shu bo'lsa, u yog'ini aytmay qo'yaqol.

– Yo'q, quloq sol: otangning bir yaxshi qo'shnisi, do'sti va oshnasi bo'lib, uning dasturxoni ustida o'tirguvchi birinchi hamtovog'i, ovga birga boradigan o'rtog'i, farzandlarini erkalaydigan jo'rasi o'sha edi. Ana shu samimiy, sofdil qo'shni cherkovda doim u bilan yonma-yon turib ibodat qilar, ehtiyoj tug'ilganida uni mablag' bilan ta'minlar, do'sti uchun jonini berishga ham tayyor edi. Xo'sh, bir odamning halok bo'lishi uchun ana shularning o'zi kifoya emasmi! Shoshma, ranging oqarmasin, qo'lingni ber, tomirlarimda oqayotgan o't tomirlaringga o'tadi. Bu yog'ini eshit: kunlardan bir kuni ov paytida otangning iti do'stinikidan o'zib ketdi; otang uni mazax qilib kuldi. O'sha daqiqadan boshlab, o'rtada zo'r adovat qo'zg'aldi. Besh yil o'tganidan keyin otang endi boshqa kula olmasdi: uning kulgisi uchun ko'z yoshi oqizib, jazo berganlarning sho'ri quriydi!

Otangning do'sti yer haqidagi eski da'volarini qo'zg'ab, o'z foydasiga hal qildi-da, uning butun mol-mulkini tortib oldi. Men otangni vafoti oldidan ko'rdim; u xuddi marmarga o'xshash sovuq va harakatsiz, keksa boshini o'girib, namsiz ko'zlari bilan menga qattiq tikildi. Uning ko'zlarida hayot va nafratning so'nggi uchquni yonardi, menga ana shu narsagina meros bo'lib qoldi; undagi la'nat daraxti hali qurigani yo'q va u yil sayin yangi shoxlar chiqarib, yovuzning oilasini yil sari ko'proq zulmat pardasiga o'ramoqda, bularning hammasi qanday qilib sodir bo'lganidan bexabarman, ammo sen, otangning o'sha yaqin do'sti kim ekanligini bilasanmi?

Yo Parvardigor! O'n yetti yil mobaynida biror kishi buning qulog'iga: bu non qon evaziga – sening qoning evaziga kelyapti deb aytmabdi, agar men bo'lmasam, qalbi o'rnida faqat qasosning cheksiz istagigina qaynab turgan shu bechora maxluq, shu notavon qashshoq bo'lmasa, bu begunoh zot unga faqat minnatdorlik bildirar edi, xolos.

– Vadim, sen nima deding?

– Minnatdorlik! – u zaharxandalik bilan so'zini davom ettirdi. – Minnatdorlik! Bu, sofdil odamlarni aldash uchun o'ylab topilgan so'z! Hissiyotga aylangan so'z! Eh, samoviy karomat, sen eng muqaddas tuyg'uni ham osongina yo'qdan bor qila olasan! Yo'q, telbaga qarol bo'lishdan va ziyofatning sarqitini uloqtiradigan qo'lni yalashdan ko'ra, birorta sahroda ochlik va chanqoqlikdan jon berganim afzal. Eh, minnatdorlik!

Vadim qo'llarini qovushtirib, u yoqdan bu yoqqa tez-tez yurib turardi, u makkor jinoyatchining ismini aytmaganini ham unutib qo'yganga o'xshardi. U go'yo yovuzning ismini bilmaganligi va bilishga mushtoq bo'lganligi ortida baxtsiz qizning chehrasida ko'ringan qo'rquv alomatini payqamayotganga o'xshardi... Yigit o'zini o'z xayollariga, hech kim qaytib kelmaydigan ana shu qabrga butunlay ko'mib tashlagan edi. Bu jonli qabrda ham abadiy kemiradigan va abadiy to'ymaydigan qurt bor.

Vadimning yuzidagi xunuk belgilar harakatga keldi, uning peshanasida dohiyona bir nur porladi, agar ko'zlari shu daqiqalarda biror-bir kishiga tushsa, vasilisk'ning nigohidek ta'sir etgan bo'lardi, ammo shu topda yuqoriga qarab turardi!

– Topdim! – deb xitob qildi qizcha shaxdam qadam tashlab Vadimning yoniga kelarkan. – Sen aytmqchi bo'lgan gapni angladim! U Boris Petrovich.

U chindan ham topgan edi: buyuk qalblar alohida fazilatga ega bo'ladi, ular bir-birini tushunadi; o'zlariga o'xshaganlarning yuragidagi gaplarni, xuddi ko'pdan tanish bo'lgan kitobdan o'qigandek o'qib olishadi; ularda faqat o'zlariga ma'lum,

¹ *Vasilisk* – afsonaviy kaltakesaksimon hayvon bo'lib qarashi odamni o'ldirar ekan.

ammo ko'pchilikka qorong'i bo'lgan alomatlari bor; ular aytgan birgina so'z, goho butun bir qissaga teng bo'ladi, g'oyatda rang-barang hislarni bayon qilib beradi.

Yosh Olganing otasini halok etgan qalbaki do'st Palitsin bo'lib, uning bu ishini qoralagan ba'zi zodagonlarning tilini tiyib qo'yish uchun oshnasining uch yoshli qizalog'ini o'z xonadoniga olgandi; u qizchaga cho'ridek munosabatda bo'lsa-da, savob ish qilyapman, deb maqtanardi. Palitsin bundan o'n yil avval qizchaning jingalak sochini o'ynab, bolalik sho'xliklarini ermak qilardi, endilikda bo'lsa o'z xayolida qizni sharmisor qiladigan kayfichog'lik uchun tayyorlardi. Bu ham o'ch olishning bir turi edi. Odamning xayoliga kelmaydigan ish! Bir it, ikkinchi bir itdan o'zib ketgani uchun shuncha azoblashmi, odamlar ham shuncha pastkash bo'ladimi-a! Shundan keyin ko'pchilikning fikriga ishoning-chi! Palitsin shu atrofda eng vijdonli kishi deb dong taratgan – bu gap rost! U faqat birgina oilaning sho'rini quritdi, xolos.

Men buyuk qalblar bir-birini anglab yetadi dedim. Shu sababdan ham Vadim qizga taajjublanmay, ichida quvonib qarab turardi.

Qiz uning qo'lidan ushlab, xonaga sudrab kirdi; xonada ilohiy tasvirlar oldida billur ischiroq yonib turar, uning shu'lası marvaridlar, noyob toshlar qadalgan zarrin jildlarda botayotgan quyosh nuri bilan qo'shilib jilolanardi. Olga Bibi Maryamning surati oldida tiz cho'kdi, nursizgina quyosh shu'lası uning tanasi bilan kiftini qorong'i devordan ajratib turardi; titrab yonayotgan shamning qizg'ish shu'lası esa, uning ilhombaxsh qalbida tug'yon urayotgan hislar uchun g'oyatda go'zal bo'lgan chehrasini yoritar edi. Vadim bu farishtadan ko'zini uzolmas va o'zini baxtiyordek his qilardi.

Olga bo'ynidagi marjonlarini uzib, yerga uloqtirdi.

– Minnatdorchilikning so'nggi qoldig'ini yulib tashlayman. E Xudo! Xudoyim! Menda gunoh yo'q. Menga erkin qalbni sen, o'zing bergansan, u bo'lsa meni cho'ri qilishni,

o'ziga cho'ri qilishni istadi! Ayol kishi bunday himmat uchun sevolmaydi, sevolmaydi! Mashaqqat tortishga, azob chekishga roziman, ammo bundan ortig'ini talab qilma, ey Tangrim! Agar endi ham sen menga uni o'z saxovatpeshang deb hurmat qil, desang, u vaqtda men seni ham sevmay qo'yaman! Mening hayotimga, taqdirimga o'zing egasan, Parvardigor, uni kimga istasang topshirasan, ammo qalbim o'z ixtiyorimda!

Uning ko'zlaridan tirqirab yosh oqdi, u boshini quyi soldi, qizning qo'li Vadimning panjalari orasida titrardi.

Vadim beixtiyor:

– Men sening akangman! – deb xitob qildi.

Qiz boshini ko'tarib, o'rnidan turdi, u bu so'zni negadir anglay olmagandek, qo'rqib ketgandek bo'ldi, uning qo'llari murdanikidek shalvirab qoldi, mahkam yumilgan lablari nafas olishini og'irlashtirar edi.

Vadim dahshatli, titroq tovush bilan yana:

– Men sening akangman! – dedi.

Qiz sukut saqlardi.

Vadim unga so'nggi bor qaradi-da, boshini changallab, xonani tark etarkan, eshik oldida to'xtadi, ana shu bir daqiqa ichida boshini eshikning kesakisiga urib, maydalab yubormoqchi bo'ldi, ammo bu telba fikr lip etib g'oyib bo'ldi, u uydan chiqdi.

– Aka! – dedi Olga uning ortidan qarab qolarkan. – Aka!

Qiz madorsizlanib kursiga yiqildi.

VI bob

Boris Petrovich o'zining bukuridan (Vadimni uyda shunday deb atashardi) juda ham mamnun edi. Bukur hamma yerda, ovda ham, dalada ham, ekinzorda ham uning yonidan siljimas, eng mayda istaklarini-da, bajo keltirar, uning nima demoqchiligini oldindan payqardi. Xullas, ishonch qozonishi

uchun zarur bo'lgan barcha chorani ko'rar va agar maqsadiga erisholsa, uning qora kunga saqlab qo'ygan birgina, sevikli xazinasinigina yashirib, undan tashqari barcha tuyg'ularini ifodalaydigan g'azabli basharasida cheksiz shodlik barq urardi. Agar Boris Petrovich xizmatkorlaridan birortasini jazolamoqchi bo'lsa, Vadim aralashib, xizmatkorning gunohi Palitsin o'ylaganidan ham og'irroq ekaniga va u bermoqchi bo'lgan jazodan ham battarroq qiynoqlar borligiga ishora qilar edi. Uning imo-ishora bilan bergan maslahati ijro etilganidan keyin esa, ayyor maslahatchi kulbadagilarning noroziligini qo'zg'atishga urinar, ko'z qarashi va harakatlari bilan ularning boyni qoralashiga yordam berardi, ammo u hech qachon o'ziga ziyon bo'ladigan qullarni yoki zodagonni norozi qiladigan hech qanday gap aytmasdi. Vadim shu xonadonning g'oyatda iste'dodli dushmani edi.

Kunlardan bir kuni Palitsin, nima uchundir, uni huzuriga olib kelishlarini buyurdi, ammo bukurni qidirib topisholmadi. U g'oyib bo'lgandi.

Kun rosa isib, kumushsimon bulutlar soat sayin vazmin tortardi, ufq etagida esa, tuman bilan qoplangan ko'm-ko'k osmon ko'rina boshladi. Daryo qirg'og'idagi tepalik bag'riga qurilgan va baland, jingalak chetan butalari bilan o'ralgan hammom xaroba holiga kelgan, uning yonida g'isht uyumlari bo'lib, ana shu uyumlar orasida qalin ko'katlar va uzun sariq gullar o'sib yotardi. Vadim shu yerda edi: u tizzasiga suyanib, boshini kaftlari orasiga olib, xayol surib o'tirardi. Chetan yaproqlariniig yuziga tushgan jimjimador soyalari lipillab turar va u sirli qiyofa kasb etgandi; quyoshning zarrin nuri poxol tomning yonidan sirg'alib tushib, Vadimning tizzasiga qo'ndi va gir aylanib quyosh tomon ko'tarilayotgan changlarning havoyi raqsini tomosha qilayotgandek tuyulardi.

U kecha Olgaga o'z sirini ochdi. Yigit nihoyat qizni topdi, belanchakdalik vaqtida tashlab ketgan singlisi bilan uchrashdi. Xayriyat, tabiat ajoyib narsa-da! Aka bilan singil bir-biriga yaqin emasmi? Ammo ularning farqini qarang!

Singilning farishtalarga xos chehrasini ko‘ring-u, akaning iblisona qiyofasiga boqing. Ha, aytgandek, farishta ham, iblis ham bitta narsadan vujudga kelgan emasmi?

Biroq, Vadim unda oilaviy g‘ururni, qalb o‘xshashligini ko‘rdiki, bu o‘xshashlik unga ko‘p narsani va‘da qildi, vaqti kelib qizning muhabbatiga sazovor bo‘lishiga ham ishontirdi. Bu umid unga tamomila yangi bir narsa edi; u qizni o‘z ixtiyoriga olishni istadi, undan bir nafas ajralish uni qo‘rqitib yubordi. Shuning uchun ham, u mana shu xilvat joyga keldi, bu yerda to‘lqinlarning shovqini uning o‘ylariga xalal berolmasdi, bog‘bon qanchalik ko‘p parvarish qilsa, uning mehnatini shunchalik kam qadrlaydigan gullar borligini ham bilmasdi. Biz orzuga haddan tashqari berilib, naqd narsamizni qo‘ldan chiqarib yuborishimizni u bilmasdi, u faqatgina qasos olish xayoli bilan band edi.

Uning fikrlari asta-sekin xiralashib borardi, mudrab, maysaga cho‘zildi, shunda uning nigohi binafsharang chuchmomaga tushdi. Qora xolchalari bo‘lgan kulrang kapalak bilan kamalakka o‘xshash rangdor kapalak chuchmomaning tepasida gir aylanishardi. Rangdor kapalak qanotli gulga yoki oltin suvi yuritilgan va allaqanday sehrGAR tomonidan bezatilgan zumrad qanotli la‘lga o‘xshardi; kapalaklarning ikkisi ham binafsharang chuchmomaga qo‘nmoqchi bo‘lar va bir-biriga xalal berardi. Ulardan biri yaqinlashishi bilan shamol uni nariga surib ketardi, nihoyat, rangdor kapalak yengdi – qo‘nib chuchmoma gulining orasiga yashirindi; ikkinchi kapalak uning tepasida bekorga aylanib yurdi, u bu yerdan ketishga majbur bo‘ldi. Vadimning qo‘lida chiviQ bor edi. U chiviQ bilan gulni bir urib, baxtli kapalakni o‘ldirdi, uning jon berish oldidagi so‘nggi titrog‘ini allaqanday bir quvonch bilan kuzatib turdi!

Uning shu daqiqada o‘z yoshligini, otasini, tug‘ilgan uyini, uzun belanchaklarni, atrofiga tol ekilgan hovuzni – hamma-hammasini nima uchun eslaganini Parvardigorning o‘zi biladi. Otasi ishini boy berib, Moskvadan qaytib kelganida qanday bo‘lsa, u hozir ham uni o‘shandek ko‘z oldiga keltirdi. Otasi o‘shanda ish yurituvchi bilan sudning

to'lovini to'lash maqsadida qo'lida qolgan narsalarining hammasini sotishga majbur bo'lgandi. Shundan keyin u otasini kambag'al qo'shnisining uyida ko'rdi, u taqir to'shakda yotardi. Vadim otasining qiynalib olayotgan nafasini va: «O'g'lim, ablahdan, albatta, qasos ol, toki, uning oilasidagi o'g'irlangan nonni hech kim yeb quvonmasin», – degan so'zlarini eshitgandek bo'ldi. Keyin Vadim uni dafn etish marosimini esladi: aravaga ortilgan ochiq tobut har zarbda bir chayqalib qo'yardi. Vadim oldinda Isoning suratini ko'tarib olgandi, ruhoniy va uning yordamchisi orqada titroq tovush bilan duo o'qib borishardi. Yo'lovchilar boshlaridan qalpoqlarini olishardi, mana, tobutni qabrga tushira boshlashdi, arqon g'ijirlab ketdi, chang ko'tarildi.

Vadimning miyasiga qon urildi, u o'sha mash'um ontini pichirlab takrorladi-da, uni ijro etish yo'llarini o'ylay boshladi; u sabr qilishga tayyor, barchasiga bardosh berishga hozir edi, ammo, singil! Mabodo... Oh! Lozim bo'lgan taqdirda u ham ko'maklashishi mumkin, keyin dadil bir qarorga keldi; o'z rejasini amalga oshirishda qizdan qurol sifatida foydalanmoqchi bo'ldi, bir narsani tushunishdan ko'ra, uni ko'proq his etuvchi gunohsiz qalbni halok etishga ahd qildi, taajjub! Vadim uni sevarmidi yoki ezgulikdan ko'ra nafratlanishni afzal biladimi?

Birdan uning boshi uzra ovchi qamchisi sharaqladi va u qo'llari qattiq zirqiraganini sezdi – Vadim yo'lbarsdek sapchib turdi. Boris Petrovich uning qarshisida turib, uni bo'ralab so'kardi.

U Palitsinning haqoratlarini boshini egib eshitdi-da, itoat bilan uning ortidan uyga jo'nadi, xizmatkorlar: «E-ha, senga ham navbat kelar ekan-ku!» – deb, uni masxaralab qarshi olishdi.

Shundan buyon Vadim o'z vazifasini biror marta ham unutgani yo'q.

VII bob

Kechga yaqin Palitsinnikiga mehmonlar kelishdi. Natalya Sergeyevna burmali kimxob ko'ylagini kiyib, upa-elik bilan o'ziga oro berdi; mehmonxonadagi stol murabbolar, ho'l va quruq mevalar bilan yasatildi. Badavlat qo'shni Gennadiy Vasilich Gorinkin to'rda o'tirar, uy bekasi esa shirinlik to'ldirilgan likoplarni daqiqa sayin unga tutib turardi; u har qaysi shirinlikdan oz-ozdan olib, viqor bilan labini artib qo'yardi; u baland bo'yli, oqish yuzli bo'lib, umuman, o'sha davrdagi qishloq aholisining anchagina epchillaridan edi, balki imtiyozli qo'shinda xizmat qilgani uchun ham shundaydir. U yigirma besh yoshida iste'foga chiqib, uylandi va ikki qiz, bir o'g'illi bo'ldi. Boris Petrovich xo'jalik haqida, Moskva to'g'risida va hokazolarni gapirib, uni zeriktirmay o'tirdi, barcha keksalarga o'xshab eskilikni maqtab, yangilikni rosa qoraladi, chunki odam keksaygani sari, unga hamma narsa yomon ko'rinaveradi, kechqurun allamahalgacha gaplashib, suhbatni yakunlashganidan keyin, nima qilishlarini bilmay qolishdi; kaftlari bilan og'izlarini berkitib esnashdi, o'tirgan joylarida u yoq-bu yoqqa o'girilib, olazarak bo'lishdi, shunda mehribon xo'jayin darhol ermak topdi.

– Hoy bola! Misr musallasidan olib kel, – deb qichqirdi u, o'z fikridan o'zi quvonib. – Ikkita ko'zacha bilan katta kumush bordoqlar olib kelishdi. Ular icha boshlashdi, keyin bahslashishdi, so'ngra xaxolashdi; chakkalari qizardi, yillar davomida sovigan miyalari qaynadi.

– Seni bir xursand qilaymi, qo'shnijon! – deb xitob qildi Palitsin.

– Nima bilan?

– Shunday bir narsa bilanki, u xayolingga ham kelmaydi, raqs tomosha qilishni yaxshi ko'rasan-a! Menda bir qiz borki – mo''jiza, shunaqa raqs tushadiki! O'ynaganda jigar-bag'ringni yondiradi! Men ham, sen ham rohib emassan, Vasilich...

– Xudo asrasin...

– Aytganing kelsin!

– Xo'sh, yana nima?

– Yana nima bo'lardi. Onaginam, rafiqam, Natalya Sergeyevna, Olenkaga ayt, bayramda kiyadigan yengi kalta shohi ko'ylagini kiyib, bir raqsga tushib bersin, boshqalar kelib qo'shiq aytishsin, jo'rovozlardan ko'proq chaqir, bir o'yin bo'lsin... – U nima uchun kulayotganini o'zi ham bilmasdi, negadir xaxolab kuldi, hozirdanoq o'zi o'ylagan ishning kayfini surib, kaftini ishqalay boshladi. Odatda, qovog'ini solib yuradigan bu odam hozir xuddi yosh boladek quvnoq bo'lib qolgandi.

Natalya Sergeyevna qo'shiqchilarga to'planishni buyurib, o'zi Olgani qidirib ketdi.

Olga qayerda edi?

Olga o'z xonasining qorong'i burchagida, sandiq ustiga taxlangan po'stinga boshini qo'yib yotardi, qiz uyg'oq edi, u kecha oqshomdan buyon hali ham o'ziga kelgani yo'q. Akasi bilan juda qo'pol gaplashgani uchun o'zini koyir edi, ammo Vadim o'sha daqiqada uni rosa qo'rqitib yuborgan edi-da! U kun bo'yi akasining oldiga bormoqchi, unga singil bo'lishga chindan ham munosib ekanligini va uning nafrati haddan oshgani uchun ayblamasligini, uning ishi to'g'riligi hamda ajoyib jasoratiga qoyil qolganini aytmoqchi bo'ldi.

Natalya Sergeyevna sham ko'tarib, Olga yotgan chog'roqqina xonaga kirdi. Ko'ylaklar, po'stinlar ilib qo'yilgan devorlar yorishdi, semiz xonimning ko'lankasi guldor dasturxon yozilgan stolga tushdi. Yosh qizning go'zal, jo'shqin hayotining yarmi shu xonada o'tgan. Bu yerda qad-qomati kelishgan, shirinso'z yigitlar, imoratlari toshdan, cherkov minoralarining qubbalari oltindan yasalgan katta shaharlar uning tushlariga kirardi. Bu yerda esa, qish faslida dovul quturib, xira derazaga pag'a-pag'a qor yog'ib, uning ko'z oldida oppoq tepaliklar paydo bo'larkan, u issiq po'stinchasiga o'ralib, oppoq dala, kulrang osmon va sumalaklar osilib, tebranib turgan tollarga qarab o'tirishni sevardi. O'n yetti yoshli qizlarga xos, bayon etib bo'lmaydigan sirli istaklar uning qonini

junbushga keltirar va allaqanday o'kinch uni yig'latar, ba'zan qo'lidagi ignasi tushib ketardi.

Natalya Sergeyevna qizni zarda bilan turtib:

– Tur, Olga! – deb baqirdi.

Olga sapchib o'rnidan turdi, shamning shu'lasidan ko'zi qamashdi.

– Uxlab yotganmiding, yalqov qiz...

– Boshim og'riyapti!

– Bo'lmagan gap! Kichkinagina qizcha bo'la turib... boshi og'rir emish! «Yalqovligim tutdi», deb to'g'risini ayt-qo'y-da... yolg'on gapirishini qara-ya... javob ber, uxlayotganmiding, yalqov qiz?

– Men hech qachon yolg'on gapirmayman.

– Nima-nima! Hali menga gap ham qaytaradigan bo'ldingmi! Aytishadi-ya! Ha, beadab qiz, seni boqib tarbiyalagan men emasmidim, gado otangdan olib voyaga yetkazgan-chi?! Nonko'r! Yo'q! Bu xalq sira ham yaxshilikni bilmaydi! Ilonning bolasi ilon, chayonniki chayon bo'ladi. Hoy, men tanbeh berayotganimda labingni burma! To'g'ri tur, peshanangni tirishtirma, mening kimligimni esingdan chiqarib qo'yganga o'xshaysan, a?

Olga nimadir demoqchi bo'ldi, lekin o'zini tiydi; yuzida nafrat alomati ko'rindi, ko'zlarida yongan xira alanga uzun kipriklari tagiga yashirindi. Uning yelkalari ochiq bo'lib, qo'llarini tushirib turar, bo'liq ko'kragi qalqib-qalqib qo'yardi. U boshqa qizlarning g'azabini qaynatib, qo'rqitib yuboradigan achchiq gaplarga indamay quloq solib turardi.

– Bor, yengsiz shohi ko'ylagingni kiyib chiq, raqs tushib berasan, tag'in boshing og'rib o'tirmasin. Eshitdingmi, tezroq bo'! Ha, aytgandek, Boris Petrovichning oldida hadeb noz-u karashma qilaverma! Mening qahrimni bilasan-a! Hammangiz boydan biror narsa yulishning payidasiz, bilib qo'y, – Olga miq etmay tursa-da, juda tutoqib ketdi, agar Natalya Sergeyevna ketmaganida, u ortiq chidab turolmas edi; ko'zlaridan yosh tomchilari tirqirab chiqay dedi, ammo ayollar gohida ko'z yoshlarini tiya olishadi. Buni qarang-a! Undan shubhalanib,

malomat toshini yog'dirishyapti. Nimaga deng? O! Qani uning akasi! Mayli, kelsin va singlisining har ishda yordam berishga tayyorman, degan ontini eshitsin, qasos olish, vayron qilish istagi bilan yashayotganini ko'rsin. Mayli, singlisini dahshatli sirdan xabardor qilsin, singlisi barchasiga tayyor!

Endi u Vadimga javob bera oladi, endi uning ko'zlari sinamoqchi bo'lgan ko'zlarga tik qaray biladi, endi zaharxandaga bardoshli bo'ladi. Bu zaharxandada allaqanday bir ilohiylik bor edi; bu zaharxanda – yurakdagi har bir oliyjanob niyatni, yaxshilik, odamzodga muhabbat uchqunidan o't olgan har bir istakni yulib tashlardi. Unga duch kelgan kishi o'zining hech qanday niyatini asrab qololmasdi, unda odamning xayoliga ham kelmaydigan zo'r yovuzlik bor edi.

Olgani mehmonxonada kutishmoqda, Boris Petrovich tajang; uning mehmoni tez-tez bordog'ini to'ldirib, hadeb lapar aytadi, nihoyat qiz kirib keldi: kalta yengli to'q qizil ko'ylak kiyib, boshini chiroyli durra bilan tang'ib olgan. Uning tim qora soch o'rimi ikki kifti orasidan beligacha tushgan; do'mboqdan kelgan bo'yni hayratli darajada oq, jajjigina oyoqchasi goh-goh ko'rinib ketib, sirli kamolotni va'da qilardi. Yigitchalar ayollarni o'z kayf-safolarining quroli deb bilib, ularning ana shunday sirli kamolotiga shaydo bo'lishadi; darvoqe, jajji oyoqchani yana boshqa bir fazilati ham bo'lib, qissamdan uzoqlashib ketishdan qo'rqmaganimda, sizlarga bu sirni, albatta, ochgan bo'lardim.

U kirdi va hirs bilan tikilib turgan mast ko'zlarni uchratdi, ammo u xijolat tortmadi, qizarmadi, rangi siniqqan ma'yus chehrasi uning xotirjamligini, butunlay taqdirga tan berganini ko'rsatardi. Shu daqiqalarda u o'z hayotining yarim maqsadi bilan yashardi; qiz ajoyib kuyni na boshini va na oxirini chaloladigan siniq musiqa soziga o'xshardi.

Qo'shiqchilar lapar ayta boshlashdi.

– Qani, Olenka, boshla! – deb qichqirdi Palitsin. – Uyalma! – Qiz bir seskanib tushdi. Uning xayoliga «otamning qotili oldida o'ynamayman» degan fikr keldi. Bu fikr uning

qalbiga xuddi chaqmoqdek yorib kirib, kechirilgan kunlarning izlarini yoritdi, barcha alamlar, adolatsizliklar, xo'rliklar, xullas, butun hayoti uning ko'z oldida go'yo tobutdan turib kelayotgan murdadek gavdalandi va qiz uning ta'nasini his etdi.

Agar bu nafis vujudning chekkan azobini tasvirlash mumkin bo'lsa, u vaqtda siz uning aqldan ozmaganiga sira ishonolmas edingiz! Chunki uning kipriklari quruq edi va qattiq yumilgan titroq labidan xo'rsiniq chiqmadi. Har ikkala zodagon: «Ha! Go'zalim, boshla! Xudo yorlaqab, bugun rosa tannoz bo'libsan!» – deb qichqirishardi. Naqadar ajoyib xushomad-a! Shunday emasmi?

Olga biror kishi achinmayotganmikan deb, butun xonani ko'zdan kechirdi. Bu behuda umid edi. U har tomonda qabih itoat, ahmoqona tirjayishni ko'rdi – qullar unga achinib qarashmas, balki hasad bilan qarab turishardi. Mayli, hasad qilishsa qilaverishsin deb o'yladi Olga, ularning jazosi shu bo'ladi.

U raqsga tushib ketdi.

Olga parvosizgina, tekis harakat qilar, hatto unga xos bo'lmagan bir qadar sun'iylikni ham payqash mumkin edi, ammo u ko'p o'tmay beixtiyor harakat qila boshladi, ana shunda qalbidagi dovul sirtiga ko'pchib chiqdi. Ilhom azobi zo'raygan daqiqada ilohiy misralarni qog'ozga tizib, keyin ularni sezmaydigan, eslolmaydigan shoirdek, qiz ham nima qilayotganini bilmas, o'z harakatlarining odob doirasida bo'lishi haqida qayg'urmasdi va shu sababdan ham uning harakatlari tomoshabinlarni sehrlab qo'ydi; bu san'at emas, balki hislarning qaynashi edi.

U birdan to'xtab qoldi, esini yig'ib oldi, yonib turgan ko'zlari bilan yerga qaradi, boshi aylanib ketdi; hamma narsa uning ko'z o'ngida gir aylanardi, baralla aytilayotgan qo'shiqlar unga notekis, ammo mardona sadodek, xotiralarni eslatguvchi kuydek eshitildi.

Olga atrofga qarab, qo'rqib ketdi. Qo'lini silkitib, yugurib xonadan chiqdi.

Boris Petrovich o'rnidan turib, gandraklaganicha qizning ortidan ergashdi; uning hirsii istagini qizarib ketgan yuzidan bilish mumkin edi. Titrab turgan lablaridan otilib chiqayotgan uzuq-yuluq so'zlar, shu yerdagilarga aniq eshilib turardi.

Olga turadigan xonaning halqasi ilingan edi. Boris Petrovich eshikni qattiq tortdi, halqa uchib ketdi; qiz tiz cho'kib yuzini qo'llari bilan berkitib, boshini karavotga qo'ygan holda turardi. Olga uning kirganini bilmadi, chunki: «Ota! Meni gunohkor dema...» – deb, o'zicha gapirardi.

– Endi mendan qutulolmaysan! – deb xitob qildi Boris Petrovich xaxolab. – Men ham, sen ham yaxshi odammiz, shunday bo'lgandan keyin...

Qiz sapchib o'rnidan turdi, uning so'zlarini tushunmadi, shekilli, hayron tikilib qoldi. U qizning qo'lidan ushladi, Olga qo'lini tortib olmoqchi bo'ldi-yu, kuchi yetmadi. Palitsin to'shakka o'tirib, qizni bag'riga tortdi-da, bo'ynidan, siynalaridan o'pa boshladi. Qiz yuzini o'girib, uning qaynoq quchog'iga tushib qoldi, agar bir necha daqiqa shu ahvolda qolsa, halok bo'lishi turgan gap edi.

Ammo birdan shovqin ko'tarilib, uy bekasi yugurganicha kirib keldi. Izzatli er-xotin o'rtasida janjal-suron, bahs boshlandi. Natalya Sergeyevna mast erini olib chiqib ketishga muvaffaq bo'ldi, ammo Palitsinning bo'g'iq, yo'g'on ovozi bilan Natalya Sergeyevnaning ingichka chinqirig'i hali ham eshilib turardi. Nihoyat, shovqin-suron tinchidi. Ana shundagina Olga hammaning o'zidan nari ketganiga qanoat hosil qildi.

U yuragining dukillab urib turganini eshitdi va bo'ynining achishayotganini sezdi; sho'rlik qiz! Qiz yelkasining yuqoriroq qismida mast cholning o'pichlaridan qolgan qizil dog' ko'rinib turardi. Uning muz kabi sovuq qo'llari qizning ozmuncha nozik joylarini ezdimi! Cholning o'pichlaridan qizning qalbida hazilakam nafrat paydo bo'ldimi! Oy ko'tarildi; uning nuri devordan sirg'alib tushib, torgina xonaga mo'raladi va derazaning xochga o'xshash romlari tussizgina polga ko'lanka tashladi. Shu nur Olganing yuziga ham tushdi-yu, ammo

uning oqargan chehrasiga rang kiritolmadi va qizil dog' uning shu'lasiga g'arq bo'lolmadi, shu vaqt mehmonxonadagi devor soati o'n birga zang urdi.

VIII bob

Bu oqshom Vadim qayerda yashirinib yurgan edi? U qorong'i boloxonada poxol ustida qo'llarini chalishtirib, chalqancha yotganicha mangulik haqida o'ylardi. Vadim ko'pdan buyon orzu qilgan saodatini – ozodlikni o'ylab, xayolga g'arq bo'lgan, u yashab turgan narsalarning barchasidan chetlashtirilgan ruh edi, hech narsani istamaydigan, hech narsaga achinmaydigan, o'tmish va kelajakning sohibi bo'lgan ruh... Kelajak unga rang-barang manzara kabi ko'rinar, u kelajakdan ko'pgina kulgili narsalarni topar va hech qanday qizg'anishni ko'rmasdi. Uning qalbi kengayib, o'z qafasini yorib chiqishni, butun tabiatni qamrab olishni, keyinroq esa, uni vayron qilib tashlashni istardi, agar bu istak telbaning istagi bo'lsa, har qalay, buyuk telbaning istagi edi. Eng ulug' yaxshilik nima-yu, eng ulug' yovuzlik nima? Bular ko'z ilg'amas zanjirning bir-biridan uzoqlashgan sari bir-biriga yaqinlashib topishadigan ikki uchidir.

Ajib tovushlar Vadimning xayolini bo'ldi: ular laparning shimol shamoli gurillashiga qo'shilib ketgan sadolari edi. Yigit boshini ko'tardi; oy tuynukka tik boqar va uning nuri ezilgan poxolni yoritib, qarshidagi devorga tushib turardi. Shuning uchun ham Vadim devordagi har bir teshikni, to'sinlar orasidan osilib chiqib turgan parcha-parcha o'tlarni bemalol ko'ra olardi. U ana shu devordan uzoq vaqtgacha ko'zini ololmadi, olisdan eshitilayotgan qo'shiqqa jim quloq solib yotdi. Nihoyat, qo'shiq tindi, to'lin oyni bulut qopladi. Vadim o'rniga yiqildi, vujudini sababsiz bir iztirob qoplab oldi. U qo'lini bukib og'ritar, uh tortar, tishlarini g'ijirlatardi. Yigitning tomirlarida noma'lum bir olov kezib yurar, miyasi tars etib yorilgudek bo'lardi. Evoh! Shuncha vaqtdan beri faqat nafrat qilish bilangina kifoyalanib yurganini qarang-a!

Kichkinagina eshik g'irchillab ochildi; unga yengilgina qadam tovushlari eshutilgandek bo'ldi.

– Aka! – dedi allakim muloyim tovush bilan.

Vadimni titroq bosdi. Shu tobda bulut o'tib ketib, oy Olganing bir yelkasi bilan yuzining yarmini yoritdi, u yigitning qarshisida tiz cho'kib turardi.

Vadim qizning chehrasidagi og'ir tashvish alomatlarini ko'rib:

– Hammasini tushundim, – deb xitob qildi.

– Rostdanmi? – dedi Olga tovushi o'zgarib. – Rostdanmi? Men seni xursand qilgani keldim, do'stim!

Do'stim! Yer farishtasi Vadimni ilk marta shunday deb atadi. Yigit bu saodatning mazmunini birdan anglab etmadi; u bu saodatning bema'ni tush emasligiga ishonmoq uchun xuddi telbadek boshini changalladi, lablariga tabassum qo'ndi. Uning butun bir tuyg'u bilan boyigan qalbi million so'mga ega bo'lib, uni sarf qilmay, temir sandiqqa yashirib qo'yadigan va o'zining bu xazinasini umrining oxirigacha qo'riqlaydigan o'tkinchi davlat egasiga o'xshab qoldi.

Bu so'z yigitning qalbiga shu qadar chuqur o'rnashib qoldiki, bir necha kun o'tganidan keyin u o'zi bilan o'zi gaplashib o'tirganida, beixtiyor «do'stim» deb yubordi.

Agar menga, singilni bu qadar qizg'in sevish mumkin emas desalar, bunga mening javobim shu bo'ladi: sevgi hamma yerda sevgidir, ya'ni u parishonxotirlik, telbalikdir, uni nima deb atasangiz bo'laveradi. Dunyoda hamma narsadan nafratlanib, faqat birgina kimsani (bu kimsa kim bo'lmasin, onami, singilmi yoki qizmi – baribir), ana shu birgina kimsani sevguvchi kishining muhabbati, sizning barcha bebosh ehtirolaringizdan kuchliroq bo'ladi. Uning sevgisi o'z e'tibori bilan har qanday shuhratparastlikka yotdir, ammo bu sevgiga xayol aralashgudek bo'lsa, unda baxtsiz sevguvchining holiga voy! Allaqanday bir ajib ziddiyat ortida eng muqaddas tuyg'u ham eng zo'r yovuzliklarga olib keladi. Bu tuyg'u oxir-oqibat shu qadar ulg'ayadiki, odamning qalbi uni sig'dirolmay qoladi-da, muqarrar halok bo'ladi, tilka-pora

bo'ladi. Yoki bir zarb bilan o'z sanamini parchalab tashlaydi, ammo ba'zan izzat-nafs ham ustun keladi.

– Aka! Quloq sol, – dedi Olga so'zini davom ettirib. – Men hamma narsani birma-bir o'ylab chiqdim va sen ham, men ham qaytmaydigan yo'lga ilk qadamni qo'yishga ahd qildim. Baribir, bu yo'llarning hammasi o'limga olib boradi, ammo men pastkash, bag'ritosh odamga o'zimni o'yinchoq qildirib qo'ymayman. O'ylagan rejamni sen amalga oshirishing yoki o'zim bajarishim kerak. Bugun menga qattiq alam qildi, ana shu alam uchun o'ch olishni istayman va o'ch olishim shart, aka! Mening ontimni rad etma. Agar uni rad etadigan bo'lsang, u paytda ko'rasan, men bunga chidolmayman. Sen menga yaxshilik qilasan, nafratimni xuddi bolam kabi qabul qilasan, shu bolam o'sib, voyaga yetib, sharmandaligim va azobimni qoni bilan yuvmagunicha, uni sevib parvarish qilasan, ha, sharmandalik, u qotil meni quchoqladi, o'pdi, bo'ldi, sen unga dahshatli jazo berish uchun tayyorlanyapsan-a, to'g'rimi?

Vadim vahshiyona xaxolab kuldi va kulgisini to'xtatish uchun pastki labini shunday qattiq tishladiki, qon chiqib ketdi, shu daqiqalarda u qurbonini o't purkab kuydirayotgan ajdarhoga o'xshardi.

– Bizlarni baxtsiz qilib yaratgan Xudo haqi, uning muqaddas sir-u asrorlari haqi, uning xaloskor salib yurishi haqi, qasam ichib aytamanki, har bir ishda, har bir masalada senga bo'yin egaman.

– Vadim, agar men qo'lingda qurol bo'lsam, sening zarbing kuchsiz bo'lmasligini va behuda ketmasligini bilaman! O! Sen ulug' odamsan!

– Ha, meni sevganing uchun endi ulug'man!

Qiz indamadi.

– Tinchlan, aqlingni yig', – dedi Vadim. – Sen meni hali bilmaysan, ammo men fikrlarimni senga oshkora so'zlayman, butun hayotimni hikoya qilib beraman, ana shunda sen meni bilib olasan. Men g'ayrioddiy qalbimni senga ochishim, ko'rsatishim mumkin, sen bu dengizdan suzib o'tolmaydigan

ojiz qayiq emassan. Uning to'liqlari, bo'ronlari seni cho'chita olmaydi, chunki sen shu dovul quchog'ida tug'ilgansan, sen uning cheksiz qa'riga g'arq bo'lmayсан!..

Otamiz vafot etganidan keyin men seni, belanchakdagi chaqaloqni, yaxshilikni ham, yomonlikni ham, tashvishni ham bilmaydigan murg'ak qizchani tashlab ketganim hamon yodimda. Ko'ksimda o'sha paytdayoq halokatli so'nmas ehtiros yona boshlagandi. Sen jajji qo'llaringni menga uzatib, jilmayding, himoyangga ol degandek bo'lding, menda bo'lsa, bir burda ham non yo'q edi.

Menga rahmilari kelib, ibodatgohda olib qolishdi. Yemak berishdi, chunki men it emasdimki, suvga cho'ktirib yuborishsa. Men eng yaxshi yillarimni o'sha yerda o'tkazdim; qo'ng'iroqlarning quloqni qomatga keltiruvchi tovushi, Xudoga yaqin bo'lish uchun qora rido kiygan odamlarning qiroatigina eshtiladigan devorlar orasida xo'rlanib yurdim. Tabiat meni kamsitgani, ya'ni xunuk bo'lganim sababli ular ham meni xo'rlashdi. Ular xunukligim uchun Xudoga shukur qilishga majbur etdilar; go'yo Xudo meni tashvishli dunyodan, gunohlardan xalos etish uchun xunuk qilib yaratgan emish. Ibodat qilar emishman! Qalbimda qahr-g'azabgina bor edi! Ko'pincha, oqshom paytida, botayotgan quyoshning pushti shu'lalari cherkov gumbazlarida va mis qo'ng'iroqlarda yaraqlab turganida, men muqaddas darvozadan chiqib, kichkinagina vayrona cherkov o'rnashgan tepalikdan turib, zindonimni tomosha qilardim. U olisdan g'oyatda go'zal bo'lib ko'rinardi! Bulutlar xayolimni o'zlarining samoviy qanotlari bilan baravar parvoz etishga da'vat qilishar, ammo istehzoli ovoz menga pichirlab bunday derdi: sen o'z fikring bilan butun borliqni qamrab olishga qodirsan, o'z qalbingning kuchi bilan tabiiy tartibni buzib tashlab, yangisini yarata olasan, shuning uchun ham men seni bu yerdan chiqarmayman. Senga shu ishlarni qila olishing mumkinligini bilishning o'zi kifoya!

Ibodatgohda hech kim men bilan do'st tutinishni, birga bo'lishni istamadi. Men yolg'iz edim, hamisha yakka yurdim, yig'laganimda odamlar kulishdi, chunki ular o'zlaridan

yomonroq yoki yaxshiroq bo'lganlarga achina olishmaydi. Menga tanish rohiblarning barchasi tentak bo'lib tug'ilgan yoki keksayib ahmoqqa aylangan, ro'za tutishdan boshqa hech narsaga yaramaydigan oddiy, bir nav durustgina maxluqlar edi. Men odamzodni yomon ko'rishni istadim, ammo beixtiyor undan nafratlanadigan bo'ldim; jonim azobda qoldi. Unga ozodlik, keng dala, ochiq osmon kerak edi, g'ishtdan yasalgan oq qafasda o'tirib, hujradan cherkovga olib boradigan tor so'qmoq yo'lga qarab qish bilan bahor haqida o'ylash, quyoshning nurli jamolini uzun panjarali derazadagina ko'rish va biror kitobda yozilmagan narsa haqida gapirishga jur'at qilolmaslik dahshatli bir holdir.

Telba bo'lib qolish mumkin!

Olga, kunlardan bir kuni men oyoqsiz tilanchini ko'rib qoldim. U o'rtoqlarining suhbatiga aralashmasdan, muqaddas darvozaning oldida, yerda, ikkita toshni bir-biriga urib o'tirardi, agar toshdan uchqun chiqsa, uning ko'rimsizgina yuzida ajib bir sevinch paydo bo'lardi. Men uning yoniga kelib:

– Sen juda aqlli ekansan, birodar, negaki anavilarning janjaliga aralashmayapsan, – dedim.

– Mening oyog'im yo'q, – deb javob berdi u norozi bir qiyofada.

Bu narsa meni hayratda qoldirdi, xato qildim deb o'yladim, ammo savol beraverdim:

– Sen avval nima ish qilarding, savdogarmiding yoki dehqon?

– Tilanchi edim, – deb javob berdi u. – Tilanchi bo'lib tug'ildim, tilanchi bo'lib o'laman, faqat farq shunda ediki, oyoq bilan tug'ilib, oyoqsiz o'laman!

– Nega endi?

– Nega emish, – shu yerga kelganida u o'ylanib qoldi, keyin esa beparvolik bilan gapira ketdi, – men bir ko'rni yetaklab yurardim. Bizlar ko'pchilik edik, ko'r o'lganidan keyin men ortiqcha bo'lib qoldim. Meni bekorga yemak yemasin, foydasi tegsin, deb qo'l-oyog'imni sindirishdi; endi meni aravachada olib yurishadi, pul berishadi.

Men undan darhol:

– Sen ota-onangni ko'rganmisan? – deb so'radim.

– Ko'rganda qandoq!

– Ular nima ish qilishardi?

– Tilanchilik qilishardi, – deya jilmayib qo'ydi u. – Men tilanchining so'zlarini qattiq hayajon bilan eshitganim uchun, uning bu bilan taqdir ustidan kulganini ham, meni masxara qilganini ham anglolmadim.

Demak, shunday bir hol ham bor ekanki, unda xunuklik ayb bo'lmay qolarkan deb o'yladim.

Ertasi kuni ibodatgohdan qochib, tilanchilik qila boshladim.

Vadim shu yerda gapini to'xtatdi.

– Seni tushunaman! – dedi Olga uning qo'lini siqar ekan.

– Tushunishingni bilardim. Axir, singlimsan-ku! – deb javob qaytardi Vadim.

– Menga qara, bechora otamiz uchun qasos olishni falakning o'zi istayapti, shu sababdan u barcha hodisalarni bir-birga bog'lab, seni maqsad yo'liga soldi.

– Bu yo falakning yoki do'zaxning ishi. Balki, bu ularning ishi ham emasdir, odamning qat'iy istagi tabiatni ham, hodisani ham o'z amriga bo'ysundira oladi. Garchi men tilanchilik qila boshlaganimdan buyon allaqanday bir quturgan iblis qalbinga o'rnashib olgan bo'lsa-da, ammo u mening harakatlarimga ta'sir ko'rsatolgani yo'q, u menga faqat azob berib keldi, xolos, mahv bo'lgan umidlarimni tiriltirdi, muhabbatga bo'lgan tashnalikni oshirdi, u qorong'i jarlik qirg'og'ida men bilan yonma-yon daydib yurib, menga olisdagi butun bir jannatni ko'rsatdi. O'sha jannatga yetishmoq uchun tubsiz jarlikdan hatlab o'tmoq zarur edi. Men qasd qilolmadim; oladigan qasosimni kimga vasiyat qilib ketardim? Uni kimga topshirib ketishim mumkin edi?

Men sheriklaridan orqada qolib ketgan janub qushi singari qish dovullariga duch kelib, uzoq vaqt boshpanasiz, manzilsiz yurdim, uzoq umr ko'rish hayotimning maqsadiga aylandi.

Ammo taqdir meni bir odam bilan uchrashtirdiki, u gapdan gap chiqib, sening Palitsinnikida tarbiya topayotganingni, uning boy, xushvaqt, baxtli ekanini aytib qoldi. Bu xabar g'azabimni qaynatib yubordi!.. Men uning baxtli bo'lishini istamasdim va u bundan keyin baxtli bo'lmaydi, men bu uyga o'zim bilan birga iblisimni ham olib keldim; uning nafasi baxtlilar uchun vabo, ha, vabo... singlim, sen meni kechir... Eh! Men bir jinoyatchiman... u yovuz ruh sening vujudingga ham joylashganini ko'rib turibman; umrning ham zavoli, ham kamoli bor. Bu illat senga ham yuqibdi. Agar men bo'lmasam, sen, ey yer farishtasi, beg'amligingcha qolaverarding... Endi hammasi tugadi, mening nafasim umid gullaringni so'ndirdi, endi osoyishtaligingdan voz kech, isyonkor dengizning to'lqinlarida gullar o'smaydi; iblis bor yerda, Xudo yo'q.

– Bu qanday gap! – deb xitob qildi Olga. – Nahotki, sen pushaymon qilyapsan! Ha, men ayol kishiman, lekin har qanday ayol ham o'z qayg'ularini, oromsizligini dabdabali isnodga alishavermaydi-ku, dabdabali isnodga! – Evoh! Cholning, oilam dushmanining o'ynashi bo'larmishman... sen shunday bo'lishini istarmiding, Vadim, to'g'rimi?

– Yo'q, agar shunday bo'lsa, men seni o'ldirardim...

– Endi-chi, endi o'ldirishingga kim xalal beryapti?

– Endimi? Endi... – u yerga qarab, homuza tortdi, uning qattiq azob chekayotganligi quyidagi so'zlaridan bilinib turardi. – Nahotki, endi seni o'ldirsam! Ko'zlarimda yosh paydo bo'lib, oyog'ingga bosh qo'yib yig'lashga tayyorman-u, seni o'ldirarmidim! Evoh! Kulgisi eng qattiq azobdan ham og'irroq bo'lgan kishi uchun yig'lamoq – naqadar ulug' rohat! Yo'q, men hali ham sen o'ylaganingdek rasvo emasman, seni ko'rishni o'zi uchun saodat deb biluvchi kishi, har jihatdan mukammal jinoyatchi bo'lolmaydi.

– Meni o'ldirgan kishi xaloskorim bo'ladi, – dedi Olga bir necha daqiqa sukutga g'arq bo'lganidan keyin, asta jilmayib.

– Mening nomim yer yuzida la'natlanganidan keyin, kim meni yaxshi ish qildi deb ayta oladi?

- Men senga hayronman, do'stim!
 - Istamayman! Meni sevgin.
- Qiz qo'llari bilan yuzini berkitdi.

IX bob

Orangizda kim nurli Oka sohillarida bo'lgan? Kim uning xotiralarga boy bo'lmasa-da, tabiiy hashamati bilan porlovchi to'lqinlarini tomosha qilgan! Kitobxon! Sening baxtiyorligingga yoki bobolaringning qonli halokatiga guvoh bo'lgan to'lqinlar shular emasmikan?! Yo'q, unday emas! Sevinch yoshlaring qo'shilgan yoki bobolaringning qoniga bo'yalgan to'lqin endilikda dengizning olis bir yerida maqsadsiz va umidsiz sarson-sargardon bo'lib yurgandir, yo bo'lmasa, g'azabi qo'zg'agan daqiqada marmar qoyaga urilib, parcha-parcha bo'lib ketgandir! U yo'l-yo'lakay insoniy ehtirolarning izlarini yo'qotib qo'ygan, u tentak oshiqlarning bema'ni oh-u nadomatlari ustidan kulgan ayol kabi, o'zining ustidan beozorgina o'tgan asrlarning o'zgarishlaridan kulmoqda; u do'zaxdan ham, jannatdan ham qo'rqmaydi; u erkin yashaydi hamda istagan vaqtida mahv bo'ladi, u birorta baxtsiz qalbning qabriga aylanganida ham, o'z nafosatini, beorom, tetik fe'lini yo'qotmaydi; uning murda ustida tutgan azasida achinishidan ko'ra tasalli ko'proq. Agar biror narsaga hasad qilish mumkin bo'lsa, u holda yolg'iz tabiat qonunigagina itoat etuvchi ko'm-ko'k, sovuq to'lqinlarga hasad qilish kerak. Biz o'z qonunlarimizni o'ylab topganimizdan buyon, tabiatning bu qonuni biz uchun yaroqsiz bo'lib qolgan.

Vadim sershox arg'uvon daraxti ostida turardi: uning atrofida xushbo'y is anqirdi. Qalbning qattiq azob chekishi natijasida toshga aylanib ketgan hislar asta-sekin eridi: odamlar rad etgan bu maxluq tabiat quchog'iga o'zini otishga tayyor edi, faqat tabiatgina uning otashin chanqog'ini qondira olar va unga boshqa qalb yoki yangi qiyofa berib, o'zining og'ir xatosini tuzata bilardi. Vadim qirg'oqdagi maysani, tik sohilda yaltiroq, yashil shokilalardek osilib turgan, qalin

chirmashib o'sib yotgan o'simlikni allaqanday bir xotirjamlik bilan kuzatib turardi. Uzoqdan, tuman orasidan ko'rinayotgan tepaliklar ekinzorlardan ajralib, yuksalib turardi, ehtimol, bu tepaliklar tatar suvoriylarining qabrlaridir; archazorlar, qayinzorlar suvga to'ntarib qo'yilgandek tuyulardi, archalarining qoramtir tusi qayinlarning sarg'imtir yaproqlari va oqish ildizlaridan farq qilardi. Yoz quyoshi shu oddiy manzaraga zarhal yugurtirgan edi; tug'ilgan yeringdan oqib o'tadigan daryoning shovqinida allaga, kekxa enaganing hikoyalariga o'xshab ketuvchi allanima bor, Vadim shuni sezdi va uning xayoli beixtiyor o'tmishga yo'l oldi. O'tmish bir vaqtlar o'zimizniki bo'lgan uyga o'xshaydi va biz endilikda bu uyda mehmon degan nom ostida bazm qurishimiz kerak; ana shu rohatning tubida yotgan og'ir hasrat tiniq, shaffof Amerika qudug'ining tubidagi yirtqich timsolga o'xshaydi.

Nogahon shamol olis bir yerdan arava qo'ng'irog'ining jarang-jurung sadosini olib keldi. Vadim bir seskandi-yu, nima uchun seskanganini o'zi ham bilmay qoldi; u qayrilib qarab, butalar orasidan yog'och ko'prikn va sarg'ish yo'lni ko'rdi. Bu yo'l tepaliklar ortida yo'qolib ketardi, shu yo'lda to'rt g'ildirakli oddiy soyabon arava ortidan kulrang chang ko'tarilmoqda edi. «Biz tomonga kelmayaptimikan?» – ... qo'ng'iroq uni tashvishga solib qo'ydi; allaqanday bir g'ashlik ko'ngilga qo'rg'oshindek botdi. U daryo bo'ylab kezib, ko'ngil ochishga urindi. Ammo ko'ngli ochilmadi: la'nati qo'ng'iroq uni ta'qib qilardi.

Boyning uyida nima gap? Qo'ng'iroq tovushini u yerda ham eshitishdi, lekin bu sevimli sado hech kimning ko'nglini g'ash qilmadi; Natalya Sergeyevna derazaning oldiga yugurib keldi, kechadan buyon xotini bilan arazlashib gaplashmayotgan Boris Petrovich esa, o'zini narigi derazaga otdi. Ular ta'tilga chiqqan o'g'lining kelishini kutishmoqda edi. Kelayotgan o'sha bo'lsa kerak!..

U paytlarda pochta juda yomon ishlardi yoki to'g'risi, pochta o'zi yo'q edi. Ota-onalar podshoh xizmatidagi

farzandlarining oldiga chopar yuborishardi, ammo bu choparlar erkinlikdan foydalanib, ko'pincha, qaytib kelishmasdi; bu narsa shunga olib kelar ediki, bir ona allaqachon urushda o'lib ketgan o'g'lini bir qizga unashtirib qo'yardi, dilbar qiz kuyov bolani kuta-kuta, nihoyat, boshqasiga tegib ketardi. To'y kechasi birinchi kuyovning arvohi g'oyibdan kelib, kelin-kuyov bilan birga yotadi, «qiz meniki», deydi u. Uning so'zlari bo'sh kallada yelib yurgan shamolning xuddi o'zginasi edi, u kelinni bag'riga bosadi, ammo uning qalbi o'rnida qonli yara bor. Ruhoniyni chaqirishadi, u xoch bilan muqaddas suv olib keladi, shunda bemahal kelgan mehmonni haydab yuborishadi. U ketayotib yig'lab yuboradi, ammo uning baqraygan ko'zlaridan yoshning o'rniga qum sochiladi. Oradan qirq kun o'tgach, kelin sil xastaligidan vafot etadi, kuyovni esa, hech qayerdan izlab topisholmaydi.

Xalqda shunaqa bir rivoyat bor, biz bu rivoyatni qo'yib, hikoyamizni davom ettiramiz. Boris Petrovich bilan uning rafiqasi uch yildan beri Yurinkadan xat-xabar ololmas edilar. Bundan bir oy avval u yo'lda bir ziyoratchini uchratib, undan maktub berib yuborgan va yaqin orada uyga qaytishini bildirgan edi. Kelayotgan uning xuddi o'zginasi!..

Qo'ng'iroq tobora balandroq jaranglay boshladi. Ana, yaqinlashib kelyapti, ot dupuri, izvoshchining qiyqirig'i, g'ildiraklarning taraq-turuqi eshitildi. Soyabon arava darvozadan kirib keldi. Qo'radagilarning hammasi yig'ilishdi. Kelgan o'sha, harbiy mundirda, ana, aravadan sakrab tushib, onasining quchog'iga otildi, otasi nariroqda turib yig'layapti, axir, bu ularning yakka-yu yagona o'g'li emasmi!

Darvoqe, bu narsalar tasvirga muhtoj emas...

Vadim kechqurun uyga qaytib keldi, soyabon aravani ko'rdi, qulog'i yarimta-yurumta gaplarni ilg'adi, u kim kelganini payqadi, yigit shod olomonga hasad bilan boqdi, kelajakni o'yladi, kunlarni sanadi, tishining orasidan allaqanday malomat so'zlar otilib chiqdi. Keyin esa, uyga qarab, bunday dedi: «Bu gap rost, bu ovoza emas! Bir necha

haftadan keyin shu yerda qon to'kiladi va bundan ham kattaroq ishlar bo'ladi, o'zgalar behisob azob chekkanlaridan so'ng biror daqiqa ham baxtli bo'lolmaydilar-u, nega endi bular uzoq vaqt surgan kayf-safolari badaliga aqalli bir kun ham azob chekmas ekanlar?! Nega falak ularni sevadi-yu, meni sevmaydi?! Yo Parvardigor, agar sen meni o'g'lingdek, yo'q, o'g'lingdek emas, balki bir asrandidek sevsang edi, men bildirgan minnatdorchilikning yarmi ularning barcha ibodatlaridan kuchliroq bo'lardi, ammo sen meni tug'ilgan soatimdan la'natlagansan va men mahv bo'ladigan paytimda saltanatingni la'natlab ketaman...»

Vadim chipta soyabon aravaning yonida qimir etmay turardi, atrofda olag'ovur olomon, kampirlar, bolalar tiqilishib, baqirib-chaqirishar, xaxolab kulishar edi.

– Boyvachchamiz biram kelishgan ekanki, – der edi allakim. Vadim qir-qizarib ketdi va shu daqiqadan boshlab Yuriy Palitsinning ismini nafrat bilan tilga oladigan bo'ldi.

Nima ham qilish mumkin! U o'zining iblisona vasvasasidan xalos bo'lolmas edi.

X bob

Qosh qoraydi, shamlar yoqildi. Dasturxon bezatilib, mis samovar olib kirildi; Boris Petrovich aziz mehmondan behad shod, xotini esa, unga nimani manzur qilishni bilolmay, dovdirab qolgandi. Mehmonxonaning qiya ochiq eshigidan yondagi xonaga uzun shu'la tushib turardi; bu xonaning devorlari atrofida ro'zg'or idishlari taxlangan baland javonlar qorayib ko'rinardi. Olga shu xonaning eshigi oldida oyoq uchida turib Yuriydan ko'zini uzmasdi, uni bunday qilishga shunchaki qiziqishdan ko'ra kuchliroq bir narsa majbur qilgandi – Yuriy nihoyatda kelishgan yigit edi. Qizlarga xuddi ana shunday go'zal chehralar yoqadi, yigitning chehrasida mehribonlik va shu bilan birga jo'shqinlik barq urib turardi. Unda tabiiy bir otash, istehzosiz bir quvnoqlik mujassam edi,

u, o'z davrining odatiga ko'ra, yuziga upa surmagan, uzun qo'ng'ir sochlari bo'ynini qoplab olgan, moviy ko'zlarida nur aks etmas, ammo bu ko'zlar duch kelgan barcha narsaga nur sochar edi.

U poytaxt haqida, buyuk Yekaterina to'g'risida so'zlar edi; xalq Yekaterinani «onajonimiz» deb atarmish va u, gvardiyaning har bir askariga qo'lidan o'ptirarmish. Yuriy Yekaterina haqida gapirganida, chakkalari yonardi, ovozi ham beixtiyor balandroq jaranglardi. Keyin u shahardagi o'yin-kulgilar haqida, harir to'r yopinib, yo'l-yo'l duxoba ko'ylak kiyib, yasanib yuradigan nozaninlarni gapira ketdi.

Olga quloq solib turar ekan, hasadga o'xshash bir tuyg'u butun vujudini qamrab oldi: «Men haqimda ham shunday gapirsalar, men ham yelkamga harir to'r tashlab, qimmatbaho gavharlar taqsam, eh, qanchalik baxtli bo'lar edim-a!..» O'n sakkiz yoshga kirgan har qanday qiz ham uning o'rnida shunday orzu qilardi. Gullar bahorga qanchalik kerak bo'lsa, libos ham ayollarning baxtli bo'lishi uchun shunchalik zarur.

Olga: «U eshik tomonga qarab, mening tomosha qilib turganimni ko'rib qolmasin», — deya qo'rqdi. Bu qo'rquvda oz bo'lsa-da, g'urur bor edi.

Biroq, bu yerdan ketib bo'ladimi? Yuriy biram yoqimli gapiryaptiki, asti qo'yaverasiz. Uning tovushi oliyjanob tuyg'ularni aniq-ravshan ifodalab berayotibdi. Olga uning so'zlariga tushunmayotgan bo'lsa-da, har holda, o'zini u so'zlarning ma'nosini anglayotgandek his qildi!..

Ana shunday qobiliyatga ega bo'lgan kishilarning borligiga shubhalanmasak kerak, ammo bu qobiliyatdan faqat saralangan kishilargina foydalana oladi, bu saralangan kishining qalbi o'ziga o'xshaganlarning qalbiga bichib yaratiladi, uning taqdiri o'ziga o'xshaganlarning taqdiriga bog'liq bo'ladi. Ana shundagina tug'ilishidan ilgariyoq bir-biriga tanish bo'lgan bu ikki vujud bir-birining tovushini eshitib, ko'zlarini, tabassumini ko'rib, o'z qismatini uqib oladi, shunday qilganda, ular aldanishmaydi. Agar ular ko'ngilning ana shu muqaddas,

sirli intilishiga to'la ishonch bilan berilmasalar, ularning sho'ri quriydi. Pastkash odamlarning barcha safsatalariga qaramay, bu sirli intilish bor va u bo'lishi zarur, toki jon-tanimizga yashamoq hamda harakat qilmoq uchungina ato etilgan ekan, agar muhabbat bo'lmasa, barcha maqsadlarning, odamzod qilgan hamma mehnatning qimmati nima bo'lar edi? Axir, ba'zida xalq bilan podshohning o'rtasida ham ana shu qudratli xayrixohlikni ko'rmaymizmi? Chunonchi, Napoleon bilan uning qo'shinini olib ko'ring. Ular bir-biridan uzoqlashganidan keyin, qancha yashay oldi?

E-he, Olga o'z mohiyatini anglagan ilk daqiqada husniga husn qo'shildi, uning nafasi qisilib turgan keng ko'kragida istiqboli buyuk bo'lgan mas'um bir hayot mavj urdi. Uning shu ko'kragida azob-uqubat uchun va'da qilingan va jannat rohatlariga atab yaratilgan qalb dukillab urib turardi.

Sokin buloqqa toshning tashlanishi kifoya edi.

Qiz qayrilib qaradi.

Chiroqning ingichka yorqin shu'lasini eshik tirqishidan shu xonaga kirib, dahshatli, haqoratli jilmayib, burishib turgan lablarga tushdi. Tevarak-atrof qop-qorong'i zulmat bo'lsa-da, tirqishdan kirgan nur qizning darhol akasini tanib olishi uchun yetarli edi. Vadimning butun hayoti uning ko'kargan lablarida to'la ifodalangandi; chiroq shu'lasining ham kelib-kelib uning lablariga tushganini qarang-a.

Vadim yaqinroq keldi, uning butun vujudi muz kabi edi.

– Tabriklayman, Olga...

– Nima bilan?

– Shunday emasmi-a... sening yosh xo'jayining muncha ham kelishgan-a!

– U sening ham xo'jayining! – xafa bo'lib, e'tiroz bildirdi Olga.

– Sira ham, men o'z ixtiyorim bilan xizmatkor bo'lganman men hayotim, tarbiyam uchun ulardan qarzdor emasman, ammo sening yo'rig'ing boshqa. O'-ho', bir qaragin-a, ana epchillig-u ana husn...

Qiz xo'rsinib qo'ydi.

– Ana shu go'zal bosh tanasidan judo qilinadi, – deya pichirlab so'zida davom etdi Vadim. – Ana shu ipakdek yumshoq sochlar qonga bo'yalib, xunuk, bedavo holga keladi, ontning esingdami, juda shoshib ont ichib qo'yding-da. Eh, otam! Otajonim! Tez orada shunday bir onlar keladiki, notinch ruhing ularning jasadlari ustida uchib yurib, farzandlaringga oq fотиha beradi, o'sha daqiqalar yaqin qoldi, juda yaqin.

– Yaqin qoldi.

– Men sening zavqlanayotganingni ko'ryapman, – dedi unga akasi parvosizgina. – Yaqin qoldi. Shuncha kutganimiz yetadi, ammo bu kutishlar bekor ketmadi. Bizning qasos olishimiz uchun Xudo butun bir xalqni oyoqqa turg'izadi: men senga aytib beraman. Quloq sol, xursand bo'lasan: Donda jasur bir telba paydo bo'ldi, u men podshohman deb da'vo qildi. Xalq o'z podshohining soqol qo'yganidan, dehqonlarga o'xshab gapirishidan xursand bo'lib, unga yon bosdi. Zodagonlar halok bo'lyapti, axir, xalqqa ermak kerak emasmi. Ermak bo'lmasa, bayram ham bayramga o'xshamay qoladi! Qon qo'shilmagan musallas ularga ta'sir qilmay qo'ydi. Azbaroyi sevinganingdan qaltirayapsan, Olga...

Qiz boshini quyi solib, indamay uzoqlashdi. Endi uning qalbida qasos yo'q edi. Negadir, u o'z va'dasining naqadar qo'rqinchli ekanini to'liq anglab yetdi; ibodat qilmoqchi bo'ldi, ammo hech qaysi duo uning ko'ngliga tasalli berolmadi; har bir duo malomat bo'lib, behuda tavbaning tovushi bo'lib tuyulardi, «yovuz dushmanimning o'g'li muncha ham kelishgan-a», deb o'ylardi Olga, ana shu oddiy o'y tuni bilan turli shakllarda uning tushiga kirib chiqdi. U aloq-chaloq tushlardan qutulolmay, ularga xayolning yengilgina pardasini yopib qo'yar edi, xolos, ammo tonggi tumanga burkangan jarlik uncha qorong'i bo'lmasa-da, biroq yo'lovchiga ikki barobar kengroq bo'lib ko'rinadi.

Bu paytda Vadim mehmonxona eshigining oldida qolib, uchrashuv quvonchi bilan ruhlangan oilada bo'layotgan

hodisalarga xira ko'zlarini tikib turardi. Uning qalbida ham quvonch bor edi, ammo bu quvonch o'yning mayingina shu'lasidan keyin chiqqan yong'inning alangasiga o'xshardi.

U shu yerda ancha vaqtgacha turib, yosh Palitsinning husnini tomosha qildi, Vadim shu qadar xayolga berilib ketdiki, Boris Petrovichning: «Hoy, qarol... Vadimka!» – deb chaqirganini ham eshitmay qoldi. O'ziga kelganidan keyin, mehmonxonaga kirib keldi. Yuriy unga achingansimon qaradi, biroq Vadim o'z tuyg'ularining oshkor bo'lib qolmasligi uchun yerga qarab turaverdi.

– Qalay, bukurim senga ma'qulmi? – dedi Boris Petrovich. – Juda g'alati-da.

– Otajon, – dedi Yuriy. – Har bir kishining o'z kamchiliklari bo'ladi. Tabiat mayib qilib yaratgani uchun u aybdor emas!

– Agar menga yaxshi xizmat qilsang, – dedi u ma'yus bo'lib turgan Vadimga qarab, – men seni xursand qilaman. Bor endi, ishingni qil.

– Qani, yo'qol, – dedi Vadimning turgan joyidan jilmayotganini ko'rgan Boris Petrovich. – Yigitchaning mehribonligi, uning ochiq yuz bilan gapirishi Vadimni uyaltirib qo'ygandi. Bir nafasga g'oyib bo'lgan hasad u eshikka yaqinlashganidagina qalbiga qaytdi, ammo bu hasad shu bir nafasda yanada zo'rayib qaytgan edi.

U ostonadan hatlab o'tar ekan, devorga tushgan xunuk soyasini ko'rdi, uni og'ir bir tuyg'u ezdi. Yigit uydan telbadek yugurib chiqib, dalaga qarab yo'l oldi. Vadim ertalab qo'rg'onga qaytdi, u katta bir bo'rini sudrab keldi, o'rmonda sang'ib yurganida doim qo'ynida olib yuradigan katta pichog'i bilan shu yirtqichni o'ldirgan edi. Qo'rg'ondagilarning hammasi Vadimni o'rab olishdi, uning mardligiga qoyil qolib, hatto xo'jayinlar ham hovliga chiqishdi. Nihoyat, u ham bir nafas tantanaga erishib, huzur qildi. «Endi sen otboqarim bo'lasan!» – dedi Boris Petrovich.

XI bob

Boris Petrovich o'zining yangi otboqari, itlari va quyi tabaqali gumashtalari bilan qishloq chekkasiga ovga chiqib ketdi; Palitsin keksaygan chog'ida ham ovga juda ishqiboz edi va imkon topishi bilan o'zining eng yomon dushmanlari bo'lgan ayiqlarning makoni – qalin o'rmonzorlar ichiga kirib ketardi.

Yuriy xilvat qishloqda nima qilsin? Otasiga ergashib borsinmi? Yo'q, u hayvonlar bilan urishishni o'zi uchun kayfichog'lik deb bilmaydi; u uyda qoldi, xonama-xona kezib yurdi, birorta erkak izladi, gulgog'ozlarni tar-tar yirtidi. Bu ermak uchun ajoyib mashg'ulot edi; shu vaqt chekkaroqda allanima yilt etib ketdi. Ayolning ko'ylagi ko'rindi, u o'sha tomonga yurib, tushki quyosh shu'lasi bilan yorishib turgan kichkinagina xonaga kirdi. Bu xonadan allaqanday muattar hid kelardi; otash qalbli yosh qizning shu yerda yashayotganligi xonaga o'zgacha ruh bag'ishlagan edi.

Sevimli ayolining uyiga tez-tez borib turadigan kishi mening nima demoqchi bo'layotganimni tushunadi, u ana shu sehrgar isning ta'sirini sinab ko'rgan, bu uyning havosi uning muqaddas orzulari bilan chambarchas bog'langan, bu havo har kecha musaffo qiz ko'kraginging nafasi bilan yanada xushbo'yroq bo'ladi – u birgina o'rin-ko'rpa bilan bezatilgan. Ushbu burchakni butun boshli jannatga alishmagan bo'lardi.

– Iya, Olga, bu senmisan! – dedi yosh Palitsin kulib. – Men soya bilan quvlab yuribman deb o'ylabman, rosa aldanibman-da!

– Aldanganingiz uchun xafamisiz? Oh, agar shunday bo'lsa, xotirjam bo'lavering, men siz bilan xuddi soyadek gaplashaman, ya'ni juda kam so'zlashaman, undan keyin...

– Xudo haqi, bunday qila ko'rma, sevikli Olga! Men sening so'zlaringni kun bo'yi eshitishga tayyorman; naqadar zerikkanimni xayolingga ham keltirolmaysan; doim sang'iganim-sang'igan, kim bilan gaplashishni bilmayman,

oyim ro'zg'ordan bo'shamaydi. Xudo haqi, gapir, gapiraver, qarg'asang ham mayli, faqat o'zingni chetga tortma!

– Moskvalik go'zallarni darrov unutibsiz-da, o'shalarni o'ylasangiz, zerikmaysiz.

– Ularni o'ylab turib, sen bilan gaplashaymi? Yo'q, Olga, bu ikki narsa bir ko'ngilga sig'maydi.

– Men, oddiy bir dala qizi, sizga nima ham deyishim mumkin? Nimani ko'ribman-u nimani eshitibman? Men sizni zerikish xastaligidan xalos etadigan dori bo'lolmayman, har qanday dori, har qancha shifo bo'lishiga qaramay, juda achchiq bo'ladi.

– Bugun sening kayfiyating chatoq, – dedi Yuriy uning qo'lidan ushlab, zo'rlab o'tqazar ekan. – Sen yo mendan yoki oyimdan xafa bo'libsan. Agar seni biror kishi xafa qilgan bo'lsa, menga ayt, nomusimni o'rtaqa qo'yib ont ichamanki, seni xafa qilganning adabini beraman.

– Menga himoyangiz, qasos olishingiz kerak emas, qo'limni qo'yib yuboring! Sizga ermak kerak bo'lsa, boshqalarni, mendan ko'ra itoatliroq, o'z qalbini sizga berib, jilmayib ko'nglingizni oladiganlarni chaqiring. Yuragim siqilib ket-yapti, undan keyin, men sizning cho'ringiz emasman, boring.

– Olga, quloq sol, ta'na qilma. Oh! Meni kechir, nahotki harakatlarimdan shunday fikrga kelgan bo'lsang? Nahotki, men Olgani cho'ri o'rnida ko'rib muomala qilayotgan bo'lsam? Sen kambag'al, yetimcha bo'lsang ham aql-lisan, go'zalsan, mening so'zlarimda xushomad yo'q, chin ko'ngildan so'zlayapman. Hiyla-nayranglardan xoli bo'lgan fikrlarimni senga ochiq-oydin so'zlayapman; agar men bilan gaplashmasang, mendan qochib yursang, o'zingga ziyon qilasan. Shunday qilgudek bo'lsang, senga tinchlik bermayman. Rahming kelsin, men bu yerda odamnamo maxluqlar orasida yakkalanib yurganimda, shu sahroda bir farishta paydo bo'ldi, lekin uning meni o'ziga yaqinlashtirmayotgani, tikilib qarashimga, so'zlariga quloq solishimga ijozat bermayotganligi adolatdanmi? Yo Rabbim! Chanqab, yuragim o'tdek o'rtanayotgan bir daqiqada

shifobaxsh suvni ko'rsam-u, unga labimni yaqinlashtirishim bilan u qurib qolsa, bu qandoq gap?!

– So'zlaringiz juda ham ta'sirli, Yuriy Borisovich, men bunday gaplarni ilk marta eshityapman. Shundoq bo'lsa-da, chaqaloqligidanoq bebaxt bo'lgani uchun sizning vaqtingizni chog' qilishga mayli bo'lmagan qizni tinch qo'yishingizni so'rayman. So'zimga ishoning, chor atrofimda halokat...

– Men oyoqlaring ostida yuz marta halok bo'lishga tayyorman!

– Siz maqsadimni anglamadingiz, chog'i. Men ko'zingizga endi g'alati bo'lib ko'rinyapman, balki... ammo...

– Sen o'z yo'lingda dilbarsan...

– Bu maqtovlarni qarang-a! – dedi Olga istehzoli nazar tashlab.

– Achchig'ing chiqmasin, – dedi Yuriy va jilmayib qiz tomonga egildi, keyin uning chap yelkasiga tushib turgan uzun qora sochini qo'lga olib, unga lablarini bosdi, u xuddi muqaddas tumorni o'pgandek, vujudiga muzdek bir narsa yugurdi; yigit qizga tikilib qaradi va bu safar uning ko'zlarida qat'iyatdan nishona beruvchi ajoyib bir nur porladi, qiz uyalmadi, balki qo'rqib ketdi.

– Tegmang, – dedi Olga g'urur bilan. – Men yolg'iz qolishim kerak.

Yuriy uning ko'zlarida tannozning sho'x belgisini ko'rib, bir qiynayman deb behuda urindi, bu ish uning qo'lidan kelmadi.

– Sen mendan mamnun bo'lasan, – dedi u xonadan sekingina chiqa turib.

Faqat ular uchungina qiziq bo'lgan bu gap-so'zlar tez-tez takrorlanib turdi – bundagi mazmun ham, xulosa ham deyarli doim bir xilda yakun topardi. Agar bu gap-so'zlarni XIX asrdagi birorta romanda o'qisalar, zerikib, mudrab qolgan bo'lishardi, ammo saodatli XIII asrda va men tasvirlayotgan yilda har bir hayot bir roman kabi edi. Endilikda yoshlarning hayoti boshqacha – ular harakat qilishdan ko'ra, ko'proq fikrlaydilar; qahramonlar yo'q, kuzatuvchilar esa haddan ziyod ortiq va ular ilgarigi sho'xligi, o'zi ishtirok etgan

katta bazmlarni eslash bilan so'ngan kuchlarini tiklamoqchi bo'lgan shahvatparast cholga o'xshashadi. Bu xayolparastlik odamzodning sha'niga juda katta dog' bo'lib tushadi; u o'z nihoyasiga yaqinlashadi, qo'yavering. Ammo sochning oqini bolalarcha qiliqlar bilan yashirishning nima hojati bor? O'lim to'shagida yotgan kishining yiqilib tushib, polda jon berish uchun sakrashining nima keragi bor?

Bas, qissamizga qaytib, uning bobini tezroq tamomlaylik.

Olga o'z sevgisini ichiga yashirishga qanchalik urinsa, u shunchalik sirtiga ko'pchib chiqardi; Yuriy tajribali edi, ko'p sevgan va bundan ham ko'proq sevilgan, bu narsa unga odat bo'lib qolgandi. Qiz ko'nglidagi gaplarni anglashga botinolmagan bir vaqtda, Yuriy buni uning ko'zidan uqib olardi. Olga ularni o'ylab va o'z muhabbati haqida fikrlashdan qo'rqardi; qiz unga savol berishga botinsa, yuragi vahimaga to'lardi, chunki uning tashvishli xayolida o'tmish bilan kelajak paydo bo'lardi; qirollik taxtiga o'tirish paytida, bazm ayni avjga chiqqanida, Bankuoning qonli arvohini taxtda ko'rgan Makbet xuddi shunday dahshatga tushgan edi. Ammo bu dahshat uning, bemorning aljirash darajasidagi shuhratparastligini zarracha ham kamaytirmadi; Olganing sevgisi ham xuddi shunday bo'ldi.

Yuriy Olgadek nazokat bilan sevolmas edi; u barcha narsani oldindan sezib turar va shu sababdan ham yangilik latofati uning ehtirosini bezata olmasdi. Lekin uning taqdir kitobida: «Sehrli bir zanjir hayotingni mana shu dilbarning qismatiga umrbod chambarchas qilib bog'laydi», deb yozilgandi.

U Olga bilan birga bo'lmasa zerikar va xotirjam bo'lardi, biroq uning yaqiniga kelishi bilan sehrlanib, o'zini taniyolmay qolar, arosatda qolganidan quvonar va hech qachon bunchalik kuchli sevmaganiga, go'zallikning ta'rifini shu vaqtga qadar anglamaganiga qanoat hosil qilardi, unga rahm qilinglar.

XII bob

Olganing sirli javoblari, gohida uning sun'iy beparvoligi Yuriyning qalbidagi o'tni tobora alangalatardi. U qizning o'zini bunday tutishini goho mag'rurlik alomati, gohida esa ayyorlik belgisi deb bilardi, lekin deyarli barcha oshiq'larga xos bo'lgan ishonchsizlik uning sevishiga shubha uyg'otardi. Kunlardan bir kuni, azbaroyi joni qiynalganidan, undan ochiq-oydin iqror bo'lishni talab etishga yoki mutlaqo rad javobi olishga qaror qildi.

– Bu bolalik-ku! – dersiz, ammo muhabbatning lazzati shunda-da, u bizni bolaga aylantirib, xuddi o'yinchoqlar singari go'zal tushlar hadya qiladi, alam qilgan daqiqalarda ularni sindirib tashlash ham bir dunyo rohat bag'ishlaydi. Ayniqsa, boshqa o'yinchoqlar olishdan umidvor bo'lganimizda bu qilgan ishimizdan zavqlanamiz.

U Olganing xonasiga xafahol chehra bilan kirdi; indamay uning yoniga o'tirib, qo'lidan ushladi. Qiz qarshilik ko'rsatmadi, ishidan ko'zini uzmadi, qizarmadi, qaltiragani ham yo'q. U hamma, hammasini o'ylab oldi, ammo najot yo'lini topmadi. Qiz o'zini indamay taqdirga havola qildi, kelajakka qora parda tortib qo'ydi va boshqa yo'l topolmagani uchun sevishga ahd qildi.

– Olga! – dedi Yuriy majolsiz tovush bilan. – Men seni sevaman.

– Bilaman, – deb javob berdi qiz.

– Bilaman! Bilaman! Topgan so'zing shu! Men sendan bundan ortiq biror gap eshitganim yo'q!

– Bundan ortiq gapni nima qilasan! Qulog'im senda, jimgina o'tiribman-ku.

– O, juda katta iltifot qilyaptilar! Meni, hattoki o'zingga yaqin bo'lishga ham munosib ko'rmayapsan, men quyoshni, yulduzlarni qanday sevib tomosha qilsam, seni ham shunday sevib tomosha qilishni istayman, sen go'zalsan! Bunga shubha yo'q! Ammo bu senga toshyurak bo'lish uchun huquq beradimi?

– Men Xudodan go‘zallik berishini ham, muloyim yurak berishini ham so‘raganim yo‘q. Agar muomalam senga yoqmasa, meni tinch qo‘y, biz bir-birimizni tanib chakki ish qildik, ammo dunyoda ko‘plab xatolarni tuzatsa bo‘ladi.

– Odamni baxtsiz qilib, unga baxtli bo‘l deyish hech gap emas! Dunyoda hamma xatoni tuzatsa bo‘lar ekan. Olga, quloq sol, men senga so‘nggi marta gapiryapman, men seni, sen o‘ylaganingdan ham ortiq sevaman; bu o‘t... olov... oh, dardimni tushunsang-chi... So‘zlashga so‘z topolmayapman... Men seni sevaman! Agar sen buni tushunmasang, qolgan barcha narsadan foyda yo‘q. Javob ber, menga qanday talabing bor? Nimani qurbon qilay?

– Meni unuting – talabim shu! – deya, qat’iyat bilan xitob qildi Olga.

– Yo‘q! Hech qachon unutilmayman. Senga erishish yo‘lida odamzodning qo‘lidan kelmaydigan ishni bajaraman, ammo unutilmayman, buning uddasidan chiqolmayman.

U so‘zidan to‘xtadi, xonada u yoqdan bu yoqqa yurdi, keyin derazaning oldiga bordi-da, yuzini qo‘llari bilan yashirdi, oradan bir necha daqiqa o‘tdi. Nihoyat, u o‘girilib dedi: «Men yanglishdim, ochiq iqrор bo‘lishim kerakki, yanglishdim... Oh! Shu o‘tgan bir daqiqa jannat rohatini bag‘ishladi, bu bir tush edi, ammo tush bo‘lsa-da, ilohiy tush edi. Endi bo‘lsa, hammasi o‘tdi-ketdi. Soxta umidlarning barchasini mangu yo‘q qilib yuboraman, xayolim yaratgan manzaralarni puf etib o‘chiraman; muhabbatga, baxtga bo‘lgan ishonchim, ko‘zimdan yo‘qol, Olga, alvido, sen meni aldading, aldov hamisha aldovligicha qoladi; ko‘z nima-yu til nima, baribir emasmi? Niyating nima edi? Buni bilmayman, ehtimol... O, mening nafratimni ol – mendan senga qoladigan meros shu. Men seni deb o‘laman». U Olgaga devorlarni ham teshib o‘tadigan darajada o‘tkir, qo‘rg‘oshinsimon, alamzada nazar bilan tikildi-da, uydan chiqmoq uchun bir qadam tashladi, Yuriyning keyingi so‘zlari achchiq g‘azabni ifodalar edi, qiz ortiq bardosh berolmadi, o‘rnidan sakrab turdi-da, ho‘ngraganicha

Yuriyning oyog'iga yiqildi. U behad quvonib, Olgani ko'tarib oldi va ancha vaqtgacha bir og'iz ham gapirolmadi, uning qalbi qarshisida boshqa bir qalb, ilk muhabbatning butun harorati bilan sevuvchi yosh, nozanin qalb urib turardi. Ular o'tirib bir-birlarining ko'zlariga tikilishdi, ammo yig'lashmadi, kulishmadi, so'zlashmadilar ham. Bu barcha dunyoviy va ilohiy tuyg'ularning betartib bir tug'yoni edi, bu qyun edi, har kimga ham nasib qilavermaydigan, noaniq lazzat edi. Ularning lablaridan chala-chulpa gaplar tartibsiz ravishda otilib chiqar va har bir so'z butun boshli bir poemaga arzir edi. O'z holicha biror ma'noga ega bo'lmasa-da, ammo tovushdan, badanning ixtiyorsiz harakatidan ruh olgan har bir so'z bir dunyo rohat bag'ishlardi.

– Men sevildim, sevildim, sevildim, – der edi Yuriy. – Qayta-qayta, baralla takrorlaymanki, buni farishtalar eshitib, havaslari kelsin.

– Farishtalar eshitsa mayli, lekin odamlar eshitmasin!

– Nega endi, farishtam?

– Agar odamlar eshitsa, seni sho'rlik Olgadan tortib olishlari mumkin.

– Sen go'zalsan! Behuda vahimani qo'y. Sen menikisan, meniki.

– Cho'ri emasman-a! Rostmi!

– Sen mening xazinamsan!

– Oh, jonginam, o'p, meni o'p. Men xasisning xazinasini bo'lishni istayman. Mayli, do'zax azoblari meni qo'rqi-taversin, taqdirga tan berish kerak. Men baxtliman! Shunday emasmi?

– Sen baxtlisan! Kel, seni quchoqlay, qattiq, qattiq quchoqlay.

– Jonimni bag'ishlaganimdan keyin, boshqa narsamni ayarmidim.

– Bu sochlar, surib qo'y ularni! Mana, bundoq bo'pti. Sening bo'sang bilan mening bo'sam qo'shilib ketsin...

«Ey Xudoyim, Xudoyim... endi o'lsam-da, armonim yo'q... Oh! Nega hozir o'lmayman-a?»

XIII bob

– Do'stginam, Olga, osmonda Xudo bor ekan, yer yuzida baxt ham bo'ladi.

– Agar sen shu ikkoviga ishonsang, Xudoyim baxtingni bersin, – der ekan, uning qo'li beg'am yigitchaning qalin qo'ng'ir sochlarini silardi. Ular tushgan qayiq qoramtir to'lqinlar orasida ilonizi singari oqish chiziq qoldirib, daryo bo'ylab astagina suzib borardi. Burgutning qanotlarini eslatuvchi eshkaklar qayiqning ikki tomonida silkinib turardi. Ular ikkovi yonma-yon o'tirib, bittadan eshkakni ushlab olishgan edi. Muzdek suv asta shapillab sachrar, goho esa fosfor kabi yaltirardi, keyin suv sathida yoyilib, katta-kichik doiralarga aylanar va qorong'ilik qa'rida asta-sekin g'oyib bo'lardi. Kun bilan tunning chegarasi bo'lgan g'arb ufqidagi qizil chiziq hali so'nmagan edi, moviy gumbazdagi olmosdek yarqiroq shu'la yo'qolib borardi, Okaning kimsasiz sohiliga esa shabnam tushgandi. Uxlab yotgan tabiat quchog'idagi yuvosh suzuvchilar kelajak haqida o'ylamay, bir-birlari bilan hazillashib borishardi, goho Yuriy sevgilisining g'ashiga tegish, uni cho'chitish uchun beso'naqay harakat qilib, qayiqni chayqatardi, ammo qiz ham bu ma'sum sho'xlik uchun boplab o'ch olardi. Eshkakni bildirmasdan teskari tomonga eshar, buning natijasida Yuriyning butun mehnati bekorga ketar va qayiq turgan joyida aylanaverardi. Kulgi, erkalash, bolalarcha hadiksirash va boshqa barcha dilxushliklar sof ko'ngilning ishi bo'lib, agar iblis ularni yo'ldan ozdirmoqchi bo'lsa, aynan hozirgi daqiqalarni tanlamasdi.

Olga o'z muhabbatini jinoyat deb hisoblamas edi, u dahshatli, qonli kunning yaqinligini bilar va iloji boricha uni o'ylamaslikka harakat qilardi. Osmon uning kelajagi evaziga hozirgi kunlarini bergan edi. Uning kuchli qalbi bo'lib, bu qalb muqarrar bo'lgan narsaning g'amini yemas va g'animat atalmish saodatli kunlarida yashab qolishni istardi. Akasi uzoqda bo'lgani uchun u taqdirdan g'oyatda minnatdor edi,

bu anglab bo'lmaydigan dahshatli maxluqning birgina nigohi uning butun saodatini muzga aylantirishi mumkin. Akasi ana shu hukmronlikni qayerdan olgan ekan-a?

– Sevgimizning nihoyasi bormi? – deb so'radi Yuriy eshkakni eshishdan to'xtab, boshini qizning yelkasiga qo'yarkan. – Yo'q, nihoyasi yo'q. Sevgimiz abadiydir, uning umri o'z umrimizdan uzunroq va muhabbatimiz tufayli boqiy bo'ladi, ont ichamanki, yolg'iz o'zing boshqa barcha xotiralarimning o'rnini bosa olasan – qo'lingni ber, bu aziz qo'l shu qadar oppoqki, qorong'ilikka nur sochyapti. Ma, shu uzugimni ol, Olga! Menga qara, so'zimni eshitmayapsanmi? Yoki mening ontimga ishonmaysanmi?

Qiz javob berishning o'rniga astagina kuylay ketdi:

*Shamol uvlaydi,
Oy porlaydi,
Qizcha yig'laydi –
Sevgan yori ketar olisga.
Qiz ham tinmaydi,
El ham tinmaydi;
Oy botadi,
Yor xiyonat qiladi qizga!*

– Qo'y, bu ashulani aytma! – deb xitob qildi Yuriy. – Uni senga kim o'rgatgan?

– Hech kim, o'zim o'rganganman.

– Ishonmayman. Nahotki, mendan shubha qilsang?!

– Shubhalanmayman, lekin sen ko'p va'dalar beryapsan, biz bo'lsak, tezda ajralishimiz... undan keyin esa, undan keyin...

– O, agar faqat shundan cho'chiyotgan bo'lsang, xotirjam bo'laver. Men hali-beri ketmayman. Men bu yerda yana uch oy turaman.

– Atigi uch oymi! Xudoyim-ey! – uni qaltiroq bosdi, yuragiga muz yugurdi.

– Undan keyin, – dedi Yuriy qizga tasalli bermoqchi bo'lib, «Xudoyim-ey!» degan so'zning ma'nosini tushungan

holda. – Undan keyin polkka boraman, iste’foga chiqaman va yana oldingga qaytib kelaman, o’shanda arzimas gap-so’zlarga quloq solmaymiz-da, sen meniki bo’lasan. Agar otam bizni bir-birimizdan ajratmoqchi bo’lsa, ovora bo’ladi. Ha! To’g’ri, u menga hayot bergan, ammo sening har bir tabassuming borgan sari umrimni uzaytirmoqda.

– Uch oy, atigi uch oy va bir necha kun, – deb takrorlar ekan, Olga uning so’zlarini eshitmas edi. Ana shu halokatli, uzil-kesil fikr uning xayolini band etgandi.

Ular qayiqni to’xtatib, qirg’oqqa chiqishdi. Hammayoqni qorong’ilik chulg’ab olgan edi. Tepasida g’alati bir qo’ng’iroq osilib turgan qishloq cherkovi g’arbning sal qoramtir ufqida pahlavonning ko’lankasiga o’xshab ko’rinardi. Uyning goh u, goh bu deraza oynalari tollarning siyrak barglari orasidan yiltillab qoladi.

Oshiqqlar torgina so’qmoq bo’ylab qo’l ushlab, indamasdan kelar ekanlar, buzilib yotgan hammomga yaqinlashishganida birdan dag’al tovushlarni eshitdilar. «Ko’raylik-chi, nima gap ekan», – dedi shivirlab Yuriy. Qiz darhol uni to’xtatdi.

– Yaqinlashib qoldikmikan-a? – deb so’radi birinchi ovoz.

– Shu kunlarda bo’ladi. Viloyatda hozirdanoq to’s-to’polon boshlanyapti. Ha, aytgandek, sizlar tayyor bo’larmikinsiz, – dedi ikkinchisi.

– Hammasi joyida bo’ladi – buni bizga qo’yib beravering. Faqat yolg’iz o’zimiz ko’tarilishga botinolmayapmiz, sizlar etib kelguningizcha jim turamiz, yana o’zing bilasan.

– Ma’qul.

– Non bilan tuzning tekin bo’lishi rostmikan-a?

– Bilmadim. Ammo juda soz bo’ladi. Musallasga kelsak, u boylarning yerto’lasidan olinib, shundoq tarqatiladi.

Shu yerga kelganda Yuriy bir necha so’zni eshitolmay qoldi.

– Ha, aytgandek, Vadim kelgan edi, – dedi birinchi ovoz... Bu ismni eshitishi hamon Olga Palitsinning qo’lini mahkam ushlab, sudrab ketdi.

– Qayoqqa ketyapsan? – dedi u taajjublanib. – Senga nima bo‘ldi?

Olga:

– Tezroq! Tezroq ketaylik! – der, boshqa hech narsa gapirolmas edi.

Yuriy «bu yerdagilar o‘g‘ri bo‘lsa kerak!» deb o‘yladi-da, uning qo‘rqib ketganidan ajablanmadi.

Olga uyga kelishi bilan o‘z xonasiga kirib, uni ichidan qulflab oldi.

Natalya Sergeyevna o‘g‘lini kutib olarkan, jilmayib, uning tungi sayri haqida, ajab qilibsana, deb qo‘ya qoldi. Bu mehribon ayolning sevinchi benihoya edi, endilikda uning eri bir vaqtning o‘zida ham o‘g‘liga, ham xotiniga xiyonat qilolmaydi: «Har qalay, – deb o‘yladi u, – yoshlarning sho‘xligini kechirsa bo‘ladi, ammo soch-soqoli oqargan cholning bu ko‘yga ne vajdan tushib qolganligini Xudoyimning o‘zi biladi».

– Ertaga ibodatxonaga boramiz, Yuriy, – dedi u xonaga kirgan o‘g‘liga. – Boris Petrovich hali xiyla vaqtgacha ovda daydib yuradi. Unga o‘xshamaganingga biram xursandmanki.

Chindan ham shunday, muhtaram zodagon ayiqlar bilan itlarni o‘zining Natalya Sergeyevnasidan afzal ko‘rar va garchi, XIII asr ayollarining izzat-nafsi poytaxtdagi ayollarimizning izzat-nafsichalik qaltis bo‘lmasa-da, u xotining izzat-nafsini uncha qadrlamas edi.

Ammo asr o‘zgacha, xulqlar ham boshqacha.

XIV bob

Palitsin qishlog‘idan sakkiz chaqirim masofada qirg‘oqlarini yomg‘ir yuvib ketgan chuqur jarning yoqasida o‘rmon bilan o‘ralgan qashshoqqina tinch bir qishloq bor edi. Tepalikning ustiga qurilgan bu qishloq, sirasini aytganda, tevarak-atrof

ustidan baland ko'tarilib turardi; uning kulrang tutuni juda olisdan ko'zga tashlanar va tong quyoshi ko'pgina arg'uvon hamda eman daraxtlarining uchlaridan avval shu qishloqning poxol tomlariga nur sochardi. Boris Petrovich qoq peshinda bir to'da itlari, otlari va xizmatkorlari bilan birga shu yerda dam olyapti, ov yurishmadi. Ikkita tulki tozi itlarga tutqich bermay qochib ketdi, bir bo'ri itlar bilan olisha-olisha, axiyri, qutulib qoldi, otboqar egarining qoshida ikkitagina quyon osilib turardi. Burg'ular chalinib, bosh ovchi baqirib-chaqirib, ovqat ham yemasdan orollarda noumid bo'lib, behuda yugurib yursa-da, uchta tozi it hanuzgacha qaytib kelmadi. Boris Petrovich alam ichida ikki ovchini kaltakladi, yarim grafin aroq ichdi va shu yerdagi uyga kirib uxlab qoldi. Hovlida tinim yo'q, shovqin-suron avjida: gala-galalarga bo'lingan itlar uzun tog'oralarda shapillatib ovqat yeydilar, otlar poxolning ustida ag'anab yotardi, bechora otboqarlar bo'lsa, otlarni qamchilab turg'azaman deb, daqiqa sayin bo'tqa to'la qozonni tashlab ketishga majbur bo'lishardi.

Havo ochiq va musaffo, shimoldan esayotgan shamol osmonning moviy gumbazi ostidagi olachalpoq bulutlarni surib ketmoqda, o'rmonning cho'qqilari xuddi sharsharaga o'xshab goh orqaga, goh oldinga egilib shovqin solyapti.

Bu vaqtda bostirmaning tagiga joylashib olgan xizmatkorlar soxta podshoh haqida, shu yaqin o'rtadagi isyonlar to'g'risida, ko'pgina boyonlarning dorga osilgani borasida bilgan-eshitgan narsalarini bir-birlariga shivirlab aytishardi, ularning deyarli har biri ichi yoki sirtida quvonardi, bular dala-dashtda yashashga, yirtqich hayvonlarni hay-haylab quvishga odatlangan kishilar bo'lib, tinchgina yurishga, biror narsaga achinish yoki astoydil ixlos qo'yishga noqobil edilar. Musallas, o'yin-kulgi, ov ularning birdan-bir mashg'uloti bo'lib, ular Xudo yo'lida birorta savobli ish qilishmasdi. Mabodo, ularning ichida birorta sodiq, sofdil xizmatkor bo'lsa, u ham ehtiyot yuzasidan indamas yoki o'zini chetga tortardi. Kunlardan bir kuni bu ovozalar Boris Petrovichning ham qulog'iga yetdi. «Bo'lmagan gap, – dedi u. – Bunga kimning haddi sig'adi? –

Bunday beg'amlik ko'pgina ajdodlarimizni halok qilgan, ular, xalq qonimizni to'kishga jur'at etadi deb o'ylashmagan ham. Ular ruslarning itoati va sodiqligiga ana shu tarzda odatlanib qolishgandi».

– Esingdami, yaqinda seni boy uch kunga shaharga yubordi, ana o'shanda bu yerda bir gap eshitdik: bir dovyurak yigit paydo bo'lgan emish, kazaklar uni Qizil shapka deb ulug'lasharmish, u hamma narsani ostin-ustun qilib yuborar ekan, u shaytonning qudasi, iblisning sovchisi emish, xa-xa-xa. Otaginamizning o'zlari u bilan bamaslahat ish qilmoqchimishlar! O'tkir bo'lsa kerak-da, – der edi Vadimga Atuyev degan keksa bir ovchi uzun malla mo'ylabini burar ekan.

– Men uni bilaman, – deb javob berdi Vadim jilmayib. – Sizlar ham uni yaqin kunlarda ko'rasiz. – Bu so'zlar astoydil ishonch va zo'r qat'iyat bilan aytilgan ediki, keksa ovchi qaltirab ketdi. Bu shonli artistning so'zlarini ilk marta eshitganida Fild: «Sen shaytonmisan yoki Gummelmi», – degan edi, garchi Atuyev indamasa-da, xuddi shunday bir narsa xayolini band qilgandi.

– Qachon ko'ramiz? – deb chuvullashdi ko'plar, ularning ko'zlari bukurga ishonchsizlik bilan tikilgan edi. – Vadim bo'lsa, bir daqiqa sukut saqladi-da, keyin o'rnidan turdi, otini egarladi, burg'uni yelkasiga osib, otga minib, hovlidan chiqib ketdi.

Olomon taajjublanib, uning ortidan qarab qoldi va tuyuq tovushlarining tezlashganidan Vadimning ot choptirib ketganini payqadilar.

– Qayoqqa ketdi? Nega ketdi? – Agar men bu yerdagilarning barchasining fikrlarini hikoya qiladigan bo'lsam, menga Volter Skottning iste'dodi va kitobxonlarining sabr-toqati kerak bo'ladi!

Vadim qalin o'rmon oralab ketdi; o'ng va so'lda yong'oq va zarang daraxtlarining shoxlari osilib turardi; goho, ularning tepasida g'alati, qoramtir shoxlari ilonni eslatuvchi nimxush

baland emanlar ko'rinib qolardi, olisda esa tagidan tepasigacha o'rmon bilan qoplangan, u yer-bu yeridan jarliklar kesib o'tgan tepaliklar ko'm-ko'k yashnab turardi. O'sha yerda po'panak bosgan botqoqliklar o'zining jozibali, yorqin yashilligi bilan ehtiyotsiz yo'lchini ohanrabodek o'ziga tortar edi; Vadim yo'rtib borardi. Birdan-bir o'y, xuddi Prometeyning kalxati singari uning qalbini cho'qilab ezardi, shu topda erkin, baralla yangragan qo'shiq nogahon uning e'tiborini tortdi, otini to'xtatib, quloq soldi. Bu yovvoyi qo'shiq barglarning shitirlashini, sahro shamolining guvullashini eslatardi: u qo'shiq mana bunday edi:

*Meni tuqqan o'z onam,
Og'ir kulfat va alam;
Mening jonajon otam,
Taqdir ataldi har dam;
Og'alarim – odamlar,
Va lekin meni ular,
Ardoqlamaydi;
Mendan uyalihsadi,
Shum yetim deyishadi,
Quchoqlashmaydi.*

*Ammo Xudo yor berdi,
Yor-u vafodor berdi,
U go'zalning nomi – erk,
U mening aziz erkim,
Bebaho yorim mening,
Sodiq dildorim mening.*

*Men topdim yorim ila
Ona, ota, oila;
Onam – poyonsiz sahro,
Otam – olis osmondir.
Og'alarim – o'rmonda
Qayinlar, qarag'aylar.*

*Otda yelsam ham shitob,
Sahro beradi javob,
Kechasi kezgach agar,
Osmondan oy nur sochar.
Issiq kunda og'alar*

*Meni soyaga chorlar,
Qo'li bilan undaydi,
Boshi bilan imlaydi,*

*Erk esa menga xuddi
Olamdek keng in qurdi!*

Otliq kazak tor yo'ldan toqqa ko'tarilar ekan, beparvolik bilan tizginni qo'yib yuborib, qo'llarini qovushtirganicha qo'shiq aytib borardi. Bunday yurishga odatlangan otga qamchi kerak bo'lmagani uchun erkin yosh kazak o'z xayollariga g'arq bo'lgandi. Uning ovozi qanchalik sof, avjli bo'lsa, qalbi ham xuddi shunday edi.

Vadimga ashulasidan ko'ra kazakning qiyofasi kuchli ta'sir qildi, u xayoliga kutilmagan fikr kelgan odamlar, odatda, qiladigan ishni qildi, ya'ni peshanasiga bir urdi.

– To'xta, – dedi u yaqinlashib kelgan kazakka g'amgin nazar tashlab. Bilmadim, kazakka uning ovozi ta'sir qildimi yoki qarashimi, har holda, u otini to'xtatib, qilichiga yopishmoqchi bo'ldi.

– Hojati yo'q! – dedi Vadim so'zida davom etib. – Belborodkaga borib ayt, indinga menikiga mehmonga kelsin. Bu yil ko'klamda Palitsin hovlisiga yangi arg'imchoq qurdi. Ikkita arqonning yoniga uchinchisini qo'shish hech gap emas. Ayt, indinga kelsin. «Qizil shapka salom aytdi» degin, endi bor.

Kazak Qizil shapkaning ismini eshitgani hamon ta'zim qilib, Vadimga yo'l bo'shatdi. Vadim g'urur va navozish bilan boshini silkitdi-da, otiga qamchi urib, chopib ketdi.

Hayot va o'lim bilan bu tarzda qaltis hazillashish uchun yo juda ulug' yoki nihoyatda mayda va pastkash qalb egasi bo'lish kerak. Xullas, Vadim butun bir oilani nobud qildi. Axir, uning o'zi kim? Kechagi tilanchi, bugungi qul, ertaga esa mast, qonli olomon ichidagi ko'rimsizgina isyonkor! O'z qudratini yaratgan uning o'zi emasmi? Agar u boshqa biror-bir sohani tanlaganida, agar shaxsiy o'ch olish uchun sarflangan g'ayratini, sabr-toqatini, mardonavor bardoshini,

fikrining tezligini, ana shu qat'iyatini ajnabiy bosqinchining zulmi ostida ezilgan xalqning manfaati yo'lida sarflasa, naqadar sharaflı ish qilgan bo'lar edi. Chunonchi, u turklar Leonid avlodlarini zulmga duchor qilgan vaqtda Gretsiyada tug'ılsa bo'lmasmidi. Endi-chi? Endi, faqat bir kishi gunohkor bo'lgani holda, u birdan uch kishini o'ldirishni o'ziga maqsad qilib, butun iste'dodi bilan birgalikda mavhumot daryosining qa'riga g'arq bo'lmog'i kerak. Nahotki, u ana shularni jazolash uchungina tug'ilgan bo'lsa?! U shularni mulohaza qilar ekan, o'z-o'ziga juda pastkash bo'lib ko'rindi va shu bir daqiqa ko'p yillik mehnatining mevalarini mahv etib yubormoqchi bo'ldi. O'ziga nisbatan qo'zg'algan nafrat, ana shu achchiq nafrat uning qalbi atrofiga va butun olam atrofiga ilondek chirmashib oldi, chunki Vadim butun olamni o'z qalbiga joylashgan deb bilardi.

Shunday fikrlarga berilib ketib, u yo'ldan adashdi va (bu bir tasodif bo'ldi, shekilli), har holda, yuqorida tasvirlangan ibodatgohning oldiga kelib qoldi. O'z ehtirosining otashin muxlisi bo'lgan bu odam, ana shu yerda ilk marta tilanchilarning yirtiq kiyimini kiyib, Boris Petrovichga o'z xizmatini taklif etgandi. E-he, o'sha oqshom, xuddi kahraboga g'arq bo'lgan rang-barang kapalak singari, barcha dunyoviy hamda samoviy bo'yoqlari bilan uning xotirasida o'chmas iz qoldirdi. O'zi o'ylagan dahshatli ish oxirlab qolganini ko'rib, izzat-nafsning birgina masxaralashini ham bazo'r ko'tara olishi mumkinligini sezib turgan bir paytda, u yana shu yerga kelib qoldi.

– Menga ayting-chi, uni bu yerga tasodif olib kelmadimikan?!

Ibodatga qo'ng'iroq chalindi, uning cho'ziq, titroq jarangi tevarak-atrofga yoyildi, botayotgan quyoshning yorqin pushti shu'lası devorning bir tomoniga tushib turibdi, qo'shni qishloqlardan kelgan yasan-tusan qilgan xalq muqaddas devorning oldida to'plangan. Vadim olisda turib, Palitsinning guldor gilam to'shalgan aravasini tanidi. Kim keldi ekan? Natalya Sergeyevna bo'lsa kerak. Vadim otini yo'g'on qayinga bog'lab, ibodatxonaga kirdi, uning orziqib urib turgan bemor

qalbi tezda urishdan to'xtadi, olomonning bir martagina qiziqib qarashi, masxaralab birgina so'z otishi kifoya! Shunda olam yana iblisga aylanadi.

Vadim indamasdan cherkovga yaqinlashdi; behisob shamlar uzun derazalar orasida shu'la sochar va ibodat qiluvchilarning ko'lankalari xiragina oynalarga tushib, chayqalib turardi; ammo cherkovning hovlisi suv quygandek jimjit edi; yuksak yovshan va chetan daraxti shoxlari soyasida marhumlarning qabrtoshlari oqarib, ulardagi yozuv va xochlar ko'zga tashlanardi; ularga yangigina shabnam tushgan, atrofdagi esa, chivinlar vizillaydi. Quduqning oldida rang-barang dumini yozib to'vus turibdi; u xuddi haykaldek harakatsiz; taajjub, cherkovlarning deyarli barchasida shu qushni uchratish mumkin.

Cherkov zinapoyasining har ikkala tomonida Vadimning avvalgi tanishlari – tilanchilar o'tirishibdi. Ular Vadimni tanishmadi yoki tanishga jur'at etisholmadi. Boylikning ortidan xuddi qurtlar singari o'rmalab yuradigan, ota-onasi, qarindosh-urug'lari, vatani bo'lmagan, aftidan o'tkinchilarning hissiyotini sinashni mashq qilish uchungina yaratilgan bu maxluqlarni ko'rganda, Vadimning qalbi anglab bo'lmaydigan bir shafqat tuyg'usi bilan to'ldi. Biroq, odamlar har narsani odat qilaverishadiki, buni o'ylab ko'rgan kishi qo'rqib ketadi; kim biladi deysiz? Balki, eng muqaddas tuyg'ular ham odatiy bir narsadir, agar yomonlik ham xuddi yaxshilik kabi nihoyatda kam uchraydigan narsa bo'lganida, yaxshilik esa, aksincha, ko'p uchrab turganda edi, u vaqtda bizning jinoyatlarimiz insoniy fazilatga ega bo'lgan eng buyuk qahramonlik deb hisoblanar edi.

Xullas, Vadimning qalbi tilanchilarga nisbatan shafqat tuyg'usi bilan to'ldi-da, ularga biror narsa berish uchun to'xtadi; u cho'ntagidan bir nechta chaqa olib, har biriga bittadan tashladi – ular sadaqa bergan kishiga, hatto qayrilib qaramasdan, allaqachonlar yod bo'lib ketgan so'zlarini takrorlab, hammalari baravar minnatdorchilik bildirishdi. Ularning bu beparvoligi Vadimning qayerda,

kim bilan turganligini esiga soldi, u nariroqqa ketmoqchi edi, lekin qoqsuyakdan iborat bo'lgan qo'l uning yelkasidan tortib to'xtatdi. «To'xta, to'xta, otaginam!» – deb xirilladi Vadimning ortidan kelayotgan tilanchi xotin, uning qo'li o'ljasi tobora mahkamroq changallar edi. Vadim qayrilib qarab, g'oyatda jirkanch bir manzaraning guvohi bo'ldi: pakana, ozg'in, qorni shishib ketgan kampir uning yelkasiga osilib olgandi. Tilanchining shimarilgan yenglarida xuddi xaskashga o'xshagan ikki qo'l cho'zilib chiqqan va ming xil iflos yamoqlardan qurab tikilgan ko'kish ko'ylak mana shu harakatsiz skeletga qing'ir-qiyshiq qilib yopib qo'yilgan edi. Tilanchining afti tushunib bo'lmaydigan pastkashlik, uzoq vaqt ko'milmay turib qolgan murdalarga xos bo'lgan allaqanday chirkinlik bilan miyani gangitardi, tilanchi xotinning ilmoqqa o'xshash burni, chiyillagan tovush chiqarib turgan katta og'zi, uning ko'zlari oldida ip esholmas edi. Qizil latta bilan o'rab qo'yilgan tor teshiklarda likillab turgan ikkita kulrang soqqani ko'z oldingizga keltiring-a, na kiprigi bor, na qoshi... buning ustiga, ko'ngilni behuzur qilib, har qanday kayfiyatda ham yurakni ezib yuboruvchi qarashni tasavvur eting-a!

Vadim irimchi bo'lmasa ham, tepa sochi tikka bo'ldi. U bir daqiqaning o'zida ayolning yuzidan fahsh va jinoyatlarning butun bir qissasini o'qib oldi, ammo unda pushaymonlikka o'xshash bir belgini uchratmadi. Agar u haqiqatdan xabardor bo'lsa ajab emas, shunday maxluqlar ham borki, ular avji baxtsizlik chog'larida badbaxt qalblarining illatini qirqib tashlab, uni shu qadar ustalik bilan charxlab olishadiki, bu qalb barcha qobiliyatini yo'qotib, ilk va so'nggi qobiliyatini, ya'ni yashash qobiliyatini saqlab qoladi.

– Sen meni esingdan chiqarib qo'yding, jonginam, ha, esingdan chiqarib qo'yding. Xudoning yo'liga bermasang ham, shayton yo'liga bir tiyin ber yoki men xayolingdan ko'tarildimmi-a! Boyning qaroliman deb, dimog'ingni ko'taraverma, axir yaqinda birga sudralishib yurardik-ku.

Vadim bir siltanib, uning qo'lidan qutuldi.

– La'nat! La'nat! La'nat! – deb qichqirardi jazavasi tutgan kampir. – Yer yutgur, tilginangni qurtlar kemirsin, ko'zlaringni qarg'alar cho'qisin, yurgan yo'lingda qoqilgin, ichganingda tiqilib o't, bukur, bedavo, qarol, la'nat, la'nat!

U yana Vadimning etagiga yopishib oldi. Yigit qayrilib qaradi-da, alamiga chidolmay, bor kuchi bilan uning ko'krigidan itarib yubordi. Tilanchi xotin tosh zinapoyaga mukkasi bilan yiqildi; uning boshi quruq bir narsaga urildi-da, oyoqlari cho'zilib qoldi; u ortiq bir so'z ham aytmadi yoki aytgan bo'lsa-da, Vadim eshitmadi, chunki u shoshib-pishib cherkovga kirib ketdi. Bu yerda olomon baralla o'qilayotgan duolarni zo'r ishtiyoq bilan eshitar va shu odamlarning o'zlari ertaga, shu tobda qon to'kish uchun tayyorlanishmoqda edi! – Ana shu kishilar cho'qinib, yerga egilgan holda, yonlaridagi boyonga ko'zlari tushishi bilan bir-birlarini turtib qo'yar va shu joyning o'zida uni pora-pora qilib tashlash niyatlari ham yo'q emasdi. Ammo ular hozircha bunga jur'at qilisholmasdi, chunki hali birorta ham kazak viloyatdagi qishloqlarga qonli buyruqlarni olib kelmagan edi.

Vadim olomonni oralab, mehrob oldidagi sahnga bordi-da, xor turadigan joyga chiqib, butun cherkovni ko'zdan kechirdi. Tik, yuksak, zarrin but qo'yiladigan yerga besh qator qilib Isoning tasviri tushirilgan suratlar terilgan bo'lib, shiftning o'rtasida osilib turgan qandillar yarqiroq naqshlar bilan gavhar qadalgan jildlarga isiriq tutuni orasidan sirli nur sohib turardi. Ibodatxonaning orqa tomonida zulmat hukmron edi. So'nggi yulduzni eslatuvchi yolg'iz sham, yonatrofdagi qorong'i ko'lankalarni yoritolmasdi. Devor yonida turgan keksa rohibning rangpar yuzini bazo'r ko'rish mumkin edi, agar uning boshi goho egilib yoki labi pichirlab turmasa, siz uning yuzini mo'miyolangan deb o'ylardingiz; qop-qora uzun kamzul bilan rohiblarning bosh kiyimi uning yuzini yanada zahil qilib qo'ygandi.

Uning yaqinidagi ustunlar orasida, mehrob eshigi oldida olomon to'planib turardi. Vadimning ko'z oldida dengiz chayqalib turar va u bu yerdagilarning har birini

balandlikdan bemalol ko'ra oladi. Ba'zida xunuk basharalar ola-bula ko'lankalardek lipillab qolar va hayvon bilan odamning qo'shilmasiga o'xshab kishini lol qoldirardi, ularning xunuk belgilari qanchalik jirkanch ekanligi ta'rifga sig'mas, ammo ularni ko'rganda odamning xo'rliigi kelardi. Bu yerda ajin bosgan, keksa, qizil boshlar ko'rinib qolar, ular xo'rlik tuyg'ulari va oliyjanob ehtirolarning aralash-quralash izlari bo'lib, bu izlarni sanab chiqishdan ko'ra tasavvur etish qiyinroq edi, ana shularning orasida, u yer-bu yerda yoshlarning chehralari ham yashnab ko'rinar, salomatlik nishonasi bo'lmish do'mboq yonoqlar kulrang toshlar orasidagi gullar singari ko'zga tashlanardi.

Shu manzarani ko'z oldingizga keltirsangiz, uning har bir qismini osongina payqab olasiz, ammo u butun bir holicha sizda noaniq, mujmal taassurot qoldiradi. Siz uni keyinchalik xotirlaganingizda, xayolingizni band qilgan, birorta yangi fikr tug'dirgan va shu fikrni tug'dirish bilan o'zi qorong'ilikka g'arq bo'lib ketgan obrazlardan birortasini ham aniq-ravshan tasavvur etolmaysiz.

Vadim og'ir xayollarni tarqatmoq uchun har bir ibodat qiluvchining tashqi qiyofasiga qarab, uning ruhiy ahvolini bilishga urinib ko'rdi-yu, ammo bunga muvaffaq bo'lolmadi; u qabul qilingan tartibni yo'qotib qo'ydi va tezda barcha narsa uning ko'z oldida ola-bula latta-puttalar yig'indisiga, burunlar, ko'zlar, soqollar uyumiga qo'shilib ketdi. Hammayoqqa baravar tushib turgan shu'la bilan yoritilgan ana shu narsalar abadiy harakat qiluvchi, yagona, jonli maxluqqagina qarashli bo'lib tuyuldi, bir so'z bilan aytganda, olomon – allaqanday kulgili va shu bilan birga ayanchli narsa edi!

Vadimning beqaror ko'zlari biror narsaga muqim qarab turolmadi, chunki bu yerdagi manzara juda ham rang-barang edi va buning ustiga, uning birgina narsa atrofiga to'plangan fikrlari sirtqi taassurotni aks ettirmasdi; kishiga ham azob, ham zavq beruvchi birgina nafrat tuyg'usi o'zining eng yuqori cho'qqisiga yetib, butun borliqni pana qilib qo'ydi va qalb ko'zlari beixtiyor shu qora parda ortidan qarab qoldi.

O'ngga, mehrob eshigi bilan yonboshdagi eshikning o'rtasiga Isoning g'oyatda katta va zo'r mahorat bilan ishlangan tasviri qo'yilgan edi, ustalik bilan bezatilgan zarrin jild olovdek tovlanib turardi. Baland qandilga terilgan allaqancha shamlar tepadagi jajji naqshlarga yoki libosning aylanma burmalariga qizg'in shu'la sochardi; tasvirning shundoqqina oldida tunukadan yasalgan sadaqa tovoqchasi qo'yilgan, bu – Isoning oyog'i ostiga qo'yilgan sadaqa idishi bo'lib, uning tepasida, tasvirning tagida yirik, aniq harflar bilan: «Ey zahmatkashlar, dargohimga kelinglar, najot beraman!» degan so'zlar yozilgan edi. Ko'p kishilar tasvirga yaqinlashib tiz cho'kishar, yergacha engashib sajda qilganlaridan keyin idishga mis chaqa tashlardilar, unga tushgan tanga bo'g'iq jaranglardi.

Shu orada bir xonim va chaqalog'ini ko'tarib olgan dehqon ayol yonma-yon kelib qolishdi, ammo xonim kekka-yib, dehqon ayolni turtib yuborgandi, uning qo'lidan tushib ketgan chaqaloq chinqirib qoldi: «Bu boyvachcha ertaga dorda qiynalib jon bersa ajab emas, – deb o'yladi Vadim, – u jon berayotgan vaqtda bu bechora ayol chapak chalib, farzandlariga, ana uni ko'rib qo'yinglar, deydi». Vadim teskari qarab ketmoqchi bo'ldi.

Ammo shu tobda uchinchi bir ayol muqaddas butga yaqinlashdi, Vadim uni tanir edi.

Uning tomiridagi qon – Vadimning qoni edi, uning hayoti Vadimga o'z hayotidan ming marta azizroq edi-yu, ammo qizning baxti Vadimning baxti emasdi, chunki u boshqa bir xushqomat yigitni sevardi, xunuk, cho'loq, bukur Vadim esa, butun dunyoda birgina uni sevgan, ilk marta jon-dilidan «sevaman» deb aytilgan so'z uchun bor-yo'g'ini, butun xazinasini, o'zining ilohi bo'lgan nafratini quvona-quvona uning oyog'i ostiga tashlashga tayyor bo'lgan Vadim, hatto uning singillik iltifotiga ham sazovor bo'lolmadi. Endi vaqt o'tgan edi.

Qizning ko'ngli o'zgaga abadiy berilganini u bilar, shunga qat'iy ishonch hosil qilgandi. Demak, Olga uning uchun endi yo'q. Shuni bila turib, Vadim tobora azob chekar va o'z muhabbatidan sira ham voz kecholmas edi. Chunki bu muhabbat, qalbining so'nggi ilohiy bo'lagi ediki, agar bu nur so'ngudek bo'lsa, u odam bo'lmay qolardi.

Olga akasini ko'rmadi va shu rangpar, sohibjamol qiz astagina tasvirning oldiga kelib to'xtadi. Vadim unga o'z sirini ochgan dahshatli oqshomdagi kabi bugun ham Olga qora duxoba po'stinchasini kiyib olgandi, uning yirik-yirik ko'zlari Isoning chehrasiga tikilib turar, bu uning birdan-bir ibodati edi va agar Xudo odam bo'lganida edi, unda bu ko'zlarning iltijosi hech qachon zoye ketmasdi.

U cho'qinib, Isoning suratini o'pdi. Uning yorqin libosi qizning latofatli nafasidan bir lahza xira tortdi.

Olga ikkinchi marta boshini ko'targanida, uning yuzida juda g'alati o'zgarish paydo bo'ldi, avvalgi g'ussaning o'rnida ajib bir shu'la porladi, bu – ko'z yoshlari edi... yosh tomchilaridan biri qalin kiprikda ko'p ham turmay, olmosdek yarq etdi-da, tushib ketdi.

Yangi umid mana shu yosh tomchilarini uning qalbidan chiqarib yuborganiga so'z yo'q. Olga bu yerdan ketmoq uchun o'girildi. Vadim uning oldida turardi – yigitning o'tli boqishi qizning ko'z yoshlarini bir daqiqada quritib yubordi, qiz qalbining har bir tomiri titrab, nafasi og'ziga tiqilib qoldi.

Endi Vadimning sho'ri quriydi, chunki qalbiga ishonch to'lib, bu yerga kelgan qiz noumid bo'lib qaytib ketdi (bu paytda rohib chinqiroq ovoz bilan havoriy Pavelning maktubini o'qir va shu yerni o'ragan olomon hech narsani sezmasdan, lol bir ahvolda qimir etmay turardi. Butun bir beparvolik dengizi qarshisida ikki qalbning ehtirosi nima degan gap?).

Vadim Isoning tasviri ostidagi: «Ey zahmatkashlar, dargohimga kelinglar, najot beraman!» degan misrani achchiq zaharxandalik bilan takror o'qidi. Nima qilish mumkin?

U Xudoga qanchalik ishonsa, shaytonga ham shunchalik ishonardi.

Yigit cherkovdan chiqa turib, singlisiga yana ko'z tashladi, uning yonida Yuriy qilichining uchi bilan qumga turli gullarning shaklini parvosizgina chizib turardi; qiz devorga suyanganicha, g'oyatda ma'yus ko'zlarini undan uzmasdi. Uni ko'rgan kishi: bechora yana bir daqiqadan keyin sevgani bilan umrbod vidolashsa kerak deb o'ylashi mumkin edi.

Darvoqe, muhabbat umididan mahrum bo'lib, o'lim chaqirib turgan bir vaqtda, umrning bir necha kuni daqiqadan ham qisqaroq emasmi?

– Demak, uning Yuriyni sevishi aniq, – deb pichirladi Vadim eshik oldida qimirlamay turar ekan. Yigitning bir qo'li ko'ylagining ichida bo'lib, barmoqlarini beixtiyor qaltiroq bosdi-da, tirnoqlari badaniga botib ketdi; u qo'lini chiqarganida, barmoqlari qonga belangan edi. U qonli barmoqlariga telbalardek qarab, qon tomchilarini jimgina silkitib tashladi-da, cherkovdan chiqdi.

Zinapoyada bir to'da tilanchilar bilan ibodat qiluvchilar shovqin-suron qilib turar, ular davra qurishgan edi, o'rtada, sovuq toshyo'lak ustida o'lik kampir cho'zilib yotardi.

«Bir kishi o'tib ketayotib, uni itarib yubordi. Biz uni hazillashyapti deb o'yladik. U yiqildi-yu, qotdi-qo'ydi. Shayton olsin uni! Dod desa o'larmidi!» – derdi bir tilanchi, boshqalar baqirib-chaqirib uning gapini takrorlashar, unga hech kim yordam bermadi, deb o'zlarini oqlashar, yig'lamsirab, gunohimiz yo'q deb, o'zlarini himoya qilishardi.

Vadim ana shu gaplarni eshitdi, ammo kampirni o'zi itarib yuborganini xayoliga ham keltirmadi.

– Demak, u Yuriyni sevadi, – deb g'o'ldiradi u bedov otga minar ekan, – demak, u Yuriyni sevadi!

Vadim badbaxt qalb sohibi bo'lib, ba'zan birgina fikr ham uning qalbiga cheksiz hukmini o'tkazolmasdi. U yo eng qudratli odam bo'lib tug'ilishi yoki umuman tug'ilmay qo'ya qolishi kerak edi.

XV bob

Bu vaqtda bebosh olomon ibodatgoh darvozasi oldiga to'plandi; goh u, goh bu yerda kazaklarning shapkalari ko'rinar, nayzalar, miltiqlar yaraqlab qolardi, umumiy suron ichida isyonkorlik hamda qotillikdan darak beruvchi dahshatli so'zlar tez-tez eshutilib turardi, tobora baralla yangrayotgan chala-chulpa ashulalar bilan mastlarning qahqahasi biror yaxshilikdan darak bermas edi, chunki bunday daqiqalarda olomonning quvnoqligi iblisning bo'sasiga o'xshagan bir gap. O'zboshimchalik tufayli kelib chiqqan bu quvnoqlik ostida, qonli manzaralarga va erkin talonchilikka o'rganib qolgan yangi kelgindilarning ayyuhannos solishlari bilan avjiga mingan bu sho'xlikning zamirida dahshatli bir voqea pishib yetilmoqda edi.

Ana shularning barchasi hamon shamlari yiltirab, ibodat kuylari yangrab turgan cherkovning oldida yuz bermoqda edi.

Mash'um dovuq tez orada cherkov ichiga ham yoyildi, dehqonlar asta-sekin cherkovdan chiqa boshlashdi, ba'zilarining sabri chidamadi, boshqalari qiziqib qoldi, uchinchi bir xili bo'lsa, yonidagi sherigining, yur, bir ko'raylik-chi, o'zi nima gap, degani uchun chiqdi. Rost-a, nima bo'layotganini ko'rish kerak-da?

Ibodatgohning oldiga to'plangan xalq tog' etagidagi eng yaqin qishloqdan kelgan edi; yangi yordamchilar ketma-ket kelib turishardi; bir-biriga ulanib turgan shovqin-suronlar, yozning dim kechasida uzluksiz yangrab turuvchi momaqaldiroqqa o'xshab, umumiy shovqinga, yagona, davomli, qudratli hayqiriqqa qo'shilib borardi. Manzara dahshatli, jirkanch edi. Ammo buni xolis kuzatuvchining ko'zi bemalol ilg'ay olardi; u ana shu yerda xalqning nima ekanligini tushunib yetgan bo'lardi; xalq qiya tog'da osilib turgan toshga o'xshaydi, bu toshni yosh bola ham zo'r berib surib yubora oladi-yu, ammo u o'z yo'lida uchragan barcha narsani vayron qiladi. Bu yerda xolis kuzatuvchi mayda izzat-nafs hirslarining ko'pchilikning

ichida bo'lgani uchun salmoqli va kuchli bo'lishini ko'ra olardi, tunda o'zining kimligini bilmaydigan nodon xalq katta bo'lib qolganini ko'rsatib qo'yish uchun beadab gaplarni so'zlaydigan bolaga o'xshab, bir lahzalik, soxta hokimiyatiga ishonmoqchi bo'ladi-da, ilgari hurmat qilgan yoki qo'rqqan narsalarining hammasiga dag'dag'a qiladi!

Ibodatgoh darvozasining naq ro'parasida yoqilgan gulxan atrofida tilanchilar boshqalarga qaraganda ko'proq baqirib-chaqirib, uymalashib yurishardi. Ularning sevinchi oshib-toshib ketgan edi; tilanchilar bu yerdagi manzaraning oldingi qatorini tashkil etar, aftlarini gulxanning titroq, qizg'ish shu'lasi yoritib turardi; ularning ortidagi barcha narsa qorong'i va noaniqroq bo'lib ko'rinardi, odamlar qo'pol soyalardek sudralib yurardi, noma'lum rassom bu tilanchilarga, shu jirkanch uvadalarga tuzukroq joyni tayinlab qo'yganidek, ularni o'zi chizgan suratning asosiy mazmuni, bosh qahramoni qilib bo'rttirib ko'rsatgandek tuyulardi.

Qashshoqlik – nuqson va jinoyatlarning ildizini tashkil qilganidek, tilanchilar ham ana shu katta vujudning jonini tashkil etishardi, endi ularning tantana qiladigan vaqti keldi, ular bundan foydalanib boylik ustidan qahqaha urib kulishadi, uvadalarini shohona liboslarga aylantirib, ulardagi iflos dog'larni qon bilan yuvib tashlashadi. Bu o'ziga xos bir alvon edi. Ularning hukmronlik qilish umidi qanchalik oz bo'lsa, podshohligi shu qadar dahshatliroq bo'lib bormoqda edi, axir, faqat azobdan iborat bo'lgan umrni aqalli bir lahzalik tantana bilan mukofotlash kerak-ku, har bir so'zi bilan alam o'tkazgan kishiga loaqal bittagina bo'lsa-da, zarba berish, zarba berganda ham qaqshatqich zarba berish zarur!

Ibodatxonada ibodat tugab, har yoqdan kelgan sig'inuvchilar bir-birlarini turtib-surtib, tiqilishib, zinapoyaga chiqqanlarida, shovqin bir nafas tindi-da, keyin birdan isyonkor olomon ichidan nogahoniy qyun bilan qo'zg'algan yaproqlarning shatir-shuturiga o'xshagan dahshatli g'ovur ko'tarildi. Avval shartlashilmagan bo'lsa-da, noma'lum qo'l, noma'lum ovoz

barcha tushunadigan, barchaga hukmi o'tadigan ishora bilan olomonni qo'zg'atdi; bu, nari borsa o'n birlarga kirgan sho'rlik bola ediki, u allaqanday bir semiz boyvuchchaning yo'lini to'sgani uchun boyvuchcha uning gardaniga bir tushirgandi, bola dod deb, yerga yiqildi. Shuning o'zi kifoya edi; olomon tebrandi, gulduradi, joyidan siljidi, go'yoki u o'z qurbonlariga qo'l ko'tarish maqsadida, o'z nafratini butunlay sirtga chiqarish uchun shu vaqtga qadar bu sababni, ana shu arzimas bahonani kutib turgan edi! Bunday g'alayonlarda hali tajribasi bo'lmagan xalq ilk bora sahnaga chiqqan aktyorga o'xshaydi, u o'zining yangi ahvolidan xijolat tortib, puxta yodlab olgan rolining bosh qismini unutib qo'yadi, ana shunda hamisha sadoqatli Protey bo'lgan suflyor unga birinchi so'zni eslatib qo'yishi kerak, ana shundagina uning keyinchalik tutilmasligiga ishonsa bo'ladi.

Natalya Sergeyevnadan biroz avvalroq ibodatgohdan chiqqan Yuriy bilan Olga uni izvoshning oldida kutib turishmadi-da, oqshomning muattar salqin havosidan bahramand bo'lish istagida qo'lni qo'lga berib, chang yo'ldan piyoda ketishdi. Yuriy o'z vujudiga tegib turgan qiz badanining haroratini his etib, yengil ko'ylakning hilpirashiga maftun bo'lib, beixtiyor erib ketdi, u Olganing do'mboqdan kelgan qomatini bir qo'li bilan bag'riga tortib, uning boshi bilan yelkasini o'rab turgan katta chit ro'molini ikkinchi qo'li bilan bir tomonga surib qo'ydi-da, do'ndiq bo'yniga olovdek labini bosdi, qiz o't bo'lib ketdi, yigit qattiqroq yopishdi va bir so'z ham demay, qadamini tezlatdi. Bu vaqtda ular ikki yo'lning chorrahasiga, keksayib qurib qolgan katta tolning yaqiniga kelishgandi. Bu tolning qoramtir shoxlari g'arbning so'nggi shafag'i so'nmagani g'ira-shira ufqda ko'zga yaqqol tashlanib turardi.

Olga ketayotgan yerida birdan to'xtab qoldi, alam far-yodlarini, g'azab qichqiriqlarini eslatuvchi g'alati ovozlari uning quloqlariga chalindi, bu dod-faryod tobora zo'rayardi.

– Ibodatgoh oldida bir balo bo'lyapti, – dedi Olga jon-jahdi bilan. – Ko'nglim bir narsani sezyapti. Oh, Yuriy!

Yuriy!.. Bilasanmi, biz halok bo'lamiz. Sen cherkovdan chiqaverishda xalqning dahshatli g'ulg'ulasini eshitdingmi? Sevinib, o'yin-kulgi qilayotgan tilanchilarning yovvoyi basharalarini ko'rdingmi? Oh, bu yomon alomat – iblislar kulganda, aziz-avliyolar yig'laydi.

Ma'yus Yuriy onasiga yordam berish uchun yugurishini ham, shu yerda qolishini ham bilmasdan, poydevori yorqin shu'la bilan tovlanib turgan ibodatgohga tikilganicha ikkilanib turardi, uning ko'zlari birdan chaqnaib ketdi. U o'zini tolga urdi, bir daqiqada uning yarmigacha tirmashib chiqdi-da, yo'g'on shoxlarga osilib, daraxtning tepasiga chiqib oldi.

– Nimani ko'ryapsan? – deb so'radi hayajonlanib Olga.

Yuriy javob bermadi; u bir daqiqa qattiq titrab turdi va Olga uni daraxtdan ag'darilib tushadi deb, qichqirib yubordi, ammo Yuriyning qo'li jonsiz daraxtga beixtiyor yopishdi. Nihoyat, u daraxtdan tushib, yo'l yoqasidagi maysaga jimgina o'tirdi-da, yuzini kaftlari bilan berkitdi.

– Nimani ko'rding, – dedi qiz. – Nega qo'llaring muzdek, peshanangdan ter chiqib ketdi.

– Bu shabnam, – deb javob berdi Yuriy peshanasidagi sovuq terni artib, o'tirgan joyidan turar ekan.

– Hamma ish rasvo bo'ldi, essiz, – men bu olomon qarshisida ojizman. Onam halok bo'ldi. Ey Parvardigor, endi nima qilaman, nima qilaman, javob ber, ey qudratli Egam! – deb xitob qildi u barmoqlarini qayirib, tishlarini g'ijirlatar ekan.

Tun tobora quyuqlashib borar va Olga do'stining qo'lidan mahkam ushlab olib, yuragini vahima bosgan holda olisdagi ibodatgohga qarar, shamol bilan dala bo'ylab taralayotgan g'ovur-g'uvurga, dod-voylarga quloq solardi; to'satdan yo'lda g'ildiraklarning taraq-turuqi, ot tuyoqlarining dupuri eshitildi; bu ovozlari tobora yaqinlashib, tez orada bizning sayoq oshiqma'shuqlarimiz yoniga bo'sh aravada bir dehqon yetib keldi. U tikka turib olib, yo'rtib kelar va allaqanday o'xshovsiz qo'shiqni xirgoyi qilardi. Dehqon Yuriyning yoniga kelishi bilan saman otini to'xtatdi.

– Xo'sh, boyon, – dedi u malla soqolini silab, masxaraomuz ohangda. – U yerda ishning mazasi yo'qmi, deyman-a, darrov uyga ketging kelib qolibdi? Tag'in, piyoda yo'lga chiqqaningni qara-ya, o'tir, aravada eltib qo'yaman. – Yuriy lom-lim demasdan, otning yuganidan ushladi.

– Hay, hay, boyon! – deb po'pisa qildi dehqon. – E-he, aravamga rostdan ham chiqadiganga o'xshaysan. Hey, hovliqma, – u otga qamchi urib «chuh» deb yubordi.

Vafoli ot olg'a intildi, ammo alamzadalik ortida kuchiga-kuch qo'shilgan Yuriy yuganga shu qadar mahkam yopishib oldiki, ot chetga burilishga majbur bo'ldi. Bu orada aravaning g'ildiragi toshga qattiq urilib, sal bo'lmasa ag'darilib ketay dedi; zarbadan esankiragan dehqon yerga yiqildi-yu, ammo tizginni qo'ldan chiqarmadi. Dehqon aravaga yana chiqib olish uchun bir oyog'ini ko'targan edi, boshiga to'satdan tushgan musht uni yerga qulatdi va kuchli qo'l tizginni tortib oldi. «Bosqinchilik bu!» – deb baqirdi dehqon o'rnidan turishga urinar ekan, biroq Yuriy bu paytda Olgani yerdan shartta ko'tarib, aravaga o'tqazgan, otning boshini burib, unga bor kuchi bilan qamchi bosgandi; ot ham yeldek parvoz qildi. Dehqon xirillagan ovoz bilan yana bir marta: «Bosqinchilik bu», – deb baqirib qoldi. G'ildirak uning ko'kragi ustidan o'tib ketdi va dehqonning ovozi abadiy o'chdi.

Bu kecha dahshatli bo'ldi, olomon deyarli tongotargacha shovqin solib chiqdi va gulxanning ermak bo'lgan qonli shu'lası ufqdan bosh ko'targan quyoshning ilk nuriga payvand bo'ldi, musallasdan mast bo'lgan, qonga bo'yalib, loyga belanib, tasqarasi chiqqan talaygina tilanchilar maydonda cho'zilib yotar, ularning ba'zi birlari esa to'da-to'da bo'lib tarqalishmoqda edi. Ko'pgina joylarda jizg'anak bo'lgan maysa bilan qora kul, so'ngan gulxanning o'rnidan darak berardi, ba'zi daraxtlarda ikkita yoki uchta murda osilib turardi, murdalar bundan ortiq emasdi. Ulardan biriga qarab, bir paytlar bu ayol kishi bo'lganini payqash mumkin edi, bu murdadan insonning chirkin qoldiqlarini bazo'r bilib olsa bo'lardi, hatto eng yaqin qarindoshlar ham bu murdaga qarab, mehribon Natalya Sergeyevnani taniy olishmasdi.

XVI bob

Men muhtaram o'quvchim yoki o'quvchilarimdan Boris Petrovich ov ishlarining markazi, asosiy qo'nish joyi qilib tanlagan kichkinagina daraxtzor qishloqda turibmiz, deb fikran tasavvur etishni iltimos qilaman, keksa ovchimiz o'z jilovdori Vadimning besabab ot minib ketib, qaytib kelmaganidan achchig'langan holda, tunash uchun mo'ljallangan yerga yetib keldi. U qo'ngan kulbada marhum askarning o'ttizlarga borgan tul xotini – oppoqdan kelgan, sog'lom, durkun, sarg'ish soch, qora ko'zli, ko'krakdor, pokiza uy bekasi bor edi. Shu sababdan ham bizning keksa xotinboz, o'z sochlarining kumushdek oqarib qolganiga va bo'lajak bodning dastlabki alomatlariga qaramay, uy bekasiga faylasuflarning ko'zi bilan qaramay, balki uning ko'nglini topishga turlicha yo'llar bilan harakat qildi va bunga ortiqcha sarf-xarajat hamda urinishsiz tez muvaffaq bo'ldiki, siz ham buni osongina fahmlagandirsiz. Cho'pchiroqning o'chirilganiga xiyla vaqt bo'ldi. Bu paytda xo'roz qanotlarini qoqib, xirildoq ariyasini ilk marta kuylashga otlanib turar, rosa to'ygan otlar esa mayin yemning nishxo'rtlarini goh-goh chaynab qo'yardi; bu vaqt kulbadagi pech supasida ko'krakdor uy bekasining yonida yotgan Boris Petrovich zo'r berib xurrak tortardi. Agar shu jimjitlik ichida noma'lum kishining kuchli qo'li uch marta musht urib, darvozani taraqlatmaganida edi, kunduzgi mashaqqatlardan horib-charchagan va uy bekasining xushbo'y arog'i hamda o'pichlaridan mast bo'lib, sof va benuqson vijdonini xotirjam qilgan Boris Petrovich yana ancha vaqtgacha xurrak otib, u yoqdan-bu yoqqa ag'anab yotgan bo'lardi. Itlarning mungli uvlashini eshitgan uy bekasi cho'chib uyg'onib ketdi-da, cho'qinib oldi va shishib ketgan qovoqlarini mushtlari bilan ishqalab, to'zigan sochlarini tartibga keltirar ekan, gapira ketdi: «E Xudo-yey! Kim u taqillatayotgan! Bu yerda ins-jinslar yo'q! Namuncha qattiq taqillatishyapti-ya». U supadan tushib, deraza oldiga bordi-da, uni ochdi, tungi shamol uning ter bosgan ochiq ko'kragiga kelib urildi va ayol derazadan



boshini chiqarib, zarda bilan savolini takrorladi, darhaqiqat, darvozaning oldida, egarlangan va bo'yniga bo'yincha taqilgan saman ot hamda uning yonida bekaga notanish, lekin aftidan dehqonga o'xshamaydigan yoshroq bir kishi turardi.

– Tezroq och! – deb baqirdi u dahshatli ovoz bilan.

– Namuncha shoshadi, – deb g'o'ldiradi askarning xotini derazani taraqlatib yopar ekan. – Kutib tur, muzlab qolmaysan. Uyqing kelmayotganga o'xshaydi, la'nati alvastiga o'xshab o'rmonda daydib yuribsan. – U po'stinini kiyib, uydan chiqdi-da, xizmatkorni uyg'otdi. Xizmatkor bemahalda kelgan kishini so'ka-so'ka, nihoyat, hovli eshigini g'irchillatib ochdi, lekin kelgindi hovliga hovliqib kirib, Boris Petrovichning shu yerdaligini xizmatkordan eshitgani hamon o'zini kulbaning ichiga urdi.

Siz bu kishining Yuriy ekanini fahmlagan bo'lsangiz kerak.

– Otajon! – dedi Yuriy xiyla o'zgargan ovozda, qorong'ida narsalarni qo'li bilan ushlab ko'rar ekan. – Ko'zingizni oching! Qayerdasiz? Ko'zingizni ochsangiz-chi, hayot-mamot masalasi hal bo'lmoqda. Menga qara, – dedi u hali ham uyqusi o'chmagan bekaning qulog'iga va to'satdan uning yoqasidan ushlab oldi. – Mening otam qani? Senlar uni nima qilib qo'yдилaring?

– Qo'ysang-chi, boyvachcha, bu nima qiliq, qo'yib yubor, bo'lmasa dod deyman. Qo'yib yubor, qo'yib yubor deyapman, battol. Axir, eshitmayapsanmi, so'rida xurрак otyapti-ku, – u halloslab, Yuriyning qo'lidan qutulishga urinardi.

– Nima shovqin? Kim u yoqalashayotgan! Petrushka, Terushka, Fotka! Hey, siz... – deb baqirdi yarim ochiq eshikdan xuddi yirtqich hayvonga o'xshab chinqirib, uvillab kirgan sovuq shamol bilan shovqin-surondan uyg'onib ketgan Boris Petrovich.

– Otajon! – dedi Yuriy suyunib ketgan ayolning yoqasini qo'yib yuborib. – Tezroq tushing. Hayot-mamot masalasi hal bo'lmoqda. Falak haqi yoki do'zax haqi, iltimos qilaman, tushing.

– Bu qanaqa odam, axir, – deb g‘o‘ldiradi Boris Petrovich supadan osilib tushar ekan.

– Menman! O‘g‘lingiz, Yuriy.

– Yuriy, o‘zi nima gap, gapir... nega bu yerga kelding... bemahalda-ya!..

U qo‘rqib ketib, o‘g‘lining qo‘llaridan mahkam ushlab oldi va uning hiylagar arvoh bo‘lmay, balki o‘z o‘g‘li ekanligiga ishonmoq uchun Yuriyning ko‘zlariga tikildi.

– Otajon! Biz halok bo‘ldik! Xalq isyon ko‘tardi. Ha! Bizning qishloqqa ham... Bu yerga ot choptirib kelayotib, qishloq ko‘chalarida, cherkov tevaragida xalqning to‘da-to‘da bo‘lib yig‘ilganini ko‘rdim. Menga yetib kelgan ba‘zi xitoblardan ma‘lum bo‘ldiki, ular Pugachyovning o‘zini bo‘lmasada, uning kazaklarini kutib turishibdi. Qochib qoling!

– Natalya Sergeyevna-chi? Mol-mulkim-chi?

– Onajonim... Onajonginam...

– Nahotki, u...

– Qochib qoling! – dedi g‘amgin Yuriy otasini mahkam quchoqlab. Yigitning ko‘zidan sachragan qaynoq yosh cholning chakkasiga uchqundek tegib, uni kuydirdi.

– Oh! – deb ho‘ngrab yubordi u. – Xayolga kelmagan gap! Ishonib bo‘lmaydi! Bu qora bulut biz gunohkor bandalarning ham boshiga keladi, deb kim o‘ylagan edi! Yo Parvardigori olam! Endi qayoqqa bosh uraman! Hamma bizga dushman. Xudo ham dushman, odamlar ham. Shu Pugachyov kelib-kelib, rus boyonlarining yostig‘ini quritadi, degan gap xayolimizga ham kelmagan edi-ya! Oddiy bir kazak-a! Yo Parvardigor! Ey aziz-avliyolar!

– Birorta sadoqatli kishingiz yo‘qmi? – deb so‘radi Yuriy shoshib-pishib.

– Yo‘q! Yo‘q! Hech kimim yo‘q!

– Fotka Atuyev-chi?

– Men bugun u haromzodani chala o‘lik bo‘lgunicha urdim.

– Tereshka-chi?

– U xotini bilan o‘ynashganim uchun ko‘pdan buyon meni chavaqlab tashlamoqchi bo‘lib yuribdi. Bosqinchilar, kofirlar! Oh, meni xalos et! O‘g‘lim.

– Biz halok bo‘ldik! – dedi Yuriy qo‘llarini ko‘kragiga qo‘yib, ko‘kka qarar ekan. – Yolg‘iz Xudoning o‘zigina bizni omon saqlay oladi. Agar undan najot so‘ray olsangiz, so‘rang.

Boris Petrovich cho‘kdi, uning ko‘zlaridan daryo-daryo yosh oqdi. Qo‘rqoq chol! U bir gala farishta osmondan oy nuriga osilib tushib, meni kumush qanotlarida najot sohiliga olib ketadi, deb o‘ylagan edi.

Ammo farishtalar uchib kelmadi, balki sho‘rlik askarning xotini achinib, uning yoniga keldi-da, «Seni men qut-qaraman», dedi.

Hayotning muhim davrlarida, goho eng oddiy kishida ham, shu paytga qadar uning ko‘kragida so‘nib tugayotgan qahramonlik uchquni alangalanib ketadi va shunda bu kishi shu vaqtga qadar tushiga ham kirmagan va keyinchalik, hatto o‘zi ham ishonmaydigan ishlarni amalga oshiradi. «Moskvani bir mirilik sham yondirib yuborgan», degan naql bejiz aytilgan emas.

Bu vaqtda uy bekasi «Qani, ortimdan yuringlar», deb qo‘li bilan ishora qildi-da, uydan chiqdi, ular Palitsinning jilovdori uxlab yotgan qorong‘i dahlizdan o‘tib, to‘rt zinalik sirg‘anchiq, g‘ijirlaydigan zinapoyadan ehtiyotkorlik bilan hovliga tushishdi. Hovli jimjit bo‘lib, gala-gala itlar ayvonning tagida, otlar ba‘zi-ba‘zida pishqirib qo‘yar, poxol ustida issiq kalta po‘stinini yopinib yotgan ovchi tushida valdirardi. Ular ombordan o‘tib, hovlidan keng polizga chiqiladigan orqa darvozaga yaqinlashdilar. Polizga karam, zig‘irpoya, sholg‘om, kungaboqar ekilgan bo‘lib, uning etagida, torgina xirmonning ikki burchida xuddi do‘konlarga o‘xshab ketuvchi ikkita pichan g‘arami o‘rtadagi baland va bo‘m-bo‘sh shiyponni qo‘riqlab turganga o‘xshardi. Ular eshikka yaqinlashishi bilan kimdir: «Kim u, bu yerda yurgan?» – deb baqirdi, ovozidan, bu odamni shu tobda uyg‘onib ketgan itboqarlardan biri bo‘lsa kerak, deb taxmin

qilish mumkin edi. «Ha, xo'jayinlarni ko'rmayapsanmi?» – deb javob qildi askarning bevasi, itboqarning kallasi bilan boshqa a'zolarining muvozanatini saqlash uchun gandraklab, o'ziga yaqin kelayotganini fahmlab, beka o'z yo'ldoshlariga qarab, bir katta tup qariqizga ishora qildi. Ular darhol qariqizning panasiga yashirinishlari bilan u hech narsa bilmagan kishidek, darvoza oldida to'xtadi.

– Iye, jononchalar tunda izg'ib yurishi mumkinmi-a? – dedi itboqar bo'ynini qashir ekan va xaxolab kulib, og'ir kafti bilan uning yelkasiga shapatiladi.

– Voy Xudoyim, men jononcha emishman! Bizdek mehnat qilgan odam o'ziga qaray oladimi?!

– Gapni boshqa yoqqa burma, hammasini bilamiz. Muncha do'ndiq bo'lmasa. Boy ham hech narsani bilmaydiganga o'xshaydi. Keksa shaytonni qo'lga olganingni bilamiz. Xudoyimga ayon. U osonlikcha qutulib bo'pti, ko'z yoshlarimizning hisobini talab qilamiz. Mavridi keladi. Ota-miz Pugachyov uning tumshug'ini qashlab qo'yadi. O'ziga bino qo'yavermasin. Sen bo'lsang, tannozcham, shuning uchun meni bir o'pgin.

Itboqar uni o'pmoqchi bo'lganida, u o'zini chetga tortgan edi, bizning olg'ir itboqarimiz aravaning shotisiga qoqilib ketib, ag'darilib tushdi, bir nafascha so'kinib yotdi. U uxlab qoldimi, yo'qmi, menga ma'lum emas, lekin, har holda, oyoqqa turolmay, shiringina ko'z yumib qo'ya qoldi.

Ota bilan o'g'il bu ko'ngilsiz hodisaning tugashini toqatsizlanib kutganliklarini tasavvur etish qiyin emas. Nihoyat, ular polizga chiqib, qadamlarini tezlatdilar. Ularning noaniq xavf ortidan ziq bo'lgan qalblari dukillab urardi, ular nafaslarini ichlariga yutib, shudring bosgan o'tda to'yilib, zig'irpoyalar bilan yopishqoq egatlarni oralab o'tib, har lahzada g'ishtga yoki shox-shabbaga qoqilib borishardi. Qarg'a shaklidagi latta qo'riqchilar odamga o'xshab ko'rinar va har safar dala kalamushi oyoqlari ostidan hatlaganida, ularni qaltiroq bosardi. Boris Petrovich ovchi pichog'ining sopini ushlasa, Yuriy qilichiga yopishardi. Ammo ularning baxtiga,

vahimalarining hammasi bekor bo'lib chiqdi va ular eson-omon qorong'i shiyponga yetib kelishdi, avval beka, uning ketidan Boris Petrovich bilan Yuriy shiyponga kirdilar. Beva ayol ularni qorong'i burchakka boshladi; bu yerdagi ikkita o'raning biriga g'alla solingan bo'lib, ikkinchisi yarmigacha somon bilan to'ldirilgan edi.

– Buning ichiga tush, boy, – dedi tul xotin ikkinchi o'rani ko'rsatib. – Somonning ichiga kirib, boshinggacha yopib ol; kim kelsa ham, nima qilsa ham mensiz chiqa ko'rma. Mendan xotirjam bo'l, to tirik ekanman, seni omon saqlayman; boshimga har qanday kulfat tushsa ham, bu gunohni qilmayman!

Boris Petrovich o'raga tushishi bilan Yuriy uning ketidan tushishning o'rniga, ko'kka boqib, mardona tovush bilan: «Xayr, otajon, omon bo'ling... Rozi bo'ling! Balki, bundan keyin ko'rishmasmiz», – dedi. U o'girilib kelgan yo'lidan jadal yurib ketdi; u hech kimga sezdirmay hovliga kirdi-da, og'ildan eng yaxshi otni yechib, sakrab mindi va yana poliz oralab xirmondan ot qo'yib o'tar ekan, hali ham shiypon eshigining oldida turgan bevaning og'zi ochilib qolganini ko'rib, qo'lini bir silkitdi-da, qulab yotgan eski devorning ustidan sakrab, dalada xuddi chaqmoqdek ko'zdan g'oyib bo'ldi; chopib ketayotgan ot tuyoqlarining bir maromdagi dupuri yana bir necha daqiqa eshutilib turdi. Bu tovush tobora pasayib, oxiri, daraxt barglarining shitirlashi bilan qo'shilib ketdi.

«U pildiroq qayoqqa g'oyib bo'ldi-ya! – deb o'yladi og'zi ochilib qolgan tul xotin. – O'g'lonning boshi toshga o'xshaydi, bo'lmasa, bunaqa ot choptirishning o'zi bo'ladimi?! Xudo ko'rsatmasin, kazaklarga duch kelgudek bo'lsa, u azamatdan nom-nishon ham qolmaydi, oh, oh, oh! Nima bo'ldi-yu, boshimdan xayol arimay qoldi. Chol qurmagurni bekitishga bekitdim-a, lekin menga endi kun berishmaydi, kaltak ostida chiriymen. Ha, mayli, ish shunaqasiga aylanganidan keyin, bu yog'iga hushyor bo'l, onaboshi! Avvalo, so'z berma, so'z berdingmi – mahkam tur. Uning o'zi ishning pachavasini chiqarmasa, bas!»

XVII bob

Birtalay voqealar yuz bergan o'sha kecha ibodatgohdan otliq yo'lga chiqqan Vadim o'rmonda uzoq kezib yurdi, biroq tikanli chakalakzor orasida urinib tolgan otining o'zi uni Palitsino qishlog'ining yo'liga olib chiqdi.

Qayg'uga botgan bukur qo'llarini ko'kragiga qo'yib, boshini egib, ot ustida xayol surib borardi. Uning ovda tutadigan qamchini kazak egarining qoshida tebranib borar va qitig'i o'lmagan chopqir, vafodor bedov ot odimini tobora tezlatib, yo'rg'alab bordi-da, keyin yoldor bo'ynida yuganning bo'sh osilib turganini sezib, bir pishqirib, g'izillab chopib ketdi. Vadim o'ziga keldi, otning yuganini ushlab, chunonam tortdiki, ot oldingi oyoqlarini ko'tarib, boshini bir chayqadida, yana ikki marta yonboshga sakrab, taqqa to'xtadi, uning yag'rinidan iliq bug' ko'tarilgan va po'lat suvlig'idan yerga ko'pik oqardi.

«Qayoqqa, muncha oshiqyapsan? Nimadan quvonib ketding, bedov do'stim? – dedi Vadim. – Oshiqma, seni orom va issiq og'il kutmoqda: sen birovni sevmaysan, shuning uchun nafratni ham tushunmaysan. Senga saodatli osmon eng vahshiy azoblardan rohat topa bilish kabi ajib qobiliyatni ato etmagan. Oh, agar men bu ehtirosni qalbimdan, mana shunday qilib tag-tomiri bilan sug'urib tashlayolsaydim! – u egilib, yerdan uzun o'tni sug'urib oldi. – Yo'q, yo'q! – dedi u so'zini davom ettirib. – Eng toza suv to'la kosani zaharlamoq uchun bir tomchi zaharning o'zi kifoya qiladi va ana shu zaharni to'kib tashlash uchun kosadagi suvni butunlay to'kib tashlamoq kerak!» U yo'lda davom etar ekan, endi otni asta yo'rttirib bormadi, allaqanday bir kuch uni tortib ketdi. Charchashni bilmaydigan ot g'ir-g'ir shamolni kesib, uchib borardi. Vadimning sochi hilpiraydi, ikki marta bosh kiyimi uchib ketay dedi, qo'li bilan bazo'r ushlab qoldi. Ba'zi-ba'zidagina samanining qorniga uzangi bilan niqtab qo'yadi. Mana, qishloq ham ko'rindi, cherkov, har yoqda gulxanlar porlaydi, dehqonlar bayramga atab

tikilgan chakmonlarini kiyib ko'chada to'da-to'da bo'lib yurishibdi. Ular baqirib-chaqirishadi, ashula aytishadi. Mast olomonning g'ovur-g'uvuri goh birdan tinib qolib, goh yana kuchayib, baralla eshitiladi. Vadim otni devor taxtasiga bog'lab, hech kimga sezdirmay, olomonga qo'shildi. Bu gulxanlar, bu ashulalarning barchasi allaqanday zo'rma-zo'raki quvnoqlikdan dalolat berar, majusiylarning bayramini eslatar va, hatto, ashulalarda tez-tez takrorlanib turgan Dido va Lado degan ismlar ham tajribasiz muhojirda ana shunday yanglish fikr uyg'otishi mumkin edi.

– Hoy, Vadimka! – dedi siyrak soqolli, tepakal semiz dehqon. – Qanday xabarlar bor? Otaxonimiz qachon keladigan bo'ldilar?

– Ertaga, tush paytida keladi, – dedi Vadim o'zini chetga olmoqchi bo'lib.

– Rostdanmi? – deb gapga qo'shildi boshqa bir dehqon. – Bugun emas, ertaga keladilar, degin. Xo'sh, xo'sh, tag'in qanday xabarlar bor? U kishining askarlari ko'p bo'lsa kerak-a? Tuman-tuman kazaklari bordir-a? Chakmonlari kumushdan bo'lsa kerak-a?

– Eh, sen ahmoq, qovoqbosh, – dedi uchinchisi boshini chayqab. – Kumush nima degan gap, u kishining chakmoni u yoqda tursin, etiklari ham oltindan.

– U kishiga non-tuzni kim tutadi-a? Keksalarimiz tutsalar kerak-da.

– Turgan gap. Menga qara, Vadim, – dedi qorachadan kelgan, ko'zlariga qon quyilgan, pahlavondek to'rtinchi dehqon yigit. – Bizning boy qayoqqa ketdiykin-a! Qochib qolgan bo'lmasin tag'in. Qo'ldan chiqarib yuborsak, rosa alam qiladi-da. Menga qo'yib berishsa, u bilan bir gaplashib qo'yar edim-da, go'rga ham bugun kirgizmasdim.

«Yo'q, yo'q! – deb o'yladi Vadim, ulardan nari ketar ekan, – u mening qurbonim. Mendan boshqa hech kim unga qo'l ko'tarolmaydi. Uning o'lim oldidagi dod-voyini mendan boshqa hech kim eshitmaydi. So'nggi qarashini, jon

berish oldidagi oxirgi talvasasini mendan boshqa hech kim ko'rmaydi. U meniki – men uni osmondan va do'zaxdan, qonli yoshlar to'kish, eng og'ir kunlarni kechirish evaziga sotib olganman. Men yovuzlik bilan qasos olish tuyg'usidan boshqa birorta ham tuyg'uni tan olmasligim kerak, ana o'sha og'ir kunlarda paydo bo'lgan tuyg'ularning barchasini fikran yutib yuboraverdim.

O! Men o'z o'ljasini beparvolik bilan qo'ldan chiqarib yuboradigan va boshqalarga topshirib qo'yadigan odamlardan emasman. Qabih qullar!»

U tez yurib jarga tushib ketdi. Bu yerdan uncha katta bo'lmagan o'ynoqi soy oqib o'tar, toshdan toshga sakrab qurigan tollarni oralab, qalin qamishzor ichida shaldirab yo'qolar va Okaga jimgina qo'shilib ketardi. Bu yerda har yon sokin va bo'm-bo'sh edi, jarning narigi tarafida, kichikroq bog'ning orqasida juda ko'p katta-kichik imoratlari bilan boyning qo'rg'oni savlat to'kib turardi. Uy qop-qorong'i edi. Unda yashovchilarning hammasi uzoq safarga ketganga o'xshar, chunki birorta ham derazada miltiragan sham ko'rinmasdi. Vadim soy ustiga tashlangan taxtadan o'tib, tepadagi qalin malina shoxlari bilan o'ralgan eski hammomning yoniga bordi. Eshik qulfining teshigidan milt etgan nur ko'rgandek bo'ldi; Vadim to'xtadi-da, oyoq uchida yurib, mahkam berkitilgan deraza oldiga keldi.

Hammomdan noaniq ovozlari eshitildi. Vadim deraza tagidagi qalin maysaga yonboshlab, diqqat bilan quloq sola boshladi: uning yer yuzidagi baxtsizliklarini ko'raverib tosh bo'lgan qalbi shu daqiqada, temir qafasidagi qonli go'shtni ko'rgan lochindek tipirchilab, dukillab urib ketdi. Mabodo, qishning kechasida momaqaldiraq gumbirlab qolganida, odam qanday taajjubga tushsa, Vadimda ham shunday bo'ldi. U qo'lini ko'ksiga mahkam bosib, shivirlab bunday dedi: «Uxla, ey telba ko'ngil! Uxla... Sening omading yo o'tib ketgan yoki endi keladi! Ammo hozir payti emas. Axir, sen yomon ko'radigan maxluq yoningda emas-ku? Gapir!...»

U nafasini ichiga yutib turib, derazaga quloq solar ekan, shu gaplarni eshitdi:

1-ovoz. Xayr, do'stim... alvido...

2-ovoz. Men seni yolg'iz tashlab ketamanmi? Yo'q, agar taqdir shu ostonaga «o'lim» degan so'zni yozib qo'yganida ham, men undan hatlab o'tib, seni bag'rimga bosardim-da, keyin jon berardim.

1-ovoz. Axir, men xavfsiz yerdaman-ku. Men arzimasi bir kishiman, men umumiy g'alayon ichida e'tibordan chetda qolib ketaman.

2-ovoz. Yo'q, bu mumkin emas. Farzandlik burchi meni otamning oldiga chaqiryapti. Men uni qutqarib, qaytib kelaman. Sensiz bu dunyo nima? Hech gap. Xudosi bo'lmagan ibodatxona. Xavf-xatardan qochishimning nima hojati bor. Agar halok bo'lishim kerak bo'lsa, ajal meni istagan yeridan topib olaveradi.

1-ovoz. Bag'ritosh! Hali ketmayman ham degin. Menga qara! Xudo haqi, qoch.

2-ovoz. Yo'q! Ha, mayli, bir necha kundan keyin yana sen bilan birga bo'laman.

Ovozlar tindi va hammom eshigining g'irchillab ochilib, keyin taraqlab yopilgani eshitildi. Vadim allakimning jarlikda, xuddi arvoq kabi lip etib paydo bo'lganini, keyin tepalikka chiqib, jarni kesib o'tgan chetan devordan sakrab, tungi tuman ichida g'oyib bo'lganini ko'rdi.

Vadim o'rnidan turib, eshikning oldiga bordi-da, uni qattiq, baquvvat qo'llari bilan itardi; ichkaridan halqa uzilib ketib, sirli eshik g'irchillab ochildi. Allakim qichqirib yubordi. Yana hammayoq jimjit bo'lib qoldi. Yerda shamchiroq yonib turardi. Uning yonida rangpar boshini eman kursiga qo'yib, Olga o'tirardi!

Mudhish fikr bechora buurning aqlini xuddi chaqmoq singari yoritdi, qiz bilan gaplashgan kishining kimligini darrov payqab oldi. Vadimning singlisi barcha umidlarini, qalbidagi butun muhabbatini o'shanga bog'lagandek, unga shu qadar iltifot bilan mehribonlik qildi.

Olga harakatsiz o'tirar, uning yuziga og'ir alam o'z muhrini bosgandek ko'rinar, ko'zlarida allaqanday bir shakli sovuq nur yiltillar va yumuq lablarida doimiy bir tabassum qotib qolgandek edi, ammo bu tabassumdan uning taqdirdan noliyotgani sezilib turardi. Shamchiroq uning oyog'i ostida yonib turar va pilikning so'nayotgan alangasi sho'rlik qizning iyagini yashil oyna orqali tussizgina yoritardi. Qora paxtalik nimcha ostidagi ko'kragi goh ko'tarilib, goh tushib turar va chala o'rilgan uzun sochi uning o'ng yelkasiga tushgan edi.

Vadim uning qarshisida halok bo'lgan Margarita qarshisida turgan Mefistofeldek turar va uning zaharli boqishi gunohkorni tavba qildirayotgan kishining boqishiga o'xshardi. U qo'llarini ko'kragiga qo'yib, qizning o'girilib qarashini kutdi, lekin qiz o'tirgan joyida qimirlamay, titroq tovush bilan:

– Mendan yana nima istaysan? – dedi.

– Yanami? Men sendan avval biror nima talab qilganmidim? Biror narsani qurbon qil, deganmidim? Gapir, Olga! Men seni ont ich deb zo'rladimmi? Esingdadir, dahshatli daqiqa senga noqulay vaqtda muddatidan avvalroq kelgani uchun men aybdormanmi!

– Oh... Sen inson emassan, yirtqich bir hayvonsan!

– Olga... Sening otang – mening ham otam edi!

– Ishonmayman, ishonolmayman. Farishtalar dargohida bo'lgan otamning shu oilani halok etishni, senu bizning jinoyatchi bo'lishimizni istayotganiga ishonmayman. Yo'q! Sen mening akam emassan! Yo'qol, seni yomon ko'raman. Sendan nafratlanaman.

– Yomon ko'rsang ko'raver. Ammo nafratlana olmaysan.

– Nafratlanaman.

– Sen mendan qo'rqyapsan. – U vahshiylarcha kulib, qizning yoniga keldi.

– Vadim, otamizning hurmati haqi, chiqib ket, sendan qabrning isi kelyapti.

– Yo'q, Olga. Men tuni bilan shu yerda qolaman.

– Xudoyim-ey! – dedi qiz shivirlab va badaniga qaltiroq turib, yuragi uvishdi. Uning qalbida allaqanday shubha

tug'ildi, o'rnidan turdi, oyoqlari mayishib ketdi. U qadam bosmoqchi bo'ldi-yu, tizzasi bilan yiqildi.

– Quloq sol! – deb Vadim singlisini yerdan ko'tarib, kursiga o'tqazdi. Uning nam qo'lini ushladi-da, muloyimroq gapirishga harakat qilib, so'zida davom etdi: – Quloq sol! Men bir vaqtlar ko'nglimni muhabbatning shu'lasini bilan yoritmoqchi bo'lgan edim. O'sha daqiqalarda senga, sening moviy ko'zlaringga tikilib, dahshatli rejamni biryo'la vayron qilib tashlamoqchi, ko'kragingga bosh qo'yib, o'tgan voqealarning hammasini, xuddi ajib ertakdek unutib yubormoqchi bo'ldim. Lekin sen buni istamading, sen meni aldading, xushqomat yigit seni maftun qildi-da, notavon bukur esa, tiniq osmonda unutilgan, odamlarning ham, quyoshning ham e'tiboridan chetda qolgan qora bulutdek yolg'izlanib qoldi. Sen buni tushunolmaysan. Sen go'zalsan, sen farishtasan, seni sevmay bo'lmaydi. Men buni bilaman. Oh, menga ham bir qarab qo'y; nahotki, menga bir marta ham qaramaysan, nahotki menga atalgan birorta tabassuming yo'q. Hammasi, hammasi o'shanga! U iltifotingning o'ndan bir hissasi bilan ham mamnun bo'lishi kerak, u sening birgina so'zingga menga o'xshab butun kelajagini baxshida etolmaydi, sen shuni bilasanmi? Eh, bunga sening aqling yetmaydi. Agar men seni bu qadar sevishim yuragimga yozib qo'yilganini bilsam, uni shu daqiqada ko'kragimdan sug'urib olib, tizzangga tashlardim. Oh, birgina so'zingni ayama, Olga, jon berayotib, seni la'natlayman.

– La'natlayver! – dedi u beparvolik bilan.

Shu vaqtga qadar Volga bo'yi adirlarida goho-goho uchrab, bizni g'oyatda taajjublantiradigan xunuk haykallardan biriga o'xshab, Vadim qizning oldida harakatsiz edi, goho qo'llarini qayirar va uning qalin kipriklari ostidagi yarim yumuq ko'zlaridan og'ir azob chekayotgani bilinib turardi. Hammayoq jimjit, faqat shamolgina goho hammom tomida elib-yugurib, chirigan poxolni to'zg'itar va bo'sh mo'rida guvillardi. Vadim so'zini davom ettirdi:

– Olga, yana bir necha soʻz aytaman-da, keyin ketaman. Bu oxirgi urinishim. Agar sen shunda ham shafqat qilmasang, unda oramizda hech qanday jigarchilik aloqalari boʻlmaydi, shuni bilib qoʻy. Men seni ont ichib bergan vaʼdalarindan xalos etaman, menga ayol kishining yordami kerak emas, men osmon adolatining qamchisini oʻjiz bir qizga topshirishni istab, ahmoq boʻlibman. Bas, endi yetar! Quloq sol: agar ochlik va tashnalikdan eti borib ustixoniga yopishgan bechora bir it bemajol vovillab, oyoqlaring ostiga sudralib kelsa-yu, senda bir burda, birgina burda non boʻlsa, javob ber-chi, nima qilarding?

– Koʻngil bir burda non emas, u mening ixtiyorimdan tashqarida.

– E-ha! Mening ixtiyorimda emas, degin! Ha-ha! Axir, men sendan buni soʻraganim yoʻq-ku?

– Sen javob kutgan eding. Men javob berdim.

– Senda rahm-shafqat yoʻq!

– Senda bormi?

– Demak, sen uni juda ham sevasan.

– Dunyodagi barcha narsadan ortiqroq sevaman.

– Ha-ha! Dunyodagi barcha narsadan ortiqroq degin, bu chakki!

– Rost, men uni sevaman va hech qanday kuch bizni bir-birimizdan ajratolmaydi.

– Yanglishyapsan, – deb xitob qildi zaharxandalik bilan bukur. – U, albatta, oʻlishi kerak, yaqin fursatda oʻlishi kerak!

– Men u bilan birga oʻlaman.

– Yoʻq! Sen oʻlmaysan, umidvor boʻlma!

– Mening umidim Xudodan, u yo bizni oʻz dargohiga qabul qiladi yoki sen har qancha achchigʻlansang ham uni omon saqlaydi.

– Menga Xudodan gapirma! U meni bilmaydi; u qoʻlimdagi qurbonni tortib olmaydi, unga baribir. Sen koʻz yoshlaring, iltijolaring bilan uning koʻnglini yumshatmoqchi boʻlayotgandirsan? Ha, ha, ha! Olga, Olga, alvido, men seni

tashlab ketaman. Ammo so'nggi so'zlarimni yodingda tut: bu so'zlar barcha payg'ambarlarning so'zlaridan kuchliroq. Shuni bilib qo'yki, u halok bo'ladi, sen jonsiz jasadga ko'ngil qo'ygansan. Bu qo'llar uning ismini tiriklar ro'yxatidan o'chirib yuborgan. Rost! – dedi u va bir lahza jim turgach, qo'shib qo'ydi: – agar istasang, so'zlarimning isboti uchun senga uning boshini olib kelaman.

U teskari qaradi, yana nimadir demoqchi bo'ldi-yu, ammo uning ovozi ko'kargan lablarida qotib qoldi, u yuzini qo'llari bilan yashirib, yugurganicha chiqib ketdi. Balki u bu bilan xijolatni va ko'zidan beixtiyor oqqan yoshlarini yashirmoqchi bo'lgandir. Yoki yuragida g'azabi toshib, qizga bergan va'dasini darhol ijro etishga ahd qilgandir.

Olga deyarli behush edi. U akasining chiqib ketganini bazo'r ko'rdi, taraqlab yopilgan eshikning zarbini ham yaxshi ilg'amadi.

XVIII bob

Nijegorodsk, Simbirsk, Penza, Saratov gubernalarining bir vaqtlar ayiqlar bilan bo'rilarga makon bo'lgan, eng botir ovchilargina kira olgan qalin o'rmonlaridagi g'orlar, yerosti yo'llariga qiziqqan kishi, hozir ham u yerlarni borib ko'rish mumkin. Bu g'orlar bilan yerosti yo'llarini bizning ota-bobolarimiz qazishgan. Bir vaqtlar tatarlar bilan qrimlarning bosqinlaridan, keyinchalik esa, qirg'izlar hamda boshqirdlarning, hatto imperator xonim Yelizaveta Petrovna podshohlik qilgan davrdagi hujumlaridan qochib, ajdodlarimiz shu yerlarni boshpana qilishgan, boshqirdlar so'nggi marta 1769-yilda hujum qilgan, ammo bu atrofda qo'shinga duch kelib, Saratovga bir necha chaqirim qolganida, uncha katta zarar yetkazolmay, chekinishga majbur bo'lgan edilar. Ba'zida, hatto butun boshli qishloqlar vayron qilinib, aholisi asirga olindi. Biz tasvirlayotgan davrda bu g'orlarga hozirdagidek quruq shox-shabbalar bosib qo'yilmagan edi, ana shu g'orlardan biri Palitsino qishlog'iga yaqin bir yerda

bo'lib, xalq unga Jinmakon deb nom qo'ydi va rivoyatlarda bu g'or chindan ham ins-jinslar, shoxli devlarning makoni qilib tasvirlangandi.

Palitsino qishlog'idan ana shu xilvat g'orga eng qisqa yo'l bilan yetib olmoq uchun daryodan kechib o'tish va do'ngliklar, sershox tollar, baland qamishlar bilan qoplangan botqoq daladan ikki chaqirimcha piyoda yurib borish kerak edi, bu yerda hiylagar yashil moxlar tajribasiz yo'lchini aldaydi, qamishzorlarning tagida o'ralar, o't qoplagan botqoqlar yashirib yotadi, shu atrofda yashovchi ba'zi bir kishilargina bu xatarli joydan o'tish yo'lini biladilar. Botqoq tepalikka borib taqaladi. Avvallari shu tepalikdan so'qmoq yo'l o'tgan bo'lib, u tepalik bag'ridan pastga tushib, qalin, qorong'i o'rmonga kirib ketardi. O'rmon chetidagi yuz yoshli arg'uvon daraxtlari yo'lni yashirmoq uchun ulkan shoxlarini yoyib, xuddi posbonlarga o'xshab turardi, ularning g'adibudur gavdalaridagi naqshlarga Dantening: «*Lasciate ogni speranza voi ch'entrate*»¹, degan mashhur misrasi do'zaxiy harflar bilan yozib qo'yilgandek tuyulardi. Shu yerga kelganda so'qmoq yo'l yana asta-sekin uzun qiyalikka ko'tarilar, daraxtlar oralab, xuddi ilondek buralar va xazonlar, shox-shabbalar orasida ko'zdan g'oyib bo'lib ketardi, nihoyat, o'rmon siyraklashib borib, qoramtir daraxtlar devori orasidan moviy osmon ko'rina boshlaydi va to'satdan doira shaklidagi maysazor ochiladi; uni o'rmon xuddi sehrli kamardek o'ragan bo'lib, u qoramtir dengiz o'rtasidagi orolchaga o'xshab ketar, unda yam-yashil ko'katlar va avj olib o'sgan rang-barang gullar yashnab yotardi; kuz kezlarida bo'lsa, unda biror kambag'al dehqonning mehnati bilan tiklangan pichan g'arami paydo bo'lardi; archalar hamda qayinlar, go'yo to'dalashib borib, duxobadek o't-o'lanni g'azab bilan payhon qilib tashlashga hozirlanib turgandek ketma-ket saf tortib, unga sukut ichida shiddat-la qarab turishardi. Ana shu maysazor bilan Jinmakonning orasi uch chaqirim bo'lib,

¹ Bu yerga kiruvchilar, umidingizdan keching!

bu yerda so'qmoq yo'l yo'q edi. Shu yo'nalishdan chetga chiqib ketmaslikka harakat qilib, borgan sari sharq tomonga qarab yurish kerak bo'ladi. Bu yerdagi o'rmon uncha baland bo'lmasa-da, biroq tikanak shoxlar, chirmoviqalar va boshqa o'simliklar daraxtlarning tomirlariga qo'shilib, to'rga o'xshab ketgan, shu sababdan ham uch sarjin narida turgan kishini deyarli ko'rib bo'lmaydi; goho bo'ron qo'porib tashlagan daraxtlarning chuqur o'ralari uchrab qoladi, ularning po'panak bosgan, shoxlari qurib qolgan chirik to'nkali xuddi qal'alar tagidagi g'ovlar singari yo'lni to'sib turadi, jundor ayiq qishda ana shu to'nkalarning tagiga keng uya qazib oladi-da, unga tushib semiz panjasini so'rib yotadi, mudroq archalar uning ustiga qora chodirdek egilib, asta shivirlab, alla aytib turadi.

Shu yo'sinda ikki chaqirimdan ortiqroq yurilgach, tepadan sharillab tushayotgan suvning shovqiniga o'xshash ovoz eshitiladi, dala-dasht hayotiga o'rganmagan, xiyobonlarda tarbiyalangan kishi barglar suhbatining olisidan eshitilib turgan bu tovushini payqay olmaydi, ana shunda shamol yangi tovushlarni olib kelgan tarafga qaralsa, tik va chuqur jar ko'zga tashlanadi. Uning qirg'og'i egilgan qayinlar bilan o'ralgan bo'lib, ularning bahor yomg'irlari yuvib ketgan yalang'och oq ildizlari tubsiz jarning tepasida uzun dumlarga o'xshab osilib turadi. Jarning sertuproq nishabi toshlar va o'pirilgan yer parchalari bilan qoplangan bo'lib, shu yer parchalari bilan birga ko'chib, nishablikda turib qolgan shoxlar yangi zaminda bemalol ko'karavergan, agar naq jar yoqasiga kelib, mahkamroq daraxtni ushlab turib, egilib qaralsa, jarlik tubidagi kichik bir buloqni ko'rish mumkin. Uning qaynab chiqayotgan suvi juda tez oqib, gohida oqqushning paridan ham oqroq ko'pik bilan qoplanadi-da, buralib-buralib qirg'oqqa kelib, bir necha daqiqa to'xtab turadi va yana yugurib ketib, toshlarga borib uriladi-da, qalqib, sachrab, ko'zdan g'oyib bo'ladi. Shu jar yoqasidagi ko'z ilg'ar-ilg'amas torgina yo'l, xuddi yer tagidan chiqqandek paydo bo'ladi,

u shoxlar orasidan jar yoqalab borib, yana bir necha marta buraladi-da, o'z uyasiga kirib ketayotgandek, chuqur o'pqonga kirib ketadi, lekin bu yerda kichkinagina dala ochilib, unda bir necha eman daraxti yuksalib turadi. O'rtalikdagi uchta tepalik – qabriston to'g'ri uchburchakni tashkil etadi, chim va xazonlar bilan qoplangan bu tepaliklar bir qarashda qadimgi tatar beklari yoki suvoriylarining qabrlariga o'xshab ketadi, biroq ularning oralig'iga kirgan kuzatuvchi, har bir tepalikning ostiga olib boruvchi teshiklarni ko'rgani zahoti fikri o'zgaradi. Bu yerdagi har bir tepalik yer ostidagi uzun yo'laklarga olib kiradigan gumbaz xizmatini o'taydiganga o'xshaydi. Yo'laklarga kiriladigan teshiklar juda kichik, ulardan odam emaklab bazo'r kiradi, lekin yo'lakka bir necha qadam qo'yilishi bilan g'or tobora kengayib borib, shu darajaga yetadiki, uchta odam yonma-yon bemalol yura oladi, uchala yo'l ham, avval tik pastga tushib, keyin nishab bo'lib borib, aftidan, uch tomonga ketadi, ammo jarga qaragan yo'lak tamomila boshqacha, u tik qiyalikdan bir necha sarjin pastga tushib, keyin birdan o'ngga buriladi va agar qiziquvchan kishi shu yangi yo'nalishga qayrilishda ehtiyotsizlik qilgudek bo'lsa, uning sho'ri quriydi. Bu yo'lak jarga borib taqaladi yoki to'g'rirog'i, pastga tik burilib tushadi: oyog'ining mahkamligiga ishongan kishigina ana shu pastlikka sakrab tusha oladi. Har qalay, ikki sarjin hazil gap emas, ammo shu yerga kelganda, sun'iy g'orlarning hammasi tugaydi, yo'lak orqaga burilib, o'zining yuqoridagi qismi bilan bir xil balandlikda va u bilan yonma-yon davom etadi-da, keyin chapga qayrilib, doira shaklidagi keng xonaga tushadi. Boshqa ikki yo'lak ham shu yerda bir-biri bilan tutashadi; bu xonaga tosh terilgan bo'lib, devorlarida to'rtta tokchasi ham bor; o'rtada to'rtburchak shaklidagi bir ustun ancha mahorat bilan qurilgan gumbazni ko'tarib turadi. Shu ustunning yonida chuqur bor, bu chuqur bir vaqtlar taqdirning irodasi bilan yer ostidagi shu yo'laklarda yashirilib yurishga majbur bo'lgan baxtsiz quvg'indilar uchun, ehtimol, o'choq o'rnida xizmat qilgandir.

Xonadagi chuqur sukunatni buzib, goho suvning shaldirashi eshilib qoladi; kichkinagina tiniq va sovuq buloq devordagi maxsus ochilgan teshikdan chiqib, shu devor bo'ylab oqib o'tadi-da, nihoyat, tosh bilan panalab qo'yilgan boshqa bir teshikka kirib, ko'zdan g'oyib bo'ladi. Mahbusning ashulasi zindon sukunatini buzgani kabi, oromsiz irmoqning tinmay shaldirashi tunning ana shu zulmat makoniga hayot bag'ishlab turadi, bu yerdagi barcha narsalar ota-bobolarimizning davomli qamalga bardosh bermoqchi bo'lganliklarini va bardosh bera olishlari mumkinligini isbot etadi. Darvoqe, toshlarni, yerni po'panak bosib ketgan, fonusning shu'lasida zulmat hamda xilvatni sevguvchi kalamushlarning va boshqa ko'rimsiz jonivorlarning devordagi uyalarini ko'rish mumkin; endilikda gumbaz nuray boshlagan, uning ilgarigi mutanosib ravonligidan deyarli hech qanday asar qolmagan.

Boris Petrovich ovga chiqqan paytlarida qiziqib, bu yerga ikki marta kelgan edi. Garchi u biron marta qorong'i yo'laklarning ichkarisiga kirishga botinolmagan bo'lsa-da, bu joyni bilardi, u qo'rquvdan o'ziga kelishi bilan, shu yerni esladi. Jinmakon, dahshatli nomiga qaramay, unga birdan-bir xavfsiz joy bo'lib ko'rindi, chunki hozir uxlab yotgan jallodlarning yaqinida, shu eski shiypon ichida qolish xatarli bir narsa edi. Xo'sh, u Jinmakonga qanday yetib oladi?

Hurmatli o'quvchilar, men sizlarga iqror bo'lishim kerakki, Boris Petrovich o'limdan juda ham qo'rqar edi. Albatta, qo'rquv odamga ham, itga ham, umuman, barcha hayvonlarga bab-baravar xos bo'lgan narsa. Lekin gap shundaki, o'lim boshqa hayvonlarga qaraganda, Boris Petrovichga dahshatliroq bo'lib tuyuldi, chunki shu daqiqalarda uning tashvishli qalbi o'tgan voqealarning hammasini mulohaza qilar ekan, ispan inkvizitsiyasi tomonidan Madonna doloroza (Madonna dolorosa)ni – farishtani buzib, dinga qarshi qilib tasvirlangan ana shu dahshatli haykalining tikanli quchog'iga tashlashga hukm etilgan jinoyatchiga o'xshar edi. O! Sizga rostini aytsam, qarzga botgan tajribasiz yigit eshik orqasida turib, sil

sudxo'ring oyoq tovushlari bilan yo'talini ilk marta eshitar ekan, quruq cho'ntaklarini titib hech narsa topolmaganidan qanchalik qo'rqsa, Boris Petrovich undan ham battarroq qo'rqdi; Palitsin o'z vijdonining iflos varaqlaridan nimalarni o'qib olganini Xudo biladi. U shu paytda kimlarni esiga olganini ham Xudo biladi, o'lim degan birgina dahshatli fikr miyasiga kelganida, u kamida uch marta hushidan ketayozdi.

Shu yaqin atrofda birorta yordam beruvchi kishining yo'qligi unga qo'l keldi, chunki u hushidan ketsa o'lib qolayotgandek, qo'rqib ketdi. O'lim! O'lim uning xira ko'zlariga goh qulochini keng yoygan dahshatli baland dorga o'xshab, goho esa, nogahoniy xiyonatga, osmon momaqaldirrog'iga o'xshab ko'rinar, har tomondan bosib kelayotgandek tuyulardi. Uning sirtida ham, ichida ham, har tomonida o'lim bor edi. O'lim birdan ming xil parchalarga bo'linib, uning nam a'zolari ustida xaxolab chopqillab yurar, uning oqargan sochini hurpaytirar, tishlarini bir-biriga takillatib urardi. Nihoyat, Boris Petrovich toqat qilib bo'lmaydigan shu fikrni quvib yubormoqchi bo'ldi. Nima bilan quvib yubormoqchi bo'ldi deng? Duo bilan! Ammo bundan bir ish chiqmadi. Uning lablari yod olingan so'zlarni pichirladi, lekin qalb bu so'zlarning har biriga «O'lim!» deb bittagina javob berib qo'ya qoldi. U qochish uchun biror yo'l, nima bo'lsa ham biror-bir chora o'ylab topaman, deb urinib ko'rdi. Eng mushkul yo'l unga eng yaxshi yo'l bo'lib ko'rindi, bir-ikki soat xayol surish bilan o'tdi. O'tgan ikki soat vaqtning ikki zarbi uning yuragiga urilgan ikki mushtdek bo'lib tuyuldi, betinim shamolning har bir hushtagi uni bir titratar, katta kalamush yoki boshqa biror beozor jonivor shoshib yurib, poxolni qitirlatsa, bu ovoz unga dushmanlarning bosib kelayotgan oyoq tovushiga o'xshab eshitalardi.

Shu ko'yi u rosa ezildi! Ajab bo'pti, erga navbat – sherga navbat deydilar-ku, baxt xotinga o'xshaydi, boshida osongina sevgan bo'lsa, oxirida ham osongina tashlab ketadi. Boris Petrovich ham o'zining semiz dugonasini ba'zida

eslab qo'yardi va shunda sochi tikka bo'lardi. Xotinining ismini tilga olganida, o'g'lining nima sababdan lom-mim demaganini, nima uchun qaltirab ketganini tushundi. Tavbatazaru va xavf-xatardan uzoq bo'lgan baxtli kunlari uning ko'z oldidan bir-bir o'tdi. Ular shamol uzib tashlagan va qip-qizil, zarrin yaprog'i bilan ko'zimizni aldab, yerga uchib tushgan qayin barglaridek lip etib uchib ketdi. Biz ularning sehrli bo'yoqlariga maftun bo'lib, cheksiz orzularga berilib, ularni yerdan olib, tomosha qilamiz-u, ammo bo'yoqlarini ham, yarqirog'ini ham topolmaymiz: ular oddiy, chirik, o'lik barglar bo'lib chiqadi.

Bu orada tong otay deb qoldi va Palitsin biz tasvirlagan qorong'i g'orga yashirinishga astoydil ahd qildi, lekin kim unga yegulik tashib turadi? Do'stlar qayerda? Xizmatkorlar qani? Qo'lning ishorasini, qoshning chimirilganini ko'rib, xizmatga tayyor turadigan pastkash qullar qayoqqa ketdi? Hech kim yo'q. U alamiga chidolmay yig'lab yubordi. Ha, aytgandek, uni g'orga kim kuzatib qo'yadi? Uning ovchilari bu yerdan ketmay turib, u ana shu dim g'aramxona tagidan qaysi yo'l bilan chiqib ketadi? Ular ketganidan keyin chiqsa, fursatni qo'ldan boy berib qo'ymaydimi?

Palitsin tongotarda itning vovillashini, ot dupurini, baqiriq-chaqiriq, so'kinish ovozlari eshitdi va ba'zi-ba'zida burg'u sadosi kelib turdi, shu ko'yi yarim soat o'tdi. Nihoyat, shovqin-suron tindi, yana yarim soat vaqt o'tdi, shunda u to'satdan tepasiga kelgan ayol kishining ovozi eshitdi: «Boyon! Hoy boyon! Tur. Ovoz bersang-chi! Uxlayapsanmi?»

Men sizga aytsam, u uyg'oq edi, lekin ovozi chiqmagani sababli, avvalo, ayolning ovozi tanimaganligi, keyinroq tanigan bo'lsa-da, qotib qolgan tiliga gap kelmaganligida edi. U tobutda tirilgan Lazardek asta qo'zg'aldi-da, g'aramning tagidan chiqdi.

– Iya, senmisan, bekajon! – dedi u g'o'ldirab.

– Menman, men! Qo'rqma. Ular jo'nab ketishdi: seni biroz qidirishdi-yu, topisholmay, yo'qolsa go'rga deb, qo'l siltab qo'ya qolishdi.

– Bekajon! – Palitsin uning soʻzini boʻldi. – Tong yorish-yapti, menga qara, men yashirinadigan joy topib qoʻydim. Bilasanmi, shu yaqinda bir gʻor bor, ins-jinslarning makoni deyishadi, buning ahamiyati yoʻq; Jinmakonni bilasan-ku!

Beka qoʻrqib ketib, uch marta choʻqinib oldi-da, Palitsinga tikilib qoldi.

– Voy! Otaginam! Bir falokatni boshlama! U joy – shaytonning uyasi...

– Boshqa joy yoʻq-da! – dedi u zorlanib...

– Borlikka bor-a, lekin qishlogʻingga yaqin-da. Bir hisobda, sening oʻylaganing ham yaxshi, boyon. Bu ishni boshladimmi, oxiriga yetkazaman, seni tashlab ketsam gunoh boʻladi, dehqonlar kiyadigan mana bu koʻylakni kiyib ol, kamzulingni yech. Oʻgʻlim senga hamroh boʻladi. U tentakroq boʻlsa-da, lekin mahmadona emas, onasining soʻzidan chiqmaydi.

Boris Petrovich toʻq kulrang yaktakni kiyib, oyogʻiga kir paytava oʻrab turganida, askarning xotini gʻaramxonaning eshigiga borib, qoʻli bilan ishora qilgan edi, 17 yoshlar chamasidagi, tentakbashara, mallasoch, ammo pahlavonlardek barvasta bir yigitcha paydo boʻldi. U onasining ortidan yertoʻlaga tushar ekan, onasi uning qulogʻiga allanimalar deb pichirladi. U boʻynini qashir, boshini tebratar, hadeb esnar va goho: «Xoʻp, oyijon!» – deb qoʻyardi. Ular Palitsinning oldiga kelganlarida, u kiyinib boʻlgandi. «Xudo yor boʻlsin!» – dedi beka uning ortidan. Ular orqa eshikdan dalaga chiqishdi. Boris Petrovich gapiray desa qoʻrqar, Petruxa botinolmas va, umuman, gapga ishqiboz emasdi. Bu tasodifiy oʻxshashlik juda qoʻl keldi, biri qoʻlga tushishdan, ikkinchisi jindan qoʻrqib, xuddi bargdek titrab, dahshatli Jinmakonga qarab borayotgan hamrohlarning ikkovini ham oʻrmonning tor soʻqmogʻida qoldiramiz. Ularni shu yerda qoldirib, farzandsevar otasini tashlab ketgan Yuriydan xabar olaylik.

XIX bob

Yuriy ot choptirib, Palitsino qishlog'ining yo'liga chiqib oldi-da, horg'in otining jilovini tortib, yo'rg'alatib ketdi. Uning boshida ming xil tadbir va bundan ko'proq xavf-xatar chigallashib yotardi. Olgani qutqarish yoki hech bo'lmaganda yonida halok bo'lish orzusi uning tuyg'ulari, fikrlari ichida eng birinchisi edi. Avval jo'ngina bo'lib ko'ringan, hatto ehtiros degan nomga ham arzimaydigan muhabbat, kutilmagan hodisalar oqibatida uning qalbida haddan tashqari kuchayib ketdi: tevarak-atrofdagi mayda-chuyda daraxtlarning hammasi katta emanning soyasida yashirilib yotganidek, Yuriyning boshqa tuyg'ularining barchasi ham ana shu yangi kuchli tuyg'u oldida bosh egib, uning oqimida g'arq bo'lib ketdi.

Yuriy torgina, tekis yo'ldan borar, uning qilichi otning biqiniga urilib, beixtiyor uning g'ayratini oshirardi. Yo'lning ikki yoqasidagi ekinzorlar sarg'aya boshlagan, yengilgina shamol g'ir etib o'tsa, ular xuddi yoshlar olomonidek chayqalishardi, sal narida – chap tomonda jingalak butalar bilan qoplangan tepaliklar cho'zilib ketgan, o'ng tomonda kirib bo'lmaydigan, qalin, keksa o'rmon yuksalib turadi: zulmat qora ko'zlari bilan har bir shoxning tagidan mo'ralab qarayotgandek, har bir daraxt yonida shoxdor, cho'loq alvasti yo'l poylab turgandek tuyuladi. Tevarak-atrof jimjit, yo'lchimizning qulog'iga goh bo'rilarining zorlanib uvillashi, goho esa tun posboni, o'rmon politsiyasining a'zosi – boyo'g'lining yoqimsiz qiyqirig'i eshitiladi; boyo'g'li o'z qorovulxonasi bo'lgan chirigan daraxt kovagiga kirib olib, yo'lovchilarni boshqa har qanday soqchiga qaraganda yaxshiroq chaqiradi. Ammo Yuriy to'satdan boshqacha ovozlarni ham eshitdi, bu – ot dupuri bo'lib, tobora jadal yaqinlashib kelardi. Yuriyning yuragi dov bermay, otning boshini burmoqchi bo'ldi-yu, biroq g'ururi bunga yo'l qo'ymadi, u otni to'xtatib, har ehtimolga qarshi uydan olib chiqqan kichkinagina to'pponchasini cho'ntagidan oldi-da, chaqmoqtoshini ko'zdan kechirib, tepkisini tortib

qo'ydi va dushmanga mardona zarba berishga shaylandi. Tez orada orqa tomonda, olis bir yerda oqish chang ko'tarildi va nihoyat, bir otliq ko'rindi, bu otliq u turgan tomonga bor kuchi bilan yelib kelmoqda edi.

Ellik qadamcha masofaga ot chopib kelgach, notanish suvoriy bedov otining jilovini torta boshladi.

– To'xta! – deb qichqirdi Yuriy. – Yaqin kela ko'rma! Yaqinlashsang boshingni yanchib tashlayman. Ayt, sen kimsan?

– Meni tanimayapsanmi, boyvachcha, – deb javob berdi suvoriy xirillagan ovoz bilan. – Nahotki, sodiq qulingni otib o'ldirsang?

– Iya, Fedosey, senmisan? – deb xitob qildi taajjublangan yigit va uning yoniga kelib, yuziga tikildi: – bu yerda nima qilib yuribsan? – Yuriy jiddiy bir qiyofada so'zini davom ettirdi. – Menga yo'ldosh kerak emas. Men boradigan yo'limni bilaman. Senga kel deganim yo'q-ku? Gapir...

– Eh, boyvachcha! Boyvachcha! So'zing chakki! Men ketganingni ko'rdim. Darrov otga mindim-u, ortingdan yugurdim. Vijdonim qiynalmasin dedim. Hamma gapdan xabarim bor, otaginam! Og'ir zamon bo'ldi. Ammo Fedosey seni tashlab ketmaydi, sendan ajralmayman, boshimni fido qilaman, senga xizmat qilsam Xudoning buyrug'ini ado etgan bo'laman, boyvachcham. U dunyoga borganimda, Parvardigor mendan: «Xo'jayinlaringga sidqidildan xizmat qildingmi?» deb so'raydi. Agar seni tashlab ketsam, unda nima deb javob beraman? Hozirgi vaqtda yomonlar ko'payib ketdi, xalqning fe'li buzildi, lekin men undaylardan emasman, Yuriy Borisovich, buyursang bas, otaginam, seni deb o'zimni suvga ham, o'tga ham tashlayman. Biz, xizmatkorlarning ishimiz shunaqa, men shu paytgacha tuzingni ichdim, endi uni oqlashning mavridi keldi. O'lsam o'laman-u, lekin xo'jayinlarni tutib bermayman.

Yuriy uning so'zlaridan ta'sirlandi, u Fedoseyning yelkasiga qoqib, dedi:

– Agar so‘zing chin bo‘lsa, Fedosey, senga, oilangga, Xudodan yaxshilik qaytadi, ammo o‘zingga ma’lumki, endi mening qo‘limdan hech ish kelmaydi.

– Yolg‘iz o‘zing qayoqqa yo‘l olding, boyvachcha?

– Fedosey, men o‘z burchimni bajardim: otamni xavf-xatardan ogoh qilib, uning yashirinishiga yordam berdim. Endi qaytyapman. – Yuriy bir nafas o‘yga soldi-da, keyin titroq ovoz bilan: – Olgani ko‘rmoqchiman, – deb ochiq aytdi.

– Hali gap bu yoqda degin! – Fedosey mo‘ylovini silar ekan, shunday deb o‘yladi: «Bo‘yniga sirtmoq tushay deb turibdi-yu, es-hushi qizlarda!» – Hoy, boyvachcha! – dedi u botinib, – qo‘y uni! Qizlar bilan uchrashadigan vaqt emas... Qishloqda ko‘rinishing xatarli. Gunoh qilishning ustasi bo‘lmaydi. Eh! Xalqning gapini eshitsang, bilarding.

– Men uni ko‘rishni istayman. Uni o‘zim bilan olib ketaman. Ana o‘shandan keyingina xotirjam bo‘laman. Men uni ko‘rishni istayman, ko‘rishim shart.

– Bu ishing chakki! – deb g‘o‘ldiradi Fedosey.

Ular anchagacha yonma-yon indamasdan bordilar, ikkovi ham yo gapni epga keltirolmadi yoki yana boshlashni istamadi. Taqdirimiz hal bo‘layotgan ana shunday soatlarda biz ortiqcha gap aytmaymiz, chunki shunday soatlarda har bir daqiqani qadrlaymiz, barcha dunyoviy ehtiroslar es-hushimizni qoplab oladi va ko‘ngildagi kechinmalarni tushunmoq uchun birgina ko‘z tashlashning o‘zi kifoya.

– Boyvachcha, – dedi to‘satdan Fedosey, – qaragin-a, xirmonlarimiz ko‘rinyapti, shekilli, ha, ha. To‘xta, boyvachcha, menga qara, miyamga bir fikr keldi: sen menga Olganing qayerdaligini aytsang bas, o‘zim borib, uni olib kelaman. Sen otlarni shaylab, meni mana shu devor tagida kutib tur. Xo‘p degin, boyvachcha. Bo‘yningni sirtmoqqa tutib berma. Xudo ehtiyotkor bandasini omon saqlaydi. U zodagonning qizi emas, hech narsadan qo‘rqadigan joyi yo‘q.

Bu taklif Yuriyni hayratda qoldirdi, u xiyla uyaldi ham: «Bu qandoq gap! – deb o‘yladi u, – nahotki, men uning uchun bema’ni hayotimni qurbon qilishdan qo‘rqsam?!» Ammo u doim qo‘l keladigan sofistlarning yordami bilan o‘z g‘ururini bosib, behuda xijolatini yengdi va, afsuski, rozilik berdi! Otdan tushib, Fedosey bilan xayrlashar ekan, qo‘l silkiib qo‘ydi.

Men Yuriyni chinakam qahramon qilib ko‘rsatishni orzu qilgan edim, ammo bunday bo‘lib chiqmadi; u ham xuddi siz bilan men kabi bo‘lganidan keyin, men nima ham qila olardim. Haqiqatga tan bermoq kerak. Qissaning yuqorirog‘ida aytganimdek, unda so‘nmas alanga, jo‘shqin istaklar va zo‘r iroda Olganing ko‘zlariga tikilganidagina paydo bo‘lardi, u ana shu sehrli ko‘zlardan uzoqda bo‘lganida esa, xuddi boshqa yigitlardek soddadil, aqlli yigit edi, xolos. Shunday bo‘lgandan keyin, bizning qo‘limizdan nima ham kelardi?

Fedosey xirmon atrofidagi chetan devor orqasida ko‘zdan g‘oyib bo‘lganidan keyin, Yuriy horg‘in otlarni quruq tolga bog‘lab, nam yerga yonboshladi. U «sovuq shamol va o‘siq maysaning nami tomirlarimga o‘tib, qonimni sovitadi, tashvishli qalbimga orom beradi», deb behuda o‘yladi. Intizor shubhalar oqibatida kelib chiqadigan barcha xayoliy narsalar, turli arvohlar uning atrofida tartibsiz o‘yinga tushib, xayollarini uzoq-uzoq yerlarga olib qochdi, goho biror yovuz iblisning daydi chirog‘i, aldamchi fonusi yo‘lchini ana shunday yo‘ldan ozdirib, jarning naq yoqasiga olib borib qo‘ya qoladi.

Yuriy kelajakning dahshatli manzaralarini ko‘z oldidan yo‘qotish uchun o‘tmishni eslab ketdi. Bu bilan u tang ahvolda qolganda qaltis dorilarni ishga soladigan shifokorlarga o‘xshab ketdi. Xo‘sh, bunday chora hamma vaqt ham yaxshi natija beraveradimi?

Xotiralar marjoni uning ko‘z oldidan birma-bir tizilib o‘tar ekan, u hayron bo‘lib «nahotki, xotiralarim shu qadar ko‘p? Nega ular endilikda xuddi to‘yga ketayotgan gala-gala mehmonlarga o‘xshab, birdan to‘dalashib ketdi?» deb o‘yladi. Goho qiz bola gulning yaproqlarini terib fol ochar

ekan, har bir yaproqda yo ta'na yoki afsus-nadomat izlarini ko'rganidek, Yuriy ham xotiralar yaproq'ini shu xilda birma-bir ochib tera boshladi va u juda notinch bo'lgan yoki azob tortgan daqiqalarda deyarli har kimda ham paydo bo'ladigan afzallikdan, ya'ni zehn o'tkirligidan foydalanib, hayot yo'lida sochilib yo'qolgan tuyg'ularini hisoblay boshladi, biroq, afsuslar bo'lsinki, bu tuyg'ular samarasiz bo'lib chiqdi. Ular behuda sochilgan urug'larga o'xshardi, ba'zilarini yovvoyi qushlar terib ketgan, boshqalarini sayoqlar payhon qilgan, uchinchi bir xillari toshga tushib, yomg'irlar ostida chirib ketgan.

U fikran bolalik chog'larini ko'z oldiga keltirdi: shu oqish jingalak sochli, tinimsiz, sho'x bolani ota-onasi sevib erkalar, xizmatkorlar va, ayniqsa, oqsochlar uni ko'rganida zir-zir titrashardi. U o'zini tabiatning ma'sum shogirdi deb bilar, enaganing tizzasida o'ynab o'tirar, olabo'ji degan so'zni eshitishi hamon qaltirar edi. U o'sha damlarning o'tib ketganini, endi sira ham qaytib kelmasligini o'ylab, beixtiyor jilmayib qo'ydi.

Nihoyat, ilk ehtiroslar, ilk orzular fasli keldi. Uni keksa, boy buvining tarbiyasiga topshirdilar. Qo'rg'ondagi oddiy qizcha – Anyuta uning e'tiborini o'ziga tortdi. Oh, u nozlar, muloyim boqishlar, shirin so'zlar, xo'rsinish-u va'dalar, bolalikning umidlari, xotiralari! Qorong'i yo'lakdagi, serbarg chetan bilan o'ralgan qorong'i ayvonchada, loyqa ariq bo'yidan boshlanadigan qayinzordagi, o'rmon kesuvchining poxol chaylasidagi ilk uchrashuvlar naqadar kulgili, qo'rqinchli, beg'am va sirli uchrashuvlar edi. Avval beg'araz, sof va oxirida jinoyatkorona bo'lgan o'sha dastlabki bo'salarning totli mazasiga kim yetsin. Yuriyning qaynoq qo'li Anyutaning yo'l-yo'l bo'z ko'ylagi sal yopib turgan nozik qomatini dadil quchoqlaganida, oftobda qoraygan ko'kragiga lablarini bosganida, qizning ko'zlari chaqnar, endigina bo'liqlashib kelayotgan siynalari titrar edi.

Ammo Yuriyga, «Bas, xizmatga jo'nang», deyishdi. Sababini so'radi u. Shunda unga tahdid qilib: «Otang o'n

bash yoshida gvardiyada serjant darajasiga ko'tarilgan edi, sen bo'lsang, o'n oltiga to'lding», — deyishdi. Xullas... xullas... aravani qo'shib, yoniga amakisini o'tqazishdi, yo'lga 20 so'm pul va uzoq qarindosh bir amakiga uzundan uzun maktub yozib berishdi. Qamchi husht etdi, qo'ng'iroq jaranglab ketdi. Alvido, erkim, daraxtzor-u dalalarim, alvido, baxtim, xayr, Anyutam!

Yuriy aravaga o'tira turib, ko'zi qizning yosh to'lgan, harakatsiz nigohiga duch keldi, qiz eshikning tirqishidan unga uzoq vaqt qarab turdi. U qizning yaqiniga borib, uning oppoq yonoqlaridan so'nggi marta o'pishga jur'at etolmadi, yigit qizning yonidan yeldekk o'tdi, u o'zi bilan yana aqalli bir lahzaga birga bo'lishni orzu qilgan Anyutaning sovuq qo'llaridan qo'lini tortib oldi. «Oh! U mening xatti-harakatimni yirtqichlarga xos bag'ritoshlik deb bilib, hozir mendan rosa nafratlanayotgandir!» deb o'yladi u o'shanda. Keyin nima bo'ldi deng? U Anyutani olti yil o'tgandan keyin ko'rdi. Evoh! Anyuta gumbazdek xotin bo'lib ketibdi. Yuriy Anyuta o'zining so'lagi oqib yuradigan farzandlarini kaltaklaganini, uyining devorini oqlaganini ko'rdi, mast erini beparda so'zlar bilan haqorat qilganini eshitdi. Ishqibozlik tutundek tarqalib ketdi. Bo'layotgan voqealar o'tganlarining nafisligini zaharladi, o'shandan buyon u Anyutani o'ylasa, ko'zining oldida haligi jirkanch ayol paydo bo'ladi, u xotirasidagi qorako'z, qoraqosh, o'ynoqi qizni o'ldiga chiqarib, unutib yuborishga majbur bo'ldi va uni o'zining izzat-nafsi yo'lida hech bir pushaymon bo'lmasdan, qurbon qilib yubordi.

Bu orada xizmat tashvishlari, yangi odamlar, yangicha fikrlar Yuriyning qalbidagi ilk muhabbatni yengdi, uning yuragidagi dastlabki taassurotni o'chirib yubordi. Shuhrat uning sanami bo'lib qoldi! Urush uning rohat manbayiga aylandi. Yurt kezishni istab qoldi! Turkiyaga yurish boshlandi. U endi o'tkir qilichini g'ayridinlarning qoniga bo'yaydi, g'animlarni tovon bilan ezib tashlaydi! Suvorovning o'zi uning yelkasini qoqib: «Qoyil, azamat! Mendan ham o'zib ketding!

Xudo yor bo'lsin!» deganida, u cheksiz baxtiyor bo'ladi. U turklarning o't va o'q-yomg'irlari ostida qirg'oqdagi qonga bo'yalgan tepalikka, yarasidan qon oqib turishiga qaramay, gandaraklab, birinchi bo'lib yugurib borib, ikki boshli burgutning surati yarqirab turgan bayroqni dushmanning yeriga sanchganida, Suvorov, albatta, uni shunday so'zlar bilan maqtaydi-da! Jangdan keyingi tabriklarni, quchoq ochib ko'rishishlarni aytmailsizmi!

Nihoyat, qo'shinlar Rossiya chegarasidan o'tib ketdi, o'z qirg'oqlarini yuvib, yovvoyi dalalardan keng yashil to'liqindek mavjlanib oqayotgan Dunay sohilidagi g'ayridinlarning qishloqlari yonmoqda. Ehe, nimasini aytasiz, Yuriy u yerning iliq xushbo'y havosidan to'yib-to'yib nafas oldi, o'zini qizg'in janglarga tashladi, u zavq-shavq bilan qilichini xunuk turkning qorniga suqqanida, turk ko'zlarining paxtasi chiqib, qaltirab, sovuq temirni tishlab g'ajir edi! Shoshmang, uning chodiridagi asira kim, u o'z o'rtoqlarining suq ko'zlaridan kimni bunchalik ehtiyotkorlik bilan yashiryapti? U kim bo'lishi mumkin? Ha, bu sir! Sirni faqat uning o'zi-yu yana Xudo biladi!

Yuriy bu qizni vayron kulbaning yonib turgan tomi ostidan chala o'lik holda topib oldi, qalbining tubida cheksiz shafqat uyg'onib, Zarani yerdan ko'tardi. Bu farishta o'shandan buyon uning chodirida, odamlarning nazaridan chetda yashab turibdi. Uning husnini osmonning o'zi barkamol qilib yaratgan, harakatlarining o'zi bir doston, ko'zlari sehrli yarqirog'i bilan maftun qiladi, taram-taram gulrang tomirchalar bilan bezangan oppoq oyoqchasi qo'g'irchoqdek nafis, qorachadan kelgan olmadek siynasi salgina xo'rsinishi bilan baland ko'tariladi. Butun vujudi olovdek yonib turadi, ko'z yoshlari, tabassumi, harakatsiz qotib turishi – hamma-hammasi odamni sehrlab qo'ygudek. Uning oddiy odam emasligini tashqi ko'rinishidanoq payqash mumkin, u yo malak yoki iblis. Uning qalbi yo quyoshning iltifot yoshida aks etgan sho'x nuri kabi tiniq va sof yoki shu ko'zlar

singari to'lachadan kelgan duxoba yelkalariga shaloladek sochilib turgan sochlari kabi qop-qora. Yuriy shunday deb o'yladi-da, kelajak haqida o'ziga birorta savol berishni ham munosib ko'rmay, go'zal musulmon qiziga jon-u tani bilan berilib ketdi.

Oradan ikki hafta o'tdi. Ammo u hamon kayf-safodan charchamadi, bo'salarga to'ymadi. Hoy, do'stlarim, ikki hafta degan hazil emas-a!

U dahshatli kechalardan birini hanuzgacha yodidan chiqargani yo'q. O'sha tun Yuriy o'z chodirida, yumshoq gilam ustida uxlab yotardi, yo'l fonusi burchakda o'chay-o'chay deb turar va uning titroq shu'lasini chodirning yo'l-yo'l devorlarida lipillab aks etib, uning yovdan tortib olib, o'z karavoti tepasiga chiroyli qilib osib qo'ygan kumush qilichi bilan to'pponchalarini yaraqlatardi. Yuriy uxlab yotardi. Biroq u chayon chaqqan kishidek cho'chib uyg'ondi: ikkita qora ko'z unga tikilib, bir jajji qo'l kumush xanjar o'qtalib turardi. Ana do'zax-u ana la'nat! U ana shu jajji qo'l uchun kechagina butun mol-mulkini berishga tayyor edi! Yuriy bir lahzada Zaraning qo'lidagi ajal qurolini tortib olib, uloqtirib yubordi, ammo turk qizi qo'rqqani yo'q, xijolat tortmadi ham. U astagina tisarilib, qo'llarini qovushtirdi-da, boshini egdi va qilmishiga yarasha jazoni tortishga, barcha ta'namalomatlarini, achchiq-tiziq gaplarni eshitishga tayyorlanib turdi. Rost, uning vujudida janub qoni jo'sh urardi.

– Ko'rnamak, ilon! – deb xitob qildi Yuriy. – Gapir! Sizlarda hayot evaziga ajal beriladimi? Sen shuncha mehr-shafqatim evaziga xanjarning zarbidan boshqa narsani topolmadingmi? Yo Parvardigor! Buning latofatini ko'ring-u, pastkashligini qarang! Evoh, sening hamma farishtalaring shunga o'xshaydigan bo'lsa, u vaqtda do'zax bilan jannatning farqi nimada? Yo'q, Zara, yo'q! Bunday bo'lishi mumkin emas. Dadil javob ber: men aldandim shekilli, tush ko'rayotgan bo'lsam kerak! Men bemorman, men telbaman. Gapir, muroding nima?

– Murodim – erkinlik! – deb javob berdi Zara!

– Erkinlik! Ha-ha! Men joningga tegibman-da. Sen o‘z minoralaringni, kulbangni sog‘inganga o‘xshaysan, biroq ular ketgan. O‘shandan buyon mening chodirim senga vatan bo‘lib qoldi. Ammo muroding – erkinlik bo‘lsa, boraver, Zara. Parvardigorning olami keng. O‘zingga uy top, do‘stlar orttir. Ko‘ryapsan-ku, mening o‘limimsiz ham ozod bo‘lish mumkin.

Zara indamasdan chiqib ketdi. Yuriy undan ko‘zini uzolmay, xayol surib, ancha paytgacha qarab qoldi. Oy Zaraning uzun chodrasini yoritar va bu chodra uning nozik qomatini tumandek o‘rab turardi, u maysada xuddi arvohedek sokin yurib borardi. Ana, uzoq bir yerdagi chodir orqasiga yashirindi, ana, lip etib ko‘rindi va yana ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Alvido, Zara! Alvido, Guliston guli! Mangu alvido!

Rangida rang, ko‘zida nur qolmagan Yuriy ertasi kuni ertalab, xuddi yirtqich hayvondek bezovtalanib, lagerni kezib yurdi. Tevarak-atrof jimjit, quyosh endigina ko‘tarilib, kiyimlarni qizdira boshlagan. Kutilmaganda, Yuriy shu yerdagi chodirlarning biridan ikki kishining bir-biri bilan cho‘lpillab o‘pishayotganini, muhabbatga to‘la qahqaha va ehtirosli so‘zlarini eshitdi. Yaqinroq kelib quloq soldi, shunda ko‘zi chodirning yirtiq yeriga tushib qoldi-da, allaqanday bir kuch uni shu yirtiqqa mixlab qo‘ydi. U shubhali chodirning ichiga qaradi. Yo Parvardigor! U artilleriya ofitserining quchog‘ida to‘lg‘anayotgan Zarasini ko‘rib qoldi!

U qasoskor emasdi, shuning uchun ko‘p ham ach-chig‘lanmadi-yu, ammo og‘ir qayg‘u dilini tilka-pora qildi. Yuriy ozmuncha yig‘lamadi, o‘lmoqchi ham bo‘ldi, lekin o‘lmadi; Zarani unutib yuborishga ahd qildi. Do‘stlarim, men sizga aytsam, unutib yubordi!

Nihoyat, urush tamom bo‘ldi, rus bayroqlari Dunay sohillarida rosa hilpirab, keyin yig‘ib olindi. Yuriy vataniga qaytar ekan, birgina ayolning qilig‘i uchun barcha ayollarni yo‘ldan ozdirib, qasos olmoqchi bo‘ldi – juda o‘rinli va dono reja! O‘ttiz yoshli bevalardan qanchadan qanchasi uning oyoqlari ostida ho‘ngrab yig‘ladi, qanchadan qancha

boyvuchchalar uning birgina tabassumi uchun ozmuncha oltin sochishmadi. Yuriy poytaxtda, serhasham bayramlarda alamzadalik bilan quvnab, ikki go'zalni bir-biri bilan urishtirib qo'yishga urinar va ulardan biri haqoratlar yuki ostida majolsizlanib yiqilay-yiqilay deganida, uning yoniga kelib, mamnun yigitning beparvo epchilligi bilan unga ta'zim qilar, keyin so'zlashar, unga jilmayib boqardi. Shunda uning barcha raqibalari devordek bo'zarib qolishardi. Evoh, bu sirli, qotilona urush Yuriyning ermagi bo'lib qolgan edi! Xo'sh, shularning hammasidan u nima foyda ko'rdi? Faqat, xotiralargina qolgandir-da? Ha, faqat xotiralar. Ajal dengizi qirg'og'ining mevalari kabi achchiq, makrli xotiralar qoldi. Ana shu Ajal dengizi qirg'og'ida o'suvchi meva daraxtlarining po'stlog'i yarqiroq bo'lgani bilan, uning ichi kulga, qaynoq quruq kulga to'la bo'ladi! Hozir esa boshqa gap. Yuriy har gal Olgani o'ylashi bilan uning qalbi, xuddi qora moy tomizilganda chars-churs yonadigan mash'ala kabi, hasrat o'tida gurillab yonardi; uning siynasidagi yurak, qurbonlik qiluvchining pichog'i ostidagi qo'zichoq kabi tipirchilab, dukillab turardi. U Olgaga bo'lgan muhabbati qalbining so'nggi ehtirosi ekanligini, yechib bo'lmaydigan bir tugunligini g'irashira tasavvur etardi, ammo taqdir bu tugunni yecholmasdan, xuddi Iskandar kabi uni uzib tashlaydi.

XX bob

Fedosey hech kimning ko'ziga ko'rinmasdan, xirmondan o'tib oldi-da, nihoyat, bizga tanish bo'lgan jarga tushib, chetan devordan oshdi va hammomga yaqinlashdi, biroq jiddiy lahzalarda uning miyasini kutilmagan chigal bir xayol qoplab oldi, ko'zga ko'rinmaydigan bir qo'l uni pastgina eshikdan itarib turgandek tuyuldi va shu bilan birga, u ilonning magnitdek tortuvchi ko'zlaridan sehrlanib qolgan hurkovich qush kabi bu yerdan nariroq ketishga majolsiz edi. U bir lahza harakatsiz turib qoldi-da, keyin birdan hushyor tortib,

eshikni itarib ichkariga kirdi. U ostonadan hatlay turib, orqasiga qarab qo'ydi – unga chetan shoxlari ortidan qora sharpa ko'ringandek bo'ldi. Ammo u ana shu qora sharpaning shaklini farqlolmadi, lekin sirli bir tuyg'u uning yo iblis yoki yovuz odam ekanligidan dalolat berib turardi. Fedosey yo'lakdan o'tib, hammomga kirishi bilan ko'ngli allaqanday bir achinish tuyg'usiga to'lib, hayron bo'lib to'xtab qoldi. Qizning beqiyos husnini va u chekayotgan azobni ko'rib, Fedoseyning yovvoyi, qo'pol qalbi ezildi. Olga o'ng qo'li bilan kursiga suyanib, boshini unga qo'yganicha yerda o'tirardi, to'g'rirog'i, yerda yotardi, uning uzun ipakdek kipriklari bilan sal yopilgan moviy ko'zlari murdaning ko'zlaridek harakatsiz, uning boqishi telbalarining qarashi singari qorong'i va sirli poeziyaga to'la edi. Ko'p vaqtlardan buyon uning yengilgina jigarrang soya bilan o'ralgan qovoqlari ostida ko'z yoshining birorta ham tomchisi dumalab tushmaganini darhol payqasa bo'lardi. Uning butun ko'z yoshlari qalbini xuddi do'zax kabi tinmay o'pirar edi, temirni zang yemiradi. O'n sakkiz yoshli qizning qalbi shu qadar yumshoq, shu qadar nozik, shu qadar tozaki, u alamning har bir nafasidan xira tortadi, yayov ketayotgan sho'rlik odam irmoqning zarrin tubida oyoq izi qoldirganidek, taqdir ana shu nozik qalbga o'zining chuqur izlarini qoldiradi. Nurli, jo'shqin irmoq – umiddir, uning tubidagi izlarni bir necha daqiqa tekislab yuborish mumkin, ammo umid ko'kka sovurilsa, suv oqib ketsa, u vaqtda irmoq tubidagi arzimaz izlar va odob libosi bilan o'ralgan ko'z ilg'amas yaralar hech kimni jalb etmay qo'yadi.

Olga zax yerda indamasdan, beparvogina yotardi. Fedosey kirganida, u, hatto qimir etmadi, boshini ko'tarib qaramadi ham. Zig'irdakkina piligi qolgan fonus taxta ustida lipillab turar va titroq nur chang bosgan yashil oyna ortidan o'tib, uning yuzini yana ham bo'zartirib yuborgandi. Lablari ko'karib ketgan, yarim osilib turgan sochi to'lachadan kelgan silliq yelkasiga yashil soya tashlab turar, qiz yelkasining soch o'rimi

asoratidan ozod bo'lib, ko'rinib turgan qismi, «kel, meni o'p» deyayotgandek tuyulardi. Paxtalik nimcha uning tagida ezilib yotar, baland, nafis siynasini ortiq pana qilmas edi. Uning ko'ksidagi oppoq va yumshoq siynalar ochiq bo'lib, endi ilgarigidek qalqimasdi. Erkak uning shu yeriga tikilib qoldi, qizning bo'yni ham, yonoqlari ham zarracha qizarmadi. Xotin kishi umidini yo'qotganidan keyingina oriyatini – o'zi bilan birga tug'ilgan va anglab bo'lmaydigan ana shu tuyg'usini, o'z daxlsizligini, sirli nafosatining muqaddasligini tushunish orqasida beixtiyor hosil bo'ladigan shu tuyg'usini yo'qotib qo'yishi mumkin.

Qiz oyoqlarini uzun ko'ylagining ichiga yashirib yotar va Yuriyning muxtor elchisi uning oldida hayron bo'lib turardi, nihoyat, u sabrsizlik bilan qizning yengidan tortdi:

– Tur, tur, vaqt g'animat!

– Tag'in keldingmi, – deb ingradi u boshini ko'tarmasdan ham.

– Yopiray! Tag'in deganing nimasi? Nima, meni tanimayapsanmi? Tur, vaqt g'animat, Yuriy Borisovich xirmonning nariga tomonida kutib turibdi. Mensiz tag'in bir baloga yo'liqmasin.

– Oh, uning ismini eslatma! Sen meni aldamoqchisan. Meni dahshatli tuzoqqa tushirmoqchisan. Oh, Vadim, menga tegma, tinchgina jon beray. Mendan qaytmasa, Xudodan qaytadi!

– Hoy, oyimqiz, nimalar deyapsan? Esingni yig'. Bu yerda Vadim nima qiladi? Men Fedoseyman axir, bilarsan. Tur. Boyvachcha yolg'iz qoldi. Har on xatarli.

Olga uyqudan uyg'ongandek sapchib o'rnidan turdi-yu, ko'zlariga ishonmadi. U bir lahza kekxa ovchiga tikilib turdida, keyin quvonib ketib, birdan qichqirib yubordi: «Demak, u meni unutmabdi-da! Rostdan ham u meni sevadi! Sevadi-a? U meni uzoq, uzoq yerlarga olib ketadi...» Shu so'zlarni aytib, Olga sevinib sakrar, goh kulib, goh yig'lardi. U kekxa ovchining qadoq qo'llarini o'pib olishiga oz qoldi.

– Yo‘q, – dedi u biroz tinchlanganidan keyin, – yo‘q, odamlar bizni bir-birimizdan ayirishiga Xudo yo‘l qo‘ymaydi, yo‘q, u meniki, hamma yerda, go‘rda ham, har joyda meniki, men uni qonli yoshlarim, iltijolarim, chekkan kulfatlarim evaziga sotib olganman, u faqat men uchun yaratilgan, yo‘q, u ichgan ontini, olgan lazzatlarini unutmagan.

– Mening bundan xabarim yo‘q, – dedi sovuqqina qilib Fedosey uning so‘zini bo‘lar ekan. – Sen oldi-sotdi masalasini boyvachcha bilan hal et, mening vazifam – seni olib borish, bo‘laqol, vaqt o‘tyapti!

– Qayoqqa boramiz, qandoq boramiz?

– Bu yog‘ini menga qo‘yib ber, boplayman. Yo, menga ishonmaysanmi?

– Fedosey, tag‘in aldayotgan bo‘lma?!

– Xudo asrasin! Nima, men kofirmanmi? Tezroq yur, Yuriy Borisovich bizni xirmonning narigi tomonidagi yo‘lda kutib turibdi, yo‘limizga tikilaverib ko‘zlari tolqandir!

– Men tayyorman, yur.

Fedosey unga «jim» degandek ishora qildi-da, eshikka yaqinlashib, uni qiya ochdi va tevarak-atrofdagi biror kishining yo‘qligiga, hammayoq jimjit ekanligiga qanoat hosil qilmoq uchun eshikdan boshini chiqardi. U o‘zining bu kuzatishidan mamnun bo‘lib, yo‘talib qo‘ydi, allanimalarni g‘o‘ng‘illadi va eshikni butunlay ochmoqchi bo‘lib turgan edi, birdan, uh, dedi-da, bo‘ynini ushlagancha cho‘zildi va tap etib yerga yiqildi, Olganing qo‘llari va ko‘kragiga suyuq bir narsa sachradi. Uning vujudi qaqshab, dod solmoqchi bo‘ldi-yu, ammo majoli kelmadi. Fedosey uning ko‘z oldida o‘z qonida suzar, yerni g‘ajir va tirnar edi; uning tepasida, naq ostonada esa, jon berayotgandan ham dahshatliroq bir kishi bolta ko‘tarib turardi. U qimir etmay Olgaga kalxat boqish qilar va qonga bo‘yalgan yerga barmog‘i bilan ishora qilardi. U ajdarhoni yenggan Gerkulesdek tantana qilmoqda edi, uning qizg‘ish lablarida zaharxandalik yaqqol ko‘rinib turardi. Bu zaharxandada goh g‘urur, goh nafrat, goh afsus-

nadomat ifodalanardi. Ha, bu o'z irodasiga qaramay, oliy hokimiyatning amri bilan o'lim zarbini beradigan jallodning afsus-nadomati edi.

– Qo'rqyapsan-a! – dedi Vadim, nihoyat, xaxolab kulib. – Men va'damning ustidan chiqdim! Bu uning o'zginasi! Bir vaqtlar yosh va go'zal bo'lgan chehraning xunuk belgilariga dadil qarayver, bu – uning o'zginasi! Shu bosh sening ko'kragingda orom olgan edi, bu lablar lazzatdan erib, sening lablaringga yopishib qolardi, u sening birgina kulib boqishing uchun o'z burchidan, ota-onasidan voz kechdi. Agar sening ota-onang bo'lsa, sen ham o'shani deb ulardan voz kechgan bo'larding. Bu – uning o'zginasi! Sho'rlik, tentak yigit! U zodagonlardan kelib chiqqanman deb, rosa maqtangan edi, zarhal hoshiyali yashil mundirini kibrlanib kiyib yurardi, u maqtovlarga ko'milib, o'zini maqtaganlarga pullarini sochar ekan, ulardan minnatdor bo'lishni ham talab etmasdi. Ayollarning quchoq ochishi uning uchun ko'z qisib qo'yishi kifoya edi – ha! U endi kim bo'ldi! Qonli murda! Hatto, alamni ham sezmaydigan jonsiz to'nkaga aylangandi.

Vadim sovigan murdani oyog'i bilan turtib, so'zida davom etdi:

– Endi u rosa ham jirkanch bo'lsa kerak... Qaragin-a, Olga! Men bu manzara bilan ko'ngilni yumshatmoqchi emasman, bir qaragin-a, ko'zlarining soqqasi o'ynab ketibdi. Yo Parvardigor! Xo'sh, buning hammasini kim qildi? Kim Xudoning go'zal bandasini bir uyum loyga aylantirib yubordi? Bu jingalak sochlarni lolarang may bilan sug'organ kim? Bu oppoq, toza miyani devorga sachratib yuborgan kim? Kim? Men, men! Ha, ha, ha! Ha! Jirkanch tilanchi, ojiz qul, notavon bukur?! ...Ha, men! Nahotki, bu hayron qoladigan bir narsa bo'lsa! Olga, men senga uni sevma degan edim. Sen quloq solmading, boshqa ayollarga o'xshab, oltinga, husnga, havoyi va'dalarga uchding. Menga ishonmading, u senga baxt-saodat, orzu-umidlar va'da qildi. Sen u va'da qilgan narsani tanlading. Sen odamlar o'z taqdirlariga qarshi bora oladilar,

deb o'ylashga jur'at etding. Sen meni go'yo Xudo tomonidan allaqachon rad etilgan odam deb bilding va shu sababdan, u meni birinchi, oxirgi, yagona rohatdan mahrum etadi deb o'ylading! Men sening akangman, Olga, ha, akangman! Men sening xo'jayining, hukmdoring, shohingman, jahonda butun bir oiladan faqat ikkalamiz qoldik, mening yo'lim seniki bo'lishi kerak, sen tabiatning bog'lagan narsasini ojiz qo'ling bilan uzib tashlamoqni behuda xayol qilyapsan; naf-ratim qaynagan joyda sening muhabbating gullayolmadi. – U bir daqiqa sukut qildi, sochlari tikkaydi, ko'zlari cho'g'dek yondi va Olgaga cho'zilgan qo'li havoda qaltiradi. Yigit oyog'i bilan murdaning ko'kragini shu qadar qattiq bosdiki, uning suyaklari qirsillab ketdi. Vadim ruhoniy kabi salobat bilan boqib, bunday dedi:

– Mening birinchi istagim amalga oshdi! U o'ldi! Umidlarimning qotili – shu, ilk farog'atimning qotili – shu; men sendan qabrda ham nafratlanaman; agar vaqti kelib, u dunyoda uchrashib qoladigan bo'lsak, ehtiyot bo'!! Sen bo'lsang, Olga, istagan yeringga boraver, ikkalamizning o'rtamizdagi hisob-kitob tugadi, men senga qarzimni to'ladim; yashaysanmi, o'lasanmi, menga baribir, alvido, singlim! Senga ham alvido, bechora yigit!

Vadim shu so'zlarni aytib, kaftini qisdi-da, murdaning boshini sochidan ushlab ko'tardi, uni fonusga tutib, ko'karib ketgan yuziga qaradi-yu, qaltirab ketdi, keyin uni yaqinroq tutib, tikilib boqdi-da, birdan qichqirib, quturgandek sapchib ortiga tisarildi, uning qo'lidan tushib ketgan bosh yerga toshdek urildi. Bu birgina daqiqa davom etdi, ammo ushbu daqiqada butun bir dahshatli drama sodir bo'ldi. So'nggi umidi ham puchga chiqqan Vadim esankirab qoldi, dahshatga tushib, rangi oqarib, oyoqda tik turolmay qoldi-da, kursiga o'tirdi. Qani, ayting-chi, u nima qildi? Yig'ladi! Ha, yosh bolaga o'xshab, achchiq-achchiq yig'ladi!

U singlisiga ham, murdaga ham qaramay, o'tirgan yerida ho'ng-ho'ng yig'lardi: bukning qalbidan nimalar kechganini

Xudoning o'zi biladi, chunki u boshqa bir so'z ham gapirmay, yuzini qo'llari bilan yashirganicha o'tiraverdi. U endi odamlar bilan emas, balki qismat bilan kurashayotganini va agar g'olib bo'lib chiqqanida ham, bu g'alaba juda qimmatga tushishini u anglagandek edi, biroq uning butun bisoti yengilmas temir irodadan iborat bo'lib, u o'z maqsadi yo'lidagi g'ovlarni pisand qilmas, to'xtash nima ekanligini bilmasdi. Tun-u kun tinmay, qumloq sohilga urilib, qalqib yotuvchi qudratli to'lqin shunaqa bo'ladi: u goh qirg'oqqa toshib chiqishga, goh uni tubidan yemirib, o'pirib yuborishga intiladi. Uning uzoq vaqt qilgan mehnati bekor ketadi, u har safar uzoq dengizga uloqtirib tashlanadi. Lekin uni hech narsa tinchit olmaydi: nihoyat, yillar o'tadi-da, tubidan yemirilgan qoyatosh qirg'oqdan surilib tubsiz dengizga qarab qulaydi va shunda quvongan to'lqinlar raqs etib, uning qabri ustida shovullaydilar.

Darhaqiqat, odamning mustahkam irodasi oldida nima ham bardosh bera oladi? Iroda butun qalbni o'z ichiga oladi; xohish bildirish yomon ko'rish, sevish, achinish, sevinish, xullas, yashash demakdir. Iroda har bir kishining ma'naviy kuchi, biror narsani yaratish yoki vayron etish yo'lidagi erkin intilishi, ilohiy muhr, yo'qdan mo'jizalar yaratadigan ijodiy qudratdir. Eh, agar irodani raqamlarga bo'lish, burchaklar va graduslarda ifodalash mumkin bo'lganida edi, biz naqadar qudratli va naqadar bilimdon kishilar bo'lardik!

Vadimning necha soat behush o'tirganini bilmayman, ammo u boshini ko'targanida, singlisi ketgan edi. Tongning salqin shabadasi murdaning ko'ylagini hilpiratar va u goho boshini silkitib qo'yayotgandek tuyulardi, uning quyuq, qora qonga bo'yalgan peshanasidagi malla sochlari hurpayib turardi. Vadim Fedoseyga sovuq bir nazar tashladi, afsuslanib boshini chayqab qo'ydi-da, cho'zilib yotgan oyoqlari ustidan hatlab o'tib, jar yoqalab tez-tez yurib ketdi. Sharq sezilarli darajada yorishdi va pushti shu'la ilon changallab, qanotini keng yozgan kalxat shaklidagi katta kulrang bulutning pastki

tomonini chirmab olgan bo'lib, u bulut ufqning sharqiy qismini butunlay qoplab olgandi. Olis ufq xayoliy shakllardek ko'zga tashlanib turar, tevarak-atrofdagi o'rmonlarning qarag'a-yu qayinlari chegaradagi posbonlardek qorayib ko'rinardi. Tabiat tantanali bir tusda, sokin edi va goho kelinning jamoli to'rpardaning ortidan ko'rinib qolganidek, tepaliklar ham oq tuman orasidan ko'rina boshladi, har narsa muqaddas va sof edi-yu, faqat Vadimning qalbidagina bo'ron guvullardi.

XXI bob

Kunduzgi soat ikkilar. Quyosh qizg'ish osmonda astagina dumalab borardi. Daraxtlarning nozik uchlari asta tebranib, bir-biri bilan shivirlab gaplashardi. Qalin o'rmonga qo'ngan sayyoh qushlar ba'zi-ba'zida sayrab qo'yar, ba'zida esa folbin kakku, zax gotik mehmonxonadagi soatning zangidek bir zarbdagi mungli kuyini takrorlardi. Ulkan eman ostidagi qalin butazor bilan o'ralgan maysada ikki kishi: bir erkak va bir ayol o'tirishardi. Tikanli shoxlar ularning qo'llarini tirnab tashlagan bo'lib, changalzorda uzoq vaqt sargardon kezganliklari sabab, ko'ylaklari yirtilib ketgan edi. Ularning yosh, go'zal yuzlarida horg'inlik va azob belgilari aks etib turardi.

Yosh juvon shudringdan ho'l bo'lgan poyabzalini yechdida, nozik binafsharang tomirchalari sal-pal bilinib turgan, nafis, tiniq tirnoqchalar bilan bezangan pushti rang, jajji oyoqchasini katta ro'molining uchi bilan artdi, u goho boshini ko'tarib, yuziga tushib turgan sochini silkib qo'yar va tirsagiga suyanib, goh unga, goh osmonga, goh qalin o'rmonga parishon nazar tashlab yotgan hamrohiga jilmayib boqardi. Yigit goho tashvishli fikr miyasini qoplab olganida qoshini chimirar, goho esa, moviy ko'zlariga to'satdan yosh to'lardi; u ana shu tobda sevgilisining quvonib jilmayayotganini ko'rsa, uning ko'zlari quyoshning yorqin shu'lasiga duch kelgandek, darhol yerga qarar edi.

– Muncha xayol surmasang? – dedi qiz. – Xavf-xatar o'tib ketdi, men yoningdaman. Sevgimizga hech narsa mone bo'lolmaydi. Osmon tiniq, Xudo mehribon. G'am yema, Yuriy! Rost, biz o'rmonda yovvoyi hayvonlardek sarson bo'lib yuribmiz, ammo biz ham o'shalar singari ozodmiz. Sahro – vatanimiz, o'rmon qushlari – nasihatgo'ylarimiz bo'ladi. Yuriy, qaragin-a, ular ochiq, tor uyalarida baxtli yashayaptilar.

– Ha, – deb javob berdi Yuriy. – Ular baxtli yashayaptilar! Men ham sening yoningda baxtliman! Biroq, hazillaring goho menga juda og'ir botyapti.

– Men yig'lasam, xursand bo'lasanmi?

– Olga, sen mening tasalli berguvchi farishtamsan! Mening qalbim ro'y beradigan fojialarni sezib, naqadar ezilayotganini bilsayding. Eng dahshatli ovozarlar xalq ichida oshkora yoyilib turgan bir vaqtda, yuz beradigan hodisalarga aqlimiz yetmaganini qara-ya! O'sha ovozalarni bo'lmagan gap deb, ularga ishonmaganimizni-chi! Oqibat nima bo'ldi, degin? Oqibat shu bo'ldiki, rus boyonlari oddiy kazak, qabih soxta podshoh va bir to'da qonxo'r bosqinchilarning qo'lida halok bo'lishmoqda va o'rmonlarda yashirinib yurishibdi. Shu vaqtgacha tovonimizni o'pishga tayyor turganlarning hammasi endilikda bizga qarshi qo'zg'aldi. Eh, ilonlar! Ilonlar! Agar men bilsam, ularni yanchib tashlagan bo'lardim. To'satdan bir kechada bor-yo'g'imdan ajraldim. Otamni, onamni, mol-mulkimni, tug'ilgan uyimni – hamma-hammasini tortib olishdi. Bu yerda ochlik, yalang'ochlik, gadoylik, u yerda – dor, jazo, sharmandalik kutib turibdi. Yo Parvardigor! Gunohimiz nima edi? Meni o'zing jazolasang roziman, lekin jazo qurolini qabih qullarning iflos olomoniga topshirib nima qilasan?

– Yuriy, o'zingni bos. Ko'ryapsanmi, men muhabbatingdan boshqa nimaiki yo'qotsam, hech biriga achinmayman. Men qonni, dahshatli narsalarni ko'rdim; men shunday so'zlarni eshitdimki, ularni eshitganda farishtalar ham qo'rqib ketishardi. Ammo ko'ksingga bosh qo'yib, bularning barchasini unutdim: biz daryoni otliq kechganimizda, meni qaynoq

quchog'ingga qattiq-qattiq bosgan vaqtingda, o'zimni malikalardan ham, malaklardan ham baxtliroq his etdim. Senga ergashib, ag'darilib yotgan qattiq shoxli to'nkalardan lahya sayin hatlab, tikanli butazordan o'tganimda, zarracha ham tolmadim. Rost, mening na otam bor, na onam... – Olga beixtiyor tiliga kelgan so'zlarini aytar ekan, rangi dokadek oqardi va shu so'zlardan o'zi qo'rqib ketgandek, jim bo'lib qoldi. Yuriy uning yumshoq qomatini bag'riga tortib, oppoq bo'ynidan o'pdi: qizning siynasi titrab ketdi-da, ko'ylakni yirtib yuborgudek talpindi. Uning yarim ochiq aqiqdek qizil, tiniq lablarining mazasiga nima yetsin! Yuriy chanqoq labini qizning labiga bosdi, uning badaniga titroq turdi va ko'kragini to'ldirib xo'rsinib qo'ydi.

– Rost aytasan! – dedi u. – Qanday armonim bor? Mayli, qotillar kelaverishsin. Men baxtiyor bo'ldim! Menga yana nima kerak? Men jang maydonida o'linga ro'para kelganimda ham qo'rqqan emasman. Hozir ham qo'rqmayman, men erkakman, jon-u tanim mustahkam; sen bilan birgalikda xalos bo'lish umididan sira ham voz kechmayman. Ammo ajal halqumimdan bo'g'sa, u vaqtda dod demayman, qaltiramayman-da, jon berib qo'ya qolaman. Ont ichamanki, yer yuzidagi odamlarning birontasi ham do'stingni pastkash jallodlar oldida tiz cho'kdi deb aytolmaydi!

Shu gap-so'zlar bilan bir soat o'tib ketdi. Ular o'rinlaridan turib, sharq tomonga qarab yurishdi, quyuq o'rmon ichkarisiga kirib borishdi. Mana, jarga yaqinlashishdi. Yuriyning ko'zi singan shoxlarga va yerni qoplagan quruq, chirik barglardagi odam oyog'ining izlariga tushdi.

– Mana shu izdan boramiz, Olga, – dedi u biroz o'ylab turgandan keyin. – Bu iz bizni biror yerga olib boradi, ehtimol, najot sohiliga yetarmiz. Qo'rqadigan narsamiz yo'q! Yur. Ochlikdan o'lgan yomon, modomiki, Xudo bizni shu vaqtgacha omon saqlagan ekan, demak, u bundan keyin ham xaloskorimiz bo'ladi. Cho'qinib ol. Ketdik.

Ular u yer-bu yerda yashil barglar va sinib tushgan shox-shabbalar bilan qoplangan oyoq izlarini sinchiklab topib,

xiyla vaqt yurishdi. Uzoq izlab, rosa horiganlaridan keyin, nihoyat kichikroq dalaga chiqib olishdi. Bu yerda, bir necha daraxtning orasida, bizga tanish bo'lgan uchta qabriston – tepalik yuksalib turardi.

Yuriy g'orning qorong'i yo'laklarini ko'rishi bilan hayron bo'lib:

– Bu nima ekan-a?

– To'xta, Yuriy, to'xta... xuddi o'zginasi... Xudoga shukur qil, qutuldik...

– Axir, bu nima? Gapingga tushunmayapman!

– Men bu g'or haqida ko'p hikoyatlar eshitganman, Yuriy... Shu tepaliklarning tagida chuqur yo'llar bor, bu yerga eng botir ovchilargina kirarkan. Biz ham qo'rqmasligimiz kerak! Bu joy eng mustahkam ko'shkdan ham xavfsizroq.

– Rost, – dedi Yuriy joyni ko'zdan kechirarkan. – Agar bu hikoyalarning hammasi chin bo'lsa, u vaqtda biz qutuldik, faqat shuni bilishimiz kerakki, ularda birorta yovvoyi ayiq yoki mehmonni yomon ko'radigan boshqa bir sahroyi yirtqich yashirib yotmaganmikin?

Yuriy Jinmakonning teshiklaridan biriga yaqinlashganida, tutunning achchig'i dimog'iga urilgandek bo'ldi, u boshini suqdi, chindan ham teshikdan tutun chiqmoqda! Ha, aytgandek, bu qanday bo'ldi? Ularning xonadonini boshqa birov egallab olmadimikin? U o'z fikrini Olgaga aytgan edi, qiz qo'rqib ketdi, go'yo bu g'orda birorta dahshatli ajdarho yashirib yotgandek. Qiz Yuriyning qo'lidan mahkam ushlab: «Yur. Yur, bu yerdan ketamiz... Tezroq yur!..» – deb xitob qildi.

– Ketamiz, deysan. Qayoqqa ketamiz? Ko'm-ko'k osmon bilan qorong'i o'rmondan boshqa boshpanamiz ham, kulbamiz ham yo'qligini unutganga o'xshaysan. Buning ustiga, nimadan ham qo'rqamiz. G'orda odamlarning borligi rost. Ammo ular kim? Bu bilan bizning ishimiz yo'q. Agar ular qaroqchilar bo'lsa, bizdan hech narsa topisholmaydi, mabodo, bizlardek quvg'indilar bo'lsa, u vaqtda qo'rqishga sira ham asosimiz yo'q. Buning ustiga, hozirgi zamonda yovuzlar bilan qotillar oshkora yurishdan qo'rqishmaydi, xalqning yuziga qarashdan uyalishmaydi.

– Lekin men qo‘rqyapman, Yuriy, dalillaring puch, juda qo‘rqyapman, – dedi u xuddi qo‘rqoq boladek Yuriyning qo‘liga yopishib olib. Olga unga yolvorib tikilar, goh jilmayar, goh yig‘lab yuboray der edi.

– Sen go‘daksan! Uyal...

– Men uyatni ham bilmayman, boshqa narsalarni ham. Muhabbatim haqi yolvoraman, g‘orga kirma. Yur, ketaylik. Bu – tuzoq. Uning ichi qo‘rqinchli, qorong‘i.

– Menga qara, biz shu atrofni bilmasdan turib yo‘lga chiqsak, adashib ketib, kazaklarning qo‘liga tushib qolishimiz turgan gap, unda meni o‘ldirmay qo‘yishmaydi. Nahotki, o‘lib ketishimni istasang?

– Yuriy, shunday savol berishga tiling bordimi-a!

– Demak, meni qo‘yib yubor... yo bo‘lmasa, bu g‘orga birga kiraylik, mayli, peshanaga yozilganini ko‘ramiz!

U shu so‘zlarni aytib, qilichini yalang‘ochladi-da, ajal qurolini o‘qtalib, g‘orning teshiklaridan biriga emaklab kirdi va tusmollab oldinga surildi, keyin tik yo‘lakka chiqib oldi; g‘orning nam havosi uning a‘zolarini qaqshatdi, uzoqdan kelayotgan bo‘g‘iq sado uni hayron qoldirdi, u gohida tutunga duch kelar edi. U saldan keyin qarshisida, olisroq bir yerda cho‘g‘ning goh ko‘tarilib, goh pasayib turgan ojizgina alangasini ko‘rdi. Uning qalbi allanarsani sezib, duk-duk urib ketdi; u sharpasini sezdirmaslikka harakat qilib va bu qorong‘i kulbaning egalari to‘satdan hujum qilgudek bo‘lsa, qattiq qarshilik ko‘rsatishga hozirlanib, asta-sekin yurib bordi. Agar bu yerdagilar jimsiz maxluqlar, yovuz va ayyor iblislar bo‘lganida ham, u zarba berishga tayyor edi!

Yuriy to‘rtburchakli ustun tagida chars-churs yonayotgan gulxanning nursiz alangasidan g‘ira-shira yorishib turgan aylanma mehmonxonaga kirganida, avval hech narsani ko‘rolmadi. Olov bir necha quruq shoxni qamrab yonar, atrofga qizg‘ish uchqunlar sochar, butun yerto‘lani qavat-qavat tutun bosib ketgan edi. Yuriy bu yerdagi narsalarni yaxshiroq ko‘rish uchun to‘xtadi. Uning ko‘zlari qorong‘i muhitga biroz o‘rganishi bilan, u devor tagidagi tokchadek

chuqurchalardan birida odamning basharasiga o'xshash bir narsani ko'rdi. Odam yerga ko'krak berib o'tirar, Yuriyga e'tibor ham bermayotganga o'xshardi. Yuriy unga qarab yurishga ahd qildi-da, o'zini himoya qilishga tayyorlanib, momaqaldiroqdek tovushi bilan qichqirdi:

– Kim bor bu yerda? Tur o'rningdan! Sen qanaqa odam-san? Do'stmisan, dushmanmisan? Shu daqiqada javob bermasang, keyin pushaymon bo'lasan!

Noma'lum kishi bir seskanib o'rnidan turdi, ko'zlarini ishqalab qo'ydi va javob bermasdan oyog'i ostida turgan kattakon tayoqni olib, baland ko'tardi. Buyumlarni katta qilib ko'rsatish xususiyatiga ega bo'lgan tutun bilan o'ralgan va olovning titroq shu'lasida bazo'r ko'rinib turgan g'or fuqarosi o'ziga qaraganda ancha gavdaliroq hamda xiyla dahshatliroq bo'lib tuyulardi.

Ikki tomonning kuchi baravar emasligi va yupqa po'lat qilich bilan katta tayoqning zarbasini qaytarish imkoni yo'qligini ko'rgan Yuriy chaqqonlik bilan ortiga tisarildi. Tayoq olovga tushdi, qizg'ish cho'g'lar bilan chala yongan tarashalar har tomonga sochildi.

– To'xta, – dedi Yuriy, – bo'lmasa chavaqlab tashlayman.

Noma'lum kishi uning tovushidan hayratga tushib to'xtadi-da, tikilib qarab, anglab bo'lmaydigan bir ovoz bilan: «Kimsan?» – deb so'radi.

Shu tobda yonib tugayotgan olovning yorqin shu'lası Yuriyning yuzini yoritdi, noma'lum kishi esa savoliga javob ham kutmasdan, unga tashlandi va xirillagan tovush bilan: «O'g'lim, o'g'lim!..» – deb ho'ngrab yubordi.

Ular qattiq quchoqlashib ko'rishdilar; ham shodlik, ham kulfatdan yig'ladilar; ona bo'ri ham yo'qotgan bolasini topib olganida sakrab, uvlab, momiq dumini silkitadi. Boris Petrovich ham inson edi-yu, ammo bo'ridan hech kam bo'lmagan hayvon edi. Buni aqalli naturalistlar bilan faylasuflar tasdiqlashlari mumkin. Biz, osiy bandalar, bomdod va shom ibodatlarini qanchalik puxta bilsak, bu janoblar ham inson tabiatini shunchalik mukammal bilishadi, bu – g'oyatda adolatli taqqoslash!

Bu vaqt ota bilan o'g'il o'pishib, quchoqlashib, yig'lab ko'rishar, lekin sal nariroqda turgan va o'zlariga mutlaqo begona bo'lgan vujudni – unutilgan, ammo go'zal va mehribon, otashyurak, olmos kabi sof, nurli qalb egasi bo'lgan qizni ko'rishmasdi. Ular o'zlarining har bir shirin so'zi, har bir tomchi yoshi shu qiz uchun zahardan ham yomonroq ta'sir qilib, xanjardan ham qattiqroq botayotganini sezishmasdi, qiz ham yig'lar edi. Lekin u jannatdan quvilgan va jannat eshiklarining panjarasidan o'z aka-ukalarining rohat-farog'atiga termilib qarayotgan malakdek yolg'iz yig'lardi.

Boris Petrovich kambag'al, mehmondo'st askar xotini yordami bilan shu xilvat makonga kelib qolganini o'g'liga so'zlab berganidan keyin, qo'shimcha qildi:

– Men hammayoq tinchiguniga qadar shu yerda qolishga ahd qildim, qo'shinlarimiz isyonchilarni yer bilan yakson qiladi, shunday bo'lmog'i kerak. Ammo biz ikkimiz qurolsiz, do'stlarsiz, nima ham qila olardik. Bizni qullar o'rab olishgan, ular sobiq xo'jayinlarining murdasi dorda qanday osilib turganini ko'rish uchun bor-yo'qlarini berishga tayyor. Bu qanday do'zax-u, bu qanday la'nat! Tushimizga ham kirmagan ishlar bo'lyapti!..

– Buni qarang-a, otajon! Nodon xalqimiz orasida yoyilgan shuncha ovozalarni eshitmabsiz-da!

– Ovozalar! Ovozalar! Ularga kim ishonibdi, deysan? Bu Xudoning biz osiy bandalariga berayotgan jazosi! Endilikda qishki uyasiga yashiringan hayvondek bo'ldik, aqalli tumshug'imizni ham chiqarolmaymiz. Sira ishonib bo'lmaydigan begona bola bir burda non keltirib bermagunicha, haq deb och o'tiraveramiz, u bugun ertalab kelaman, degan edi, hanuzgacha daragi yo'q. Kun og'ib qolgandir-a, Yuriy? Hoy, Yuriy!

Yuriy eshitmas, quloq ham solmas edi. U Olganing oppoq qo'lini ushlab turar, uning ko'zlaridan o'pib, kipriklariga osilib turgan yosh tomchilarini quritar edi. Ammo u qizni tinchitaman, umidvor qilaman, deb behuda urindi. Qiz unga teskari qarab, javob ham bermadi, qimir ham etmadi. U xuddi mumqo'g'irchoqdek devorga suyanib turar, devorning sovuq namini yutib yuborgudek nafas olardi, nega u bunday

ahvolga tushib qoldi? Yosh qizning qalbini qanday qilib anglash mumkin? Uning yuragida behisob tuyg'ular tiqilib, qaynab yotibdi, maktubning harflarini ko'zgu teskari aks ettirganidek, uning yuz-ko'zlari ham yuragidagi tuyg'ularni teskari aks ettiryapti!

– Salom, Olenka, – dedi Boris Petrovich ularning oldiga kelib. – Sen u paytlarda kekkayib, menga egilib salom bermagan eding. Ana endi men ham xuddi sendek boshpanasiz, mol-mulksizman.

– Men o'sha vaqtlarda ham sizga xushomad qilmaganman, – dedi qiz keskinlik bilan.

– Ana xolos! Eh! Sen bilan men so'nggi marta o'pishganimizdan buyon ko'p suvlar oqib ketdi. Sen o'zgaribsan, ranging o'chibdi. Lekin husning avvalgidan ham ochilib ketibdi!

U qizning yelkasiga qoqib qo'yib, iyagini silab qo'ymoqchi bo'lgan edi, Yuriy qip-qizarib ketib, uning qo'lidan tutib qoldi va shu daqiqada es-hushini yig'ib olib, otasining qo'lini sekingina surib qo'ydi-da, u bilan chetroqqa chiqib, lo'nda qilib, astagina bunday dedi:

– Agar otam bo'lishni, meni sizga itoatli o'g'il bo'lishimni istasangiz, u holda shuni yaxshi uqib olingki, bu qiz daxlsiz bir farishta, unga yaqinlashmang, nafasingiz unda sira o'chmaydigan dog'lar qoldiradi. So'zimni tushungan bo'lsangiz kerak?! Meni kechiring, men so'zlarni odob chegarasiga o'lchab o'tirmayman! Qilg'iligingizni o'ylasam, qonim qaynab ketadi. Siz mening so'zimga kirishingiz kerak, aks holda, oramiz ochiq! Hurmatning chegarasi bo'ladi, muhabbat esa – bepoyon!

XXII bob

Bu vaqtda Vadim nima bilan mashg'ul edi? O, Vadim bekorga tentirab yurishni sevmasdi. U tong otishi bilan singlisini izlashga tushdi. Olga borishi yoki yashirinishi mumkin bo'lgan hamma joyga – boyning qo'rg'oniga, qishloqqa, boqqa bordi, ammo uni hech qayerdan topolmadi.

U alamiga chidolmay, xayol surib, dehqonlarning xirmonlari yonidan o'tgan yo'lga chiqib qoldi. Yigit shu xirmonlar oldiga kelganida, tasodifan boshini ko'targan edi, ertalab devorga bog'lab qo'yilgan saman otga ko'zi tushdi, shu yerga yaqinlashib, devor tagidagi ezilib yotgan maysani ko'rди. Shunda u serbarg qariqizlar orasida osilib yotgan, durraga o'xshagan guldor bir narsani ko'rib qoldi. Rost! Bu – durra! Rost! U tanidi! Bu – Olganing guldor shohi durراسi! Haqiqatning to'satdan porlagan nuri g'amgin bukning aqlini yoritdi! Qiz qochgan, bu rost. Ammo u kim bilan qochgan. Kim bilan-a? Bunday savolni berishga aslo hojat yo'q. Oh, uni o'ylashi hamon, Yuriyning birgina ismini eshitishi bilan, Vadimning butun qoni zardobga aylandi! «Bo'lar ish bo'ldi! – deb o'yladi bukur tishlarini g'ijirlatib. – Sen meni ahmoq qilding, o'ljamni qo'limdan tortib olding, sen notavon gadoning ustidan kulding, bag'ritosh telba! Ammo bizning ko'chamizda ham bayram bo'ladi!..» U otga sakrab qamchi urdi-da, horg'in otni majbur qilib, qishloq tomonga choptirib ketdi. Bu vaqtda uning miyasida halokat va xarobaliklarga sabab bo'luvchi yangi rejalar tuzilmoqda edi.

Qishloqning birdan-bir keng ko'chasida o'ttiz kazakning atrofida yangi chakmonlarini kiyib olgan xalq to'planib turar, quvonch va g'azab bilan baqirib-chaqirardi. Kazaklar otlarining jilovlarini tortib, dehqonlarning sovg'a-salomlarini kibrlanib qabul qilishar va xonaki pivo solingan chelakni bir-birlariga uzatib, cho'michlarni to'ldirib simirishardi. Qishloq oqsoqoli bo'shagan chelakni dam-badam to'ldirib turardi; qizil, ko'k ko'ylak kiygan qiz va juvonlar to'rtta-beshtadan bo'lib qo'l ushlab, sho'x ashulalar aytib, ko'chada u yoqdan bu yoqqa yurib turishardi. Yosh yigitlar bo'lsa, ularning ortidan qolmay, o'zaro shivirlashib gaplashishar va go'zallarning nasl-nasabi, husn-jamoli haqida hammaga eshittirib so'z tashlab qo'yishadi, musallas bilan xonaki pivo ularning fikrini tiniqlashtirib, tilini burro qilgandi. Ular o'zlariga haddan tashqari erk berib yuborgan, ayollarning iltifoti ham xiyla haddidan oshib ketgandi. Ha, mayli, o'yinqaroq yoshlarni bir chekkaga qo'yib turib, bu yerga kelgan harb-zarb qahramonlari

bilan kekxa oqsoqollar o'rtasida bo'layotgan suhbatga quloq solaylik. Ularning nimalar haqida gaplashayotganliklarini bilib olish qiyin emas. Kazaklar boylarni tutib berishni talab qildilar, dehqonlar bo'lsa, boylarning yashiringanini, qochib ketishganini aytib, hadeb ont ichishardi, evoh! Baxtga qarshi, kazaklar ular haqida juda yaxshi fikrda edilar! Kazaklar bunday gaplarni, hatto eshitishni ham istashmasdi, politsiya ofitseri yo'g'on qamchisini oqsoqolning boshida aylantirib, uning o'rtoqlariga beriladigan jazoni e'lon qildi. Bu orada ularning ba'zilari boyning qo'rg'oniga borib, tez orada gumashtani arqonga bog'lab sudrab kelishdi, baland bo'yli, keng yag'rinli, soqol-mo'ylovi tim qora, yuzi qip-qizil Orlenko degan ofitser tom ma'noda erkak edi. U oldida tiz cho'kib, palapartish vaysayotgan, qo'l-oyog'i bog'langan bechora gumashtaga shubhalanib qarab qo'ydi. Arqonning bir uchini ushlab turgan pakanagina cho'tir kazak zaharxandalik bilan qarab, uni dam-badam tortib qo'yardi.

– Bu qanaqa qush, Grisko, – dedi ofitser pakana kazakka. – Qanaqa mahmadona, o'zi? Nega ho'kizga o'xshab bo'kiryapti? Bu yerning xo'jayini tag'in shuning o'zi bo'lmasin?

– Kim biladi deysan! – deb javob berdi Grisko. – Gumashtaman deyapti. Bu pashshalar qamchi yemagunicha bir gapni aytishmaydi. Men buni oshxona so'risining tagidan topib, yonib turgan kosov bilan bazo'r chiqarib oldim!

Politsiya ofitseri baxtsiz asirning jizg'anak bo'lgan sochi bilan qoshlarini ko'rib, tirjayib qo'ydi. Asir esa, endi ortiq baqirmas, ofitserdan ko'zini uzmas va kazakning basharasidan o'ziga chiqarilgan hukmni o'qib olayotganga o'xshar edi.

– Xo'sh, sen gumashtamisan? – deb so'radi Orlenko unga g'azab bilan qarab.

Bechora gumashtani titroq bosdi, u allanima demoqchi bo'ldi-yu, duduqlanib qoldi.

– Nega daming ichingga tushib ketdi, itvachcha! Mana bu xanjar bilan jag'ingni tilib tashlayman-a!

– Gunohkorman! Gumashtaman!

– Ha-ha! Gunohkorsan-da! – dedi Orlenko qoshlarini chimirib va uni ermak qilmoqchi bo'lib. – Gapir, gunohing

nima? Hozir iqrор bo'li. Bo'lmasa, ko'rasan ko'radiganingni, – u barmog'i bilan to'pponchaga ishora qildi.

– Otaginam! Yo'q, men hecham gunohkor emasman! Janob! Marhamat qiling!

– Qani, tonib ko'r-chi!

– Gunohkorman! – deb gumashta yana ho'ngrab yubordi. – Shafqat qiling! Qo'rqib ketganimdan nima deyayotganimni ham bilmayotibman. Men gumashtaman. Agar boylarning qayerdaligini bilsam, ularni, siz otaginamga, o'z qo'lim bilan tutib bergan bo'lardim! Ularning dorda osilib turganini rosa tomosha qilardim. O'zim ularni gulxanga tashlab kuydirardim, o'z qo'llarim bilan ularning tiriklayin terisini shilgan bo'lardim!

– Yo'g'-e! Rostdanmi?

– Xudo ursin yolg'on gapirsam! Men u zolimlarga bitta tukimni ham berib bo'pman!

– Buni qarang-a! Xo'sh, nega soqolingni qirgansan?

– Soqolimnimi? Shunchaki, o'zim. Chakki qilibmanmi, otaginam?

– Hoy, yigitlar! Aftidan, bu xiylagina muttahamga o'xshaydi.

– Janobi oliylari! – dedi gumashta astoydil ishonch bilan o'rnidan turib. – Men boylarni yomon ko'rardim, ishonmasangiz, qishlog'imizdagilardan so'ray qoling.

– Hoy, xaloyiq! U to'g'ri gapiryaptimi?

Dehqonlar bir-birlarini turtishib, yelkalarini qashib, yo'talib qo'yishdi.

– Ko'rdingmi, miq etishmayapti! – dedi Orlenko uni masxara qilib. – Shubham tobora ortyapti. Sen tag'in, Palitsinning o'zi bo'lmagin! Soqolingdan shubhalanyapman! Hoy, dehqonlar! Nima deysizlar-a! Hoy, xaloyiq!

Evoh, xalq sukut saqlardi.

Gumashta tevarak-atrofga ma'yus bir nazar tashladi. Biroq, birorta kishining achinib qaramayotganini ko'rib, labini tishlab qoldi-da, nima qilishini bilmay:

– Eh, dinini yutganlar, kofirlar, – deb qichqirdi. – Nega miq etmaysiz, axir, men gumashta Matvey Sokolov emasmanmi, nima, meni ilk marta ko'ryapsizmi? Nega endi, rostgo'y

odamlarni laqillatyapsiz? Eh, siz muttahamlar, yalang'ochlab savalaganlarim esingizdan chiqdimi yoki yelkangiz tag'in qichishyaptimi?

Ayyor dehqonlar yo'talib qo'ydilar va nihoyat, ulardan biri boshini chayqadi-da, bunday dedi:

– Sen-ku, og'ayni, bizni bearmon savalagansan. Sendan bunaqa muruvvat ko'rmaganmiz desak, gunoh bo'ladi. Endi bo'lsa, oshna, tag'in savalayman, deb bizni qo'rqitolmaysan! Har narsaning o'z mavridi bo'ladi, quloq peshanagacha o'sib chiqolmaydi. Endilikda... Endilikda savalash nimaligini gardaningda bir tatib ko'rmaysanmi, a?

– Xo'sh! Sen buni boy deb tan olasanmi? – deb so'radi Orlenko.

– Boylikka uncha boy emasku-ya, – dedi dehqon, – ammo, boy boyga boqar, suv soyga oqar, degan naql bor, it egasiga o'xshamasa harom o'ladi.

– Xo'sh, men buni nima qilay bo'lmasa?

– O'zing bilasan, otaginam. Bizga baribir. Nima jazo berish o'zingga ayon! – deb chuvulladi bir necha ovoz.

Gumashta ofitserning oyog'iga yiqilib, dod soldi:

– Rahm qil, otaginam, oltinim, kumushim, men senga nima yomonlik qildim? Nahotki, podshoh otamiz sodiq xizmatkorini halok etishga farmon bergan bo'lsa?

– U senga o'xshagan xotinchalish qo'rqqoqlarni boshiga uradimi. Senga o'xshaganlarni ko'chaga tosh qilib terish kerak. Hoy, dehqonlar, olinglar buni, sizga sovg'a qildim. O'ldirsanglar ham mayli, qoldirsanglar ham. Ko'nglingiz nimani istasa, o'shani qilinglar.

Dehqonlar shovqin-suron ko'tarib, so'kinib, bir nafasda uni o'rab olishdi. Bo'ron turgan vaqtda barglarning shovqini, shamollarning chiyillashi orasida momaqalldiroqning gumbur-gumburi alohida eshitilib turganidek, umumiy gurung ichida ham «o'lim», «dor» degan so'zlar takror-takror eshitilib turardi, hammaning ko'ziga qon to'ldi, barcha mushtlar qisildi. Barcha yuraklar qasos istagi bilan dukillab urdi, har bir kishi o'zidan o'tkazgan qanchadan-qancha alamlarni esladi!

Har bir kishi bu alamlarni yuz hissa qilib qaytarishning ne-ne yo'llarini o'ylab topmadi, deysiz...

Bir zamonlar Musoning hassasi tegishi bilan chayqalgan dengiz kabi, olomon ham birdan harakatga keldi. Past bo'yli, zangga berilgan, ter bosgan, kiyimlari yirtilgan xunuk bir kishi kazaklar oldiga kelib to'xtadi. Politsiya ofitseri uni ko'rishi hamon bosh kiyimini olib, eski tanishi bilan ko'rishgandek, egilib salom berdi, lekin Vadim (bu Vadim edi) uni ko'rmagandek, dehqonlarga qarab bunday dedi: «Nariroq turinglar, men bu azamatlar bilan muhim bir ish haqida gaplashib olishim kerak...» Dehqonlar bir-birlariga qarab oldilar-da, birorta ham odamning chehrasida bu kutilmagan buyruqqa qarshilik ko'rsatish istagini ko'rmagach, dahshatli bukurning keskin irodasiga bo'yin egib, ortiga tisarilib, tarqalishdi va yana bir necha qadam yurgach, yana to'dalashib olishdi.

Vadim ofitserga o'girildi.

– Salom, Orlenko, – dedi u tutoqib. – Yirtqichning izini topdim, uni tutish – sizlarning ishingiz...

– Qoyil, Qizil shapka. Biz seni bilamiz. – Orlenko shu so'zlarni aytar ekan, Vadimning yelkasiga qoqib qo'ydi.

Vadimning chehrasida bilinar-bilinmas norozilik alomati sezildi, biroq uning ranjigan g'ururi zaruratga bo'ysundi. Nachora! U o'zining dahshatli maqsadi yo'lida yana bitta qurbon bersa, nima bo'пти?

– Agar istasangiz, men sizlarga Palitsinning yashiringan joyini ko'rsataman, o'lja naqd, ishonavering, ammo bir shartim bor, shayton bekorga mehnat qilmaydi.

– Joyini ko'rsatsang, bas, – dedi jilmayib Orlenko, – bizni mukofotdan qochirolmaysan; uning yonidan chiqqan pulning o'ndan biri seniki, mana, xoch guvoh!

– Pul! Yo'q, menga pul kerak emas.

– Nima kerak, bo'lmasa, qonmi?

– Ha, qon kerak! – deb javob berdi, vahshiyona xaxolab Vadim.

– Mayli, qon kerak bo'lsa, olasan-da.

– Eh, men sizlarni bilaman! Uning o‘limini o‘zingiz ko‘rishni istab qolasiz. Bundan menga nima foyda? Men nima qilaman? Bir chekkada turib tomosha qilamanmi? Yo‘q, uning tani bilan jonini menga ber, toki, men ularni har soatda yigirma marta bir-biridan judo qilib, yana bir-biriga qo‘shib, uning azob chekishini to‘yib ko‘ray, eshityapsizmi, mendan boshqa hech kimning yuragi bu rohatni sezmasin, o‘zga odamning ko‘zlari bu tomoshani ko‘rmasin. Yo‘q, men ahmoq emasman. Men sizga o‘yinchoq emasman, eshityapsizmi?

Yaqindan buyon uning yuragidagi tuyg‘ular yuzida juda mukammal aks etadigan bo‘lib qolgan edi, ba‘zi kazaklar uning dahshatli so‘zlarini eshitib, yuzidagi og‘ir ma’yuslikni ko‘rib, hayron bo‘lishdi. Boshqa kazaklar esa, bir-birlariga ko‘z qisishib, uning g‘alati tan harakatlari ustidan kulishardi.

– Voy, maymoq-ey, – dedi ofitser. – Hech kim seni bunaqa tez deb o‘ylamagan edi. Ha, ha!

Vadimning rangi oqarib ketdi, u o‘zining birdan-bir quroli bo‘lgan dahshatli ko‘zlari bilan kazakka qarab qo‘ydi va deysinib, tishlarini g‘ijirlatdi-da, qizarib ketgan yuziga ko‘pchib chiqqan g‘azabini yashirish uchun odamlardan o‘girildi. Hamma unga taajjublanib qarab qoldi.

– Ot beringlar! – Vadim uyqudan cho‘chib uyg‘ongan kishidek birdan qichqirib yubordi. – Menga ot beringlar... Men, yigitlar, sizlarni boshlab boraman, hammamiz birgalikda maza qilamiz. Sizlar shon-shuhrat orttirasiz, men bo‘lsam... – U kazaklardan biri taklif qilgan otga sakrab mindi-da, boshqalarga qo‘l silkib, samanni yo‘rg‘alatib ketdi, kazaklar to‘dasi bir nafasda otlarga minishdi, ot tuyoqlari dupurladi, chang ko‘tarildi-da, ular ko‘zdan g‘oyib bo‘lishdi.

Qo‘l-oyog‘i bog‘langan gumashta alamda o‘rtanib, uzoqlashayotgan kazaklar to‘dasiga qarab qoldi, keyin u o‘zining bag‘ritosh jallodlariga yolvorib termildi, ular baxtsiz qurbon atrofida to‘dalashib turar va beriladigan jazoni parvosizgina muhokama qilardilar, goh osmoqchi, goh kaltaklamoqchi, goh esa sovuq omborga qamab, ochdan o‘ldirmoqchi bo‘lishardi: ana

shu oxirgi chora ma'qul bo'ldi, ular g'olibona qahqaha urib, ashulalar aytib, uni jar yoqasiga qurilgan bo'sh omborga olib borib, torgina eshikdan itarib yuborishdi va qulflab qo'yishdi. Shundan keyin xalqning bir qismi uy-uyiga tarqalib ketib, bir qismi ko'chada qoldi. Bu hodisalar bizning tasvirlashimiz uchun kerak bo'lgan vaqtga qaraganda ancha ko'proq davom etdi. Qishloqdagi g'alayon tinchiganida quyosh g'arbga bosh qo'ymoqda edi, qizlar, juvonlar supalarga yig'ilishib, bayram ashulalarini boshlab yuborishdi. Shu vaqtda yaylovdan qaytgan poda dupurlab, chang to'zitib, ma'rab ko'chaga yoyildi va bolalar baqirib-chaqirishib, orqada qolib ketgan qo'ylarni hayday boshladilar. Bundan bir-ikki soat avval, shu joyning xuddi o'zida, butun zodagonlar oilasiga o'lim hukmi chiqarilgani hech kimning xayoliga kelmadi!

XXIII bob

Vadim kazaklarning oldiga tushib, kechagina Boris Petrovich tunagan kichik qishloq yo'lidan borardi. U gapirmas edi, singlisini, tug'ilgan uyini, bulardan abadiy judo bo'lganini o'ylardi. Vadimning o'ychanligi quvnoq kazaklarni bulutdek bosib, ularni ham xayolchan qilib qo'ydi: kazaklar ham sukut saqlab borishardi. Ba'zi-ba'zida hazil gap o'rta tashlanganda, uch-to'rt kishi jilmayib qo'yadi, xolos! To'satdan kazaklardan biri: «To'xtang, og'aynilar! – deb qichqirdi. – Biz tomonga kelayotganlar kim ekan? Eshityapsizmi, ot tuyoqlari dupurlayapti. Ko'ryapsizmi, muyulishda chang ko'tarildi! Biznikilar Krasniy qishlog'idan kelishmayotganmikin-a?! Topdim, o'shalar kelishyapti, bizga o'xshab lalayib yurmasdan, katta o'lja bilan qaytishmoqda, ularning barmog'ini yalasang ham to'yan. Eh, qaranglar-a, ularning xuddi o'zginasi! Eh, qaroqchilar, jin urgurlar. Eh-he, o'lja olgan aravalarning son-sanog'i yo'q, butun bir karvon-a!..»

Chindan ham shu tomonga kelayotgan olomon Uraldagi erkin aholining guruhiga qaraganda, karvonga ko'proq o'x-

shab ketardi. Karvonning oldida ellikka yaqin otliq kazak kelmoqda; ularning boshlig'i – soch-soqoli oqargan, keksa chavandoz ko'k bedov ot minib olgan. Guruhning ortidan kelayotgan o'nga yaqin dehqonning qo'llari orqasiga bog'langan, yalangboshlari egik, ko'ylakchan; orqaroqda har xil yuk, musallas, kiyim-kechak, oltin ortilgan bir nechta arava va nihoyat, ikkita soyabonli arava ham kelmoqda. Aravalar chetan bilan yopilgan bo'lib, uni ko'tarmasdan turib, ichida nima borligini ko'rishning imkoni yo'q, bir necha otliq kazak soyabonli aravalarni o'rab olgan. Orlenko o'z kazaklari bilan borar ekan, karvonga ellik sarjin qolganida yo'ldoshlariga: «To'xtanglar!» – deb buyruq berdi-da, o'zi otiga qamchi bosib, karvon tomonga qarab ketdi.

– Salom, o'g'lon! – dedi unga keksa chavandoz kulib boqib. – Yo'l bo'lsin? Biz bo'lsak, Krasniy qishlog'idan kelyapmiz, boyning qo'rg'onini kunpayakun qildik. Bu itlarni Beloborodkaning oldiga olib boryapmiz. U bularning adabini berib, ikkinchi marta bosh ko'tarmaydigan qilib qo'yadi.

– Men ham aytdim-a, oqsoqol, Krasniyda rosa bazm qilgandirsan, deb. Xiyla o'lja bilan qaytayotganga o'xshaysan!

– Ha, Xudodan noliydigan joyimiz yo'q. Belborodkaga uch bochka musallas ham olib ketyapmiz.

– Beloborodkaga! Hammasi o'shanga! Hojati yo'q! Biz olib bormasak ham, uning musallasi ko'p. Eh, og'aynilar, unga olib borgandan ko'ra, ona yurtimizning salomatligiga bir ichmaymizmi?! Kazaklarimni bir xursand qilmaysizlarmi-a? Ural dashtida ularning tomog'i qurib qoldi. Biz ertalab bir kosa xonaki pivo ichgancha yuribmiz, endi bo'lsa, Palitsinni qidirib ketyapmiz, sizlar bilan keyin qachon ko'rishishimizni Xudoning o'zi biladi.

Keksa chavandoz odamlariga qarab gapira ketdi: «Hoy, yigitlar! Sizlar nima deysizlar? Biz, baribir, manzilga kechgacha yetib ololmaymiz! Shu yerga qo'nmaylikmi-a? O'zimiznikilar qatordan quruq qolishmasin. Bazm qurib, dam olaylik, u yoqda nima bo'lsa, bo'lar, ertaga ham bir gap qilamiz!»

Butun karvon bo'ylab:

– To‘xta! – degan xitob yangradi.

– To‘xta!

G‘ildiraklarning g‘ijirlashi to‘xtadi, chang bosildi. Orlen-koning kazaklari hamqishloqlariga qo‘shilishdi va aravalarini o‘rab olib, ularning boy o‘ljalar haqidagi, Krasniy qishlog‘ining qo‘lga qurol olib o‘z mulkini himoya qilishga jur‘at etgan qaysar boylar to‘g‘risidagi hikoyalarini hasad bilan tinglashdi. Bu orada ba‘zi kazaklar qulayroq joy tanlash uchun kichkinagina soy bo‘yidagi daraxtzor tomonga ketdilar; saldan keyin ularning ortidan aravalar bilan soyabon aravalar ham qo‘zg‘aldi va nihoyat, otlarning jilovlaridan tortib, kazaklar ham yo‘lga tushdilar.

Vadim yordamchilarining dam olmasdan va, ayniqsa, o‘ziga tortib turgan ikki bochka shirin musallasni ichmasdan turib, yashiringan o‘ljani topish uchun ortidan ergashib borishga beparvolik bilan qarayotganliklarini ko‘rib, Orlenkoning oldiga keldi-da, uning qo‘lidan ushlab:

– Demak, bugundan umid yo‘q ekan-da! – dedi.

– Ha, og‘ayni, bugundan umid yo‘q. Rostini aytsam, u kalamushlarni quvib yurish mening ham jonimga tegdi. Ulardan qanchasini osganimning hisobini ham yo‘qotib qo‘ydim; otimning dumidagi tuklarni sanay olaman-u, ularning sanog‘ini bilmayman.

Vadim otining boshini ters burib, chekkaga chiqdi, otdan tushdi, uni yo‘g‘on qayinga bog‘ladi va yerga o‘tirdi, u qayinga suyanib, qo‘llarini ko‘kragiga qo‘yib kazaklarning bazmga taraddudini, beg‘amligini, quvnoqligini kuzatib turdi. Shunda uning ko‘zi soyabonli aravalarining biriga tushdi; chetan sal ochilgani uchun u aravaning ichidagilarni ko‘rdi. Eh, u nimani ko‘rdi deng? Avvalo, oltmish yoshlar chamasidagi, balki undan ham keksaroq cholning sochi oqargan, tepakal, ajin bosgan, sarg‘ish boshini ko‘rdi. U ma‘yus qarab turardi, uning chehrasida o‘zimiz bilan birga tug‘iladigan, ammo, ko‘pincha, tarbiya natijasida, uzoq vaqt davomida o‘zimizga o‘xshaganlarga farmon berib yurish natijasida hosil bo‘ladigan parvosiz, mag‘rur oliyjanoblik belgilari aks etardi. Cholning

kiyimi yirtilgan bo'lib, u yer-bu yerida qon dog'lari, ha, qon dog'lari bor edi. Chunki chol ota-bobolarining merosini beburd qaroqchilarga berishni istamadi, farzandlarining sharmanda bo'lishini xohlamadi, shu sababdan mol-mulk, huquqini himoya qilib, qilich ko'tardi. Ammo qismat unga xiyonat qildi. U halokatning qarshilik ko'rsatish va asir tushishdan iborat ikki bosqichidan o'tib bo'ldi, endi uning uchinchi bosqichi – dor qoldi.

Vadim uning chehrasida ulug'vorlik va oliyjanoblikning qandaydir alohida qolipga quyilgan, zamon tirnoqlari bilan o'yilgan ana shu belgilarini, qadimgi azob ko'rinishlarini sinchiklab ko'zdan kechirdi; bir xildagi ikki suyuqlik bir-biri bilan qanday qo'shilib ketsa, bu azoblar ham uning hayoti bilan shunday qo'shilib ketgan, ammo taqdirning keyingi, eng qattiq zarbalari cholning chehrasida hech qanday iz qoldirmagandi. Uning og'ir kipriklari ostidagi katta ko'k ko'zlari qarshisida tasodifan paydo bo'lgan manzarani jiddiy bir tusda, astagina kuzatib turardi. O'limning yaqinligi ham, xo'rlik ham, nafrat ham, boshqa narsalar ham uning sokin, o'tkir ko'zlarini xira tortdirolmaydigandek ko'rinardi. Lekin u soyabonli aravaning ichiga qarashi hamon, ikki tomchi yosh ko'zlarida g'ilt-g'ilt qildi-da, oqargan kipriklariga qo'ndi va cholning ko'tarilib turgan ko'kragiga tomib tushishiga oz qoldi. Vadim diqqat bilan kuzata boshladi.

Mana, chetan ichidan ikkinchi bir bosh, ayol kishining Rafael mahoratiga loyiq bo'lgan gulrang, jajji boshi ko'rindi, uning ko'zlari sal mudrab turar, yuzi biroz g'amgin, salgina shod edi. Lablarida ifodalab bo'lmaydigan nafis tabassum o'ynardi, osmondan tushgan shudring tomchisi oftobda qurigan, momaqaldiroq va odamlarning tovonlari ostida qolib, ezib tashlangan varaqqa tushib qanday yayrasa, qiz ham ishonch bilan cholning yelkasiga beg'amgina bosh qo'yib, shunday yayradi. Ilk qarashdayoq, ularning ota bilan qiz ekanini bilib olish mumkin, bir-birlaridan judo bo'lishlarini anglab, erkalaniq qayg'urishmoqda. Bu muqaddas kulfat har qanday ehtirosqa begona, ota afsus-nadomat bilan qizini erkalaydi, sevimli, erka qizni qo'rquv bosadi.

Ularga qarab turgan Vadimning yuragi ezildi, u sapchib o'rnidan turdi-da, narigi soyabon arava tomonga qarab ketdi. Bu aravaning soyaboni ochiq bo'lib, unda ikki qiz – baxtsiz boyonning ikki katta qizi bo'lib, ularning biri tizzasida yotgan singlisining boshini ushlab o'tirardi, qizlarning sochlari to'zigan, kiyimlari yirtilib, oppoqqina bo'liq ko'kraklari ochilib yotibdi. Quvnoq kazaklar olomoni ularga har xil gap otib, qizlarning xo'rligini keltirdi. Lekin kazaklar cholning oldiga borishga botinolmadilar, uning salobatli qarashi, o'tkir ko'zlarini ko'rganda, ularning qalblariga allaqanday bir vahima to'ldi.

Bu orada kazaklar soy bo'yida bir necha yerga gulxan yoqib, ularning atrofiga davra qurishdi, birinchi bochkani dumalatib kelishlari hamon, bazm boshlandi. Avval olomonda g'ovur-g'uvur ko'tarildi, kulgi, ashula, hazil-mutoyiba, gap-so'zlarning hamma-hammasi boshi ham, oxiri ham bo'lmagan, betartib musiqa hosil qildi, biroq ko'p o'tmay, bu shovqin, orkestr chalgan dahshatli kuyga o'xshab, tobora avjga chiqdi. Umumiy sado kuchayganidan kuchayib, tobora aniqroq bo'lib bordi, bu yerda ajoyib ashulalarni, xilma-xil nutqlarni eshitish, turli xil ko'zlarni, yuzlarni, erkin, jo'shqin kishilarning turli xatti-harakatlarini, rang-barang to'dalarni ko'rish mumkin edi! Vadim bazmga qo'shilmoqchi bo'lib, ularning oldiga kelganida, gulxanlarning yorqin alangasi g'arbdagi o'chayotgan ufqqa qo'shilib, bazm manzarasini yoritib turardi.

– Pan Beloborodkaning salomatligiga! – dedi ulardan biri bir cho'mich musallasni birvarakay simirib. – Bu oltin yurishni dastlab o'sha o'ylab topgan!

– Otasiga rahmat! – deb javob berdi ikkinchi bir kazak gandraklab, – o'g'il bola-da, buqadek ichib, arslondek olishadi. Rohibdan ham bilimdonroq ekanini aytmaysizmi!

– Yigitlar! Orangizda butun badaniga tig' tegmagan yigit bo'lsa, oldimga kelsin, unga bir xizmat qilib qo'yay.

– Eh, sen maqtanchoq, la'nati lyax! Olishuv vaqtida omborning orqasida miltiqqa suyanib, pisib o'tirding-ku. Xa-xa-xa!

– Sen-chi, sariqmashak, chol oynavand hujrasini qulflab olib, o‘q uzib turganida, qayoqqa qochib qolding-a?

– Iya, iya, qayoqqa qochib qolding deydi-ya! O‘sha yerda, sizlarning yoningizda edim! Bolta ko‘tarib, derazadan boshini chiqargan novcha yigitni otib tashlagan o‘zim-da!

– Yo‘q, sen avvalgi ishni gapiryapsan, agar o‘sha yerda bo‘lsang, ayt-chi, bizning botir Grisko kekxa boyonning o‘g‘lini qulatganida, chol nima qildi?

– Nima qilardi? Hech narsa qilgani yo‘q.

– Yolg‘on gapiryapsan, – u o‘g‘lining murdasini derazaga ko‘ndalang qilib yotqizdi, ustiga miltig‘ini qo‘ydi-da, o‘nboshiga qarab o‘q uzdi. Xuddi qopdek ag‘dardi! Men uning kichkina qizini nishonga olgan edim-u, shayton qiz bo‘sh kelmadi! Choyshabining ustida bemalol miltiq o‘qlayapti-ya. Qolgan ikki qizi esa to‘shakda behush yotishardi.

– Nechta odamingiz halok bo‘ldi?

– O‘ntacha. Ammo uyga bostirib kirishimiz bilan, xo‘jayinlaridan boshqa hammasini qirib tashladik. Sadqayi bularga jangdagi mardona o‘lim.

– Nimani kutib turibsizlar? Terak serob, arqon bor.

– Hukmimiz o‘tmaydi-da. Oqsoqolimiz ularni Beloborodkaning qo‘liga topshirishni buyurdi.

– Eh, men oqsoqol bo‘lmabman-da!

Bu orada cho‘mich davrani yana bir aylanib chiqib, o‘z manziliga quruq qaytib keldi. Aqlar kuchliroq ishlay boshladi, chehralar qonli shu‘ladek qizardi.

– Ularni o‘ldiraman desangiz, sizlarga xalal berishga hech kimning haddi sig‘maydi! Yo, oqsoqollaringizdan qo‘rqasizlarmi? – dedi Vadim makkorlarcha kulib.

Uning so‘zlari bir uyum o‘q-doriga tashlangan uchqun bo‘ldi.

– Kim u xalal beradigan! – deb bo‘kirishdi mast kazaklar.

– Bizga hech kim xalal berolmaydi! Biz nimani istasak, o‘shani qilaveramiz, biz qul emasmiz-ku, axir! O‘ldiramiz desak, o‘ldiraveramiz! Og‘a-inilarimiz uchun o‘ch olamiz. Yuring, yigitlar!

Olomon baqirib-chaqirib soyabon aravalar tomonga yurdi, baxtsiz chol qizining ko'kragiga boshini qo'yib uxlardi. Cho'chib uyg'onib, qaddini rosladi-da, hamma gapni tushundi.

– Muddaongiz nima? – dedi u dadil tovush bilan.

– Ha, ha! Keksa qarg'a, qari ukki. Sen hozir bir o'yinga tushib berasan. Qani, bu yoqqa kel-chi. Chiq! – dedi bir kazak buyrug'ini qamchi zarbi bilan tasdiqlab.

Chol soyabonli aravadan ohista tushdi, uning ortidan qizi ham sakradi, ikki qo'llab otasining etagiga yopishib oldi. «Qo'rqma! – dedi chol qizini bir qo'li bilan bag'riga bosib, – qo'rqma. Agar Xudoyim jazo berishni istamasa, bularning qo'lidan hech bir ish kelmaydi, mabodo...» Chol yuzini o'girdi. Oh, bechora qizning yuzidagi kulfat alomatini tasvirlashga qalam ojiz! U ham go'zal, ham g'amgin edi!

– Ularni bir-biridan ajrating! – deb qichqirdi bir qiyshiq pahlavon sirtmoqni tayyorlar ekan. – Nega ular bir-birovini yalab-yulqashyapti!

Ota-bolani sudrab olib ketmoqchi bo'lishdi. Ammo qizning g'azabi toshib, kazakning chandir qo'lini tishlab oldi.

– Tagma! – dedi otasi qiziga o'zini mardona tutib, – agar ibodat ham qilmasdan, xuddi kofirga o'xshab, yovuzlarning qo'lida halok bo'lish peshanamga yozilgan bo'lsa, sen menga yordam berolmaysan.

– Bunday bo'lishi mumkin emas, otajon! Bunday bo'lishi mumkin emas... sen o'lmaysan!

– Nega endi, qizim? Nega bunday bo'lishi mumkin emas, deysan?.. Iso ham o'lgan! Duo qil, – qiz boshini chayqadida, yig'lab, – ey Parvardigor! Bu qanday ko'z yoshlar!

Shunga qaramay, ularni sudrab ketishdi, biroq qiz birdan «dod» deb yiqildi, ota qiz tomonga tashlandi, ikki kazakni favqulodda bir kuch bilan turtib yuborib, qizining yuragiga qo'lini qo'ydi. Qizning rangi oqarib, o'lib yotardi, uning yosh, beg'ubor tanasi o'zi yotgan yerdek sovuq edi.

– Endi yuringlar! – dedi chol. Uning ko'zlarida g'ussali alanga porladi, u qo'lini silkitdi. Uning bo'yniga sirtmoq soldilar va shunda, avval kuchli qahqaha yangradi, keyin birdan sukut, o'lim sukuti cho'kdi!

Evoh! Unga bu azob hali oz edi. Mast telbalar arqonning uchini vaqtidan ilgari qo'yib yuborgan edilar, u buralib tepaga chiqdi, arqon uzilib, bechora chol gurs etib yerga yiqildi, uning oyog'i qarsillab ketdi. U ingrab, qizining murdasi oldiga ag'darildi. «Qotillar! – deb xirilladi u... – la'nat sizga! Ming la'nat!..»

– Ovozini o'chir! – dedi Orlenko, uning rahm qilganini qarang-a..

Cholning tomog'iga bir nafasda ikkita pichoq sanchildi-da, u jimib qoldi.

Kazaklar cholning o'lganiga qanoat hosil qilmoq uchun uning qo'llarini ko'targanlarida, uning jon berayotib, qizining oyog'iga mahkam yopishib olganini, qotma barmoqlari nozik badanni changallab turganini ko'rishdi. Eh, bu juda dahshatli manzara edi. Ular masxaralab kulishardi.

Ey, aziz farishta! Sen ham halok bo'lding, bu dunyoni mangu tashlab ketding. Bir zarb bilan toza gul boshini xam qildi. Aziz qalbing xuddi chirigan ipdek uzildi. Sening quvnoq parvonadek sho'x va pokiza, chaqaloqning ilk nafasidek ma'sum joning parvoz qilar ekan, biror kishining yig'isi, biror farog'at va muhabbat so'zi unga orom bag'ishlamadi. Sening o'lim to'shagingni dahshatli odamlar o'rab turishdi, qabring ustida la'nat so'zlari aytiladi! Bu qanday istiqbol! Bu qanday o'tmish! Hamma narsa ko'z ochib yumguncha ado bo'ldi, goho oqshom kezlari qoramtir, to'q qizil, binafsharang bulutlar to'da-to'da bo'lib g'arbda to'planadilar-da, o'tli ustunlar, xayoliy karvonlar hosil bo'ladi va moviy osmonda shoir orzusidek go'zal qasrning minoralari, kungirador devorlari bilan yuksalib ko'rinadi. Ammo shimol shamoli esishi hamon, bulutlar tarqalib, hissiz yerga shudring bo'lib tushadi. Tinch uxla, go'zal qiz, qabring ustida farishtalar farog'at, muhabbat va jannat ashulasini kuylaydi.

Bir og'iz so'zi bilan ana shu voqealarga sababchi bo'lgan Vadim turgan yerida qotib turar, fizika sohasidagi birorta tajribani kuzatgandek, qiz va cholning murdasini beparvolik hamda maroqlanib ko'zdan kechirardi.

Shoshmanglar, buning sababini osonlik bilan tushuntirib beraman.

Birinchidan, u ana shunday jazoni ko'rganida, odamning eng dahshatli qiynoqlarga solinganining guvohi bo'lganida, qalbni qanday tuyg'ular hayajonga solajagini bilmoqchi bo'ldi va qalbni hech qanaqa tuyg'u hayajonga solmas ekan degan xulosaga keldi.

Ikkinchidan, u odamning irodasi naqadar mustahkam ekanligini bilmoqchi bo'ldi va hech kim bardosh berolmaydigan sinovlar bor ekan, degan xulosaga keldi. Bu narsa uni Palitsinning ko'z yoshlarini ko'rishdan, tavbasini eshitishdan, uning oyog'i ostida dod deb, tuproq chaynashini, azbaroyi qo'rqqanidan uning qo'llarini o'pishini ko'rishdan umidvor qildi. Umid shirin narsa, bunga shak-shubha yo'q.

Qosh qorayganiga ancha bo'ldi. Gulxanlar so'na boshladi, olomondagi g'ovur-g'uvur asta-sekin tindi va kazaklarning ko'pchiligi uyquga ketdi. Moviy osmonga suzib chiqqan oy qoramtir soyning mavjlariga va tuman bosgan ufqqa kumush nurini sochdi. Yonayotgan mash'ala yonidan u yoq-bu yoqqa yurib turgan tungi posbondek, qora bulutlar ham oyning yonidan asta o'tib turdi...

Vadim yo'g'on qayin yonidagi avvalgi joyida qo'lini qovushtirib, osmonga ma'yus tikilib o'tirardi. Orlenko uning yoniga keldi:

– Rosa bazm bo'ldi-da! Nega endi sen arazlab, bir chekkada xayol surib, g'amgin o'tiribsan, bukur? – dedi u Vadimning yelkasiga urib.

– Serjun ayiq po'stiniga o'xshab, oyning tepasida osilib turgan bulutni ko'ryapsanmi? – deb savol bilan javob berdi Vadim boshini ko'tarib, jilmayar ekan.

– Ko'ryapman!

– Ko'rayotgan bo'lsang, ayt-chi, uning ichida nima yashirinib yotibdi?

– Nima bo'lardi? Menimcha, momaqaldiraq bilan chaqmoq yashirinib yotibdi, bahaybatligini qara-ya...

– Shuni bilar ekansan, nega mendan g'amgin xayol surib o'tiribsan deb so'raysan?

Orlenko bukurning so'ziga tushunmay, yelkasini qisib o'tib ketdi.

XXIV bob

Bazm qilayotgan va uxlayotgan kazaklar to'dasini shu yerda qoldirib, bizga tanish bo'lgan qishloqqa, askar xotinining kulbasiga qaytaylik. Tun og'ib, tong o'tay deb qoldi, oy kulbalarning poxol tomlariga muloyim nurini sochyapti, har yon sokin, har narsa chuqur uyquda. Faqat askar bevasining kulbasidagina cho'pchiroq xiragina nur sochardi; u yerdan bekaning shart-shart kesib gapirayotgan qo'pol ovozi eshitilar va boshqa bir chiyildoq, yig'loqi tovush unga javob qaytarib turardi. Agar men sizga askar bevasining o'z o'g'lini kaltaklayotganini aytsam, bu hodisa oddiy narsa bo'lib tuyuladi.

Agar bu ko'ngilsiz, bemaza hodisa kelgusi voqealarning bayoni uchun zarur bo'lmaganida, men uni quvona-quvona tushirib qoldirgan bo'lardim; men o'z kitobxonlarimning hikoyaga xiyla qiziqib qarashlariga amin bo'lganim uchun, bundan keyin uzr aytib o'tirishning hojati bo'lmasa kerak, deb hisoblayman.

Ona bolasining sochidan tortqilab:

– Eh, landavur! Juvonmarg bo'lgur... itvachcha! – deb qarg'ar edi.

Uning novcha ovsar o'g'li:

– Voy oyi, voy ota! Tavba qildim! Jon oyijon, endi qilmayman! – deb ho'ngrab yig'lar va ko'z yoshlarini mushti bilan artardi. – Men kecha ularga non bilan ko'zada kvas olib borayotganimda, eshityapsanmi, oyi, kvas olib ketayotganimda, meni alvasti yo'ldan urdi, oyoqlarim tolib, chakalakka kirib uxlab qolibman, oyijon, bir mahal tursam, qornim biram ochibdiki, asti qo'yaverasiz. Nonni yeb, kvasni ichib qo'ya qoldim.

– Eh, qaroqchi, kelib-kelib, sen kallavaramni o'stirganimni qara-ya... Hozir urib, o'ldirib qo'ya qolaman. – Bolaning

boshiga yana kaltaklar yomg'irdek yog'di. – U yerda, – deb askarning bevasi yana gapira ketdi, – mening jonginam yo ochidan o'lgan, yo bo'lmasa, g'ordan chiqib, qotillarning qo'liga tushgan. Sen bo'lsang, qovoqbosh, buni o'ylab ham ko'rmagansan. Bu qilgan ishing uchun u dunyoda shaytonlar seni tiriklayin qovurib yeyishadi-ya. Sendaqa ablahni tug'may o'lay. Agar bilganimda, xuningni otangdan olgan bo'lardim! – Shu gaplardan keyin, askarning bevasi bechora bolaning yelkasiga, tishlariga tag'in qarsillatib mushtlay ketdi; u burchakka qisilib turar, boshini qo'llari bilan pana qilar va bu azoblarga chidolmay, qattiq dodlar edi.

Ajab bo'ldi! Shu muttaham tufayli bechora quvg'indilar bir kecha-kunduz yemaksiz qolishdi va umidsizlikka tusha boshlashdi. Rost-da, ularning so'nggi homiylari taqdirning hukmiga tashlab ketganlaridan keyin, ular bu yerdan qanday qilib chiqishadi, qayerdan madad izlashadi?

Askar bevasi o'z o'g'lini kaltaklayotgan vaqtda allakim yog'och devordan oshib tushib, g'o'lalar bilan to'nkalar uyib qo'yilgan hovlidan tasmollab o'tdi-da, oyoq uchida yurib, qorong'i yo'lakka kirdi, uning harakatlaridan qattiq charchaganligi sezilib turardi. U astagina yurib, uyning eshigi oldiga keldi-da, ichkariga quloq soldi va askar bevasining ovozi taniganidan keyin eshikni ochib, uyga kirdi. Yonib tugayotgan cho'pchiroq uning rangpar, ozg'in yuzini sal-pal yoritdi. U bir so'z demay, majolsiz holda kursiga o'tirdi-da, yuzini qo'llari bilan yashirdi.

Uy bekasi kutilmagan mehmonni ko'rishi hamon, qichqirib yubordi, biroq uni darhol tanidi, shekilli, birovlarining ko'rib qolishidan qo'rqib, darrov eshikni zanjirladi va achingannamo uning yoniga keldi.

– Senga nima bo'ldi, boyvachcham! Voy, Xudoyimdan aylanay, seni yetkazgan! Men yovuzlar seni allaqachon nobud qilib yuborishgandir, deb o'ylagan edim. Voy, marhamatingdan aylanay!

– Men otamni tasodifan Jinmakonda ko'rib qoldim, – dedi u sustgina tovush bilan. – Uni sen qutqaribsan, rahmat! Men nonga kelgandim.

– Voy, men o‘lay! Esimni yeb qo‘yibman! Siz, mehribonlarim, u yerda rosa och qolgandirsizlar. Ayb menda. Hoy, senimi, kallavaram, – deb o‘g‘liga o‘dag‘ayladi. – Seni deb bular och qolishgan. Hoy, itvachcha! – Askar bevasi bechora bolani yana mushtlay ketdi.

– Menga biror narsa ber! – dedi Yuriy.

Uning bu so‘zlari askar bevasining esini kirgizdi. U yangi yopilgan non va bir xurmacha qaymog‘i olingan sutni Yuriyning oldiga qo‘ydi. Yuriy ovqatga ochko‘zlik bilan yopishdi. Shu daqiqada u hamma narsani: burchini, otasiga bo‘lgan muhabbatini, Olgani, ana shu mazali sut bilan nonga aloqasi bo‘lmagan narsalarning barchasini unutdi. Agar shu daqiqalarda biror kishi uning qulog‘iga: «Dahshatli Pugachyovning o‘zi o‘ttiz qadam narida turibdi», deb qichqirsa, baxtsiz yigit: «Shunday bebaho yemakni tashlab, jonimni omon saqlaymi yoki qornimni to‘ydirib, halok bo‘laymi?» – deb mulohaza qilib ko‘rardi. Hozir uning aqli ham, yuragi ham yo‘q, faqat oshqozoni bor, xolos!

U ovqat yeb, dam olgunicha bir soat, qimmatli bir soat vaqt o‘tdi, sharq ufqi asta oqardi. Yuriy oziq-ovqat solingan qopni ortmoqlab, mehmondo‘st xonadondan chiqmoqchi bo‘lib turganida, qoramtir bulutlarning olis etaklari tongda kiyadigan zarbof to‘nini kiyib olgan edi. Shu tobda ko‘chadan birdan ot dupuri eshitildi va allakim deraza yonidan ot choptirib o‘tdi. Yigitning rangi oqardi, qopi yelkasidan tushib ketdi va toshdek qotib qolgan uy bekasiga ma’noli qarab qo‘ydi. Beka derazaning oldiga yugurib bordi-da, oftobda pishgan soddagina chehrasida dahshat alomati paydo bo‘lib, chapak chalib yubordi.

– Ilojimiz yo‘q! – dedi Yuriy butun irodasini ishga solib. – Men endi halok bo‘laman. Shunday emasmi? Gapir tezroq, mavhum narsalarga toqatim yo‘q!

Ammo beka javob bermadi. U pech yonidagi polning taxtasini ko‘tarib, yerto‘laga barmog‘i bilan ishora qildi. Yuriy uning ishorasini tushunib, ro‘zg‘or buyumlari uyulib yotgan kichkina sovuq yerto‘laga tushdi.

– Boyvachcha, – dedi beva, – har qanday gaplarni eshitsang ham, uyda meni qanchalik qiynoqqa solishmasin, yerto‘ladan ikki kunsiz chiqa ko‘rma, u yerda ikki kunga yetarli non, sut, kvas bor, Xudo saqlasin! – Og‘ir taxta uning boshi uzra, xuddi tobutning qopqog‘iga o‘xshab taraqlab yopildi.

Beva shubha tug‘dirmaslik uchun hech narsani bilmagan kishidek, pech yonida kuymalana boshladi.

– Ko‘p o‘tmay, eshik taraqlab ochilib, Vadim boshchiligidagi kazaklar kirib kelishdi.

– Boris Petrovich Palitsin ovchilari bilan shu yerda edimi? – deb so‘radi Vadim askar bevasidan. – Ular qayerda?

– Ertalab kun chiqishi bilan ketishgan, otaginam!

– Yolg‘on gapiryapsan, ovchilar ketgani rost, lekin u shu yerda!

– Voy, otaginam-ey, men uni yashirib nima qilaman? Axir, u mening xo‘jayinim emas-ku!..

– Hamma gap, u sening xo‘jayining emasligida-da! – dedi Orlenko gapga aralashib. Xotinni qamchi bilan bir tushirdida, so‘roqni davom ettirdi, – qani, chaqqonroq qimirla, u berkingan joyni ko‘rsat, bo‘lmasa.

– Menga har qancha azob bersalaring ham mayli, – dedi beva boshini egib. – Bilmayman dedimmi, bilmayman, ishonmasanglar, mana sizlarga Iso bilan Bibi Maryam. Qidirib ko‘ringlar, otaginalarim, agar topolmasanglar, men gunohkordan xafa bo‘lmanglar.

Atamanning imosi bilan bir nechta kazak Palitsinni qidirish uchun hovliga chiqib ketdi va chorak soatdan keyin qaytib kirib, topa olmaganlarini aytishdi.

Pechga suyanib, peshanasiga barmog‘ini tirab chuqur xayolga tolgan Vadimga Orlenko shubhali qarab qo‘ydi, nihoyat, Vadim hushyor tortib, o‘zi bilan o‘zi gaplashayotgandek: «U shu yerda, albatta, shu yerda!» – deb qo‘ydi.

– Shunday deyishga qanday asosing bor? – deb so‘radi Orlenko.

– Qanday asosing bor emish! Men u shu yerda dedimmi, demak shu yerda, ko‘nglim aytib turibdi. Agar u shu yerda bo‘lmasa, mayli, boshimni kesinglar!

– Himmati tuzuk, – deb qo'ydi orqaroqda turgan allakim.
– Ammo shunday deyishga daliling bormi? Uni qanday qilib topsa bo'ladi? – deb so'radi Orlenko.

Grisko gapga aralashishga jur'at qildi-da, bevani qiynoqqa solishni maslahat berdi.

Qiynoq so'zini eshitishi bilan bevaning rangi oqarib ketdi, biroq bunda o'zi uchun yangi, g'oyatda oliyjanob tuyg'ular paydo bo'lgani sababli, uning chehrasida ojizlik yoki qo'rqqoqlikdan asar ham ko'rinmadi.

– Bo'pti, qiynoqqa solganimiz bo'lsin, – deyishib, kazaklar bevani o'rab olishdi. Beva ularning oldida qimir etmay turar va ba'zi-ba'zida lablari allaqanday duoni pichirlab takrorlar edi. Uning har bir qo'liga bittadan yo'g'on arqon bog'lab, arqonlarning uchini so'rining to'sinidan o'tkazdilar-da, ikki tomondan asta torta boshladilar; bevaning tovonlari yerdan ko'tarildi va saldan keyin uning oyoqlarining uchi yerga bazo'r tegib turardi. Ish shu darajaga borganda, jallodlar arqonni ortiq tortmay, uning qo'llaridan bo'rtib chiqqan tomirlariga va og'riqning zo'ridan qizargan yuziga kulib qaradilar.

– Xo'sh, battol xotin, – dedi Orlenko, – Palitsinni qayerga yashirganingni endi aytasanmi, yo'qmi?

Bunga javoban beva chuqur xo'rsinib qo'ydi.

Orlenko bevani qamchi bilan urib, savolini takrorladi.

– So'yib tashlasanglar ham, bilmayman, – deb javob berdi sho'rlik xotin.

– Yuqoriroq tort! – deb buyruq berdi Orlenko va ikki daqiqa o'tar-o'tmas, beva yerdan bir gaz ko'tarildi. Uning ko'zlariga qon to'ldi, beixtiyor dod deb yubormaslik uchun tishini tishiga bosib turardi. Jallodlar arqonni shu ahvolda tortib turganlarida, Vadim Orlenkoga imo qilgan edi, bu imoni u darhol tushundi. Askar bevasining oyoq kiyimini yechib, uning oyoqlari ostiga bir xokandoz cho'g' to'kishdi. Cho'g'ning taftidan, oyoqlarining og'rishidan uning vujudiga qaltiroq yugurdi va u rahm-shafqat qilishlarini so'rab, faryod chekib yolvora boshladi.

– Aha, og‘zingni ochar ekansan-ku, la’nati. Seni hali shunaqa qovuramizki, tiling u yoqda turib, tovonlaring ham gapga kiradi. Xo’sh, gapir, u qayerda?

– Oh!.. Oh!.. Otaginalarim... azizlarim... Ozgina dam beringlar... Yerga tushiringlar...

– Yo‘q, avval ayt, keyin tushiramiz.

– Ixtiyor o‘zingizda. Hech narsa deyolmayman. Oh! Oh! Xudoyim-ey, o‘zing yordam ber, otaginalarim...

– Tushiringlar, – dedi Orlenko.

– Begunoh qurbonning oyoqlari yerga tegib, ko‘kragi erkin nafas olganidan so‘ng, kazak avvalgi savollarini takrorladi.

– U qochib ketdi! – dedi askar bevasi. – O‘sha kechasi qochib ketdi. Jar bo‘yidagi so‘qmoq yo‘ldan ketdi. Iso haqi, boshqa hech narsa bilmayman.

Shu paytda ikki kazak bevaning ust-boshi moyga belangan sariq tentagini xonaga sudrab kirishdi. U o‘g‘liga shunday o‘qrayib qaradiki, uning bu qarashini o‘g‘lidan boshqa hamma tushuna olardi.

– Sen kimsan? – deb so‘radi Orlenko.

– Petruxaman, – deb javob berdi o‘g‘lon.

– Hoy, tentak, sen kimsan deyapman?

– Men qayoqdan bilay. Odamlar, oyingning o‘g‘lisan, deyishadi.

– Qoyil! – dedi Orlenko xaxolab. – Buni qayoqdan topib keldinglar?

– Ombor yaqinidagi poxolga berkinib olibdi, o‘tib ketayotib, poxoldan osilib turgan ikkita oyoqni ko‘rib qoldik. Keyin buni oyog‘idan ushladik, loyga botib qolgan qayiqni sudragandek, poxolning ichidan tortib oldik.

– Menga qara, Orlenko, – deb gapni bo‘ldi Vadim. – Biz bu ahmoqni qiynoqqa solsak, uning qaysar alvasti onasiga qaraganda ko‘proq narsani bilib olamiz.

Kazak boshini qimirlatib, rozilik berdi.

– Yigitni bu yerdan olib chiqish kerak, bo‘lmasa onasi xalaqit beradi.

– Bu gaping to‘g‘ri, qani uni hovliga olib chiq, – dedi Orlenko. – Bu alvastini shu yerga qamab qo‘yamiz.

Askar bevasi bu gapni eshitib, tutaqib ketdi, uning ko'zlari chaqnadi.

– Menga qara, Petruxa, – deb qichqirdi u qo'ng'iroqdek ovozi bilan. – Agar og'zingni ochadigan bo'lsang, men seni oq qilaman, uydan haydayman, ochingdan o'ldiraman!

Petruxa onasining tanish ovozini eshitishi bilan terakning bargidek titrab ketdi, shuncha notanish odamlarning salobati yigitni yaxshigina esankiratib qo'ydi. U dunyodagi hamma kazaklardan ko'ra, o'z onasidan ko'proq qo'rqardi. Uning onasi shuncha do'qlar ustiga musht ham ko'rsatib qo'ydi-da, xayolga botdi, uning ko'ngli xotirjam edi.

O'n daqiqa vaqt vahima ichida o'tdi – birdan hovlida qamchi zarblari, kazaklarning so'kinishlari va sho'rlik yigitning dod-voylari eshitildi. Onaning yuragi ezildi, lekin «o'g'lim qiynoqlarga chidolmay, sirimni aytib qo'yadi» degan fikr ustun kelib, shuni o'ylab ketdi. U nima qilishini bilmay, duo ham o'qidi, yig'lab ham ko'rdi, uyning u burchagidan bu burchagiga yugurib ham yurdi, hatto sirni o'zi ochib qo'ya olishiga ham oz qoldi. Ammo dod-voylar asta-sekin pasaydi, qamchi zarblari to'xtadi, so'kinishlar eshitilmay qoldi. Nihoyat, u derazadan qarab, kazaklarning darvozadan birin-ketin chiqib ketganliklarini va ko'chada davra qurib, o'zaro maslahat qilayotganliklarini ko'rdi. Ular umidlari puchga chiqqani uchun qovoqlarini solib olishgandi, kaltaklanib chalajon holda tashlab ketilgan sariq Petruxa hovlida qolgandi. U yerda ingrab yotardi. Onani qaltiroq bosib, o'g'lining yoniga bordi, lekin o'g'li qotillarga sirni aytmaganligi uchun uning ko'zlarida so'z bilan anglatib bo'lmaydigan allaqanday bir shodlik nuri porlardi.





Har kitobda so'zboshi uning ham avvali, ham oxiridir; u yo asarning maqsadini tushuntirib berish yoki tanqiddan o'zini oqlash va tanqidga javob vazifasini o'taydi. Biroq, odatda, axloqiy maqsad yoki jurnal tanqidlari bilan o'quvchilarning ishlari bo'lmaydi, shuning uchun ular so'zboshini o'qishmaydi. Afsuski, ayniqsa, bizda shunday. O'quvchilarimiz hali shu qadar yosh va soddadilki, agar masalaning oxirida qissadan hissa degan xulosa bo'lmasa, uning ma'nosini anglab yetishmaydi. Ular hazilni bilishmaydi, kinoyani payqashmaydi, to'g'risi, yomon tarbiya ko'rishgan. Ular nomusli jamiyat va odobli kitobda oshkora haqoratga yo'l qo'yilmaslik kerakligini, zamonamiz ma'rifati undan ham o'tkirroq, deyarli ko'zga ko'rinmasa-da, ammo xushomadgo'ylik niqobi ostida undan ko'ra qattiqroq va omonsizroq zarba beradigan qurol kashf etganini hali bilishmaydi. Odamlarimiz bir-biriga dushman bo'lgan ikki davlatga qarashli diplomatning suhbatini eshitganida, bular qalin do'st bo'lganlari uchun o'z hukumatlarini aldashmoqchi, deb ishonadigan qishloqiga o'xshashadi.

Bu kitob yaqindagina ba'zi o'quvchilar va qisman ba'zi jurnallarning ham baxtiqaro ishonchiga sazovor bo'lishdek bir baxtsizlikni boshidan kechirdi. Ba'zilar Zamonamiz Qahramonidek axloqsiz bir kimsani bizga ibrat qilib ko'rsatibdi, deb qattiq xafa ham bo'lishdi. Boshqalar esa, bunda yozuvchi o'zining va tanishlarining portretlarini tasvirlabdi ham deyishdi... Bularning hammasi siyqasi chiqib, eskirib ketgan hazillar! Aftidan, Rus shunday yaratilganki, unda hamma

narsa o'zgarib, yangilanib turadi, ammo bu bemazagarchilik sira yo'qolmas ekan. Bizda g'aroyib ertaklarning eng g'aroyibi ham, shaxsni haqorat qilishga qaratilgan bir qasd singari ta'naga duchor bo'lmay iloji yo'q.

Muhtaram janoblar, Zamonamiz Qahramoni haqiqatan ham portret, biroq bir kishining portreti emas; bu butun bir avlodimizning gunohlari to'liq aks etgan qusurlaridan yasalgan bir portretdir. Siz menga inson bunchalik bema'ni bo'lmasa kerak, deb aytarsiz, men esa bunga javoban: «Agarda shuncha fojiali va romantik yozuvlarning bo'lishiga ishongan bo'lsangiz, nega Pechorinning borligiga ishonmaysiz?» deyman. Agar siz bundan beshbattar dahshatli va beo'xshov uydirmalarga mahliyo bo'lgan ekansiz, nima uchun bu xarakter, hatto uydirma bo'lganida ham, shafqatingizga sazovor bo'lolmaydi? Sababi, asarda siz istaganingizdan ortiqroq haqiqat borligi emasmikan?

Siz, bundan axloq foyda ko'rmaydi, deb aytarsiz? Afv etasiz. Odamlarni shuncha totli yemaklar bilan boqib kelganimiz ham yetar, bundan ularning me'dalari buzildi, ularga endi achchiq-achchiq dori, o'tkir haqiqatlar kerak. Lekin shu gaplarimdan so'ng, ushbu kitobning muallifi bir paytlar odamlarni qusurlardan davolash haqida mag'rur orzular qilib yurgan ekan, deb sira o'ylamang. Bunday nodonlikdan Xudo asrasin! U faqat siz va o'zining baxtiga qarshi, juda ko'p uchratgan hozirgi zamon kishisini o'zi bilganicha tasvirlashdan zavqlanardi, xolos. Dardning qanday ekanligini ko'rsatib berishning o'zi ham kifoya qiladi, uni qanday davolashni esa – Xudo biladi.



BIRINCHI BO'LIM

I

Bela

Men bekat aravasida Tiflisdan jo'nab ketmoqda edim. Aravamning bor-yo'q yuki kichkinagina jomadondan iborat bo'lib, uning ham yarmi Gruziya xotiralari bilan to'la. Sizning baxtingizga xotiralarning ko'p qismi yo'qolib ketgan, jomadonim bilan boshqa narsalarim esa, baxtinga omon qolgandi.

Koyshaur vodiysiga kirib kelganimda, quyosh qorli tog'lar ortiga yashirina boshlagan edi. Osetin aravakash qorong'i tushguncha Koyshaur tog'ining tepasiga yetib olish niyatida otlarni hadeb qistar va ovozi boricha baqirib ashula aytardi. Bu vodiy g'oyatda ajoyib joy! Hammayog'i odam oyog'i yetmagan baland-baland tog'lar, chirmashib o'suvchi o't-o'lanlar va yam-yashil baxmaldek to'p-to'p chinor daraxtlari qoplagan qizg'ish azamat qoyalar, suv o'pirib ketgan sarg'ish jarlar, tepada, cho'qqilarda esa zarhal hoshiyadek tovlanuvchi qorlar, pastlikdan esa Aragva, qop-qorong'i dara tagidan hayqirib oquvchi nomi noma'lum boshqa bir soy bilan quchoqlashib, xuddi ilon tangasidek yaltirab oqadi.

Koyshaur tog'ining etagiga yetgach, qovoqxona yonida to'xtadik. Bu yerda yigirmatacha gruzin va tog'liklar chuvullashib turishar edi. Sal narida karvon ham tunash uchun qo'ngan. Aravamni shu la'nati tog'ning ustiga olib chiqish uchun ho'kizlarni ijaraga olishim kerak edi. Chunki kuz fasli kirib, yerlar yaxlab, sirg'anchiq bo'lib qolgan, tog'ning balandligi esa, ikki chaqirimcha kelardi.

Noiloj oltita ho'kiz bilan bir nechta osetin yolladim. Osetinlardan biri jomadonimni yelkasiga ortmoqlab oldi,

qolganlari esa qiy-chuv bilangina ho'kizlarga madad berib borishdi.

Mening aravam ortidan limmo-lim qilib yuk bilan boshqa bir aravani to'rtta ho'kiz bemalol tortib kelardi. Bu meni ajablantirdi. O'sha aravaning ketidan kumush bilan qoplangan kichkinagina qobordincha chubug'ini chekib, egasi kelardi. Uning egnida epoletsiz ofitsercha uzun kamzul, boshida esa cherkascha paxmoq qalpog'i bor edi. Yoshi elliklarda, yuzining qorachaligi Kavkaz quyoshi bilan ko'pdan buyon tanish ekanligidan darak berardi. Bevaqt oqargan mo'ylovlari esa, uning shaxdam qadam tashlashiga va bardamligiga mos tushmas edi. Men uning yoniga kelib, boshimni egib salom berdim, u bo'lsa salomimga indamay alik oldi-da, og'zidan burqsitib tutun chiqardi.

– Aftidan, hamrohga o'xshaymiz-a?

U yana indamay bosh egdi.

– Stavropolga ketyapsizmi, deyman?

– Ha, ha... podshohlik buyumlari bilan.

– Menga qarang, baraka topkur, nima uchun og'ir yukli aravangizni to'rtta ho'kiz bemalol tortadi-yu, mening bo'sh aravamni mana bu osetinlar madad bersa ham, olti ho'kiz zo'rg'a sudrayapti?

Hamrohim mug'ambirona jilmaydi-da, menga ma'nodor qarab qo'ydi.

– Kavkazga yaqinda kelganmisiz, deyman?

– Bir yilcha bo'ldi, – deb javob berdim.

U yana jilmayib qo'ydi.

– Nima edi?

– O'zim, shunday. Bu osiyoliklar o'lgudek ayyor bo'ladi! Siz ular baqirib, ho'kizlarga madad beryapti, deb o'ylarsiz? Ularning nima deb baqirishini kim biladi, deysiz! Ho'kizlar ularning tiliga tushunadi, yigirmata ho'kiz qo'shing, baribir, agar ular o'z tilida bir nima deb baqirdimi, bo'ldi, ho'kizlar joyidan qimirlamay turaveradi... Hammasi uchiga chiqqan ayyor! Nima ham qilolasiz? Bular o'tkinchilarning pulini shilish payida... Bu muttahamlarni juda yomon o'rgatib

qo'yishgan! Hali ko'rasiz, sizdan yana aroq puli ham olishadi. Men bularni yaxshi bilaman, meni aldab bo'pti!

– Bu yerda ko'pdan buyon xizmat qilasizmi?

– Ha, Aleksey Petrovich zamonida ham xizmat qilardim, – deb javob berdi hamrohimi g'urur bilan. – Aleksey Petrovich Liniyaga kelganida, men podporuchik edim, – deb ilova qildi, – uning qo'li ostida tog'liklarga qarshi janglarda qatnashib, martabam ikki bora oshdi.

– Hozir-chi?

– Hozir uchinchi Liniya batalyonidaman. O'zlaridan so'rasak?

Men ham aytdim.

Shu bilan suhbatimiz tugadi, ikkimiz indamay yonmayon ketaverdik. Tog'ning tepasiga chiqsak, qor bor ekan. Quyosh botdi, ammo kun botmay turib, tun bostirib keldi, odatda, janubda shunday bo'ladi, qor oqarib turgani uchun, garchi uncha tik bo'lmasa-da, yuqoriga ko'tarilib boruvchi yo'lni adashmay topib borardik. Jomadonimni aravaga solib, ho'kizlarni chiqarish va aravaga ot qo'shishni buyurdim-da, pastga, yastanib yotgan vodiya so'nggi marta ko'z tashladim. Biroq tog'lar orasidan burqsib chiquvchi qalin tuman, vodiyni tamomila qamrab olgan, u yerdan biron tovush ham qulog'imizga yetib kelmasdi. Osetinlar shovqinsuron bilan meni o'rtaga olib, aroq puli talab qila boshlashdi, ammo shtabs-kapitan ularga bir o'shqirgan edi, bir zumda tumtaraqay bo'lib ketishdi.

– Juda g'alati xalq-da, bular! – dedi shtabs-kapitan. – Rus tilida ion deyishni bilmaydilar-u, «ofitser, aroq puli ber!» deyishni bilib olganlariga hayronman! Menga qolsa, bulardan tatarlar ming chandon afzal: ular hech bo'lmaganda, aroqdan hazar qilishadi-ku!..

Bekatkana yana bir chaqirimcha qolgan edi. Tevarak-atrof jimjit, shu qadar osuda ediki, hatto chivin g'o'ng'illab uchsa, uning qaysi tomonga qarab uchganini bilsa bo'lardi. Chap yonimizda chuqur dara qorayib ko'rinar edi; uning ortidan va qarshimizda, botgan quyoshning so'nggi shafaqlari arang ko'rinib turgan och rangli ufq etagida qat-qat qor bosgan

ko'm-ko'k tog' cho'qqilari ko'zga tashlanardi. Qoramtir osmonda yulduzlar miltillay boshladi, bu yulduzlarning bizning shimol taraflardagiga nisbatan ancha yuksak ko'rinishi odamga g'alati tuyulardi. Yo'lning ikki tomonida qop-qora xarsanglar yotar, u yer-bu yerda qorning tagidan butalar chiqib turardi-yu, ammo qotib, qovjirab qolgan barglarning birontasi ham qimir etmasdi, butun tabiat chuqur uyquga ketgan bunday bir vaziyatda bekat aravasini tortib boruvchi uchta horg'in otning pishqirishi va rus qo'ng'iroqchasining past-baland jaranglashini eshitib borish nihoyatda nash'ali edi.

– Ertaga havo yaxshi bo'ladi! – dedim men. Shtabs-kapitan gapimga indamadi-da, ko'rsatkich barmog'i bilan naq ro'paramizda qad ko'tarib turgan baland toqqa ishora qildi.

– U nima? – deb so'radim men.

– Gud-Tog'.

– Gud-Tog' bo'lsa nima qilibdi?

– Bug'lanib turishini qarang.

Chindan ham Gud-Tog'ning tepasi bug'lanib turardi. Tog'ning tevaragida yengil bulutlar suzib yurardi, cho'qqisida yastanib yotgan qop-qora bulut esa, hatto qorong'i osmonda ham yaqqol ko'rinar edi.

Pochta bekati va uning yon-atrofida kavkazliklar uyining tomlari ko'zga tashlandi, qarshimizda jozibali chiroqlar miltillab ko'rindi, nam va izg'irin shamol turib, dara guvullab, mayda yomg'ir tomchilay boshladi. Po'stinimni endi ustimga tashlay deb turgan ham edimki, birdan qor yog'ib qoldi. Ehtirom bilan shtabs-kapitanga qaradim...

– Shu yerda tunashga to'g'ri keladi, – dedi u o'ksinib. – Bunday bo'ronda dovon oshib bo'lmaydi. Hoy, Krestovayaga ko'chki tushganmi? – deb so'radi aravakashdan.

– Tushgani yo'q, janob, – javob berdi osetinlik aravakash, – ammo endi tushay deb turibdi.

Bekatta yo'lovchilar qo'nadigan joy bo'lmagani uchun bizni bir kavkazning tutun bosib ketgan uyiga joylashtirishdi. Men hamrohimni choyga taklif qildim. Kavkazni kezib yurganimda,

birdan-bir ovunchog'im bo'lgan cho'yan qumg'onim o'zim bilan birga edi.

Uyning bir tomoni tog' bag'riga yopishgan bo'lib, eshigiga uchta ho'l, sirpanchiq zinapoya bilan chiqilardi. Paypaslab ichkariga kirdim-da, bexosdan sigirga urilib ketdim (bu tomonlarda malayxona ham, og'ilxona ham bir bo'larkan). Qayoqqa oyoq bosishni bilmay qoldim. Bir yonimda qo'ylar ma'raydi, bir tomonimda it irillaydi. Yaxshiyam bir chekkada chiroq miltillab ko'rindi-yu, eshikka o'xshash bir tuynukni bazo'r topdim. Shunda juda ajoyib bir manzara namoyon bo'ldi: is bosib ketgan shiftini ikki ustun ko'tarib turgan kattagina uy odamga liq to'la edi. O'rtada charsillab gulxan yonar, mo'ridan shamol qaytarib urib turgan quyuq tutun hammayoqni shunday o'rab olgandiki, anchagacha hech narsani ko'rolmay turdim. Gulxanning oldida ikki kampir, birtalay bola-chaqa va ust-boshi juldur, oriqlik bir gruzin o'tirardi. Noiloj biz ham gulxan yoniga tiqilishdik, chubuqlik chekdik, birozdan keyin qumg'onimiz ham pishillay boshladi.

Qimir etmay bizga anqayib o'tirgan uy egalarini ko'rsatib, shtabs-kapitanga:

– Bechoralar! – dedim.

– Juda noshud xalq, – deb javob berdi hamrohim. – Xoh ishonang, xoh ishonmang, qo'llaridan hech narsa kelmaydi, ilm-ma'rifat o'rganishga sira uquvlari yo'qlik! Qobordin yoki chechenlar, garchi o'g'ri, yalangoyoqlik bo'lsalar-da, jasoratdan Xudo bergan, bular bo'lsa, hatto yarog'-aslahaning nimaligini ham bilishmaydi, birontasida tuzukroqlik xanjar ham ko'rmaysiz. Osetin deganlaricha bor-da!

– Chechenistonda ko'p turganmisiz?

– Ha, u yerdagi qal'ada o'n yilcha yashadim. – Kamenniy Brod degan joyning yonida, bilarsiz?

– Eshitganman.

– E, otaxon, bu kallakesarlar rosa bezorijon qilishardi-da, Xudoga shukur, hozir ancha tinchib qolishdi, ilgarilari tuproqlik qo'rg'ondan yuz qadam nariga siljiy olmasdik: albatta, biron yerda birorta paxmoqlik kalla poylab yotgan bo'lardi;

sal g'aflatda qoldingmi, yo bo'yningga sirtmoq tushardi, yo orqangdan o'q yerding. Juda azamat xalq!..

– Bundan chiqdi, ko'p narsani ko'rgan ekansiz-da! – dedim men biron qiziq voqea eshitish ilinjida.

– Nega ko'rmay! Ko'rganman... – dedi-da, chap mo'ylovini burab, boshini quyi solib, xayolga cho'mdi. Men undan biron voqea eshitishni istardim, bu istak barcha sayohatchi va xotiranavis odamlarga xos bir odat. Bu orada choy ham qaynadi, jomadonimdan ikkita safarga mo'ljallangan bordoq olib choy quydim-da, bittasini uning oldiga qo'ydim. Hamrohim choydan ho'plab, o'zicha: «Ha, ko'p narsa ko'rganman!» deb qo'ydi. Uning bu xitobi menda zo'r umid tug'dirdi. Men bilaman, ko'pdan beri Kavkazda turuvchilar suhbatni, hikoya aytib berishni yaxshi ko'rishadi, bunga ular kamdan kam muyassar bo'lishadi: shunday odamlar bo'ladiki, biron pastqam joyda rotasi bilan besh-olti yil tursa ham, «salom» deydigan odam topilmaydi (chunki feldfebel unga faqat salomat bo'ling, deydi). Ammo ularning dilida aytadigan gaplari bisyor, tevarak-atrofda qiziq, yovvoyi odamlar to'lib yotibdi, har kuni xavf-xatar kutadi, har xil qiziq voqealar bo'lib turadi, mana shunday paytlarda bizda xotiranavislarning kam bo'lganiga achinasan.

– Choyingizga jindek rom quyib beraymi? – dedim suhbatdoshimga. – Tiflisdan olgan oq romim bor, kun sovuqroq.

– Yo'q, rahmat, men ichmayman.

– Nega?

– Shunday. Ichmayman deb qasam ichganman. Podporuchiklik chog'imda bir marta ulfatlar bilan ichgan edim, birdan kechasi xavf-xatardan ogohlantiruv bo'lib qoldi, hammamiz shirakayf edik, shu holimizcha safga tizildik. Aleksey Petrovich buni bilib qolib, shunaqangi adabimizni berdiki, asti qo'yaverasiz, rosa jahli chiqdi. Sudga berishiga sal qoldi. Sirasini aytganda, yil bo'yi bironta odamni uchratmaysan, buning ustiga, aroq ichsang bormi, tamom bo'ldim deyaver!

Bu gapni eshitgach, umidim uzildi.

– Masalan, cherkaslarni oling, – deb so'zida davom etdi u. – To'ydami yo azadami, bo'zani o'lgudek ichib olishadi-

da, keyin bir-birlarini chavaqlay boshlashadi. Bir marta zo'rg'a qochib qutulganman, bo'lmasa, itoatli bir knyaznikida mehmonda edim.

– Nima voqea bo'lgan edi, o'zi?

– Men sizga aytsam (hamsuhbatim chubug'iga tamaki to'ldirdi-da, tutatib, hikoyasini boshladi), u kezlarda men Terekning narigi sohilidagi qal'ada rota bilan turardim, bunga yaqinda besh yil bo'ladi. Kuz kunlarining birida qal'aga oziq-ovqat ortilgan arava keldi. Unda yigirma beshlarga kirgan bir yosh ofitser ham bor edi. Ofitser rasmiy kiyimda huzurimga kirdi-da, qal'ada qolish haqida buyruq olganini bildirdi. U xipcha, nozik yuzli, oppoq mundiri shu qadar yangi ediki, uning Kavkazga yaqinda kelganini darhol angladim. «Bu yerga Rossiyadan yuborilgandirsiz?» deb so'ragan edim, u: «Shunday, janob shtabs-kapitan», deb javob berdi. Men uning qo'lidan ushlab: «Juda xursandman, juda xursandman. Bu yerda biroz zerikib ham qolarsiz, lekin xafa bo'lmang, inoq bo'lib yashaymiz. Meni to'g'ridan to'g'ri Maksim Maksimich deyavering, undan keyin, rasmiy kiyimda kelishning nima hojati bor? Oldinga kelganingizda faqat furajka kiyib kelsangiz, bas», dedim. Unga qal'adan xona ajratdik, joylashib oldi.

– Ismi nima edi? – deb so'radim Maksim Maksimichdan.

– Ismi... Grigoriy Aleksandrovich Pechorin edi. Juda yaxshi yigit bo'lib, men sizga aytsam, tabiati biroz g'alatiroq edi. Masalan, yomg'ir demay, sovuq demay, ertadan kechgacha ovda yurardi, hamma sovuqotib, o'lardek charchasa, unga hech narsa qilmasdi. Ammo, ba'zida uyiga kirib olardi-da, sal shamol esdi deguncha, shamollab qoldim derdi, darcha taqillab ketsa, bir seskanib, rangi bo'zdek oqarib ketardi, ammo to'ng'iz bilan yakkama-yakka olishganini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Ba'zi vaqtlar soatlab indamas edi, ba'zan esa, birdan gapga kirib ketdimi, bas, kulaverib ichaklaring uzilardi... Shunday, juda g'alati odam edi, undan keyin, o'zi ham juda badavlat bo'lsa kerak, qimmatbaho buyumlarining ko'pligini aytmaysizmi!..

– Siz bilan ko‘p turdimi? – deb so‘radim.

– Bir yilcha yashadi. Ammo, o‘sha yil sira esimdan chiqmaydi, juda ko‘p tashvish orttirdi boshimga, yigit tushmagur! Qiziq, dunyoda shunday odamlar borki, ularning boshiga turli-tuman ajoyib hangomalar tushajagi peshanalariga yozilgan bo‘ladi.

– Ajoyib hangomalar? – deb xitob qildim unga choy quyay ekanman, qiziqsinib.

– Men sizga aytib beray. Qal’adan olti chaqirimcha narida itoatli bir knyaz turardi. Uning o‘n besh yashar o‘g‘li bo‘lib, kunda yo uni deb, yo buni deb kelardi. Grigoriy Aleksandrovich ikkimiz uni juda erkalatib qo‘ygandik. O‘zi shunday abjir va kallakesar ediki, hamma ishni qoyil qilardi, otni choptirib ketayotib, yerdagi shapkani ilib olardi, yo bo‘lmasa, otda turib miltiq ham ota olardi. Uning bitta yomon odati bo‘lib, pulga nihoyatda o‘ch edi. Bir kuni Grigoriy Aleksandrovich hazillashib, otangning qo‘rasidan eng yaxshi serkani o‘g‘irlab kelsang, bir chervon beraman, deb qoldi, buni qarangki, ertasi kuni kechki payt serkaning shoxidan sudrab keldi. Ba‘zan biz uni gijgijlab qo‘yardik, shunda ko‘zlariga qon to‘lib, qo‘li darhol xanjarga yugurardi. «Hoy, Azamat, bir kunmas bir kun boshingni yeysan, ishing chatoq bo‘ladi!» derdim men.

Bir kuni kekxa knyazning o‘zi kelib, bizni to‘yga aytib ketdi: katta qizini uzatayotgan ekan, biz u bilan inoq edik, garchi tatar bo‘lsa-da, yo‘q deb bo‘lmasdi. Bordik. Ovulda bizni bir to‘da it hurib qarshi oldi. Xotin-qizlar bizni ko‘rib, yuzlarini berkitishdi, yuzlarini ko‘rganlarimizni esa, unchalik ham go‘zal deb bo‘lmasdi. «Cherkas ayollari juda chiroyli bo‘lsa kerak, deb o‘ylardim», – dedi Grigoriy Aleksandrovich. «Oshiqmang!» – dedim men kulib. O‘zimning o‘ylab qo‘yganim bor, edi-da.

Biz borsak, knyazning uyi odamga liq to‘la ekan. Osiyoliklarda nikoh to‘yiga butun ko‘cha-ko‘yni chaqirish odati bor. Bizni izzat-ikrom bilan kutib, mehmonxonaga olib kirishdi. Ammo men, har ehtimolga qarshi, otlarimizni qayerga bog‘lab qo‘yganlarini ko‘z ostiga olib qo‘yishni unutmadim.

– Ularda to‘y marosimi qanaqa bo‘larkan? – deb so‘radim hovliqib shtabs-kapitandan.

– Odatdagicha bo‘ladi. Oldin mulla Qur‘ondan oyatlar o‘qiydi, keyin kelin bilan kuyovga, ularning hamma qarindosh-urug‘lariga to‘yona beriladi, taom yeyishadi, bo‘za ichishadi, so‘ngra chavandozlik boshlanadi, shunda, albatta, oqsoq, qirchang‘i ot mingan juldur kiyimli bir kishi masxarabozlik qilib barchani kuldiradi, qorong‘i tushganidan keyin mehmonxonada bazm boshlanadi. Bir bechora mo‘ysafid uch torli cholg‘uni... hah, oti qursin, esimdan ham chiqibdi... bizning balalaykaga o‘xshagan bir cholg‘uni ting‘illatib o‘tiradi. Qizlar bir tomon, yigitlar bir tomon bo‘lib, chapak chalib lapar aytishadi. Oradan bir qiz bilan bir yigit chiqib, og‘izlariga kelgan narsani lapar qilib aytishadi, qolganlar ularga jo‘r bo‘ladi. Pechorin ikkimiz uyning to‘rida o‘tirgan edik, bir payt uy egasining o‘n olti yoshli kichik qizi uning oldiga kelib lapar aytib qoldi... Nima desam ekan, xushomad qilib qoldi-da.

– Nima deb lapar aytdi, esingizdami?

– «Yigitlarimiz navqiron, chakmonlariga kumush qadalgan, ammo yosh rus ofitseri esa, ulardan ham navqiron, uqalari tilladan. Yigitlarimiz orasida, go‘yo sarv, biroq u, bizning bog‘imizda o‘solmaydi ham, gullamaydi ham» deb aytdi, shekilli. Pechorin o‘rnidan turib, kaftini peshana va ko‘ksiga qo‘yib ta‘zim qildi-da, «Gapimni bunga tushuntirib bering», deb mendan iltimos qildi. Men ularning tilini juda yaxshi bilaman, Pechorinning gapini tarjima qilib berdim.

Qiz yonimizdan ketgach, Grigoriy Aleksandrovichning qulog‘iga: «Xo‘sh, qalay ekan?» deb shivirladim.

– Juda go‘zal ekan! – dedi u. – Ismi nima? – Ismi Bela, – deb javob berdim.

Qiz chindan ham go‘zal edi: baland bo‘yli, xipchadan kelgan, ko‘zlari ohuniki kabi qop-qora, xuddi yurakbag‘ringizga qarab turgandek. Pechorin xayolga cho‘mib, undan ko‘zini uzolmay termilib o‘tirardi, qiz ham unga tez-tez zimdan ko‘z tashlab qo‘yardi. Ammo qizga Pechorindan

boshqa mahliyo bo'lgan yana bir kishi bor edi: uyning bir burchagida o'tdek chaqnab turgan bir juft ko'z qizga tikilib turardi. Sinchiklab qarasam, u Kazbich degan eski tanishim ekan. Uni itoatli ham, itoatsiz ham deb bo'lmasdi. Garchi hech qanday yomonlik qilmasa-da, undan shubhamiz bor edi. Ba'zan qal'aga qo'y haydab kelib, savdolahib o'tirmasdan arzonga sotib ketardi, ammo o'ldirib yuborsang ham aytgan narxiga sotardi. Uni odamlar abrek¹ bilan birga Kuban daryosining narigi tomoniga o'tib qaroqchilik qiladi, deyishardi. Rostini aytganda, haqiqatan ham basharasi qaroqchiga o'xshardi. Pakana, qotmadan kelgan, keng yag'rinli yigit edi... Epchilligini aytmaysizmi, naq shaytonning o'zi deysiz, ammo quroli kumushdan bo'lardi. Tagidagi otining dovrug'i butun Qobordaga ketgandi, haqiqatan ham uning otidek ot hech qayerda topilmasdi. Unga hamma chavandozlarning havasi kelardi, ko'p odamlar o'g'irlab ketishga urinib ko'rishdi-yu, ammo uddasidan chiqisholmadi. Hozir ham ko'z oldimdan ketmaydi: o'zi qop-qora to'sdek edi, oyoqlari ingichka, ko'zlari Belaning ko'zlaridan qolishmasdi; baquvvatligini aytmaysizmi! Ellik chaqirimcha to'xtamay chopish cho't emasdi, egasiga shunday o'rgangan ediki, xuddi itdek ergashib yurardi, hatto uning ovozini ham tanirdi! Kazbich uni hecham bog'lamasdi. Egasiga munosib ot edi-da.

Bu kecha Kazbich odatdagidan ko'ra xafaroq edi, peshmati ichidan sovut kiyib olganini ham payqab qoldim. «Sovut kiyib olishi bejiz bo'lmasa kerak, bir niyati borga o'xshaydi» deb qo'ydim ichimda.

Uyning ichi juda dim bo'lib ketgandi, bir shamollab kelay, deb tashqariga chiqdim. Tog'larni tun qamragan, daralarni tuman bosgandi.

Otlarimizga yem berildimi, yo'qmi, shuni bilmoqchi bo'lib bostirmaga kirdim, har holda, ehtiyotkorlik zarar qilmaydi, chunki mening otim ham juda yaxshi ot edi, ko'p qobordinlar otimga suqlanib qarar va «yakshi txe, chok yakshi!» deyishardi.

¹ *Abrek* — dovyurakligi bilan dong taratgan tog'liklar.

Devor tagidan o'tayotib, birdan ikki kishining tovushini eshitib qoldim, ovozlardan birini darhol tanidim: u mezbonimizning o'g'li sayoq Azamat edi, boshqa ovoz esa past bo'lib, ahyon-ahyonda eshitalardi. «Ular nima haqida gapirishayotibdi ekan? – deb hayron bo'ldim, – tag'in mening otim haqida bo'lmasin?» Sekin devorning tagiga o'tirdim-da, boshdan oyoq eshitish maqsadida gaplariga diqqat bilan quloq soldim. Ba'zan uydan chiqqan ashula va gurunglar meni qiziqtirgan suhbatni bosib ketardi.

«Juda ajoyib oting bor-da, – derdi Azamat. – Agar uyning xo'jayini men bo'lsam-u, uch yuzta biyam bo'lganida, yarmini chopqir otingga alishardim, Kazbich!»

«E, Kazbich ekan-ku!» dedim ichimda va birdan ustidagi sovuti esimga tushdi.

«Rost, – deb javob berdi Kazbich biroz jim turgach, – butun Qobordada bunaqa otni topolmaysan, bir marta abrek-lar bilan birga ruslarning yilqilarini talash uchun Terekning narigi tomoniga o'tdik, omadimiz kelmadi, hammamiz har qayoqqa to'zg'ib ketdik. To'rtta kazak otda ortimdan quvib qoldi, kofirlar hayqirishib menga yetay deyishganida, birdan oldimdan qalin o'rmon chiqib qoldi. Egarga yotib oldim-da, o'zimni Yaratganga topshirib, umrimda birinchi marta otimga qamchi urdim, uni haqorat qilganim ham shu edi. Otim daraxtlarning orasiga qushdek sho'ng'ib kirib ketdi, daraxtlarning o'tkir tikanlari ust-boshimni dabdala qilib yubordi, qayrag'ochlarning quruq shoxlari yuzlarimni timdaladi. Otim to'nkalarining ustidan sakrab, butalarni ko'kragi bilan yorib o'tardi. Aslida, otimni o'rmon yoqasiga tashlab, o'zim o'rmon ichiga yashirinsam bo'lardi-yu, ammo otimni ko'zim qiymadi, shuning uchun avliyolar qo'llab yubordi, deyman-da. Boshimning ustidan bir necha marta o'q vizillab o'tdi; kazaklarning otdan tushib ortimdan quvib kelishlari aniq eshitalardi... Birdan oldimdan chuqur zovur chiqib qolsa bo'ladimi! Chopqirim bir lahza turib qoldi-yu, keyin dadil sakradi. Keyingi oyoqlari sirg'anib ketib, oldingi oyoqlari bilan zovur chetiga osilib qoldi. Jilovni qo'-

yib yuborib, o'zim jarga uchib tushdim, otimni shu saqlab qoldi: u bir sakrab tepaga chiqib oldi. Kazaklar buni ko'rib turishardi, ammo birortasi ham jarga tushib meni qidirmadi; meni o'ldi, deb o'ylashgan bo'lsa kerak-da; otimning ortidan quvib ketganlarini eshitib yotardim. Yurak-bag'rim qon bo'lib ketdi. Jar yoqasidagi qalin o'tlar orasidan emaklab ketdim, qarasam, o'rmon tugab qolgan ekan, o'rmonning ichidan bir nechta otliq kazak yalanglikka chiqib kelayotibdi, mening Qorako'zim ham ularning oldidan chiqib qolsa bo'ladimi, kazaklar hayqirib uning ketidan quvib qolishdi, anchagacha quvib yurishdi, ayniqsa, bir kazak otimning bo'yniga sirtmoq tashlab ushlab olishiga sal qoldi, titrab ketdim-da, ko'zlarimni chirt yumib, duo o'qiy boshladim. Bir necha daqiqadan keyin ko'zimni ochib qarasam, Qorako'zim dumini ko'tarib, xuddi yeldek uchib yuribdi, kofirlar esa yiroq dashtda horg'in otlarini lo'killatib, ketma-ket chizilishib chopishmoqda. Xudo haqi, rost! Yarim kechagacha jordan chiqmay o'tirdim. Bunisiga nima deysan, Azamat, bir mahal qarasam, qorong'ida jar yoqasida bir ot kishnab, yer tepinib yuribdi. Qorako'zimni ovoizidan tanidim, u mening o'sha yo'ldoshim edi!.. O'sha-o'sha bir-birimizdan sira ajralmaymiz».

Kazbich o'z arg'umog'ining ipakdek bo'yniga shapatilab, har xil nozik ismlar bilan erkalatgani eshitildi.

– Mingta biyam bo'lganida, hammasini Qorako'zingga alishardim, – dedi Azamat.

– Yo'q, alishmayman, – deb javob berdi Kazbich loqaydlik bilan.

– Menga qara, Kazbich, – derdi Azamat unga erkalik qilib, – o'zing rahmdil odamsan, mard yigitsan, otam ruslardan qo'rqib, meni toqqa chiqarmaydi, otingni menga bersang, aytganingni qilaman, otamning eng yaxshi miltig'i yo qilichini o'g'irlab beraman, nima desang, shuni keltirib beraman, otamning qilichi asl po'latdan ishlangan bo'lib, damini qo'lingga tegizsang, botib ketaveradigan, uning sovuti oldida seniki uch pulga arzimaydi.

Kazbich indamasdi.

– Otingni, – deb davom etardi Azamat, – ostingda burunlarini kerib pishqirib o'ynoqlaganini, oyoqlari ostidan toshlar otib yurganini ko'rib, ko'nglim bir xil bo'lib ketgan edi, o'shandan beri ko'zimga hech narsa ko'rinmaydi. Otamning eng chopqir otlariga ham qaragim kelmaydi, ularni minib chiqishga ham uyalaman, yurak-bag'rim qon bo'lib ketdi. Yuragim qayg'uga to'lganidan kun bo'yi toqqa chiqib hasrat chekib o'tiraman, chiroyli qadam tashlab yuruvchi, sag'risi o'q yoyidek tekis chopqiring sira ko'z oldimdan ketmaydi, xuddi menga bir narsa demoqchidek, sho'x ko'zlarini javdiratib, ko'zimga qarab turgandek bo'ladi. Kazbich, agar otingni menga sotmasang, o'laman! – dedi Azamat titroq tovush bilan.

Ovozi menga xuddi yig'lagandek bo'lib eshitildi. Shuni ham aytish kerakki, Azamat juda o'jar bola edi, kichkinaligida ham uni hech yig'latib bo'lmasdi.

Uning ko'z yoshlariga javoban kulgi eshitildi.

– Menga qara, – dedi Azamat shiddatli tovush bilan. – Ko'rib turibsanki, men hech narsadan toymayman. Xohlasang, opamni olib qochib, keltirib beray. Uning raqsga tushishini ko'rsang, ashulalarini eshitsang! Zar bilan kashta tikishlarini aytmaysanmi! Turk podshosining ham bunday xotini bo'lgan emas... Bo'ptimi? Ertaga kechasi dara ichidagi soy bo'yida kutib tursang, opam bilan birga narigi ovulga o'tib ketayotgan bo'laman-u, opam seniki bo'ladi, vassalom. Nahotki Bela sening chopqiringga arzimasa?

Kazbich anchagacha indamay turdi, axiyri javob o'rniga qadimgi ashulani xirgoyi qila boshladi¹:

*Ovulimizda ko'p go'zal dildorlar,
Qora ko'zlarida yulduzlar porlar.
Ularni sevigilik xo'p yaxshi ishdir,
Yoshlik erkinligi undan ham xushdir.*

¹ Kazbichning menga nasr bilan aytib bergan ashulasini she'rga solganim uchun o'quvchidan afv so'rayman; na iloj; odat – ikkinchi mijoz deyдилar (muallifning izohi).

*To'rt xotinni sotib oladi tillo,
Chopqir tulpor ot-chi, erur bebaho.
Unga cho'l shamoli tenglasha bilmas,
U hech vaqt aldamas, xiyonat qilmas'.*

Azamat anchagacha Kazbichni ko'ndirishga urindi, yig'ladi-siqtadi, xushomad ham qilib ko'rdi, ont ham ichdi, bo'lmadi, oxiri Kazbich toqatsizlanib, uning so'zini bo'ldi:

– Nari tur, tentak! Otimni minishga senga yo'l bo'lsin! Uch qadam bosishi bilan, seni bir uloqtirib tashlaydiki, kallang toshga tegib tars yoriladi.

– Meni-ya? – g'azab bilan qichqirdi Azamat, keyin kichkina xanjarning sovutga tegib jaranglagani eshitildi. Kuchli qo'l uni bir itarib yuborgan edi, bola chetan devorga borib shunday urildiki, devor lapanglab ketdi. «Toza tomosha bo'ladigan bo'ldi-ku!» dedim ichimda va yugurib otxonaga kirdim-da, otlarimizni yuganlab, orqa hovliga yetaklab chiqdim. Ikki daqiqa o'tmasdan, uyning ichi ostin-ustun bo'lib ketdi. Voqea bunday bo'lgan ekan, Azamat peshmati yirtilgan holda uyga yugurib kiribdi-da, Kazbich meni so'ymoqchi bo'ldi, deb baqiribdi. O'tirganlar joylaridan irg'ib turib, qo'llariga miltiq olib chiqishibdi, shundan keyin to's-to'polon boshlanib ketdi! Qiy-chuv, otishma boshlandi, Kazbich otini minib, ko'chada, odamlar o'rtasida qilichini o'ynatib, gir-gir aylanardi. «To'y azaga aylanib ketmasaydi, – dedim men Grigoriy Aleksandrovichning yengidan ushlab, – yaxshisi, vaqt g'animat bo'lganida keta qolmaymizmi?»

– Shoshmang, oqibati nima bo'larkin, – dedi u.

– Nima bo'lardi, yomon bo'ladi, osiyoliklar hamisha shunaqa, bo'za ichib olishdimi, pichoqbozlik boshlanadi! – Otimizga minib, uyga qaytdik.

Men toqatsizlanib:

– Kazbich nima bo'ldi? – deb so'radim shtabs-kapitandan.

– Unaqangi odamga jin ham urmaydi! – deb javob berdi u choyini ichib bo'lib. – Qochib qutulib ketdi!

– Yarador ham bo'lmadimi? – deb so'radim.

¹ Asardagi she'rlarni R. Komilov tarjima qilgan.

– Xudo biladi! Bu kallakesarlarning joni qattiq bo'ladi! Janglarda ularning ko'pini ko'rganman: hammayog'iga nayza tegib ilma-teshik bo'lsa ham, qilichini o'ynatgani o'ynatgan. – Birmuncha sukunatdan keyin shtabs-kapitan yer tepinib, davom etdi:

– Umr bo'yi bir gunohimni kechira olmayman. Meni shayton yo'ldan uribdi-yu, devorning tagida o'tirib eshitgan hamma gapni qal'aga qaytganimizdan keyin Grigoriy Aleksandrovichga aytib beribman-da! U mug'ambir ham bir kulib qo'ydi, ammo ko'ngliga bir narsani tugib qo'ygan ekan.

– Nimani? Aytib bering, endi buyog'ini ham.

– Nachora, gapni boshlagandan keyin davomini ham aytish kerak.

Uch-to'rt kundan keyin qal'aga Azamat kelib qoldi. Grigoriy Aleksandrovich odati bo'yicha uni doim xilma-xil shirinliklar bilan siylab turguvchi edi. Men ham o'sha yerda edim. Gap tulpor ustida borardi, Pechorin Kazbichning otini maqtay ketdi. Kazbichning oti chopqir, kiyikdek chiroyli deya boshladi, xullas, uning gapiga qaraganda, dunyoda uningdek tulpor yo'q edi.

Tatarvachchaning ko'zlari chaqnab ketdi. Pechorin esa o'zini bilmaslikka oldi, men gapni boshqa yoqqa bursam, u yana Kazbichning otidan boshlayverdi. Azamat qachon biznikiga kelsa, shu haqda gapiraveradi. Uch haftalardan keyin qarasam, xuddi romanlardagi singari Azamatning yuzlari sarg'ayib, o'zini oldirib qo'yibdi. «Nima bo'ldiykin?» deb ajablandim...

Bu voqeani keyin payqab qoldim: Grigoriy Aleksandrovich uni shunday darajaga oborib qo'ydiki, bola bechora o'zini suvga tashlashdan ham toymaydigan bo'lib qoldi. Bir kuni Grigoriy Aleksandrovich unga:

– O'sha ot senga yo'l bo'lsin! Ayt-chi, o'sha otni olib bergan odamga nima bergan bo'larding? – deb qoldi-ku.

– Istagan narsasini, – deb javob berdi Azamat.

– Unday bo'lsa, otni senga men olib beraman, ammo buning bir sharti bor... «Bajaraman», deb ont ichasan...

– Ont ichaman... Sen ham ont ich!

– Bo‘pti! O‘sha ot seniki bo‘ladi deb ont ichaman, ammo evaziga menga opang Belani berasan. Qorako‘z uning qalini bo‘ladi. Ishonamanki, bu savdo senga foydali bo‘ladi.

Azamat indamay turardi.

– Istamaysanmi? Unda mayli! Men seni yigit desam, yosh bola ekansan, ot minishga hali yoshlik qilasan...

Azamat qizarib ketdi.

– Otam bor-ku! – dedi u.

– Otang u yoq-bu yoqlarga yurmaydimi?

– Rostdan ham.

– Rozimisan?

– Roziman, – deb shivirladi Azamat yuzi bo‘zdek oqarib. – Qachon endi?

– Qachon Kazbich kelsa – shunda. «O‘nta qo‘y haydab kelaman», deb va‘da bergan, u yog‘i mening ishim. Ammo lafzdan qaytish yo‘q, Azamat!

Shunday qilib, ikkovining ham savdolari pishdi... Rostini aytganda, yaxshi ish bo‘lmadi! Keyinchalik men Pechoringa buni aytdim ham. Shunda u, yovvoyi cherkas qizi mendek xushqomat yigitga tegib, qaytaga baxtli bo‘lishi kerak, negaki, har holda, men unga er bo‘laman, Kazbich esa bir qaroqchi, uning jazosini berish kerak, dedi. O‘zingiz o‘ylab ko‘ring, men bunga nima ham deya olardim? Ammo, u vaqtda men ularning til biriktirishganidan bexabar edim. Kunlardan bir kuni Kazbich kelib qoldi-da, qo‘y, asal kerak emasmi, deb so‘radi, ertaga keltir, deb tayinladim. «Azamat! – dedi Grigoriy Aleksandrovich, – ertaga Qorako‘z mening qo‘limda bo‘ladi, bugun kechasi Bela shu yerda bo‘lmasa – tulpor bilan xayrlashaver...»

– Bo‘pti! – dedi Azamat va ovulga ot choptirib ketdi.

Kechqurun Grigoriy Aleksandrovich qurol-yarog‘ini taqib qal‘adan chiqib ketdi: ishni qanday bitirishdi – bilmayman, ammo yarim kechada ikkovi qaytib keldi. Azamat otiga oyoq-qo‘llari bog‘langan, boshi chodra bilan o‘ralgan bir ayolni o‘ngarib kelganini soqchi ko‘ribdi.

– Ot-chi, ot nima bo‘ldi? – deb so‘radim shtabs-kapitandan.

– Hozir, hozir. Ertasiga ertalab Kazbich o‘nta qo‘yni haydab keldi. Otini devorning yoniga bog‘ladi-da, mening oldimga kirdi. Oldiga choy qo‘ydim, garchi qaroqchi bo‘lsa ham, mehmonim edi-da.

Ikkimiz u yoq-bu yoqdan gaplashib o‘tirdik... Birdan qarasam, Kazbich bir seskanib tushdi, yuzi bo‘zdek oqarib ketdi-da, deraza tomonga qarab otildi, baxtga qarshi deraza uyning orqa tomoniga qaragandi. «Senga nima bo‘ldi?» – deb so‘radim.

– Otim! Otim! – dedi Kazbich titrab-qaqshab.

Chindan ham qulog‘imga ot dupuri eshitildi. Bitta-yarimta kazak kelgandir, dedim.

«Yo‘q! O‘rus yomon, o‘rus yomon!» – deb baqirib yubordi Kazbich va tashqariga otildi. Ikki hatlab hovliga chiqdi, qal‘a darvozasida turgan soqchi miltiq bilan yo‘lini to‘sgan edi, Kazbich uning ustidan hatlab o‘tdi-da, yo‘ldan yugurib ketdi... Yiroqda chang ko‘rinardi. Azamat Qorako‘zni choptirib ketmoqda edi, Kazbich yo‘l-yo‘lakay miltig‘ini g‘ilofidan olib, o‘q uzdi. Bir daqiqacha qimir etmay turdi, keyin o‘qning xato ketganini bilib, chinqirib yubordi, miltiqni toshga urib chil-chil sindirdi-da, yerga yotib, yosh boladek ho‘ngrab yig‘lab yubordi. Qal‘adan odamlar chiqib, atrofini o‘rab olishdi, ammo uning ko‘ziga hech narsa ko‘rinmasdi. Odamlar biroz gaplashib turib, tarqalishdi; men qo‘ylarning pulini Kazbichga oborib beringlar, deb buyurdim, u pulga ham qaramadi, xuddi o‘likdek mukkasidan tushib, qimirlamay yotaverdi. Xoh ishonimg, xoh ishonmang, ertalabgacha qimirlamay yotdi... Ertasiga ertalab qal‘aga keldi-da, otimni kim o‘g‘irlaganini aytinglar, deb yalindi. Azamatning otni yechib, minib ketganini ko‘rib turgan soqchi bilganlarini yashirmadi. Azamat ismini eshitishi hamon, Kazbichning ko‘zlari chaq nab ketdi va u otasi bilan turgan ovulga qarab jo‘nadi.

– Azamatning otasi nima bo‘ldi?

– Hamma gap shunda-da. Kazbich uning otasini topolmabdi. U besh-olti kunga allaqayoqqa ketgan ekan, bo‘lmasa, Azamat opasini o‘g‘irlab qocha olarmidi?

Otasi qaytib kelsa, uyda na qizi bor va na o'g'li. Azamat nihoyatda mug'ambir bola edi. Qo'lga tushsa, kallasidan ajralishini bilardi. O'sha-o'sha dom-daraksiz ketdi, biron abrekklar to'dasiga qo'shilib, Terekningmi yo Kubanningmi narigi tarafida boshidan ajralgandir-da, battar bo'lsin!

Rostini aysam, mening ham boshimga ko'p savdolar tushdi. Cherkas qizi Grigoriy Aleksandrovichning uyida ekanligini eshitgan zahotim, zar pogonlarim va qilichimni taqib, uning uyiga chiqdim.

Grigoriy Aleksandrovich o'rinda bir qo'lini boshi ostiga qo'yib, bir qo'lida o'chib qolgan chubug'ini ushlab yotardi, ichkari uyning eshigi qulf, zulfida kalit ko'rinmas edi. Buni men bir qarashdayoq payqadim... Men jo'rttaga yo'tala boshladim, ostonani tepib ham ko'rdim, u o'zini eshitmaganga solib yotaverdi.

– Janob praporshik! – dedim men tovushimni imkon qadar shiddatliroq qilib. – Kelganimni ko'rmayapsizmi?

– E, salom, Maksim Maksimich! Chubuq chekasizmi? – dedi u boshini ko'tarmasdan.

– Kechirasiz. Men Maksim Maksimich emas, shtabskapitanman.

– Farqi yo'q. Choyga qalaysiz? Boshimga qanday tashvish tushganini bilsangiz edi!

– Hammasidan xabarim bor, – dedim karavotga yaqinlashib.

– Yana ham yaxshi, aytib o'tirishga hushim yo'qroq edi.

– Janob praporshik, qilgan ishingizga men ham javobgar bo'lishim mumkin...

– Qo'ysangiz-chi! Shunga ham ota go'ri qozixonami? Axir, anchadan buyon hamma ishimiz sherikchilik-ku!

– Bu hazilingiz nimasi? Marhamat qilib, qilichingizni topshiring!

– Mitka, qilichni keltir!..

Mitka qilichni keltirib berdi. Men o'z burchimni ado etgach, karavotga o'tirdim-da:

– Menga qara, Grigoriy Aleksandrovich, yomon ish qilib qo'yganingni bo'yningga ol, – dedim.

– Qanday yomon ish qilibman?

– Belani olib qochganing... Azamat ham muttaham! Bo'yningga ol.

– Ha, axir, yaxshi ko'rsam nima qilay?

Shundan keyin nima ham deya olardingiz? Xonaga sukunat cho'kdi. Ammo biroz jim o'tirganimdan so'ng, otasi talab qilsa, qaytarib berish kerakligini aytdim.

– Qaytarib berishning hojati yo'q!

– Qizining bu yerdaligini bilib qolsa-chi?

– Qayoqdan biladi?

Men yana indayolmay qoldim. «Menga qarang, Maksim Maksimich! – dedi Pechorin boshini yostiqdand ko'tarib, – o'zingizdan o'tar gap yo'q, basharti qizni vahshiy otasiga qaytarib bersak, yo bo'g'izlab o'ldiradi, yo birovga sotib yuboradi. Bo'lar ish bo'ldi, endi ishni buzishning nima keragi bor, qiz menda-yu, qilich sizda qolsin...»

– Hech bo'lmasa, uni menga bir ko'rsating, – dedim men.

– Anavi eshikning orqasida o'tiribdi, – dedi u. Bugun o'zim ham bir ko'ray, deb shuncha urindim, iloji bo'lmadi, bir burchakda chodraga o'ralib olgan, qaramaydi, gapirmaydi, ohudek hurkovich. Qovoqxona egasining xotinini yolladim: u tatar tilini ham biladi, xizmatini ham qiladi, uning meniki ekanligini ham qulog'iga quyadi, chunki mendan boshqa hech kimsaga tegolmaydi. – Keyin Pechorin mushti bilan stolni bir urdi. – Bunga ham ko'ndim... Nima ham qila olardim? Shunday odamlar bo'lar ekanki, ularning gapiga rozi bo'lmay, sira ilojing yo'q.

– U yog'i nima bo'ldi endi? – deb so'radim Maksim Maksimichdan. – Haqiqatan ham Pechorin uni o'ziga o'rgatib oldimi, yo qiz tutqunlikda yurtini sog'ina-sog'ina so'ldimi?

– Yo'g'-e, nega yurtini sog'inarkan? Uning ovulidan ko'rinadigan tog'lar qal'adan ham ko'rinib turardi, bu yovvoyilarga shundan boshqa hech narsaning keragi yo'q. Undan keyin, Grigoriy Aleksandrovich har kuni unga sovg'a berib turardi. Dastlabki kunlari qiz sovg'alarni pisand etmay rad qilardi, hammasi oqsoch ayolga qolardi, bu esa, uning tilini yanada burrolashtirardi. Eh, hadyalar, hadyalar! Bir parcha chiroyli guldor latta deb, xotin kishi nimalar qilmaydi! Ha,

mayli, buni bir yoqqa qo'ya turaylik... Grigoriy Aleksandrovich u bilan uzoq vaqt olishdi, bu orada tatar tilini ham o'rganib oldi, qiz ham bizning tilimizga tushuna boshladi. Bora-bora Grigoriy Aleksandrovichga ko'z qirini tashlab, zimdan qarab qo'yadigan bo'ldi, nuqul hasrat chekib, o'zi bilgan ashulalarni xirgoyi qilib o'tirardi, narigi uyda o'tirib eshitib qolsam, yuragim ezilardi. Bir hodisa sira ham yodimdan chiqmaydi. Uyning yonidan o'tib ketayotib, derazaga qaradim, Bela so'rida boshini egib o'tirardi. Grigoriy Aleksandrovich esa, uning qarshisida turardi. «Menga qara, farishtaginam, – derdi Grigoriy Aleksandrovich unga. – Ertami, kechmi, axir meniki bo'lishingni o'zing ham bilasan-ku, nega endi bunchalik qiynaysan? Yo biron chechenga ko'ngil ko'yganmisan? Unday bo'lsa, hoziroq uyingga qaytarib yuboraman». Bela bir seskanib tushdi-da, boshini chayqadi. «Yo, mendan hazar qilasanmi?» – deb davom etdi Grigoriy Aleksandrovich. Bela bir xo'rsindi. «Yoki dining meni sevishingga yo'l qo'ymaydimi?» Belaning rangi o'chdi, ammo churq etmay o'tirardi. «Ishon gapimga, barchaning Xudosi bitta, menga seni sevishga yo'l qo'ysa, nega endi senga yo'l qo'ymas ekan?» Bela xuddi bu yangi fikrdan ajablangandek, uning yuziga yalt etib qaradi, qizning ko'zlarida shubha, shu bilan birga, bu gapga ishonish istagi porlar edi. Oh, u ko'zlarni aytmailsizmi! Xuddi bir juft cho'g'dek yonib turardi.

«Menga qara, go'zalim, azizam Bela! – deb davom etardi Pechorin. – Seni qanchalar sevishimni ko'rib turibsan, bir kulib qarashing uchun hech narsani ayamayman, vaqtingni xush qilish uchun har narsaga tayyorman, baxtli bo'lishingni istayman, agar sen yana qayg'uga botsang – men o'laman. Ayt-chi, ochilib o'tirasanmi?» Bela qop-qora ko'zlarini undan uzmay o'ylanib qoldi, keyin erkalanib jilmaydi-da, boshini egib rozilik bildirdi. Pechorin uning qo'lidan ushlab, «Meni bir o'pgin», deb yalina boshladi, qiz o'zini ojizlik bilan himoya qilar va nuqul: «Yo'q, yo'q, qo'ying», derdi. Pechorin «Aytganimni qilasan», deb turib oldi, Belani titroq bosib, yig'lab yubordi. «Men sening cho'ringman, asirangman, – derdi u. – Meni zo'rlashga kuching yetadi, albatta», deb yana ko'z yoshi qila boshladi.

Grigoriy Aleksandrovich peshanasiga bir musht urdi-da, narigi uyga chiqib ketdi. Men uning oldiga kirdim, u ikki qo'lini qovushtirib, qovoqlarini solgan holda uy ichida kezib yurardi. «Xo'sh, ishlar qalay, otaxonim?» – dedim men unga. «Xotin emas, iblis ekan! – deb javob berdi Pechorin. – Ammo, sizga ont ichib aytamanki, menga tegmasa – otimni boshqa qo'yaman». Men bosh chayqadim. «Garov bog'lashasizmi? – dedi menga qarab. – Bir haftadan so'ng!» «Bo'pti!» Qo'l siqishib xayrlashdik.

Ertasi kuni ertalab, Pechorin sovg'alar olib kelish uchun Kizlyar shahriga odam yubordi, juda ko'p turli xil eron matolari keltirildi, mollarning son-sanog'i yo'q edi.

«Qalay, Maksim Maksimich, osiyolik go'zal mana bu narsalarga dosh berolarmikan?» – deb so'radi Pechorin matolarni ko'rsatib. «Siz cherkas qizlarini bilmas ekansiz, – dedim men. – Ular gurji qizlariga ham, Kavkazorti tatar qizlariga ham o'xshamaydi, butunlay boshqacha. Odatlari ham boshqacha, boshqacha tarbiya ko'rishgan». Grigoriy Aleksandrovich kulimsirab qo'ydi-da, hushtak bilan marsh chala boshladi.

Xuddi mening aytganim bo'ldi, sovg'alar qizga uncha ta'sir qilmadi, qiz unga mehribonroq va ishonqirab qaray boshladi, xolos, undan nari o'tmadi: shundan keyin Pechorin eng oxirgi chorani qo'llab ko'rmoqchi bo'ldi. Bir kuni ertalab otini egarlatdi-da, cherkascha kiyinib, qurollanib Belaning oldiga kirdi. «Bela! – dedi qizga, – seni naqadar sevishimni o'zing yaxshi bilasan. Meni yaqindan tanib, keyin yaxshi ko'rib ketarsan deb, seni olib qochgandim, ammo men yanglishgan ekanman, xayr endi! Hamma bisot va mulkimni senga tashlab ketaman, istasang – otangning uyiga qayt, ixtiyor o'zingda. Oldingda gunohkorman, shuning uchun o'zimni jazolashim kerak. Xayr, men ketdim, ammo qayergaligini o'zim ham bilmayman! Balki, baxtim yurishib, biron daydi o'q yoki qilichning tig'iga duchor bo'larman, o'shanda meni eslarsan va gunohimdan o'tarsan», – dedi-da, yuzini teskari o'girib, xayrlashgani qo'l uzatdi. Bela uning qo'lini olmasdan, jim o'tirardi. Men eshikning orqasida, tirqishdan qizning yuzini ko'rib turardim. Juda rahmim keldi, chunki bechoraning

go'zal chehrasi bo'zdek oqarib ketgandi! Javob bo'lmagach, Pechorin eshikka qarab bir necha qadam yurdi, u dir-dir titrardi, rostini aytganda, hazil qilib aytgan gapini amalga oshirishdan toymasdi ham. Shunaqa odam edi o'zi! Endi eshik bandini ushlagan ham ediki, Bela irg'ib o'rnidan turdida, ho'ngraganicha uning bo'yniga osildi. Xoh ishonimg, xoh ishonmang, buni ko'rib men ham yig'lab yubordim, yig'laganim yo'g'-u, shunday...

Shtabs-kapitan jim qoldi.

– Rostini aytsam, hech qachon birorta ayol meni shunchalik sevmagani alam qildi, – dedi mo'ylovini burab.

– Ularning baxtiyor hayoti uzoqqa cho'zildimi? – deb so'radim men.

– Ha, Bela keyin bizga, «Pechorinni birinchi ko'rgan kunimdan boshlaboq, har kecha tushimga kirib chiqardi, hech kim menga bunchalik yoqmagan edi», deb iqrar bo'ldi. Rost, ular juda baxtli edilar!

– E, buyog'i qiziq emas ekan-da! – deb yubordim beixtiyor. – Darhaqiqat, bu voqea fojia bilan tugasa kerak deb o'ylagandim, birdan umidim puchga chiqdi!.. – Nahotki, ota qizining qal'ada ekanligini bilmadi? – deb davom etdim.

– Bilishga-ku, bilgan-a, ammo bir necha kundan keyin cholni o'ldirib ketishibdi, deb eshitdik. Voqea bunday bo'lgan...

Yana quloqlarim dikkaydi.

– Shuni aytish kerakki, Kazbich otimni Azamat otasining maslahati bilan o'g'irlagan, deb o'ylagan ekan. Har holda, men shunday deb taxmin qilaman. Bir kuni Kazbich ovuldan uch chaqirimcha narida, yo'l yoqasida poylab yotibdi, chol qizini qidira-qidira topolmay qaytib kelayotgan ekan. Knyazning mahramlari orqada qolishgan, kech kirib, qosh qoraygan paytda knyaz otini sekin yo'rttirib, xayolga g'arq bo'lib kelayotgan ekan, birdan Kazbich chakalakzorning ichidan qoplondek irg'ib chiqib, otiga mingashib olgan-u, xanjar urib yerga yiqitgan, keyin otning jilovini qo'liga olib, ura qochgan. Knyaz mahramlaridan ba'zilar buni tepalikdan ko'rib qolib, uning ortidan quvishgan bo'lsalar-da, yeta olishmagan.

– Otining o‘rniga ot olib, ortidan o‘ch ham olibdi-da, – dedim men shtabs-kapitanning fikrini bilmoq uchun.

– Albatta, ularning odatiga qaraganda, Kazbich tamoman haqli edi, – dedi shtabs-kapitan.

O‘zga xalqlar orasida turishga majbur bo‘lgan rus kishisining shu xalq rasm-odatlariga tezda ko‘nikib ketish qobiliyati meni beixtiyor hayratda qoldirdi; bu xislatning yaxshi yoki yomon ekanligini bilmayman, ammo bu xislat, ruslarda g‘oyat epchillik va sog‘lom fikr borligini, zarur bo‘lgan paytlarda va daf qilishning iloji bo‘lmagan taqdirda, har qanday yovuzlikni kechira olishlarini ko‘rsatadi.

Bu orada choy ham ichib bo‘lindi, arava qo‘shilgan otlar anchadan buyon sovuqda diydirdashardi. G‘arb tomonga og‘gan oy ancha xiralashib qolgan va yiroqdagi tog‘ cho‘qqilari tepasida, xuddi yirtib tashlangan chodirga o‘xshagan qora bulutlar orasiga kiraymi, kirmaymi deb turardi. Biz uydan chiqdik. Hamrohimning karomatiga qarshi, havo ochilib ketdi, tong ham sokin bo‘ladigan ko‘rinardi. Osmonning yiroq ufqidagi lak-lak yulduzlar chamandek charaqlardi, beg‘ubor qor qatlamlari qamrab yotgan tog‘ bag‘irlarini qizartirib, sharq tomondan shafaq yoyilgan sari, yulduzlar ham birin-ketin so‘nib borardi. O‘ng va chap tomonimizda sirli, mudhish jarlar qorayib ko‘rinardi, tuman xuddi kun yorishishini sezgan va undan qo‘rqqandek g‘adir-budur qoyalarga ilashib, ilondek buralib-buralib, jarliklarga kirib borardi.

Ertalabki ibodat vaqtida inson qalbi qanday sokin bo‘lsa, osmon ham, yer ham shunday sokin edi: ahyon-ahyonda sharq tomondan esgan yengil shabada, otlarning qirov bosgan yollarini yelpib-yelpib qo‘yar edi. Biz yo‘lga tushdik. Besh nafar qirchang‘i ot aravamizni qing‘ir-qiyshiq yo‘ldan, Gud-Tog‘ga zo‘rg‘a sudrab chiqardi, o‘zimiz aravaning ortidan piyoda borar va otlar holdan toygan paytlarda g‘ildirak tagiga tosh qistirib qo‘yar edik. Nazarimda, yo‘l xuddi osmonga chiqib ketayotgandek tuyulardi, chunki qancha tikilib qaramay, hamon balandga ko‘tarilib borar va oxiri kuni kecha Gud-Tog‘ tepasida, xuddi o‘lja kutib o‘tirgan

kalxatga o'xshab ko'ringan qop-qora bulut ichiga kirib, ko'zdan g'oyib bo'lardi, oyog'imiz ostida qor g'ichirladi. Havo shu qadar siyraklashib borar ediki, zo'rg'a nafas olardik; qon hadeb boshga quyulib kelaverardi, ammo shu bilan birga, tomirlarimga allaqanday shodlik tuyg'ulari yoyilib, butun olamning tepasiga chiqib olganim uchun vaqtim xush bo'lgandi: to'g'ri, bu his bolalarga xos edi, negadir, jamiyatdan yiroqlashgan va tabiatga yaqinlashganimiz sari, o'zimiz ham beixtiyor bolalarga o'xshab qolamiz, dilimizdagi barcha tashvishlar yo'qoladi, bir vaqtlardagidek yana poklashadi va kelajakda ham shunday bo'lsa kerak, albatta. Menga o'xshab tog'-u toshlarni kezib, ajoyib va g'aroyib manzaralarni ko'rib yurgan, tog'lar hamda daralardan anqigan hayotbaxsh havoni suqlanib-suqlanib yutishga o'rgangan odam, mening bu sehrli manzaralarni aytib berishga va tasvirlashga bo'lgan havasimning qanchalik zo'r ekanligini biladi, albatta. Nihoyat, Gud-Tog'ning cho'qqisiga ham yetdik, to'xtab atrofga nazar tashladik: cho'qqi ustida kulrang bulutlar osilib turar va uning muzdek nafasi yaqinda bo'ron turishidan darak berardi, ammo kunchiqar tomon shu qadar beg'ubor va yarqirab turar ediki, biz, ya'ni men bilan shtabs-kapitan uni butunlay unutdik... Ha, shtabs-kapitan ham unutdi, chunki tabiat go'zalligi hamda ulug'vorligi sezgisi bizdek hayajonlangan hikoyachilarning dilidagidan ko'ra, sodda odamlarning dilida kuchliroq bo'ladi.

– Siz bunday ajoyib manzaralarni ko'raverib, o'rganib qolgandirsiz? – dedim men.

– Ha, o'qning vizillab uchishiga ham, yurakning gupillab urishini yashirishga ham o'rganish mumkin.

– Aksincha, ba'zi kekxa jangchilarga bu narsa musiqadek yoqadi deb eshitgandim.

– Istasangiz, bu ham to'g'ri, yoqadi, ammo yuragingiz yanada qattiqroq urgani uchun yoqadi. Bir qarang, qanday go'zal o'lka! – deb ilova qildi shtabs-kapitan kunchiqar tomonni ko'rsatib.

Chindan ham bunday manzarani boshqa hech qayerda uchratish mumkin emasdi: tagimizda yastanib yotgan Koysaur vodiysining o'rtasini Aragva bilan yana bir soy xuddi kumush uqadek kesib o'tardi. Vodiyning tepasida suzib yurgan moviy tuman erta tongning iliq shu'lalaridan o'zini atrofdagi daralarga olib qochardi. O'ng va chap tomondagi qor, changal bosgan, bir-biridan baland tog' tizmalari bir-birini kesib, har yoqqa cho'zilishib ketardi. Yiroqda ham tog'lar, ammo qoyalarning hech qaysisi bir-biriga o'xshamasdi, tog' tepalaridagi qorlar qip-qizil cho'g'dek tovlanib, shu qadar yarqirab yonardiki, uni ko'rib shu yerda umrbod qolging kelardi, to'q ko'kimtir tog' ortidan, bu yerlarga yaxshi o'rganib qolgan ko'zgina uning qora bulut emasligini ajrata bilardi. Quyosh ko'rina boshladi, lekin uning tepasidan o'tgan qon yanglig' qip-qizil shafaq hamrohining diqqatini jalb qildi. «Bugun havo buziladi, deb aytmabmidim, – xitob qildi u. – Ildamroq yuraylik, Krestova tog'iga yetganimizda bo'ronda qolmaylik tag'in». – Keyin «Hayda!» – deya qichqirdi aravakashlarga.

Aravalar pastlikka sirg'anib ketmasin deb, g'ildiraklarga zanjir bog'ladik, otlarning jilovidan ushlab, pastga tusha boshladik; o'ng tomonimiz baland qoya, so'l tomonimiz esa, shu qadar chuqur jarlik ediki, uning tagiga joylashgan butun boshli osetin qishlog'i xuddi qaldirg'och uyasidek ko'rinardi. Ikkita arava duch kelib qolsa o'tib keta olmaydigan bu yo'ldan qorong'i kechalarda choparlarning yiliga o'n martalab shaloq aravadan tushmay o'tishini ko'z oldimga keltirgan edim, etim jimirlab ketdi. Aravakashlarimizning biri – yaroslavlik rus mujigi, ikkinchisi – osetin edi. Osetin o'rtaga qo'shilgan otni nihoyatda ehtiyotkorlik bilan yetaklab borardi, bizning beg'am rusimiz, hatto aravadan tushmadi ham! Men unga, hech bo'lmasa jomadonimning g'amini yesang-chi, jarga tushib ketsa, uning ortidan tushib yurishga tobim bormi, desam, u: «Qo'yavering, xo'jayin! Xudo xohlasa, eson-omon yetib olamiz, bu yerlarda ko'p yurganmiz», – dedi. U haq edi: haqiqatan, manzilga eson-omon yetib olmasligimiz mumkin edi-yu, ammo yetib oldik; agar odamlar ko'proq mulohaza

qilishganida edi, hayotning bunchalik tashvish chekishga arziyasligini anglab etgan bo'lishardi...

Balki, siz Bela voqeasining pirovardini bilmoqni istarsiz? Birinchidan, men yozganim qissa emas, balki yo'l xotiralaridir, binobarin, shtabs-kapitanning o'zi boshlamaguncha uni gapi-rishga majbur etolmayman. Xullas, sabr qiling yoki istasangiz, kitobning bir nechta varag'ini ochib ko'ring, ammo bunday qilishni maslahat bermayman, chunki Krestova tog'i (yoki Gamba¹ degan bir olimning aytishicha, le Mont St-Chistophe²) dan oshish, diqqatingizga arziydi. Shunday qilib, biz Gud-Tog'dan Chertova vodiysiga tushdik... Ana bu romantik nomni qarang! Ko'z oldingizga darhol odam oyog'i yetmagan tog'lar orasidan makon tutgan yovuz jinlarning uyasi kelgandir, yo'q, unday emas: Chertova vodiysining nomi «chyort» degan so'zdan emas, balki «cherta» so'zidan olingan, chunki bir vaqtlar, Gurjiston chegarasi shu yerdan o'tgan. Vodiyni xuddi Saratov, Tambov va vatanimizning shunga o'xshash aziz yerlari kabi, qor uyumlari ko'mib yuborgan edi.

– Ana, Krestova tog'iga ham yetdik! – dedi shtabs-kapitan Chertova vodiysiga tushganimizdan keyin, qorning tagida qolib ketgan bir tepalikni ko'rsatib. Tepalikning cho'qqisida toshdan yasalgan xoch ko'rinardi, shu xoch yonidan g'ira-shira ko'zga tashlanadigan yo'l o'tardi, boshqa yo'lni qor ko'mib yuborgan kezlardagina shu yo'ldan yurilardi. Aravakashlarimiz tog'dan hali ko'chki tushmaganini aytishdi va otlarni ayab, bizni aylanma yo'ldan olib ketishdi. Muyulishga yetganda beshta osetinni uchratdik, ular bizga o'z xizmatlarini taklif etib, hay-haylashib, aravamizning g'ildiragidan itara boshladilar. Yo'l haqiqatan ham xavfli edi: o'ng tomondan tepamizdan bir shamol ko'tarilsa, daraning ichiga qulab tushishga tayyor qor uyumlari osilib turardi; torgina yo'lning bir qismini qor ko'mib yuborgan, ba'zi yerlarda qor tizzagacha chiqardi, ba'zi yerlarda esa, qor oftob shu'lalari va tungi sovuqning kuchi bilan yaxlab qolgandi, shuning uchun biz arang yurib borar

¹ *Jan-Fransua Gamba* (1763–1833) – fransuz sayyohi.

² Xristofor avliyo tog'i.

edik; otlar toyib yiqilardi, chap tomonimiz chuqur jarlik bo'lib, uning tagidan hayqirib oqqan daryo goh muzning tagiga kirib ketar, goh qop-qora toshlar ustidan ko'pirib oqardi. Krestova tog'ini ikki soatda aylanib o'tibmiz, ikki soat ichida atigi ikki chaqirim yo'l bosibmiz, xolos! Bu orada bulutlar pastlab, oldin do'l, ketidan qor yog'a boshladi; daralar ichiga bostirib kiruvchi shamol, xuddi Qaroqchi-Solovyey singari bo'kirar, hayqirar, hushtak chalgandek chiyillardi, ko'p o'tmay toshdan yasalgan xochni sharq tomondan to'lqinlanib keluvchi tuman bosdi, u ko'zdan g'oyib bo'ldi... Darvoqe, bu xoch haqida g'alati, ammo keng tarqalgan bir rivoyat bor, unda xochni Pyotr I Kavkazdan o'tib ketayotganida qo'ydirgani aytilgan, biroq, birinchidan, Pyotr faqat Dog'istongacha kelgan, ikkinchidan esa, xochning ustiga general Yermolovning amriga binoan qo'yilgan deb, katta-katta harflar bilan yozilgan, demak, xoch 1824-yilda qo'yilgan. Ammo, mazkur lavhaning bo'lishiga qaramay, rivoyat shu qadar qonga singib ketgan ediki, lavhalarga ishonmasligimizni nazarga olganda, qaysi biriga ishonishingni ham bilmaysan, kishi.

Kobi bekatiga yetib olishimiz uchun yaxmalak toshlar va yumshoq qorlar ustidan yana besh chaqirimcha yurishimiz kerak edi. Otlarimiz rosa holdan toygan, o'zimiz esa, o'lardek sovqotgan edik; bo'ron xuddi o'zimizning shimol bo'ronlari singari tobora zo'rayib borardi, faqat uning mudhish nolasi, nihoyatda g'amgin va mungli edi. «Sen ham o'zingning bepoyon keng dashtlaringni sog'inib yig'larmikansan, darbadar! – deb o'ylardim men. – U yerlarda sovuq qanotlaringni qancha kersang, keraverasan, bu yerda esa, xuddi temir qafas panjaralariga chinqirib qanotlarini urgan burgut yanglig' siqilasana, dimiqasana».

– Ish chatoq! – dedi shtabs-kapitan. – Atrofga bir qarang, tuman bilan qordan boshqa hech narsa ko'rinmaydi; falokat bosib, jargami, yo biron chuqurgami tushib ketmaylik; pastda Baydara quturib yotgan bo'lsa, tag'in o'tolmaymiz. Osiyoning shunisi yomon-da! Odamlariga ham, daryolariga ham ishonib bo'lmaydi! – aravakashlarimiz pishqirgan, oyoqlarini tirab olib,

qamchilarning achchiq zarbiga ham qaramasdan, joylaridan siljimay turgan otlarga baqirib, so'kina-so'kina savalashardi.

– Janob, bugun, baribir, Kobiga yetolmaymiz, – deb qoldi aravakashlardan biri, – ruxsat etsangiz, vaqt borida chapga burilsak. Hov anavi tog' bag'rida bir narsa qorayib ko'rinadi, ehtimol, uydur. Havo buzuq kezlarda yo'lovchilar hamisha o'sha yerga qo'nadi, anavilar, «aroq puli bersa, boshlab boramiz» deyishyapti, – deb ilova qildi aravakash osetinni ko'rsatib.

– Bilaman, uka, sensiz ham bilaman! – dedi shtabs-kapitan. – Shu yo'l boshlab boruvchilar ham yomon jonimga tegdi-da! Aroq puli olish uchun topgan bahonalarini qarang-a!

– Har holda, iqrar bo'lishingiz kerakki, bular bo'lmaganda, ahvolimiz chatoq bo'lardi, – dedim.

– Ha, to'g'ri, to'g'ri, – deb ping'illadi shtabs-kapitan. – Uf, bu yo'l boshlovchilar rosa jonimga tegdi-da! Qayerdan foyda chiqsa, darrov isini bilishadi, go'yo bularsiz yo'l topolmaydigandek.

Chapga burildik, ko'p mashaqqatlardan keyin zo'rg'a bir manzilga yetib oldik, bu manzil xarsanglardan yasalgan toshdevorlar bilan o'rab olingan ikki xonalik bir kulba edi. Juldir kiyingan uy egalari bizni katta xursandchilik bilan kutib olishdi. Keyin bilsam, hukumat bo'ronda qolgan yo'lovchilarga manzil berish sharti bilan ularga haq to'lar va oziq-ovqat bilan ta'minlab turarkan.

– Har holda, juda yaxshi bo'ldi! – dedim men gulxan yoniga o'tirib. – Endi Bela voqeasining oxirini aytib berasiz, ishonchim komilki, voqea shu bilan tugamagan.

– Nima uchun ishonchingiz komil? – dedi shtabs-kapitan mug'ambirlik bilan ko'z qisib.

– Shuning uchunki, odatda, bunday bo'lmaydi: g'ayritabiiy boshlangan narsa, kutilmagan ravishda tugashi kerak.

– Ha, topdingiz-a...

– G'oyatda xursandman.

– Siz-ku, xursand bo'lasiz-a, ammo meni yodimga tushsa, hozir ham yuragim achishib ketadi. Bela juda ajoyib qiz edi!

Keyinchalik uni xuddi o'z qizimdek yaxshi ko'rib qoldim, u ham meni yaxshi ko'rardi. Shuni ham aytishim kerakki, mening bola-chaqam yo'q, so'qqabosh odamman, ota-onamdan xabar kelmaganiga ham o'n ikki yilcha bo'ldi, vaqtida uylanib ham olmagan ekanman. Endi, menga uylanish yarashmasa kerak, shuning uchun ham, erkalatadigan ovunchoq topganimdan xursand edim... Ba'zan u bizga ashulalar aytib, lezginkaga o'ynab berardi... Uning raqs tushishini ko'rsangiz! O'zimizning guberni qizlarini ko'p ko'rganman, bir marta, bundan yigirma yilcha muqaddam, Moskva aslzodalari klubida ham bo'lganman, ammo Belaning oldida ularga yo'l bo'lsin. Ular ip esholmaydi!.. Grigoriy Aleksandrovich uni qo'g'irchoqdek yasantirib qo'yar edi, juda yaxshi parvarish qildi, o'zi ham biznikida turib, shunaqangi ochilib ketdiki, asti qo'yavering; quyoshda qoraygan yuzi va qo'llari oqarib, yuzlari olmadek qip-qizil bo'lib ketdi...

Juda sho'x bo'lib ketgandi, qiz tushmagur. Nuqul menga tegishgani tegishgan edi... Xudoning o'zi kechirsin!

– Otasining o'lganini aytganingizdan keyin nima bo'ldi?

– O'z ahvoliga ko'nikib ketguncha bu sirni undan yashirib yurdik, aytganimizdan keyin bir-ikki kun yig'ladi-yu, so'ng esidan chiqib ketdi.

To'rt oycha yaxshi yashashdi. Grigoriy Aleksandrovich ovga juda ishqiboz edi deb aytgandim, shekilli: ilgarilari to'ng'iz yo kiyik ovlab o'rmondan chiqmasdi, endi bo'lsa, qal'a devoridan nariga o'tmaydigan bo'lib qoldi. Ammo keyin qarasam, yana xayolga cho'mib, qo'llarini orqasiga qilib, uyning ichida aylanib yuradigan odat chiqardi. Bir kuni hech kimga aytmadan ovga ketibdi, kun bo'yi ovda yurdi; bir ketdi, ikki ketdi, so'ng ovga bormaydigan kuni qolmadi... Bu yaxshi emas, oralariga sovuqchilik tushganga o'xshaydi, deb o'yladim.

Bir kuni ertalab ularnikiga kirib qoldim, bu voqea hali ham ko'z oldimdan ketmaydi, qora shohi peshmat kiygan, yuzlari so'lg'in Bela karavotda o'tiribdi, chehrasi g'amgin, ko'rib qo'rqib ketdim.

– Pechorin qani? – deb so'radim.

– Ovda.

– Bugun ketdimi? – Bela xuddi gapirishga qiynalgandek, indamay o'tirardi.

– Yo'q, kecha ketgan edi, – dedi u nihoyat og'ir xo'rsinib.

– Biron falokatga uchragan bo'lmasin tag'in?

– Kecha kuni bilan xayol surib o'tirdim, – dedi Bela yig'i aralash. – Miyamga ming xil xayollar keldi: goh uni yovvoyi to'ng'iz yarador qildimi, yo chechen toqqa olib qochib ketdimi, deyman... Bugun esa, meni sevmasa kerak, deb o'ylab o'tiribman.

– Bundan battarroq narsani o'ylab topmadingmi, qizim?! – Bela yig'lab yubordi, so'ng boshini g'urur bilan baland ko'tardi-da, ko'z yoshlarini artib, davom etdi:

– Agarda meni sevmasa, uyimga qaytarib yuborishiga nima to'sqinlik qiladi? Men uni zo'rlamayman. Bundan buyon ham shunday bo'lsa, o'zim ketaman-qo'yaman: men uning cho'risi emasman – knyaz qizi bo'laman!

Men uni yupata boshladim:

– Menga qara, Bela, axir, u sening etagingga tikib qo'yilgan emaski, uzzukun uydan chiqmay o'tirsa, axir u yosh yigit bo'lsa, ustiga-ustak, ovga ishqiboz, yuradi yuradi-da, yana qaytib keladi; tashvish chekaversang, xafa bo'laversang, qaytanga uni tezroq zeriktirib qo'lasan.

– Rost, rost! – deb javob berdi Bela. – Endi xushchaqchaq bo'lib o'tiraman, – keyin kuldi-da, childirmasini chalib, ashula aytdi va o'yinga tushib, atrofimda chirillab aylana boshladi, ammo bu ham uzoqqa bormadi, yana karavotga o'zini tashladi-da, qo'llari bilan yuzini berkitib oldi.

Nima ham qila olardim? Mening xotin kishiga sira ishim tushmagan; uni qanday ovutay deb o'ylab-o'ylab, hech ilojini topa olmadim; birmuncha vaqt ikkimiz jim qoldik... Juda og'ir ahvol yuz berdi!

Axiyri, men unga: «Istasang, yur, tuproqko'rg'onni aylanib kelamiz. Havo juda yaxshi», dedim. Sentabr oyi edi. Darhaqiqat, kun juda yaxshi edi, quyosh porlab tursa-da, uncha issiq emasdi, tog'lar xuddi kaftda turgandek ravshan ko'rinardi. Biz indamasdan qal'a ko'tarmasini aylandik,

nihojat, Bela chimga o'tirdi, men ham uning yoniga o'tirdim. Esimga tushsa, kulgim qistaydi, men xuddi uning tarbiyachisidek ortidan ergashib yurardim.

Qal'amiz balandlikda joylashgan bo'lib, u yerdan juda ajoyib manzara ko'rinardi: bir tomon bir necha jarlik tilkalab tashlagan keng yalanglik bo'lib, oxiri tog' tizmasigacha cho'zilgan o'rmonga borib tutashardi. Yalanglikning u yer-bu yerida tutunlar burqsiyotgan ovullar ko'rinardi, yilqilar o'tlab yurardi, boshqa tomondan esa kichkina soy oqardi, soyning narigi tomonini Kavkazning katta tog'lariga qo'shilib ketgan qirra toshli butazorlar qoplab yotardi. Biz bastion¹ burchagida o'tirardik, shuning uchun ikki tomon ham yaqqol ko'rinib turardi. Bir payt qarasam, o'rmon ichidan ko'k ot mingan bir kishi chiqib, biz tomonga otini yeldirib kelaverdi, nihoyat, soyning narigi tarafiga, bizdan yuz sarjinch nariga kelib to'xtadi-da, xuddi quturgandek, otini o'ynoqlata boshladi. Bu nima qilgani dedim ichimda... «Sen qara, Bela, yoshsan, ko'zing o'tkir, u suvoriy kim ekan, kimga tomosha ko'rsatgani kelibdi?..» dedim.

Bela qaradi va birdan: «Kazbich-ku!..» – deb qichqirib yubordi.

«Obbo, qaroqchi-yey! Bizni mazax qilgani keldimi?» Sinchiklab qarasam, xuddi Kazbichning o'zginasi, aft-basharasi qora, ust-boshi juldur, avvalgidek iflos. «Tagidagi ot otamning oti», – dedi Bela qo'limdan mahkam ushlab, o'zi xuddi terakning bargidek titrardi, ko'zlari o'tdek chaqnab ketdi. «Ha, ha, – dedim ichimda, – sening tomiringda ham qaroqchi qoni qaynarkan-ku!»

– Beri kel, – dedim men soqchiga qarab. – Miltig'ingni ol, hov anavi suvoriyni otdan yiqitsang, kumush so'lkavoy olasan.

– Xo'p bo'ladi, janob, ammo bir joyda tek turmayapti-da... – dedi.

– Buyur, tursin, – dedim men kulib.

– Hoy, og'ayni! – deb baqirdi soqchi qo'lini silkitib. – Birpas tek tur, namuncha gir-gir aylanmasang? – Kazbich

¹ Bastion – besh burchak shaklida qurilgan istehkom.

chindan ham to'xtab, quloq sola boshladi; muzokara boshlaydi deb o'ylagan bo'lsa kerak, ammo chuchvarani xom sanagan edi! Mening grenadyorim¹ miltiqni mo'ljalga oldi-da... paq etib otdi... tegmadi, faqat poroxning chaqnab yongani ko'rindi, xolos. Kazbich otini bir niqtagan edi, ot chetga sakradi. U oyog'ini uzangiga tirab, qaddini rostladi-da, o'z tilida bir nimalar deb, qamchinini o'qtalib, qochib qoldi.

– Uyat senga! – dedim soqchiga qarab.

– Janob, jon bergani ketdi, – deb javob qaytardi soqchi. – Bu la'nati xalq o'q esa ham, darrov o'la qolmaydi.

Chorak soatdan keyin Pechorin ovdan qaytdi. Bela uning bo'yniga o'zini tashladi, uzoq yo'qolib ketgani uchun undan o'pkalamadi ham, gina ham qilmadi... Hatto, men ham Pechorindan achchiqlandim.

– Hoy, menga qarang, insof bormi sizda, – dedim unga men. – Hozirgina Kazbich soyning narigi tarafida edi, biz uni o'qqa tutdik, yo'lda duch kelib qolsa, nima qilardingiz? Tog'liklar juda qasoskor xalq bo'ladi: otini Azamat bilan til biriktirib o'g'irlaganingizni payqamadi deb o'ylaysizmi? Boshimni garovga qo'yib aytamanki, endi Belani ham tanidi. Bundan bir yil avval, Belani yaxshi ko'rib yurganini bilaman, menga o'zi aytib yurar edi. Tuzukroq qalin to'lashga ko'zi yetganida, sovchi ham qo'ydirgan bo'lardi... – Shundan keyin Pechorin o'ylanib qoldi. – Rost, ehtiyot bo'lish kerak... – Bela, bugundan e'tiboran qal'adan tashqariga chiqmasliging kerak, – dedi.

Kechqurun u bilan anchagacha bahslashib o'tirdik, bechora qizga bo'lgan munosabatning o'zgarganidan jahlim chiqqandi; ertadan kechga qadar ovda yurishidan tashqari, Beladan ham ko'ngli sovigan, uni kamdan kam erkalaydigan bo'lib qolgan edi. Bela boyaqish so'liy boshlagan, yuzlarining qoni qochgan, shahlo ko'zlari ham so'na boshlagandi. «Nega xo'rsinding, Bela, xafamisan?» deb so'rasam, «Yo'q!» – derdi. «Ko'ngling biron narsa istaydimi?» «Yo'q!» «Qarindosh-

¹ Grenadyor – maxsus qo'shin qismida xizmat qiluvchi askar.

urug'laringni sog'indingmi?» «Meni hech qanaqa qarindosh-urug'im yo'q». – Hatto shunday bo'lardiki, kun bo'yi yo ha, yo yo'qdan bo'lak hech nima demasdi.

Pechoringa men shularni gapirib berdim. «Menga qarang, Maksim Maksimich, – deb javob berdi u. – Mening mijozim juda yomon-da; tarbiya ortida shunday bo'lganmanmi, yo xudo shunday yaratganmi, bilmayman, faqat shuni bilamanki, agar boshqalarning baxtsizligiga sababchi bo'lsam, o'zim ham ular kabi baxtsiz bo'lib ketaman. Shubhasiz, bu narsa u baxtsizlarga tasalli bo'lolmaydi, albatta, ammo nachora, hamma kulfat shunda. Ilk yoshligimda, ota-onamning qanoti ostidan chiqqan damdan boshlab, pulga sotib olish mumkin bo'lgan barcha aysh-ishratlarni totib ko'ra boshladim, shubhasiz, bu ishratlar, axir borib ko'ngilga urdi. Keyin jamiyatning yuqori tabaqasiga otildim, ko'p o'tmay bu ham jonimga tegdi, aslzoda go'zallarga muhabbat qo'ydim, ular ham meni yaxshi ko'rishardi, biroq ularning ishqiqi faqat mening fikr-u xayolimni va izzat-nafsimni qo'zg'atardi, xolos. Qalbim esa bo'shligicha qolaverardi... Kitobga berildim, o'qidim – ilm-ma'rifat ham ko'ngilga urdi, shuhratning ham, baxtning ham ularga bog'liq emasligini bildim, chunki hammadan baxtli nodonlar ekan, shuhrat degan narsa toledan bo'lib, unga erishish uchun faqat abjir bo'lsang kifoya. Shundan keyin yuragim siqilib, diqqinafas bo'la boshladim...

Ko'p o'tmay, meni Kavkazga ko'chirishdi, bu davr umrimning eng baxtli onlari edi. Men chechenlar o'qi ostida odam siqilmasa kerak deb o'yladim, afsuski, yanglishibman. Bir oy o'tmasdan o'qlarning vizillab uchishiga va ajal bilan yonma-yon yurishga shu qadar o'rganib ketdimki, ulardan ko'ra chivinlar mening diqqatimni ko'proq jalb etadigan bo'lib qoldi, avvalgidan ham battar zerika boshladim, chunki eng so'nggi umidimdan ham ajralgan edim. Belani ilk marta uyimda ko'rib, tizzamga olib o'tirganimda, qop-qora sochlaridan o'pganimda, men tentak uni taqdir kaminaga shafqat qilib yuborgan farishta deb o'ylabman. Tag'in yanglishibman, vahshiy qizning ishqiqi zodagon xonimning ishqidan sal tuzukroq ekan, birinchisining noz-karashmasi ko'ngilga urgandek, ikkinchisining nodonligi va soddadilligi

ham ko'ngilga urarkan. Rostini aytsam, men uni hozir ham sevaman, bir necha lazzatli damlar baxsh etgani sabab, undan minnatdorman, uning uchun jonimni fido qilishga ham tayyorman, ammo yonida bo'lsam – zerikaman...

Tentakmanmi, yo yovuzmanmi, bilmayman, lekin shuni aniq bilmanki, men ham uning singari achinishga zorman, ruhimni yuqori muhit buzgan, fikr-xayolim hamisha notinch, qalbim sira to'ymaydi, menga har narsa ham oz. Lazzatga va mazaga qancha tez o'rgansam, g'am-hasratga ham shu qadar ko'nikib ketaveraman, turmush kundan kunga ko'zimga ma'nosiz bo'lib ko'rinadi, birgina ilojim qoldi: u ham bo'lsa – sayohat. Imkon bo'lishi bilan jo'nayman, ammo Ovro'paga emas, u yerga borishdan xudo saqlasin! Amerikaga, Arabistonga, Hindiston tomonlarga ketaman, zora, yo'lda o'lib ketsam! Har holda, bo'ronlarga uchraman, yomon yo'llardan yurishga to'g'ri kelar, ishqilib, bu so'nggi yupanchim tezda yakun topmasa kerak, deb umid qilaman». Shu taxlitda uzoq gapirib o'tirdi, uning gaplari miyamga qattiq o'rnashib qoldi, chunki bunday so'zlarni yigirma yoshli yigitdan ilk marta eshitishim edi, Xudo xohlasa, ortiq eshitmasman... Ajabo! «Ayting-chi, – deb murojaat qildi menga shtabs-kapitan. – Siz yaqindagina poytaxtda bo'lgansiz, u yerdagi barcha yoshlar ham shundaymi?»

Men: «Xuddi shunday deguvchi odamlar juda ko'p, ular orasida rostgo'ylari ham bordir; hamma odatlar singari dunyodan bezish ham jamiyatning yuqori tabaqalaridan boshlanib, endi pastki tabaqalarga tushdi, hozir esa haqiqatan ham zerikuvchi va dunyodan bezuvchi odamlar bu baxtsizlikni, xuddi bir nuqsonni yashirgandek yashirib yurishadi», dedim. Shtabs-kapitan bu nozik nuqtalarga tushunmadi, boshini chayqatiddi, mug'ambirlik bilan kulimsirab:

– Zerikish urfini fransuzlar chiqargandir-da? – dedi.

– Yo'q, inglizlar.

– Shunaqami!.. – dedi u. – Iye, ular ashaddiy piyonista xalq-ku, axir.

Shu onda birdan moskvalik xonimlardan biri esimga tushib ketdi, u xonim, Jorj Bayron piyonista edi, shundan ortiq hech nimasi bo'lmagan, derdi. Ammo shtabs-kapitanning gapini

kechirsa bo'ladi, ichkilikdan o'zini tiyish uchun dunyodagi hamma falokatlar ichkilik tufayli kelib chiqadi, deb o'zini o'zi ishontirardi.

Shtabs-kapitan hikoyasini davom ettirdi:

– Kazbich qaytib kelmadi. Ammo nima uchundir, uning o'sha safar kelib ketgani bejiz emas, bir narsaga qasd qilib yuribdi, degan fikr xayolimdan hech ketmas edi.

Kunlardan bir kuni Pechorin meni to'ng'iz oviga sudrab qoldi; men avval to'ng'izni ko'rmaganmanmi, deb ko'nmadim. Shunday bo'lsa-da, qo'ymasdan olib ketdi. Yonimizga beshta askarni olib, sahar chog'ida yo'lga chiqdik. Soat o'ngacha to'qay va o'rmonlarda izg'ib yurdik, to'ng'iz uchrayvermadi. «Hoy, uyga qaytaylik, – dedim men. – Muncha o'jarlik qilmasangiz? Bugun omadimiz yurmaydigan kun ekan!» – Ammo jazirama issiqqa, charchaganimizga qaramay, Grigoriy Aleksandrovich o'ljasiz qaytishni istamasdi... Shunaqangi o'jar odam edi-da: sira aytganini qilmasdan qo'ymasdi; yoshligida onasi erka-tantiq qilib o'stirgan bo'lsa kerak... Axiyri, tush paytiga borib, bir la'nati to'ng'izni topdik: paq-paq o'q uzib qoldik... tegmadi, to'qayga kirib ketdi... Omad kelmagan kun edi-da, o'zi! Biroz dam olib, uyga qaytib ketdik.

Otlarning jilovlarini qo'yib, indamasdan yonma-yon kelardik, qal'aga ham yaqin qolgan edi; uni bizdan faqat chakalakzor to'sib turardi. Birdan o'q uzildi... Ikkimizning ham ko'nglimizda bir shubha tug'ilib, bir-birimizga yalt etib qaradik. O'q uzilgan tomonga qarab ot qo'ydik, borib qarasak, tuproqqo'rg'onning tepasida bir qancha askar to'planishib turar va nuqul ochiq yalanglikni ko'rsatishardi, yalanglikda egarga oq bir narsa o'ngarib olgan bir otliq otini zo'r berib choptirib ketmoqda edi. Grigoriy Aleksandrovich xuddi chechenga o'xshab chinqirdi-da, jilddan miltig'ini chiqarib, otliqning ortidan quva ketdi, men ham uning ortidan ot qo'ydim.

Baxtimizga, ovimiz yurishmagani uchun otlarimiz ham uncha charchamagandi: otlar yeldek uchib borardi, otliqqa tobora yaqinlashar edik... Nihoyat, otliqni tanidim, Kazbich ekan, ammo otga o'ngarib ketayotgan narsasining nimaligiga sira aqlim yetmasdi. Pechoringa yetib oldim-da, «Kazbich

ekan!» – deb qichqirdim. U menga qarab, boshini silkib, otiga qamchi bosdi.

Oxiri oramizda bir miltiq otimi masofa qoldi, Kazbichning oti charchab qoldimi, yo biznikidan yomon edimi, har holda, qancha qistamasin, oti sira ilgari siljimasdi. Shu tobda, o'zining Qorako'zini ming marta eslagan bo'lsa kerak, deb o'ylayman...

Bir payt qarasam, Pechorin mo'ljalga olyapti... «Otmang! – deb baqirdim. – O'qni ehtiyot qilish kerak; biz uni shundoq ham quvib yetamiz». Yosh yigit-da, salga qoni qizishib ketadi... O'q uzildi, o'q otning keyingi oyog'iga tegdi; ot yana o'n qadamcha sakrab-sakrab bordi-da, qoqilib, tiz cho'kib qoldi. Kazbich otdan sakrab tushdi, shundagina uning qo'lida ko'tarib turgan narsasi chodraga o'ralgan ayol ekanini payqadim... U Bela edi... bechora...

Bela! Kazbich o'z tilida bizga bir nimalar deb baqirdi-da, Belaga xanjar o'qtaldi... Vaqtini boy bermaslik kerak edi, men ham tavakkal qilib o'q uzdim. O'q Kazbichning yelkasiga tekkan bo'lsa kerak, chunki birdan qo'li pastga osilib tushdi. Tutun tarqalib bo'lgach, qarasak, yerda yarador ot, uning yonida Bela yotibdi, Kazbich bo'lsa miltig'ini tashlab, xuddi mushukdek qoyalarga tirmashib, toqqa chiqib ketmoqda edi, bir o'q bilan urib tushirmoqchi bo'ldim-u, biroq tayyor o'qim yo'q ekan! Otdan sakrab tushib, Belaning yoniga yugurdik. Bechora qimir etmasdan yotardi, yarasidan sharillab qon oqardi... Voy, zolim odam, xanjar ursang, yuragiga urmaysanmi, biryo'la murodingga yetarding! Yo'g'-a, yelkasiga uribdi. O'z oti bilan bosmachi-da! Bela hushsiz yotardi. Chodrani yirtib, yarasini imkon qadar qattiqroq qilib bog'ladik, Pechorin uning muzlab qolgan lablaridan shuncha o'psa ham, qiz o'ziga kelmasdi.

Pechorin otga mindi. Men Belani yerdan ko'tarib, bir amallab uning egariga qo'ydim, Pechorin uning belidan quchoqlab oldi, qal'aga qaytib ketdik. Bir necha daqiqalik sukutdan so'ng, Grigoriy Aleksandrovich menga: «Maksim Maksimich, bunday borishda tirik olib borolmaymiz», – dedi. «To'g'ri aytasiz», – dedim men. Otlarimizni yeldek choptirib ketdik. Qal'a darvozasi oldida bizni bir qancha odamlar kutib

turgan edi, yaradorni avaylab Pechorinning uyiga olib kirdik-da, shifokorga odam yubordik. Shifokor mast bo'lsa-da, keldi, yarani ko'rdi-da, bir kunlik umri qolganini aytdi, ammo u yanglishgan edi.

– Tuzalib ketdimi? – deb so'radim shtabs-kapitandan beixtiyor suyunib, uning qo'lidan ushlab.

– Yo'q, – dedi u. – Shifokorning xatosi shunda ediki, Bela yana ikki kun yashadi.

– Kazbich uni qanday kilib olib qochibdi?

– Voqea mana bunday bo'lgan: Pechorinning taqiqlashiga qaramay, Bela qal'adan chiqib, soy bo'yiga boribdi. Nega desangiz, kun juda issiq edi, xarsangtosh ustida oyoqlarini suvga solib o'tirgan ekan. Kazbich bildirmasdan sekingina kelib, xippa bo'g'ib, chakalakzorga sudrabdi-da, keyin otga o'ngarib, ura qochib qolibdi. Bela bir amallab baqiribdi, soqchilar eshitib qolib, o'q uzishibdi-yu, ammo tegmabdi, xuddi shuning ustiga biz kelib qolgan edik.

– Kazbich uni olib qochib nima qilarkan?

– Ana, xolos! Axir, cherkaslarning o'g'ri xalqligi hammaga ma'lum-ku, ular nima to'g'ri kelsa, ilib ketaveradi, keraksiz narsa bo'lsa-da, o'g'irlashaveradi... busiz turisholmaydi! Buning ustiga, Kazbich Belani anchadan buyon yaxshi ko'rib yurardi.

– Shunday qilib, Bela o'ldimi?

– O'ldi, ammo juda azob chekib o'ldi, biz ham u bilan birga ko'p azob tortdik. Kechqurun soat o'nlarda o'ziga kelgandek bo'ldi. Biz uning boshida o'tirar edik, shundoq ko'zini ochdi-yu, «Pechorin, Pechorin», deb chaqiraverdi. «Men shu yerdaman, yoningda o'tiribman, jonim», – deb javob berdi Pechorin qizning qo'lidan ushlab. Bela: «Men o'laman!» – dedi. Biz uni yupata boshladik, shifokor, albatta tuzataman, deb aytdi dedik. Bechora boshini chayqab, yuzini devorga o'girdi, uning sira o'lgisi kelmasdi!

Kechasi alahlab chiqdi, boshi o'tdek yonardi, butun badani xuddi bezgak tutgandek qaltirardi, otasini, ukasini eslab, allanimalar derdi, tog'larni, o'z uyini sog'ingan bo'lsa kerak-da... Keyin yana Pechorinni chaqira boshladi, uni erkalab har

xil nozik ismlar bilan atar, yo bo'lmasa, jonginangni ortiq sevmaysan, deb o'pkalanardi...

Pechorin quyi solingan boshini kaftlari orasiga olib, bu gaplarni indamay eshitib o'tirardi, ammo uning ko'zlarida bir tomchi ham yosh ko'rmadim. Chindan ham yig'lashni bilmasmidi, yo o'zini yig'idan tiyib o'tirarmidi – bilmayman, menga kelganda, umrimda bundan ham qayg'uliroq hodisani ko'rmaganman.

Ertalab alahlashi to'xtadi. Bir soatcha qimir etmay yotdi, rangi siniqib, shu qadar holdan toygan ediki, nafas olishi zo'rg'a sezilardi, keyin biroz tuzalgandek bo'ldi, gapira boshladi ham, ammo nima haqda gapirardi deng? Bunday gaplar faqat o'lim to'shagida yotganlarninggina esiga tushadi! O'zining xristian dinida bo'lmaganidan, u dunyoda ruhi Grigoriy Aleksandrovichning ruhi bilan qovusholmasligidan, jannatda uning ruhiga boshqa biron ayolning ruhi yor bo'lishi to'g'risida so'zlab, qayg'urardi. Mening miyamga uni o'limi oldidan cho'qintirib, xristian diniga o'tkazish fikri keldi, buni o'ziga aytdim, u bir nima deymay, anchagacha menga qarab yotdi; keyin: «Qaysi dinda tug'ilgan bo'lsam, shu dinda o'laman», dedi. Shu zaylda bir kun o'tdi. Ana shu bir kun ichida, uning qanchalik o'zgarib ketganini aytmaysizmi! Ranglari bo'zdek oqardi, yuzlari cho'kib ketdi, ko'zlari yiriklashib, lablari o'tdek yonardi. Qalbida xuddi qizitilgan temir parcha yotgandek o'rtanardi.

Ikkinchi kecha kirdi. Biz uning oldidan siljimag va mijja qoqmay o'tirardik. Bechora juda ham qiynaldi, nuqul ingrardi, og'rig'i sal bosilishi bilan Grigoriy Aleksandrovichga ahvolim tuzuk, borib uxlang derdi, uning o'z qo'llarida mahkam ushlab yotgan qo'lini hadeb o'par edi. Sahar paytiga borib talvasaga tushib, hadeganda to'lg'anaverdi, yaraning lattasi yechilib, yana qon oqa boshladi. Yarasini qaytadan bog'lab qo'yganimizdan keyin bir daqiqacha jim yotdi-da, Pechorindan «Meni o'p», deb iltimos qildi. Pechorin karavot oldida tiz cho'kdi-da, uning boshini yostiqdand ko'tarib, sovib borayotgan lablariga labini bosdi. Bela, xuddi shu bo'sa orqali o'zining jonini unga bermoqchi bo'lgandek, qaltiroq qo'llari bilan bo'ynidan qattiq quchoqladi... Yo'q, uning

o'lib ketgani yaxshi bo'ldi! Agar Grigoriy Aleksandrovich uni tashlab ketganida, bechora nima qilardi? Ammo ertami, kechmi, tashlab ketishi aniq edi.

Ertasi kuni choshgohgacha indamasdan yotdi, shifokor uni har xil dori-darmonlar berib qiynasa ham, g'ing demadi. «Qo'ysangiz-chi! – dedim men shifokorga. – O'ladi deb o'zingiz aytdingiz-ku, nega endi dori-darmon beraverib qiynaysiz?». «Mayli, Maksim Maksimich, har holda, vijdon tinch bo'ladi-ku», deb javob berdi u. O'lsin, vijdon shunaqa bo'lsa!

Tushdan keyin Belani tashnalik qiynay boshladi. Derazalarni ochib tashladik, ammo uydan ko'ra tashqari issiq edi. Karavotning yoniga muz keltirib qo'ydik, bu ham kor qilmadi. Bu tashnalikning o'lim oldidan bo'ladigan tashnalik ekanligini bilardim, Pechoringa ham shunday deb aytdim. «Suv, suv...» – derdi bechora xirillagan tovush bilan, yostiqdan boshini ko'tarib.

Pechorinning yuzi bo'zdek oqardi, bordoqqa suv quyib, Belaga tutdi. Men ikki qo'lim bilan ko'zimni berkitib, duo o'qiy boshladim, qanaqa duo o'qiganim esimda yo'q... Eh-ha-a, otaxonim, men umrimda gospitallarda ham, jang maydonlarida ham ko'p odamlarning o'lganini ko'rganman, ammo ular buning oldida hech gap emas edi!.. Mening yana bir xafa bo'lgan joyim shundaki, Bela o'limi oldidan meni bir marta ham tilga olmadi, holbuki, men uni o'z qizimdek yaxshi ko'rardim. Xayr, mayli, Xudoning o'zi kechirsin!.. Rost-da, men o'zim kim edimki, vafoti oldidan meni tilga olsa!..

Suvdan ho'pladi-yu, biroz jon kirgandek bo'ldi, ammo uch daqiqalardan so'ng jon berdi. Labiga ko'zgu tutib ko'rdik – ko'zgu tip-tiniq!.. Pechorinni uydan olib chiqdim, tuproqko'rg'onga chiqdik. Qo'llarimizni orqaga qilib, anchagacha indamasdan yurdik, uning chehrasi hech nimani ifoda etmas edi, mening ko'nglim ranjidi: uning o'rnida men bo'lsam g'am-g'ussadan o'lgan bo'lardim. Oxiri Pechorin soyaga o'tirib, cho'p bilan qumni chiza boshladi. Ko'ngil uchun unga tasalli bera boshlagan edim, u boshini ko'tardi-

da, kulib yubordi... Shunday kuldiki, etlarim jimirlab ketdi... Men tobut buyuray deb turib ketdim.

Rostini aytsam, bu ishni ko'nglim tasalli topsin deb qildim. Menda bir parcha termalama¹ bor edi, tobutni shu termalama bilan qoplattirdim-da, bir vaqtlar Grigoriy Aleksandrovichning Belaga olib bergan chechencha zar uqalar bilan bezatdim.

Ertasi kuni ertalab Belani qal'aning tashqarisiga, eng so'nggi marta o'tirgan joyiga yaqin yerga, soy bo'yiga ko'mdik. Hozir qabrining atrofida oq akasiya va buzinalar o'sib yotibdi. Go'riga xoch ham qo'ydirmoqchi bo'ldim, keyin yaxshi bo'lmas, har holda, xristian emasdi, deb ahdimdan qaytdim...

– Pechoringa nima bo'ldi? – deb so'radim.

– Pechorin anchagacha kasal yotdi. Oriqlab ketdi, bechora, ammo shu-shu Bela haqida bir og'iz ham gapirmaydigan bo'ldik. Bu gapning unga yoqmasligini bilardim, shunday ekan, gapirib nima qilaman, dedim o'zimga o'zim... Uch oylardan keyin uni E... polkiga tayinlashdi, Gruziyaga ketdi. O'shandan buyon ko'rishmaymiz... Ha, darvoqe, yaqinda bir kishi menga uni «Rossiyaga qaytdi», deb aytdi, ammo korpus bo'yicha berilgan buyruqlarda bu haqda hech narsa uchratmadim. U yog'ini surishtirganda, xabarlar bizga juda kechikib keladi.

Shundan keyin Maksim Maksimich, qayg'uli xotiralarini unutmok uchun bo'lsa kerak, yangi xabarlarini bir yildan keyin bilishning qanchalik yomonligi haqida gapira ketdi.

Men uning gapini bo'lmas ham, eshitmas ham edim.

Bir soatdan so'ng yo'lga tushishga imkon bo'ldi, bo'ron bosilib, havo ochilib ketdi. Yo'lda keta turib, men yana Bela bilan Pechorindan gap ochdim.

– Kazbichning nima bo'lganini eshitmadingizmi? – deb so'radim.

– Kazbichmi? Kim biladi, deysiz... O'ng flangda shapsug²lar orasida Kazbich degan jasur odam bormish deb eshituvdim,

¹ Ipakli qalin mato.

² Tog'liklarning jahongashta qabilalaridan biri.

biznikilar o'q yog'dirganda qizil peshmat kiyib yurarmish, qulog'ining tagidan o'q vizillab uchib o'tib qolganda engashib ta'zim qilarmish, deyishadi; ammo, u o'sha Kazbich bo'lmasa kerak!..

Kobida Maksim Maksimich bilan xayrlashdik. Men bekat aravasiga o'tirdim, u esa yuki og'ir bo'lgani sababli, men bilan birga ketolmadi. Biz yana ko'risharmiz deb o'ylamagan edik, ammo ko'rishdik, istasangiz, aytib beray, bu ham bir katta voqea. Ammo Maksim Maksimichning hurmatga sazovor odam ekanligiga iqror bo'larsiz!.. Agar bunga iqror bo'lsangiz, g'oyatda cho'zilgan hikoyamni eshitganingiz uchun mukofotlangan bo'laman.

II

Maksim Maksimich

Maksim Maksimichdan ayrilgach, ot choptirib Terak va Daryal daralaridan jadal o'tib ketdim, Kazbekda nonushta qildim, Larsda choy ichdim-da, kechki yemakni Vladikavkazda tanovul qilishga shoshildim. Men sizlarga tog'larning tasviri, hech narsani ifodalamaydigan hayqiriq va xitoblar, o'z ko'zlari bilan ko'rmagan odamlar uchun ma'nosiz bo'lgan manzaralar, hech kimning o'qigisi kelmaydigan statistik ma'lumotlar haqida gapirib o'tirmayman.

Men barcha yo'lovchilar qo'nadigan mehmonxonaga tushdim, bu shunday bir mehmonxona ediki, qirg'ovul qovurib yoki tuzukroq sho'rva pishirib beruvchi birorta kishi yo'q, chunki mehmonxona topshirib qo'yilgan uchta nogiron kishi shu qadar befahm va hamisha mast odamlar bo'lib, ularning sariq chaqalik foydasi tegmasdi.

Menga bu yerda yana uch kuncha turasiz deb aytishdi, chunki Yekaterinograddan hali okaziya kelmagan ekan, shu sababdan uning qaytib ketishi ham mumkin emas ekan. Ana bu okaziya'ni qarang! Ammo bema'ni so'z o'yini rus kishiga tasalli

¹ So'z o'yini. Qo'shtirnoqsiz yoziladigan okaziya so'zi ishning chatoqligini, ishkalligini bildiradi.

bermaydi, shuning uchun ermak deb Maksim Maksimichning Bela qissasini yozishga kirishdim, ammo bu voqeaning keyin yozadigan qator qissalarning muqaddimasi bo'lajagini xayolimga ham keltirmagan edim; buni qarangki, arzimagan bir narsa ba'zan qanday og'ir oqibatlariga olib kelarkan! Balki, «okaziya»ning nimaligini bilmassiz? «Okaziya» degani, yarim rota piyoda askar hamda zambarakdan iborat bo'lgan himoyachi bir bo'linma bo'lib, Vladikavkazdan Qoborda orqali Yekaterinogradga qatnab turuvchi karvonlar shu bo'linmaning himoyasida yuradi.

Dastlabki kuni juda zerikdim, ertasi kuni ertalab hovliga bir arava kirib keldi... E! Maksim Maksimich-ku!.. Biz eski qadrdondek ko'rishdik.

Men uni xonamga taklif etdim. U ham tortinib o'tirmadi, hatto yelkamga qoqib, og'zi burishib iljaygandek ham bo'ldi, shunaqa qiziq odam edi-da!..

Maksim Maksimich juda pazanda odam ekan: qirg'ovulni boplab qovurdi, ustiga tuzlangan bodring suvidan quydi, rostini aytsam, agar u kelmaganida, kunim quruq non-suvga qolardi. Bir shisha kaxetin musallasi yemagimiz xilining ozligini bildirmadi, taom nihoyati birsidra edi, xolos. Keyin ikkimiz chubug' chekib, men derazaning tagida, u esa qizib turgan pechka yoniga o'tdi, havo nam va sovuqroq edi. Ikkimiz indamay o'tirardik. Nima haqda ham so'zlashardik?.. U o'zi haqidagi barcha maroqli gaplarni aytib berib bo'lgan, menda esa aytadigan biror narsa yo'q. Men derazadan qarab o'tirardim. Tobora kengayib boruvchi Terek bo'ylarida sochilib yotgan hisobsiz pastqam uylar daraxtlar orasidan miltillab ko'rinar, ularning ortidagi kungurali ko'm-ko'k tog'lar ortidan esa, Kazbek tog'i xuddi oppoq salla o'rab turgandek ko'zga tashlanar edi. Men fikran ular bilan vidolashdim, chunki ularga achinardim...

Anchagacha indamay o'tirdik. Quyosh muzdek tog'lar ortiga botib, vodiylarga oqish tuman yoyila boshlaganda, birdan ko'chadan qo'ng'iroqning jaranglagani va izvoshchilarning hay-huv deb baqirishi eshitildi. Mehmonxona hovlisiga ust-boshi kir-chir armanlar tushgan bir necha arava, ularning ortidan bir

bo'sh kichik aravacha kirib keldi, aravachaning yengil yurishi, o'ng'ay qurilishi va go'zalligi chet eldan keltirilganligidan darak berardi. Aravachaning ortidan shop mo'ylov, chakmon kiygan, ust-boshi binoyidek bir kishi kelardi, malayga sira ham o'xshamasdi, ammo chubug'ning kulini oliftalik bilan qoqishini, aravakashlarga o'shqirishini ko'rgan odam uning malayligiga shubha qilmas edi. Uning beg'am boyvachchaning erka malayi ekanligi ko'rinib turardi, uni rus Figarosi¹ desa bo'lardi. «Menga qara, baraka topkur, bu nima, okaziya keldimi?» – deb so'radim derazadan. U menga bir o'qrayib qaradi-da, bo'yinbog'ini to'g'rilab, yuzini teskari o'girdi, uning yonida kelayotgan armani kulib: «Ha, okaziya keldi, ertaga ertalab qaytib ketadi», – deb javob berdi. «Xudoga shukur-a!» – dedi Maksim Maksimich derazaning oldiga kelib. – Juda ajoyib aravacha ekanmi! – deb ilova qildi u, – bironta amaldor tergov ishi bilan Tiflisga ketayotgan bo'lsa kerak, aftidan, biz tomondagi tog'larni bilmasa kerak! Eh-he, og'ayni, bizning tog'lar bilan o'ynashib bo'lmaydi, bu tog'lar ingliz aravachalarining ham shalog'ini chiqarib yuboradi! – O'zi kim ekan, – yuring, chiqib bilaylik...» Yo'lakka chiqdik. Yo'lakning oxiridagi uylardan birining eshigi ochiq edi. Izvoshchi bilan malay jomadonlarni o'sha uyga olib kirishmoqda edi.

– Menga qara, inim, – deb so'radi malaydan shtabskapitan, – anavi ajoyib aravacha kimniki?.. A?.. Juda yaxshi aravacha ekan-da!.. – Malay qayrilib ham qaramay, jomadonning qayishini yechar ekan, bir nima deb po'ng'illadi. Maksim Maksimichning jahli chiqib ketdi, beodob malayning yelkasiga turtdi-da: – Men sendan so'rayapman, azizim, – dedi.

- Kimning aravachasi deysizmi? Xo'jayinimniki...
- Xo'jayining kim?
- Pechorin...

¹ *Figaro* – fransuz yozuvchisi Bomarshening (1732–1790) «Sevilya sataroshi» va «Figaroning uylanishi» degan komediyalari qahramoni. Nihoyatda uddaburon, chaqqon va gapdon malay.

– A? Nima deding? Pechorin?.. Yo Parvardigor! Kavkazda xizmat qilmaganmi? – deb xitob qildi Maksim Maksimich yengimdan tortib. Uning ko‘zlarida shodlik uchqunlari chaq nab ketdi.

– Xizmat qilgan shekilli, men u kishiga yaqinda xizmatga kirganman, yaxshi bilmayman...

– Ha, ha!.. Shunaqa degin!.. Oti Grigoriy Aleksandrovichmi?.. Xo‘jayining bilan oshna edik, – deb ilova qildi shtabs-kapitan. Keyin malayning yelkasiga do‘stona bir tushirgan edi, malay gandraklab ketdi.

– Kechirasiz, taqsir, meni ishdan qo‘yyapsiz, – dedi malay qovog‘ini solib.

– Voy, seni qara-yu! Bilasanmi, og‘ayni, xo‘jayining qadrdon oshnam bo‘ladi, birga turganmiz. O‘zi qayerda qoldi?

– Pechorin N. degan polkovniknikida taom pishirgani qoldi, o‘sha yerda tunaydi, – dedi malay.

– Kechqurun bu yerga kelmaydimi? – dedi Maksim Maksimich, – yo uning oldiga biror ish bilan o‘zing borolmaysanmi, baraka topkur? Borsang, Maksim Maksimich shu yerda ekan, deb ayt, xuddi shunday degin, o‘zi biladi... senga to‘rt tanga aroq puli beraman...

Bunday arzimagan in‘omni eshitib, qarolning afti burishdi, ammo topshiriqni ado etaman deb, Maksim Maksimichni ishontirdi.

– Eshitsa, darrov yugurib keladi!.. – dedi Maksim Maksimich tantanali bir qiyofada. – Derazaning oldida kutib turaman. Eh, attang, polkovnik N. bilan tanish emasmanda...

Maksim Maksimich darvoza oldidagi xarrakka chiqib o‘tirdi, men o‘z xonamga kirib ketdim. Rostini aytsam, men ham Pechorinning kelishini betoqatlik bilan kutardim. Garchi shtabs-kapitanining gaplaridan keyin u haqda menda yaxshi fikr qolmagan bo‘lsa-da, mijozidagi ba‘zi bir xislatlari, nazarimda yomon emasdi. Bir soatlardan keyin nogiron samovar bilan choynak ko‘tarib kirdi.

– Maksim Maksimich, choyga tobingiz qalay? – deb qichqirdim derazadan.

– Qulluq, choy ichгим yo‘qroq.

– Keling, picha iching!

– Vaqt ham kech bo‘ldi, sovuq tushdi.

– Ixtiyoringiz! – Men yolg‘iz o‘zim choy icha boshladim, o‘n daqiqalardan keyin cholim kirib keldi. «Rost aytgan ekansiz, choy ichganimiz yaxshiroq, men uni kelarmikin, deb o‘tiruvdim... Odam ketganiga ancha bo‘ldi, biron ishi chiqib qolgan bo‘lsa kerak».

Apil-tapil bir finjon choy ichdi, ikkinchisiga ko‘nmadi, allaqanday xavotirlik bilan yana darvozaning oldiga chiqib ketdi. Pechorinning mensimaganligi uni ranjitgandi, yaqindagina chol menga u bilan do‘st bo‘lganligini aytgan va bir soatgina oldin ismimni eshitsa darrov yugurib keladi, deb ishonib o‘tirgan edi-da.

Derazani yana ochib, Maksim Maksimichni chaqirib, endi yotaylik deganimda, vaqt allamahol bo‘lib qolgan, qorong‘i ham tushgandi. Maksim Maksimich o‘zicha bir nimalar deb po‘ng‘illadi, yana chaqirgan edim, indamadi.

So‘ridagi shamni o‘chirmay, shinelga o‘ranib karavotga cho‘zildim, tezda mudrab ham qolibman, xiyla vaqtdan keyin Maksim Maksimich kirib uyg‘otmaganida, qotib uxlar-kanman. Maksim Maksimich chubug‘ini stolga tashladi-da, uyning ichida aylanib yurdi, pechkani kovladi, keyin yotdi, anchagacha yo‘taldi, tufladi, to‘lg‘andi...

– Qandala chaqyaptimi? – deb so‘radim.

– Ha, qandala... – deb javob berdi u og‘ir xo‘rsinib.

Ertasiga barvaqt uyg‘ondim, ammo Maksim Maksimich mendan ilgari turgan ekan. Chiqib qarasam, darvozaning oldidagi xarrakda o‘tiribdi. «Men komendantga borib uchrashishim kerak, – dedi u, – agar Pechorin kelib qolsa, darrov menga odam yuboring, baraka topkur...»

Men xo‘p dedim. Maksim Maksimich yugurganicha ketdi... u xuddi badaniga yoshlikdagi bardamlik qaytib, yana chaqqon bo‘lib ketgandek edi.

Salqin va ajoyib bir tong payti edi. Baland tog‘lar tepasida uyulib yotgan oltindek bulutlar, xuddi yangi tog‘ silsilalari yanglig‘ tovlanardi; darvozaning oldi keng maydon bo‘lib, bugun yakshanba bo‘lganidan maydonning narigi boshidagi bozor liq to‘la odam; elkalariga asal solingan quti

ko'tarib olgan yalangoyoq osetinlik bolalar atrofimni o'rab olishdi, men ularni quvib yubordim. Hozir o'shalar ko'ngilga sig'armidi, mehribon shtabs-kapitanning tashvishi menga ham yuqqan edi.

O'n daqiqa ham o'tgani yo'q ediki, maydonning narigi boshida biz kutgan odam ko'rindi. U polkovnik N. bilan birga kelar edi, polkovnik uni mehmonxonagacha kuzatib, u bilan xayrlashdi-da, qal'aga qaytib ketdi. Men darhol nogironni Maksim Maksimichga yubordim.

Qaroli Pechorinning qarshisiga chiqdi-da, unga hozir arava qo'shilajagini bildirdi. Xo'jayiniga bir quti sigara keltirib berdi-da, navbatdagi buyruqni olib, shularni bajargani ketdi. Uning xo'jayini sigara chekib, bir-ikki marta homuza tortdi-da, darvozaning narigi tarafidagi xarrakka borib o'tirdi. Endi men sizlarga uning portretini chizib berishim kerak.

U o'rta bo'yli edi. Xipcha qaddi-qomati va keng yag'rini ko'chmanchi turmushda uchraydigan barcha qiyinchilik va mashaqqatlarga, iqlimning o'zgarib turishiga, poytaxt aysh-ishratlari hamda ruhiy kechinmalarga bardosh bera olishidan darak berardi, faqat ikkita pastki tugmasigina qadalgan, chang bosgan duxoba kamzulining ostidan ko'rinib turgan oppoq paxtadek ichko'ylagi uning pokiza odamligini bildirardi, kir qo'lqoplari esa, xuddi shu zodagon odamning bejirim qo'liga bichib tikilgandek ko'rinardi, bir qo'lidan qo'lqopini echgan edi, rangsiz barmoqlarining ozg'inligini ko'rib ajablandim. Yurganda erinib va qadamlarini bemalol tashlab yurardi, ammo qo'llarini silkitmay yurishi nazarimdan qochmadi, bu esa mijozining bir darajada yot ekanligining aniq shohidi edi. Ammo bular, yolg'iz o'zimning ko'rib-bilganim asosida hosil qilgan shaxsiy fikrim, bunga, albatta, ishonishingiz kerak, deb aytmayman. Xarrakka o'tirganida, xuddi tanasida bitta ham suyak yo'qdek ikki bukildi. Butun gavdasi bamisli asabiy odamning gavdasidek zaif va ojiz ko'rinardi, uning o'tirishi, baayni Balzak tasvirlagan va balda raqs tushaverib charchagan o'ttiz yoshli satang ayolning yumshoq oromkursida o'tirishiga o'xshardi. Dastlab yuziga ko'zim tushganida, yoshi yigirma uchlarda ko'rindi, keyin yaxshilab qarab, yo'q, o'ttizlarda

bo'lsa kerak, dedim ichimda. Jilmayishi xuddi bolalarnikidek edi. Badani go'yo ayol kishinikidek nozik bo'lib, tabiatan jingalak malla sochlari uning rangsiz va ochiq peshanasiga chiroyli bo'lib yoyilib tushgan, peshanasidagi bir-birini kesib o'tgan ikkita ingichka ajinni sinchiklab qaragandagina ko'rish mumkin edi, bu ajinlar faqat g'azablangan hamda ruhan tashvishlangan paytlaridagina aniqroq ko'rinsa kerak. Sochlarining malla bo'lishiga qaramay, mo'ylovi bilan qoshlari qop-qora edi – oq otning zotini qora yoli bilan qora dumi nishonlab turgandek, bu ham kishining zotini aniq ko'rsatib turardi. Burnining biroz tanqayganligi, tishlarining oppoq va qo'yko'zligini aytsam, portretini tamoman chizib bergan bo'laman, ammo uning ko'zlari haqida yana bir-ikki og'iz gapirib o'tishim kerak.

Avvalo, u kulganida ko'zlari kulmasdi. Ba'zi odamlarda shunday g'alati xislatni ko'rganingiz bormi? Bu narsa yo yovuz tabiatlikning yoki hech tarqalmaydigan chuqur g'amginlikning alomatidir. Ko'zlari yarim yopiq kipriklar orasidan xuddi fosfordek charaqlab yonib turadi. Bu charaqlashni ruhiy jo'shqinlik yoki xayolga berilish nishonasi deb bo'lmasdi. U bamisli silliq po'latdek ko'zni qamashtirardi-yu, ammo sovuq edi; birovga qaraganda qisqagina bir qarab qo'yardi, lekin xuddi badaningni teshib o'tib ketgudek o'tkir hamda vazmin qarardi, bu – betamiz va dag'al bir savol berib turgandek, kishiga yoqmasdi. Agar uning qarashi bu qadar beparvo va sokin bo'lmaganida edi, uni surbetlarcha qarash desa bo'lardi. Bu mulohazalarni, balki uning hayotidagi ba'zi tafsilotlardan xabardor bo'lganim uchun aytayotgandirman, qiyofasi boshqa odamlarda butunlay o'zgacha ta'sir qoldirar ehtimol, ammo uning ta'rifini mendan boshqa hech kimdan eshitolmaysiz, shuning uchun tasvirim bilan kifoyalanishga majbursiz. Oxirida shuni ham aytishim kerakki, u ancha ko'hlikkina, xotin-qizlarga yoqadigan, kelishgangina kishi edi.

Arava qo'shilib bo'lgan edi. Do'gara bog'langan qo'ng'iroq ahyon-ahyonda jaranglab qo'yardi, Pechorinning qaroli xo'jayinning oldiga ikki marta kelib, hamma narsa tayyorligini bildirdi, ammo Maksim Maksimichdan hamon

darak yo'q edi. Yaxshiyamki, Pechorin Kavkaz tog'larining ko'm-ko'k cho'qqilariga xayolchanlik bilan qarab o'tirar va yo'lga o'tlanishga oshiqmayotgandek ko'rinardi. Men uning yoniga borib:

– Agar yana biroz kutsangiz, qadrdon do'stingizni bir ko'rib ketardingiz, – dedim.

– E-ha, darvoqe! – deb tez javob qaytardi u. – Kecha menga aytishuvdi, qani o'zi? Men maydon tomonga qayrilib qaragan edim, yugurib kelayotgan Maksim Maksimichni ko'rdim... U tezda yonimga yetib keldi, negadir harsillab nafas olardi; yuzidan do'ldek ter oqardi, ho'l bo'lib ketgan oq sochlari bosh kiyimining ostidan chiqib, peshanasiga yopishib qolgandi, tizzalari dir-dir titrardi... Pechorinning bo'yniga o'zini tashlamoqchi edi, biroq Pechorin, garchi suyungandek tabassum bilan bo'lsa-da, sovuqqina qo'l uzatdi. Shtabskapitan bir lahza qotib qoldi, keyin uning qo'lini ikki qo'li bilan ushlab ko'rishdi, harsillaganidan tili gapga kelmasdi.

– Juda xursandman, azizim Maksim Maksimich! Xo'sh, sog'salomatmisiz? – dedi Pechorin.

– Sen-chi? Sen... – dedi chol ko'zlariga yosh olib. – Necha yillar... necha kunlar... ha, yo'l bo'lsin?

– Eronga – undan ham nariga...

– Hozirning o'zida-ya?... Ha, biroz shoshma, azizim! Nahotki, hozir ko'rishsag-u, ayrilsak? Ko'pdan buyon diydor ko'rishmadik...

– Men ketay endi, Maksim Maksimich, – deb javob berdi Pechorin.

– Yo Parvardigor! Tavba! Ha, muncha shoshilmasang? Senga aytadigan ko'p gaplarim bor... Ko'p narsalarni sendan so'ramoqchi edim. Xo'sh, qalay? Iste'fodamisan? Nimalar bilan mashg'ulsan?

– Zerikdim! – deb javob berdi Pechorin kulimsirab.

– Qal'adagi hayotimiz yodingdami? Juda ovbop joylar edi-ya? Ovga judayam ishqiboz eding... Bela-chi?

Pechorinning rangi dokadek oqarib ketdi, yuzini o'girdi.

– Ha, esimda! – dedi u va shu ondayoq jo'rttaga homuza tortdi.

Maksim Maksimich yana bir-ikki soatga qolgin deb, yalina boshladi.

– Birga tushlik qilardik, ikkita qirg‘ovulim bor, – derdi u, – bu yerning kaxetin musallasi juda yaxshi bo‘ladi, albatta, gruzin sharobidek emas-ku, ammo juda a‘lo navdan, gurunglashib o‘tirardik. Peterburgda kechirgan hayotingni menga gapirib berarding...

– Gapirib beradigan hech narsa yo‘q, qimmatli Maksim Maksimich. Xo‘p, xayr endi, men shoshib turibman. Rahmat, meni unutmabsiz, – deb ilova qildi Pechorin cholning qo‘lidan ushlab.

Cholning qovoqlari osildi. U xafa va ranjigan edi, garchi buni yashirishga tirishsa-da, yashirolmasdi.

– Unutmabsiz emish! – deb to‘ng‘illadi u, – men-ku, hech narsani unutganim yo‘g‘-a... Ha, mayli, ixtiyoringiz. Siz bilan bunday ko‘risharman deb sira o‘ylamagan edim...

– Keling, qo‘ying, xafa bo‘lmang! – dedi Pechorin uni do‘stona quchoqlab. – Nahotki, men o‘sha siz bilgan Pechorin bo‘lmasam? Nachora... har kimning taqdiri turlicha bo‘larkan... Yana ko‘rishamizmi, yo‘qmi, Xudo biladi! – Bu gaplarni aytarkan, u foytunga o‘tirdi, izvoshchi ham tizginini qo‘liga olgan edi.

– To‘xta, to‘xta! – deb qichqirdi birdan Maksim Maksimich foytunning eshigini ushlab, – esimdan chiqayozibdi. Sening qog‘ozlaring menda qolgan edi, Grigoriy Aleksandrovich. O‘zim bilan birga olib yuribman, seni Gruziyada uchratarman degandim, mana, xudo bu yerda yo‘liqtirdi. Ularni nima qilay?

– Bilganingizni qiling! – deb javob berdi Pechorin. – Xayr!

– Eronga ketyapsanmi? Qachon qaytasan? – deb baqirib qoldi Maksim Maksimich uning ortidan.

Foytun ancha yerga borib qolgan edi, Pechorin qo‘lini silkitdi, buni – qaytishim mahol, qaytib ham nima qilaman, deb tushunish mumkin edi.

Qo‘ng‘iroqning jarangi ham, foytun g‘ildiraklarining shag‘al yo‘ldan taraqlab borishi ham ortiq eshitilmas edi,

ammo bechora chol turgan joyida hamon qimir etmay, chuqur xayolga botib turardi.

Garchi alamdanda ko'zlarida yoshlari yaltirab ko'rinsa-da, chol o'zini beparvolikka solib:

– Ha, qadrdonlikka qadrdon edi-ku, ammo hozirgi zamonda qadrdonlikning qadri qolibdi deysizmi, – derdi. – Uning uchun men kim edim? Badavlat yoki amaldor bo'lmasam, uning ustiga, yoshimiz ham teng emas... Peterburgga borib darrov olifta ham bo'lib olibdi. Foytunini qarang! Yuki ham bir olamga yetgulik! Qaroli ham o'ziga bino qo'ygan. – Bu so'zlarni Maksim Maksimich kinoyali kulgi bilan aytdi. – Ayting-chi, bu haqda nima deysiz? – dedi menga qarab. – Eronga borib nima qilarkin? Odamning kulgisi qistaydi, rost! Ishonib bo'lmaydigan yengiltak odam ekanligini ilgari ham bilardim. Eh, attang, bir kunmas, bir kun o'z boshini yeydi-da! Bundan boshqacha bo'lishi ham mumkin emas! Eski do'stni unutgan odam, odam emas, degan gap rost ekan! – Shu gaplarni ayta turib, o'z hayajonini yashirmoq uchun yuzini teskari burdi-da, hovlida turgan aravasi atrofida aylanib yurdi, ko'zlariga dam-badam kelib turgan yoshni yashirmoq uchun o'zini arava g'ildiraklariga qarayotganga solardi.

– Maksim Maksimich, – dedim yoniga borib. – Pechorin tashlab ketgan qog'ozlar qanaqa qog'oz edi?

– Kim biladi deysiz! Allaqanday yozuvlar shekilli...

– Uni nima qilasiz?

– Nima qilardim! Patron yasattiraman.

– Undan ko'ra, menga bera qoling.

U menga ajablanib qaradi-da, bir nimalar deb po'ng'illab, jomadonini titkilay boshladi. Jomadondan bir daftarni olib, zarda bilan yerga irg'itdi, ikkinchi daftarni ham, uchinchisini ham... o'ninchisini ham shunday qildi, uning bu qilig'ida allaqanday bolalarga xos injiqlik bor edi, ham kulgim qistar, ham rahmim kelardi...

– Hammasi shu, – dedi u, – shunday matohga ega bo'lishingiz bilan tabriklayman...

– Endi bularning ixtiyori mendami?

– Gazetada chop ettirasizmi, bilganingizni qiling. Menga nima! Nima, men uning do'sti yo qarindoshimanmi? Rost, bir boshpanada uzoq turganmiz... Nima, kimlar bilan turmabman?

Qog'ozlarni yig'ishtirdim-da, shtabs-kapitan yana aynib qolmasin degan qo'rquvda, darrov olib chiqib ketdim. Ko'p o'tmay okaziya bir soatdan keyin jo'naydi deb bildirishdi, men aravani qo'shishga buyurdim. Bosh kiyimimni kiyib turuvdim hamki, shtabs-kapitan kirib keldi, u safarga chiquvchi odamga o'xshamasdi, qiyofasidan qandaydir iztirob sezilar, qovog'i soliq edi.

– Siz-chi, Maksim Maksimich, ketmaysizmi?

– Yo'q.

– Nega endi?

– Hali komendantga uchraganim yo'q, podshohlikka qarashli omonatlarni topshirishim kerak...

– Boya borgandingiz-ku?

– Boruvdim, – dedi u ikkilanib. – Uyida yo'q ekan... kutishga vaqtim bo'lmadi.

Uning holiga tushundim: bechora chol umrida ilk marta, rasmiy til bilan aytganda, shaxsiy zarurat yuzasidan xizmat ishini tashlagan bo'lsa kerak, buning evaziga qanday mukofot oldi!

– E, attang, – dedim men unga, – bevaqt ajrashar ekanmiz-da, Maksim Maksimich.

– Biz ilmsiz qariyalar sizlarga teng bo'la olarmidik! Sizlar mag'rur, dimog'dor yoshlarsiz, bu yerda, cherkaslarning o'qi yog'ilib turganida, bizni taniysizlar... Keyin ko'rishib qolsak, biz kabilarga qo'l berishga ham or qilasizlar.

– Men bunday ginaga loyiq ish qilmagan bo'lsam kerak, Maksim Maksimich.

– Gap kelganda aytdim-qo'ydim-da, to'g'risi, sizga baxt va oq yo'l tilayman.

Biz xiyla sovuq xayrlashdik. Mehribon Maksim Maksimich birdan o'jar va qo'rs shtabs-kapitanga aylanib qoldi! Nima sababdan deng? Pechorinning xayoli parishonlikdanmi yo bo'lmasa boshqa sababdanmi, shtabs-kapitan uning bo'ynidan quchoqlab ko'rishaman deb turganida, faqat qo'lini berib

ko'rishgani uchun! Yosh yigitning eng yaxshi orzu-tilaklaridan judo bo'lganligini, kishilarning ishlari va tuyg'ularini unga go'zal qilib ko'rsatib turgan pardaning birdan ko'tarilib ketganini ko'rish odamning rahmini keltiradi, garchi o'zining eski xatolariga tezda o'tib ketuvchi, ammo eskisidan ham shirinroq xatolar kelishini bilsa-da, rahming keladi... Ammo Maksim Maksimichdek keksayganingda, bu xatolarning o'rnini nima ham bosa oladi? Noilojdan yuraging toshdek qotadi, ruhing azob chekadi...

Yolg'iz o'zim jo'nab ketdim.





PECHORINNING JURNALI

SO'ZBOSHI

Yaqinda Pechorin Erondan qaytayotib yo'lda vafot etibdi, deb eshitdim. Bu xabarni eshitib rosa quvondim, chunki uning o'limi menga bu xotiralarni bosib chiqarishga huquq berardi, men ham bundan foydalanib, birovning asari tagiga o'z imzoimni qo'yib oldim. Bunday arzimagan qalbakilik uchun kitobxonlar meni ayblashmasa kerak deb umid qilaman.

Endi men umrimda tanimagan bir kishining qalb sirlarini oshkor qilishim sabablarini ochib berishim kerak. Uning do'sti bo'lganimda ham mayli edi: chunki jonajon do'stning makkorona maqtanchoqligi barchaga ma'lumdir, ammo men uni umrimda bir martagina katta yo'l ustida ko'rganman. Binobarin, menda unga nisbatan do'stlik niqobi ostiga yashirilib, sevgan odamining vafotini yoki baxtsizlikka uchrashini kutuvchi va o'lgandan keyin uning tepasida ta'na, gina, haqorat va afsuslar yog'diruvchi mavhum dushmanlik yo'q.

Bu xotiralarni qayta-qayta o'qir ekanman, o'zining ojiz hamda zaif tomonlarini va gunohlarini shafqatsiz suratda fosh etgan bu kishining chindan ham samimiy ekanligiga ishondim. Kishi ruhining tarixi, hatto eng pastkash kishi ruhining tarixi, agar bu tarix yetuk aqlning o'z-o'zini kuzatishi natijasida yozilgan va birovlarda rag'bat hamda hayrat uyg'otish uchun yozilmagan bo'lsa, bu tarix butun boshli bir xalqning tarixidan ham qiziqroq va foydaliroq bo'ladi. Russo «Tavba»¹sining eng birinchi kamchiligi shundaki, u avval asarni o'z do'stlariga o'qib bergan.

¹ Russoning «Tavba»si – mashhur fransuz yozuvchisi va faylasufi Jan Jak Russoning (1712–1778) o'z tarjimayi holi tarzida yozgan asari.

Shunday qilib, qo'linga tasodifan tushib qolgan jurnalning parchalarini men faqat foyda keltirsin, deb chop etdim. Garchi men jurnaldagi ismlarni o'zgartirgan bo'lsam-da, o'z akslarini ko'rgan kishilar o'zlarini tanib olarlar va balki, bu olamdan o'tgan kishining hozirgacha qoralab kelgan qilmishlarini endi oqlarlar; biz, o'zimiz tushungan narsalarni deyarli hamisha oqlab kelamiz.

Bu kitobga men Pechorinning faqat Kavkazda kechirgan hayotiga oid bo'lgan narsalarnigina kiritdim, xolos. Qo'limda uning yana bitta qalin daftari qoldi, unda Pechorin o'zining butun hayotini bayon qilgan. Bu daftarni ham o'quvchilarning muhokamasiga tashlash vaqti kelib qolar; ammo talaygina sabablarga ko'ra, hozircha bu mas'uliyatni o'z zimmamga ololmayman.

Balki, ba'zi kitobxonlar Pechorinning xarakteri haqida fikrimni bilmoqni istashar? Ularga javobim – ushbu kitobning sarlavhasidir. «Iye, bu zaharli kinoya-ku!» derlar. Bilmadim.

I

Taman

Rossiyaning dengiz bo'yidagi shaharlari ichida eng rasvosi Tamandir. U yerda men ochimdan o'layozganman, buning ustiga, meni cho'ktirib yubormoqchi ham bo'lishgan. Bekat aravasida yarim kechada shaharga kirib keldim. Aravakash uch otli aravani shaharga kiraverishdagi yakkayu yagona g'ishtin bino oldiga keltirib to'xtatdi, uchala otning ham darmoni qurigan edi. Qora dengizlik soqchi kazak qo'ng'iroqning jaranglashini eshitib, kalovlanib vahima bilan: «Kim u?» – deb baqirdi. Politsiyachi bilan o'nboshi chiqdi. Men ularga zobitman, hukumat ishlari bilan harakatdagi bo'linmaga ketyapman, deb tushuntirdim-da, poshsholik uy talab qildim. O'nboshi bizni shaharga boshladi. Qaysi uyga borib so'ramaylik – band. Sovuq edi, uch kechadan buyon uxlamagan, juda charchagan edim, jahlim chiqdi. «Biron joyga olib bor tezroq, muttaham! Jahannamga bo'lsa ham

mayli, ishqilib, joy bo'lsa bo'lgani!» – deb qichqirdim. «Yana bitta uy bor, – deb javob berdi o'nboshi bo'ynini qashlab, – ammo janoblariga to'g'ri kelmasa kerak, toza joy emas!» Oxirgi so'zining ma'nosiga yaxshi tushunmay, boshla deb buyurdim, eski-tuski chaldevorlar yonidan, allaqanday iflos ko'chalardan uzoq yurib, oxiri dengiz bo'yidagi kichkina bir kulbaning oldiga yetib to'xtadik.

To'lin oy yangi boshpanamning qamish tomlari va oppoq devorlarini yoritib turardi. Atrofi tosh devor bilan o'rab olingan qo'rada yana bir uy qaqqayib turar, bunisi avvalgisidan ham battar, kichkina edi. Uyning devori tikka kesib tushgan dengiz qirg'og'ining naq labiga borib taqalardi, pastda qop-qorayib ko'rinuvchi to'lqinlar tinmay shovullardi. Oy notinch, ammo o'ziga itoat qiluvchi dengiz sathiga jimgina qarab turar, uning yog'dusida ikki kema ko'rinar, ular qirg'oqdan ancha yiroqda turardi, kemalarning xuddi o'rgimchak to'riga o'xshagan arqonlari g'ira-shira ufqda qorayib ko'zga tashlanardi. «Bandargohda kemalar bor ekan, demak, ertaga Gelenjikka jo'nayman», deb o'yladim.

Xizmatchim yo'nalishda xizmat qiluvchi kazak edi. Unga jomadonimni olib, aravakashga javob berib yuborishni buyurdim-da, uy egasini chaqira boshladim, hech kim javob bermadi, yana taqillatsam, javob bo'lmadi... endi qandoq bo'ladi? Nihoyat, dahlizdan o'n to'rt yoshlarga kirgan bir bola chiqdi.

«Uyning egasi qani?!» «Yo'q». «Nega yo'q? Butunlay yo'qmi?» «Butunlay yo'q». «Xotini-chi?!» – «Xotini shaharga ketgan». «Eshikni kim ochib beradi?» – dedim va eshikni bir tepgan edim, o'zi ochilib ketdi: uydan dimoqqa rutubat hidi urildi. Oltingugurt chaqib, bolaning burniga tutdim, qarasam, bolaning ikki ko'zi oppoq. Bola tug'ma ko'r ekan. U oldimda qimir etmay turardi, men uning yuziga sinchiklab qaray boshladim.

Rostini aytsam, hamma ko'rlar, qiyshiqlar, karlar, so-qovlar, cho'loqlar, qo'l-oyoqsizlar, bukurlar va shularga o'xshaganlarni yomon ko'raman. Kishining tashqi qiyofasi bilan ruhi o'rtasida allaqanday g'alati bir munosabat borligini,

biron a'zosidan ajragan kishining ruhi ham biron sezgisini yo'qotishini payqaganman.

Shunday qilib, ko'r bolaning yuziga tikilib qaray boshladim, ammo ko'zsiz yuzdan nimani o'qiy olish mumkin?.. Uning yuziga beixtiyor achinib qarab turgandim, birdan yupqa lablarida bilinar-bilinmas tabassum aks etdi, nima uchundir bu tabassum menda qandaydir yomon bir taassurot uyg'otdi. Miyamda, bu ko'r bola uncha ko'rga o'xshamaydi, degan shubha tug'ildi, ammo ko'ziga sun'iy ravishda parda bostirib olmagan bo'lsa kerak, chunki nima uchun bunday qiladi, deb o'zimni qancha ishontirsam-da, hech inongim kelmasdi. Ammo, na iloj? Men ko'p narsaga shubha bilan qaraydigan odamman...

«Uy egasining o'g'limisan?» – deb so'radim, nihoyat. «Yo'q». «Bo'lmasa, kimsan?» «Yetimchaman». «Bekaning farzandlari yo'qmi?» «Yo'q, bitta qizi bor edi, tatar bilan birga dengizning narigi tarafiga qochib ketgan». «Qanaqa tatar bilan?» «Kim biladi, bir qrim tatari bilan, u qayiqchi edi».

Uyga kirdim, uyning butun anjomi ikkita xarrak, stol va pechka yonida turgan kattakon sandiqdan iborat edi. Devorda bitta ham sanam ko'rinmasdi, bu – yomon alomat! Oynasi siniq derazadan dengiz shamoli g'irillab urib turardi. Jomadonimdan so'xta sham olib yoqdim-da, buyumlarimni joylashtira boshladim, qilichim bilan miltig'imni burchakka tirab, to'pponchamni stolning ustiga qo'ydim, yengsiz chakmonimni xarrakka yozdim, kazak esa chakmonini boshqa bir xarrakka to'shadi. O'n daqiqalardan keyin kazagim xurрак torta boshladi, ammo men sira uxlayolmadim. Qorong'i uyda yotarkanman, so'qir bola sira ko'z o'ngimdan ketmasdi.

Shu zaylda bir soatcha o'tdi. Derazadan mo'ralab turgan oy shu'lasi uyning sahnida jilva qilardi. Birdan uy sahniga tasmadek tushib turgan oy shu'lasiga bir ko'lanka tushdi-yu, lip etib o'tib ketdi. Qaddimni ko'tarib, derazadan qaradim, kimdir yana deraza yonidan yugurib o'tdi-da, g'oyib bo'ldi. Bu kimsaning tik qirg'oqdan pastga tushib ketganiga ko'zim yetmasdi. Undoq desa, uning boradigan boshqa joyi ham

yo'q edi. O'rnimdan turdim-da, peshmatimni kiydim, belimga xanjarimni taqib, sekin uydan chiqdim, birdan oldimdan ko'r bola chiqib qoldi. O'zimni darrov devorning panasiga oldim, bola yo'ldan adashmasdan, ammo ehtiyotkorlik bilan qadam tashlab, yonimdan o'tib ketdi. Qo'ltig'iga bir tuguncha qistirib olgandi. Bola bandargoh tomonga burildi-da, tikka kesib tushgan so'qmoq yo'ldan pastga qarab ketdi. «Shu kuni soqovlar tilga kiradi, ko'rlar ko'radigan bo'ladi» deb o'yladim-da, bolani ko'zdan yo'qotmaslik uchun izma-iz boraverdim.

Bu orada oyni bulut qoplab, dengizdan tuman ko'tarila boshladi. Yaqin joyda turgan kemandi orqa tomonidagi fonus g'ira-shira miltillab turardi, kemani g'arq ettiraman deguvchi to'lqinlar qirg'oq bo'yida ko'pirib yaltirardi. Tepadan bazo'r pastga tushib borayotib qarasam, ko'r bola biroz to'xtab turdi-da, keyin o'ng tomonga burilib ketdi. Bola suv labiga shunday yaqin yurib borardiki, nazarimda, hozir uni to'lqin tortib ketadigandek edi. Ammo uning toshdan toshga bemalol sakrab, o'nqir-cho'nqir joylarni aylanib o'tishidan uning bu yerlardan ko'p yurgani ko'rinib turardi. Axiyri bir yerga borib to'xtab, nimagadir quloq solgandek bo'ldi, keyin yerga o'tirib, tugunini yoniga qo'ydi. Men qirg'oqning dengizga turtib chiqqan joyida turib, uning bu harakatlarini kuzatardim. Bir necha daqiqadan keyin narigi tomondan oq kiygan bir kimsa ko'rindi-da, ko'r bolaning yoniga kelib o'tirdi. Ularning gapini ba'zan shamol men tomonga uchirib keltirardi.

– Nima deysan, ko'r, bo'ron turdi-yu, – dedi ayol kishining tovushi. – Yanko kelmaydi.

– Yanko bo'rondan qo'rqmaydi, – deb javob berdi bola.

– Tuman quyuqlashmoqda, – deb e'tiroz bildirdi ayol g'amgin tovush bilan.

– Soqchi kemalar yonidan tumanda o'tish qaytaga osonroq bo'ladi, – deb javob berdi ko'r bola.

– Cho'kib ketsa-chi?

– Cho'kib ketsa, yakshanba kuni cherkovga yangi tasma taqmay borasan-da.

Jim bo'lishdi, bir narsa meni hayratda qoldirdi: ko'r bola men bilan Malorossiya¹ lahjasida gaplashgandi, hozir bo'lsa sof rus tilida so'zlashar edi.

«Ana, ko'rdingmi, aytganim rost chiqdi, – dedi bola chapak chalib. – Yanko dengizdan ham, shamoldan ham, tumandan ham, qirg'oq soqchilaridan ham qo'rqmaydi: quloq sol, bu – suvning shovullashi emas, meni aldab bo'psan, bu – uning uzun eshkaklarining ovozi».

Ayol irg'ib o'rnidan turdi-da, bezovtalanib yiroqlarga tikila boshladi.

«Dovdirayapsan, ko'r, – dedi u, – hech narsa ko'rinmayaptiku».

Iqrorman, qayiqqa o'xshagan biron narsa ko'rinarmikan deb, olisga shuncha tikilib qarasam ham, hech narsa ko'rinmasdi. Shu zaylda yana o'n daqiqacha vaqt o'tdi, keyin birdan tog'dek-tog'dek baland to'lqinlar orasida bir qora nuqta ko'rindi, nuqta goh katta bo'lib ko'rinardi, goh yana kichrayib ketardi. Qayiq to'lqin ustiga asta-sekin ko'tarilar, yana birdan pastga uchib tushib, qirg'oq tomon yaqinlashib kelardi. Bunday kechada yigirma chaqirimcha keladigan bo'g'ozdan o'tishga botingan qayiqchi juda dov-yurak, uni bunday qilishga majbur etgan sabab ham o'ta muhim bo'lsa kerak! Shunday deb o'ylarkanman, yuragim gupillab urib, kichkina qayiqqa qarab turardim, ammo qayiq o'rdakdek sho'ng'ir, keyin xuddi qanot qoqqandek, eshkaklarini ko'tarib, yana ko'pirib turgan to'lqinlar orasidan chiqib qolardi. Men qayiq kelib o'zini qirg'oqqa uradi-yu, chil-chil bo'lib sinib ketadi deb o'yladim, biroq u epchillik bilan bir yonga burildi-da, kichkinagina bandarga omon-eson kirib oldi. Qayiqdan o'rta bo'yli, qo'y terisidan tikilgan tatarcha qalpoq kiygan bir kishi chiqdi-da, qo'li bilan imlab, bularni chaqirdi, uchovlashib qayiqdagi narsalarni tushira boshladilar, yuk shu qadar katta ediki, nega qayiq cho'kib ketmaganiga hali ham ajablanaman. Ular yelkalariga bittadan tugun ko'tarib, qirg'oq bo'ylab ketishdi-da, saldan keyin

¹ *Malorossiya* – Ukraina va Janubiy Rossiya bir vaqtlar Malorossiya deb atalardi.

ko'zdan g'oyib bo'lishdi. Men uyga qaytdim, ammo iqror bo'lishim kerakki, bu ajoyib narsalar meni xavotirga solib qo'ygan edi, zo'rg'a tong ottirdim.

Kazagim uyg'ondi va kiyinganimni ko'rib hayron bo'ldi, biroq unga buning sababini aytmadim. Parcha-parcha bulutlar suzib yurgan ko'm-ko'k osmonni, yiroqdan binafsharang ho-shiyadek ko'rinib turgan Qrim sohilining orqasidagi baland qoyani, uning tepasidagi mayak minorasini derazadan birpas tomosha qilib turdim-da, qal'a boshlig'idan Gelenjikka ketish vaqtimni bilib kelay deb, Fanagoriya qal'asiga jo'nadim.

Afsus! Qal'a boshlig'i qat'iy bir narsa deyolmadi. Bandargohda turgan kemalarning barchasi yo soqchi kemalar, yo hali yuklari ortilmagan savdo kemalari ekan. «Balki, uch-to'rt kundan keyin pochta kemasi kelib qolar, o'shanda biror chora ko'rarmiz!» – dedi qal'a boshlig'i. Uyga asabiylashib qaytdim. Ostonada kazagim kutib turar, yuzida qo'rquv aks etgan.

– Ish chatoq, janobi oliylari! – dedi u.

– Shunday, og'ayni, qachon ketishimizni xudo biladi! – Buni eshitib, kazagimning xavotiri battar ortdi, menga engashib turib, shivirlay boshladi:

– Bu yer rasvo joy ekan! Boya Qora dengizlik politsiyachini uchratdim, u mening tanishim, bultur otryadimizda xizmat qilgan edi, men unga tushgan joyimizni aytgandim, u birdan menga: «U yomon joy, og'ayni, odamlari yaramaydi!..» – deb qoldi. Rostdanam, u qanaqa ko'r bola! Har yerda yolg'iz yursa, bozorga ham yolg'iz borsa, nonni ham, suvni ham o'zi tashisa... bu yerdagilar unga o'rganib qolganga o'xshaydi.

– Ha, nima bo'пти, hech bo'lmasa, uy egasi ko'rindimi?!

– Boya siz yo'g'ingizda bir kampir qizi bilan birga keldi.

– Qanaqa qiz? Uning qizi yo'q.

– Qizi bo'lmasa, xudo biladi, kimi ekan, ana, kampir shu tobda uyda o'tiribdi.

Men kulbaga kirdim. Guvillab yonayotgan pechkada taom qaynamoqda, ammo, nazarimda, yemak kambag'al oila uchun ancha qimmat ko'rindi. Kampirdan nima so'ramay,

nuqul, «Qulog'im kar, eshitmaydi», deb javob beraverdi. Nima qilish mumkin? Undan gap chiqavermaganidan keyin, pechkaga shox tashlab o'tirgan ko'r bolaga murojaat qildim. «Qani, ayt-chi, ko'r shayton, – dedim, qulog'idan cho'zib, – kechasi tugun ko'tarib qayoqqa bording?» Bola yig'lab yubordi, oh-voh qilib qichqira boshladi: «Qayoqqa boribman?.. Hech qayoqqa borganim yo'q... tugun bilan? Qanaqa tugun bilan?» Bu safar kampirning qulog'i ochilib: «Yetimcha bolaga tuhmat qilishning nima keragi bor! Nega unga azob berasiz? Nima yomonlik qildi sizga?!» – deb po'ng'illadi. Bu gaplar jonimga tegdi-da, o'sha sirning kalitini, albatta, topishga ahd qilib, uydan chiqdim.

Chakmonimga o'ranib, devor tagida yotgan xarsangga o'tirib, olislarni tomosha qila boshladim. Oldimda tungi bo'ron quturtirgan bepoyon dengiz yastanib yotardi, uning uyquga ketuvchi shahar shivir-shiviriga o'xshagan bir xil shovqini o'tmish yillarimni eslatdi, xayolimni shimol tomonlarga, sovuq poytaxtimizga olib ketdi. Chuqur xayolga ketib, o'zimni unutibman. Shu alfozda bir soatcha, balki undan ham ko'proq vaqt o'tgandir. Birdan qulog'imga ashulaga o'xshagan bir narsa chalindi. Rost, u haqiqatan ham ashula edi, ayol kishining qo'ng'iroqdek ovozi eshitalardi, ammo qayerdan kelyapti? Quloq soldim, ashulaning ohangi juda g'alati tuyuldi: goh cho'ziq va g'amgin, goh tez va sho'x edi. Atrofga qarasam, hech zog' ko'rinmadi, yana quloq soldim, ashula xuddi osmondan eshitalayotganday tuyuldi. Boshimni ko'tarib qarasam, men turgan uyning tomida yo'l-yo'l ko'ylak kiygan, sochlari yoyilgan bir qiz turibdi, xuddi suv parisi deysiz. Qiz kafti bilan ko'zlarini oftobdan pana qilib, yiroqlarga tikilib qarar, goh kular va o'z-o'zi bilan gapirishar, goh yana ashulasini aytardi.

Uning ashulasi hamon yodimda:

*Moviy dengiz ko'ksida
Erkin-erkin osuda –
Oq yelkanli kemalar
Qatorlashib yelarlar.*

*Shu kemalar ichida
 Bordir mening qayiqcham,
 Qo'sh eshkagi bor uning,
 Yelkani bo'lmasa ham.
 Qo'zg'alganda zo'r shamol -
 Eski kemalar darhol
 Yelkanlarin ochadi,
 Har tomonga qochadi.
 Dengizga yolvoraman
 Ohista tovush bilan:
 «Shafqatsiz dengiz, tegma,
 Sevikli qayiqchamga:
 Chunki u olib kelar
 Qimmatbaho narsalar,
 Tunda uni dovyurak
 Bir bahodir boshqarar».*

Birdan miyamga «bu ovoz kechasi eshitilgan ovozga o'xshaydi-ku», degan fikr keldi, bir nafas o'ylanib qoldim, keyin boshimni ko'tarib qarasam, tomda qiz yo'q edi. Birdan u boshqa bir ashulani aytib, yonimdan yugurib o'tib qoldi va barmoqlarini qirsillatib, kampirning yoniga kirdi, ular o'rtasida bahs boshlanib ketdi. Kampirning jahli chiqar, qiz esa xaxolab kulardi. Bir payt mening undinam¹ yana sakrab-sakrab chiqdi: oldimga kelib to'xtadi-da, mening shu yerdaligimga ajablangandek, ko'zlarimga tikilib qaradi, keyin qayrilib, asta yurib bandargoh tomonga ketdi. Ammo voqea bu bilan yakun topmadi, u kechgacha uyim atrofida sakrab, ashula aytib yurdi. Juda g'alati qiz! Unda jinnilik alomati ko'rinmas edi, aksincha, ko'zlari menga javdirab tikilib-tikilib boqardi, ular qandaydir jozibali kuchga to'lgandek va har safar menga qaraganda «ha, nima demoqchisan?!» deb turgandek tuyulardi. Biroq, endi gap boshlashim bilan qiz mug'ambirona jilmayib, qochib ketardi...

Umrimda bunaqangi ayolni sira ko'rgan emasman. Uni aytarli go'zal deb bo'lmasdi, ammo go'zallik haqida menda

¹ *Undina* - (lot. *unda* - to'lqin degani) rivoyatlarda - suv tangrisi. Unga ko'ra, undina farzand ko'rmoq va shu orqali odam ruhiga ega bo'lmoq uchun yo'lovchilarni suv tagiga aldab olib kirib ketar ekan.

boshqacha fikr bor. Unda nasldorlik alomatlari ko'p edi... otlardagi nasldorlik singari, ayollarda ham nasldorlik muhim o'rin tutadi, buni yosh Fransiya kashf etgan. U, ya'ni yosh Fransiya emas, balki nasldorlik, ko'pincha, qadam tashlashdan, qo'l va oyoqdan bilinib turadi, ayniqsa, bunda burunning ahamiyati katta. Rossiyada kichkina oyoqdan ko'ra alifdek burun kamroq uchraydi. Mening ashulachim ko'p bo'lsa 18 yoshlarda edi. Qaddi-qomatinining g'oyatda xipchaligi, faqat uning o'zigagina xos bo'lgan bosh egib turishlari, uzun sarg'ish sochlari, oftobda sal qoraygan bo'yin va yelkalarining oltindek tovlanib turishi va, ayniqsa, xushbichim burni – bularning barchasi meni nihoyatda maftun etdi. Garchi uning menga zimdan boqishlaridan vahshiylik va shubhali narsalar uqsam-da, garchi tabassumlarida betayinlik bo'lsa-da, baribir, shaxsiy fikrga ega bo'lishning oqibati shu qizning xushbichim burnini ko'rib, huzur-halovatimni yo'qotdim. Men, Gyotening Minona'sini, ya'ni olmonlarga xos xayolot asosida yaratgan siymosini topdim, deb o'ylabman. Darhaqiqat, ular bir-biriga juda o'xshab ketardi, g'oyatda zo'r hayajonlanishdan birdan sokin bir holatga o'tib qolish, o'sha tagdor gaplar, o'sha sakrab yurishlar, o'sha g'alati qo'shiqlar...

Kechki payt qizni eshik oldida to'xtatib, gapga soldim.

«Ayt-chi, go'zalim, – deb so'radim, – bugun tomدا nima qilib yuruvding?» «Shamol qaysi tomondan kelyapti deb qaradim» «Buni nima qilasan?» «Shamol kelgan tomondan baxt ham keladi». «Ajabo, baxtni ashula bilan chaqirmoqchimidig?» «Ashula bor joyda baxt ham bo'ladi». «Ashula baxtsizlik keltirsa-chi?» «Keltirsa nima qipti? Yaxshilik bo'lmagan joyda yomonlik bo'ladi, ammo yomonlikning yonida yaxshilik ham bo'ladi». «Bu ashulani senga kim o'rgatdi?» «Hech kim. Xohlasam aytaveraman, kerak odam eshitadi, kerakmas odam tushunmaydi». «Isming nima, qo'shiqchim?» «Ismimni ism qo'ygan odam biladi». «Ismingni kim qo'ygan?» «Men qaydan bilay?» «Juda ichimdan top ekansan-ku! Ammo sen haqingda ba'zi narsalarni bilib oldim». Go'yo gapimning

¹ *Minona* – Gyotening «Vilgelm Meyster» degan asari qahramoni.

unga sira aloqasi yo'qdek, uning yuzida hech narsa aks etmadi, labini ham qimirlatmadi. «Kecha kechasi qirg'oq bo'yiga borganingni bilib oldim». Shundan keyin men, hamma ko'rganlarimni unga birma-bir aytib berdim, buni eshitib xijolat bo'larmikan desam, churq etmadi ham! Ovozining boricha xaxolab kuldi. «Ko'p ko'rgan bo'lsangiz ham, oz bilibsiz: bilganingizni ichingizda saqlang». «Qal'a boshlig'iga ma'lum qilsam-chi!» – buni juda jiddiylik bilan aytdim. Qiz birdan ashula aytdi-da, xuddi chakalakzordan hurkib chiqqan ohudek, sakrab-sakrab qochib ketdi. Keyingi gaplarim nojo'ya bo'ldi, aytilgan gapning qanday oqibatlarga olib kelishini bilmagan ekanman, keyin ancha pushaymon bo'lishimga to'g'ri keldi.

Kech kirib, qosh qoraydi, kazakka choy qo'yishni buyurdim-da, sham yoqib, stol yonida safar chubug'imni chekib o'tirdim. Endi ikki finjon choy ichib bo'luvdim hamki, birdan eshik g'ijirladi-yu, nafis ko'ylakning shitirlashi va qadam tovushlari eshitildi, bir seskanib, ortimga qarasam – mening o'sha undinam! U sekin ro'paramga kelib o'tirdi-da, ko'zlarini menga tikdi, nima uchunligini bilmadim-u, ammo bu qarashi nihoyatda latif ko'rinib ketdi: bu boqish yoshlik chog'larimda meni nari oborib, beri olib kelgan boqishlardan birini eslatdi. Qiz xuddi mendan savol kutib turgandek qarab o'tirardi, ammo men ham tushunolmagan holda xijolat tortib indamasdim. Qizning sal oqarinqiragan yuzi uning ruhiy hayajonlanishini ko'rasatar, qo'li stol ustini maqsadsiz timirskilar edi: qo'lining titrayotganini payqadim, ko'kragi goh ko'tarilar, goh nafas olmay turgandek bo'lardi. Bu maynavozchilik jonimga tega boshladi, sukunatni men eng oddiy gap bilan, ya'ni unga bir finjon choy taklif etish bilan buzmoqchi bo'lgandim, birdan qiz lip etib o'rnidan turdi-da, bo'ynimdan quchoqladi, nam, otashin bir o'pich lablarimda cho'pilladi. Ko'zlarim tinib, boshim aylandi, yigitlik ehtirosining barcha shiddati bilan bag'rimga bosib siqqan edim, qiz quchog'imdan xuddi ilondek sirg'alib chiqib, qulog'imga: «Bugun kechasi, hamma uxlaganda, dengiz bo'yiga chiq», – deb shivirladi-da, uydan

lip etib chiqib ketdi. U dahlizda turgan choynakni va yerda turgan shamni ag'darib ketdi. «Voy shayton qiz-ey», deb baqirdi, qolgan choyga umid bog'lab poxolda yotgan kazak. Shundan keyingina o'zimga kelibman.

Ikki soatlardan keyin, butun bandargoh sukunatga g'arq bo'lgach, kazagimni uyg'otdim. «To'pponchadan o'q uzganimni eshitsang, dengiz bo'yiga yugur», dedim unga. Kazak ko'zlarini baqraytirib, ixtiyorsiz: «Bosh ustiga, janobi oliylari!» – deb javob berdi. Belimga to'pponchani qistirib oldim. Qiz meni pastga tushadigan joyda kutib turgan ekan, ustidagi kiyimi yengilgina, beliga kichkina ro'molcha bog'lab olgandi.

«Ortimdan yuring!» – dedi u qo'limdan ushlab, ikkimiz pastga tusha boshladik. Keyin pastga tushib, o'ngga burildik-da, kecha tunda men ko'r bolaning ortidan borgan yo'ldan ketdik. Hali oy chiqmagan, faqat ikki dona yulduz xuddi najotkor ikki mayoqdek, tim qorong'i osmonda chaqnab turardi. Bir-birining ustiga bostirib keluvchi ulkan to'lqinlar qirg'oq bo'yida turgan yolg'iz qayiqni ko'tarib-ko'tarib tashlardi. «Qayiqqa tushamiz», – dedi hamrohim. Men ikkilanib qoldim, dengizda hissiy sayohat qilishga havasim yo'q, ammo qaytishning ham vaqti emasdi. Qiz qayiqqa sakradi, ortidan men ham tushdim, bir vaqt o'zimga kelib qarasam, birpasda suzib ham ketibmiz. «Bu nima qilganing?» – dedim jahlim chiqib. «Bu – men seni sevaman deganim bo'ladi», – dedi u meni o'rindiqqa o'tqazib, belimdan quchoqlar ekan, yuzini yuzimga qo'yib o'tirdi, uning o'tdek nafasi yuzimga urib turardi. Qayiqdan bir narsa shalop etib suvga tushdi, belimni ushlasam, to'pponcham yo'q. Birdan ko'nglimda dahshatli shubha tug'ildi. Qon boshga urildi! Ortinga qarasam, qirg'oqdan ellik sarjinchacha nariga borib qolibmiz, men esa suzishni bilmayman! Qizni itarib yuboray desam, kiyimlarimga xuddi mushukdek yopishib oldi, shu onda qayiqqa dahshatli bir zarba tegdi, dengizga ag'darilib tushishimga sal qoldi. Qayiq chayqala boshladi, ammo men o'zimni o'nglab oldim, o'rtamizda qattiq kurash boshlandi,

g'azabim kuchimga kuch qo'shdi, ammo dushmanimning mendan ancha epchil ekanini sezdim. «Nima qilmoqchisan?» – deb baqirdim, kichkina qo'llarini qattiq qisib, uning barmoqlari qirsillab ketdi, ammo shunday bo'lsa ham churq etmadi, uning ilon- tabiati bu sinovga ham bardosh berdi.

«Sen ko'ribsan, endi borib aytasan!» – deb javob berdi qiz va g'ayritabiiy kuch bilan meni qayiqning chetiga yiqitdi. Ikkimiz ham belimizgacha suvda turibmiz, uning sochlari suvga tegardi, juda qaltis bir payt edi. Tizzamni qayiqning ostiga tirab, bir qo'lim bilan sochidan, bir qo'lim bilan halqumidan ushlagan edim, kiyimimni qo'yib yubordi, shu ondayoq men uni to'lqinlar ichiga uloqtirdim.

Tun ancha qorong'ilashib qolgandi, dengiz ko'piklari ichidan bir-ikki marta boshi ko'rindi-yu, keyin ko'zdan g'oyib bo'ldi...

Qayiqning ichidan yarimta eski eshkak topdim, ko'p mashaqqatlardan so'ng bir amallab bandargohga arang yetib oldim. Qirg'oq bo'ylab qaytib kelarkanman, kecha tunda ko'r bola bilan qiz tungi qayiqchini poylab turgan tomonga beixtiyor ko'z tashlab qo'yardim. Osmonda oy suzib yurardi, nazarimda qirg'oq bo'yida oq kiyingan bir odam o'tirgandek tuyuldi. Uning kimligini bilishga qiziqib, asta-sekin bordimda, baland qirg'oq tepasidagi maysa orasida pisib yotdim, boshimni ko'tarib qarasam, pastda bo'layotgan hamma narsa bema'lol ko'rinar ekan, suv parisini ko'rib ajablanmadim, balki xursand ham bo'ldim. Qiz uzun sochlaridan suvni siqar edi, ho'l ko'ylagi ingichka, nozik qaddi-qomatiga va ko'kraklariga yopishib, ularni yaqqol ko'rsatib turardi. Birozdan keyin yiroqdan qayiq ko'rindi, u tezda qirg'oqqa yetib keldi, kechagi safargidek, qayiqdan tatarcha qalpoq kiygan bir kishi tushdi. Ammo, sochlari kazakcha qilib qirqilgan, kamariga kattakon pichoq qistirilgan edi. «Yanko, ishimiz chatoq!» – dedi qiz. So'ngra ular shu qadar sekin gaplasha boshladilarki, hech narsa eshita olmadim. «Ko'r qani?» – dedi Yanko ovozini ko'tarib. «Men uni yubordim», degan javob eshitildi. Bir necha daqiqadan keyin ko'r bola qop orqalab keldi. Qopni qayiqqa joylashdi.

«Menga qara, ko'r! – dedi Yanko, – anavi joyga ko'z-quloq bo'lib tur... bilasan-ku? U yerda qimmatbaho mollar bor... aytib qo'y (kingaligini eshitolmay qoldim), sen bilan ortiq ishlamas emish de, ishimizning mazasi qochdi, men endi qaytib kelmayman, endi ishlash xavfli, boshqa joyga borib ish qidirmasam bo'lmaydi, ammo u mendek jasur odamni topolmaydi. Yanko xizmatimga yarasha yaxshi haq to'laganda ketmasdim, deb aytdi, degin. Men har yerda yo'limni topib ketaman, shamol g'irillab, dengiz shovullaydigan joyda ishimni to'g'irlab ketaveraman!» Biroz tin olgach, Yanko yana so'zlashda davom etdi: «Bu men bilan birga ketadi, bu yerda qololmaydi, kampirga borib, sen juda keksayib qolding, endi o'lsang ham bo'ladi, insof ham bo'lishi kerak-da, deb ayt. Biz endi qaytib kelmaymiz». «Men-chi?» – dedi ko'r hazin tovush bilan. «Seni boshimga uramanmi?» – degan javob eshitildi.

Bu orada mening undinam qayiqqa sakrab tushdida, yo'ldoshiga qo'l silkitdi; yo'ldoshi ko'rning qo'liga bir narsa berib: «Ma, shirin kulcha olib yeysan», – dedi. «Atigi shumi?» – dedi ko'r. «Bo'lmasa, buni ham ol», – tanga toshga urilib, jaranglab ketdi. Ko'r uni olmadi. Yanko qayiqqa tushdi, shamol qirg'oq tomondan urardi. Ular kichkina yelkanni ko'tarishdi-da, yeldek suzib ketishdi. Qop-qora to'lqinlar ortidan elkan oy yorug'ida anchagacha miltirab ko'rinib turardi, ko'r hamon dengiz labida o'tirar, qulog'imga xuddi ho'ngrashga o'xshash tovush eshitingandek bo'ldi; chindan ham, ko'r ancha vaqtgacha ho'ngrab yig'lab o'tirdi. Yuragim achishib ketdi. Nima uchun taqdir meni halol kontrabandist'larning tinchgina muhitiga irg'itdi ekan, deb o'yladim. Xuddi sokin buloqqa tashlangan toshdek, ularning tinchligini buzdim, o'zim ham toshdek cho'kib ketayozdim!

Uyga qaytdim. Dahlizda yog'och likopchaga o'rnatilgan sham yonib bo'layozgan edi. Kazagim, tayinlab ketishimga qaramasdan, miltig'ini ikki qo'llab ushlagan holda qotib

¹ *Kontrabandist* – chet ellardan yashirincha mol keltirib va u yerga mol olib chiqib sotuvchi kishi.

uxlardi. Unga tegmadim-da, shamni olib, ichkariga kirdim. Hayhot! Sandiqcham, kumush sopli qilichim, bir do'stim sovg'a qilgan dog'iston xanjarim – hammasi yo'qolgan edi. La'nati ko'rning qayiqqa nimani ortmoqlab borganini endi angladim. Kazakni qattiq turtib uyg'otdim, rosa so'kdim, qattiq asabiylashdim, ammo bundan nima foyda! Boshliqlarga borib, ko'r bola narsalarimni o'g'irlab ketdi, o'zimni o'n sakkiz yashar qiz suvga g'arq qilmoqchi bo'ldi, deb arz qilish uyat bo'lmaydimi? Xudoga shukurki, ertalab jo'nashning imkoni tug'ildi, Tamandan ketdim. Kampir bilan bechora ko'rning taqdiri nima bo'ldi, buni bilmayman. Odamlarning shodligi, qayg'u-alamlari bilan mening, podshohlik xizmatida yuruvchi bir ofitserning qanchalik ishi bo'lsin!..

Birinchi bo'lim tugadi





IKKINCHI BO'LIM

(*Pechorin jurnalining oxiri*)

II

Knyajna Meri

11-may

Kecha Pyatigorskka keldim, shaharning chekkasidagi eng baland joydan, Mashuq tog'ining etagidan bir uyni ijaraga oldim, momaqaldiroq bo'lganida, bulutlar uyimning tomigacha tegib turadi. Bugun ertalab soat beshda derazani ochgandim, uyning oldidagi kichkina bog'chada o'sib yotgan gullarning isi butun xonani to'ldirdi. Barq urib gullagan gilos shoxlari derazamdan mo'ralab turardi, ba'zan shamol yozuv stolimga gilos gullarini sochib ketardi. Uch tarafim ham g'oyat go'zal manzaraga g'arq. Kunbotar tomonda xuddi «Tingan bo'ronning so'nggi bulut parchasi»¹dek, besh cho'qqili Beshtov ko'm-ko'k bo'lib ko'rinib turadi. Shimol tomonda xuddi eronlarning paxmoq qalpog'idek ko'tarilib turgan Mashuq tog'i osmonning o'sha qismini to'sgan, kunchiqar tomon undan ham go'zal, pastlikda, xuddi uyimning ro'parasida top-toza, yap-yangi shaharcha rang-barang tovlanadi, shifobaxsh buloqlar shildiraydi, turli tilda gapiruvchi odamlarning g'ovur-g'uvuri eshilib turadi, undan narida moviy va tumanli tog'lar bir-biridan yuksalib boradi, ufq chetida esa Kazbekdan boshlanib, to qo'sh cho'qqili Elbrus tog'i bilan tugovchi kumushdek qorli tog'lar tizmasi cho'zilib yotadi. Shunday joyda yashash naqadar rohat! Tomirlarimda qandaydir sevinchli tuyg'ular oqadi. Bu yerning havosi xuddi go'dak bo'sasidek pok va beg'ubor: oftob porlaydi, osmon ko'm-ko'k nildek – bundan ortiq yana nima kerak? Ehtiros, istak va qayg'urishlarga

¹ A.S. Pushkinning «Bulut» nomli she'rining birinchi satri.

ularga zavq beradi, ular viloyatlik xonimlarga o'lgudek yoqishadi. Ular keksayganlarida yo mo'min-qobil zamindor, yo bo'lmasa piyonista, ba'zan u ham, bu ham bo'lishadi. Dillarida yaxshi hislar bisyor, ammo she'riyatdan tariqcha ham xabardor emaslar. Grushnitskiy hamma narsadan ko'ra gap sotishni yaxshi ko'radi: gap oddiy mavzular doirasidan tashqari chiqdimi, bo'ldi, so'zlayverib miyangizni qoqib qo'lingizga beradi, men u bilan sira bahslashga olmasdim. U e'tirozlaringizga javob ham bermaydi, so'zingizni ham eshitmaydi. Gapirib bo'lishingiz hamon, uzundan uzoq javray boshlaydi, uning gapi hozir siz aytganlarga aloqasi bordek ko'rinsa-da, aslida o'zining boya boshlab qo'ygan gapining davomi bo'lib chiqadi.

Tili ancha biyron: epigrammalari¹, ko'pincha, qiziq bo'la-di-yu, ammo hech nishonga borib tegmaydi va uzib ololmaydi, ularning zaif joylarini bilmaydi, chunki butun umrini o'ziga bino qo'yishga sarf etgan. Uning butun fikr-u zikri – roman qahramoni bo'lish. O'zining bu dunyo uchun yaratilmagani, allaqanday sirli jafolarga duchor bo'lib yurgani to'g'risida boshqalarni ishontirishga urinaverib, oxiri o'zi ham shunga ishonayozgan. Shuning uchun ham askarcha qalin shinelinei kibr bilan kiyib yuradi. Men uning fe'lini payqab qoldim, shuning uchun ham, qalin do'stdek bo'lib ko'rinishimizga qaramay, u meni yomon ko'radi. Grushnitskiy jasurlikda nom chiqargan, men buni amalda ko'rganman: u qo'lida qilich o'ynatib, hayqirib, ko'zlarini chirt yumib oldinga otiladi. Ammo bu – ruslarga xos jasorat emas!..

Men ham uni yoqtirmayman, vaqti kelib bir yo'lda uchrashib qolishimizni va ikkimizdan birimizning boshimiz ketishini sezib yuraman.

Kavkazga kelishining sababi ham uning romantik xayol-parastligida, ishonchim komilki, otasiga qishlog'idan jo'nab ketish oldidan o'zini qayg'uli qilib ko'rsatib, birorta ko'h-likkina qo'shni qizga «Men armiyaga xizmat vajidan emas, balki o'lim axtarib ketyapman...» degan va gapning shu yeriga kelganda ko'zlarini qo'li bilan berkitib: «Yo'q, siz

¹ *Epigramma* – mazax, o'tkir so'z.

(yoki sen) buni bilmasligingiz kerak. Sizning pok dilingiz titrab ketadi! Bilib ham nima qilardingiz! Men sizga kim edimki... Dardimga tushuna olarmidingiz?...» va hokazolar degani aniq.

U, K. polkiga kirishimning sababini o'zim va xudo biladi, der edi.

Ammo Grushnitskiy yuzidagi jafokashlik niqobini olib tashlagan paytlarda juda xushfe'l va muloyim yigitga aylanar edi. Ayniqsa, uni ayollarning yonida ko'rsam juda maroqlanaman: rosa o'lib-tirilsa kerak!

Biz eski qadrdonlardek ko'rishdik. Men undan suv shifosiga kelganlarning yurish-turishlari va diqqatga loyiq odamlar haqida so'ray boshladim.

– Soddagina hayot kechiramiz, – dedi u xo'rsinib. – Ertalab suv ichuvchilar barcha xastalar singari xomush, kechqurun musallas ichuvchilar esa hamma sog'lom odamlar singari bemaza va betamiz bo'lib ketishadi. Xotinlar jamiyati bor, ammo ulardan foyda kam, ular nuqul vist¹ o'ynagani o'ynagan, xunuk kiyinishadi, fransuz tilini buzib gapirishadi. Bu yil Moskvadan faqat knyaginya Ligovskaya bilan qizi kelgan, ammo men ular bilan tanish emasman, ustimdagi mana bu soldatcha shinelim la'nat tamg'asiga o'xshaydi. Shinelim sabab dillarida qo'zg'algan achinish hissi esa menga berilgan sadaqaga o'xshaydi.

Shu paytda yonimizdan quduq tomonga ikki ayol o'tdi: biri – keksaroq, ikkinchisi – yoshgina, qaddi qomati kelishgan. Yuzlarini shlyapaning soyaboni to'sib turgani sabab, ularni yaxshi ilg'ay olmadim, ammo kiyimlari xushbichim, did bilan tikilgan, ortiqcha hech nima yo'q, bejirimgina edi. Ularning kichigi yeng va yoqalari berk *gris de perles*² ko'ylak kiygan, nozik bo'ynida shaffof shoyi ro'mol hilpirar, *couleur puce*³ botinkalari nozikkina oyoqlarining to'piqlarini shunday chiroyli siqib turardiki, hatto go'zallik nima ekanligini bilmagan odam ham ko'rganda hayratdan «voh» deb yubordi. Uning yengilgina, ammo viqor bilan tashlagan

¹ Vist – qarta o'yinlaridan biri.

² Gris de perles (frans) – gavharrang.

³ Couleur puce (frans.) – to'q jigarrang.

qadamlarida iffatli qizlargagina xos bir narsa aks etardi, buni sira ta'riflab bo'lmaydi-yu, ammo ko'rgan odam darrov payqaydi. Yonimizdan o'tib ketayotganida atrofga ta'riflab bo'lmaydigan darajada yoqimli xushbo'y is taraldiki, odatda, jononlar yozgan maktublardan shunday hid kelib turadi.

– Knyaginya Ligovskaya deganim shu, – dedi Grushnitskiy. – Yonidagisi qizi Meri. Onasi inglizlarga taqlid qilib qiziga shunday ism qo'ygan, ularning kelganiga atigi uch kun bo'ldi.

– Iye, darrov ismini ham bilib olibsan-a!

– Ha, tasodifan eshitib qoldim, – dedi Grushnitskiy qizarib. – Ammo, rostini aytsam, ular bilan tanishmoqchi emasman. Bu mag'rur zotlar biz harbiylarga xuddi vahshiylarga qaragandek qarashadi. Raqamli furajka ostida aql, qalin shinelning tagida qalb bor-yo'qligi bilan ularning nima ishlari bor?

– Bechora shinel! – dedim men kulib. – Ularning yoniga kelib mulozamat bilan bordoq tutayotgan kishi kim?

– O! Rayevich degan moskvalik olifta! Qimorboz, havorang nimchasida osilib turgan kattakon tilla zanjiridan ma'lum. Qo'lidagi yo'g'on hassasini aytmaysanmi, xuddi Robinzon Kruzoning hassasiga o'xshaydi! Soqoli ham, taranishi ham *a la moujik*¹.

– Nima balo, butun odamzodga qarshi g'azabdamisan deyman?

– Sababi bor-da...

– Yo'g'-e, hali shunday degin?

Bu orada ayollar quduqdan qaytib, bizga yaqinlashdilar. Grushnitskiy qo'ltiqtayog'ini ushlab, dramatik holatda turib oldi-da, ovozini baland ko'tarib, menga fransuzcha javob berdi:

– *Mon cher, je hais les homes pour ne pas les mepriser, car autrement la vie serait une farce trop degoutante*².

¹ *A la moujik* (frans.) – mujikka o'xshash, mujiknamo.

² «*Mon cher...*» (frans.) «Azizim, men odamlarni ko'rolmayman, aks holda, ulardan nafratlanishga majbur bo'lardim, bu holda esa, hayot jirkanch bir masxarabozlikka aylanur edi».

Ko'hlikkina knyajna qayrilib qaradi-da, so'zlovchiga uzoq nazar tashladi. Bu boqishning ma'nosini anglab olish anchayin mushkul edi, ammo uni istehzoli qarash deb bo'lmasdi, shuning uchun ham Grushnitskiyni ichimda tabriklab qo'ydim.

– Knyajna Meri deganing juda tannoz ekan, – dedim men unga. – Ko'zlari baxmaldek ekan, xuddi baxmalning o'zi deysan. Uning ko'zlari haqida gapirganingda shu iborani ishlatgin demoqchiman: pastki va yuqori kipriklari shu qadar uzunki, quyosh nurlari ko'z qorachig'ida aks etmas ekan. Men shunaqa yaltiramaydigan ko'zlarni yaxshi ko'raman, ular shu qadar mayinki, xuddi seni silab-siypab turgandek bo'ladi. Ammo uning chehrasida chiroyli narsa shuginaga o'xshaydi. Qalay, tishlari oppoqqinami? Bu juda muhim narsa. Attang, boyagi hashamatli so'zingga bir jilmayib qo'ymadi-da.

– Ko'hlikkina ayol haqida xuddi ingliz oti to'g'risida so'zlagandek gapirasana, – dedi Grushnitskiy g'azablanib.

– Mon cher, – deb javob berdim men uning tovushiga hamohang bo'lishga tirishib. – *Je meprise les femmes pour ne pas les armer, car autrement la vie serait un melodrama trop ridicule*¹.

Men o'girilib, uning yonidan ketdim. Ishkomlar, ohaktoshli qoyalar va ularda o'sib yotgan butalar orasida yarim soatcha sayr qildim. Kun qiziy boshlashi bilan uyga qaytdim. Kisloserali buloq yonidan o'tayotib, usti yopiq galereyada nafasimni rostlamochi bo'lib to'xtagan edim, beixtiyor juda qiziq bir hodisaning guvohi bo'ldim. Bu manzaraning ishtirokchilari mana bunday vaziyatda edilar. Knyaginya bilan moskvalik olifta yopiq galereyada o'tirishar, aftidan, ikkisi bir narsa haqida jiddiy suhbat qurishardi. Knyajna so'nggi bordoq suvni ichgan holda aylanib yurar, Grushnitskiy esa quduqning yonida turardi, maydonchada boshqa hech kimsa ko'rinmas edi.

Men yaqinroq borib, asta galereyaning burchagiga berkindim. Shu payt Grushnitskiy qo'lidagi bordoqni qumga tushirib yubordi, engashib olmoqchi bo'ldi-yu, ammo oyog'i mayib-

¹ «*Je meprise les...*» (frans.) – Ko'radingmi?

ligi sabab engasha olmadi. Sho'ring qurg'ur, qo'ltiqtayog'iga tayanib shuncha urinsa-da, barchasi behuda edi. Uning ma'nodor yuzi haqiqatan ham azobni ifoda etardi.

Buning hammasini knyajna Meri mendan ko'ra yaxshiroq ko'rib turardi.

U Grushnitskiyning yoniga xuddi qushdek uchib keldi, engashib bordoqni yerdan oldi-da, aslo ta'riflab bo'lmaydigan go'zal harakat bilan unga uzatdi, so'ngra qip-qizarib, galereya tomonga qaradi, onasining hech narsa ko'rmaganini payqab, darrov o'zini o'nglab oldi. Grushnitskiy tashakkur bildirish uchun og'zini ochganda, u ancha nariga ketib qolgandi. Birozdan so'ng onasi olifta kishi bilan birga galereyadan chiqdi, biroq Grushnitskiyning yonidan shu qadar kibr-havo bilan o'tdiki, hatto unga qayrilib ham qaramadi, uning ehtirosli boqishlariga nazar ham solmadi, holbuki Grushnitskiy u tepalikdan tushib, ko'zdan yo'qolguncha ortidan qarab turar edi. Biroq, oz vaqtdan so'ng knyajnaning shlyapasi ko'chaning narigi tomonida yana bir bor yalt etib ko'rindi-yu, keyin Pyatigorskdaagi eng dang'illama imoratlardan birining darvozasiga kirib ketdi. Uning ortidan knyaginya ham kira turib, Rayevich bilan xayrlashdi.

Shundan keyingina ehtirosli bechora yunker meni ko'rib qoldi.

– Ko'rdingmi? – dedi u qo'limni qattiq siqib. – Malak deysan, malak.

– Nimasi malak? – deb so'radim men o'zimni soddalikka solib. – Yo'q, ko'rdim, bordog'ingni yerdan olib berdi. O'sha vaqtda qorovul bo'lganda, aroq puli chiqarmikan deb, u ham olib bergan bo'lardi. Ha, nimasini aytasan, uning senga achinishi ravshan: o'q yegan oyog'ingni bosganingda aftingni shu qadar burishtirdingki...

– O'sha onda yuzida qalbining jilvalanganini ko'rib hech ta'sirlanmadingmi?

– Yo'q.

Men yolg'on gapirdim, uning jig'iga tegmoqchi edim. Qaysarligim o'zim bilan bir kunda tug'ilgan bo'lsa kerak.

Butun umrim qalbingga yo aqlimga qarshi qayg'uli va muvaffaqiyatsiz qaysarlik qilish bilan o'tdi. Yonimda biron serg'ayrat va jo'shqin odamni ko'rsam, xuddi ustimdan bir chelak suv quyilgandek bo'laman, aksincha, biron lanj odam bilan tez-tez uchrashib tursam, balki, ehtirosli xayolparast bo'lib ketarmidim. Yana shuni ham e'tirof etamanki, shu on ko'nglimni o'zimga tanish, ammo qandaydir xunuk bir his chertib o'tdi, bu his hasad edi: men «hasad» so'zini dadil aytyapman, chunki har narsani e'tirof qilishga o'zimni o'rgatib olganman. Biron go'zalga ko'ngil qo'ygan yigit o'sha ayolning boshqa bir tanish bo'lmagan kishiga mayl ko'rsatganini ko'rib qolsa (albatta, yigit oliy jamiyatda yashab, o'z izzat-nafsini erkin qo'ygan bo'lsa), bunga chidab turolmaydi va chidaydigan odam bo'lmasa ham kerak.

Grushnitskiy ikkimiz indamasdan pastlikka tushdik-da, shoh ko'chadan yurib, go'zalimiz ketgan uyning derazalari yonidan o'tdik. U deraza oldida o'tirgan ekan. Grushnitskiy yengimdan ushlab tortdi-da, ayollarga kamdan-kam ta'sir qiladigan xumor nazarlardan birini tashladi. Men knyajnaga ko'zoynak orqali qaragan edim, uning Grushnitskiyning boqishiga javoban jilmayib turganini, qarashimdan juda jahli chiqqanini ko'rdim. Darhaqiqat, Kavkaz armiyasida xizmat qiluvchi oddiy bir kishining moskvalik knyajnaga ko'zoynak orqali qarashga qanday haddi sig'adi?..

13-may

Bugun ertalab uyimga shifokor keldi, uning familiyasi Verner bo'lsa-da, o'zi rus. Buning qanday ajablanadigan joyi bor? Men Ivanov familiyali bir olmonni bilardim.

Verner ko'p jihatdan ajoyib odam. U barcha shifokorlar singari skeptik¹ va materialist², shu bilan birga, shoir ham, shoir bo'lganda ham jiddiy shoir, garchi umrida bir misra she'r

¹ *Skeptik* – hech narsaga ishonmaydigan kishi.

² *Materialist* – materializm tarafdori.

yozmagan bo'lsa-da, o'z ishida har vaqt, so'zda esa ko'p vaqt shoir. Murda tomirlarini qancha o'rgansalar, inson qalbining hamma torlarini ham u shunchalik o'rganib olgan, ammo u o'zining bu bilganlaridan sira foydalana olmasdi. Axir, ba'zan juda usta anatom olim ham oddiy bezgakni tuzata olmaydi-ku! Odatda, Verner o'zi davolaydigan xastalar ustidan miyig'ida kulib yurardi, ammo bir marta jon berayotgan askarning tepasida yig'lab o'tirganini o'z ko'zim bilan ko'rganman. O'zi kambag'al edi, millioner bo'lishni xayol qilib yurardi-yu, ammo pul topish yo'lida qo'lini qo'lga urmas edi. Bir kuni menga, do'stdan ko'ra dushman qanchalik oliyjanob bo'lsa, nafrating ham shuncha oshadi, dedi. Uning tili juda zahar edi, ko'pgina tuppa-tuzuk odamlar haqida epigrammalar to'qib, ularni rasvo qilardi. Uning raqiblari, ya'ni suvlarda davolovchi hasadchi shifokorlar, u o'z mijozlarini karikatura qilarmish degan gap tarqatishgan ekan, kasallar xafa bo'lib, deyarli hammasi undan voz kechibdi. Uning do'stlari, ya'ni Kavkazda xizmat qiluvchi deyarli barcha vijdonli kishilar Vernerning obro'sini yana ko'tarishga shuncha urinishsa ham, iloji bo'lmadi.

Uning tashqi qiyofasi bir ko'rishda odamga yoqmas edi, ammo keyinchalik, uning xunuk yuzida ko'p sinalgan va oliyjanob ruhiy kuch ifodasi aks etganini ko'rgach, odamga juda yoqib qolar edi. Ayollarning bunday kishilarni eshushdan ajralgudek yaxshi ko'rishlari va ularning xunukligini eng go'zal, eng nozik kishilarning chiroyiga ham alishmaslik kabi hollar ko'p bo'lgan. Ayollarga ham tan berish kerak: ularda ruhiy go'zallikni sezuvchi tuyg'u bor, shuning uchun Vernerga o'xshagan odamlar ayollarni shu qadar zo'r ehtiros bilan sevsa kerak.

Verner pakana va xuddi yosh boladek ozg'in va nimjon edi. Bayronning oyog'iga o'xshab bir oyog'i sal kaltaroq bo'lib, kallasi bo'yniga nisbatan juda katta ko'rinardi, sochini kalta qirqtirardi, shuning uchun bosh suyagining ochilib qolgan o'nqir-cho'nqirlarini frenolog¹ ko'rsa hayratda qolardi.

¹ *Frenologiya* – kalla suyagiga qarab, odamning psixologiyasini bilish mumkin degan soxta ilm.

Uning hamisha javdirab turgan qop-qora va kichkina ko'zlari dilingizdagi barcha narsani bilishga oshiqqandek ko'rinardi. Kiyim tanlashda didi borligi ko'zga tashlanardi, oriqlari paylari ko'rinib turgan kichkina qo'llaridan och sariq qo'lqop sira tushmasdi. Hamisha uzun qora belburma kamzul, qora bo'yinbog' va qora nimcha kiyguvchi edi. Yosh-yalanglar uni Mefistofel¹ deb atashardi. Verner bundan jahli chiqqandek bo'lardi-yu, ammo aslida bu gap uning izzat-nafsini qondirardi. Biz birpasda bir-birimiz bilan topishib, oshna bo'ldik, chunki menda do'stlikka moyillik yo'q: garchi ikki do'st bir-biriga iqrar bo'lmasa-da, biri ikkinchisining quli bo'lib qoladi. Men qul bo'la olmayman, ammo birovga amr berish ham nihoyatda malolli ish, chunki amr berish bilan birga aldash ham kerak bo'ladi, undan tashqari, o'zimning qarollarim ham bor, pulim ham bor! Bizning oshna bo'lishimizning tarixi bunday bo'ldi: men Vernerni S.da bir talay xushchaqchaq yoshlar orasida uchratdim. O'tirishning oxirida gap metafizik falsafa ustida ketdi; e'tiqod haqida so'z bordi, har kimning e'tiqodi turlicha edi.

– Men faqat bir narsagagina e'tiqod qilaman, – dedi Verner.

– Nimaga? – dedim men shu vaqtgacha indamay o'tirgan bu kishining fikrini bilish maqsadida.

– Bir kunmas, bir kun, albatta, o'lib ketishimga.

– Men sizdan boyroq ekanman, – dedim. – Siz aytgan e'tiqoddan boshqa menda yana bir e'tiqod bor, u ham bo'lsa, kunlardan bir kun bu dunyoga kelish kabi baxtsizlikka uchraganman.

O'tirganlarning hammasi bizni safsata sotyapsizlar dedi-yu, ammo hech biri bizdan ma'noliroq gap ayta olmadi. Shu-shu, bir-birimizni ko'pchilik ichidan ajrata boshladik. Biz tez-tez uchrashib turardik, mavhum masalalar haqida jiddiy tarzda gap talashar va axiyri bir-birimizning miyamizni qotirayotganimizni sezib, to'xtardik. Shunda, Sitseron² ta'rif

¹ *Mefistofel* – Gyotening «Faust» nomli dramatik poemasida yovuz ruh.

² *Sitseron* – Qadimgi Rimda mashhur notiq va davlat arbobi (eramizdan avvalgi 106–43-yillar).

qilgan Rim avgulari¹ singari, bir-birimizga ko'z qisishib, xaxolar edik, to'ygunimizcha kulib, kechadan mamnun holda tarqalishardik.

Verner kirib kelganda men divanda qo'llarimni boshimning ostiga qo'yib, shiftga tikilib yotgan edim. U oromkursiga o'tirdi, hassasini burchakka tirab qo'yib, homuza tortdi-da, kunning isib ketganini aytdi. Men pashshadan bezor bo'ldim dedim, shundan keyin ikkimiz ham jim qoldik.

– Hurmatli doktor, shuni bilib qo'yingki, ahmoqlar bo'l-maganda, bu dunyoning sira qizig'i qolmas edi... – dedim. – Mana, o'zingiz bir qarang: biz ikki aqlli odam o'tiribmiz, turli xil masalalar to'g'risida tinmay bahslashish mumkinligini oldindan bilamiz, shuning uchun ham bahslashmay o'tiribmiz, bir-birimizning pinhoniylarimizdan ham boxabarmiz. Yolg'iz gapning o'zi biz uchun katta bir tarix, har bir hissimizning mag'zini uch qavat po'st tagidan ham ko'rib turamiz. Qayg'uli narsalar bizga kulgili bo'lib ko'rinadi, kulgili narsalar esa qayg'uli bo'lib ko'rinadi, ammo tagini surishtirib qarasangiz, o'zimizdan bo'lak hech bir narsa bilan ishimiz yo'q, beparvomiz. Xullas, fikr va tuyg'ularimizni bir-birimizga aytib o'tirishimizning hojati yo'q: bir-birimizning ipimizdan ignamizgacha bilamiz, bundan ortig'ini bilishni istamaymiz. Shunday ekan, yangi xabarlardan gapirib o'tirishdan boshqa ilojimiz yo'q. Qani, menga qanday yangiliklar aytib berasiz? Uzoq gapirib yuborganimdan charchabman shekilli, ko'zlarimni yumib, esnadim.

Verner biroz o'ylab o'tirib:

- Sizning bu safsatangizda g'oya borga o'xshaydi, – dedi.
- Ikkita! – deb javob berdim.
- Birinchisini ayting, ikkinchisini o'zim aytib beraman.
- Xo'p, boshlang! – dedim shiftni tomosha qilishda davom etarkanman, ichimda kulib.

¹ *Rim avgulari* – Qadimgi Rimda qushlarning uchishiga qarab karomat qiluvchi kohinlar. Sitseronning aytishicha, ular uchrashib qolganda, odamlarning soddadilligidan kulib, bir-birlariga qarab qo'yishar ekan.

– Suvga kelganlardan biri haqida ba’zi tafsilotlarni bilmoqchisiz, kim to‘g‘risida o‘ylaganingizni ham bilib turibman, chunki u yerda sizni so‘rashdi.

– Doktor! Oramizda sira gap qolmabdi: bir-birimizning dilimizdagi hamma narsalarni bilarkanmiz.

– Endi ikkinchisi...

– Ikkinchi g‘oyam bunday edi: men sizga biron narsa aytirmoqchi edim, nega desangiz, birinchidan, eshitayotgan odam uncha charchamaydi, ikkinchidan, og‘zidan bironta nojo‘ya gap chiqib ketmaydi, uchinchidan, birovning sirini bilib olish mumkin, to‘rtinchisi shuki, siz kabi dono kishilar hikoyachilardan ko‘ra tinglovchilarni ko‘proq yaxshi ko‘rishadi. Endi maqsadga o‘taylik, knyaginya Ligovskaya men haqimda nimalar dedi?

– Knyajna emas-u, knyaginya gapirganiga... aminmisiz?

– Shak-shubhasiz.

– Sabab?

– Sababi shuki, knyajna Grushnitskiy haqida so‘ragan.

– O‘zingiz ham juda topag‘on odam ekansiz-da. Knyajna, askar shineli kiygan yosh yigitning duel tufayli askarlikka tushirilganiga ishonadi...

– Uni bu lazzatli xatosidan mahrum etmagandirsiz...

– Shubhasiz...

– Voqeaning boshlanishi joyida! – deb qichqirib yubordim men suyunib. – Bu komediyaning oxirini endi o‘zimiz yechamiz. Toledan o‘rgilay, meni zeriktirib qo‘ymaydiganga o‘xshaydi.

– Sho‘rlik Grushnitskiyning qo‘lingizda qurbon bo‘lishini sezib turibman... – dedi Verner...

– U yog‘ini gapiring, janob...

– «Sizni tanigandekman», dedi knyaginya. «Peterburgda Oliy jamiyatda uchratgandirsiz», dedim men unga. Ismingizni aytdim. Ismingizni bilar ekan. Sarguzashtingizning u yerda dovrug‘i ketganga o‘xshaydi... Knyaginya barchasini gapirib berdi, aftidan, oliy jamiyatlarda bo‘lgan g‘iybatlarga o‘zidan

ham qo'shdi, shekilli. Qizi zo'r ishtiyoq bilan tinglab o'tirdi. Uning xayolida siz yangi, o'zgacha bir did bilan yozilgan roman qahramoni bo'lib ko'rindingiz. Knyagina ko'p bema'ni narsalarni gapirdi, ammo men indamay o'tiraverdim.

– Asl do'stim ekansiz! – dedim men unga qo'limni uzatib. Verner qo'limni samimiy siqdi-da, so'zida davom etdi:

– Istasangiz, tanishtirib qo'yaman...

– Aslo! – dedim men ajablanib. – Qahramonlarni ham tanishtirib bo'ladimi, axir? Qahramonlar tanishsa, faqat o'z jononlarini o'limdan qutqarish yo'li bilan tanishishadi...

– Chindan ham knyajnaning ortidan sudralmoqchimisiz?..

– Aksincha, tamoman aksincha!.. Janob, axiyri sizni yengdim-a, maqsadimni topolmadingiz!.. Ammo, rostini aytsam, bundan xafaman, – deb so'zimda davom etdim biroz jim yotganimdan keyin. – Men o'z sirimni hech qachon o'zim ochmayman, aksincha, sirimni boshqalar payqasin deyman, nega desangiz, shunday qilsam, mavridi kelganda tonishim ham mumkin. Ammo, siz menga onasi bilan qizini ta'riflab berishingiz kerak. Ular kim, qanday odamlar?

– Avvalo, knyagina 45 yoshlardagi ayol, – deb javob berdi Verner. – Me'dasi juda joyida ekan-u, ammo qoni buzilgan, yuzida qizil dog'lari bor. Umrining yarmini Moskvada o'tkazibdi, huzur-halovatda yashab, semirib ketibdi. Hayosiz latifalarni yaxshi ko'rarkan, ba'zan, yonida qizi bo'lmasa, o'zi ham behayo narsalarni gapirib beradi. Menga qizim farishtadek pok, deydi. Buni menga nima daxli bor... Men unga xotiringiz jam bo'lsin, bu gapni hech kimga aytmayman demoqchi ham bo'ldim. Knyagina bod kasalidan shifo topgani kelibdi, qizining qanday kasali borligini xudo biladi. Men ularga kunda ikki bordoqdan kisloserali suv ichish va haftada ikki marta oddiy sulfid aralashtirilgan suvda cho'milishni buyurdim. Knyagina, nazarimda, amr qilishga o'rganmagan ayol ko'rinadi, qizining aqli va bilimni hurmat qiladi, negaki, qizi Bayronni ingliz tilida o'qirkan, algebrani ham bilarkan, Moskva qizlari olimlikka berilib yomon qilish-

mabdi, nazarimda! Erkaklarimiz shu qadar beandisha, betamiz bo'ladiki, aqlli ayol uchun ularga noz-karashma qilish nihoyatda og'ir bo'lsa kerak, deyman. Knyagina yoshlarni juda yaxshi ko'rarkan, knyajna esa ularni nazar-pisand qilmas ekan, moskvaliklarning odati shunaqa-da! Ularga qirq yoshga kirgan biyronlar bo'lsa bas.

– Moskvada bo'lganmisiz, doktor?

– Ha, u yerda biroz ishlaganman.

– Davom eting.

– Hammasini gapirib bo'ldim, shekilli... Ha, yana bir gapim qolibdi: knyajna, nazarimda, hissiyotlar, ehtiroslar va shunga o'xshashlar to'g'risida muhokama yuritishni yaxshi ko'rsa kerak... Bir qish Peterburgda turgan ekan, yoqmabdi, ayniqsa, Peterburg odamlari yoqmabdi, tuzukroq kutib olishmagan bo'lsalar kerak-da.

– Ularnikiga bugun borganingizda hech kim yo'qmidi?

– Aksincha, bir adyutant, kekkaygan bir gvardiyachi va yaqinda kelgan bir juvon bor edi, juvon knyagina erining qarindoshi bo'lsa kerak, o'zi juda dilbar ekan-u, ammo qattiq betob ko'rinadi. Quduq boshida uchratmadingizmi? O'rta bo'yli, sochlari sariq, chehrasi go'zal, silbashara, o'ng yuzida bitta xoli bor, chehrasi shu qadar ifodaliki, ko'rib hayron qoldim.

– Xoli bor? – dedim men tishimning orasidan. – Nahotki...

Verner yuzimga qaradi-da, qo'lini ko'kragimga qo'yib, tantanali ravishda:

– Siz uni tanir ekansiz!.. – dedi.

Darhaqiqat, yuragim haddan ortiq gupillab urardi.

– Endi siz yutdingiz! – dedim. – Ammo, men sizga qattiq ishonganman: menga xiyonat qilmaysiz. Men uni hali ko'rganim yo'q, ammo bergan ta'rifingizdan, bir vaqtlar yaxshi ko'rib yurganim bir juvonni tanigandek bo'lib turibman. Men haqimda unga hech nima demang, basharti, o'zi so'rab qolsa, meni yomonlayvering.

– Mayli! – dedi Verner kift qoqib.

U chiqib ketgandan keyin yuragimni qayg'u bosdi. Ikkimizni taqdir yana Kavkazda uchrashtirdimikin yo bo'lmasa shu yerdaligimni bilib, atayin keldimikin? Ko'rishsak ham qanday ko'rishamiz? O'zi o'shamikan?.. Ammo biluvchi hissim meni hech aldamaydi. Menchalik o'tmishning quli bo'lib qolgan kishi dunyoda topilmasa kerak. O'tmishning qayg'uli yoki shirin damlari esimga tushsa, ko'nglim ozor topadi va yana o'sha faryodlarni qo'zg'atadi. Men ahmoqona yaratilgan bo'lsam kerak, hech narsani unutmayman, hech narsani!

Tushlikdan so'ng soat oltilarda shoh ko'chaga chiqdim: ko'cha to'la odam, oromkursida o'tirgan knyagina bilan knyajna atrofida to'plangan bir talay yoshlar bir-birlariga gal bermay, ularga xushomad qilib turishar edi. Men ulardan sal naridagi oromkursiga borib o'tirdim-da, D. ofitserlaridan ikki tanishimni to'xtatib, allanimalarni hikoya qila boshladim, hikoyam juda qiziq bo'lsa kerak, ular qotib-qotib kulishdi. Knyajnani o'rab turganlardan ba'zilari qiziqib yonimga kelishdi, qolganlari ham birin-ketin uni tashlab, davramga qo'shilishdi. Men gapiraverdim, aytib berayotgan latifalarim g'oyatda ajoyib edi. O'tgan-ketganlar ustidan qilgan mazaxlarim juda achchiq edi... Knyajna onasi bilan qo'ltiqlashib, bir necha marta yonimizdan o'tdi, yonlarida bir cho'loq kishi ham bo'lib, knyajna menga qayta-qayta qarab qo'ydi, o'zini qancha beparvo tutishga tirishmasin, alam qilganligi sezilib turardi...

Odob yuzasidan yoniga qaytib borgan yoshlarning biridan:

– Nimalarni aytib berdi? – deb so'radi knyajna. – Ajoyib-g'aroyib narsalarni, o'zining janglarda ko'rsatgan qahramonliklarini aytib bergandir-da?.. – Bu gapni jo'rttaga eshittirib aytdi, u meni chimchilab olmoqchi bo'lsa kerak. «E-ha, chinakam jahlingiz chiqibdi-ku, jonon knyajna, shoshmang, hali bunisi holva!» dedim ichimda.

Grushnitskiy xuddi yirtqich hayvondek undan ko'zini uzmaydi, garov o'ynaymanki, ertaga, albatta, biror kimsaga

knyaginya bilan tanishtirib qo'ying, deb yalinadi. Knyaginya jon deydi, chunki o'zi zerikib yuribdi.

16-may

Ikki kun mobaynida ishlarim juda yurishib ketdi. Knyajna-ning meni ko'rarga ko'zi yo'q, men haqimda to'qigan bir-ikki zaharli, ammo izzat-nafsimni qondiruvchi epigrammalarini menga yetkazishdi. Yaxshi ulfatlar bilan yurishga o'rgangan va uning Peterburgdagi xola-yu xolavachchalarini yaqindan taniy turib, u bilan tanishishni istamaganim uni g'oyat darajada ajablantirardi. Biz kunda quduq yonida yoki shoh ko'chada ko'rishib turamiz, men uning yonidagi xushtorlarini, yasangan-tusangan adyutantlarini, rangpar moskvaliklar hamda boshqalarni undan aynitib, o'z tomonimga tortish uchun butun kuchimni sarflamoqdaman va bunga deyarli hamma vaqt erishyapman. Men mehmon kutishni juda yomon ko'rardim, hozir bo'lsa xudoning bergan kuni uyim to'la mehmon, tushlikka, kechki ovqatga kelishadi, qarta o'ynashadi, qarangki, uning ohanrabodek jozibali ko'zlaridan mening shampan vinoim ustun kelmoqda!

Kecha uni Chelaxov do'konida ko'rib qoldim, quling o'rgilsin eron gilamiga xaridor bo'lib turgan ekan. Knyajna onasiga pul ayamang, xonamizning husnini ochadigan gilam, deb yalinib turgan ekan. 40 so'm ortiq to'lab, gilamni olib ketdim, buning evaziga knyajna menga g'azab-la yongan ko'zlari bilan qarab qo'ydi. Tushlikdan sal oldinroq gilamni cherkas otimning ustiga yoptirdim-da, atayin uning derazasi yonidan yetaklab o'tishni buyurdim. Shu paytda Verner ularnikida ekan, keyinroq bu manzaraning knyajnaga nihoyatda qattiq ta'sir qilganini menga aytib berdi. Knyajna menga qarshi urush e'lon qilmoqchi emish, hatto yonidagi adyutantlardan ikkitasining, garchi kunda menikida tushlik qilsalar-da, muomalalarida sovuqqonlikni payqay boshladim.

Grushnitskiyning qiyofasi sirli bo'lib qoldi: qo'llarini orqasiga qilib yuradi, hech kimni tanimaydi, birdan oyog'i

ham tuzalib ketdi, oqsoqlanishi ham bilinmay qoldi. Paytini topib knyagina bilan tanishib olibdi, knyajnaga bir-ikki og'iz xushomad ham qilganga o'xshaydi, knyajna yaxshiyomonni uncha ajrata bilmasa kerak, u bilan tanishganidan buyon, uning ta'zimiga latif tabassum bilan javob qaytaradi.

– Ligovskayalar bilan aslo tanishmoqchi emasmisan? – dedi kecha Grushnitskiy menga.

– Aslo.

– Qo'ysangchi-e! Bu atrofdagi eng dilkash uy – shularniki-ku! Bu yerning eng mo'tabar kishilari...

– Do'stim, bu yerdagilargina emas, hatto boshqa yerdagilar ham jonimga tekkan. O'zing borib turibsanmi?

– Yo'q hali, knyajna bilan atigi bir-ikki marta gaplashdim, xolos. Men senga aytsam, garchi bu yerda uyat hisoblanmasa ham, birovning uyiga yalinib borish noqulayroq. Ofitser kiyimida bo'lsam – bu boshqa gap edi.

– Qiziq ekansan! Shu turishing ming marta ko'rkamroq-ku! Qulay vaziyatdan foydalanishni bilmas ekansan. Ustingdagi askarlik shineli yuragi sal narsaga erib ketadigan har qanday qizning nazarida seni jafokash qahramon qilib ko'rsatadi.

Grushnitskiy o'zidan mamnun bo'lib iljaydi-da:

– Bo'lmagan gap! – dedi.

– Knyajna allaqachon senga oshiq-u beqaror bo'lib qolganiga aminman, – deb so'zimdada davom etdim men.

Grushnitskiy quloqlarigacha qizarib ketdi-da, qovog'ini soldi.

– Ey xudbinlik! Arximed¹ yer kurrasini ko'tarmoqchi bo'lgan pishang sening o'zingsan!..

– Hech hazilingni qo'ymas ekansan-da! – dedi u o'zini ranjiganga solib. – Birinchidan, knyajna meni yaxshi tanimaydi...

– Ayollar faqat tanimagan kishilarnigina yaxshi ko'rishadi.

– Men unga yoqmoqchi emasman: men faqat yaxshi bir oila bilan tanishay deymen, boshqa biror muddaoyim bo'lsa

¹ *Arximed* – qadim zamonda o'tgan genial fizik va matematik (eramizdan avvalgi 287–212-yillar); Arximed «Menga tayanch nuqtasini topib beringlar, yer kurrasini ag'darib yuboraman» degan ekan.

kulgili-ku, axir... Mana, sizlarning yo'rig'ingiz boshqa! Senga o'xshagan oliftalar bir qarashda har qanday ayolni qo'lga olasizlar. Pechorin, knyajna sen haqingda nima deganini bilasanmi?

– Nima? Senga men to'g'rimda gapirdimi?

– Ammo quvonmay tur. Bir kuni quduq yonida u bilan tasodifan ko'rishib qoldim, og'zidan chiqqan uchinchi gapi shu bo'ldi: «Anavi janob kim, odamga biram xo'mrayib qaraydiki, siz bilan birga edi-ku, o'sha kuni...» Knyajna qip-qizarib ketdi, o'zining jonona harakatini esladi-yu, ammo kunini aytmadi. – Kunini aytmasangiz ham bo'ladi, – dedim unga. – U kun o'lgunimcha yodimdan chiqmaydi. Do'stim Pechorin! Holing xarob, sen to'g'ringda u yomon fikrda. Juda achinaman senga! Chunki Meri juda latofatli qiz!..

Shuni ham aytib qo'yayki, Grushnitskiy sal-pal tanish va o'ziga yoqib qolgan ayollar haqida gapirganida «Mening Merim», «Mening Sofiyam» deydigani toifasidan.

Men jiddiy turib:

– To'g'ri, u chakki qiz emas, – deb javob berdim. – Ammo ehtiyot bo'l, Grushnitskiy! Rus qizlari, ko'pincha, Aflotun muhabbati bilan yashaydilar. Ularda erga tegish niyati bo'lmaydi, bu juda sertashvish muhabbat sanaladi. Knyajna ko'ngil ochishni yaxshi ko'radigan noz-karashmali ayollardan ko'rinadi, agar yoningda bir-ikki marta zerikib qolsa bormi, ish tamom, halok bo'ldim deyaver. Sukuting unda qiziqish uyg'otmog'i kerak, gaplaring aslo qiziqishini qondirmasligi lozim. Sen uni dam o'tmay qiziqtirib turishing kerak, seni deb u o'n marta bo'lsa ham odamlarning gap-so'zini mensimay qo'yadi, buni o'zi tomonidan qilingan fidokorlik deb ataydi, ammo buning evaziga o'zini mukofotlash uchun seni qiynaydi, azoblaydi, keyin boradi-da, seni ko'rgani toqati yo'qligini shartta betingga aytadi-qo'yadi. Basharti undan ustun kelolmasang, bo'ldi, seni bir marta o'pgani senga ikkinchi marta o'pish uchun huquq bermaydi, ko'ngli to'ygunicha noz-karashma qilib yuradi-yu, ikki yildan keyin onasining gapiga kirib, biron ro'dapoga tegadi-ketadi, so'ngra baxtiqaro

ekanman, umrimda faqat bir kishini, ya'ni seni sevardim, ammo taqdir menga o'gay ekan, boshimizni qovushtirib qo'ymadi, chunki ustingda askarcha shinelning bor edi, garchi qalin va kulrang shinel ostida otashin hamda oliyjanob qalb urib turgan bo'lsa-da, taqdir bizni qo'shib qo'ymadi, deb, o'zini o'zi ishontirib yuradigan bo'ladi.

Grushnitskiy stolni bir urdi-da, uy ichida u yoqdan bu yoqqa yura boshladi.

Men esa ichimda kulardim, hatto bir-ikki marta jilmayib ham qo'ydim, ammo baxtinga, u buni sezmadim. Uning oshiq-u shaydoli ravshan edi, hatto barmog'ida shu yerda yasalgan qora ko'zli kumush uzuk ham paydo bo'lib qolgandi, uzuk meni shubhaga solib qo'ydi. Unga diqqat bilan tikilib qaradim, shunda nimani ko'rdim deng? Uzukning ichki tomoniga mayda harflar bilan «Meri» degan so'z, uning yoniga Merining bordoqni yerdan olib bergan kunning sanasi o'yib yozilgan edi. Bu kashfiyotimni o'ziga bildirmadim, men o'zi iqrar bo'lishini istamayman, ammo shuni istaymanki, menga sirlarini o'zi ochib bersin, ana shundan lazzatlanaman.

Bugun kech turdim, quduqning boshiga borsam, hamma tarqalib ketibdi. Kun isiy boshlagandi, qorli tog'lar tepasidan yelib-yugurib keluvchi oppoq paxmoq bulutlar momaqaldiroq bo'lishidan darak berardi. Mashuqning cho'qqisi xuddi o'chgan mash'aladek tutab yotardi, parcha-parcha kulrang bulutlar uning tevarak-atrofida ilondek to'lg'anib suzib yurar va tog'ning tepasidagi butalarga ilinib, sekinlashgandek tuyular edi. G'or tomonga cho'zilib ketgan ishkonga kirdim, yuragimni qandaydir bir g'am bosgandek edi. Men shifokor aytgan, yuzida xoli bor juvon haqida o'ylardim. Nega keldiykin bu yerga? O'shamikin? Nega endi buni xuddi o'sha juvon deb o'ylayman? Nega men xuddi o'shaning o'zi ekanligiga bu qadar qattiq ishonaman? Dunyoda yuzida xoli bor ayol kammi? Shunday xayollarga borib, g'orga yaqinlashdim. Qarasam, salqin g'orning ichidagi tosh xarrakda boshiga poxol shlyapa kiyib, ustidan qora shol ro'mol o'ragan bir ayol boshini quyi solib o'tiribdi, bosh kiyimi uning yuzini

to'sib turardi. Uning xayolini qochirmay, deb endi qaytib ketmoqchi bo'lgandim, birdan boshini ko'tarib, menga qarab qoldi.

– Vera! – deb qichqirib yubordim bexosdan.

U bir seskanib tushdi-da, rangi dokadek oqarib ketdi. «Sizning shu yerda ekanligingizni bilardim», dedi. Yoniga borib o'tirdim, qo'lini ushladim. Bu yoqimli tovushni eshitishim bilan butun borlig'imni ko'pdan unutilgan bir titroq bosdi. U o'zining tiniq va sokin ko'zlari bilan menga boqdi, ko'zlaridan ham shubha, ham o'pkalanish sezilib turardi.

– Ko'pdan buyon ko'rishmadik, – dedim men.

– Ko'p bo'ldi, ikkimiz ham ancha o'zgardik!

– Bundan chiqdi, meni boshqa sevmas ekansan-da?

– Turmushga chiqdim!.. – dedi u.

– Yana-ya! Ammo bundan bir necha yil avval ham shu vaj bor edi, biroq shunga qaramay...

U qo'lini tortib oldi, yuzlari qizarib ketdi.

– Balki, ikkinchi eringni sevarsan?..

U indamadi-da, teskari qarab o'tirdi.

– Yo juda rashkchimi?

Yana indamadi.

– Nega indamaysan? Ering yoshdir, kelishgandir, davlatmanddir, balki qo'rqarsan... – Uning yuziga qarab qo'rqib ketdim, yuzlarida chuqur umidsizlik aks etgan, ko'zlari jiqqa yoshga to'lgan edi.

– Menga ayt-chi, – dedi u nihoyat shivirlab. – Meni qiynashdan lazzatlanasanmi?.. Aslida sendan nafratlanishim kerak edi. Bir-birimizni tanigan kunimizdan buyon menga azobdan bo'lak hech narsa berganing yo'q... – Uning tovushi titrab ketdi, bo'ynini egdi-da, ko'ksimga bosh qo'ydi.

«Balki meni shuning uchun sevgandirsan, chunki shodlik unutilishi mumkin, ammo qayg'u sira unutilmaydi...» deb o'yladim ichimda.

Men uni bag'rimga qattiq bosdim, uzoq vaqt shunday o'tirdik. Nihoyat, lablarimiz bir-birini topdi va qaynoq, shirin o'pich-la birlashdi, qo'llari muz kabi sovuq, boshi

lovullab yonar edi. O'rtamizda shunday suhbat boshlanib ketdiki, uni qog'ozda ifodalash mushkul, takrorlab ham, esda ham saqlab bo'lmaydi, italyan operalaridagi kabi, bunday suhbatda so'zning o'rnini tovushlar bosadi va so'z ma'nolarini to'ldiradi.

Vera eri bilan tanishishimni sira istamaydi, bir kuni xiyo-bonda ko'zim tushgan cho'loq chol uning eri ekan, farzand ko'rish uchun tegibdi. Eri juda badavlat bo'lib, bod kasali bor ekan. Uni masxaralaydigan biror gap aytmadim, Vera uni o'z otasidek hurmat qilar ekan-u, ammo eridek aldarkan... Inson qalbi, ayniqsa, ayol kishining qalbi juda g'alati narsa!

Veraning eri Semyon Vasilyevich G... knyaz rafiqasi Ligovskayaning uzoq qarindoshi bo'lib, uylari yonma-yon, Vera uning uyiga tez-tez chiqib turarkan, Veraga Ligovskayalar bilan, albatta, tanishaman va odamlar diqqatini sendan chalg'itish uchun atayin knyaz xotinining ortidan sudralib yuraman, deb va'da berdim. Shunday qilib, mening o'ylab qo'ygan rejalarim ham buzilmaydi, xushchaqchaq bo'lib yashayman!

Xushchaqchaqlik! To'g'ri, qalbim faqat baxt axtarib, biror kishini zo'r ehtiros bilan sevishtga oshiqqan davrlar o'tdi, endi men o'zgalar tomonidan sevilishni istayman, shunda ham ozgina kishilar tomonidan sevilishni istayman! Hatto, ba'zan meni faqat birgina inson sevsa-yu, sira bevafoqlik qilmasa, deb orzu qilaman, sho'ring qurg'ur yurakning odati shu-da!..

Ammo men hamisha bir narsaga hayron bo'lib yurardim, men hech qachon ma'shuqamga qul bo'lgan emasman, aksincha, men doimo ularning irodasi va qalbiga hokim bo'lardim. Nima uchun shunday ekan? Umrimda biron narsaning quli bo'lishni istamaganligim va meni qo'ldan chiqarib yuborishdan qo'rqqanlari uchunmi, yo bo'lmasa, kuchli irodaning o'ziga tortuvchi ta'sirli kuchimikan? Yo shu mahalgacha bironta mustahkam irodali o'jar ayolni uchratmaganim uchunmi?

E'tirof etishim kerakki, haqiqatan ham, men irodali ayollarni yoqtirmayman, irodali bo'lish ularning ishi emas!..

Ha, endi esimga tushdi: umrimda bir marta, faqat bir mar-tagina mustahkam irodali ayolni sevganman va uni sira ham

yengolmaganman. Biz bir-birimizga dushman bo'lib ajrashganmiz, agar men uni besh yilcha keyinroq uchratganimda, balki boshqacha ajrashgan bo'larmidik.

Vera xasta, ahvoli og'ir, ammo bunga o'zi iqrор bo'lmaydi, silmi deb qo'rqaman yoki *fiе'vre lente*¹ xastaligiga yo'liqqan bo'lmasin, aslida bu rus kasali emas, bizning tilimizda uning, hatto nomi ham yo'q.

Momaqaldirоq bizni g'orda yarim soatcha turib qolishimizga majbur etdi. Vera mendan vafodorlik haqida ont ham talab qilmadi, o'tgan safar ajralib ketganimizdan keyin boshqa ayolni yaxshi ko'rganmisan, deb ham so'ramadi. Ilgarilari o'zini menga qanday ishonib topshirib qo'ygan bo'lsa, hozir ham shunday ishonди, men ham uni aldamayman: dunyoda men faqat birgina ayolni alday olmayman, u ham bo'lsa – Verani. Bilaman, yaqinda biz yana ajrashamiz, balki abadiy ajrasharmiz, ikkimiz ham o'lim to'shagiga turli yo'llardan boramiz! Ammo uning xotirasi qalbmida abadiy saqlanadi, men buni o'ziga ko'p bor aytganman, garchi ishonmayman desa ham, ishonadi.

Axiyri xayrlashdik. Shlyapasi buta va qoyalar ortiga ko'zdan g'oyib bo'lguncha qarab turdim. Yuragim ezildi, ilk marta ajrashganimizda ham xuddi ana shunday bo'lgan edim. O, bu tuyg'u meni shu qadar quvontirgandiki! Ajabo, bu – hayotbaxsh, jo'shqin yoshligimning tanimga qaytib kelishimi, yo o'sha yoshligimning so'nggi boqishi, menga sovg'a qilib ketmoqchi bo'lgan hadyasimi? Ammo, ko'rinishim juda yosh, yuzlarim garchand rangpar bo'lsa-da, yoshlarning yuzidek beg'ubor, a'zolarim epchil va kelishgan, qalin sochlarim jingalak, ko'zlarim charaqlab yonadi, qonim qaynoq...

Uyga qaytgach, ot minib dashtga chiqdim, men baland-baland maysa o'tlar orasidan ot choptirib yurishni yaxshi ko'raman, qarshimdan dasht shamoli g'ir-g'ir urib turadi, ko'kragim xushbo'y musaffo havoga to'ladi, ko'zimni olislarga tikib, laha sayin yaqinlashib keluvchi narsalarni ko'rishga tirishaman. Yuragimda qanday dard-alamlar bo'lmasin, nima-

¹ Odamni holsizlantiruvchi va uzoq davom etadigan bezgak kasalligi.

larni o'ylab diqqat bo'lmayin, barchasi birpasda tarqab ketadi, jonim orom oladi, tanam charchab, miyamdagi tashvishni yengadi. Janub quyoshi yoritib turgan kungurador tog'larni, ko'm-ko'k osmonni ko'rsam yo toshdan toshga hayqirib oqib tushuvchi daryo shovqinini eshitsam bas, har qanday ayol siymosini ham darrov unutaman.

Menimcha, o'z minoralarida zerikib o'tirgan kazaklar mening maqsadsiz, bekordan bekorga ot choptirib yurishimni ko'rib, rosa ajablanishsa kerak, chunki ust-boshimdan ular meni cherkas deb o'ylashadi. Darhaqiqat, ko'p odamlar menga, cherkascha kiyim kiysangiz qobordinga shu qadar o'xshab ketasizki, hatto haqiqiy qobordinlardan ajratib ham bo'lmaydi, deyishadi. Rost, bu oliyjanob jangovar kiyimni kiysam juda olifta bo'lib ketaman, bu kiyimning bitta ham ortiqcha zarrin jiyagi yo'q, jo'n ko'rinsa ham, qimmatbaho yarog' taqaman, qalpog'imning qunduzi uzun ham, kalta ham emas, o'rtacha, boldirga kiyadigan kiyimim bilan poyabzalim oyog'imga quyib qo'ygandek, peshmatim oq, cherkascha kamzulim esa qora. Tog'liklarning ot minishini o'rganish uchun ancha vaqtim ketdi, menga hech narsa yoqmasa ham, faqat odamlarning kavkazcha ot minishimga qoyil qolib maqtashlari yoqadi. Mening to'rtta otim bor: bittasi o'zim uchun, uchtasini dalama-dala yolg'iz o'zim kezib zerikmay, deb o'rtoqlarimga atab olganman; ular otlarimni jon deb minishadi-yu, ammo hech vaqt men bilan birga yurishmaydi. Tushlik qilish kerakligi esimga tushganida, soat olti bo'lgandi, otim o'lgudek charchabdi; Pyatigorskdan olmonlar koloniyasiga qarab ketadigan yo'lga chiqdim, suv bilan davolanishga kelganlar u yerdan *en piquenique*¹ga tez-tez borib turishar edi. Yo'l chakalakzor oralab, baland-baland maysa o'tlar orasidan shildirab soy oquvchi kichik-kichik jarlar orqali ilonizidek bo'lib boradi: tevarak-atrofni Beshtov, Zmein, Jeleznaya va Lisaya degan bahaybat ko'm-ko'k tog'lar o'rab olgan. Mahalliy shevada balka² deyiladigan

¹ «*en piquenique*» – shahardan tashqariga, ko'kalamzor joylarga chiqib o'tkaziladigan sayr, ziyofat.

² *balka* – chuqur, o'r, jar.

shunday jarlardan biriga tushdim-da, otimni sug'orib olay deb to'xtadim. Shu tobda yo'ldan shovqin-suron bilan kelayotgan bir talay yasangan-tusangan otliqlar ko'rindi. Xonimlar egnida qora va ko'k amazonka¹ kavalierlar esa, yarim cherkascha va yarim nijegorodcha kiyinishgandi, eng oldinda Grushnitskiy bilan Meri xonim kelishardi.

Shifoli suvga keluvchi xonimlar cherkaslarning kuppa-kunduzi bosqinchilik qilishlariga hali ham ishonadilar. Shuning uchun bo'lsa kerak, Grushnitskiy askarcha shineling ustidan qilich va ikkita to'pponcha taqib olgandi, uning bunchalik jangovar kiyinganini ko'rgan kishi o'zini kulgidan tiyolmas edi. Men baland buta ortida turar edim, ammo uning barglari orqasidan hamma narsa bemalol ko'rinar, ularning yuzlaridan gaplarining hissiy bir mazmunda ekanini payqadim. Nihoyat, ular pastga tushadigan joyga yetib kelishdi, Grushnitskiy knyajna otining jilovidan ushladi, ana shunda men suhbatlarining oxirini eshitib qoldim.

– Kavkazda butunlay qolmoqchimisiz? – derdi knyajna.

– Rossiya menga nima? – deb javob berdi Grushnitskiy. – Rossiya shunday bir mamlakatki, u yerning minglab odamlari mendan badavlatroq bo'lganlari uchun meni mensishmaydi. Holbuki, ustimdagi mana bu qalin shinelim ham siz bilan tanishishimga to'sqinlik qilmadi.

– Aksincha, – dedi knyajna va qizarib ketdi.

Grushnitskiyning yuzida mamnuniyat aks etdi. U davom etardi:

– Bu yerda umrim jo'shqin o'tadi, yovvoyilar o'qi ostida umrimning tez o'tganini ham sezmay qolaman va agar, tangrim har yili faqat bir martagina ayol tabassumini mendan darig' tutmasa va bu tabassum...

Shu zamon ular menga yaqin kelib qolishdi; men otimga qamchi urib, chakalakzordan chiqdim...

– *Mon dieu, un circassien!..*² – deb qichqirib yubordi knyajna qo'rqib.

¹ *amazonka* – bu joyda suvoriy ayollar kiyimi.

² «*Mon dieu...*» (frans.) – «Voy, xudo, cherkas!»

Uning yanglishganini bildirmoq uchun biroz engashib, men ham fransuzchalab javob berdim:

– Ne craignez rien, madame, – *je ne suis pas plus dangereux que vorte cavalier*¹.

Knyajna izza bo'ldi, ammo nimadan? O'zining xato qilib qo'yganidanmi yoki javobimni odobsizlik deb topgani uchunmi? Menga qolsa, keyingisining to'g'ri chiqishini istardim. Grushnitskiy menga ranjigandek qaradi.

Kechasi, ya'ni soat o'n birlarda shohko'chaning arg'uvon daraxtlari bilan o'ralgan xiyoboniga sayr qilgani chiqdim. Shahar uyquda, faqat onda-sonda derazalardan miltillagan chiroqlar ko'rinib qolardi. Uch tarafdin qoyalarning kunguralari, Mashuq tog'ining tarmoqlari qorayib ko'rinardi, tog'ning tepasida bir parcha mash'um qora bulut osilib turardi. Sharq tomondan oy ko'tarilib kelmoqda, yiroqdagi qorli tog'lar xuddi kumush jiyakka o'xshab ko'rinardi. Kechasi ochib yuborilgan issiq buloqlarning sharillashi orasidan soqchilarning hayqirig'i eshitilardi. Ahyon-ahyonda ko'chadan ot tuyoqlarining gursillashi, no'g'ay aravaning g'ijirlashi, tatarcha cho'ziq ashula eshilib qolardi. Men oromkursiga o'tirib, xayolga botdim. Biror kishi bilan dilkashlik qilib, dilimdagi hamma dardlarim bilan o'rtoqlashgim, yuragimni bo'shatgim keldi, ammo kim bilan dilkashlik qilay? «Shu tobda Vera nima qilayotgan ekan?» deb o'yladim. Qani endi, shu onda uning qo'lini bir marta siqish uchun yarim davlatimni berardim.

To'satdan birovning kelayotgani eshitildi. Grushnitskiyga o'xshatdim. O'sha ekan!

– Qayerdan kelyapsan?

– Knyaginya Ligovskayanikidan, – dedi Grushnitskiy g'urur bilan. – Meri rosa ashula aytarkan-da!

– Bilasanmi? – dedim men unga. – Garov o'ynaymanki, yunkerligingdan uning xabari yo'q, u seni askarlikka tushirilgan ofitser deb o'ylaydi...

¹ «*Ne craignez rien...*» (frans.) – «Qo'rqmang, xonim, men kavaleringizdan xavfliroq emasman».

– Bo‘lsa bordir! Mening nima ishim bor!.. – dedi Grushnitskiy parishonxotirlik bilan.

– Shunchaki aytdim-qo‘ydim-da...

– Bilasanmi, bugun uni juda jahlini chiqarding? Qilg‘ingni misli ko‘rilmagan beodoblik deb topdi. «Yo‘q, u juda tarbiya ko‘rgan, odobli yigit, sizni xafa qilish ko‘ngliga ham kelmagan bo‘lsa kerak», – deb zo‘rg‘a ishontirdim men. U odamga surbetlarcha qararkan, juda o‘ziga bino qo‘ygan bo‘lsa kerak deydi.

– To‘g‘ri aytibdi. Sen uni o‘z himoyangga olmoqchimsan deyman?

– Ming afsuski, hozircha bunday huquqqa ega emasman.

«E-ha! Bu hali umidvor bo‘lib yurganga o‘xshaydi...» – deb o‘yladim.

– Qaytangga o‘zingga yomon-da, – deb davom etdi Grushnitskiy, – endi ular bilan tanishishing qiyin bo‘ladi, attang! Men bilgan barcha uylarning ichida eng yaxshisi shu...

Men ichimda kulib qo‘ydim.

– Endilikda men uchun eng yaxshi uy – o‘zimning uyim, – deb esnadim-da, ketmoqchi bo‘lib o‘rnimdan turdim.

– Bo‘yningga ol, pushaymon bo‘layotgandirsan-a?

– Bo‘lmagan gap! Agar istasam, ertaga kechqurun unikida bo‘laman...

– Ko‘ramiz...

– Hatto, seni xursand qilish uchun knyajnaning ortidan yuraman...

– Mayli, agar sen bilan gaplashishni istasa...

– Men faqat sening suhbatingdan bezor bo‘lishini kutaman... Xayr!..

– Men yana sayr qilaman, endi sirayam uyqum kelmaydi... Menga qara, yaxshisi yur, restoranga boramiz, qimorning ayni qizigan payti... bugun qonim qaynab-toshmasa bo‘lmaydiganga o‘xshaydi...

– Yutqazishingni tilayman...

Uyga ketdim.

21-may

Qariyb bir hafta o'tdi, ammo hanuzgacha Ligovskayalar bilan tanishganim yo'q. Qulay payt poylab yuribman. Grushnitskiy knyajnaning ortidan har yerda xuddi soya kabi ergashib yuribdi, ular hech gaplashib to'yishmaydi; u qachon knyajnaning joniga tegarkin?.. Onasi ularning gapiga e'tibor ham bermaydi, chunki Grushnitskiy qizining qaylig'i emas-da. Ana onalarning mantig'i! Knyajnaning Grushnitskiyga bir-ikki marta ko'z suzganini ko'rdim, bunga xotima berish kerak.

Quduq boshiga Vera kecha birinchi marta keldi. G'orda ko'rishganimizdan buyon uydan chiqishi ham shu ekan. Ikkimiz ham bordog'imizni quduqqa baravar botirdik, Vera engashib, asta qulog'imga shivirladi:

– Ligovskayalar bilan tanishmayapsan!.. Biz faqat o'shalar-nikida uchrashishimiz mumkin...

Yana o'pka!.. Zerikish! Ammo, men bu o'pkalanishga loyiqman.

Darvoqe, ertaga restoran zalida solma bal bo'ladi, ana o'shanda knyajna bilan polyakcha raqsga tushaman.

22-may

Restoran aslzodalar jamiyati zaliga aylanib ketibdi. Soat 9 da hamma to'planib bo'ldi. Knyaginya qizi bilan kechikib keldi, ko'p xonimlar unga hasad va ichi qoralik bilan qarab qo'yishdi, chunki knyajna Meri juda chiroyli va did bilan kiyinadi. O'zlarini shu yerning aslzodasi deb yuruvchi xonimlar o'z hasadlarini yashirib, knyajnaga qo'shilishdi. Na iloj? Ayollar jamiyati bor joyda hamisha yuqori va quyi doiralar paydo bo'ladi... Grushnitskiy deraza yonida to'planib turgan odamlar orasida yuzini oynaga tirab, o'z malagidan ko'zini uzmay, tikilib turardi. Knyajna esa uning yonidan o'ta turib, bilinar-bilinmas bosh silkitibgina qo'ya qoldi. Grushnitskiyning yuzi quyoshdek porlab ketdi. Raqs polka bilan boshlandi, keyin valsqa o'tildi. Etikdagi temir tepkilar jaranglab, belburma kamzulning etaklari pirpirab ketdi.

Men boshiga pushti rang patlar taqib kelgan semiz bir ayolning orqasida turardim. Kiyimlarining zeb-ziynati fijmalar¹ rasm bo'lgan davrni, g'adir-budur terisining olachiporligi esa mashhur qoraxonlar davrini eslatardi. U bo'ynidagi eng katta so'galini marjon bilan berkitib olgan edi. Xonim o'z kavaleri bo'lmish kapitanga:

– Shu knyajna Ligoyskaya juda odobsiz qiz ekan! Qarang-ki, meni turtib yuborib, afv ham so'ramadi, yana o'girilib ko'zoynak orqali betimga qaraydi deng... *C'est impayable!*².. Nimasiga buncha bino qo'yadi? Uning bir adabini berib qo'yish kerak, – dedi.

– Bu bizga cho't emas! – deb javob berdi xizmatga tayyor turgan kapitan va narigi xonaga chiqib ketdi.

Men shu zahoti knyajnaning yoniga borib, uni valsga taklif etdim, bu yerning odati shunaqa: tanish bo'lmagan odamlar bilan ham raqs tushish mumkin.

U o'zini jilmayishdan zo'rg'a tiydi, ustimdan qilgan tananasini ham bazo'r yashirdi, ammo darhol meni mensimagan-dek bir qiyofa oldi. Qo'lini istar-istamas yelkamga tashladida, boshini yonga sal egdi, ikkimiz raqs tushib ketdik. Bunaqangi nozik badanni umrimda ko'rgan emasman! Uning yengil nafasi yuzimni yelpib turardi, chirpirak bo'lib aylan-ganda sheriklaridan ajralib chiqqan bir tutam jingalak zulfi o'tdek yonib turgan yuzimni qitiqlab ketardi. Zalni uch marta aylanib chiqdik. (U valsga juda yaxshi tusharkan.) Knyajna juda halloslab qoldi, ko'zlari tindi, salgina ochilib turgan lablari odatdagi «*mersi, monsieur*»³ni ham zo'rg'a aytdi.

Bir necha daqiqa jim turganimizdan keyin men nihoyatda yuvosh odamdek so'radim:

– Knyajna, siz bilan tanish bo'lmay turib, g'azabingizga duchor bo'lishday katta baxtsizlikka uchraganimni eshitdim. Meni odobsiz deb topgan emishsiz. Nahotki shu gap rost bo'lsa!

¹ *Fijma* – XVIII asr va XIX asrning boshlarida ayollar yubkasi; qomatni to'la qilib ko'rsatish uchun tagiga keng gardish qo'yib tikilgan.

² «*C'est impayable!*» (frans.) – «Qiziq ekan!»

³ «*Mersi, monsieur*» (frans.) – «Rahmat, afandim».

– Hali ham meni shu fikrda qoldirmoqchimisiz? – deb javob berdi knyajna istehzo bilan lablarini burib, uning bu qilig'i sho'x yuziga juda yarashardi.

– Agar men odobsizlik yuzasidan biron narsa bilan sizni haqorat qilgan bo'lsam, ruxsat eting, undan ham kattaroq beodoblik qilib, sizdan afv so'ray. Rost, men to'g'rimda xato o'ylaganingizni isbot qilishni istardim...

– Siz uchun bu juda qiyin bo'lsa kerak...

– Nima uchun?

– Shuning uchunki, biznikiga kelmaysiz, bunaqangi ballar esa tez-tez bo'lmaydi.

Bundan chiqdi, ularning eshigi men uchun abadiy berk ekan-da, deb o'yladim.

– Bilasizmi, knyajna, – dedim biroz afsuslangandek bo'lib, – jinoyatchi tavba qilsa, tavbasini aslo qaytarib bo'lmaydi, u jonidan to'yib, beshbattar jinoyatchi bo'lib ketishi mumkin, ana shunda...

Atrofimizda turgan odamlarning birdan xaxolashi va shivir-shiviri so'zimni bo'lib, qayrilib qarashga majbur etdi. Mendan bir necha qadam narida bir to'da erkaklar turardi, ularning orasida boya mening knyajnamga qarshi urush boshlamoqchi bo'lib turgan otliq piyoda kapitani ham bor edi, aftidan, u bir narsadan juda xursand ko'rinardi, qo'llarini bir-biriga ishqalar, nuqul xaxolab kular va o'rtoqlari bilan ko'z qisishar edi. Birdan ular orasidan frak kiygan, shop mo'ylov, yuzlari qip-qizil bir kishi chiqdi-da, gandraklaganicha knyajnaga qarab kelaverdi, u mast edi. Sarosimada qolgan knyajnaning oldiga kelgach, qo'llarini orqasiga qilib turdi-da, mast ko'zlarini unga tikib, xirillagan ingichka tovush bilan dedi:

– Permete!¹... ha, xullasi kalom, gapning po'stkallasi, men sizni raqsga taklif etaman...

– Nima istaysiz? – dedi knyajna tovushi titrab va najot izlab atrofga termildi. Evoh! Onasi yiroqda turar, yonida esa bironta tanish kishisi yo'q edi, bir ad'yutant buni ko'rib turgan shekilli, biroq mojaroga aralashmaslik uchun odamlarning orqasiga berkinib oldi.

¹ Permete... (frans.) – (permettre) ruxsat eting...

– Xo'sh, nima deysiz? – dedi mast turli imo-ishoralar bilan dalda berib turgan kapitanga ko'zini qisib, – yo xohlamaysizmi?.. Men sizni yana *pour mazurera*¹ga taklif etish sharafiga egaman... Balki, meni mast deb o'ylarsiz? Mayli, buning ahamiyati yo'q... Qaytangga bimalolroq bo'ladi...

Men knyajnaning qo'rquv va g'azabdan behush bo'lib yiqilishiga sal qolganini ko'rdim.

Mast kishining oldiga bordim, qo'lini qattiq siqib, ko'ziga tikildim-da: «Jo'nang hozir, yo'qoling bu yerdan, chunki knyajna raqsga men bilan tushishga va'da bergan», dedim.

– Mayli, o'zga choramiz yo'q! Boshqa safar! – dedi mast kulib va xijolatda qolgan o'rtoqlari uni darrov boshqa uyga olib chiqib ketishdi.

Knyajna menga minnatdorchilik bilan uzoq tikilib, tashakkur bildirdi.

Knyajna onasining oldiga borib, hamma voqeani unga gapirib berdi, onasi meni axtarib topib, minnatdorchilik bildirdi. Keyin onamni taniganini va olti-yettita xolam bilan yaqin ekanligini aytdi.

– Hayronman, nima uchun shu mahalgacha tanishmadik, – deb ilova qildi knyaginya, – rostini ayting, bunga faqat siz aybdorsiz, hammadan yotsiraysiz, bunday qilish yaramaydi! Mehmonxonamning havosi kayfingizni ochib yuboradi degan umiddaman... Shunday emasmi?

Men shunday paytlarda aytish kerak bo'lgan gaplardan birini aytdim.

Raqs juda uzoq cho'zilib ketdi.

Nihoyat, tepadan polyakcha musiqa yangradi, knyajna ikkimiz o'tirdik.

Men boyagi mast kishi haqida ham, ilgarigi qiliqlarim to'g'risida ham, Grushnitskiy haqida ham hech narsa demadim. Boyagi ko'ngilsiz voqeaning ta'siri bora-bora tarqalib, knyajnaning chehrasi ochildi, chiroyli hazillar qilib o'tirdi, gaplari erkin, o'tkir va biyron edi, ba'zi mulohazalari chuqur ma'noga to'la. Gapni chalkashtirib turib, uni ko'pdan

¹ «*Pour mazurera*» – mast kishi «mazurka» so'zini buzib «mazurre» deydi.

buyon yoqtirib yurganimni bildirdim. Knyajna boshini egdi, sal qizardi.

– Juda g'alati odam ekansiz! – dedi ko'zlarini menga tikkan holda zo'raki kulib.

– Siz bilan tanishish ko'nglimda yo'q edi, – deb davom etdim men. – Chunki birtalay muxlislaringiz borki, ular orasida ko'rinmay ketamanmi deb qo'rqdim.

– Bekor qo'rqibsiz! Hammasi diqqinafas qiladigan bo'lsa?

– Hammasi? Nahotki, shunday bo'lsa?

Knyajna xuddi bir narsani eslatmoqchi bo'lgandek, menga tikilib qaradi, keyin qizarib ketdi-da, nihoyat qat'iy ravishda: «Hammasi!» – dedi.

– Grushnitskiy sizning do'stingizmi? – dedi knyajna ishonqiramay.

– Ha.

– U diqqinafas qiladigan odamlar sirasiga kirmaydi, albatta.

– Ammo baxtsizlar sirasiga kiradi! – dedim kulib.

– Albatta. Nega kulasiz? Uning o'rnida siz bo'lishingizni istardim...

– Nima bo'libdi? Men ham bir vaqtlar yunker edim, rostini aytsam, umrimning eng yaxshi davri – o'sha yunkerlik davri edi!

– U yunkermi?! – shoshib so'radi knyajna va ilova qildi. – Men o'ylovdimki...

– Nima deb o'ylovdingiz?

– Hech nima!.. Anavi xonim kim?

Shundan keyin gap boshqa tomonga burilib, ortiq bu mavzuga qaytmadi.

Raq's ham tugadi, biz xayrlashdik. Xonimlar tarqalishdi. Men kechki ovqatga borib, Vernerni uchratdim.

– E, barakalla! – dedi u. – Hali shunaqa ekansiz-da! Knyajna bilan tanishsam – o'limdan qutqarib tanishaman, deb kim aytgan edi?

– Undan ham yaxshirog'ini qildim, – deb javob berdim men. – Balda uni hushdan ketishdan saqlab qoldim!

– Rostmi? Qani, eshitaylik!

– Yo‘q, o‘zingiz toping, doktor, dunyoda siz topmaydigan hech narsa yo‘q-ku?

23-may

Kechqurun soat yettilarda shohko‘chada sayr qilib yurdim. Grushnitskiy meni uzoqdan ko‘rib, yonimga keldi, uning ko‘zlarida allaqanday sevinch porlardi. Qo‘limni qattiq siqib ko‘rishdi-da, fojiali tovush bilan:

– Tashakkur senga, Pechorin. Gapimga tushungandirsan? – dedi.

– Yo‘q, ammo tushunsam ham, tushunmasam ham, tashakkurga arzimaydi, – deb javob berdim men o‘zimning nima yaxshilik qilganimni bilmay.

– Yo‘g‘-ey? Kechagi-chi? Unutdingmi? Meri menga hammasini aytib berdi.

– Shunaqami? Halitdan hamma narsa o‘rtada bo‘lib ketdi degin? Hatto tashakkuringiz ham-a?

– Menga qara, – dedi Grushnitskiy g‘oyatda mag‘rurlanib. – Iltimos qilaman sendan, agar do‘stim bo‘lib qolishni istasang, sevgimni masxaralama. O‘zing ko‘rib turibsan: uni jon-dilimdan sevaman. O‘ylayman, umid qilamanki, u ham meni sevadi. Sendan bir iltimosim bor, bugun kechqurun ularnikiga borasan, hamma narsani ko‘z ostingga olib o‘tirsang. Bilaman, bu ishlarda tajribang katta, ayollarni mendan yaxshiroq bilasan. Ayollar! Ayollar! Ularni kim tushuna oladi? Ayollarlarning tabassumlari bir narsa deb tursa, ko‘zlari uning aksini aytadi, gaplari va‘da bersa, o‘ziga tortsa, tovushlari ko‘kragingdan itarib turadi. Ba‘zan sir saqlagan fikrlarimizni birpasda bilib olishadi, gohida esa eng ravshan ishoralarimizni tushunishmaydi. Mana, masalan, knyajnani olsak, kechagina ko‘zlari ehtiros o‘ti bilan yonar edi, bugun bo‘lsa ko‘zlari so‘ngan, sovuq qaraydi.

– Balki, suvning ta‘siri urgandir, – deb javob berdim.

– Sen har bir narsaning yomon tomonini ko‘rasan, materialistsan! – deb ilova qildi Grushnitskiy achchig‘i kelib. – Kel, mavzuni o‘zgartiraylik, – dedi va o‘zining bu siyqasi chiqib ketgan o‘xshatishidan xursand bo‘lib, kayfiyati ko‘tarildi.

Soat sakkizdan oshgach, ikkimiz knyaginyanikiga ketdik.

Veraning uyi yonidan o'ta turib, uni deraza oldida ko'rdim. Bir-birimiz bilan ko'z urishtirib oldik. Saldan keyin u ham Ligovskayalarning mehmonxonasiga kirib keldi. Knyaginya uni qarindoshim deb menga tanishtirdi. Choy ichdik, talaygina mehmonlar bor edi, suhbat umumiy tarzda kechdi. Men knyaginyaga yoqishga tirishdim, qiziq-qiziq gaplar bilan uni bir-ikki marta rosa kuldirdim, knyajnaning ham bir necha marta kulgisi qistadi-yu, biroq roldan chiqmaslik uchun o'zini tiyib o'tirdi, uning fikricha, unga vazminlik yarasharmish, ehtimol to'g'ridir. Mening qiziq gaplarim unga ta'sir etmaganidan Grushnitskiy o'zida yo'q xursand edi.

Choydan keyin hammamiz zalga chiqdik.

– Itoatkorligimdan xursandmisan, Vera? – dedim men uning yonidan o'ta turib.

U menga sevgi va minnatdorlik bilan to'liq nigoh tashladi. Bunday nigohlarga o'rganib qolganman, bir vaqtlar shunday nigohlar jonimning oromi edi. Knyaginya qizini fortepyano yoniga o'tqazdi, hamma undan birorta qo'shiq aytib berishini iltimos qila boshladi. Men indamadim, g'ala-g'ovurdan foydalanib, ikkimiz deraza yoniga borib turdik, Vera muhim bir gap aytmoqchi edi. Keyin bilsam, behuda gap ekan.

O'zimni beparvo tutishim knyajnani ranjitibdi, buni uning bir martagina menga xo'mrayib qarashidan payqadim, uning ko'zlari chaqnab ketdi. O, men bunaqangi so'zsiz, ammo ma'nodor, qisqa, biroq kuchli suhbatlarni juda yaxshi tushunaman!..

Knyajna qo'shiq ayta boshladi. Ovozi yomon emas, biroq qo'shiqni maromiga yetkaza olmas ekan, rostini aytsam, qo'shig'iga quloq solmadim ham. Ammo Grushnitskiy uning ro'parasiga kelib, royalga suyangan holda unga ko'z bilan yeb qo'ygudek tikilar va har lahzada: «*Sharmant délicieux!*»¹ – deb pichirlardi.

– Menga qara, – dedi Vera, – erim bilan tanishishingni istayman, ammo knyaginyaga, albatta, yoqishing kerak, bu

¹ «*Charmant délicieux!*» (frans.) – «Hayratbaxsh! Qoyil!»

oson, sen aytganingni qila oladigan odamsan. Biz faqat shu yerdagina ko'rishib turamiz, xolos.

– Faqat?

Vera qizarib ketdi-da, so'zida davom etdi:

– Bilasan-ku, men sening qulingman, senga qarshilik ko'rsata olmayman, buning jazosini ham tortarman, bir kun emas, bir kun mendan sovib ham ketarsan! Hech bo'lmaganda, obro'yimni saqlab qolay deyman-da, shunda ham o'zim uchun emas, kim uchunligini o'zing yaxshi bilasan! O, o'tinaman sendan, avvalgidek bekorchi shubhalar, sun'iy sovuqqonliklar bilan meni qiynama, ehtimol, tez orada o'lib ketarman, kundan kunga puturdan ketayotganimni o'zim sezib yuribman, shunday bo'lsa hamki, kelajak hayotimni emas, balki seni o'ylayman. Siz erkaklar, bir boqishning qanday rohatbaxsh, qo'l siqishning qanchalik lazzatli ekanini anglamaysizlar. Men-chi? Ont ichib aytamanki, ovozingni eshitsam, qalbim shunday chuqur orom oladiki, buning o'rnini mingta otashin bo'salar ham bosolmaydi.

Bu orada knyajna ashulasini tugatdi. Atrofdan maqto'v yog'ilib ketdi, uning yoniga hammadan keyin bordim-da, ovozi haqida qo'polgina bir gap aytdim.

Knyajna pastki labini burishtirib, masxara bilan ta'zim qilib, o'rniga o'tirdi.

– Ashulamni eshitmagan bo'lsangiz ham, maqto'vingizdan minnatdorman, – dedi u. – Balki umuman musiqani yoqtirmassiz? Grushnitskiy sizni juda dag'al didli odam deb to'g'ri aytgan ekan. Musiqani gastronomik nuqtayi nazardan yaxshi ko'rar ekansiz.

– Yana xato qildingiz, men gastronom emasman, me'dam juda rasvo. Ammo tushlikdan keyin musiqa uyqu keltiradi, bu esa, o'z navbatida, tani sog'lik uchun yaxshi, binobarin, musiqani tibbiyot nuqtayi nazaridan yaxshi ko'raman. Kech-qurun esa, aksincha, musiqa asablarimni qitiqlaydi, had-dan ortiq qayg'u bosadi, yo sho'xligim tutib ketadi. Agar qayg'urishning yo sho'xlikning ijobiy sababi bo'lmasa, unisi ham, bunisi ham odamni charchatadi, shunisi ham borki,

jamiyatda qayg'urib o'tirsang – kulgi bo'lasan, haddan ortiq sho'xlik qilsang, odobsizlik bo'ladi.

Knyajna gapimni oxirigacha eshitmay, Grushnitskiyning yoniga borib o'tirdi, ikkisi o'rtasida sentimental suhbat boshlandi: knyajna, Grushnitskiyning gapini diqqat bilan tinglayotganini ko'rsatishga tirishsa ham, uning dono gaplarini parishonlik bilan tinglar va poyma-poy javob berardi, Grushnitskiy esa knyajnaning besaranjom boqishlarida aks etuvchi hayajonning sababini bilmoq uchun unga taajjub bilan qarab-qarab qo'yardi.

Ammo men hamma siringizni bilib oldim, knyajna, endi ehtiyot bo'ling! Menga ham shunday muomala qilib, izzat-nafsimni yerga urmoqchi bo'lasiz, ammo bunga erisholmaysiz! Agar menga urush e'lon qilsangiz, men ham juda shafqsiz bo'laman.

Kecha davomida jo'rttaga ularning suhbatiga bir necha marta aralashdim, ammo knyajna gaplarimga quruqqina javob qaytarib qo'ya qolardi, oxiri menga alam qilgandek bo'lib, ulardan uzoqlashdim. Knyajna tantana qilar edi. Grushnitskiy ham. Suyuninglar, do'stlarim, oshiqingiz, sevinchingiz uzoqqa cho'zilmas! Nima qilay? Men har doim har narsani oldindan sezib yuraman. Biron ayol bilan tanishsam, uning meni yaxshi yoki yomon ko'rishini oldindan payqab kelganman...

Kechaning qolgan qismini Veraning yonida o'tkazdim, to'ygunimizcha o'tmishni eslashib o'tirdik. U mening nimamni yaxshi ko'rarkan, o'zim ham bilmayman! Mening butun sirimni, barcha zaif tomonlarimni va yomon ehtiroslarimni bilib olgan birdan-bir ayol yolg'iz shu – Vera. Nahotki, yomonlik shu qadar jozibali bo'lsa?

Ko'chaga Grushnitskiy bilan birga chiqdik, u meni qo'ltiq-ladi-da, uzoq jimlikdan keyin:

– Xo'sh, qalay? – dedi.

«Ahmoq ekansan» demoqchi bo'ldim-u, biroq tilimni tiydim, kift qoqib qo'ya qoldim.

Shu kunlar davomida tutgan yo'limdan sira og'ishmadim. Endi gaplarim knyajnaga yoqa boshladi, boshimdan o'tgan bir necha g'alati voqealarni aytib berdim, shundan keyin u meni g'ayritabiiy, g'alati odam deb o'ylay boshladi. Olamdagi hamma narsani, ayniqsa, hislarni masxara qilib kulaman, u bundan cho'chiydi. Endi oldimda u Grushnitskiy bilan sentimental suhbat qilishga jur'at etolmaydi, uning qiliqlariga bir necha marta istehzo bilan kulib javob qildi, ammo men har safar Grushnitskiy uning oldiga kelganida yuvosh bo'laman-da, ikkisini yolg'iz qoldiraman, oldingi safar knyajna bundan mamnun bo'ldi, har holda, o'zini shunday ko'rsatishga tirishdi, ikkinchi safar mendan, uchinchi safar esa Grushnitskiydan xafa bo'ldi.

– Sizda izzat-nafs degan narsa yo'q ekan! – dedi knyajna menga kecha. – Nega Grushnitskiy menga yoqadi, deb o'ylaysiz?

Men o'z baxtimni do'stim uchun qurbon qilishga tayyor ekanimni bildirdim.

– Mening baxtimni ham, – deb qo'shib qo'ydi u.

Men unga tikildim-da, sipo bo'lib o'tirdim. Keyin kechgacha u bilan gaplashmadim. Kechqurun u o'ychan edi, bugun ertalab quduq yonida yanada xayolchanroq ko'rindi. Yoniga borganimda, u Grushnitskiyning gapini e'tiborsizlik bilan tinglar, Grushnitskiy esa, aftidan, tabiat manzaralarini zavq bilan maqtar edi, knyajna meni ko'rishi bilan o'zini ko'rmaganga solib xaxolab kula boshladi (bu mutlaqo o'rinsiz edi). Men sal nari bordim-da, sezdirmasdan qarab turdim, u o'z hamsuhbatidan yuz o'girdi-da, ikki marta esnab qo'ydi. Grushnitskiydan bezor bo'lgani aniq edi. Knyajna bilan yana ikki kun gaplashmay yurdim.

3-iyun

Men, ko'pincha, nega endi yoshgina bir qizning muhabbatiga sazovor bo'lish uchun o'lib-tirilaman, axir, men uni aldab ketmoqchi ham, unga uylanmoqchi ham emasman-ku, deb

so'rayman o'zimdand. Ayollarga xos noz-karashmani menga kim qo'yibdi? Basharti knyajna meni sevgan taqdirda ham, baribir, Verachalik seva olmaydi. Agar knyajna sira ham taslim bo'lmaydigan nozanin bo'lib ko'ringanida edi, balki unga erishishning qiyinligi meni qiziqtirarmidi.

Ammo, unday deb ham bo'lmaydi! Binobarin, bu narsani bizni ilk yoshlik davrlarida qiynab, azoblab yuruvchi, to biz bironta o'jar ayolni topmagunimizcha bir ayoldan ikkinchi ayolga yugurtiruvchi sevgi deb bo'lmaydi. Shunday o'jar va qaysar ayolni topdikmi, bas, bizning vafodorligimiz, haqiqiy va tuganmas ehtirosli muhabbatimiz boshlanadi, uni, matematika tili bilan aytganda, bir nuqtadan bo'shliqqa tushib qolgan chiziq deyish mumkin, bu tuganmas ehtirosning siri – maqsadga, ya'ni oxirigacha yetishning iloji yo'qligida.

Shunday ekan, nega jon kuydiraman? Grushnitskiyga hasad qilganim uchunmi? Bechora Grushnitskiy! U bunday tuyg'uga sazovor emas. Yo bo'lmasa, bu yaqin kishimiz hamma umididan mahrum bo'lib, endi nima qilarini, qaysi bir narsaga ishonarini bilmay qayg'urayotgan bir paytda unga «Do'stim, bu narsa mening ham boshimga tushgan! Mana, ko'rib turibsanki, shunga qaramay, tushligimni ham, kechki ovqatni ham kanda qilmayman, tinch uyqumdan ham qolmayman, o'ylaymanki, o'lganimda ham ko'z yoshi to'kmasdan, dod-voysiz qazo qilaman!» degan gap bilan uning totli xatolarini puchga chiqarishga majbur etadigan rasvo, ammo sira yengib bo'lmas his oqibatimikan?

Ammo, bamisoli endi ochila boshlagan gulning g'unchasidek yoshgina qizga ega bo'lishning bitmas-tuganmas nash'asi bor! U bir gulki, o'zining eng yaxshi, eng nozik islarini endi chiqib kelayotgan quyoshning ilk nurlariga sochadi. Uni xuddi shu damda uzib olish kerag-u, to'yguncha hidlab, yerga tashlab ketaverish kerak, balki biron o'tkinchi uni yerdan olar! Men ham o'zimda shunday zo'r, hech qonib to'ymaydigan, o'z yo'lida nima uchrasa barchasini hazm qilib keta oladigan tashnalik sezaman. O'zgalarning baxtsizligi yoki sevinchiga, mening ruhiy kuchimga oziq bo'larmikan, degan nuqtayi nazardan qarayman. O'zim esa ortiq ehtiros

ta'siri ostida ahmoqlik qilishga qodir emasman, izzat-nafsimni muhit poymol etib yuborgan, ammo u boshqa bir shaklda namoyon bo'ldi, chunki izzat-nafsning o'zi nima? Har kimdan ustun turish degan bir gap, mening eng katta zavq-manbayim atrofdagilarni o'z irodamga bo'ysundirishdir. O'zimga nisbatan boshqalarda sevgi, sadoqat va qo'rquv hissi tug'dirish, shu ustunlikning belgisi va eng katta tantanasi emasmi? Hech qanday huquqqa ega bo'lmasdan turib, birovlarining azob yoki shodligiga sababchi bo'lish – g'ururimizning eng shirin ozig'i emasmi? Baxt nima? To'ygan g'urur. Agar men o'zimni olamdagi barcha odamlardan yaxshiroqman, qudratliman deya olsam – baxtli bo'lardim; agar meni hamma sevganda edi, o'zimda ham bitmas-tuganmas sevgi manbalarini topgan bo'lardim. Yomonlikdan yomonlik kelib chiqadi, birinchi marta kechirgan azobing boshqalarni azoblash zavqini tug'diradi; yovuzlik g'oyasi, uni amalda ishlab ko'rilmasa aqlga kelmaydi, kimdir, g'oyalar organik bir narsa, degan ekan, ularning dunyoga kelishi ularga shakl beradi, shakl esa amalning o'zginasidir; kimning miyasida ko'proq g'oya tug'ilgan bo'lsa, o'sha odam boshqalardan ko'proq harakat qiladi. Shuning uchun ham biron amal kursisiga bog'lanib qolgan daho xuddi butun umrini o'tirib o'tkazib, apopleksiya¹ xastaligidan vafot etgan zabardast odamdek, yo o'lishi, yo aqlidan ozishi kerak.

Ehtiros – xuddi endi taraqqiy topib kelayotgan g'oyalarning o'zginasidir, u yosh qalbga xos narsa. Umr bo'yi ehtiros bilan yashamoqchi bo'lgan odam – ahmoq; ko'p sokin daryolar zo'r shalolalardan boshlansalar-da, lekin birontasi dengizgacha shunday quturib, ko'pirib bormaydi. Ammo bu sokinlik, ko'pincha, garchi yashirin bo'lsa ham, aslida ulug' kuchning alomatidir, fikr va tuyg'ular chuqur va to'lib-toshib tursa, odamni quturtirmaydi: azoblanuvchi hamda rohatlanuvchi qalb hamisha o'zini tiyib turadi va xuddi shunday bo'lishi kerakligiga ishonadi, u agar momaqalldiroq bo'lib turmasa, quyoshning muttasil jaziramasida qurib ketishini biladi: o'zi bilan ovora bo'ladi, o'z g'amini yeydi, xuddi yosh bolani

¹ *Apopleksiya* – falaj.

erkalatgandek o'zini o'zi erkalaydi, jazolaydi. Inson o'zini ana shunday yuksak darajada tushungandagina, Tangri adolati-ning qadriga yeta oladi.

Shu betni o'qib ko'rsam, mavzudan chetga chiqib ketibman... Ammo, buning nima zarari bor?.. Axir, bu jurnalni men faqat o'zim uchun yozaman, binobarin, jurnalimga kiritilgan har bir narsa kelajakda men uchun qimmatli bir xotira bo'lib qoladi.

... Grushnitskiy kelib bo'ynimga osilib oldi, u ofitserlik martabasiga ko'tarilibdi. Ikkimiz shampan vinosi ichdik. Bu orada doktor Verner kirib keldi.

– Men sizni qutlamayman, – dedi u Grushnitskiyga.

– Nima uchun?

– Shuning uchunki, askar shineli sizga juda yarashadi, bu yerda tikilgan piyoda askariy mundirning sizga yarashmasligiga o'zingiz iqror bo'lishingiz kerak. Gap shundaki, hozirgacha siz o'zgalardan ajralib turar edingiz, endi bo'lsa, ko'pchilikning biri bo'lib qolasiz.

– Gapiring, gapiring, doktor! Ming gapirsangiz ham, shodligimga to'sqinlik qilolmaysiz. Yolg'iz zar pogonlarning o'zi menga qancha umidlar bag'ishlaganini bu kishi bilmaydi, – deb ilova qildi Grushnitskiy qulog'imga shivirlab. – Eh, pogonlar, pogonlar! Yulduzlaringiz, yo'l ko'rsatuvchi yulduzlaringiz. Yo'g'e, baxtim endi ochilib ketadi.

– Biz bilan birga jarlikka sayrga borasanmi? – deb so'radim men.

– Menmi? Mundirim tayyor bo'lmaguncha, o'lsam ham knyajnaning ko'ziga ko'rinmayman.

– Sevinchingni unga aytsam bo'ladimi?

– Yo'q, zinhor aytma, og'ayni. Men uni hayratda qoldirmoqchiman...

– Ayt-chi, u bilan hozir aloqang qalay?

Grushnitskiy xijolat bo'lib, o'ylanib qoldi; yolg'on-yashiq bilan maqtangisi keldi-yu, ammo uyaldi, shu bilan birga rostini aytishga botinmadi.

– Qani ayt-chi, u seni sevadimi?

– Qo'ysang-chi, Pechorin, juda qiziq gaplarni gapirasan-a! Birdaniga sevib qolish mumkinmi? Basharti sevganida ham, unday andishali ayol hech qachon aytmaydi.

– Xo'p. Bundan chiqdi, seningcha, andishali ayol o'z hislarini yashirib yurishi kerakmi?..

– Eh, og'ayni, og'ayni! Har narsaning o'z me'yori bo'ladi, ko'p narsalar gapirilmaydi, ko'ngil bilan his qilinadi. Bu gaping to'g'ri. Ammo, ko'zdan payqalgan muhabbat ayol kishiga hech qanday majburiyat yuklamaydi, holbuki, so'z bilan izhor etilgan muhabbat esa... Ehtiyot bo'l, Grushnitskiy, knyajna seni aldab ketadi.

– Knyajna-ya? – dedi u ko'zlarini ko'kka tikkancha mamnun holda kulib. – Senga rahmim keladi, Pechorin!

U chiqib ketdi.

Kechqurun birtalay odam jarlikka piyoda yo'l oldi.

Mahalliy olimlarning fikricha, Mashuq tog'ining yonbag'rida, shahardan bir chaqirimcha narida joylashgan jarlik – so'nib qolgan yonartog'ning og'zidan o'zga narsa emas. Unga butalar va qoyalar orasida qolib ketgan torgina so'qmoq yo'ldan boriladi, toqqa chiqayotganimizda knyajna qo'limni qo'yib yubormadi.

Suhbat g'iybatdan boshlandi, men yonimizdagi va biz bilan birga bo'lmaganlarni yomonlayverdim, oldiniga ularning kulgili tomonlarini aytdim, keyin esa navbat buzuq tomonlariga keldi. G'azabim qaynadi, oldiniga hazil-mutoyiba bilan boshlangan gapim biroz o'tib, haqiqiy g'azabga aylandi. Knyajna avvaliga kuldi, keyin qo'rqib ketdi.

– Siz xavfli odam ekansiz! – dedi menga u. – Sizning tilingizga ro'para bo'lishdan ko'ra, o'rmonda qaroqchining pichog'iga ro'para bo'lishni afzal ko'rardim. Sizdan jiddiy iltimos qilaman, meni yomonlab gapirmoqchi bo'lsangiz, yaxshisi, pichoqni oling-u, so'yib qo'ya qoling, siz uchun bu qiyin bo'lmas.

– Nahotki men qotilga o'xshasam?

– Undan ham battarsiz.

Bir daqiqa o'ylanib turdim-da, g'oyatda ta'sirlangan qiyofada dedim:

– To‘g‘ri, bolaligimdan buyon taqdirim shunaqa! Hamma odam yuzimda yomon alomatlar topardi, aslida esa ko‘rinishimda unday alomatlar yo‘q edi, ammo odamlar bor deyavergandan keyin, paydo bo‘ldi. Kamtar edim, meni mug‘ambirlikda aybladilar, shundan keyin pismiqqa aylandim. Yaxshilik bilan yomonlikni juda yaxshi ajrata bilardim, hech kim erkalamasdi, silab-siypamasdi, aksincha, ko‘pchilik meni xo‘rlardi. Men kekchi bo‘lib qoldim; boshqa bolalar hamisha xushvaqt va sergap bo‘lsa, men kamgap, qovog‘im soliq yurardim, ulardan o‘zimni afzalman deb his qilardim, ammo meni ulardan past qo‘yishardi, natijada baxil bo‘lib qoldim. Men butun olamni sevishga tayyor edim, ammo meni hech kim anglamadi, shundan keyin hamma narsani yomon ko‘rishga o‘rgandim. Shum yoshligim o‘zim va butun muhitga qarshi kurash bilan o‘tdi, masxara bo‘lishdan qo‘rqib, o‘zimning eng asl tuyg‘u va hislarimni qalbimning eng chuqur joylariga yashirdim, ular o‘sha yerda halok bo‘lib ketdi. Men to‘g‘ri gapirsam, ishonishmasdi, shundan keyin aldamchi bo‘ldim. Dunyoning bordi-keldisini va jamiyatning sirlarini bilib olib, turmush degan ilmning tagiga yetdim, ammo bu ilmdan sira xabarlarini bo‘lmagan odamlarning men o‘lib-tirilib erishmoqchi bo‘lgan manfaatlardan bekorga foydalanib, baxtli bo‘lib yurishlarini ko‘rdim. Shundan keyin qalbimda umidsizlik tug‘ildi, ammo bu to‘pponcha o‘qi bilan bartaraf qilinadigan umidsizlik emas, balki andisha va muloyim tabassum niqobi ostida odamni ezib yuboradigan bir umidsizlik edi. Men ruhan nogironga aylandim, ko‘nglimning yarmi qurib xazon bo‘lgandi, uni kesib tashladim, ana shundan keyin ikkinchi yarmi tebrandi, har kimsaning xizmati uchun jonlandi, biroq buni hech kim sezmasdi, chunki uning yarmi halok bo‘lib ketganidan hech kimning xabari yo‘q edi, mana, siz hozir uni yodimga tushirdingiz, men sizga uning epitafiyasini o‘qib berdim. Epitafiya degan narsa ko‘p odamlarga kulgili ko‘rinmaydi. Men sizga, fikrimga sherik bo‘ling deyman, qilig‘im sizga kulgili ko‘rinsa, marhamat, kuling, ammo ogohlantirib qo‘yay, bu narsa meni zarracha xafa qilmaydi.

Shu onda uning ko'zlariga ko'zim tushdi, ko'zlari jiqqa yoshga to'lgandi. Qo'limni ushlab turgan qo'li titrardi, yuzlari lovullab yonardi, menga rahmi kelgan edi! Barcha ayollarga tezda ta'sir etuvchi shafqat hissi uning tajribasiz qalbiga ham o'z changalini solgandi. Sayr davomida xayoli parishon bo'lib yurdi, hech kim bilan o'ynashmadi, bu esa buyuk alomat!

Jarlikka yetib keldik, xonimlar kavalerlarini qoldirishdi, ammo knyajna hamon qo'limni qo'ymasdi. Shu yerlik oliftalarning so'zamolligi ham uni kuldirmasdi, choh yoqasida turgan oyimqizlar chohning tikligini ko'rib, qo'rqqanlaridan faryod chekib ko'zlarini yumib olsalar ham, u qo'rqmasdan turaverdi.

Qaytishda g'amgin suhbatni ortiq davom ettirmadim, ammo knyajna mening bekorchi savol va hazillarimga parishonxotirlik bilan qisqa-qisqa javob berardi-qo'yardi.

– Kimnidir sevganmisiz? – deb so'radim, nihoyat.

Knyajna menga tikilib qaradi-da, boshini chayqab, yana xayolga botdi. Uning bir gap aytmoqchi bo'lgani, ammo nimadan boshlashini bilmay turgani aniq edi; ko'kragi hayajondan ko'tarilib tushardi. Nachora! Nafis ko'ylakning yengi to'sqinlik qilolmas ekan, qo'limning uchquni uning qo'liga ham o'tdi, deyarli barcha ehtiroslar shundan boshlanadi, ko'pincha, biz, ayollar jismoniy yoki ruhiy xislatlarimiz uchun bizni yaxshi ko'radi, deb o'zimizni o'zimiz aldab yuramiz, albatta, bu xislatlar ayol qalbini muqaddas o'tni qabul qilishga hozirlaydi, ammo barchasini badanga ilk marotaba tegish hal etadi.

Sayrdan qaytganimizdan so'ng, knyajna zo'raki bir tabassum bilan:

– Men bugun o'zimni rosa muloyim tutdimmi? – dedi.
Biz ajralishdik.

U o'zidan norozi, u o'zini sovuqlikda ayblaydi. O, birinchi va eng katta g'alaba shu-da! Ertaga, albatta, meni mukofotlash orzusiga tushadi. Buni men oldindan bilaman – mana shunisi odamni zeriktiradi!

Bugun Verani ko'rdim. U rashk qilaverib, meni rosa qiynadi. Knyajna unga o'z qalb sirlarini aytganga o'xshaydi, agar shunday bo'lsa, toza odamini topib aytibdi.

– Buning oqibati nima bo'lishini bilib yuribman, – dedi Vera. – Yaxshisi, uni sevaman deb qo'yaqol.

– Sevmasam-chi?

– Sevmasang, nega uni ta'qib etasan, ortidan yurasan, xayolini qochirib, hayajonga solasan? O, men seni yaxshi bilaman! Menga qara, agar menga ishonsin desang, bir haftadan so'ng Kislovodskka borasan; indinga Kislovodskka ko'chib ketamiz. Knyagina bu yerda yana birmuncha vaqt turadi. Bizning yonimizdan bir uyni ijaraga ol, biz buloq yonidagi katta uyning boloxonasida yashaymiz; pastiga knyagina Ligovskaya ko'chib boradi, o'sha binoning yonida bitta bo'sh uy bor, u ham bizning uy egasiga qaraydi. Borasanmi?

Men boraman deb va'da berdim-da, o'sha kuniyoq uyni ijaraga olish uchun odam yubordim.

Kechqurun soat oltida Grushnitskiy keldi va mundirining ertaga, naq bal kuniga tayyor bo'lishini bildirdi.

– Nihoyat, knyajna bilan tuni bo'yi raqsga tushaman. To'ygunimcha gaplashaman! – deb ilova qildi.

– Bal qachon?

– Ertaga, ertaga! Hali xabaring yo'qmi? Juda katta bazm bo'ladi, mahalliy ma'murlar o'tkazmoqchi...

– Yur, bulvarga.

– Sira-sira chiqmayman! Shu rasvo shinelda.

– Iye, shinelni yomon ko'rib qolibsanmi?

Shohko'chaga yolg'iz o'zim chiqdim, knyajnani uchratib, ertangi bal raqsga taklif qildim. Knyajna ham sevingandek va ajablangandek bo'ldi.

– O'tgan safargidek, siz faqat zarurat yuzasidan raqsga tushasiz deb o'ylovdim, – dedi knyajna latif tabassum ila. – U Grushnitskiyning yo'qligini butunlay sezmadim, nazarimda.

– Ertaga bir narsani ko'rib, juda ajablanasiz, – dedim men.

– Nimani?

– Bu sir, balda o‘zingiz ko‘rasiz.

Kunni knyaginiyanikida kech qildim, Veradan va bir g‘alati choldan boshqa mehmon yo‘q edi. Kayfim joyida, har xil oldi-qochdi voqealarni gapirib o‘tirdim. Knyajna ro‘paramda o‘tirib, safsatalarimni shu qadar diqqat va hayajon bilan tinglardiki, hatto o‘zim ham uyalib ketdim. Uning sho‘xliklari, noz-karashmalari, qiziq-qiziq injiqliklari, kekkayishlari, istehzoli kulishlari, parishonliklari qayga ketdi?

Vera bularning hammasini payqadi, uning kasalmand chehrasida chuqur qayg‘u aks etdi, u deraza tagidagi chuqur oromkursida o‘tirardi. Unga rahmim keldi.

Shundan keyin men bizning tanishganimiz, ikki o‘rtadagi muhabbatimiz tarixini aytib berdim, buni, shubhasiz, boshqa odamlarning nomlari bilan niqobladi.

Men unga bo‘lgan muhabbatim, tashvish va sevinchlarimni jonli bir suratda hikoya qilib berdim, uning qiliqlarini, fe‘l-atvorini shunday maqtab ta‘rifladimki, Vera noiloj mening knyajna bilan yurganimni kechirishga majbur bo‘ldi.

O‘rnidan turib, yonimizga kelib o‘tirdi, jonlanib ketdi. Doktorlarning soat o‘n birda yotib uxlash kerak, degan nasihati soat ikkida esimizga kelibdi.

5-iyun

Balga yarim soat qolganda, Grushnitskiy piyoda armiya mundirini kiyib keldi. Uchinchi tugmasiga bronza zanjir, zanjirga ikki qavatli ko‘zoynak taqib olibdi; haddan ortiq katta pogonlari xuddi amur qanotidek¹ tepaga qayirib qo‘yilgan; etiklarning g‘archi olamni buzadi, chap qo‘lida jigarrang charm qo‘lqop bilan furajkasi, o‘ng qo‘li esa jingalak qilib taralgan sochlarini tez-tez silash bilan band. Aftidan, o‘zidan mamnun va shu bilan bir qatorda, qandaydir beqaror bo‘lib turganligi ko‘rinib turardi, uning yasan-tusani,

¹ *Amur qanotlari* – ishq-muhabbat tangrisining siymosi; qanotli yosh go‘daklar shaklida tasvir etilar edi.

kekkayib yurishlarini ko'rib, kulib yuborishimga sal qoldi, ammo kulsam bo'lmasdi, chunki rejam buzilardi.

Furajkasi bilan qo'lqoplarini stolga tashladi-da, oyna oldiga borib, etiklarining qo'njini tortib, o'ziga oro bera boshladi. Engagiga tiralib turgan bahaybat yoqasi ichidan taqilgan katta qora ro'molcha yoqasi ustidan yarim qarich chiqib turar, nazarida bu ham oz ko'rindi, shekilli, ro'molchani qulog'igacha tortib qo'ydi, bu sermashaqqat ishdan yuzlari qizil tusga kirdi, chunki mundirining yoqasi juda tor edi.

– So'nggi kunlarda knyajnamga osilayotganmishsan? – dedi u menga qaramasdan beparvo bir ohangda.

Uning bu gapiga men bir zamonlar o'tgan va Pushkin tomonidan tasvirlangan eng o'tkir bir xotinbozning yaxshi ko'rgan maqoli bilan javob berdim.

– Biz ahmoqlarga choy nasib qilibdimi?

– Ayt-chi, mundirim yarashibdimi? Voy la'nati juhud-ey! Qo'ltig'imning tagini juda tor qilib qo'yibdi-ku! Atiring bormi?

– Yana atir sepib nima qilasan? O'zi hammayog'ingdan atirning hidi anqib turibdi-ku.

– Mayli. Beraver.

Bo'yinbog'ining orqasiga, dastro'moliga, yenglariga yarim shishacha atir sepdi.

– Raqsga tushasanmi? – deb so'radi mendan.

– Bilmayman.

– Knyajna bilan polyakcha raqs tushishni boshlamasam deb qo'rqaman, deyarli birorta ham shaklni bilmayman.

– Sen uni raqsga taklif etdingmi?

– Hali taklif etganim yo'q.

– Ehtiyot bo'l, boshqa odam sendan avval taklif etib qo'ymasini.

– Rostmi? – dedi u peshanasiga bir urib. – Yaxshi qol. Borib uni eshik oldida kutib turaman. – U furajkasini oldida, yugurib chiqib ketdi.

Yarim soatdan keyin men ham jo'nadim. Ko'cha qorong'i va kimsasiz edi, klub deysizmi, qovoqxona deysizmi, baribir, ishqilib, bino oldida odam tirband, derazalardan yorug' tushib

turibdi; oqshom shamoli qulog'imga polk orkestrining ovozini uchirib keltirardi. Men asta-sekin borardim; ta'bim xira edi. Nahotki, mening bu dunyodagi birdan-bir vazifam – o'zgalarni umiddan mahrum qilish bo'lsa deb o'ylardim. Dunyoga kelganimdan buyon taqdir meni o'zgalarning savdosini hal qilishga chorlaydi, go'yo hech kim mensiz o'lolmaydigan, mensiz umidsizlana olmaydiganday. Men beshinchi pardada ishtirok etuvchi siymo bo'lib qoldim; men ixtiyorsiz ravishda jallod yoki xoin rolini o'ynab kelaman. Taqdirning maqsadi nima? Taqdir meni meshchanlar uchun tragediya yoki oilaviy romanlar yozishga, yo bo'lmasa qissalar bosib chiqaruvchi, masalan, «O'qish kitoblar kutubxonasi» uchun qissalar berib turuvchi xodim qilishni mo'ljallab qo'yganmikan? Kim biladi? O'z hayotlari boshida Buyuk Aleksandr¹ yoki Lord Bayron² bo'lib o'lishni orzu qilgan, ammo umr bo'yi titulli maslahatchi³ bo'lib o'lib ketgan odamlar kammi?

Zalga kirgach, erkaklar to'pi orasiga berkinib, atrofni kuzata boshladim. Grushnitskiy knyajnaning yonida turib, zo'r hayajon bilan unga allanimalar der edi. Knyajna uning gapini parishonxotirlik bilan tinglar, yelpig'ichni labiga qo'yib, nuqul atrofga qarardi, chehrasida toqatsizlik alomati aks etardi, ko'zlari birovni izlard; ularning gapini eshitay deb, sekin orqalariga borib turdim.

– Meni juda qiynayapsiz, knyajna! – derdi Grushnitskiy. – Sizni ko'rmaganimdan buyon juda o'zgarib ketibsiz.

– Siz ham o'zgarib ketibsiz, – deb javob berdi knyajna unga yalt etib qarab. – Grushnitskiy uning bu boqishida yashirin istehzo borligini sezmedi.

– Men-a? Men o'zgaribmanmi? O, hecham-da! Bunday bo'lishi mumkin emasligini o'zingiz ham yaxshi bilasiz! Sizni bir marta ko'rgan odam go'zal jamolingizni o'la-o'lgunicha unutmaydi.

– Qo'ysangiz-chi.

¹ *Buyuk Aleksandr* – Aleksandr Makedonskiy.

² *Lord Bayron* – (1788–1824) buyuk ingliz shoiri.

³ *Titulli maslahatchi* – chor Rossiyasida amallar 14 darajaga bo'linardi; titulli maslahatchi eng past darajali amallardan biri edi.

– Yaqindagina tez-tez eshitib turgan gaplarni nega endi eshitgingiz kelmaydi?

– Chunki bir narsani qayta-qayta eshitishni yomon ko‘raman, – dedi knyajna kulib...

– O, men qattiq xato qilgan ekanman! Men telba, juda bo‘lmasa, mana bu pogonlarim umid bog‘lash huquqini berar, deb o‘ylab yurgan ekanman. Yo‘g‘-a, o‘sha la‘nati askarcha shinelimda abadiy qolsam bo‘lmas ekanmi, sizningcha, menga bunchalik iltifot qilishingizning sababchisi o‘sha shinel edi-ku.

– Rost, shinel sizga ko‘proq yarashadi.

Shu payt men ularning oldiga keldim-da, knyajnaga ta‘zim qildim; knyajna biroz qizardi va shoshib dedi:

– Rost-a, janob Pechorin, janob Grushnitskiyga kulrang shinel ko‘proq yarashardi?..

– Fikringizga qo‘shilolmayman, – deb javob berdim men. – Mundirda u yanada yoshroq ko‘rinadi.

Bu zarbaga Grushnitskiy dosh bera olmadi: barcha yosh bolalar kabi u ham o‘zini katta qilib ko‘rsatishni yaxshi ko‘rardi, u yuzidagi chuqur ehtiros izlari yoshlik alomatini bildiradi, deb yurardi. Menga o‘qrayib qaradi-da, yer tepinib, yonimdan ketdi.

– Rostini ayting, – dedim men knyajnaga qarab. – Garchi Grushnitskiy hamisha kulgili odam bo‘lsa ham, yaqindagina kulrang shinel kiyib yurganida, sizga ancha jozibador bo‘lib ko‘rinardi, a?

Knyajna yerga boqib indamadi.

Butun kecha Grushnitskiy knyajnaning ortidan ergashib yurdi, u bilan o‘yinga tushardi, yo bo‘lmasa *vis-à-vis*¹ raqsiga tushganda ko‘zlari bilan yeb qo‘ygudek bo‘lardi, oh tortardi, nihoyat, o‘zining oh-fig‘onlari bilan knyajnani bezorijon qildi. Uchinchi raqsdan keyin knyajna undan nafratlana boshladi.

– Sendan buni kutmagan edim, – dedi Grushnitskiy yonimga kelib, qo‘limdan ushlab.

¹ *Vis-à-vis* (frans.) – ro‘parama-ro‘para.

– Nimani?

– U bilan raqsga tusharmishsan-a? – deb so‘radi tantanali bir ohangda. – Menga o‘zi aytdi.

– Nima qilibdi, aytsa?.. Buni birov sir deganmidi?

– Albattaku-ya. Qiz boladan... bu nozli qizdan shuni kutishim kerak edi. Bir o‘chimni olaman-ku!

– Shinelingdan yo pogonlaringdan o‘pkala, nega aybni unga to‘nkaysan?

– Bo‘lmasa, nega umidvor qiladi?

– Nega o‘zing umidvor bo‘lding? Biron narsani orzu qilish va unga erishish boshqa gap-u umidvorlik degan narsa butunlay o‘zga narsa.

– Garovda sen yutding, ammo butunlay emas, – dedi u zaharxandalik bilan.

Raqs boshlandi. Grushnitskiy faqat knyajnani tanladi, boshqa kavalerlar esa knyajnani dam o‘tmay tanlab turishardi, buni menga qarshi tuzilgan bir qasd ekanligi ravshan edi. Bu qaytanga yaxshi, knyajna men bilan suhbatlashish orzusida, ammo unga xalal berishmoqda, natijada uning orzusi yanada kuchayadi.

Bir-ikki marta qo‘lini sekin qisib qo‘ydim, ikkinchi marta qisganimda qo‘lini tortib oldi-yu, ammo indamadi.

– Bu kecha yaxshi uxlolmay chiqaman, – dedi knyajna mazurka tugagandan keyin.

– Hech-da! – uning yuzi shu qadar g‘amgin, shu qadar xayolchan bir tus oldiki, «shu kecha qo‘lidan, albatta, o‘paman», deb ont ichib qo‘ydim.

Mehmonlar tarqala boshlashdi. Knyajnani aravaga o‘tqaza turib, tezgina nozik qo‘lchasini labimga bosdim. Qorong‘i edi, hech kim ko‘rmadi.

O‘zimdan mamnun bo‘lib, zalga qaytdim.

Katta stol tevaragida yoshlar kechki yemak tanovul qilishar, ularning orasida Grushnitskiy ham bor edi. Kirishim bilan hammalari jim qolishdi, gap men haqimda ketayotgan bo‘lsa kerak. O‘tgan safargi baldan keyin ko‘plar, ayniqsa, otliq piyoda kapitani mendan xafa edi, endilikda Grushnitskiy

boshchiligida menga qarshi guruh tuzilayotgani aniq ko'rinardi. Uning vajohati zo'r, gerdaygan ko'rinardi.

Juda soz, xristianchasiga bo'lmasa ham, har holda, o'z dushmanlarimni yaxshi ko'raman. Ular menga ermak bo'lishadi, qonimni qaynatishadi. Hamisha ko'z-quloq bo'lib turish, har bir qarash, har bir so'zning mag'zini chaqish, dushmanning niyatlarini bilib olish, fitnalarini puchga chiqarish, o'zingni aldanganlikka solib, turli nayranglar va orzu-niyatlardan qurilgan ulkan binoni birdan qulatib yuborish – hayotning zavqi deb men mana shuni atayman.

Kechki yemak o'z nihoyasiga yetguncha Grushnitskiy kapitan bilan shivirlashib, ko'z qisishib o'tirdi.

6-iyun

Bugun ertalab Vera eri bilan Kislovodskka jo'nab ketdi. Knyaginya Ligoyskayanikiga bora turib, ularning aravalarini ko'rdim. Vera menga boshini silkitib qo'ydi, ko'zlarida o'pkalanish aks etardi.

Ayb kimda? Nega o'zi men bilan tanho uchrashishni istamaydi? Sevgi ham bamisoli olov, unga tarasha qalab turilmasa o'chib qoladi. Balki yalinib-yolvorishlarim bajara olmagan ishni endi rashk bajarar.

Knyaginyanikida bir soatcha o'tirdim. Meri chiqmadi, betob emish. Kechqurun shohko'chaga ham chiqmadi. Ko'zoynak tutgan yangi guruh haqiqatan ham dahshatli qiyofaga kirdi. Knyajnaning betobligidan xursandman, betob bo'lmaganida, unga biror beodoblik qilgan bo'lishardi. Grushnitskiyning sochlari paxmaygan, juda xit ko'rinardi, chinakam xafa bo'lganga o'xshaydi, ayniqsa, izzat-nafsi tahqir etilgan ko'rinadi, ammo shunday odamlar ham bo'ladiki, ular, hatto jig'i-biyrnlari chiqib turganida ham kulgili ko'rinadilar!

Uyga qaytgach, xuddi bir narsam kamdek tuyuldi.

Men uni ko'rmadim! U kasal! Rostdan ham uni yaxshi ko'rib qoldimmikin? Bo'lmagan gap!

Ertalab soat o'n birda, knyaginya Ligovskayaning, odatda, Ermolov vannasida terlab yotadigan vaqtida, ularning uylari yonidan o'tdim. Knyajna derazaning oldida xayol surib o'tirgandi, meni ko'rib o'rnidan irg'ib turdi.

Dahlizga kirdim, xizmatkorlardan hech kim yo'q, bu yerdagi odatlarning erkinligidan foydalanib, xabar qilmasdan to'g'ri mehmonxonaga kirib bordim.

Knyajnaning yoqimli chehrasi rangsiz va so'lg'in edi. U fortepyano oldida, bir qo'li oromkursining suyanchig'iga suyanib turardi, suyangan qo'li titrardi, men asta uning oldiga bordim-da:

– Mendan xafamisiz? – dedim.

Knyajna chuqur va horg'in ko'zlari bilan menga tikildi-da, bosh chayqadi, lablari bir narsa demoqchi edi, ammo aytmadi, ko'zlari yoshga to'ldi, oromkursiga o'tirdi-da, qo'llari bilan yuzini yashirdi.

– Nima bo'ldi sizga? – dedim qo'lidan ushlab.

– Siz meni hurmat qilmaysiz. O, meni tinch qo'ying!..

Men bir necha qadam yurdim. U o'tirgan yerida qaddini rostladi, ko'zlari chaqnab ketdi.

Men eshikning qabzasini ushlab to'xtadim-da:

– Meni kechiring, knyajna! – dedim. – Telbalardek ish tutdim. Bu boshqa takrorlanmaydi, bunday qilmaslik chorasini ko'raman. Shu paytgacha mening qalbimda nimalar bo'lganini bilib nima qilasiz? Buni hech qachon bilolmaysiz, bilmaganingiz yaxshi. Xayr.

Chiqib keta turib, uning yig'isini eshitgandek bo'ldim.

Kechgacha Mashuq atrofida piyoda aylanib yurdim, rosa charchadim, uyga qaytdim-da, o'zimni to'shakka tappa tashladim.

Verner keldi.

– Knyajna Ligovskayaga uylanarmishsiz, shu rostmi? – deb so'radi mendan.

– Nima qildi?

– Butun shaharda duv-duv gap, men davolayotgan barcha kasallar ham shu mish-mish bilan mashg'ul, ulardan biror-bir gap qochib qutulolmaydi!

«Bu – Grushnitskiyning nayrang!» – deb o‘yladim.

– Janob, bu ovozalarning yolg‘onligini isbot etish uchun qulog‘ingizga sekin aytib qo‘yay, ertaga Kislovodskka jo‘nab ketaman...

– Knyajna hammi?

– Yo‘q, knyajna yana bir hafta shu yerda bo‘ladi.

– Demak, uylanmasligingiz rost?

– Doktor, doktor! Menga qarang, men sira uylanadigan odamga o‘xshaymanmi?

– Men o‘xshaysiz deyayotganim yo‘q. Ammo o‘zingiz bilasiz, shunday holatlar bo‘ladiki... – deb ilova qildi doktor mug‘ambirona kulib. – Shunday holatlar bo‘ladiki, oliyjanob odamning, albatta, uylanishi zarur sanaladi, undan keyin bunday ishlarning atayin oldini olmaydigan onalar ham yo‘q emas. Xullas, do‘stingiz sifatida, ehtiyot bo‘lishni tavsiya etmoqchiman. Bu yerning havosi ancha xavfli, o‘zi baxtiyor bo‘lishga loyiq-ku, ammo bu yerdan uylanib ketgan qanchadan qancha yoshlarni ko‘rganman. Ishonasizmi, hatto meni ham uylantirmoqchi bo‘lishgan! Ayniqsa, allaqaysi bir viloyatli ona rangi chiqmay yurgan qizini menga bermoqchi bo‘lib rosa qistadi. Baxtsizlikni qarangki, men unga qizingizning rangi turmushga chiqqanidan keyin ochilib ketadi, deb qo‘yibmangga! Shu gapni aytdim-u, baloga qoldim, yig‘lay-yig‘lay minnatdorchilik bildirib, qizini va butun mol-mulkini menga in‘om qilib o‘tiribdi. Mulkida elliktacha odam bo‘lsa kerak. Ammo men bu ish qo‘limdan kelmaydi deb, zo‘rg‘a qutuldim.

Verner meni bir balodan qutqardim, deb ishongan ko‘yi xonani tark etdi.

Uning gaplaridan men, o‘zim va knyajna haqida shaharda turli bemaza mish-mishlar tarqalganini angladim, bu Grushnitskiyga arzonga tushmaydi!

10-iyun

Kislovodskka kelganimga uch kun bo‘ldi. Verani har kuni quduq boshida yo sayrgohda ko‘raman. Ertalab turamangga, derazaning oldida o‘tirib, ko‘zoynak orqali uning balkoniga

qarayman. U allaqachon kiyinib, ishoramni kutib turgan bo'ladi, biz uyimizdan to quduqqacha cho'zilgan bog'da to'satdan uchrashib qolgandek bo'lamiz. Hayotbaxsh tog' havosi unga yana kuch bag'ishlab, rang-ro'yini qaytardi. Narzanni bahodir buloq deb atashlari ham bejiz emas. Bu yerning kishilari Kislovodsk havosi ishq-muhabbatga chorlaydi, Mashuq etagida boshlangan barcha romanlar, shu yerga kelib anjomiga yetadi, deyishadi. Darhaqiqat, bu yerda tanho yurishga qulay joylar ko'p edi, bu yerning hamma narsasi – arg'uvon xiyobonlarning tangadek oftob tushmaydigan soyalari ham, ularning ostidan toshdan toshga sakrab sharillab oquvchi va yam-yashil tog'lar orasidan o'ziga yo'l solib ketuvchi soy ham, osuda va qorong'i daralar ham, ularning har tomonga tizilib ketgan tarmoqlari ham, baland janub ko'katlari hamda oq akasiyalarning hidi bilan to'lgan xushbo'y shabadalar ham, vodiyning oxiriga yetib oldinma-ketin chopib boruvchi va Podkumokka quyuluvchi muzdek soylarning hamisha lazzatli allalab turishi ham – barchasi odamga allaqanday sirli tuyuladi. Bu tomonga kelib dara ancha kengayadi hamda yashil jarga aylanadi. Jarlikning ostidan qing'ir-qiyshiq changli yo'l o'tadi. Har safar bu yo'lga qaraganimda, nazarimda, foytun kelayotgandek va uning derazasidan qizil guldek chehra qarab turgandek tuyuladi. Bu yerdan ko'plab foytunlar o'tdi-yu, biroq undan hamon darak yo'q edi. Qal'a ortidagi qishloq ijarachilar bilan liq to'ldi, uyimdan sal naridagi tepalikka qurilgan qovoqxonaning chiroqlari kechalari ikki qator teraklar orasidan miltillab turadi. U yerdan yarim kechagacha odamlarning g'ovur-g'uvuri, bordoqlarning jaranglashi eshitilib turadi.

Kaxetin musallasi bilan mineral suv hech qayerda bu qadar ko'p ichilmasa kerak.

*Bu ikki kasbni qo'shishga ko'pdir talabgor,
Men-chi, ular jumlasidan emasman zinhor'.*

Grushnitskiy har kuni o'z guruhi bilan birga qovoqxonadan chiqmaydi, o'rtamizda salom-alik yo'q.

¹ A.S.Griboyedovning «Aql balosi» komediyasidan.

Bu yerga kechagina kelgan bo'lsa-da, halitdan uch kekxa odam bilan urishibdi, ular vannaga undan avval tushmoqchi bo'lishgan ekan. Aftidan, boshiga tushgan falokat uning jasoratini oshirganga o'xshaydi.

11-iyun

Nihoyat, ular kelishdi. Men derazaning oldida o'tirgan edim, birdan foytunlarning taqir-tuquri quloqqa chalindi, yuragim gupillab ura boshladi. Bu qanday bo'ldi? Nahotki oshiqqa aylangan bo'lsam? Men shunday tentak odammanki, shunday bo'lishi ham ajab emas.

Tushlikni ularnikida tanovul qildim. Knyagina menga juda mehribonlik bilan qaradi, qizining yonidan aslo nari siljimaydi... ish chatoq! Buning ustiga Vera knyajndan rashk qiladi, orttirgan halovatim shu bo'ldi. Ayol kishi o'z raqibasini xafa qilaman desa, qo'lidan har narsa keladi! Esimda bor, bir ayol meni boshqa bir ayolni yaxshi ko'rganim uchun sevardi. Ayollarning aqlidan ko'ra g'alatiroq narsa bo'lmasa kerak, ularni biron narsaga sira ishontirib bo'lmaydi, shunday qilish kerakki, o'zlari o'zlarini ishontirishsin, o'zlarining avvalgi fikrlarini rad etish uchun ishlatadigan isbot va dalillari nihoyatda qiziq bo'ladi. Ularning dialektikasini o'rganish uchun maktabda o'tilgan barcha mantiq qoidalarini miyadan chiqarib tashlash kerak. Masalan, eng oddiy usul:

Bu odam meni sevadi, ammo mening erim bor, binobarin, men uni sevmasligim kerak.

Ayollar qoidasi:

Men uni sevmasligim kerak, chunki erim bor, ammo u meni sevadi, binobarin...

Buning ketidan bir nechta nuqta keladi, chunki bu yog'i aqlidan chiqmaydi, bu yog'ini til, ko'z va ulardan keyin, agar bo'lsa, qalb gapiradi.

Bir kunmas, bir kun mana shu xotiralarim ayollarning qo'lga tushib qolsa, nima bo'ladi? Ular nafrat bilan, «Bu tuhmat!» deb ayyuhannos solishadi.

Shoirlar dunyoga kelib she'r yoza boshlagan va she'r-larni ayollar o'qiganidan buyon (buning uchun ularga katta rahmat), shoirlar ularni ming marotaba farishta deb atashdiki, ular soddadil bo'lganliklari bois, bu xushomadga ishonishadi, ammo shu bilan bir qatorda, o'sha shoirlarning pul uchun Neronni yarim xudo darajasiga ko'targanliklarini unutishadi...

Menga dunyoda ulardan boshqa hech bir narsani sevmagan, o'zining huzur-halovati, izzat-nafsi, hayotini ularga fido qilishga tayyor bo'lgan mendek odamga, ular haqida bunchalik achchiq gapirish yaramasa kerak. Ammo men ularning yuzidan, faqat o'rgangan ko'zgina ko'ra oladigan sehrli pardani olib tashlar ekanman, buni men alam qilganidan yo bo'lmasa izzat-nafsim tahqirlangani sabab qilayotganim yo'q. Ular haqida hamma gaplarim:

*Aqlning sovuq kuzatishlari
Va dilda qayg'uning izlari'*

oqibati, xolos.

Ayollar shunga erishmoqlari kerakki, barcha erkaklar ham ularni menchalik sevadigan bo'lsin, chunki ulardan qo'rqmaydigan bo'lganim, ularning hamma zaif tomonlarini bilganimdan so'ng, xotinlarni ming marta ortiqroq sevadigan bo'ldim.

Darvoqe, yaqinda Verner ayollarni Tass²ning «Ozod etilgan Quddus» degan kitobida tasvir etilgan tilsimli o'rmonga o'xshatdi. «O'rmonga oyoq qo'ydingmi, bas, — degan edi u. — Har tomoningdan burch, kibr, odob, umumfikri, masxaralash, nafrat singari qo'rqinchli narsalar bostirib kelaveradi. Faqat ularga qaramasdan, to'g'riga qarab yuraverish lozim, shunday qilsang, dahshatli narsalar asta-sekin o'z-o'zidan yo'qolib ketadi-da, qarshingda sokin va yorqin bir maydon ochiladi. Maydonning o'rtasida hamisha yam-yashil o'sadigan mirt daraxti gullab turgan bo'ladi. Ammo birinchi qadam bosishingdayoq, yuraging bardosh berolmay, ortingga qayrilib qaradingmi, tamom bo'lasan!»

¹ A.S.Pushkinning «Yevgeniy Onegin»idan.

² Tass — Torkvato Tasso (1544–1595) — italyan shoiri.

Bugun oqshomda ko'plab voqealar bo'lib o'tdi. Kislovodsk-dan uch chaqirimcha narida, Podkumok oqib o'tadigan daraning ichida Halqa degan bir qoya bor. Bu qoya tabiat tomonidan barpo etilgan bir darvoza. Darvoza juda balandga ko'tariladi, botib borguvchi quyosh ana shu teshik qoya orasidan olamda o'zining eng so'nggi va otashin nazarini tashlab o'tadi. Bir talay otliqlar bilan birga tosh rom orqali quyoshning botishini tomosha qilgani jo'nadik. Rostini aytganda, hech kim quyoshni tomosha qilishni o'ylamasdi. Men knyajnaning yonida borardim, uyga qaytishda Podkumok daryosini kechib o'tishga to'g'ri keldi. Tog'dan oqib tushuvchi kichik-kichik sayoz soylar shuning uchun xavfli bo'ladiki, to'lqinlarning ta'siri ostida ularning tagi doimo o'zgarib turadi, kecha tosh yotgan joyda bugun birdan chuqur paydo bo'ladi. Men knyajnaning otini jilovidan ushladim-da, suvga yetaklab tushdim, suv otning tizzasidan kelardi; biz suv oqimiga qarshi asta-sekin qiyalab o'ta boshladik. Ma'lumki, tezoqar soylardan o'tganda sira suvga qaramaslik kerak, chunki darrov boshing aylanadi. Bu haqda knyajna Merini ogohlantirib qo'yishni unutgan ekanman.

Soyning o'rtasiga, eng tez oqadigan yeriga yetganimizda knyajna birdan egarda chayqalib ketdi. «Mazam qochdi!» – dedi ojiz bir tovush bilan. Men darrov engashdim-da, uning xipcha belidan quchoqlab oldim.

– Yuqoriga qarang! – deb shivirladim qulog'iga. – Hech nima qilmaydi, qo'rqmang, yoningizda men borman.

U ancha o'ziga keldi, quchog'imdan chiqmoqchi bo'lgandi, biroq men uning yumshoq va nozik belidan yanada mahkamroq siqib oldim, yuzim yuziga deyarli tegib turardi, yuzi lovullab yonardi.

– Bu nima qilganingiz? Yo Xudo!..

Men uning titrashiga, uyalishiga qaramay, lablarimni yuziga bosdim, u bir seskanib tushdi-yu, biroq indamadi. Biz hammadan orqada borar edik, hech kim ko'rmadi. Qirg'oqqa chiqqach, hamma otlarini choptirib ketdi. Knyajna otini

sekin yo'rttirib borar, men ham uning yonida edim. Mening indamay borishim uni xavotirga solib qo'yganligi ravshan edi, ammo men nima bo'larkan deb atayin sukut saqlashga qaror qildim. Uning bu mushkul ahvoldan qanday chiqishini ko'rmoqchi edim.

– Siz mendan yo hazar qilasiz yoki juda ham sevasiz, – dedi nihoyat knyajna yig'lamsirab. – Balki meni mazax qilib, yuragimni hayajonga solib, keyin tashlab ketish niyatidadirsiz... Bunday qilish shunday pastkashlik, shunday qabihlik bo'lardiki, bu haqida o'ylashning o'zi... O, yo'q! Rostini ayting, – deb ilova qildi u nozik ishonch bilan. – Rostini ayting, menga hurmat nazari bilan qarashingizga xalal beruvchi biron narsam yo'g'-a, to'g'rimi? Sizning boyagi odobsiz qilig'ingizni... kechirishim kerak, chunki unga o'zim yo'l qo'ydim... Javob bering, gapiring, ovozingizni eshitay... – Uning so'nggi so'zlarida ayollarga xos bo'lgan shunday betoqatlik sezilardiki, hatto beixtiyor kulib qo'ydim, baxtinga ancha qorong'i tushib qolgandi... Men indamadim.

– Nega indamaysiz? – deb so'zida davom etdi u. – Balki avval mening sevgi izhor qilishimni istarsiz?

Men indamay ketaverdim...

– Shuni istaysizmi? – deb davom etdi u mening yuzimga yalt etib qarab... uning qat'iy qarashi va ovozida qandaydir dahshat sezilardi...

– Nima uchun! – dedim men kift qoqib.

Knyajna otiga qamchi berdi-da, torgina va xatarli yo'ldan choptirib ketdi. Bu hodisa shu qadar tez yuz berdiki, men zo'r-g'a ortidan yetib oldim, shunda ham boshqalarga qo'shilgandan keyin, u uyga borguncha tinmay gapirib, kulib ketdi. Uning harakatlarida qandaydir asabiylik sezilardi, menga bir marta ham qayrilib qaramadi. Bu g'ayritabiiy kayfichog'likni hamma sezdi. Knyaginya ham qiziga qarab, ichidan sevinar edi. Qizining esa asablari buzilgandi, tuni bilan uxlamay yig'lab chiqishi aniq. Shularni o'ylar ekanman, benihoya sevinaman, ba'zan shunday damlar bo'ladiki, Vampirga¹ qo'shilaman...

¹ *Vampir* – 1819-yilda ingliz tilida shu nom bilan chiqqan qissaning yovuz qahramoni; qissaning muallifi noma'lum.

Yana men, «mehribon yigit» degan nom chiqarishni, shu nomga erishishni istayman!

Otdan tushgach, xonimlar knyaginyaning uyiga kirishdi. Butun vujudimni hayajon bosgan, miyamni qamrab olgan fikr-xayollarni tarqatay, deb otimni toqqa qarab choptirib ketdim. Shabnamli kecha, kishining nash'asini nihoyatda ochuvchi shabada esardi. Qorayib turgan tog' cho'qqilari ortidan oy ko'tarilib kelmoqda edi. Taqa urilmagan otimning har qadami jimjit daralar sukunatida bo'g'iq eshitilardi, shalola yonida otimni sug'ordim, janub tunining shabadali havosidan bir-ikki marta to'yib-to'yib yutdim-da, ortimga qaytdim. Qaytishda qishloqdan o'tib keldim. Derazalardan ko'rinib turgan chiroqlar birin-ketin so'na boshlagan edi, tuproqko'rg'ondagi qo'riqchilar va tevarak-atrofdagi soqchilikda turgan kazaklar ovozlari cho'zib-cho'zib bir-birlariga tovush berishardi.

Qishloqning jar yoqasiga qurilgan uylaridan birining derazalari juda ravshan edi; har zamonda u yerda poymapoy gaplar va harbiylar qurgan bazmdan darak beruvchi qiyqiriqlar eshitilardi. Otdan tushdim-da, asta derazaning tagiga borib turdim, zichlab yopilmagan darcha tirqishi bazm qurganlarni ko'rishga va ularning gaplarini eshitishga imkon berardi. So'z men haqimda borar edi.

Musallasdan qizishib ketgan kapitan mushti bilan stolni bir urdi-da, barchaning jim bo'lishini talab qildi.

– Janoblar! – dedi u. – Bunga ortiq chidab bo'lmaydi. Pechorinning bir adabini berib qo'yish kerak! Bu Peterburgdan kelgan uchirma qushlar to tumshug'iga bir tushirmaguncha kerilishini tashlamaydi! Hamisha ozoda qo'lqop, tozalangan etik kiydim, shuning uchun oliy jamiyatni mendan o'zga odam ko'rgani yo'q, deb o'ylasa kerak!

– Uning takabbur kulishlarini aytmaysizmi! Shunday bo'lsa-da, uning qo'rqqoligiga aminman – u qo'rqqol!

– Men ham shunday deb o'ylayman, – dedi Grushnitskiy. – Nuqul hazil bilan qutulib ketmoqchi bo'ladi. Bir marta unga shunaqangi gaplarni aytdimki, uning o'rnida boshqa odam

bo'lganida, o'sha yerning o'zida meni chavaqlab tashlardi. Pechorin bo'lsa, hamma gapni hazilga burib yubordi. Albatta, men uni duelga chaqirib o'tirmadim, chunki bu uning ishi edi. Undan keyin, qo'limni bulg'ashni ham ep ko'rmadim...

– Pechorin knyajnani o'ziga og'dirib olgani uchun Grushnitskiy unga qarshi kek saqlab yuribdi, – dedi allakim.

– Bo'lmagan gap! To'g'ri, knyajnaning ortidan biroz yurdim, ammo darhol bas qildim, chunki menda uylanish niyati yo'q edi, qizning ismini bulg'ash, menga xos emas.

– Ishontirib aytamanki, u o'taketgan qo'rqoq, ya'ni Grushnitskiy emas, Pechorin. – Grushnitskiy azamat yigit, buning ustiga, mening eng qadrdon do'stim! – dedi kapitan yana gapga aralashib. – Janoblar! Oramizda uni himoya qiluvchilar bormi? Bo'lmasa yana ham yaxshi! Uning botirligini sinab ko'rishni istaysizlarmi? Bu sizlarga rosa ermak bo'lardi-da...

– Istaymiz, ammo qanday qilib?

– Quloq solinglar, hammadan ham ko'ra Grushnitskiy undan xafa, birinchi rol shuniki. Grushnitskiy biron arzimagan narsani bahona qilib, Pechorinni duelga chaqiradi. Shoshmay turinglar, butun gap mana shunda... Xo'sh, duelga chaqiradi. Butun bu ishlar – duelga chaqirish, unga hozirlik ko'rish, duel shartlari, barcha-barchasi imkon qadar tantanavor va dahshatli bo'lishi kerak, buni men o'z zimmamga olaman. Men sekundanting bo'laman, bechora do'stim! Yaxshi! Ammo buning nayrangi shundaki, to'pponchaga o'q solmaymiz. Aminmanki, Pechorin qo'rqadi, axir men olti qadam masofaga turg'azib qo'yaman-da, xo'pmi, janoblar?

– Juda soz! Bo'pti! Nega bo'lmas ekan! – degan tovushlar eshitildi tevarak-atrofdan.

– Sen-chi, Grushnitskiy?

Men Grushnitskiyning javobini hayajon bilan kutardim. Agar buni tasodifan eshitib qolmaganimda, bu ahmoqlarga toza kulgi bo'lar ekanman, degan fikrdan g'azabim qaynab ketdi. Agar Grushnitskiy rozilik bildirmaganida, o'zimni darhol uning quchog'iga tashlagan bo'lardim. Ammo biroz

indamay turgach, o'rnidan turdi-da, kapitanga qo'lini uzatib, kekkayib turib: «Bo'pti, men roziman», – dedi.

Ulfatlarning naqadar shod-xurram bo'lishganini tasvirlashga ojizman.

Vujudim ikki xil his bilan to'lib-toshgan holda uyimga qaytdim. Birinchi hissiyot – qayg'u hissi edi. Nima uchun ular meni buncha yomon ko'rishadi, deb o'ylardim. Nima uchun? Yo birontasini xafa qildimmi? Yo'q. Nahotki men, afti basharalarining o'ziyoq sovuqlik tug'diradigan odamlar qatoriga kirsam? Butun vujudimni g'azab o'ti qamrab borayotganini payqadim. Ehtiyot bo'ling, janob Grushnitskiy, derdim men uyning ichini kezib, men bilan bunday hazillasha ko'rmang. Tentak do'stlaringizning maslahati sizga qimmatga tushishi mumkin. Men sizga o'yinchoq emasman!

Shu kecha mijja qoqmay chiqdim. Ertalab yuzim za'farondek sarg'ayib ketgan edi.

Ertalab quduq boshida knyajnani uchratdim.

– Tobingiz yo'qmi? – deb so'radi, menga tikilib.

– Tuni bilan uxlo olmay chiqdim.

– Men ham... Sizni aybdor sanadim... balki yanglish-gandirman. Gapiring, balki barcha qilmishingizni kechirar-man...

– Hammasini kechirib bo'larmikan?

– Hammasini... zinhor, rostini ayting... faqat tezroq bo'ling... bo'ling... qilig'ingizni tushunay, kechiray deb ko'p o'yladim, balki ota-onamning to'sqinlik qilishlaridan qo'r-qarsiz... qo'rqmang... ular bilgandan keyin...(knyajnaning ovozi titrab ketdi) ularning roziligini o'zim olaman. Yo sizning vaziyatingiz... ammo shuni bilingki, men sevgan odamim uchun barchasidan kechishga tayyorman... O, tezroq javob bering, rahm qiling... Siz mendan hazar qilmaysiz-a, to'g'rimi?

Knyajna qo'limdan ushlab oldi.

Knyaginya Veraning eri bilan birga bizning oldimizda borar, shuning uchun ular hech narsani ko'rishmasdi, ammo atrofda sayr qilib yuruvchi xastalar ko'rib qolishi mumkin edi,

g'iybatchilarning g'iybatchisi o'shalar bo'ladi. Shuning uchun men knyajnaning qattiq hayajon ichida siqib turgan qo'lidan qo'limni tortib oldim.

– Men sizga bor haqiqatni aytaman, – deb javob berdim knyajnaga. – Men o'zimni oqlab ham o'tirmayman, qilmishlarimning sababini ham aytib o'tirmayman, rosti, men sizni sevmayman.

Uning lablari bilinar-bilinmas oqish tusga kirdi...

– Boring, – dedi eshitilar-eshitilmas.

Men kiftimni qisdim-da, qayrilib ketdim.

14-iyun

Men ba'zan o'zimdan ham nafratlanaman... boshqalardan nafratlanishimning sababi shu emasmikin? Oliyjanob va yuksak hislarga layoqatim qolmadi, o'zimga o'zim kulgi bo'lishdan qo'rqaman. O'rnimda boshqa odam bo'lganida, knyajnaga *son coeur et sa fortune*¹ taklif etgan bo'lardim, ammo uylanish degan so'z meni qandaydir sehrli kuch bilan qattiq ushlab turadi, ayol kishini qanchalik zo'r ehtiros bilan sevmayin, biroq u uylanishim kerakligiga shama qildimi, tamom, ishq-muhabbatimdan nom-nishon ham qolmaydi! Yuragim toshga aylanadi va uni hech narsa yumshatolmaydi. Men har qanaqa fidokorlikka tayyorman, ammo uylanishdan xudo asrasin! Hayotimni, hatto nomusimni yigirma marta desa ham garovga qo'yishim mumkin... biroq erkimni sotmayman. Nima uchun men o'z erkimni shuncha aziz tutaman? Menga undan nima foyda bor? Istiqbolim nadir? Kelajakdan nimalarni kutaman? Hech narsa kutmayman. Bu hech tushunib bo'lmaydigan bir his tug'ilganidan buyon yuragimga tushib qolgan qo'rquv hissi bo'lsa kerak. Sababsiz o'rgimchaklardan, suvaragu sichqonlardan qo'rqadigan odamlar ham bor-ku, axir... Rostini aytaymi? Bolaligimda onam bir kampirga meni fol ochirgan. Kampir meni yomon xotin qo'lida o'ladi, degan ekan. O'sha paytda bu gap menga nihoyatda og'ir ta'sir etgandi, o'sha

¹ «*son coeur...*» (frans.) – «O'z qalbi, baxti va taqdiri...»

damdayoq dilimda uylanish degan narsaga qarshi allaqanday nafrat paydo bo'lgandi. Ammo, shu bilan birga, nimadir kampirning gapi bir kunmas, bir kun to'g'ri chiqajagini aytib turadi, har holda, buning imkon qadar kechroq yuz berishi uchun harakat qilaman.

15-iyun

Kecha bu yerga Apfelbaum degan ko'zboylog'ich keldi. Qovoqxonaning eshigida uzun afisha paydo bo'ldi, unda mazkur ajoyib ko'zboylog'ich, akrobat, kimyogar va optikning bugun kechqurun soat sakkizda, oliy nasablar klubida (boshqacha qilib aytganda, qovoqxonada) ajabtovur tomosha ko'rsatajagi haqida muhtaram tomoshabinlarga xabar qilinardi, chiptaning narxi ikki yarim so'm.

Ajoyib tomoshaga hamma bormoqchi, hatto knyaginiya Ligovskaya ham qizining betobligiga qaramasdan, o'ziga chipta oldiribdi.

Bugun tushdan keyin Veraning derazasi yonidan o'tdim, balkonda yolg'iz o'zi o'tirgan ekan, oyog'im tagiga kichkina bir maktub tushdi:

«Bugun kechqurun soat to'qqizdan keyin katta zinadan chiq, erim Pyatigorskka ketdi, ertaga qaytadi. Xizmatkor va xodimlarim uyda bo'lishmaydi, ularga va knyaginyaning odamlariga chipta ulashdim. Seni kutaman, albatta, kel».

«Aytmadimmi! – deb o'yladim men. – Axir, aytganim bo'ldi».

Soat sakkizda ko'zboylog'ichning o'yinini ko'rgani bordim. Soat to'qqizda odamlar to'planib bo'ldi. Tomosha boshlandi. Vera bilan knyaginyaning malay va oqsochlarini ko'rdim, ular eng orqa qatordagi kursilarda o'tirishgan ekan. Tanishlarimning barchasi shu yerda edi. Grushnitskiy birinchi qatorda qo'lida buklama ko'zoynagini tutib o'tirardi. Ko'zboylog'ichga dastro'mol, soat, uzuk va shu kabi narsalar kerak bo'lganida, har safar unga murojaat qilardi.

Anchadan buyon Grushnitskiy men bilan salomlashmaydi, bugun bo'lsa bir-ikki marta o'qrayib ham qo'ydi. Hisob-kitob qilish vaqti kelganida ularning hammasini esiga solaman.

Soat o'nlarda o'rnimdan turib, chiqib ketdim.

Tashqari qorong'i, ko'z oldingdagi narsani ko'rib bo'lmasdi. Atrofdagi tog' cho'qqilarini quyuq va sovuq bulutlar qoplagan, tinib boruvchi shamol qovoqxona tevarigidagi teraklarning uchini ahyon-ahyonda shitirlatar edi, qovoqxona derazalari oldida odam tirband. Tog'dan pastga tushdim-da, darvoza tomonga burilib, ildam yurib ketdim. Birdan nazarimda, ortimdan birov kelayotganga o'xshadi. To'xtab yon-atrofga qaradim. Qorong'ida hech narsani ko'rolmadim, ammo shunday bo'lsa-da, ehtiyotdan sayr qilib yurgan odamdek uy atrofini bir marta aylanib chiqdim. Knyajna derazalari yonidan o'ta turib, yana ortimdan oyoq tovushlarini eshitdim, yonimdan shinelga o'ralgan bir odam yugurib o'tdi. Xavotirlandim, shunday bo'lsa-da, asta eshikning oldiga keldim-da, qorong'i zinadan yugurib chiqdim. Eshik ochildi-yu, kichkina qo'lcha bilagimdan ushladi.

– Hech kim ko'rmadimi? – shivirlab so'radi Vera menga yopishib.

– Hech kim!

– Seni yaxshi ko'rishimga endi ishonasanmi? O, men ko'p ikkilandim, ko'p qiynaldim, ammo sen meni istagan ko'yingga solyapsan.

Uning yuragi gupillab urar, qo'llari muz kabi sovuq edi. Rashklar, o'pkalanishlar, nolishlar boshlandi. U mendan hamma gapni ochiqchasiga aytishimni talab qildi, xiyonat qilgan bo'lsam sabr etishini bildirdi, chunki faqat sening baxtli bo'lishingni istayman, dedi. Men bunga u qadar ishonmadim-u, ammo ont ichib, va'dalar berib, oxiri tinchlantirdim.

– Demak, Meriga uylanmaysan, shundaymi? Uni sevmaysanmi? U o'ylab yuribdiki... bilasanmi, u seni qattiq sevib qolgan, sho'rlik!

* * *

Kechasi soat ikkilarga yaqin derazani ochib, ikkita sholro'molni bir-biriga bog'lab, ustunga osila-osila yuqori balkondan quyisiga tushdim. Knyajnaning uyida chiroq yonib

turardi. Nima ham bo'ldi-yu, derazasidan ichkariga qaradim. Derazaga tutilgan parda chala tortilgan ekan, bo'lmaning ichini bemalol ko'rish mumkin edi. Meri karavotida tizzalarini quchib o'tirardi, qalin sochlarini to'r solib tikilgan tungi bosh kiyim bilan tang'ib olgan, oppoqqina yelkalarini kattakon qizil ro'mol berkitgan, kichkinagina bejirim oyoqlariga eron kavushini kiyib olgandi. Boshini ko'ksiga qo'yib, qimir etmay o'tirardi, uning oldidagi stolchada bir kitob ochiq turardi, biroq xayoli allaqayerlarda, qimirlamay va qandaydir bilib bo'lmaydigan g'am-hasratga to'lgan ko'zlari bir sahifani yuzinchi marta o'qib chiqayotgandek tuyulardi.

Shu payt chakalakning orasida bir narsa shitirladi. Balkondan chimning ustiga sakradim. G'oyibdan kelgan bir qo'l yelkamdan mahkam ushlab oldi. «Ha-ha! – dedi qo'pol bir tovush. – Qo'lga tushdingmi! Tunda knyajnalarnikiga qanday kelishni bir ko'rsatib qo'yay senga!..»

– Mahkam ushla! – deb baqirdi burchakdan yugurib chiqqan ikkinchi bir kishi.

Ular – Grushnitskiy va otliq piyoda kapitani edi.

Kapitanning boshiga bir musht solgandim, yerga ag'darilib tushdi, o'zimni butalar orasiga urdim. Uyimiz oldidagi butun nishablikni qoplagan bog'ning barcha so'qmoq yo'llari menga ma'lum edi.

– O'g'rini ushla, ushla! Tut o'g'rini!.. – deb baqirishdi ular ortimdan. Miltiq ham otildi, uning piltasi shundoqqina oyog'imning ostiga kelib tushdi.

Bir daqiqadan keyin uyimga yetib oldim-da, yechinib yotdim. Xizmatkorim eshikni berkitar-berkitmas, birdan Grushnitskiy bilan kapitan eshik qoqa boshlashdi.

– Pechorin! Uxladingizmi? Bormisiz? – deb baqirdi kapitan.

– Uxlayapman! – deb javob berdim men jahl bilan.

– Turing! O'g'ri keldi... Cherkaslar...

– Tumov bo'lib yotibman, shamollab qolishdan qo'rqaman, – deb javob qildim men.

Ular ketishdi. Bekorga ovoz bergan ekanman, bo'lmasa meni yana bir soatcha bog'dan izlab yurgan bo'lishardi. Bu

orada hammayoqni vahima bosib ketdi. Qal'adan bir kazak ot choptirib keldi. Ko'pchilik hovliqib qoldi, cherkaslar qidirilmagan birorta ham buta qolmadi, ammo hech kim topilmadi. Biroq odamlar garnizon botirlik ko'rsatganida va epchilroq bo'lganida, yo'q deganda yigirmatacha vahshiyning o'ligi shu yerda qoldi, degan qat'iy fikrda qoldi.

16-iyun

Bugun ertalab quduqning boshida duv-duv gap, hammasi kecha tunda cherkaslarning bostirib kelgani haqida gapirardi. Belgilangan miqdorda narzan ichdim-da, uzundan-uzun arg'uvon xiyobonni o'n martacha aylanib, Veraning erini uchratdim, endi Pyatigorskdan kelgan ekan. U bilan salomlashib, qovoqxonaga nonushta qilgani ketdik, bechora xotini borasida rosa xavotirlanibdi. «Bugun kechasi qo'rqqanidan yuragi tars yorilay debdi, – derdi u. – Bu voqeaning men yo'g'imda bo'lishini qarang-a». Biz burchakdagi xonaga kiradigan eshik oldidagi stoldan joy oldik, ichkaridagi xonada o'ntacha yosh-yalang o'tirar, ularning orasida Grushnitskiy ham bor edi. Taqdir menga yana bir marta himmat qildi, Grushnitskiyning taqdirini hal qiluvchi suhbatni eshitib qoldim. U meni ko'rmasdi, binobarin, men uni qasddan gapiryapti deb gumon qilolmasdim, ammo bu narsa mening oldimda uning gunohini yanada og'irlashtirardi.

– Rostdan ham cherkaslar ekanmi, a? – dedi allakim. – Biror kishi o'z ko'zi bilan ko'ribdimi?

– Bor haqiqatni aytib beray, – deb javob berdi Grushnitskiy. – Ammo hech kimga meni aytdi demaysizlar. Voqea bunday bo'ldi: kecha bir kishi, ismini sizlarga aytmayman, mening uyimga kelib, soat to'qqizlardan oshganda Ligoyskayalarning uyiga birov kirgandek bo'ldi, deb aytib qoldi. Shuni ham aytib qo'yayki, knyaginyaning o'zi o'sha vaqtda shu yerda, knyajna esa uyida edi. Shunday qilib, biz haligi kelgan odam bilan birga baxtli odam kim ekan, qani ko'raylik-chi, deb derazaning tagiga borib turdik.

Suhbatdoshim yemak bilan band bo'lishiga qaramay, qo'rqib ketdim, agar Grushnitskiy rostdan ham bo'lib o'tgan

voqeaning tagiga yetgan bo'lsa, suhbatdoshim o'zi uchun birmuncha ko'ngilsiz bo'lgan gaplarni eshitib qolishi mumkin edi, ammo rashkdan ko'r bo'lgan Grushnitskiy bu haqda gumon ham qilmasdi.

– Shunday qilib, – deb davom etardi Grushnitskiy, – qo'limizga miltiq olib jo'nab qoldik, biz uni qo'rqitmoqchi bo'lib, miltiqni paxtavand o'q bilan o'qlagan edik. Soat ikkigacha bog'da poylab yotdik. Oxiri paydo bo'ldi, ammo qayerdan kelib qolganini payqamay qoldik, har holda, derazadan tushgani yo'q, chunki deraza ochilmadi, ustun ortidagi oynavand eshikdan chiqqan bo'lsa kerak, xullas, qarasak, kimdir balkondan tushib kelyapti... Knyajnaning shovvozligini qaranglar-a! Moskva oyimqizlari ham shunaqa bo'larkan-da, a? Shundan keyin, kimga ham ishonib bo'ladi? Biz uni ushlab olmoqchi bo'lgan edik, biroq qo'ldan chiqib, xuddi quyon singari butalar orasiga qochib kirib ketdi, shundan keyin miltiqdan o'q uzdim.

Grushnitskiyning atrofida o'tirganlar ishonqiramay, g'ovur-g'uvur qilishdi.

– Ishonmaysizlarmi? – deb davom etdi Grushnitskiy. – Vijdonim bilan ont ichaman, aytganlarim rost, buni isbotlash uchun, hatto u janobning ismini ham aytishim mumkin.

– Ayt, ayt, kim ekan? – degan ovozlari eshitildi har tomondan.

– Pechorin, – dedi Grushnitskiy.

Shu tobda Grushnitskiy boshini ko'tardi, men eshikning oldida, naq uning ro'parasida o'tirgan edim, u qizarib ketdi. Men uning yoniga bordim-da, sekin, ammo dona-dona qilib dedim:

– Eng qabih tuhminatingizni isbotlash uchun nomusingiz bilan ont ichib bo'lganingizdan keyin kirib qolganimga afsuslanaman. Men shu yerda bo'lganimda, siz yana bir qabih razillikdan qutulardingiz.

Grushnitskiy o'rnidan irg'ib turib ketdi.

– Iltimos qilaman, aytgan gapingizni darhol qaytarib oling, – deb davom etdim men hamon o'sha ohangda. –

Gapingizning uydirma ekanligini yaxshi bilasiz. Bir ayol bunday ajoyib xislatlaringizni nazar-pisand qilmay qo'yganligi sizning undan bu xilda qasd olishingizga asos bo'lolmasa kerak, deb o'ylayman. Yaxshilab o'ylab ko'ring, fikringizni tasdiqlashingiz hamon, oliyjanob odam degan nomingizni yo'qotgan bo'lasiz va hayotingizni tahlika ostiga qo'yasiz.

Grushnitskiy oldimda ko'zlarini yerga tikib, zo'r hayajon ichida turardi. Ammo vijdon bilan izzat-nafs o'rtasida borgan kurash uzoq davom etmadi. Yonida o'tirgan kapitan tirsagi bilan uni bir turtib qo'ydi. Grushnitskiy bir seskandi-da, boshini ko'tarmay, shoshib javob berdi:

– Muhtaram janob, men hamisha gapimni o'ylab gapiraman, yana takrorlashga tayyorman... Men sizning do'qingizdan qo'rqmayman va har narsaga tayyorman.

– Tayyor ekanligingizni bir marta isbot etdingiz, – dedim men sovuqqina va kapitanni qo'ltiqlab, tashqariga chiqdim.

– Xo'sh, xizmat? – deb so'radi kapitan.

– Siz Grushnitskiyning oshnasisiz, balki unga sekundant ham bo'larsiz?

Kapitan kekkayib ta'zim qildi.

– To'g'ri aytdingiz, – deb javob berdi u. – Unga sekundant bo'lishga majburman, nega desangiz, unga tekkan haqorat menga ham tegadi, kecha tunda u bilan birga edim, – deb ilova qildi u bukchaygan qaddini rostlab.

– E! Boshiga bir musht tushirganim siz edingizmi?

Kapitan qizarib-bo'zarib ketdi, shu paytgacha berkitib kelgan g'azabi qiyofasida aks etdi.

Men uning quturganini ko'rmaganga olib, nihoyatda ehtirom bilan ta'zim qildim-da:

– Men bugunoq o'z sekundantimni huzuringizga yuborish sharafiga muyassar bo'laman, – dedim.

Qovoqxonaning eshigi oldida Veraning erini uchratdim. U meni kutib turgan bo'lsa kerak.

Sevina-sevina qo'limdan ushlab oldi.

– Oliyjanob yigit ekansiz! – dedi ko'ziga yosh olib. – Hamma gapni eshitdim. Qanday ablah, ko'rnamak odam ekan!..

Shunday qilishganidan keyin ularni durust uylarga qanday kiritib bo'ladi! Xudoga ming shukurki, qizim yo'q! Ammo o'z hayotingizni tikkan qiz sizni, albatta, mukofotlaydi. Ishoning, vaqti-soati kelguncha bu gaplarni hech kimga aytmayman, — deb so'zida davom etardi u. — Men ham yosh bo'lganman, harbiy xizmatda bo'lganman, bunday ishlarga aralashmaslik kerakligini juda yaxshi bilaman. Xayr endi.

«Bechora! Qizim yo'q deb sevinib yuribdi...»

To'g'ri Veranikiga bordim, u uyda ekan, hamma gapni, Vera va knyajnaga nisbatan bo'lgan munosabatimni aytdim, tasodifan eshitganlarimni ham, bu janoblarning paxtavand o'q otib meni mayna qilmoqchi bo'lganlarni ham gapirib berdim. Ammo endi butun ish hazildan chinga aylangandi, mojaroning bunday tus olishini ular kutishmagan edi-da!

Doktor menga sekundant bo'lishga rozilik berdi, duel shartlari haqida men unga yo'l-yo'riqlar ko'rsatdim. U dushmanlarimni duelning maxfiy suratda o'tishiga ko'ndirishi kerak, chunki shaxsan o'limga doimo tayyor tursam-da, ammo mutlaqo bu dunyodagi istiqbolimga putur yetkazish niyatim yo'q edi.

Shundan so'ng uyimga qaytdim. Bir soatdan keyin doktor sayohatdan qaytdi.

— Sizga qarshi fitna uyushtirilgani rost ekan, — dedi u. — Grushnitskiynikiga borsam, kapitan bilan yana bir kishi o'tirgan ekan, ismi sharifi yodimdan ko'tarildi. Etigimni yechay deb dahlizda biroz turib qoldim. Ular orasida katta bahs borayotgan ekan. «Bunga o'lsam ham ko'nmayman! — derdi Grushnitskiy. — U meni hammaning oldida haqorat qildi, bunday bo'lmaganida, mayli edi...» «Sening nima ishing bor? — deb javob berdi kapitan. — Hamma narsani o'zim to'g'rilayman. Men beshta duelda sekundant bo'lganman, yo'lini bilaman, hammasini o'ylab qo'yganman. Faqat menga xalaqit bermasang, bas. Uni bir qo'rqitib qo'yish zarar qilmaydi. Zarurat bo'lmagandan keyin o'z joningni tahlikaga solishning nima keragi bor?..» Shu vaqtda men kirib keldim. Ular birdan jim bo'lishdi.

Muzokaramiz uzoqqa cho'zildi, oxiri shunday qarorga keldik: bu yerdan besh chaqirimcha narida xilvat bir dara bor, ular ertaga tong soat to'rtda o'sha yerga borib turishadi, ulardan yarim soat keyin biz jo'naydigan bo'ldik; olti qadam masofadan turib otishasizlar, buni Grushnitskiyning o'zi talab qildi. Otilgan odamni cherkaslar o'ldirib ketibdi, deyiladi. Endi menda bir shubha tug'ildi: ular, ya'ni uning sekundantlari, o'zlarining oldingi rejalaridan qaytishganga o'xshashadi, faqat Grushnitskiyning to'pponchasini o'qlamoqchi bo'lishsa kerak. Bu biroz qatlga o'xshaydi-yu, ammo urush vaqtida, ayniqsa, Osiyo urushida hiyla-nayranglarga yo'l qo'yiladi. Biroq, nazarimda, Grushnitskiy o'rtoqlariga nisbatan ancha vijdonliroq ko'rinadi. Siz nima deysiz? Ularning hiylasini payqaganimizni bildirishimiz kerakmi yoki yo'q?

– Zinhor, janob! Xotiringiz jam bo'lsin, men ularning tuzog'iga ilinadiganlardan emasman.

– Nima qilmoqchisiz?

– Bu mening sirim.

– Ehtiyot bo'ling, yana ilinib qolmang... Axir, masofa olti qadamni tashkil etadi!

– Doktor, men sizni ertaga tong soat to'rtda kutaman, otlar egarlangan turibdi. Endi, xayr.

Uyning ichidan berkitib, kechgacha hech qayerga chiqmay o'tirdim. Qarol knyagina chaqirayotganini aytgani kelgan edi, biroz tobi yo'q ekan, degin deb qaytarib yubordim.

* * *

Tungi soat ikki, uyqu yo'q... Holbuki, ertaga qo'l titramasligi uchun, albatta, picha uxlab olish kerak edi. Unday desa, olti qadam naridan otgan o'qning bekor ketishi anchayin mushkul. Ha, janob Grushnitskiy, hiyla-nayrang foyda bermaydi... biz rolimizni alishdik, endi men qonsiz yuzingizdan qo'rquv alomatlarini ajratajakman. Nega o'zingiz mash'um olti qadamni tayin etdingiz? Siz, peshanasini bekorga tutib beradi deb o'ylarsiz... yo'q, biz chek tashlaymiz!.. Ana shunda...

ana shunda... bordi-yu, uning baxti ustun kelsa-chi? Bordi-yu, mening yulduzim bu safar mendan yuz o'girsachi?.. Yuz o'girsachi ham ajab emas, shu paytgacha orzularimni ro'yobga chiqarib keldi.

Nima qilibdi, o'lsam o'lib ketarman! Dunyo uchun bu arzigulik judolik emas; yashash ham jonimga tegdi. Men bazmda zerikib, esnab o'tirgan va uyga ketib uxlay desa, hali foytuni yetib kelmagan odamga o'xshayman. Lekin, foytun tayyor, yaxshi qolinglar!

Butun o'tmishimni xayolimdan kechirar ekanman, beixtiyor ravishda o'zimdan: nima uchun yashadim, bu dunyoga qanday maqsadda keldim, deb so'rayman. Ammo, sirasini aytganda, shunday maqsad bo'lgan, menga ulkan vazifalar yuklatilgan, chunki qalbimda benihoya zo'r kuch mavjudligini sezaman. Ammo men u vazifani payqab ololmadim, bekorchi, arzimagan va puch ehtirolarga aldandim; bu ehtirolar qozonida qaynab, po'latdek qattiq hamda sovuq bo'lib chiqdim. Toblanib chiqdim-u, biroq hayotning eng yaxshi guli bo'lmish oliyjanob va yuksak intilish o'tini yo'qotdim. Shundan buyon necha martalab taqdir qo'lida bolta rolini o'ynab kelaman! Mahkum qurbonlar boshiga qatl quroli bo'lib tushaman, tushganimda ham, ko'pincha, g'azabsiz, ammo hamisha beshafqat qurol bo'lib tushaman. Mening muhabbatim hech kimni baxtli qilmadi, chunki sevgan kishilarim uchun hech narsamni qurbon etmadim, ularni faqat o'zim uchun, o'z rohatim uchun sevardim. Men faqat sevgan odamlarimning hislarini, ularning latofatini, shodlik va hasratlarini o'zimga singdirib, qalbimning g'alati ehtiyojlarini qondirar edim, ammo hech qachon to'ymasdim. O'lardek ochqab, madori qurib uxlab qolgan odam ham xuddi shunday bo'ladi, tushida xilma-xil noz-ne'matlarni, ko'pirib turgan musallaslarni ko'radi, xayolida ming xil shirin taomlarni ochko'zlik bilan yeydi, shundan keyin o'zini ancha yengil tortgandek his qiladi, ammo uyg'onishi bilan gul xayoli puchga chiqadi. Qorni battar ochib, umidsizligi yana oshadi!

Kim biladi, balki ertaga o'lib ketarman! Bugun yer yuzida kimligimni oxirigacha tushungan, bilgan biron kishi qolmaydi.

Ba'zilar meni yaxshi deydi, ba'zilar yomon. Ba'zilar yaxshi yigit edi desa, boshqalar ablah odam deydi. Ammo unisi ham, bunisi ham to'g'ri bo'lmaydi. Shunday ekan, yashashning nima hojati bor? Lekin qiziqish, havas ortida yashaysan, yangi narsa kutasan. Ham kulging, ham yig'laging keladi!

* * *

Bir yarim oydan buyon N. degan qal'ada turaman. Maksim Maksimich ovga ketdi. O'zim yolg'iz qoldim, derazaning oldida o'tiribman, tog'larning etagigacha qora bulutlar qamrab olgan. Tuman ortidan ko'ringan oftob xuddi sap-sariq dog' singari ko'rinadi. Kun sovuq, chiyillab esgan shamol deraza darpardalarini taraqlatadi. Rosa zerikdim! Oradan qiziq voqealar bo'lib o'tgani sabab, to'xtab qolgan jurnalimni davom ettiraman.

So'nggi sahifani o'qib chiqdim – qiziq! O'lishni o'ylabman, ammo mumkin emas, chunki men azob-uqubat kosasini hali ichib tugatganim yo'q, endi yana uzoq vaqt yashashimni sezaman.

Boshimdan o'tgan narsa xayolimda juda mustahkam o'rnashib qolgan. Zamon bitta chizig'ini ham, bitta bo'yog'ini ham o'chirmabdi!

Yodimda, ertaga duel bo'ladigan kuni kechasi mijja qoqmadim, uzoq o'tirib yozolmadim ham, qandaydir sirli bir xavotir vujudimni qamrab olgandi. Bir soatcha uyning ichida aylanib yurdim, so'ngra stolning yoniga o'tirdim-da, Valter Skottning «Shotlandiya puritanlari» asarini ochdim. Avval o'zimni zo'rlab o'qidim, keyin romanning ajoyib syujetiga qiziqib, hamma narsani unutibman.

Nihoyat, tong yorishdi. Asablarim joyiga tushdi. Tosh-oynaga qaradim, tuni bilan uxlamaganim uchun chehram ancha so'lg'in edi, atrofi ko'karib turgan bo'lsa-da, ammo ko'zlarimda g'urur va qat'iylik chaqnardi. O'zimdan mamnun bo'ldim.

Otlarni egarlab qo'yishni buyurdim-da, kiyinib, cho'milgani ketdim. Muzdek narzanga tushar ekanman, jismoniy

va ruhiy kuchim yana o'zimga qayta boshlaganini sezdim. Vannadan xuddi balga otlangan odamdek ancha yengil tortib, bardam bo'lib chiqdim. Ana shundan keyin ruhning tanaga aloqasi yo'q, deb ko'ring-chi!..

Qaytib kelsam, doktor kelib o'tirgan ekan. Egnida kulrang shim, boshida esa cherkascha telpak. Uning katta baroq telpagi ostida qolib ketgan pakana bo'yini ko'rib, bexosdan kulib yubordim, aftidan, uni hech kim jangga ketayotgan odam deb o'ylamasdi. Hozir esa, yuzi odatdagiga qaraganda yanada cho'ziqroq bo'lib ko'rinardi.

– Nega buncha xafa ko'rinasiz, doktor? – dedim men. – Yuzlab odamni u dunyoga kuzatganingizda bunchalik xafa bo'lmagandirsiz? Meni sariq kasaliga muhtalo bo'lgan odam deb faraz qiling, qo'ying, tuzalib ketishim ham mumkin, o'lishim ham: unisi ham, bunisi ham tabiiy bir holat. Meni kasali hali aniqlanmagan bir xasta odam deb bilavering. Shunday qilsangiz, rag'batangiz behad oshadi, hozir siz mening ustimda bir necha fiziologik tajriba o'tkazishingiz mumkin. Majburiy o'limni kutishning o'zi ham bir xastalik emasmi?

Bu fikr doktorni nihoyatda ajablantirdi, keyin kayfiyati ancha ko'tarildi.

Otga mindik. Verner jilovni ikki qo'llab ushlab oldi, yo'lga tushdik, birpasda qal'aning yonidan, qishloqchadan o'tdik-da, daraga qarab tushib ketdik, dara ichida o't bosib yotgan torgina yo'l bo'lib, uni har qadamda tog'dan oqib tushuvchi soy kesib o'tardi, bu soylarni otda kechib o'tishga to'g'ri kelardi, bu esa doktorni xunob qilardi, chunki har safar suvga tushganda oti soyni o'rtasiga borib to'xtab qolardi.

Umrimda bunaqangi moviy va salqin tongni ko'rgan emasman! Yam-yashil tog'lar orasidan endi ko'tarilib kelayotgan quyosh shu'lalarining tafti salqin tunning so'nib boruvchi shabadasi bilan qo'shilishi butun a'zoyi badanga orom bag'ishlardi. Yangi tug'ilgan kunning hayotbaxsh yog'dusi hali daraning ichiga tushganicha yo'q, u faqat ikki tomonimizdan osilib turgan qoyatepalarnigina zarga cho'miltirardi. Chuqur-

chuqur jarliklarda o'sib yotgan qalin bargli butalar shamolning asta-sekin nafas olishi bilan ustimizga kumush tomchilar yog'dirardi. Tabiatni shu safar har qachongidan ham ko'proq sevganim hali-hali esimda. Toklarning yapaloq barglari qaltirab, tovlanib, million-million yog'dularni o'zida aks ettirib turgan shudring tomchisiga suqlanib qaradim, tuman bosgan olisliklarga qarab to'ymasdim! Bu yerga yetgach, yo'l yanada torayar, qoyalar yanada ko'kimtirroq va dahshatli bo'lib ko'rinar, nazarimda ular borib-borib qalin devorga aylanib ketayotgandek bo'lardi. Biz indamay borardik.

– Vasiyat yozib qoldirdingizmi? – birdan so'rab qoldi Verner.

– Yo'q.

– Basharti, o'ldirilsangiz-chi?

– Merosxo'rlarning o'zi topiladi.

– Nahotki, alvido deyishingizni kutgan biron do'stingiz bo'lmasa?

Men bosh chayqadim.

– Nahotki, butun olamda xotira qoldirishingizga umid bog'lagan bironta ayol bo'lmasa?

– Men sizga dilimdagini ochaymi, doktor? – deb javob berdim. – Men sizga aytsam, o'z sevgilisining ismini tilga ola turib yo bo'lmasa atir sepilgan yoki sepilmagan bir siqim sochini do'stiga vasiyat qoldirib jon beruvchi odamlar yoshidan o'tganman. Ajalim yetgan va o'lishim mumkinligi haqida o'ylar ekanman, faqat o'zimni o'ylayman, boshqalar shuni ham qilishmaydi. Ertagayoq meni unutib yuboradigan va undan ham yomonrog'i – ustimga bo'lar-bo'lmas bo'hton to'quvchi do'stlarni, o'zga erkakning quchog'ida yotib, o'lib ketgan odamga nisbatan unda rashk uyg'otmaslik uchun meni masxara qilib kuluvchi ayollarni aytyapsizmi? Xudo olsin ularni! Hayot bo'ronidan men faqat bir nechta g'oyanigina olib chiqdim, ammo bironta hisga ega bo'lmadim. Qalbim bilan emas, balki aqlim orqali yashay boshlaganimga ancha bo'ldi. Men o'z qilmish va ehtirolarimni qiziqish bilan tahlil etaman-u, ammo aslida ular bilan o'zim qiziqmayman. Menda ikki shaxs bor, biri yashaydi, ikkinchisi esa o'ylaydi,

birinchisini tahlil qiladi; birinchisi balki biron soatdan so'ng siz bilan ham, olam bilan ham abadiy vidolashar, ikkinchisi esa... ikkinchisi... bir qarang, doktor, hov anavi o'ng tomondagi qoya tepasida uch kishining qorasini ko'ryapsizmi? Ular bizning raqiblarimiz bo'lsa kerak?

Ot surdik.

Qoya etagidagi chakalakzor ichiga uchta ot bog'lab qo'yilgandi, biz ham otimizni shu yerga olib kirib bog'ladik-da, so'qmoq yo'ldan yurib, maydonchaga chiqdik, u yerda bizni Grushnitskiy, kapitan va Ivan Ignatyevich yana bir sekundant kutib turishgan ekan, ikkinchi sekundantning ism-sharifini hech eshitmaganman.

– Sizlarni anchadan buyon kutib turibmiz, – dedi kapitan kinoyali bir kulgi bilan.

Men soatimni olib ko'rsatdim.

Kapitan soatining biroz oldinda ekanini aytib, uzr so'radi.

O'rtaga cho'kkan og'ir sukunat bir necha daqiqa davom etdi, nihoyat doktor Grushnitskiyga murojaat qilib, sukunatni buzdi:

– Janoblar, menimcha, ikkingiz ham urishishga tayyor ekaningizni ko'rsatib, o'z nomus va burchingizni ado etdingiz, endi o'zaro murosaga kelsangiz ham bo'lar deyman? – dedi.

– Men tayyorman, – dedim.

Kapitan Grushnitskiyga imo qilib qo'ydi, u esa meni qo'rqdi deb o'ylagan bo'lsa kerak. Garchand, shu ongacha yuzida qon asari bo'lmasa-da, gerdayib turib oldi. Biz kelganimizdan buyon birinchi marta boshini ko'tarib yuzimga qaradi, ammo yuzida aks etgan xavotirlik qalbida zo'r ruhiy kurash borayotganidan darak berardi.

– Shartingizni ayting, – dedi u. – Amin bo'lingki, qo'limdan kelgan hamma narsani...

– Mening shartim shu, qilgan tuhmatlaringizni bugunoq odamlarning oldida qaytarib olasiz va mendan afv so'raysiz...

– Janob, bunday shartni menga taklif etishga qanday haddingiz sig'ganiga hayronman...

- Bundan boshqa nimani ham taklif eta olardim?
- Otishamiz.

Men kiftimni qisib qo'ya qoldim.

- Mayli, ammo shuni bilingki, ikkimizdan birimiz, albatta, o'lishimiz kerak.

- Men ko'proq sizning o'limingizni istardim...
- Men esa sizning o'lishingizga aminman...

Grushnitskiy xijolat tortib, qizarib ketdi, keyin zo'raki holda xaxolab kuldi.

Kapitan uni qo'ltiqlab, bir chetga olib chiqdi, ular anchagacha bir-birlari bilan shivirlashib turishdi. Men bu yerga yarashib ketarmiz degan xayol bilan kelgan edim, ammo bunday gaplardan so'ng g'azabim tosha boshladi.

Yonimga doktor keldi.

- Menga qarang, - dedi u va uning qattiq xavotirga tushgani aniq edi. - Ularning sizga qarshi tuzgan fitnasini unutganingiz yo'qmi? Men to'pponcha o'qlashni bilmayman. Bu ahvolda... Juda qiziq odam ekansiz! Niyatlaringni bilaman deb o'zlariga ayting, qani, shundan keyin ham bir ko'rishsin-chi! Nima zarur sizga! Bir qushni otgandek o'ldirib ketaverishadi-da...

- O'tinaman sizdan, doktor, xavotir olmang, biroz shoshmay turing. Ishni shunday boplayki, ular tomonidan hech qanday manfaat bo'lmasin. Qo'ying, to'ygunicha shivirlashib olishsin.

- Janoblar! Qachongacha kutamiz, axir! - dedim men ovozimni baland ko'tarib. - Otishsak, tezroq otishaylik, gaplaring bo'lsa, kecha vaqtingiz bemalol edi...

- Biz tayyormiz, - deb javob berdi kapitan. - Qani, joyingizga turing, janoblar! Doktor, marhamat qilib olti qadam o'lchang...

- Joyingizga turinglar! - deb takrorladi Ivan Ignatyevich ingichka ovoz bilan.

- Shoshmay turing, - dedim men. - Mening yana bir shartim bor, modomiki, biz bir-birimizni o'ldirmoq uchun oti-shar ekanmiz, buni imkon qadar hech kim bilmasligi chorasini

ko'rishimiz va sekundantlarimizning ustiga hech qanday mas'uliyat tushmasligi yo'lini topishimiz lozim. Rozimisizlar?

– Ha, rozimiz.

– Men buning yo'lini o'ylab qo'ydim. Hov, o'ng tomonda osilib turgan qoyaning tepasidagi torgina maydonchani ko'ryapsizmi? O'sha yerdan pastgacha taxminan o'ttiz sarjinch keladi, balki undan ham ko'proqdir. Pastda hammayoqni qirralli va uchli toshlar bosib yotibdi. Har birimiz o'sha maydonchani eng chekkasiga borib turamiz, shunday qilsak, hatto eng kichik yara ham odamni o'ldirmay qo'ymaydi, bu sizlarning xohishlaringga mos kelsa kerak, chunki olti qadam joydan turib otishishni o'zlaringiz aytdingiz. Kim yarador bo'lsa muqarrar pastga qulab, tilka-tilka bo'ladi, yaradagi o'qni doktor chiqarib oladi, ana shunday qilsak, bevaqt o'lib ketgan kishini nojo'ya sakrayman deb o'ldi, degan bahona topishga oson bo'ladi. Kimning birinchi otishini aniqlash uchun chek tashlaymiz. Eng oxirida shuni aytib qo'yayki, agar shartim qabul qilinsa, otishaman, bo'lmasa – yo'q.

– Bo'pti, – dedi kapitan va Grushnitskiyga ma'noli qaragan edi, u ham «mayli» deya bosh tebratdi. Grushnitskiyning chehrasi daqiqa sayin o'zgarib turardi, men uni juda mushkul ahvolga solib qo'ygandim. Oddiy vaziyatda otishsak, yo oyog'imni mo'ljallab otishi yo bo'lmasa yengil yarador qilib o'chini olgan bo'lardi, vijdoni ham qiynalmasdi, ammo hozir yo o'qni osmonga uzishi, yo qotil bo'lishi, yo o'zining jirkanch niyatidan qaytib, men bilan birgalikda o'zi ham tahlika ostida qolishi kerak edi. Shu onda men uning o'rnida bo'lishni istamas edim. U kapitanni bir chetga olib chiqdida, hayajon bilan unga bir nimalar deya boshladi, ko'm-ko'k ko'karib ketgan lablarining dir-dir titrashi yaqqol ko'rinib turardi, biroq kapitan undan nafratlanib, istehzo bilan kuldida, yuzini o'girdi. «Ahmoq ekansan! – dedi u Grushnitskiyga ovozini baland ko'tarib, – befahm odam ekansan! Qani ketdik, janoblar!»

Butalar orasidan ketgan torgina so'qmoq yo'l tepalikka olib chiqardi. Bu tabiiy zining qimirlab turgan pog'onalari

xarsanglardan iborat edi. Hammadan oldinda Grushnitskiy, uning ortidan sekundantlari, keyin doktor ikkimiz borardik.

– Sizga qarab juda hayron bo‘laman, – dedi doktor qo‘limni qattiq siqib. – Qani, tomiringizni bir ko‘ray! Ehhe! Juda qattiq uryapti-ku! Ammo yuzingizdan sira bilinmaydi. Faqat ko‘zlaringiz odatdan tashqari porlaydi, xolos.

Birdan oyog‘imiz tagiga shaldirab mayda toshlar to‘kildi. Nima bo‘ldiykin? Grushnitskiy qoqilib ketibdi; ushlagan novdasi sinibdi, agar sekundantlari ushlab qolmaganida, jarga chalqancha ag‘darilgan bo‘lardi.

– Ehtiyot bo‘ling! – deb qichqirdim unga. – Barvaqt yiqilmang, buning xosiyati yomon.

Nihoyat, pastga osilib turgan qoyaning cho‘qqisiga chiqdik, go‘yo duelga atab tayyorlab qo‘yilgandek, maydonchaning usti qumloq edi. Tevarak-atrofdagi zarhal tumanda berkinib turgan tog‘ cho‘qqilari xuddi son-sanoqsiz podaga o‘xshardi, janub tomondan ko‘ringan Elbrus muzli tog‘lar orasida haybatli oppoq qaddini tik ko‘tarib turar, bu tog‘larning orasida esa kun-chiqar tomondan quvlashib kelgan paxmoq bulutlar suzib yurardi. Maydonchaning labiga borib, pastga qaragan edim, boshim aylanib ketishiga oz qoldi. Pastlik xuddi go‘rdek qorong‘i va sovuq bo‘lib, u yerda momaqaldirloqlar va asrlar qulatgan, ko‘karib ketgan qirrali xarsanglar o‘z o‘ljasini kutib yotardi.

Biz otishadigan maydoncha uchburchakli tumorga o‘xshardi. Chetga turtib chiqqan burchakdan olti qadam o‘lchadik-da, raqibning o‘qini qarshi oluvchi kishi shu burchak chetiga borib, jarlikka orqa o‘girib turadi va agar o‘ldirilmasa joylarini almashtirishadi, degan qarorga keldik.

Men Grushnitskiyga hamma imtiyozni bermoqchi bo‘ldim, uni sinab ko‘rmoqchi edim, qalbida bironta oliyjanoblik uchquni paydo bo‘lsa, mojaromiz tinchlik ila barham topar, deb o‘ylardim, ammo kishi mijozining izzat-nafsi va o‘jizligi tantana qilishi kerak edi. Agar taqdir meni omon saqlab qolsa, unga nisbatan zarracha rahm-shafqat qilmaslik uchun

o'zimga to'la huquq bermoq istardim. Kim o'z vijdoni bilan shunday murosasozlik qilmagan?

– Doktor, chek tashlang! – dedi kapitan.

Doktor cho'ntagidan tanga olib, baland ko'tardi.

Grushnitskiy xuddi do'stona turtishdan uyg'onib ketgan odamdek shoshib:

– Reshyotka! – deb qichqirdi.

– Oryol! – dedim men.

Tanga osmonga pirillab uchib chiqdi-da, yerga jaranglab tushdi, hamma tanga tushgan joyga yugurdi.

– Baxtli ekansiz, – dedim Grushnitskiyga. – Avval siz otasiz! Ammo, yodingizda bo'lsin, meni otmasangiz, o'qim xato ketmaydi, vijdonan aytaman.

Grushnitskiy qizarib ketdi, qurolsiz odamni o'ldirishga uyalar edi, men esa unga tikilib turardim. Bir nafasga men hozir oyog'imga yiqiladi, afv so'raydi deb o'yladim ham, ammo bunday qabih niyat qilganiga qanday iqror bo'la olardi? Uning osmonga qarab otishdan boshqa iloji qolmagandi, albatta, osmonga otishiga qattiq ishongan edim! Faqat birgina mulohaza, ya'ni duelni takrorlash kerak, degan talab qo'yishim uning osmonga otishiga xalal berishi mumkin edi.

– Bo'ldi endi! – deb shivirladi doktor yengimdan tortib, – ularning niyatidan xabardor ekanimizni hozir o'zlariga aytmasangiz ish rasvo bo'ladi. Qarang, to'pponchani o'qlay boshladi. Siz aytmasangiz, o'zim aytaman.

– Zinhor ayta ko'rmang! – dedim men uning qo'lini ushlab. – Hamma ishni buzasiz, xalaqit bermaslikka so'z bergansiz... Sizning nima ishingiz bor? Balki o'lishni istarman?

Doktor hayron bo'lib yuzimga qaradi-da:

– O, bu boshqa gap! Ammo u dunyoda mendan xafa bo'lib yurmang.

Bu orada kapitan to'pponchalarni o'qlab bo'lib, bittasini Grushnitskiyga berarkan, qulog'iga allanimalar deb shivirladi, ikkinchisini menga berdi.

Men maydonchanning chetiga borib, chap oyog'imni toshga tirab, yengil yaralansam orqamga yiqilmay deb, gavdamni sal oldinga tashlab turdim.

Grushnitskiy ro'paramga keldi, ishora berilishi hamon to'pponchasini ko'tara boshladi. Uning tizzalari dag'-dag' titrardi. To'g'ri peshanamni mo'ljalga oldi.

Qalbmida sira tushunib bo'lmaydigan g'azab va nafrat o'ti qaynadi.

U birdan to'pponchani tushirib yubordi-da, yuzi dokadek oqarib, sekundantiga qaradi.

– Otolmayman, – dedi bo'g'iq tovush bilan.

– Qo'rqqoq ekansan! – deb javob berdi kapitan.

O'q uzildi. O'q tizzamni timdalab o'tib ketdi. Maydonchanning chetidan uzoqlashish uchun bir necha qadam oldinga tashlandim.

– E, birodar Grushnitskiy, o'qing xato ketdi! – dedi kapitan. – Endi sening navbating, tur joyingga! Kel, avval quchoqlashib olaylik, bu so'nggi ko'rishishimiz! – Ular quchoqlashishdi, kapitan o'zini bazo'r kulgidan tiyib turardi. – Qo'rqma, – deb ilova qildi u Grushnitskiyga mug'ambirona nazar tashlab, – bu dunyodagi narsalar uch pulga qimmat. Tabiat – tentak bir narsa, taqdir – puch narsa, hayot esa, bir tiyin!

Kapitan bu fojiali gaplarni salobat bilan aytib bo'lgach, o'z joyiga borib turdi. Ivan Ignatyevich ham yig'lay-yig'lay Grushnitskiy bilan quchoqlashib xayrlashdi, nihoyat Grushnitskiy ro'paramda yolg'iz o'zi qoldi. O'sha tobda qalbmida qanday hislar qaynaganini hali ham aniqlashga urinaman, u hislar tahqirlanish alami, nafrat va g'azab hissi bo'lib, buni hozir aftimga gerdayib xotirjamlik bilan qarab turgan kishi bundan ikki daqiqa avval meni itdek otib tashlamoqchi edi, degan fikr tug'dirardi, chunki oyog'imdan qattiqroq yaralansam, muqarrar qoyadan pastga qulab tushgan bo'lardim.

Uning yuzida pushaymonlik alomati topilmasmikan, deb bir necha daqiqa tikilib turdim. Ammo, nazarimda, u kulimsirab turgandek tuyuldi.

– O‘lishingizdan avval bir ibodat qilib olishingizni maslahat beraman, – dedim men shunda.

– Mening ruhim haqida g‘am yeyishdan ko‘ra, o‘z ruhingizning g‘amini yesangiz-chi! Iltimos, tezroq oting.

– Hali ham qilgan tuhminatingizni qaytarib olmaysizmi? Afv so‘raysizmi? Yaxshilab o‘ylab ko‘ring, vijdoningiz sizga hech nima demayaptimi?

– Janob Pechorin! – deb baqirib yubordi kapitan. – Siz bu yerga birovning tavbasini eshitgani kelganingiz yo‘q-ku, tezroq tugataylik endi, daradan bitta-yarimta o‘tib qolgudek bo‘lsa, ko‘rib qoladi.

– Yaxshi. Doktor bu yoqqa qarang.

Doktor yonimga keldi. Bechora doktor! Bundan o‘n daqiqa avval Grushnitskiyning rangi qanday oqargan bo‘lsa, doktorning rangi hozir unikidan beshbattar edi.

Bundan keyingi gaplarimni xuddi qatl etish to‘g‘risida chiqarilgan hukmni o‘qigandek, dona-dona qilib baland tovush bilan dedim:

– Doktor, bu janoblar shoshilinch ortida to‘pponchamni o‘qlashni unutgan bo‘lsalar kerak, iltimos qilaman, qaytadan yaxshilab o‘qlab bering!

– Unday bo‘lishi mumkin emas! – deb baqirib yubordi kapitan. – Bo‘lishi mumkin emas! Men ikkala to‘pponchani ham o‘qlaganman, balki siznikining o‘qi tushib qolgandir. Bu mening aybim emas! Qaytadan o‘qlashga esa haqqingiz yo‘q, mutlaqo haqqingiz yo‘q, bu qoidaga xilof, men bunga yo‘l qo‘ymayman.

– Ma‘qul, – dedim men kapitanga. – Unday bo‘lsa, xuddi shu shart bilan ikkimiz otishamiz.

Kapitan ikkilanib qoldi.

Grushnitskiy xijolat tortib, qovoqlarini solgan holda boshini egib turardi.

Kapitan doktorning qo‘lidan to‘pponchamni tortib olmoqchi bo‘lgandi, Grushnitskiy unga qarab:

– Qo‘y, tegma! – dedi. – Ularning haqli ekanliklarini o‘zing yaxshi bilasan-ku.

Kapitan unga shuncha imo-ishora qilsa-da, bo'lmadi, Grushnitskiy unga qaramas edi.

Bu orada doktor to'pponchamni o'qlab berdi.

Buni ko'rgan kapitan tuflab, yer tepindi: «Rosa ahmoq ekansan, og'ayni. O'taketgan ahmoq ekansan! Menga ishonib qo'yganingdan keyin, indamay turavermaysanmi! Endi battar bo'l! Menga desa harom o'l!..» Keyin ortiga o'girilib, «Qonunga xilof» deb po'ng'illab qo'ydi.

– Grushnitskiy! – dedim men. – Hali fursat bor, tuhmatingdan qayt, barcha gunohingni kechaman. Meni ahmoq qilolmading, izzat-nafsim ham qondi, bilasan, bir vaqtlar do'st edik...

Grushnitskiy qizarib, ko'zlari chaqnab ketdi.

– Oting! – dedi u. – Men o'zimdan nafratlanaman, sizni esa ko'rishga ko'zim yo'q. Hozir meni o'ldirmasangiz, bir kun kelib, sizni so'yib ketaman. Bu dunyoda ikkimiz uchun o'rin yo'q.

Men otdim.

Tutun tarqalganida, Grushnitskiy maydonchada yo'q edi. Faqat jarning yoqasidan yengilgina chang ko'tarilardi, xolos. Hamma birdan qichqirib yubordi.

– *Finita la comedia*¹, – dedim men doktorga qarab.

Doktor indamay, dahshat ichida teskari qaradi.

Men kift qoqdim-da, Grushnitskiyning sekundantlariga ta'zim qilib xayrlashdim.

So'qmoq yo'ldan pastga tusha turib, toshlar orasida qonga belanib yotgan Grushnitskiyning jasadini ko'rdim, unga qarolmay, ko'zimni yumib, o'tib ketdim.

Otimni yechib, asta uyga qaytdim. Qalbimni og'ir bir tosh bosib turgandek edi. Quyosh ham ko'zimga xira ko'rinar, shu'lalari ham meni isitmas edi.

Qishloqqa yetmasdan otimni o'ng tomonga burib, daraning ichiga kirdim. Ko'zimga odam bolasi ko'rinmasa derdim, tanho qolishni istardim. Otning jilovini qo'yib yubordim,

¹ *Finita la comedia* (ital.) – Komediya tamom bo'ldi!

boshimni quyi solib ancha vaqtgacha kezib yurdim, bir payt qarasam, mutlaqo tanimagan joylarga borib qolibman, o'tning boshini burib, yo'l qidirib ketdim, o'lgudek charchab, o'tni ham charchatib, Kislovodskka kirib kelganimda kun botgan edi.

Xizmatkorim kelib, qo'limga ikkita maktub berdi: biri doktorning maktubi, ikkinchisi Veradan edi.

Avval birinchisini ochib o'qidim, maktub quyidagi mazmunda edi:

«Hamma ish saranjom qilindi: dabdala bo'lgan jasad keltirildi, ko'krigidan o'q ham chiqarib olindi. Uning baxtsiz hodisa qurboni ekaniga hamma ishondi, faqat komendantning o'rtangizdagi mojarodan xabari bo'lsa kerak, boshini chayqab qo'ydi, ammo biron narsa demadi. Sizga qarshi bironta isbot-dadil yo'q, bemalol yotib uxlayverasiz, agar uxlay olsangiz... Xayr».

Ikkinchi maktubni anchagacha ochishga jur'at etolmay turdim. Vera menga nimalarni yozishi mumkin? Yuragimni allaqanday og'ir bir his eza boshladi.

Mana, har bir so'zi abadiy yodimda qolgan maktub ushbu mazmunda edi:

«Ushbu maktubni ortiq ko'rishmasligimizga qat'iy ishon-ganim holda yozmoqdaman, bundan bir necha yil avval sen bilan ayrilish vaqtida ham xuddi shunday deb o'ylagan edim, biroq Tangri meni yana bir karra sinamoqchi bo'ldi. Men ushbu sinovga bardosh berolmadim, ojiz qalbim tanish ovozga yana qul bo'ldi, buning uchun mendan nafratlanmaysan degan umiddaman. Maktubim ham sen bilan vidolashuv va tavba-tazarruim bo'ladi; qalbim senga muhabbat qo'yganidan buyon, unda to'lgan barcha dardlarni senga izhor etishga majburman. Men seni hecham ayblamayman, sen qilgan muomala har bir erkakda bor, meni xususiy mulking qatorida, ketma-ket kelib turuvchi shodlik, tashvish va g'am-g'ussalarning manbai qatorida yaxshi ko'rarding, axir bular bo'lmasa hayot ham bo'lmaydi, odamni zeriktirib yuboradi. Men buni boshida bilgan, sezgan edim. Ammo sen baxtsiz eding, shuning uchun

bir kun fidokorligimni anglarsan, qadriga yetarsan va hech qanday sharoitga bog'liq bo'lmay qilgan samimiy dildorligimni anglarsan, deb o'zimni senga fido etgandim. O'shandan buyon ko'p vaqtlar o'tdi, men sening ko'ngil sirlaringga oshno bo'ldim. Qarasam, behuda umid bog'lagan ekanman. Menga rosa alam qildi. Biroq, senga bo'lgan muhabbatim jonim bilan birlashib ketgandi, sevgim qoraydi-yu, ammo so'nmad!

Endi abadiy ko'rishmaymiz, ammo amin bo'лки, sendan boshqa hech kimsani sevmayman, qalbim o'zining butun xazinasini, ko'z yoshi va umidlarini senga sarf qildi. Senga bir marta ko'ngil qo'ygan ayol boshqa erkaklarga nafratsiz qaray olmaydi, ularga nisbatan yaxshiroq bo'lganliging uchun emas, albatta! Ammo mijozingda o'zinggagina xos, o'zinggagina yarashgan, sirli va mag'rur bir xosiyat bor; qanday so'z gapirma, ovozingda yengib bo'lmaydigan bir kuch bor, hech kimsa sendek sevilishni orzu qilolmaydi; hech kimsaning g'azabi senikidek bo'lolmaydi, hech kimning ko'zlari senikidek orom va lazzat berolmaydi, o'z imtiyozlaridan sendek yaxshi foydalana oladigan kishi topilmaydi; haqiqatan ham sen kabi baxtsiz odam yo'q dunyoda, chunki hech kimsa o'zini senchalik baxtli qilib ko'rsatolmaydi.

Endi senga nima uchun to'satdan jo'nab ketishimning sababini aytay. Bu sabab senga ahamiyatsizdek ko'rinar, chunki buning yolg'iz mengagina daxli bor, xolos.

Bugun ertalab oldimga erim kirdi-da, Grushnitskiy bilan o'rtangda bo'lib o'tgan janjalni aytib berdi. Yuzim o'zgarib, ko'rinishim g'alati tus olgan bo'lsa kerak, erim ancha vaqtgacha ko'zlarimga tikilib qoldi; shu bugun duelga chiqishingni va o'lishing mumkinligini, bunga men aybdor ekanimni o'ylagan edim, hushimdan ketishimga bir baxya qoldi, jinni bo'layozaman deb qo'rqib ketdim. Biroq hozir fikrim joyiga kelib, o'zimni bosib olganimdan keyin, sening tirik qolishingga ishondim, mensiz o'lib ketishing aslo mumkin emas! Erim anchagacha uyning ichida aylanib yurdi, uning menga nimalar deganini bilmayman, qaytargan javoblari ham yodimda yo'q. Aftidan, seni sevishimni aytgan bo'lsam kerak. Gapning pirovardida erim meni yomon so'zlar bilan haqorat qilib chiqib ketganini bilaman, xolos. Aravani

qo'shishni buyurganini eshitdim. Mana, uch soatdan buyon deraza yonida qaytishingni kutib o'tiribman. Yo'q, sen salomatsan, o'lishing mumkin emas! Arava tayyor bo'lib qoldi. Yaxshi qol, alvido! Agar hamisha yodingda saqlay olishingga, sevishingga demayman, yodingda saqlay olishingga ishonsam edim... mayli, yaxshi qol, kelishyapti... maktubni berkitishim kerak.

Merini sevmasliging rost-a? Unga uylanmaysanmi? Menga qara, sen menga shuni qurbon qilishing kerak, seni deb men barcha narsamdan ayrildim...»

Men xuddi telba odamdek eshikka yugurib chiqdim-da, hovlida xizmatkorlarim sovitib yurgan Cherkesimga minib, Pyatigorskka qarab choptirib ketdim. Tosh yo'ldan chopib ketayotgan otimning horg'inligiga qaramay, ayamadan qamchilardim.

Quyosh g'arb tomondagi tog'lar tepasida dam olib yotuvchi bulut orasiga berkina boshlagan, daraning ichi qorong'ilashib, namlik tushayotgan edi. Toshlar ustidan sakrab-sakrab oquvchi Podkumok soyi bir ohangda hayqirib oqardi. Men hamon toqatsizlanib, otimni eldek uchirib borardim. Pyatigorskdan ketib qolgan bo'lsa-ya, degan fikr yuragimga xuddi xanjardek qadaldirdi. Bir daqiqaga, yana bir lahzagina ko'rsam, xayrlashsam, qo'lini siqsam... men nola qilardim, la'natlar o'qirdim, yig'lardim, kulardim... yo'g'-a, yuragimda qaynab-toshgan tashvishni, umidsizligimni sira ta'riflab bo'lmaydi!.. Miyamga umrbod judo bo'lish fikrining kelishi bilan Vera dunyodagi hamma narsadan – hayotimdan ham, baxtimdan ham qimmatroq ko'rinib ketdi! Miyamga qanday g'alati va mash'um xayollar kelganini o'zim bilaman-u, xudo biladi. Hamon otimni shafqatsiz ravishda choptirib borardim. Bir payt qarasam, otim harsillab qoldi, tekis yo'ldan keta turib, bir-ikki marta qoqilib ham ketdi. Essentuki degan kazaklar qishlog'igacha besh chaqirimcha qolgandi, u yerdan boshqa otga minishim mumkin edi.

Agar otim yana o'n daqiqacha chidab bersa, murodimga yetardim. Biroq tog' ortidagi kichkina bir jarlikdan ko'tarilayotib, tik yo'l muyulishida otim birdan yerga gurs etib

yiqlidi. Men darhol sakrab tushdim, otni jilovidan tortib turg'izaman deyman, sira turmaydi, girih bo'lib qolgan tishlari orasidan ingrash eshitildi. Bir necha daqiqadan keyin u jon berdi, eng so'nggi umidimdan ham mahrum bo'lib, dasht-u biyobonda yolg'iz o'zim qoldim. Piyoda yurib ko'rgan edim, oyoqlarim mayishib ketdi, butun kun tortgan tashvishlarim va uyqusizlik natijasida nam maysaning ustiga yiqildim-da, xuddi yosh bola kabi o'krab yig'lab yubordim.

Ancha vaqtgacha qimirlamay ho'ng-ho'ng yig'lab yotdim. Ko'z yoshlarim va alamlarimni o'z ixtiyoriga qo'yib berdim, yurak-bag'rim ezilib ketdi, butun irodam, sovuqqonligim bir zumda tutundek tarqalib ketdi, ruhim tushib, es-hushim so'ndi. Agar shu paytda meni birov ko'rsa, mendan nafratlanib, yuzini teskari o'girib ketardi.

Tun shabnami, tog' shamoli o'rtanib turgan boshimni sovitib, es-hushim o'zimga kelgach, qo'ldan ketgan baxt qushining ortidan quvishning foydasiz va telbalik ekanligini angladim. Men yana nimani istayman? Uni ko'rishnimi? Nima uchun? Oramizda hamma narsa yakun topgani ravshan emasmi? Bittagina so'nggi ayrilish bo'sasi xotiramni boyita olmaydi, balki ayrilishimizni qaytaga yanada og'irlashtirib yuboradi.

Shunday bo'lishiga qaramay, men ham yig'lay olarkanman deb suyundim! Balki bunga sabab, asablarimning buzilishi, uyqusiz kecha, ikki daqqa to'pponcha qarshisida turishim va qornimning ochligidir.

Qaytanga yaxshi bo'ldi! Bu yangi azob, harbiychasiga aytganda, men uchun baxtli bir diversiya vujudga kelgandi. Yig'lash sog'lik uchun yaxshi, undan keyin ot choptirganimda va o'n besh chaqirim yo'lni piyoda bosmaganimda, balki bu kecha ham uxlamay chiqarmidim.

Kislovodskka tong-sahar beshda qaytib keldim, o'zimni o'ringa tappa tashladim-da, Napoleonning Vaterloodan¹ keyingi uyquasi bilan uxlab qoldim.

¹ *Vaterloo* – 1815-yilda Napoleon Vaterloo degan joy yaqinida bo'lgan jangda mag'lubiyatga uchragan.

Uyg'onsam, qorong'i tushibdi. Ochiq deraza oldiga kelib, ko'ylagimning tugmalarini yechdim – tog' shamoli chuqur uyqudan keyin ham orom topmagan ko'kragimni yelpidi. Yiroqdan qalin arg'uvon daraxtlari orasidan qal'a va qishloqning chiroqlari bamisoli oqib boruvchi daryodek bo'lib ko'rinardi. Hovlimiz jimjit, knyaginyaning uyi qop-qorong'i edi.

Doktor kirib keldi, qovog'i solingan, odatda, men bilan qo'l berib ko'rishardi, bu safar qo'lini ham uzatmadi.

– Qayerdan kelyapsiz, doktor?

– Knyaginya Ligovskayanikida edim. Qizi betob yotibdi, asab kasaliga chalinibdi. Ammo gap bunda emas, gap boshqa yoqda, boshliqlar bilib qolganga o'xshaydi, garchi isbot etadigan hech qanday dalil bo'lmasa-da, ehtiyot bo'ling demoqchiman. Knyaginya boya menga sizning o'z qizi tufayli otishganingizni aytdi, xabari bor ekan. Bu gaplarni o'sha chol gapirib beribdi, hah... ismi nima edi? Qahvaxonada Grushnitskiy bilan o'rtangizda janjal chiqqanini ko'rgan ekan. Men bu yerga sizni ogohlantirish uchun keldim. Endi xayr. Balki bir umr ko'rishmasmiz, sizni boshqa yoqqa jo'natishsa kerak.

U ostonada to'xtadi. Nazarimda, qo'limni siqib xayrlashmoqchi bo'ldi, agar menda shunday istak borligini bildirganimda, o'zini bo'ynimga tashlardi, biroq men toshdek qotib turaverdim, u chiqib ketdi.

Odamlarni qarang! Hammasi shunaqa, qiladigan ishlarining barcha yomon tomonlarini oldindan bila turib, senga yordam qilishadi, maslahatlar berishadi, hatto boshqa iloj yo'qligini bilib, ma'qullashadi ham. Ish bitganidan keyin esa, qo'llarini yuvib qo'ltiqqa urishadi, butun mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan kishidan yuzlarini o'girishadi. Hamma odamlar, hatto eng mehribonlari ham, eng donolar ham shunday!..

Ertasi kuni ertalab oliy qo'mondonlikdan N. degan qal'aga ketishim to'g'risida buyruq olgach, knyaginya bilan xayrlashgani kirdim.

Uning menga biron muhim gap aytmoqchimisani, degan savoliga, sizga baxt tilayman va hokazo, deb javob bergandim, u hayron qoldi.

– Siz bilan juda jiddiy gaplashadigan gapim bor.

Men indamay o'tirdim.

Gapni nimadan boshlashni bilmay o'tirganligi ravshan edi; yuzlari qizarib ketdi, semiz barmoqlari stolni chertardi, oxiri, tutila-tutila gap boshladi:

– Menga qarang, janob Pechorin, men sizni oliyjanob bir kishi deb bilaman.

Men ta'zim qildim.

– Garchi xatti-harakatlaringiz biroz shubhali bo'lsa-da, baribir, bunga aminman, – deb davom etdi knyaginya. – Ammo, dilingizda faqat o'zingizgagina ma'lum bo'lgan sabablar bo'lishi mumkin, menga ularni aytishingiz kerak. Qizimni tuhmatdan himoya qildingiz, uni deb otishdingiz, binobarin, hayotingizni tahlika ostiga qo'ydingiz. Gapirmang, bilaman, bunga sira iqror bo'lmaysiz, chunki Grushnitskiy o'lib ketdi. Gunohi bo'lsa, xudo kechirsin, siznikini ham kechirar deb ishonaman! Bu bilan mening ishim yo'q. Men sizni qoralay olmayman, chunki qizim gunohsiz bo'lsa-da, bunga sababchi bo'ldi. U menga hamma gapni aytib berdi. Barchasini aytdi deb o'ylayman, siz sevgi izhor qilibsiz, u ham sizni sevaman deb aytibdi. Ammo qizim betob yotibdi, aminmanki, uning kasali oddiy emas! Qandaydir sirli bir dard unga azob bermoqda, nimaligini aytmaydi, ammo buning sababi sizdaligiga ishonchim komil. Menga qarang, siz meni balki amal yoki davlat izlaydi deb o'ylarsiz, bu fikringizdan qayting, men faqat qizimning baxt-saodatli bo'lishini istayman, xolos. Hozirgi ahvolingiz odamlar havas qilgulik emas, ammo keyinchalik o'nglanib ketishi ham mumkin, davlatingiz bor, qizim sizni sevadi, u shunday tarbiya topganki, o'z erini baxtli qilish qo'lidan keladi. Mening ham davlatim katta, qizim bitta-yu bitta. Ayting-chi, sizni nima kutib turibdi? Ko'rib turibsizki, bu gaplar mendan chiqishi kerak emasdi, ammo men sizning qalbingizga, lafzingizga ishonib turib aytdim, peshanamda yolg'iz shu birgina qizim ekanligini unutmang.

Knyaginya yig'lab yubordi.

– Knyaginya, – dedim men. – Men sizga hech narsa deyolmayman, ruxsat etsangiz, qizingiz bilan gaplashib olsam.

– Hech qachon! – qichqirib yubordi knyaginya zo'r hayajon bilan o'rnidan turib.

– Ixtiyoringiz, – dedim men va ketishga chog'landim.

Knyaginya biroz o'ylanib qoldi-da, «kutib turing» degandek qo'li bilan ishora qilib, uydan chiqdi.

Oradan besh daqiqa vaqt o'tdi, yuragim gup-gup urib tursada, fikrim ravshan, aql-hushim joyida edi. Qalbimdan bechora Meriga nisbatan zarracha muhabbat uchquni topilarmikan deyman, sira topilmaydi.

Ana, eshik ochildi-yu, u kirib keldi. Yo Rabbim! Oxirgi marta ko'rganimdan buyon juda o'zgarib ketibdi. Yo ko'rmaganimga ko'p bo'ldimi?

Uyning o'rtasiga kelib, birdan gandraklab ketdi, o'rnimdan turdim-da, qo'limni berib, oromkursiga olib keldim.

O'zim uning ro'parasiga kelib turdim. Anchagacha gaplashmay turdik, uning ta'riflab bo'lmaydigan allaqanday qayg'u-hasratga to'la ko'zlari umid va najot izlab ko'zlarimga boqardi. Oqarib ketgan lablari tabassum qilmoqchi bo'lardi-yu, biroq bunga ojiz edi, tizzalariga qo'yib o'tirgan nozik qo'llari shu qadar oriqlab ketgandiki, bechoraga rahmim keldi.

– Knyajna, – dedim men. – Sizni mazaxlab yurganimni bilasizmi? Siz mendan nafratlanishingiz kerak.

Yuzlarida xastalarga xos qizillik paydo bo'ldi.

Men davom etdim:

– Binobarin, siz meni sevolmaysiz.

Knyajna yuzini qo'li bilan to'sib, teskari o'girildi-da, stolga suyandi, ko'zlaridan yosh chiqqandek tuyuldi.

– Yo Rabbim! – deb pichirladi u.

Bunga ortiq chidab turish qiyin edi, bu hol yana bir lahza davom etsa, o'zimni uning oyoqlariga tashlardim.

– O'zingiz ham ko'rib turibsizki, – men imkon qadar qat'iy ohangda, zo'raki kulgi bilan so'zimda davom etdim. – O'zingiz ko'rib turibsizki, men sizga uylana olmayman. Agar shu gaplardan keyin ham buni istasangiz, keyin o'zingiz pushaymon bo'lasiz. Sizga bu gaplarni shu qadar ochiq va

shu qadar qo'pol gapirishimga onangiz bilan qilgan suhbatim majbur etdi. Onangiz xato qilgandir degan umiddaman, uni bu fikridan qaytarish sizning qo'lingizdan keladi. Ko'rib turibsizki, ko'zingiz oldida eng xunuk va eng qabih rol o'ynamoqdaman, hatto bunga o'zim ham iqror bo'lib turibman, siz uchun qo'limdan kelgan narsa shu. Men haqimda qanday yomon fikrda bo'lmang, hammasiga roziman. Ko'rdingizmi, oldingizda bir razil odamman. Agar meni sevganingizda ham, hozirdan e'tiboran mendan nafratlanishingiz kerak, shunday emasmi?..

Knyajna dokadek oqargan yuzini menga o'girdi, faqat ko'zlari ajoyib charaqlardi.

– Sizni ko'rishga ko'zim yo'q... – dedi.

Men tashakkur aytib, hurmat bilan ta'zim qildim-da, chiqib ketdim.

Bir soatdan keyin uch otli foytun meni Kislovodskdan olib ketdi. Yessentukiga bir necha chaqirim qolganda, yo'l bo'yida chopqir otimning o'ligini ko'rdim; ustidagi egari yo'q, biron o'tkinchi kazak olib ketgan bo'lsa kerak, egarning o'rnida ikkita qarg'a o'tirardi. Bir xo'rsindim-da, yuzimni teskari o'girdim.

Mana endi diqqinafas qal'ada o'tirib, o'tmishni eslar ekanman, nima sababdan taqdir menga ochib bergan bu yo'lga kirishni istamadim, axir shunday qilsam meni huzur-halovat, ruhiy sokinlik kutar edi-ku, deb o'zimdanda o'zim so'rayman. Yo'q, bu qismatga men chidab turolmas edim! Men qaroqchilar kemasida tug'ilib o'sgan matrosga o'xshayman: uning qalbi bo'ron va janglarga o'rganib qolgan, agar qirg'oqqa chiqsa, sersoya o'rmonlar uni qancha o'ziga tortmasin, quyosh unga o'z yog'dusini qanchalar mo'l sochmasin, baribir, uning yuragi siqiladi, diqqinafas bo'ladi. Ertadan, kechgacha qumloq qirg'oqlarda kezib, yelib-yugurib keluvchi to'lqinlarning salmoqdor tovushlariga quloq solib, yiroqdan, ko'm-ko'k to'lqinlarni qora bulutlardan ajratib turgan ufq ortidan oldin baliqchi qushning qanotiga o'xshash, keyin-keyin to'lqin ko'piklaridan ajralib, kimsasiz bandargohga yelib keluvchi yelkan ko'rinmasmikan, deb tuman bosgan olamdan ko'zini uzmay yuraveradi.

III

Fatalist

Bir payt chap qanotdagi kazaklar qishlog'ida ikki hafta turishga to'g'ri keldi, qishloqda yana bir batalyon piyoda askar ham turardi. Ofitserlar bir-birlarinikida galma-gal to'planishib, kechalari qarta o'ynashar edi.

Bir kuni mayor S*** degannikida boston¹ o'ynay-o'ynay zerikib, qartani stolning tagiga irg'itdik-da, anchagacha gaplashib o'tirdik, suhbatimiz odatdagilarga qaraganda juda qiziq edi. Gap, har kimning peshanasiga bitilgani bo'ladi, degan musulmonlarning e'tiqodiga oramizda ko'plar ishonar ekan, degan narsadan ketdi. Har kim buni isbot qilish yoinki qoralash uchun har xil g'ayritabiiy voqealarni aytib berardi.

– Bu gaplar hech narsani isbot etolmaydi, janoblar, – dedi kekxa mayor. – Axir, fikrlaringizni isbotlash uchun aytilgan voqealarni hech biringiz o'z ko'zingiz bilan ko'rmagansiz-ku?

– Albatta, hech kim ko'rmagan, – dedi ko'pchilik. – Ammo ko'rmagan bo'lsak-da, ishonchli odamlardan eshitganmiz.

– Hammasi bekor gap! – dedi allakim. – Ajalimiz yetgan vaqt-soatni ko'rsatuvchi ro'yxatni ko'rgan o'sha ishonchli odamlar kim ekan, ular qani? Xo'p, basharti taqdir degan narsa bor ekan, o'sha iroda, aql degan narsalar bizga nima uchun berilgan? Nima uchun biz o'zimizning har bir ishimiz, har bir xatti-harakatimizga hisob berishimiz kerak?

Shu onda uyning bir burchagida o'tirgan bir ofitser o'rnidan turib, stolning yoniga keldi-da, hammaga tantanali va xotirjam nazar tashladi. Uning millati serb ekanligi ism-sharifidan ayon edi.

Poruchik Vulichning tashqi qiyofasi uning xarakteriga tamomila mos tushgandi. Baland qomati, qop-qora sochlari, bug'doy rangi, o'tkir nigohi, millatiga mansub bo'lgan kattagina, ammo xushbichim burni, labidan sira arimaydigan g'amgin va sovuq tabassumi uni boshqacha, taqdir tomonidan

¹ Boston – qarta o'yinining bir turi.

yor-u do'st qilib tayin etilgan kishilar bilan o'zining fikr hamda xislatlarini o'rtoqlashmaydigan bir odam qilib ko'rsatardi.

O'zi juda mard, kamgap, ammo gapirganida jiddiy tortadigan odam edi. O'zining ruhiy va oilaviy sirlarini hech kimga ochiq aytmasdi; umuman musallas ichmasdi, o'z ko'zi bilan ko'rmagan odam, ularning naqadar go'zal ekanliklarini tasavvur etolmaydigan yosh kazak qizlarining ketidan sudralib yurmasdi. Ammo, polkovnigimizning xotini uning ma'nodor ko'zlariga xushtor emish, degan gaplar yurardi, biroq, odamlar bu haqda gap ochsa, Vulichning jahli chiqardi.

Uning hech kimdan yashirmaydigan bittagina ehtirosi bor edi, u ham bo'lsa, qartabozlik edi. Yashil stol' yoniga o'tirsa, ko'ziga hech narsa ko'rinmasdi, ko'pincha yutqazardi, ammo qancha yutqazsa, shuncha o'jarlashardi. Bir voqeani hikoya qilib berishdi: ekspeditsiya vaqtida, kechasi yostiqning ustida bank o'ynashibdi, bu safar Vulichning rosa omadi kelib turgan ekan. Birdan otishma boshlanib, talato'p boshlanibdi, hamma o'rnidan turib qurolga yuguribdi. «Va-bank»² deb qichqiribdi Vulich, shunda mohir qartabozlar o'rnidan ham turmasdan, «Yettilik ketdi», deb javob beribdi u yugurib tashqariga chiqib ketar ekan. To's-to'polon bo'lishiga qaramay, Vulich qartani ochibdi, bankni yutqazibdi.

O'z qismi joylashgan yerga yetib borsa, otishma qizib turgan payt ekan. Vulich o'qlarni ham, chechenlarning qilichini ham pisand qilmay, baxtiyor qartabozni izlab ketibdi.

Yovni o'rmon ichidan siqib chiqara boshlagan o'qchilar qatoridan axiyri qidirib topibdi-da: «Yettilik yutdi!» – deb baqiribdi va uning yoniga borib, bu yerda hisob-kitobning o'rni yo'q deyishiga ham qaramasdan, yonidan hamyonini chiqaribdi. Ko'ngilsiz qarzni uzib bo'lganidan keyingina jangga otilib, ortidan askarlarni ergashtirib ketibdi, to jang tamom bo'lgunicha chechenlar bilan otishibdi.

¹ *Yashil stol* – qadimda qimor o'ynaladigan maxsus stol.

² *Va-bank* – qimor o'yinida o'rtadagi pul miqdoriga baravar pul tikuvchi o'yinchining xitobi.

Poruchik Vulich stolning yoniga kelishi bilan bu yana qanday yangi hunar ko'rsatarkin, deb hamma jim bo'ldi.

– Janoblar, – dedi u, uning ovozi odatdagidan sal pastroq bo'lsa-da, ammo xotirjam edi. – Janoblar, behuda bahsdan nima foyda? Isbot kerak desangiz, men odam o'z hayotining haqiqiy egasimi yoki har birimizning vaqt-soatimiz oldindan bitib qo'yilganmi, degan narsani har kim o'zida sinab ko'rishini taklif etaman. Qani kim istaydi?

– Men aslo istamayman, men umuman xohlamayman! – degan ovozlar eshitildi har tarafdin. – Voy, tentak-ey! O'ylab topgan narsasini qarang-a!..

– Garov boylashamiz, – dedim men hazillashib.

– Xo'sh, nimadan boylashamiz?

– Taqdir degani yo'q, – dedim men va yonimdagi bor pulimni olib, stolning ustiga tashladim, hammasi bo'lib yigirma chervon ekan.

– Bo'pti, – dedi Vulich bo'g'iq tovush bilan. – Mayor, siz hakam bo'lasiz, mana o'n besh chervon, mendan besh chervon qarzsiz, bir do'stlik qilib shuni qo'shib qo'ysangiz.

– Xo'p bo'ladi, – dedi mayor. – Ammo, to'g'risini aytsam, men hech narsaga tushunolmay qoldim, bahsni qanday hal qilasizlar?

Vulich indamasdan mayorning yotog'iga kirib ketdi, ortidan biz ham kirdik. Vulich yaroq-aslaha osib qo'yilgan devorning tagiga borib, qoziqdagi har xil kalibrli to'pponchalardan to'g'ri kelganini qo'lga oldi. Biz hali ham uning nima qilmoqchiligini bilmay turar edik. Ammo to'pponcha tepkisini tortib ichiga porox solishi bilan, ko'pchilik birdan hayhaylab, uning qo'lidan ushlashdi.

– Nima qilmoqchisan? Hoy, jinni bo'ldingmi? – deb qichqirishdi.

– Janoblar! – dedi Vulich sekin qo'lini bo'shatib. – Men uchun kim yigirma chervon to'laydi?

Hamma jim bo'lib, chetga chiqib turdi.

Vulich narigi uyga chiqib, stolning yoniga borib o'tirdi, uning ortidan biz ham chiqdik. Vulich «atrofimga o'tiringlar», deb ishora qildi. Biz indamasdan o'tirdik, shu onda

u hammamizning ustimizdan qandaydir sirli bir kuchga ega bo'lgandek edi. Men uning ko'zlariga tikildim, ammo u mening bu boqishimni dadil va xotirjam qarshi oldi, oqarib ketgan lablariga tabassum yugurdi, ammo sovuqqonlik bilan o'tirishiga qaramay, so'lg'in yuzida ajal alomati borligini sezgandek bo'ldim. Bir necha soatdan keyin o'ladigan odamlarning chehrasida mash'um taqdirning qandaydir g'alati bir nishonasi paydo bo'lganini o'z ko'zim bilan ko'rganman, kekxa jangchilar «o'rgangan ko'z aslo xato qilmaydi», deyishgan.

– Siz bugun o'lasiz! – dedim men Vulichga. U menga yalt etib qaradi-yu, biroq sokin bir vaziyatda:

– Ehtimol o'larman, ehtimol yo'q... – deb javob berdi.

So'ngra mayorga qarab: «To'pponcha o'qlanganmi?» – deb so'radi. Mayor shoshib qolganidan o'qlangan yoki o'qlanmaganini yaxshi eslay olmadi.

– Qo'ysangiz-chi, Vulich! – deb qichqirdi allakim. – Bosh tomonda osig'liq turganidan keyin, albatta, o'qlangan bo'ladi-da, shu ham hazil bo'ldimi?

– Ahmoqona hazil! – dedi yana birov.

– Besh so'mga qarshi ellik so'm qo'yib garov o'ynaymanki, to'pponcha o'qlanmagan! – deya qichqirdi uchinchi bir kishi. Yana bir garov boylashadigan odam topildi.

Bu cho'zilgan marosim jonimga tegdi.

– Menga qarang, – dedim Vulichga qarab. – Yo o'zingizni oting, yo to'pponchani joyiga ilib qo'ying, borib dam olaylik.

– To'g'ri, – deb qichqirdi ko'pchilik. – Borib dam olaylik.

– Janoblar, joyingizdan qo'zg'almasligingizni so'rayman! – dedi Vulich to'pponchani peshanasiga tirab. Hamma toshdek qotdi-qoldi. – Janob Pechorin, – deb ilova qildi u. – Bitta qartani olib, osmonga irg'iting.

Yodimda: stolning ustidagi toppon tuzni olib yuqoriga irg'itdim. Hammaning nafasi og'ziga tiqilib qoldi, qo'rquv bosgan ko'zlar goh to'pponchaga, goh chirpirak bo'lib tushayotgan qartaga javdirab qarardi. Qarta endi stolga kelib tushishi bilan Vulich tepkini bosdi... to'pponcha otilmadi!

– Xudoga shukur, – deb qichqirib yubordi odamlar. – O‘qlanmagan ekan.

– Yana bir otib ko‘raylik-chi, – dedi Vulich. Tepkini yana tortib, derazaning tepasida osig‘liq turgan bosh kiyimini nishonga oldi; to‘pponcha otilib, uyning ichi tutunga to‘ldi, tutun tarqalganidan keyin qarasak, o‘q bosh kiyimning qoq o‘rtasidan teshib, devorning ichiga kirib ketibdi.

Hamma uch daqiqagacha toshdek qotib turdi. Vulich indamay mening chervonlarimni yig‘ishtirib hamyoniga soldi.

Nima uchun to‘pponcha avvalgi safar otilmagani ustida gap ketdi, ba‘zilar balki to‘pponchaning ichi kirlanib qolgandir desa, ba‘zilar esa, porox nam tortib qolgan bo‘lsa kerak, keyin otganida Vulich yangi porox soldi, shuning uchun otilmagan bo‘lsa kerak, deb shivirladi. Ammo men keyingi taxminning noto‘g‘ri ekanligini tasdiqladim, chunki men to‘pponchadan ko‘zimni uzmay qarab turgandim.

– Qimorda baxtli ekansiz! – dedim men Vulichga qarab.

– Umrimda birinchi marta omad kelishi, – dedi Vulich o‘zidan mamnun holda kulib. – Bankdan ham, shtoss‘dan ham shunisi yaxshi ekan.

– Shundayku-ya, ammo bu xatarli-da...

– Xo‘sh, endi taqdirga ishonasizmi?

– Ishonaman, ammo bir narsaga tushunolmay turibman: nima uchundir, bugun, albatta, o‘lasiz deb o‘ylagandim.

Boyagina peshanasiga xotirjamlik bilan to‘pponcha tirab turgan odam, endi birdan qizarib xijolat tortdi.

– Bo‘ldi, tamom qilaylik, – dedi Vulich o‘rnidan turib. – Bahsimiz tugadi, endi har qanday mulohaza ortiqcha deb o‘ylayman.

Bosh kiyimini olib chiqib ketdi. Bu menga g‘alatiroq tuyuldi, ammo bu bejiz emas ekan.

Birozdan keyin hammamiz Vulichning qiziq qiliqlari haqida suhbatlashib, uy-uyimizga tarqaldik. Hamma bir og‘izdan menga: «O‘zini o‘zi otib o‘ldirmoqchi bo‘lgan odam bilan garov boylashdingiz, xudbin ekansiz», deyishdi, go‘yo men bo‘lmaganimda, Vulich qulay payt topolmaydigandek!

¹ *Shtoss* – qarta o‘yinining bir turi.

Qishloqning xilvat ko'chalaridan uyimga qaytib borardim. Uylarning kungurasimon tomlari orqasidan xuddi yong'in alangasidek qip-qizil to'lin oy ko'rinardi, qop-qora osmonda yulduzlar charaqlar, bir zamonlar odamlarning bir qarich yer yoki allaqanday qalbaki huquqlari uchun olib borgan arzimasi bahslariga osmon sayyorolari ham ishtirok etadi deguvchi bilimdonlar xayolimga kelib, kulgim qistadi. Negaki, o'sha donishmandlar faqat insonlarning janglari va tantanalarini yoritish uchun yoqilgan deb o'ylagan osmon mash'alalari, hozir ham avvalgidek charaqlab yonardi, ularning ehtiros va tilaklari esa, biron o'tkinchi tomonidan o'rmon yoqasiga yoqilgan gulxan kabi o'zlari bilan birga so'ngan. Ammo osmondagi yulduzlarning xayrixohlik bilan boqib turishining o'ziyoq ularga qancha kuch, iroda va ishonch bag'ishlagan! Ularning nochor avlodlari bo'lgan bizlar esa yer yuzida e'tiqodsiz va g'urursiz, zavq va qo'rquvsiz kezib yuramiz, o'lim muhaqqaq ekani yodimizga tushganida, yuragimizni beixtiyor ezuvchi qo'rquvdan boshqa na insoniyatning farovonligi uchun va na baxtimizni qurbon berishga qodir emasmiz, chunki dunyoda baxt yo'qligini bilamiz, ota-bobolarimiz bir xatodan qutulib, ikkinchisiga tutilganlari kabi, biz ham bir shubhadan qutulib, boshqa shubhaga tutilamiz, ota-bobolarimiz singari bironta orzu-umidimiz ham yo'q, hatto odamlar yo bo'lmasa taqdir bilan bo'lgan kurashda qalb erishadigan kuchli, ammo noma'lum zavqqa ham ega bo'la olmaymiz...

Miyamga bundan boshqa yana birtalay xayollar keldi, men ularga qarshilik qildim, chunki mavhum fikrlar ustida bosh qotirishni yomon ko'raman, bundan ne foyda? Men yoshligimda xayolparast edim, besaranjom va sira to'ymaydigan xayollarim yaratgan goh mudhish, goh yorqin obrazlarni ardoqlardim, suyar edim. Ammo bundan menga nima qoldi? Xuddi kechasi arvohlar bilan olishgandan keyin his etiladigan horg'inlik, afsus-nadomatlar bilan to'la xotiralargina qoldi, xolos. Bu behuda kurashda butun qalbim o'tini va haqiqiy hayot uchun lozim bo'lgan irodam kuchini sarfladim, bu hayotga fikran hamma narsani boshimdan kechiribgina qadam

qo'ydim, shundan so'ng men xuddi bemaza taqlid qilingan kitobni o'qib zerikkan kishidek zerikib, behuzur bo'ldim.

Bu kecha yuz bergan voqea menga qattiq ta'sir qildi, asablarimni qo'zg'atib yubordi. Taqdir deganiga hozir ishonamanmi, yo'qmi, buni aniq aytolmayman, ammo shu kecha qattiq ishongandim, dadillik g'oyatda zo'r edi, shuning uchun men o'z ota-bobolarimiz va ularga xizmat qilib kelgan vafodor astrologiyani masxara qilib kelgan bo'lsam-da, beixtiyor ularning yo'liga tushdim, ammo bu xavf-xatarli yo'ldan vaqt g'animatda o'zimni to'xtatib qoldim va hech narsaga ko'r-ko'rona ishonmaydigan qoidaga amal qilishim uchun metafizikani bir chetga yig'ishtirib qo'ydim-da, oyog'imning tagiga qarab yurdim. Bunday ehtiyotkorlik juda o'rinli chiqdi, yo'g'on va yumshoq, aftidan, jonsiz yotgan bir narsaga qoqilib ketib, yiqilishimga sal qoldi. Oy yo'lni sutdek yoritib turardi; nima ekan deb engashib qarasam qilich bilan ikkiga bo'lib tashlangan cho'chqa ekan... Hali boshimni ko'targanim ham yo'q ediki, birdan dukur-dukur tovush eshitildi, tor ko'chadan ikki kazak yugurib chiqib kelishmoqda edi. Ulardan biri yonimga keldi-da, cho'chqa quvib yurgan mast kazakni ko'rmadingizmi, deb so'radi. Men ko'rmadim dedim-da, mastning bema'ni mardligi qurboni bo'lmish bechora cho'chqani ko'rsatdim.

– Voy kallakesar-ey, – dedi ikkinchi kazak. – Bo'za ichib oldimi, tamom, yo'lida nima uchrasa chopib tashlayveradi. Yur, Yeremeich, uni topib, qo'l-oyog'ini bog'laylik, bo'lmasa...

Ular ketishdi, men ham nihoyatda ehtiyotkorlik bilan o'z yo'limda davom etdim va xonamga eson-omon yetib keldim.

Men bir keksa politsiyachining uyida turardim, uni hurmat qilardim, chunki u juda mehribon odam edi, ammo undan ham Nastya degan dilrabo qizini yaxshi ko'rardim.

Odatdagidek, Nastya po'stinga o'ralib, meni darvoza oldida kutib o'tirgan ekan, sovuqdan ko'karib ketgan lablarini oy yoritib turardi. Meni ko'rib jilmaydi, biroq bugun u ko'nglimga sig'masdi. «Yaxshi qol, Nastya!» – dedim men

yonidan o'tib ketayotib. U menga bir nima demoqchi bo'ldi-yu, ammo indamadi, faqat xo'rsinib qo'ya qoldi.

Uyimga kirib, eshikni ichkaridan berkitdim-da, sham yoqib, o'zimni o'ringa tashladim, ammo bu safar uyqu hadeb kelavermadi. Osmonning sharq tomoni qizara boshlaganida ko'zim uyquga ketibdi, biroq bugun uyquga to'ymaslik peshanamga bitilgan ekan. Sahar soat to'rtlarda ikki musht derazamni taraq'lata boshladi. Irg'ib o'rnimdan turdim: «Nima gap», deb so'radim. «Tur, tezroq kiyin!» – deb qichqirishdi bir necha kishi. Tapir-tupur kiyinib, tashqariga chiqdim. «Yuz bergan hodisadan xabaring bormi?» – dedi meni izlab kelgan uch ofitser baravariga. Ularning yuzi dokadek oqarib ketgandi.

– Nima bo'ldi?

– Vulichni o'ldirib ketishibdi.

Men toshdek qotib qoldim.

– Ha, rost! – deb davom etdi ular. – Yur tezroq.

– Qayoqqa?

– Yo'lda bilib olasan.

Yo'lga chiqdik. Ular bo'lib o'tgan voqeaga Vulichning o'limidan yarim soatgina avval taqdir uni bir o'limdan saqlab qolgani haqida o'z mulohazalarini qo'shib gapirib berdilar. Vulich qorong'i ko'chadan yolg'iz o'zi ketayotgan ekan, birdan cho'chqani chopib tashlagan mast kazakka duch kelibdi-da, to'xtab: «Kimni izlab yuribsan, og'ayni?» – deb so'rabdi. Shunday demaganda-ku, balki kazak o'z yo'lida ketaverishi mumkin ekan, biroq kazak to'xtabdi-da: «Seni!» debdi-yu, qilich solib, yelkasidan to yuragigacha bo'lib tashlabdi. Shu yerda menga yo'liqqan va qotilning ortidan quvgan ikki kazak kelib qolib, yaradorni yerdan ko'tarishibdi, u jon beray deb turgan ekan, faqat «U haq!» degan ikki og'iz so'zni aytibdi-yu, o'libdi. Bu so'zlarning sirli ma'nosini yolg'iz men bilardim, u so'zlarni menga qaratib aytgan edi; u bechoraga qismating shunaqa bo'ladi, deb bexosdan aytgan edim. His-tuyg'ularim meni aldamadi, uning o'zgarib ketgan yuzidan ajali yetganini aniq ko'rgandim.

Qotil qishloqning chekkasidagi bir bo'sh uyga kirib berkinib olgan ekan, biz o'sha yerga qarab yugurdik. Birtalay xotin-xalaj ham yig'lab-siqtab o'sha tomonga qarab yugurardi. Ba'zan kech qolgan kazaklar uylaridan yugurib chiqar, yo'l-yo'lakay xanjarlarini taqib, yugurgan holda oldimizdan o'tib ketishardi. Dahshatli g'ala-g'ovur ko'tarildi.

Nihoyat, manzilga yetib bordik, qarasak, uyning oldida bir qancha odam to'planib turibdi, uyning eshik va derazalari ichidan berk. Ofitserlar va kazaklar o'zaro qizg'in bahslashib turishardi, ayollar qiy-chuv qilib yig'lashardi. Ularning orasida ko'zlari telba odamning ko'ziga o'xshash bir kampir diqqatimni jalb etdi. Kampir xoda ustida tirsagini tizzasiga tirab, qo'llari bilan boshini ushlab o'tirardi, u qotilning onasi ekan. Lablari bir nimalar deb pichirlardi... uning lablari duo o'qirmidi, yo o'g'liga la'nat?

Biror-bir qarorga kelib, jinoyatchini ushlash kerak edi. Ammo uyga bostirib kirishga hech kimning yuragi dov bermasdi.

Derazaning yoniga borib, tirqishdan qaradim: qotil ranglari oqarib, o'ng qo'lida to'pponcha ushlab yerda yotardi, qonga belangan qilichi ham yonida edi. Ma'nodor ko'zlari atrofga javdirab qarardi, ahyon-ahyonda seskanib tushardi-da, xuddi kechasi bo'lib o'tgan voqeani sal xotirlagandek, boshini ushlardi. Uning bu besaranjom boqishlarida mardlik alomatlarini ko'rmadim va mayorga qarab: «Bekorga eshikni buzdirmayapsiz, kazaklar ichkariga bostirib kirishlari kerak, buni hozir amalga oshirmasangiz, keyin qiyin bo'ladi, chunki u o'ziga keladi», dedim.

Shu paytda eshikning oldiga kekxa bir yasovul keldi-da, qotilning ismini aytib chaqirdi, qotil ovoz berdi.

– Gunoh ishni qilishga qilding, Yefimich uka. Endi taslim bo'l, o'zga ilojing yo'q! – dedi yasovul.

– Yo'q, taslim bo'lmayman! – deb javob berdi kazak.

– Xudodan qo'rq! Axir, sen xristiansan-ku. Ha, mayli endi, gunoh qilibsan, peshanangga yozilganini ko'rasan-da!

– Taslim bo‘lmayman! – deb bo‘kirdi kazak dahshatli bir ovoz bilan va tepkini sharaqlatib tortgani eshitildi.

– Hoy, xola, – dedi yasovul kampirga qarab. – O‘g‘ling bilan gaplashib ko‘r, balki gapingga kirar. Xudoning g‘azabiga uchraydi, axir. Ana, qara, janoblar ham ikki soatdan buyon kutib o‘tirishibdi.

Kampir unga tikilib, bosh chayqadi.

– Vasiliy Petrovich, – dedi yasovul mayorning oldiga ke-lib. – U gapga quloq solmaydi, men uni bilaman, eshikni buzsak ko‘p odamlarni nobud qiladi. Yaxshisi, otib tashlay qolaylik. Darpardaning katta teshigi bor.

Shu topda miyamga g‘alati bir fikr keldi.

Vulich singari men ham o‘z taqdirimni sinab ko‘rmoqchi bo‘ldim.

– Shoshmay turing, – dedim men mayorga. – Men uni tiriklayin ushlayman. – Yasovulga qotilni gapga solib tur deb buyurdim, eshikka uchta kazak qo‘yilsin, men ishora qilishim bilan darpardani buzib, menga yordam berishsin, dedim-da, uyni aylanib, mash‘um derazaning oldiga keldim. Yuragim gup-gup urardi.

– Hoy, imonsiz kofir! – deb baqirardi keksa yasovul. – Bizni kalaka qilyapsanmi? Yo tutib ololmaydi deb o‘ylaysanmi? – Keyin kuchining boricha eshikni qoqa boshladi, men derazaning tirqishidan kazakning qanday harakat qilayotganini kuzatib turardim, u bu tomondan hujum bo‘lishini kutmasdi. Shu tobda birdan derazani urib tushirdim-da, uy ichiga sho‘ng‘ib tushdim. Naq qulog‘imning yonidan vizillab uchib o‘tgan o‘q pogonimni uchirib ketdi. Ammo uyning ichini tutun bosib ketgani uchun dushmanim yonida yotgan qilichini topolmadi. Qo‘lidan mahkam ushlab oldim, kazaklar bostirib kirishdi-da, uch daqiqada jinoyatchining qo‘l-oyog‘ini bog‘lab, olib ketishdi. Xalq tarqaldi, ofitserlar meni tabriklashdi, bu ish haqiqatan ham tabrikka sazovor edi.

Shundan keyin ham inson taqdirga ishonuvchan bo‘l-maydimi? Ammo bir narsaning bo‘lish-bo‘lmasligiga kim muqarrar ishona oladi? Ko‘pincha, yanglish his yoki e‘ti-

qodimizning aldanishini e'tiqod deb qabul qilamiz. Men har narsaga shubha bilan qaraydigan odamman, bu narsa xarakterimning keskinligiga xalal bermaydi, aksincha, meni nima kutayotganini bilmaganimda, hamisha dadilroq olg'a bosaman. Axir, o'limdan battar hech narsa yo'q, o'limdan esa qutulib bo'lmaydi!

Qal'aga qaytib kelgach, boshimdan o'tgan va o'z ko'zim bilan ko'rgan hamma voqealarni Maksim Maksimichga batafsil gapirib berdim-da, taqdir haqida uning fikrini ham bilmoqchi bo'ldim. U avvaliga bu gapning ma'nosiga tushunmadi, ammo qo'limdan kelganicha anglatganimdan so'ng, boshini ma'nodor chayqadi-da, dedi:

– Ha, albatta, bu juda nozik masala! U yog'ini surishtirganingizda, agar Osiyo to'pponchalarining tepkilari moylanmagan bo'lsa yoki qattiqroq bosmasang, ko'pincha, otilmay ham qoladi. Rostini aytsam, cherkaslarning miltig'ini yoqtirmayman, bizlarga negadir yarashmaydi: qo'ndog'i kalta, burningni kuydirib qo'yadi. Ammo, qilichlariga kelganda, qoyil qolishdan o'zga choram yo'q!

So'ngra biroz jim qoldi-da, dedi:

– Bechora, bekorga nobud bo'lib ketibdi-da. Kechasi mast bilan gaplashishga shayton undagan-da! Ha, mayli, peshanasiga bitilgani shu ekan!

Uni ortiq gapga solmadim, u, umuman, metafizik mulohazalarni yomon ko'radi.



MUNDARIJA

She'rlar.....	3
Vatan (<i>Maqsud Shayxzoda tarjimasi</i>).....	4
Maktub (<i>Maqsud Shayxzoda tarjimasi</i>).....	5
Tun (<i>Maqsud Shayxzoda tarjimasi</i>).....	7
Xanjar (<i>Maqsud Shayxzoda tarjimasi</i>).....	8
Yelkan (<i>Sulaymon Rahmon tarjimasi</i>).....	9
Kuz (<i>Sulaymon Rahmon tarjimasi</i>).....	9
... ga (<i>Sulaymon Rahmon tarjimasi</i>).....	10
N.F.I...vaga (<i>Sulaymon Rahmon tarjimasi</i>).....	10
1831-yil, yanvar (<i>Sulaymon Rahmon tarjimasi</i>).....	11
Erk (<i>Sulaymon Rahmon tarjimasi</i>).....	12
Jang (<i>Sulaymon Rahmon tarjimasi</i>).....	13
Kelishuv (<i>Sulaymon Rahmon tarjimasi</i>).....	17
Borodino (<i>G'afur G'ulom tarjimasi</i>).....	18
Shoirning o'limi (<i>Mirtemir tarjimasi</i>).....	21
Barg (<i>Mirtemir tarjimasi</i>).....	23
Monolog (<i>Ramz Bobojon tarjimasi</i>).....	24
...ga (<i>Ramz Bobojon tarjimasi</i>).....	25
O'lim (<i>Ramz Bobojon tarjimasi</i>).....	25
To'liqlar va odamlar (<i>Ramz Bobojon tarjimasi</i>).....	26
Stanslar (<i>Ramz Bobojon tarjimasi</i>).....	26
Qora ko'zlar (<i>Ramz Bobojon tarjimasi</i>).....	28
O'git (<i>Sa'dulla Hakim tarjimasi</i>).....	28
Vasiyat (<i>Sa'dulla Hakim tarjimasi</i>).....	29
Portretga (<i>Sa'dulla Hakim tarjimasi</i>).....	30
A.O.Smirnovaga (<i>Sa'dulla Hakim tarjimasi</i>).....	31
Ahdnoma (<i>Sa'dulla Hakim tarjimasi</i>).....	31
Demon (Iblis) (<i>Usmon Nosir tarjimasi</i>).....	32
D...ga stanslar (<i>Mamarasul Boboyev tarjimasi</i>).....	70
Oshiq G'arib. Turk ertagi. (<i>Uchqun Rahmon tarjimasi</i>).....	73
Vadim. Qissa. (<i>Hamid G'ulom tarjimasi</i>).....	83
Zamonamiz qahramoni. Roman. (<i>Odil Rahimiy tarjimasi</i>).....	219

Rus adabiyoti durdonalari

Adabiy-badiiy nashr

MIXAIL YURYEVICh LERMONTov

QORA KO'ZLAR

She'rlar, ertak, qissa, roman

Nashr uchun mas'ul *M. Bo'ronov*

To'plab, nashrga tayyorlovchi *L. Igamova*

Muharrir	<i>L. Igamova</i>
Rassom-dizayner	<i>B. Zufarov</i>
Texnik muharrir	<i>T. Xaritonova</i>
Kichik muharrir	<i>M. Salimova</i>
Musahhah	<i>S. Salohutdinova</i>
Kompyuterda tayyorlovchi	<i>N. Ahmedova</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 158. 14.08.2009.
Bosishga 2019-yil 20-dekabrda ruxsat etildi.
Bichimi 60x90¹/₁₆. Ofset qog'ozi. «Vitec Peterburg»
garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 24,50. Nashr tabog'i 20,96.
Adadi 10000 nusxa. Buyurtma № 19-715.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligining «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.
e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz
www.iptd-uzbekistan.uz

Lermontov, Mixail Yuryevich.

L 44 **Qora ko'zlar** [Matn]: she'rlar, qissa... / M.Y. Lermontov. – Tarj. M.Shayxzoda va boshq. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2019. – 392 b.

ISBN 978-9943-25-916-4

UO'K 821.161.1-3
KBK 84(2Ros-Rus)



M.Y. Lermontov

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-25-916-4



9 789943 259164